

BANK ISHI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BANK ISHI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan «Bank ishi» yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan
talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

UO'K: 336.71(075)

KBK 65.262.1ya722

A-37 5231

A-37 Bank ishi. Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 640 bet.

ISBN 978–9943–11–352–7

Darslik, ushbu fan bo'yicha tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq va mos ravishda birinchi bor o'zbek tilida sodda va ravon tilda tayyorlangan. Darslikni tayyorlashda mualliflar tomondan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bankning respublikamiz tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish, tartibga solish va tugatish masalalariga doir yo'riqnomalaridan to'liq foydalanilgan.

Shu bilan birga bank faoliyati bo'yicha xorij tajribasi hamda xalqaro bank faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarning talablari to'liq aks ettirilgan.

Darslik «Bank ishi» yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlarni tayyorlashga mo'ljallangan bo'lib, undan bank xodimlari va bank ishiga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

UO'K: 336.71(075)

KBK 65.262.1ya722

Professor T.Karaliyevning umumiy tahriri ostida.

Mualliflar:

*U.Azizov, T. Karaliyev, T.Bobakulov, Sh.Abdullayeva, Z.Xolmaxmadov,
O.Ortiqov, D.Saidov, U.Ortiqov, O.Sattarov,
I.Qulliyev, I.Raxmanov, A. Ismoilov.*

Taqrizchilar:

A.Omonov – i.f.d., professor;

R.Tojiyev – i.f.n., dotsent.

ISBN 978–9943–11–352–7

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi davrida banklarning serqirra faoliyatini tashkil etish va o'rganish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklar iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lib, ularsiz ishlab chiqarish, ayriboshlash hamda o'zaro hisob-kitoblarni tasavvur etish qiyindir. Fan, texnika, texnologiyalar taraqqiyoti va ularni ishlab chiqarishga joriy etish masalalarida ham banklarning roli buyukdir.


O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda samarali bank tizimi va uning faoliyatini rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Dastavval bank tizimi faoliyatining jahon andozalariga mos keladigan huquqiy poydevori yaratildi, keyinchalik izchillik bilan uni rivojlantirish chora-tadirlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklari xalqaro bank nazorati talablariga to'liq javob bera oladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega. Qo'lingizdagi mazkur darslikda tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosiy jihatlar aks ettirilgan.

Darslikda bank faoliyatining ayrim yo'nalishlari aks ettirilmadi, chunki ular «Bank ishi» yo'nalishi bo'yicha ta'lim standartlari va o'quv rejasida mustaqil fan sifatida o'rganiladi. Masalan, «Banklarda buxgalteriya hisobi», «Bank auditi», «Bank menejmenti va marketingi», «Banklarda pul muomalasi va kassa faoliyatini tashkil etish», «Tijorat banklari faoliyati tahlili», «Bank hisobotlari» kabilar mustaqil fan sifatida o'rganiladi.

Markaziy bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalar maxsus «Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish» va «Monetar siyosat» kabi mustaqil fanlarda o'rganiladi.

Darslikni tayyorlashda bank tizimi va bank faoliyatiga tegishli O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari va respublikamiz tijorat banklarining ichki siyosatlari bilan bog'liq bo'lgan hujjatlardan foydalanildi.



Darslikda asosan tijorat banklarining passiv, aktiv, valyuta va qimmatli qog'ozlar bilan bajariladigan operatsiyalar, ularning daromadlari, xarajatlari hamda likvidligi masalalari to'liq yoritildi.

Mualliflar tomonidan banklarning klassik faoliyati hisoblangan kredit munosabatlarini keng ma'noda yoritishga alohida e'tibor qaratildi.

Banklar asosan chetdan jalb etilgan mablag'lar hisobiga faoliyat yuritishlarini inobatga olgan holda darslikda bank ishi bilan bog'liq bo'lgan risklarni o'rganish va ularni minimallashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Darslikni tayyorlashda U.O'.Azizov - Kirish, 3 bob, prof.T Karaliev - 1,2,10 va 23 boblar, i.f.d., prof.T.I.Bobakulov - 6,7 va 13 boblar, i.f.d., prof.Sh.Z.Abdullaeva - 22 bob, dots.Z.A.Xolmaxmadov - 16 va 17 boblar, dots. O.A. Ortiqov - 18 bob, dots.D.A.Saidov - 8,9 va 12 boblar, dots.U.D.Ortiqov - 4 bob, dots. O.B.Sattarov - 21 bob, dots.I. Ya.Kulliyev - 5,11 va 20 boblar, dots.I.X.Raxmanov - 14 va 15 boblar, o'q. A.A. Ismoilov 19 bob qatnashdilar.

Darslik to'g'risidagi fikr va mulohazalaringizni Toshkent moliya instituti «Bank ishi» va «Bank hisobi va audit» kafedralariga bildirishingiz mumkin.

I BOB. «BANK ISHI» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. «Bank ishi» fanining predmeti va metodlari

Bank ishi fani banklar va ular faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi. Bunda dastavval mamlakatdagi bank tizimi va ularni tashkil etishning huquqiy asoslari, banklar faoliyati ko'lami va ularni tashkil etish masalalari hamda bank bilan boshqa korxonalar, tashkilot, muassasalar va aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni kompleks ravishda o'rganiladi.

Banklar o'z faoliyatlari davomida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha ish yurituvchi korxonalar, tashkilot, muassasalar, aholi, boshqa banklar va davlat bilan iqtisodiy munosabatda bo'ladi. Ularning ushbu munosabatlari ish yurituvchilarga hisob-raqamlar ochish, ularga kassa, o'zaro hisob-kitoblarda vositachilik, vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar hisobidan kreditlar ajratish kabi masalalarda namoyon bo'ladi.

Banklar aholining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini turli shakldagi depozitlarga jalb etib dastavval real daromad keltiruvchi jamg'armalarga, keyinchalik esa ularni moddiy ne'matlar yaratuvchi tarmoqlarga kredit sifatida ajratib qo'shimcha qiymat yaratuvchi qiymatga ya'ni, kapitalga aylantiradi. Bundan tashqari banklar aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida ularga iste'mol va ipoteka kreditlarini ajratadi.

Banklar davlatning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini saqlaydi, davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlaydi va zarur hollarda davlatga kredit ajratadi.

Yuqorida qisqa ravishda aks ettirilgan iqtisodiy munosabatlarni mohiyati va ularni amalga oshirish tartib-qoidalari «Bank ishi» fanining keng ma'nodagi predmetini tashkil etadi.

Banklarni tashkil etish, ularning faoliyati va tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar fanning obyekti hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgani kabi, bu fanda faqat tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlar uzluksiz shaklda o'rganiladi. Markaziy bank va nobank kredit tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq ayrim iqtisodiy jarayonlar boshqa alohida fanlarda o'rganiladi.

Fanni o'rganish metodlari uning maqsad va vazifalari bilan chambarchas ravishda bog'liqdir.

«Bank ishi» fanining maqsadi zamon talablari va jahon andozalariga to'liq javob bera oladigan oliy ma'lumotga ega bo'lgan bank xodimlarini tayyorlashdan iboratdir. Bu esa, davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tayyorlangan va jahon standartlariga hamda zamon talablariga mos keladigan fan dasturini to'liq o'rganishni talab etadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fanni o'rganish vazifalari mavjud bo'lib, ular tijorat banklarining klassik va zamonaviy operatsiyalari bilan chambarchas ravishda bog'liqdir. Qo'yilgan vazifalarga to'liq erishish uchun har bir vazifaga mos ravishda uni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

«Bank ishi» fanini o'rganish metodlari

1-jadval

T/r	O'rganish metodlari	Mazmuni
1.	Tizimli yondashuv	- bank tizimi yaxlit tarzda olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin: - tizimli-kompleks yondashuv - tizimli-funksional yondashuv - tizimli-tarkibiy yondashuv - tizimli-kommunikatsion yondashuv.
2.	Kompleksli yondashuv	- bank tizimi boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'lanishda va aloqadorlikda qaraladi.
3.	Tarkibiy yondashuv	- bank tizimi tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi.
4.	Vaziyatli yondashuv	- bank tizimining muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab tegishli ma'qul usul qo'llaniladi.
5.	Integratsion yondashuv	- bank tizimi yuqoridagi usullar (vaziyatli, kompleksli, tarkibiy yondashuvlar)ni birgalikda qo'llash yordamida tahlil qilinadi.
6.	Modellashtirish usuli	- bank tizimini tahlil qilish uchun turli chizmalar, modellar, xomaki materiallar tayyorlanadi.
7.	Iqtisodiy matematik yondashuv	- maqbul qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar keng qo'llaniladi.
8.	Kuzatish usuli	- bank tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'planiladi.

9.	Tajriba usuli	- tahlil jarayonida bank tizimiga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullar qo'llaniladi.
10.	Sotsiologik kuzatuv usuli	- turli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillar o'tkaziladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fanni o'rganish metodlari qo'yilgan vazifalarga bog'liqdir. O'rganish obyekti ya'ni, bank operatsiyalarining turlari, o'rganish ko'lami va maqsadlari inobatga olingan holda turli metodlardan foydalaniladi. Asosiy o'rin tizimli yondashuvga ajratiladi. Bunda bank operatsiyalari kompleks holda, bir-birlari bilan tizimli bog'liqlikda o'rganiladi. Bankning har bir operatsiyasini alohida o'rganish uchun tarkibiy yondashuv metodidan foydalaniladi.

1.2. Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi

«Bank ishi» fani ushbu yo'nalish bo'yicha bakalavr kadrlarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan barcha fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi.

Fanning nazariy asosini «Iqtisodiyot nazariyasi» va «Pul, kredit va banklar» fanlari tashkil etadi. Tijorat banklari tomonidan pul muomalasiga taalluqli operatsiyalarning nazariy jihatlari «Pul, kredit va banklar» fanida o'rganiladi. Shu bilan birga «Pul, kredit va banklar» fanida tijorat banklari passiv operatsiyalari, ya'ni bank kreditlari va omonatlari hamda o'z mablag'lari tushunchasi va tarkibi o'rganiladi. Shu bilan birga tijorat banklari aktivlari tarkibi, tasniflanishi, kreditning mohiyati, funksiyalari, turlari va iqtisodiyotdagi roli to'liq ko'rib chiqiladi. «Bank ishi» fanida esa, yuqorida qayd operatsiyalarning amaldagi qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Pul muomalasini tashkil etish, kredit, lizing, faktoring operatsiyalarini bajarish tartiblari to'liq ko'rib o'tiladi.

Demak, «Bank ishi» fani birinchi navbatda «Pul, kredit va banklar» fani bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, uning amaliy qismi hisoblanadi.

«Bank ishi» fani «Banklarda buxgalteriya hisobi» fani bilan ham o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. «Bank ishi» fanida bank operatsiyalarini amalga oshirish tartibi o'rganilsa, «Banklarda buxgalteriya hisobi» fanida esa amalga oshirilgan bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirilishi o'rganiladi.

Albatta «Bank ishi» fani «Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish» fani bilan ham o'zaro bog'liklikda o'rganiladi. Chunki «Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish» fanida Markaziy bank operatsiyalari, asosan pul muomalasini tartibga solish maqsadida amalga oshiradigan siyosatlari bilan birga, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan kassa operatsiyalari o'rganiladi.

Tijorat banklarining pul muomalasi, kassa operatsiyalari hamda naqd pullarni inkassatsiyalash, sanash, saqlash tartiblarini to'liq o'rganmagan bank xodimi to'laqonli mutaxassis bo'la olmaydi. Shuning uchun ham «Bank ishi» fani «Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish» va «Monetar siyosat» kabi fanlar bilan uzviy ravishda bog'liklikda o'rganiladi.

«Bank ishi» fani yana «Bank auditi», «Tijorat banklari faoliyati tahlili», «Bank menejmenti va marketingi», «Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari», «Bank statistikasi» va «Axborot texnologiyalari» kabi fanlar bilan bog'liklikda o'rganiladi.

«Bank ishi» fanini bilmasdan turib bank ichki auditi guruhi mutaxassisi bo'la olmaydi. Bank Boshqaruvi Qarorlari, bankning strategiyasi asosan ichki audit xulosalariga chambarchas ravishda bog'liqdir. Auditor «Bank ishi» fani bilan qatorda «Banklarda buxgalteriya hisobi» fanini ham bilishi shartdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech bir tarmoqni tahlilsiz tasavvur etish mumkin bo'lmagan kabi tijorat banklari faoliyatining taraqqiyotini ham «Tijorat banklari faoliyati tahlili»siz tasavvur etish qiyindir. Chunki, tijorat banklari passivlari tarkibi va dinamikasi, aktivlari tarkibi va dinamikasi, daromad va xarajatlar tahlilisiz to'g'ri qaror qabul qilish, mo'tadil strategiyani begilash masalalari muammoli kechadi.

Shuningdek, «Bank ishi» fani «Bank menejmenti va marketingi» fani bilan ham o'zaro bog'liklikda o'rganiladi. Bankni boshqarish shakllari va usullari hamda bank xizmatlari marketingi bank faoliyatining tarkibli qismi hisoblanadi.

Hozirgi globallashtirish davrida xalqaro valyuta-kredit munosabatlari tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismi va daromad manbalaridan biriga aylandi.

Shuning uchun ham «Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari» fani ham «Bank ishi» fanining ajralmas qismi hisoblanadi.

XXI asr iqtisodiyotini «Axborot texnologiyalari»siz tasavvur etish qiyin masaladir.

Tijorat banklarining barcha operatsiyalari, hisobi va hisobotlarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin masaladir.

Hozirgi zamon banklari faoliyati va mijozlar bilan bajaradigan amaliyotlari turli dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, «Bank ishi» fani alohida fani bo'lishiga qaramasdan uning serqirra faoliyatining ayrim jihatlarini to'liq aks ettiruvchi nazariy va amaliy fanlar bilan o'zaro uzviy ravishda bog'liqdir.

1.3. Fanning tarkibiy tuzilishi

«Bank ishi» fani tarkibi tijorat banklari klassik va zamonaviy faoliyat turlari bilan bog'liq ravishda tashkil topgan.

Dastavval fanning predmeti, metodi, maqsad va vazifalari ko'rib chiqilgandan keyin, tijorat banklarini tashkil etish va faoliyat yuritishlarining huquqiy asoslari o'rganiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, Markaziy bank, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari bayon etiladi.

Tijorat banklari faoliyati uchun litsenziyalar ajratish tartibi, ular faoliyatini tugatish va vasiylar tayinlash tartibi bilan birga tijorat banklari tarkibiy tuzilmalari o'rganiladi.

Darslik tarkibining asosiy qismi tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq masalalarga qaratilgan.

Bunda asosiy e'tibor tijorat banklarining klassik funktsiyalariga qaratilgan.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari funktsiyalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda passiv, aktiv va vositachilik operatsiyalariga bo'lingan. Ularning passiv operatsiyalari muomaladagi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalardan tashkil topadi. Ular bank mablag'larining manbalaridan iboratdir.

Aktiv operatsiyalar esa, ushbu yig'ilgan mablag'larni xavfsiz bank faoliyatini tashkil etish va daromad olish maqsadida joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalar majmuasidan iboratdir.

Vositachilik operatsiyalari tijorat banklari tomonidan ular talablariga asosan vositachi sifatida, ma'lum bir to'lov evaziga amalga oshiradigan operatsiyalardir. Ularning eng ko'p tarqalgani naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi vositachiligidan iboratdir.

Darslikda banklarning passiv operatsiyalari ularning manbalari hisobga olingan holda chetdan jalb etilgan va o'z mablag'lariga ajratilgan holda o'rganiladi. Bunda bank passivlari tarkibi, samaradorligi va optimal ravishda boshqarish masalalari o'rganiladi.

Bu yerda Markaziy bankning bank kapitalining tarkibi va etarililigiga qo'yiladigan talablar va ularni hisoblash tartiblariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Darslikning asosiy qismi tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini o'rganishga bag'ishlanadi. Bunda banklarning aktiv operatsiyalari tarkibi va ularni boshqarish, qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan va valyuta operatsiyalari alohida o'z aksini topgan.

Banklarning kredit operatsiyalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Mijozning kreditga layoqatlilik darajasini o'rganish tartibidan boshlab, kredit va foiz to'lovlarning to'liq so'ndirilishini ta'minlashga bo'lgan kredit monitoringi jarayonlari to'liq yoritilgan. Kredit ta'minotlari va ularni qabul qilish jarayonlari, foizlarning mohiyati va hisoblash tartiblari to'liq aks ettirilgan.

Darslikda alohida kredit turlari, kontokorrent, overdraft, lombard kreditlarini ajratish va monitoringi usullari alohida aks ettirilgan. Shu bilan birga kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlash masalalari hamda imtiyozli kreditlar ajratish tartiblarini yoritishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tijorat banklarining yangi xizmat turlari va balansdan tashqari operatsiyalarini o'rganishga ham maxsus yondashilgan.

Tijorat banklarining faktoring, lizing operatsiyalari va ularning daromadlari, xarajatlari hamda faoliyat rentabelligi darajasini o'rganish ham darslikda o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xavfsiz bank faoliyatini yuritishning asosi bo'lib bank likvidliligini va risklarini boshqarish hisoblanadi. Markaziy bankning bank likvidliligiga qo'yigan talablari va ularni bajarish, likvidlilik ham risklarni boshqarish masalalari darslikda to'liq o'z aksini topgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, darslikda yoritilgan masalalar bo'yicha xorij tajribasini o'rganish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Tayanch so'z va iboralar

Bank, balans, bank mahsuloti, vazifa, pul, pul aylanmasi, kredit, kredit munosabati, predmet, maqsad.

Takrorlash uchun savollar

1. «Bank ishi» fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. «Bank ishi» fani nimani o'rganadi?
3. Fanni o'qitishda qanday usullardan foydalaniladi?

4. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning qaysi turlari «Bank ishi» fanini o'qitishda qo'llaniladi?

5. «Bank ishi» fan sifatida qachon shakllangan?

6. Bankning mohiyati xususida fanda qanday ilmiy qarashlar mavjud?

7. «Bank ishi» fanini o'qitishga qo'yiladigan talablarning kuchayishi qaysi sabablar bilan izohlanadi?

8. «Bank ishi» fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqadorlikda?

9. «Bank ishi» fani qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI VA BOSHQA KREDIT TASHKILOTLARI

2.1. Banklar va bank tizimi

«Pul, kredit va banklar» fanidan bizga ma'lumki, «bank» so'zi italyanча «banco» so'zidan olingan bo'lib, «stol» ma'nosini bildiradi.

Qadimda dastlabki pul almashtiruvchilar, keyinchalik esa pulni saqlash uchun qabul qiluvchilar hamda o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiruvchilar yumaloq stol atrofida o'tirib faoliyat yuritishgan.

O'rta asrlarda yirik savdogarlardan ba'zilar pul almashtirish bilan shug'ullana boshladi. Chunki ularda turli mamlakatlarning pul birliklari (asosan qimmatbaho metallar) to'planib qolgan edi. Turli mamlakatlar pul birliklarini albatta komission to'lovlar evaziga almashtirish bilan shug'ullana boshlashgan. Keyinchalik ular faoliyati biroz kengayib, vaqtincha pul mablag'lariga muhtoj bo'lgan shaxslarga asosan iste'molni qondirish maqsadida kredit berish bilan ham shug'ullanishgan. Bu esa, pul almashtiruvchilarning bank faoliyati bilan shug'ullana boshlaganlarini va yirik pul almashtiruvchilarning bankirlarga aylanganligini bildiradi.

Dastlabki jirobank nomi bilan nomlangan va deyarli to'laqonli bank faoliyati bilan shug'ullanuvchi banklar XVI-XVII asrlarda Evropaning yirik shaharlarida paydo bo'ldi. 1587-yil Florensiya va Venetsiyada, keyinchalik 1605-yil Amstyerdam va 1618-yil Gamburg, Milan va Genuyada jirobanklar yirik savdogarlar tomonidan tashkil etilgan. Bu banklar dastavval ularni tashkil etgan va doimiy ravishda bir-birlari bilan iqtisodiy jihatdan aloqador yirik savdogarlarga o'zaro naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishga ixtisoslashgan.

Ushbu jarayonni amalga oshirishda jirobanklar o'zaro qarzdorliklardan voz kechish usulidan keng ravishda foydalanishgan. Ular faqat bankning tashkil etgan yirik savdogarlarga xizmat ko'rsatishgan. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan birga keyinchalik ta'sisчилarga kreditlar ajratish bilan ham shug'ullanishgan.

Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida banklar paydo bo'ldi.

Ayniqsa, kapitalizm davriga kelib sanoat, temir yo'llar qurish va savdoning rivojlanishiga mos keladigan bank xizmatlariga ehtiyoj oshib bordi. Natijada birinchi bo'lib Buyuk Britaniyada 1694-yilda Angliya banki tashkil etildi. Hukumat tomonidan unga bank faoliyatini yuritishga va muomalaga banknotlar chiqarish uchun ruxsat berildi. U aksiyador-emission bank shaklida tashkil topdi. Keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, xususan, sanoatning rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil topa boshladi.

Bank sohasiga tegishli bo'lgan iqtisodiy adabiyotlarda kredit tizimi keng va tor ma'nolarda berilgan. Keng ma'nodagi kredit tizimi tushunchasi kredit ajratish va uning undirilishigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tor ma'nodagi kredit tizimi tushunchasi mamlakatdagi kredit muassasalari yig'indisini o'zida aks ettiradi. Kredit muassasalari deganda esa mamlakatda kredit operatsiyalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar yig'indisi tushuniladi.

Bugungi kunda kredit muassasalari quydagilardan tashkil topadi:

-banklar;

-maxsus moliya-kredit muassasalari (nobank kredit tashkilotlari).

O'z navbatida banklar: Markaziy va tijorat banklaridan iboratdir. Markaziy bank to'g'risida keyingi paragrafda to'liq to'xtalishimiz tufayli biz bu yerda asosan tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlariga batafsilroq to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Tijorat banklarini ularning faoliyat turlari, ko'lami va operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi turlarga bo'linadi:

Tijorat banklarining turlari

2-jadval

No	Turlanish belgilari	Bank turlari
1	Vakolatlariga qarab	-universal banklar -ixtisoslashgan banklar -investitsion banklar
2	Operatsiyalarni bajarish xarakteriga qarab	-tarmoqlar bo'yicha -mijozlar tarkibi bo'yicha -miqdor bo'yicha -regionlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi banklar
3	Mulk shakliga qarab	-Davlat tijorat banklari -aksioner tijorat banklari -xususiy banklar

		-aralash (qo'shma) banklar -chet el banklari vakolatxonalar
4	Faoliyat miqdoriga qarab	-yirik banklar -o'rta banklar -kichik banklar
5	Xizmat qilish sohasiga qarab	-xalqaro banklar -milliy banklar -regionlararo banklar -mahalliy (regional) banklar
6	Shaxobchalari soniga qarab	-shaxobchalari mavjud banklar -shaxobchalari mavjud bo'lmagan banklar

Bank faoliyatiga taalluqli barcha operatsiyalarni bajarish huquqiga ega bo'lgan banklar universal banklar deyiladi. Bank faoliyatining ma'lum bir soxasiga yoki ma'lum bir tarmoqlariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan banklar esa ixtisoslashgan banklar deyiladi. Uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirishga mo'ljallangan banklar investitsion banklar deyiladi. Ular asosan uzoq muddatli qimmatbaxo qog'ozlarni sotish va sotib olish bilan shug'ullanishadi.

Operatsiyalarni bajarish xarakteriga qarab ma'lum bir tarmoqqa, masalan qishlok xo'jaligiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan banklar tarmoq banklari hisoblanadi.

Mulk shakliga qarab, agar bank kapitalining 50 foizidan ko'pi davlat mablag'lari hisobiga tashkil etilgan tijorat banklari Davlat-tijorat banklari deyiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uch davlat tijorat banklari mavjud bo'lib, ular:

- O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki;
- O'zbekiston Respublikasi davlat tijorat Xalq banki;
- «Asaka» davlat-tijorat banki.

Agar kapital to'liq (100 %) davlat mablag'laridan tashkil topgan bo'lsa ular davlat banki hisoblanadi, Masalan, (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki).

Agar bank kapitali jismoniy va yuridik shaxslar mablag'laridan tashkil topgan bo'lsa – bu banklar aksioner tijorat banklari deyiladi. O'zbekiston tijorat banklarining asosiy qismi aksioner tijorat banklari hisoblanadi. Bugungi kunda ularning soni o'n to'rttani tashkil etadi. Ular;

- «Ipoteka bank» aksiyadorlik tijorat banki;
- «O'zbekiston sanoat-qurilish banki» aksiyadorlik tijorat banki;

- «Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki;
- Aksiyadorlik tijorat banki «Qishloq qurilish banki»;
- «Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki;
- «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat banki;
- Aksiyadorlik tijorat «Aloqabank»;
- «Ipak yo'li» aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki;
- «Kapitalbank» aksiyadorlik tijorat banki;
- «Asia Alliance Bank» aksiyadorlik tijorat banki;
- «Invest Finance Bank» aksiyadorlik tijorat banki.

Agar bank kapitalining 50 foizidan ko'p qismi bir jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, bunday banklar xususiy banklar deyiladi.

Bugungi kunda ularga quydagilar kiradi:

- «Trast bank» xususiy aksiyadorlik birja banki;
- «Turkiston» xususiy aksiyadorlik tijorat banki;
- «Davr bank» xususiy aksiyadorlik tijorat banki;
- Xususiy aksiyadorlik tijorat banki «Unversal bank»;
- «Ravnaq bank» xususiy aksiyadorlik tijorat banki;
- «Hi-Tech Bank» xususiy aksiyadorlik tijorat banki;
- «Orient finans» xususiy aksiyadorlik tijorat banki.

Bank kapitalining ma'lum bir qismi chet el kapitali hisobiga tashkil etilgan bo'lsa, bunday aralash (qo'shma) banklar xisoblanadi.

Bugungi kunda ular quydagilardan tashkil topgan:

- Chet el kapitali ishtirokidagi «Savdogar» aksiyadorlik tijorat banki;
- Chet el kapitali ishtirokidagi «HAMKORBANK» aksiyadorlik tijorat banki;

- «KDB Bank O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyati;

- «Uzbekiston-Turkish Bank» aksiyadorlik jamiyati;

- Eron «Soderat» bankining O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahridagi shu'ba banki.

To'lik chet el mablag'lari hisobiga tashkil etilgan va mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan banklar chet el banklari vakolatxonalarini etadi. Masalan,

- «Pokiston Milliy banki»;
- «Kommertsbank AG»;
- «Landesbank Berlin AG»;
- «JP Margan Cheys bank»;
- «Koreya eksport-import banki»;
- «Shixan bank».

O'zbekiston Respublikasida bir nechta Xalqaro banklarning vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyati alohida bo'limda o'z aksini topgan.

2.2. Markaziy bankning tashkiliy shakllari, maqomi va mustaqilligi

Bizga ma'lumki, dastlabki Markaziy banklar eramizning XVII, XVIII asrlarida Evropaning rivojlangan mamlakatlarida tashkil etildi. Markaziy banklarni tashkil etishdan asosiy maqsad muomalaga pul birliklari chiqarilishini markazlashtirish va muomaladagi pul hajmini tartibga solishdan iborat edi. Markaziy bank tashkil etilishiga qadar kapitalizmning dastlabki davrida mamlakatdagi tijorat banklarining barchasi muomalaga o'z banknotalarini chiqarish huquqiga ega edi. Banknota-bu ushbu bankning undagi ko'rsatilgan miqdordagi pulni real, haqiqiy pulga xohlagan paytda almashtirib berishi to'g'risidagi majburiyatidir. Shunday ekan, har bir bank o'zining zaxirasidagi mavjud real, haqiqiy (oltin, kumush) miqdorigacha muomalaga pul belgilari-banknotalar chiqarishi mumkin. Bunda muomalaga chiqarilgan banknotalar banklarning oltin zaxiralari bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim ya'ni muomaladagi banknotalar banklarning zaxiralaridagi haqiqiy, real pullarning muomaladagi «o'rinbosarlari», belgilari hisoblangan.

Lekin XVII va XVIII asrda ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun qo'shimcha pul mablag'lari talab etilgan. Ishlab chiqarish, muomala jarayonlarining rivojlanishi pulga bo'lgan talabning oshishiga olib kelgan. Ushbu talabni qondirish va o'zlari oladigan daromadni ko'paytirish maqsadida tijorat banklari muomalaga o'zlarining oltin zaxiralaridan bir necha barobar ko'p miqdorda banknota chiqarishgan. Natijada muomaladagi banknotalar banklarning oltin zaxiralari bilan to'liq ta'minlanmasdan qolgan va banklar o'zlarining majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini yo'qotgan. Bu esa o'z navbatida tijorat banklariga bo'lgan ishonchning emirilishiga olib kelgan va shu bilan birga pul muomalasining izdan chiqishiga sabab bo'lgan.

Natijada pul muomalasini tartibga solish, muomaladagi pul mas-sasini muvofiqlashtirish zaruriyati vujudga kelgan. Oqibatda muomalaga chiqariladigan pul mablag'larini markazlashtirish, pul muomalasini nazorat qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solish uchun maxsus davlat organi Markaziy bank tashkil etilishiga obyektiv sabablar vujudga kelgan. Dastlabki Markaziy bank 1656-yil Shvetsiyada, 1694-yil Angliyada Angliya banki tashkil etilgan.

Demak, Markaziy bank hukumat tomonidan pul muomalasini barqarorlashtirish, muomaladagi pul massasini tartibga solish va tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Har bir mamlakatning Markaziy banki davlat banki hisoblanadi va uning mavqei, vazifalari harakat doiralari huquqiy asoslari o'sha mamlakatning qonunlari bilan belgilanadi.

Odatda, Markaziy bankning tashkil etish shakllari deganda ularning faoliyat yuritishi uchun lozim bo'lgan ustav kapitalining shakllanish manbalari e'tiborga olinadi.

Markaziy banklar mamlakatda qonunlar asosida davlat tomonidan tashkil etiladi. Lekin uning ustav kapitalining shakllanish manbalari turlicha bo'lishi mumkin.


Ba'zi mamlakatlarda Markaziy bank ustav kapitalining shakllanishi ushbu mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq quyidagicha:

Ba'zi mamlakatlarda Markaziy bank ustav kapitalining shakllanishi¹

3-jadval

№	Mamlakatlar	Markaziy bank ustav kapitali manbalari
1.	Buyuk Britaniya Daniya Gollandiya Rossiya Fransiya Germaniya	100 foiz davlat mulki
2.	Shveytsariya	43 foiz-xususiy shaxslar; 57 foiz-kanton(ma'muriy bo'linmalar) mulki
3	Italiya	100 foiz -- banklar va sug'urta kompaniyalari mulki
4.	AQSh	100 foiz-Federal Rezerv tizimiga a'zo banklarmulki
5.	Yaponiya	55 foiz-Davlat mulki; 45 foiz-xususiy shaxslar mulki
6.	Avstriya	50 foiz-Federatsiya mulki 50 foiz-Yuridik va jismoniy shaxslar mulki

¹ Центральный банк в экономической системе государства. Журнал «Банковские услуги», 1999г., №4, стр 10.



Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rib turibdiki, Markaziy bankning Ustav kapitali to'liq davlat mablag'lari hisobiga, bir qismi (odatda 50 foizdan ortig'i) davlat mablag'lari, qolgan qismi yuridik va jismoniy shaxslar mablag'lari evaziga yoki to'liq a'zo banklar (Federal Rezerv tizimi) mablag'lari va to'liq banklar va sug'urta kompaniyalari mablag'lari hisobiga tashkil etiladi. Markaziy bank ustav kapitalini to'ldirish, oshirish va ularning manbalari har bir mamlakatning qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topadi. E'tirof etilganidek, ustav kapitalini tashkil etish shakllaridan qat'iy nazar, Markaziy bank davlatning pul-kredit sohasidagi siyosatlarini amalga oshiruvchi organidir. Har bir mamlakat qonunchiligida albatta Markaziy bankning ushbu jihati alohida aks ettirilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ustav kapitali miqdori ikki milliard so'mdan iborat. Ustav kapitali miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq oshiriladi.

Markaziy bankning ustav kapitali boshqa shaxslarga berilishi yoki undan zakalad sifatida foydalanishi mumkin emas.¹

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlatning mutloq mulkidir.²

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ustav kapitali to'liq davlat mablag'lari hisobidan tashkil topgan.

Markaziy bankning maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati printsiplari mamlakatning qonunlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi Qonun va boshqa qonunlarda o'z aksini topgan. Ularning eng diqqatga sazovor bo'lgan asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil etadi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs hisoblanadi va u davlatning mutloq mulkidir. Markaziy bank o'zining Nizomiga, hisobraqamiga va mustaqil balansiga egadir. Uning faoliyati harakatdagi qonunlar majmuasidoirasida tashkil etiladi va mustaqil boshqaruv tizimiga ega. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonun bilan uning maqsad va vazifalari, ta'qiqlangan faoliyat turlari, hisobdorligi, mustaqilligi, tashkiliy to'zilishi va tashqi iqtisodiy faoliyati belgilab berilgan. Yuqorida qayd etganimiz kabi,

¹ «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun. Toshkent. 1995-y, 21-dekabr 3-b.

² «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun. Toshkent. 1995-y, 21-dekabr 3-b.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 100 foiz davlat mablag'i hisobiga tashkil etilgan bo'lib, u davlatning pul-kredit sohasini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organi hisoblanadi.

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z sarf-harajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bank yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatidan daromad oladi va ushbu mablag'lar bilan o'z harajatlarini qoplaydi. Daromadlarning harajatlardan oshgan qismi ya'ni Markaziy bankning foydasi boshqaruv belgilagan tartibda taqsimlanadi.

Foydani taqsimlashda ishonchsiz, shubg'ali qarzlari va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash rezervlari va turli ijtimoiy va iqtisodiy fondlar shakllantiriladi va uning qolgan qismi Respublika byudjeti daromadiga yo'naltiriladi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhriga ega.¹

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning barcha muassasalari muhri va ish qog'ozlarida Davlat gerbining aks ettirilishi ham uning davlat organi ekanligidan dalolat beradi.

Markaziy bankning mustaqillik darajasini aniqlash, uning mezonlari, jihatlari masalalariga bag'ishlangan qarashlar iqtisodiy adabiyotlarda etarli darajada o'z aksini topgan.

Markaziy bankning mustaqillik darajasi ko'p jihatdan mamlakatdagi harakatda bo'lgan qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ko'p hollarda, Markaziy bankning mustaqilligini belgilashda subyektiv va obyektiv omillar ta'siri inobatga olinadi. Sub'yektiv omil sifatida Markaziy bank rahbariyati va hukumat xodimlari o'rtasidagi o'zaro rasmiy munosabatlar, markaziy bank rahbariyatining hukumat xodimlari orasidagi norasmiy obro'-e'tibori, ularning mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti jihatlarini belgilashdagi fikr va mulohazalarining hukumat doirasida tan olinishi kabilar inobatga olinadi.

Markaziy bank mustaqilligining obyektiv omillari sifatida asosan quyidagilar tan olinadi:

- Markaziy bank kapitalida davlatning ulushi;
- Markaziy bank vazifalarining qonunchilikda yoritilish darajasi;
- Markaziy bank rahbari (Raisi) va uning o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tartibi va ularning faoliyat ko'rsatish muddatlarining qonun

¹ «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun. Toshkent 1995-y, 21-dekabr. 3-b.

hujjatlarida to'liq, aniq aks ettirilishi hamda ushbularga rioya etish darajasi;

➤ Davlat tomonidan Markaziy bank faoliyatini nazorat qilish shakllari;

➤ Markaziy bank rahbariyati tomonidan qabul qilingan qarorlariga davlat organlarining qonun asosida ta'sir ko'rsatish ko'lamlari va Markaziy bankning pul-kredit siyosatlarini hayotga tadbiiq etishda hukumatning ishtiroki;

➤ Markaziy bank moliyaviy faoliyatida davlatning roli, ya'ni uning daromadlarini tashkil etish, harajatlarini amalga oshirish va foydasini taqsimlashda davlatning ishtiroki;

➤ Mamlakat byudjetini to'g'ri va egri moliyalashtirishda Markaziy bankning ishtirokini belgilovchi jihatlarning qonun hujjatlarida aks ettirilishi.

Biz yuqorida Markaziy bankni tashkil etish masalalariga to'xtalganimizda uning ustav kapitalini tashkil etilishi masalalariga batafsil to'xtalib o'tgan edik. Yana bir bor shuni ta'kidlab o'tishni lozim topdikki, Markaziy bank ustav kapitalining tashkil etilishi manbaalaridan qat'iy nazar, u albatta qonun bilan belgilangan, davlatning pul-kredit sohasidagi siyosatini hayotga tadbiiq etuvchi, mamlakatda pul muomalasini boshqaruvchi, mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlovchi davlat organidir.

Markaziy bankning ustav kapitali hissadorlik asosida tashkil etilgan taqdirda ham, davlat qonunchilik asosida to'g'ridan-to'g'ri yoki egri usullar orqali Markaziy bankning davlat organi ekanligini e'tirof etadi.

Markaziy bank vazifalari va ularning qonun hujjatlarida batafsil yoritilishi masalasi ham uning mustaqilligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Markaziy bankning vazifalari va ularning mohiyati keyingi bo'limlarda batafsilroq yoritiladi. Bu yerda faqat shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda Markaziy bankning aniq vazifalari, faoliyat doirasi hamda asosiy maqsadlari mamlakatning Konstitutsiyasi, Markaziy bank to'g'risidagi Qonuni va boshqa bank faoliyatiga tegishli qonun hujjatlarida o'z aksini topadi. Ushbular Markaziy bank faoliyatining qonuniy asoslari hisoblanadi va u bir tomondan uning qonuniy vakolatlarini belgilab bersa, ikkinchi tomondan faoliyat vakolatlarini aniq belgilab berilgan maqsad va vazifalar doirasida chegaralab qo'yadi.

Markaziy bank mustaqilligining keyingi obyektiv omili bo'lib Markaziy bank rahbari, uning o'rinbosarlarini tayinlash yoki saylash masalalari, ularning faoliyat ko'rsatish muddatlarining qonun hujjatlarida aniq aks ettirilganligi hamda ushbularga rioya etish darajasi hisoblanadi.

Ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida to'liq va aniq o'z aksini topgan. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunga muvofiq Markaziy bank raisini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimotiga ko'ra Oliy Majlis tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Ushbu qonunga muvofiq Markaziy bank Raisining vakolat muddati besh-yil deb belgilangan. Bundan tashqqari qonunning 20-moddasida uning vazifalari ham batafsil ravishda bayon etilgan.¹ Markaziy bank raisining egallab turgan lavozimidan ozod etish masalalari ham qonunda o'z aksini topgan. Ular quyidagilardag iborat:

- Vakolat muddati tugaganida;
- Iste'foga chiqishini so'rab, sabablarini ko'rsatgan holda yozgan shaxsiy arizasiga ko'ra;
- Jinoyat sodir qilishda qonunda belgilangan tartibda aybdor deb topilganda;
- O'zining xizmat vazifalarini salomatligiga ko'ra bajara olmaganida, davlat tibbiy komissiyasining xulosasiga ko'ra;
- Egallab turgan lavozimiga munosib bo'lmagan hattiharakatlar qilganida, shu jumladan, ushbu Qonunni qo'pol ravishda bo'zganida va Markaziy bank manfaatlariga katta zarar etkazganida.²

Yuqorida qayd etilgan qonunning 22-moddasida Markaziy bank Raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari Markaziy bank Raisi taqdimomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

Markaziy bankning Oliy organi sifatida uning Boshqaruvi e'tirof etilgan. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi va bankni boshqaradi. Qonunda Boshqaruvning tarkibi, vakolatlari va majlislari hamda qaror to'g'risida batafsil yoritilgan.

Markaziy bank mustaqilligini belgilovchi obyektiv omillardan yana biri, davlat tomonidan Markaziy bank faoliyatini nazorat qilish shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir.

¹ «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonun, Toshkent 1995-yil, 21-dekabr 9-10 b.

² «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonun, Toshkent 1995-yil, 21-dekabr 10 b.

Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, boshqartirish sharti, ular o'z zimmmalariga bunday majburiyatlarni olmagan bo'lsalar yoki qonunlarda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

Ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga hisob beradi. Hisobot davri 1-yanvardan 31-dekabrgacha qilib belgilangan. Hisobot 15-maydan kechiktirilmasdan Oliy Majlisga taqdim etilishi lozim.

Bundan tashqari, Markaziy bank davlat tashkiloti bo'lishi bilan bir qatorda uning faoliyati-yiliga bir marta mustaqil auditor tashkilotlar tomonidan auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi, O'zbekiston Respublikasi markaziy banki qarorlar qabul qilishda mustaqildir. Harakatdagi qonunlarga muvofiq Markaziy bank tomonidan qabul qilingan qarorlarga davlat organlarining aralashuvi man etilgan.

Markaziy bank o'z faoliyatining bosh maqsada bo'lmish, mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlash maqsadida amalga oshiradigan pul-kredit siyosatini mustaqil ravishda yuritadi. Uning pul-kredit siyosatini hayotga tadbiiq etishda hukumat faol ishtirok etadi.

Markaziy bank mustaqilligini belgilovchi obyektiv omillardan yana biri Markaziy bank moliyaviy faoliyatida davlatning ishtiroki masalasi hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlatning mutloq mulki bo'lishi bilan bir qatorda, u o'z sarf-harajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, mustaqil muassasadir.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida Markaziy bank foydasini aniqlash va uni taqsimlashning asosiy tamoyillari o'z aksini topgan.

Markaziy bankning foydasi har bir moliya-yili uchun:

➤ Ishonchsiz, shubhali qarzlilar va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash rezervlari shakllantirilgandan so'ng;

➤ Umumiy qabul qilingan buxgalterlik amaliyotiga muvofiq amalda barcha daromadlar va chiqimlar hisoblanganidan, shuningdek aktivlar va passivlar baholanganidan so'ng aniqlanadi.

Markaziy bank foydasi Boshqaruv belgilagan tartibda, -yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir paytda tasdiqlanadi.

Boshqaruvning qaroriga muvofiq aniq maqsadni turli rezervlar va fondlar shakllantirilishi mumkin.

Aniq maqsadga yo'naltirilgan rezervlar va fondlar belgilangan tartibda to'ldirilgandan keyin foydaning qolgan qismi Respublika byudjeti daromadiga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlardan ozod qilingan.¹

Yana shuni ta'kidlash lozimki, qonun bilan Markaziy bank uchun ta'qiqlangan faoliyat turlari ham aniqlangan. Unga ko'ra, Markaziy bank:

- Moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishga;
- Tijorat faoliyati bilan shug'ullanishga;
- Banklar va boshqa yuridik shaxslarning kapitallarida qatnashishga haqli emas.

Markaziy bank mustaqilligini ifodalovchi obyektiv ko'rsatkichlardan yana biri mamlakat byudjetini to'g'ri va egri moliyalashtirishga Markaziy bankning ishtirokini belgilovchi jihatlarining qonun hujjatlarida aks ettirilishi masalasidir.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun VII bobida Markaziy bankning hukumat bilan munosabatlari to'liq o'z aksini topgan. U yerda Markaziy bankning hukumat bilan bo'ladigan munosabatlaridagi vazifalari (44-modda), davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida maslahatlar berish (45-modda), depozitariy va kassirning vazifalari (46-modda), fiskal agentning vazifalari (47-modda), hukumatga kredit berish (48-modda) masalalari o'zining qonuniy asosini topgan.

Ushbu qonunga muvofiq Markaziy bank hukumatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan miqdorda kreditlar ajratish huquqiga ega. Odatda Markaziy bank tomonidan hukumatga ajratiladigan Markaziy bank kreditlarining miqdori davlat byudjeti harajatlarining 3 foizidan oshmasligi belgilanadi.

Hukumatga ajratiladigan kreditlar:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari;
- davlat qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari garoviga beriladi.

Ushbu garovlarning qaytarilish muddati bir-yildan oshmasligi lozim, chunki hukumatga Markaziy bank kreditlari odatda 1-yil muddatga ajratiladi.

¹ «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun, Toshkent 1995-y, 6-7 b.

Bundan tashqari, Markaziy bank hukumatga obuna bo'yicha badallar yoki respublikaning u yoki bu xalqaro tashkilotga a'zoligidan kelib chiquvchi boshqa to'lovlar uchun ancha o'zoq muddatli kreditlar berishga haqli.

Qonunga muvofiq, Markaziy bank yuqorida aks ettirilgan hollarda hukumatga moliyaviy yordam berishga haqli emas.

Markaziy bankning hukumat bilan moliyaviy munosabatlarining qonun hujjatlari orqali chegaralanishi, albatta uning monetar siyosatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Markaziy bankning mustaqilligi darajasi, uning hukumat organlaridagi nufu'zi hamda ilmiy asoslangan mustaqil pul-kredit siyosati mamlakat pul birligining barqarorligiga xizmat qiladi. Markaziy bank davlat organi sifatida iqtisodiyotning va butun bank tizimining barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Har qanday tashkilot, korxonalar yoki muassasa kabi markaziy bankning ham aniq maqsadi va vazifalari qonun hujjatlarida o'z aksini topadi.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsad va vazifalari bayon etilgan. Unga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi-milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.¹

Uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

Birinchiidan, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

Ikkinchiidan, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

Uchinchiidan, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarini nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blanklarini nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blanklarini ishlab chiqarishni litsenziyalash;

To'rtinchiidan, O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta rezervlarini, shu jumladan, kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

Beshinchiidan, davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya Vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat.²

¹ «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun, Toshkent 1995-y, 3 bet.

² «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun, Toshkent 1995-y, 3-4 betlar.

Yana bir bor eslatib o'tamiz-ki, Markaziy bankning barcha vazifalari unga yuklatilgan maqsadga to'liq erishish uchun qaratilgan, ya'ni ular ushbu maqsadga, mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlashga erishish uchun xizmat qiladi.

Harakatdagi qonun va qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy-yil boshlanishidan 30 kun oldin kelgusi-yil uchun o'zining pul-kredit va monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va bu haqda Oliy Majlisga axborot beradi.

Bundan tashqari, monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari matbuotda e'lon qilinadi.

Markaziy bankning pul-kredit va monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari iqtisodiy kon'yukturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlari, muomaladagi pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralari, valyuta va foiz siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda hukumat tomonidan keyingi-yil uchun belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi.¹

Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari samarali bo'lishini ta'minlash uchun avvalombor, albatta o'tgan-yillardagi mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunktura har tomonlama chuqur tahlil qilinmog'i zarur. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni ichki mahsulotning tarkibi, o'sish yoki kamayish dinamikasi, ularning sabablari o'rganiladi. Yalpi ichki mahsulotning qishloq xo'jaligidagi, sanoat, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, investitsiya va qurilish sohalaridagi o'zgarishlar va ularning sabablari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan inflyatsiya va narxlarning o'sish darajalari, tendentsiyasi va sabablari to'liq o'rganiladi.

Bizga ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiy globallashtirish sharoitida alohida olingan mamlakat iqtisodiyotini tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarisiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlashda mamlakatning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarining ko'lami, dinamikasi, tashqi savdo aylanmalari, to'lov va hisob-kitob balanslarining holati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, kelgusi-yilga samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirishni belgilab olish uchun, o'tgan-yildagi Markaziy bankning monetar siyosati, uning qaysi instrumentlari samaraliroq foydalanilganligi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'liq talqin qilinmog'i va ulardan ijobiy foydalanmog'i tavsiya etiladi.

¹ «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun, Toshkent 1995-y, 11-bet.

Bunda pul-koedit siyosatining bevosita instrumentlari bilan bir qatorda uning bilbosita instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari, o'tgan davrdagi monetizatsiya darajasi taxmini va eng asosiysi pul bozorini holati, ya'ni foiz stavkasining dinamikasi va valyuta siyosati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, pul-kredit, monetar siyosatning samarali pirovard natijasida mamlakat pul birligining barqarorlik darajasi bilan belgilanadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda samarali monetar siyosat yo'nalishlarini aniqlashda mamlakat bank tizimi barqarorligi tahlili ham muhim o'rin tutadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalar aniq va to'liq chuqur tahlil qilinib, sabab va oqibatlar har tomonlama o'rganilgandan keyin Markaziy bank hukumat tomonidan keyingi-yil uchun prognoz qilingan yalpi ichki mahsulot hajmi va uning real o'sishi, YaIM deflyatorining miqdoriy ko'rsatkichlari va inflyatsiya darajasi hamda tashqi savdo aylanmasi qoldig'ining ijobiy bo'lishi va davlat byudjeti ko'rsatkichlari kabi makroiqtisodiy parametrlaridan kelib chiqqan holda o'zining pul-kredit, monetar siyosatini ishlab chiqadi.

Bizning nazarimizda, eng muhim masala shundan iboratki, pul-kredit, monetar siyosatni belgilashda Markaziy bank hukumat tomonidan prognozlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi bilan muomaladagi pul massasi o'zgarishi o'rtasidagi mutanosiblik darajasini aniqlash va doimiy ravishda unga erishishdan iborat bo'lmog'i lozim. Chunki xalq xo'jaligining har bir tarmog'ida ma'lum darajada o'sishni ta'minlash albatta qo'shimcha pul mablag'larini talab qiladi. Demak, doimo yalpi ichki mahsulot o'sishi bilan pul massasi o'sishi o'rtasida qandaydir mutanosiblik bo'lishni talab qiladi.

Shunday qilib, monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari mamlakat iqtisodiyotiga pul-kredit vositalari orqali ta'sir qilish natijasida mamlakat pul birligi barqarorligini ta'minlovchi muhim hujjatdir.

Markaziy bankning monetar siyosati mohiyatini alohida fan sifatida o'rganilganligi uchun ushbu masalalarga to'xtalmadik.

2.3. Nobank moliya-kredit tashkilotlari va ular faoliyatining xususiyatlari

Ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda maxsus moliya-kredit tashkilotlari sifatida quydagilar o'z aksini topgan:

1. Investitsion kompaniyalar yoki trestlar: Ular o'zlarining qimmatbaho qog'ozlari (aksiya va obligatsiyalari)ni muomalaga chiqarib sotish va ushbu mablag'lar evazigga boshqa aksioner jamyatlarining aksiya va obligatsiyalarining sotib olish bilan shug'ullanadiganlar. Shu tariqada ular pul bozorlarida banklar bilan raqobatdosh bo'la oladi.

2. Moliyaviy (Xolding) kompaniyalar: Ular qimmatbaho qog'ozlar bozorida boshqa kompaniyalarning nazorat paketini sotib olib, ular faoliyati ustidan nazorat qiladilar va banklar bilan raqobatlashish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

3. Sug'urta kompaniyalari: Ular sug'urta to'lovlari tariqasidagi pul mablag'larini to'plab, undan turli moliyaviy maqsadlarda (qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish, hatto ba'zi mamlakatlarda kredit berish uchun) ishlatadilar hamda banklar bilan pul-kredit bozorida raqobatlashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Pensiya jamg'armalari: Ular bir necha-yil davomida aholidan pensiya jamg'armalarga mablag'lar yig'ish evaziga o'zida katta miqdorda resurslar to'playdi va boshqalarga raqobatchi bo'la oladi.

5. Jamg'arma kassalari ham aholining bo'sh pul mablag'larini jamg'armalarga to'plash orqali katta resurs bazasiga ega bo'ladilar va ushbu mablag'lar evaziga pul-kredit bozorlari va fond birjalarida muvofaqiyatli ishtirok etib boshqalar bilan raqobatlasha oladigan subyektga aylanadi.

6. Lombardlar: Ular qimmatbaho buyumlar garoviga kredit ajratish bilan shug'ullanadilar.

7. Kredit kooperatsiyalari (uyushmalari): Mablag'lar kooperatsiya a'zolarining badallik pay to'lovlari hisobidan tashkil etiladi va ushbu mablag'lardan kooperatsiya a'zolarini kreditlash uchun foydalaniladi.

8. Ipoteka kompaniyalari: Tijorat maqsadida foydalanadigan bino yoki yashash uylarida samarali foydalanish uchun qisqa muddatli kredit berish bilan shug'ullanadilar.

9. Faktoring kompaniyalari: Vaqtinchalik moliyalashni ta'minlash maqsadida (asosan debitorlar schyotidan) korxonalaridan qisqa muddatli aktivlarni sotiv oladilar.

10. Trast kompaniyalar: Korxonalar, xususiy shaxslar va zarar bilan ishlaydigan tashkilotlar mulklarini boshqaradi va ularni himoya qiladi.

11. Ma'lumotlarni qayta ishlash kompaniyalari: Ma'lumotlarni kompyutyerda ishlab, ularni uzatish bilan shug'ullanishadi.

12. Qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi brokerlik firma shartnomalari, valyutali moliyaviy fyucherslar, muomaladagi

qimmatli qog'ozlarningoldi-sottisi bo'yicha mijozlarning buyruqlarini bajaradilar.

13. Moliyaviy masalalar bo'yicha maslahat beruvchi firmalar: Aktivlarni boshqarish va investitsiya masalalari bo'yicha mijozlarga maslahat beradilar.

14. Qimmatli qog'ozlarni tarqatish bilan shug'ullanuvchi firmalar: Davlat va munitsipal zayomlarni, korparatsiyalar aksiyalarini, qimmatli qog'ozlarni, korparatsiyalarning qarz majburiyatlarini, mijozlar schyotlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi, shuningdek, yuqorida qayd qilingan qimmatli qog'ozlarni investorlarga takroriy sotishni taklif qiladilar.

15. Kredit kartochkalari bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar: Chakana savdo korxonalarini qo'llab-quvvatlash va xususiy shaxslarga qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullanadilar.

16. Lizing kompaniyalari: Aktivlarni sotib oladi va muhtoj korxonalariga, xususiy shaxslarga ularni ijaraga beradi.

17. Ko'chmas mulk operatsiyalari bilan bog'liq xizmatlarni bajaruvchi firmalar: Ko'chmas mulkni baholash va ular bilan bog'liq bo'lgan tijorat loyihalarini moliyalashtirish bilan shug'ullanadilar.

18. Mikrokredit tashkilotlari: Mikrokreditlar ajratish.

19. Omonat, ssuda berish bilan shug'ullanuvchi assotsiyalar: Asosan xususiy shaxslar va oilalarga depozitlarga jamg'ariladigan mablag'lar rejalarini, shuningdek, uy-joy qurish uchun kredit taklif qiladilar.

Respublikamizda bugungi kunda nobank kredit tashkilotlari sifatida mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyat yuritishmoqda. Mikrokredit tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining qonunchilik palatasi tomonidan 2006-yil 28 iyunda qabul qilgan va Senat tomonidan 2006-yil 25 avgustda tasdiqlangan «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu Qonunga muvofiq, mikrokredit, mikrolizing, mikroqarz berish va qonunga muvofiq boshqa mikromoliyalash xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs mikrokredit tashkilotlaridir. Ular O'zbekiston Respublikasining hududida o'rnatilgan tartibda hisobraqamlar ochish huquqiga ega.

Mikrokredit tashkilotlari ishlab-chiqarish, sug'urta va savdo vositachilik faoliyatlari bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

Ular yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilishi mumkin. Ular davlat organlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar va boshqa mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan tashkil etilishi man etiladi.

Mikrokredit tashkilotlari ta'sis hujjatlari asosida faoliyat yuritishadi. Unda mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyati, boshqaruv organlari tarkibiy tuzilishi, mikrokredit, mikrolizing, mikroqarz faoliyatlarini ko'rsatish uchun resurslar tashkil etish manbalari, mikrokredit tashkilotlarini auditdan o'tkazish tartibi aks ettiriladi. Mikrokredit tashkilotlarining ustav fondi pul mablag'lari va uning umumiy miqdorining 20 foizidan oshmagan miqdordagi boshqa mol-mulk hisobidan tashkil etiladi. Ustav fondini kredit mablag'lari, garovga olingan mol-mulk hisobiga to'ldirish taqiqlanadi.

Mikrokredit tashkilotlari faoliyat yuritishi uchun maxsus litsenziya olganlaridan keyingina faoliyat yuritishga egadirlar.

Mikrokredit tashkilotlari litsenziya olish uchun Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- litsenziya berishni uchun ariza;
- mikrokredit tashkilotining ta'sis hujjatlari;
- mikrokredit tashkilotining davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat nusxasi ;
- mikrokredit tashkiloti boshqaruv organlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumot;
- mikrokredit tashkilotining ustav kapitali tashkil etilganligi to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi.

Ushbu hujjatlar to'liq taqdim etilganidan so'ng bir oy mobaynida Markaziy bank litsenziya berish yoki uni rad etish to'g'risidagi asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Yuqoridagi qonunda ko'zda tutilgan holatlar buzulgan taqdirda va mikrokredit tashkiloti bankrot deb e'lon qilganda ularning faoliyati tugatiladi va berilgan litsenziya chaqirib olinadi.

Mikrokredit tashkilotlari qonunga muvofiq quyidagi xizmatlarni ko'rsatish huquqiga egadir.

- mikrokredit va mikroqarzlarni ajratish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktori);
- mikrolizing xizmatlari (lizing beruvchi sifatida);
- qonun doirasidagi boshqa mikromoliyaviy xizmatlar, shu jumladan iste'mol kreditlari ajratish;
- mikromoliyaviy xizmatlar bo'yicha turli axborot-konsultativ xizmatlari.

Mikrokredit tashkilotlari quydagilarga haqli emas:

-qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish va aholi hamda jismoniy shaxslardan omonat depozitlar qabul qilish;

-jismoniy shaxslardan qarz mablag'larini jalb etmaslik (ta'sischi'larning tashqari);

-ta'sischi'lari uchun kafolat yoki kafillik majburiyatlarini olishlik.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 25 ta mikroredit tashkilotlari mavjud. Ular quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat qo'rsatayotgan mikroredit tashkilotlari to'g'risida ma'lumot

4-jadval

№	Mikroredit tashkilotining nomi	Tashkil etilgan sana, litsenziya raqami	Joylashgan manzili
1	«EHTIROM PLUS mikroredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 26-may. № 1	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 6-V-uy
2	«Imkon Ekspres Invest mikroredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 3-avgust № 2	130112, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Tabassum mahallasi 2-mitti tuman
3	«SABR mikroredit tashkiloti» sho'ba korxonasi	2007-yil 24-avgust № 3	140105, Samarkand viloyati, Samarkand shahri, O'zbekiston ko'chasi, 74-uy
4	«Kapital Plus mikroredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 29-sentyabr № 4	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoyi ko'chasi, 30 B-uy
5	«KAFOLATLI SARMOYA mikroredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 18-oktyabr № 5	200118, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Samarqand ko'chasi, 95-uy

4-jadvalning davomi

6	«TADBIRKOR INVEST mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 18-oktyabr № 7	230106, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, A. Musaev ko'chasi, 21-uy
7	«AL BAROT mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 3-noyabr № 8	150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Xo'jand ko'chasi, 7-uy
8	«BARAKAT mikrokredit tash- kiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 3-noyabr № 9	180100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, B. Zokirov burilish ko'chasi, 4-uy, 8-xonadon
9	«RENESANS mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2007-yil 1-dekabr № 12	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A. Navoiy shoh ko'chasi, 192-uy, 5-xonadon
10	«Oltin Yulduz Plus mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2008-yil 26-yanvar № 14	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Usta bozor ko'chasi, 49a-uy
11	«GARANT INVEST mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2008-yil 26-yanvar № 15	100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 16-mavze, 11-uy
12	«Alfa mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2008-yil 4-iyun №21	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Olmazor mavzesi, 15/2-uy
13	«Biznes express mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2008-yil 6-sentyabr №23	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor-3-daha, 1-uy, 15-xonadon

4-jadvalning davomi

14	«TRAST INVEST» mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2008-yil 29-noyabr №25	160100, Namangan viloyati, Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 9-uy
15	«BV FINANS INVEST mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2008-yil 18-dekabr №26	200104, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Mustaqillik ko'chasi, 12-uy
16	«YENGIL KREDIT mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2009-yil 18-yanvar №27	111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, ShFY «Salar», «Samandar-Yunus» xususiy korxonasiga qarashli bino
17	«Delta mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2009-yil 16-may №28	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 6-A-uy.
18	«ZUXRA YULDUZI FAYZ mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2009-yil 31-oktyabr №32	200100, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Mustaqillik ko'chasi, 10-uy
19	«Qamashi Kapital Invest mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2010-yil 23-yanvar №33	180500, Qashqadaryo viloyati, Qamashi shahri, Nodira ko'chasi, 15-uy
20	«Chirchik Kredit» mikrokredit tash- kiloti mas'uliyati cheklangan jamiyati	2010-yil 17-aprel №34	111722, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, 2-kichik noxia, 5-A uy
21	«EVRKA KAPITAL» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi	2010-yil 24-iyul №35	220107, Xorazm viloyati, Urganch shahri, P. Maxmud ko'chasi, 17- uy, 13-xona

4-jadvalning davomi

	mikrokredit tashkiloti		
22	«ISTIQBOL INVEST MIKROKREDIT TASHKILOTI» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2010-yil 24-avgust №36	100042, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Kichik xalqa yo'li (avvalgi G. Uzakov) ko'chasi, 9-uy, 2-xonadon
23	«SIRDARYO MIKROKREDIT TASHKILOTI» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2013-yil 8-iyun №37	120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Guliston ko'chasi, 1
24	«Ishonch Effekt Kredit mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2013-yil 21-sentyabr №38	130114, Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh. Rashidov shoh ko'chasi 290-uy
25	«MEGA-INVESTMENT PLUS mikrokredit tashkiloti» mas'uliyati cheklangan jamiyati	2014-yil 21-avgust № 39	100197, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak yo'li dahasi, 22-uy

Nobank kredit tashkilotlaridan biri lombardlar bo'lib, hozirgi kundagi lombardlarning faoliyati ko'proq qimmatbaho buyumlar, qimmatbaho metallarni garovga olgan holda qarz berishdan iborat bo'lmoqda. Aholining ma'lum bir qatlami lombardlarning shunday xizmatlaridan foydalanishga majbur bo'lmoqda, chunki pul zarur bo'lib qolganda hujjatlar rasmiylashtirilib bankdan kredit olish uchun vaqt yo'qotgandan ko'ra, tilla buyumlarini garovga qo'yib, darhol qarz olish afzal bo'lgan hollarda, mijozlar lombardlar xizmatidan foydalanmoqdalar.

Lombardlarini ro'yxatdan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash, lombardlarning faoliyati va ular tomonidan bajariladigan operatsiyalar alohida me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi hududida lombardlarni ro'yhatdan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalashni tartibga solish maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yilning 17 sentyabrida «O‘zbekiston Respublikasi hududida lombardlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to‘g‘risida»gi 402-sonli Qarori qabul qilingan. Qarorga ko‘ra, nobank kredit tashkilotlar lombardlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish funksiyasi adliya organlariga yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent shahrida joylashgan lombardlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar adliya boshqarmalari tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududida joylashgan lombardlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishi belgilab berildi.

Lombardlar adliya organlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi uchun qonun hujjatlarida to‘lov kunida belgilangan eng kam oylik ish haqining to‘rt baravari miqdorida davlat boji undiriladi. Litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya talabgorining arizasi ko‘rib chiqilganligi uchun ariza berilgan kundan qonun hujjatlarida belgilangan bitta eng kam oylik ish haqi miqdorida yig‘im undirilishi ko‘zda tutilgan.

«Lombardlarning faoliyati va operatsiyalarini amalga oshirish» tartibida lombardlar tomonidan kredit berish va uni rasmiylashtirish tartibi, mulkni garovga olish va saqlash tartibi, lombardlar tomonidan qonunchilikni buzish hollaridagi javobgarlik kabilar yoritilgan. Mulkni garovga olish va saqlash bo‘yicha shartnoma va uni tuzish tartiblari belgilab berilgan. Lombardlar shaxsiy iste‘moli uchun foydalaniladigan ko‘char mulk garovi asosida 3 oydan oshmagan muddatlarda kredit berishlari, kredit operatsiyalarini bajarish uchun shakllangan ustav kapitalining 50% foizidan oshmagan miqdorda tijorat banklaridan kredit olishlari mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 45 ta lombardlar mavjud. Ular quydagilar:

Litsenziyasi amal qilayotgan lombard tashkilotlari to‘g‘risida ma’lumot

5-jadval

№	Lombardning nomi	Joylashgan eri (pochta manzili)	Tashkil etilgan sana, litsenziya raqami
1	«SHARQ KREDIT» mas’uliyati cheklangan jamiyat	100015, Toshkent shahri, Mirobot t-ni, Mirobot	2005-yil 14-mart № 2

5-jadvalning davomi

		ko'chasi, 27 uy, 11 korpus, 16 xonadon	
2	«VALYUT-TRANZIT» mas'uliyati cheklangan jamiyat	700113, Toshkent shahri, Chilonzor t-ni, 8-16-61uy	2005-yil 24-sentyabr № 4
3	«HAMKOR-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyat	Toshkent shahri, Hamza t- ni, Qo'yliq mavzesi, Farg'ona yo'li ko'chasi, 2- uy, 75-xonadon	2006-yil 26-avgust № 10
4	«FARXOD KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyat	700178, Toshkent shahri, Sobir Rahimov t-ni, Qora- Qamish 2/5-mavzesi, 17- uy, 92-xonadon	2006-yil 7-oktyabr № 12
5	«ARTFAM-INVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyat	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 9-uy.	2007-yil 30-iyun № 20
6	«AVANGARD- KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100077, Toshkent shahri, M. Ulug'bek t-ni, Buyuk Ipak Yuli ko'chasi, 60-uy, 66-xonadon	2007-yil 20-sentyabr № 21
7	«BARDOSH-BIZNES» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Olmazor mavzesi, 6/7-uy.	2007-yil 20-sentyabr № 22
8	«DAROFF-INVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Mirobod t-ni, Narxodjaev ko'chasi, 166-uy	2008-yil 26-yanvar № 25
9	«NAVOIY-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Shayxontohur t-ni, Navoiy ko'chasi, 6-uy, 19-xonadon	2008-yil 26-yanvar № 26
10	«TASHKREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100204, Toshkent shahri, Xamza t-ni, Sholoxov va Sivets ko'chalari, Lisunov dahasi, 1-mavze, 115-uy, 166-xonadon	2008-yil 6-mart №27
11	«SARMOYA- MADAD» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100139, Toshkent shahri, Uchtepa t-ni, Lutfiy ko'chasi, 56-uy	2008-yil 6-mart №29
12	«OLOY-INVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100000, Toshkent shahri, Yunusobod t-ni, Amir Temur ko'chasi, 1(40)-uy	2008-yil 12-aprel №30

5-jadvalning davomi

13	«BIZNES AZIA NVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyati	700128, Toshkent shahri, Shayxontohur t-ni, Markaz-13 mavzei, 30-uy, 19-xonadon	2008-yil 12-aperl №31
14	«TASHABBUS-KUNGRAD» mas'uliyati cheklangan jamiyati	230600, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iroq shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi, 120-uy	2008-yil 4-oktyabr №33
15	«MOMENT KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	110506, Toshkent viloyati, Bekobod shahri, 65-mavze, 1-uy	2008-yil 4-oktyabr №34
16	«VENERA KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100096, Toshkent shahri, Chilonzor t-ni, Chilonzor-5 mavze, 29-uy, 2-xonadon	2009-yil 18-yanvar №35
17	«REGION KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	111712, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A. Navoiy ko'chasi, 158-uy, 8-xonadon	2009-yil 14-mart №37
18	«RUSTAM KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100115, Toshkent shahri, Chilonzor t-ni, 1-mavze, 60-uy, 1-xonadon	2009-yil 14-mart №38
19	«TO'Y-TEPA KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	111500, Toshkent viloyati, O'rta-chirchiq tumani, To'y-tepa shahri, Toshkent yo'li ko'chasi, 86-uy	2009-yil 18-aprel №41
20	«SERMAXSUL NAV-QIRON ULKA» mas'uliyati cheklangan jamiyati	731700, Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz t-ni, Ipak Yo'li ko'chasi, 21-uy	2009-yil 18-aprel №42
21	«ALBATROS-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100097, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor-1 mavze, 2-uy, 3-xonadon	2009-yil 6-iyun №43
22	«SVETLANA-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100204, Toshkent shahri, Xamza tumani, Lisunova mavzesi 1a, 41-uy	2009-yil 26-sentyabr №45
23	«GOLD FINANCE KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100077, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,	2009-yil 31-oktyabr №46

5-jadvalning davomi

		Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 54-uy, 3-xonadon	
24	«YOM TOV CREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 3-mavze, 1-uy, 38-xonadon	2009-yil 5-dekabr №48
25	«YANGI Y'OL ISHONCH KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	112013, Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 2 qavatli 137-uy	2010-yil 20-fevral №49
26	«DAROMAD INVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyati	112000, Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri, Istiroxat bog'i hududidagi Sh. Rashidov ko'chasi, 1-uy	2010-yil 31-may № 50
27	«SHERZOD KREDIT INVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100208, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Qizil Sharq mavzesi, 25-uy, 64-xonadon	2010-yil 19-iyun № 51
28	Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi «BAQOJON PLYUS» ixtisoslashtirilgan lombardi	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Ibn-Sino ko'chasi, 43-uyga	2010-yil 24-iyul № 52
29	«GOLD FINANCE BUSINESS» mas'uli- yati cheklangan jamiyati	111700, Toshkent vil, Chirchiq sh. Istirohat bog'i ko'chasi	2010-yil 24-iyul № 53
30	«SHOKIR INVEST» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100142, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, TTZ-2, 55-uy, 10-xonadon	2010-yil 14-avgust № 54
31	Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi «NORIK-CREDIT» lombardi	120100, Sirdaryo vil, Guliston sh., A. Navoiy shoh ko'chasi, 30 uy.	2010-yil 24-avgust № 55
32	«ASAT-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100021, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 42-uy.	2010-yil 11-sentyabr № 56
33	«LOBAR-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 16-mavze, 11-uy, 64-xonadon	2010-yil 25-dekabr № 57
34	«IDEAL KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	111812, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Nazarbek QFY	2010-yil 25 dekabr № 58

35	«KRISTAL-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 13-mavze, 1-uy, 65-xonadon	2011-yil 12-mart №61
36	Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «BILLUR TONG YULDUZI» lombard tashkiloti	200500, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, Yu.Xamadoniy ko'chasi, 144-uy	2011-yil 12-mart №62
37	«SERGELI KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100012, Toshkent shahri, Sirg'ali tumani, 2-mavze, 1-uy, 65-xonadon	2011-yil 12-mart №63
38	«KO'MAK KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Gulobod ko'chasi, 2-uy, 47-xonadon	2011-yil 14-may №64
39	«LOMBARD PROFIT SERVICE» mas'uliyati cheklangan jamiyati to'g'risida ma'lumot	100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 1-uy, 31-xonadon	2012-yil 6-oktyabr №65
40	«QULAY-KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati to'g'risida ma'lumot	190100, Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 14/1-uy	2012-yil 6-oktyabr №66
41	Xususiy korxonada shaklidagi «TOPAZ KREDIT» ixtisoslashtirilgan lombardi	140102, Samarqand viloyati Samarqand shahri, «Temir yo'l» dehqon bozori hududida joylashgan 15-sonli do'kon va yordamchi bino	2014-yil 22-fevrel №67
42	«CREDIT FLEX» mas'uliyati cheklangan jamiyati	100093, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yunusobod -2-mavzesi, 37-uy, 4-xonadon	2014-yil 22-fevrel №68
43	«EVRIKA KREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Sergeli tumani, 8A-mavze, 12-uy, 37-xonadon	2014-yil 22-fevrel №69
44	«GOLD STAR LOMBARD» mas'uliyati cheklangan jamiyati	170100, Andijon viloyati, Andijon shahri, Milliy tiklanish ko'chasi, 25-uy	2014-yil 22-fevrel №70

45	«MAXIMUM CAPITAL CREDIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati	130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Qassoblik mahallasi, 5-uy.	2014-yil 6-sentyabr № 71
----	--	--	--------------------------

2.4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanishi

O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi qudratli tuzilmaga aylanish uchun rivojlanishning uzoq evolyutsion, ya'ni tadrijiy yo'lini bosib o'tishiga, anchagina mashaqqatlarni bartaraf etishiga to'g'ri keldi.

O'zbekistonda avvalo, birinchi bosqich milliy valyutani muomalaga kiritish uchun asos yaratilgan va ikki pog'onali bank tizimining poydevori qurilgan 1991-1994-yillarni o'z ichiga oladi. Bu Markaziy bank o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil etilishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to'lov tizimini yaratish bo'yicha faoliyati to'laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

1995-yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo'lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat — «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. Shu bilan bir qatorda mazkur-yilda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo'ldi. Agar 1994-yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 foizi Jamg'arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'sha-yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko'payib, bu boradagi ko'rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

1991-yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o'zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo'la bordi. 1991-1992-yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish-yillari bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi »Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to'lov tizimini shakllantirish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1993-1994-yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994-yilning 1 iyulidan e'tiboran milliy valyuta — so'mning muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1996-yil. Ushbu-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini konkretlashtirdi.

Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat — «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur qonunlar, shuningdek, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aksiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta'sir etgan ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruv va bank nazoratining to'la huquqli organi bo'ldi. Ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish printsiplari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq

xo'jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo'jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog'liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o'z operatsiyalari va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko'ra kengaytira boradi.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi.

1997-yil. Ushbu-yilda islohotlarning strategik yo'nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.

Mazkur jarayon 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilinganidan so'ng jadallashdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo'lmagan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko'zda tutilgan edi. 1997-yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki, o'sha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo'yi olib borilar edi. 1997-yilning mart oyidan yangi dasturiy ta'minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to'lovlarni respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

Aynan o'sha vaqtda hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to'lovlarning zamonaviy tizimi joriy etildi. Banklarga o'sha vaqtdagi noyob imkoniyat — kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari xarid qilish va departamentlarni ular bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag'larni o'z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo'naltirishi hisobga olinib, qator soliq to'lovlaridan ozod qilindi.

Shu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborotning sifat jihatidan yangi iste'molchilari — mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo'ldi.

1998-yil. Ushbu-yilda respublika banklari Bazel tavsiyalariga muvofiq holda faoliyat ko'rsatish uchun zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Bank nazorati va xalqaro amaliyoti bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalaridan kelib chiqib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida tartibga soluvchi kompleks me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda tijorat banklarining moliyaviy

barqarorligini ta'minlash maqsadida ular balansida mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda bank likvidligi pasayishi va kapital tugashi yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruv choralari ko'rish tamoyillaridan foydalanildi.

1999–2000-yillar. Ushbu-yillarda valyuta siyosati yanada liberallashtirilgan holda, birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi amalga kiritildi.

Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o'z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo'yicha valyutalarni sotib olishini ko'zda tutadi.

2000-2010-yillar. Mazkur davr O'zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu-yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirildi.

Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollari belgilab beruvchi strategik vazifalar qo'yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi — O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta'minlashdir.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz moliya-bank tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratdi. Shu munosabat bilan qator etakchi banklar («O'zsanoat-qurilishbank», «Asaka» banki va boshqalar)ning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrokreditbank» ustav fondini ko'paytirish to'g'risida»gi Farmoni mazkur bankni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha asosiy kredit markazlaridan biriga aylantirgan holda uning faoliyatini sifat jihatidan yanada yaxshiladi.

Ushbu davrdagi har bir-yil mamlakat bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etiladi.

2001-yil. Ushbu-yilning 1 iyulidan e'tiboran kichik biznes korxonalarini o'zlari ishlab chiqargan eksport tovarlar (ish va xizmatlar)ni bank muassasalari kassalari orqali belgilangan tartibda valyuta ulushini o'z hisobiga o'tkazish yo'li bilan naqd xorijiy valyutada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Respublikamiz hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishni hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadam qo'ydi.

Aynan shu-yili erkin ayirboshlovchi valyutadagi Birlashgan barqarorlashgan jamg'arma tashkil etildi. Bu o'z navbatida, O'zbekistonda birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qildi.

Bu vaqtda bank tizimi bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur hamkorlik rivojiga turtki bergan muhim omillar sifatida banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifatining tobora yaxshilanishi, banklarda raqobatchilik muhitining yuzaga kelishi, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Aynan shu davrda banklar kreditlash siyosati kuchayganini, mijozlar so'rovlarini sinchkovlik bilan o'rgana boshlaganini va bank xodimlarida mijozlarning talab-ehtiyotlariga javoban tez harakat qilish qobiliyati shakllanganini yaqqol kuzatish mumkin.

2002-yil aholining banklardagi omonatlarini himoyalashning ishonchli va samarali mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy printsiplarga aylana bordi.

Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zahirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

2003–2004-yillar. Mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davri.

Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo'yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aksiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o'zgartirish

jarayonlari jadallashdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o'z rivojlanish kontseptsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashtirish darajasini oshirish o'z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aksiyadorlarning mablag'larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi.

Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2003-yilning 15-oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati inflyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag'batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx kon'yunkturasi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi eksport va oltin-valyuta zaxiralari hajmining oshishiga imkon berdi.

Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aksiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

2005–2006–yillar. Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy-tuzilmaviy o'zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O'sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig'idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi.

Shu tariqa, asosiy e'tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu esa fuqarolarda katta rag'bat uyg'otib, ularning banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisobraqamlar ochishga kirishishi bilan bog'liq ijobiy holatlar ko'paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. E'tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari joy ola boshladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2006–2007–yillar. Ipotekaviy kreditlashning rivojlanish davri. Bank xizmatlarining mazkur yangi shakli mahalliy aholi tomonidan darhol ijobiy baholandi. Aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy himoyalashni ko'zda tutuvchi ushbu manba O'zbekiston Respublikasi «Iste'mol krediti to'g'risida»gi va «Ipoteka to'g'risida»gi Qonunlari orqali mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi Qonuni iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

2006-yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi «Ipoteka to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 16-fevraldagi «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zahiralarini shakllantirishga va o'z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi.

«2005–2007-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturi»da belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirishi banklar kapitallashuv darajasi va ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo'ldi. Bu borada pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish, banklarda aholi omonatlarini ko'paytirishni rag'batlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tibor qaratildi. Rivojlanish sari doimiy ravishda intilayotgan tijorat banklariga mamlakatimiz hukumati tomonidan o'z vaqtida taqdim etilgan imtiyozlar kredit muassasalari o'z yangi instrumentlarini ishlab chiqadigan va taklif qiladigan bank-moliya bozorining shakllanishini oldindan belgilab berdi.

2008–2009-yillar. Ushbu-yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Mazkur yo'nalishda banklar o'z faoliyatini dunyoviy amaliyotning «oltin» prinsipidan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya'ni, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom

ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan «Iste'mol krediti to'g'risida»gi va «Ipoteka to'g'risida»gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

O'zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o'zlari taklif etayotgan xizmatlari to'plamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga kirishdi.

2010-yil. O'zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko'zga ko'rina boshladi. Bu, bir tomondan xo'jaliklarning vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag'lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so'nggi-yillar davomida respublikada asosiy tamoyil — ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 16-noyabrdagi 1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi respublika bank tizimida yangidan sifat tuzilishini takomillashtirishga qaratilgan bosqichni boshlab berdi.

Ushbu qarorga muvofiq, 2011-2015-yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi hamda 2011-2015-yillarda mikromoliyalash va nobank moliya sohalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi.

Belgilangan chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilishi izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida 2011-yil 4-oktyabrda «Kredit axborotlarini almashuvi to'g'risida»gi, 2012-yil 17-dekabrda «Xususiy bank va moliya institutlari va ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi va 2013-yil 23 oktyabrdagi «Garov reestri to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Banklar barqarorligini oshirish maqsadida, ularning kapital bazasini oshirish, banklar faoliyatiga muomaladagi vaqtincha bo'sh mablag'larni

depozitlarga jalb qilish va iqtisodiyotning real sektorini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash hamda moliyaviy beqaror va iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash va strategik investorlarni jalb qilish borasidagi chora-tadbirlar muvafaqqiyat bilan amalga oshirildi. Bugungi kunda barcha tijorat banklari xalqaro «Fitch reyting», «Mudis» va «Standart end purs» kabi reyting kompaniyalarining «barqaror» bahosini olishga erishdilar.

Tayanch soʻz va iboralar

Aktiv, bank, bank tizimi, kapital, kredit uyushmasi, lombard, Markaziy bank, mikromoliyalash tashkiloti, passiv, tijorat banki, funktsiya, emissiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Bank tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Sobiq Ittifoq davrida Oʻzbekiston bank tizimining holati qanday boʻlgan?
3. Oʻzbekiston bank tizimining shakllanish jarayoni qanday kechgan?
4. Mamlakat bank tizimining rivojlanishi necha bosqichni bosib oʻtdi?
5. Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimining meʼyoriy-huquqiy asoslari qaysi qonunlarda va qonun osti hujjatlarida oʻz aksini topgan?
6. Oʻzbekiston Markaziy banki yuridik shaxs sifatida qanday maqomga ega?
7. Respublika Markaziy banki qanday funktsiyalarni bajaradi?
8. Oʻzbekiston Markaziy bankining mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
9. Respublika bank tizimida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining yuridik shaxs sifatidagi maqomi va mulk shakli nimalardan iborat?
10. Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan nobank moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari va resurs manbalari nimalardan iborat?
11. Respublika bank tizimini rivojlantirishning 2011-2015-yillarga moʻljallangan Kontseptsiyasida qanday ustuvor yoʻnalishlar belgilangan?
12. Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishning 2015-2019-yillarga moʻljallangan Konsepsiyasida qanday ustuvor yoʻnalishlar belgilangan?

III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY ASOSLARI

3.1. Tijorat banklarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziyalash tartibi

O'zbekiston Respublikasida banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi «Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan amalga oshiriladi.

Banklarni litsenziyalash jarayoni ikki bosqichdan:

1. Bank ta'sis etish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatini berish;
2. Bankni ro'yxatga olish bilan bir vaqtda litsenziya berishdan iborat.

Muassislar o'z oralaridan Markaziy bankda, uning hududiy Bosh boshqarmalarida va boshqa organlarda bankni tashkil etish yuzasidan ularning manfaatlarini ifoda etishga vakil qilingan shaxsni belgilaydilar. Uning vakolatlari ta'sis shartnomasi bilan tasdiqlanadi.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari bank muassislarini bank tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan zarur qonun hujjatlari bilan ta'minlaydilar.

Bank tashkil etishga dastlabki ruxsatni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar quyidagilardan iborat:

- Muassislar tomonidan ta'sis shartnomasi imzolanganidan so'ng bir oy mobaynida Markaziy bankka bankni ochish uchun dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi arizani taqdim etadilar. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1) muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan (agar muassis yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs bo'lsa) tasdiqlangan ta'sis shartnomasi (uch nusxada, ularning bittasi asl nusxa). Jismoniy shaxslarning imzolari va ta'sis shartnomalarining nusxalari notarial idora tomonidan tasdiqlanadi (yagona muassislar bundan mustasno);

2) muassislar tomonidan tasdiqlangan va bank kengashi raisi tomonidan imzolangan bank ustavi (uchta asl nusxada);

3) ta'sis yig'ilishining uch nusxada tayyorlangan bayonnomasi. Bu hujjatda bankni tashkil etish, ustav kapitali miqdori, bank ustavi va biznes-rejani tasdiqlash, bank kengashi, boshqaruvi va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi qarorlar bo'lishi lozim. Bayonnoma nusxalari bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi;

4) muassislar to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar:

a) bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan bankning barcha muassislari to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) muassis-jismoniy shaxslar bo'yicha:

- tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining bir yoki undan ortiq foiziga egalik qiladigan jismoniy shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari haqidagi ma'lumotlar;

- tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiladigan jismoniy shaxslar uchun qo'shimcha ravishda ma'lumotlar;

- tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining o'n yoki undan ortiq foiziga egalik qiladigan jismoniy shaxslar uchun qo'shimcha ravishda oxirgi ikki-yil uchun soliq deklaratsiyalari (xususiy tijorat banklari ustav kapitalida ishtirok etayotgan rezident jismoniy shaxslar bundan mustasno);

v) muassis-yuridik shaxslar bo'yicha:

- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va to'lov rekvizitlari;

- tashkil etilayotgan bankning ustav kapitaliga kiritilgan badallar summasi (jumladan, ustav kapitali umumiy summasiga nisbatan foiz hisobida);

- yuridik shaxsning so'nggi uch-yil uchun, shu jumladan, soliq organlari va auditorlik firmasi tomonidan tasdiqlangan so'nggi ikki hisobot sanasi uchun balans hisobotlari;

- tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiladigan muassislar uchun qo'shimcha ravishda mazkur yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etayotgan har bir ishtirokchining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va to'lov rekvizitlari, shuningdek, ularning ulushi (foiz ko'rinishida);

- agar yuridik shaxs ustav kapitalida yirik ishtirokchi-jismoniy shaxs bo'lsa u to'g'risidagi ma'lumotlar;

- bankni tashkil etayotgan muassis-yuridik shaxs kengashi va boshqaruvi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (rezyume);

g) o'zaro bog'langan shaxslar haqida ma'lumotlar:

- muassis-jismoniy (yuridik) shaxs yoki muassis-jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari, yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ishtiroki munosabati bilan yoki boshqa usullar bilan ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yuridik shaxslar to'g'risida hamda muassis-yuridik shaxsning ustav fondidagi ulushi (agar mavjud bo'lsa) to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar:

- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va to'lov rekvizitlari;

- muassislarning ro'yxati va mazkur yuridik shaxs ustav kapitaliga kiritilgan badallar summasi (jumladan, ustav kapitali umumiy summasiga nisbatan foiz hisobida);

- moliyaviy holat to'g'risidagi ma'lumotlar (moliyaviy hisobot, jumladan chiqarilgan obligatsiyalar, olingan kreditlar va berilgan bank kafolatlari to'g'risidagi ma'lumotlar);

- yuridik shaxs rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi;

5) tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiladigan muassislarning qo'shimcha ravishda ariza taqdim qilingunga qadar oxirgi besh-yil mobaynida sud yoki davlat organlari tomonidan ularga nisbatan qo'llanilgan barcha jazo choralari to'g'risidagi ma'lumotlar. Markaziy bank zarur hollarda mazkur kichik banda keltirilgan ma'lumotlarni tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh foizidan kam bo'lgan ulushiga egalik qiladigan muassislardan ham talab qilishga haqli;

6) tashkil etilayotgan bank kengashi raisi va uning o'rinbosarlari ko'rsatilgan holda bank kengashi a'zolarining hamda boshqaruv raisi va boshqa rahbar xodimlar ro'yxati, jumladan, ularning avvalgi mehnat faoliyatlari, ma'lumot darajalari hamda ularga nisbatan qo'llangan jazo choralari to'g'risidagi, shuningdek ularning Markaziy bank tomonidan rahbar xodimlarga qo'yilgan talablarga mosligini tasdiqlovchi ma'lumotlar;

7) bankning tashkiliy tuzilmasi;

8) bank ichki auditi xizmati to'g'risida nizom;

9) bankning ichki kredit siyosati to'g'risida nizom;

10) bank biznes-rejasi. Unda bank faoliyati strategiyasi, yo'nalishlari, ko'lami, moliyaviy istiqbollari va boshqa zaruriy ma'lumotlar ochib berilishi kerak;

11) vakilning muassislar nomidan ariza berish vakolatiga ega ekanligini tasdiqlovchi (notarial tartibda yoki boshqa usulda tasdiqlangan) hujjat;

12) bankning investitsiya siyosati to'g'risida nizom. Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan bankning investitsiya siyosati to'g'risidagi nizomda quyidagilar aks ettirilishi lozim:

- investitsiya strategiyasi va maqsadlari;

- bank mablag'larini investitsiyalash rejalashtirilayotgan qimmatli qog'ozlar turlari va shakllari, investitsiyalarni amalga oshirish muddatlari;

- qimmatli qog'ozlar emitentlari va ularning faoliyat sohalari bo'yicha aksiyalarni jamlashni chegaralash;

- qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarning xavfsizligini va ularning sifatini baholash;

- qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy ahvolini va boshqarish tajribasini baholash;

- investitsiyalar diversifikatsiyasini amalga oshirish;

13) arizani ko'rib chiqish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Rezyume, shaxsiy balans qaydnomasi va bank biznes-rejasida keltirilgan barcha savollarga to'liq javob berilishi kerak. Arizaga ilova qilingan hujjatlardagi barcha ma'lumotlarning haqqoniyligi tekshiriladi.

Bankni ro'yxatga olish va litsenziya olishga dastlabki ruxsatni berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- hujjatlarning tegishli tartibda rasmiylashtirilmay taqdim etilishi;

- taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin.

Bankning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va chet el bankining sho'ba banklarini tashkil etish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

Yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud o'zaro kelishuv bilan bog'langan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir nechta bitim natijasida bankning shakllantirilgan ustav kapitalining besh foizidan ortig'iga egalik qilinsa, bu haqda besh ish kunidan kechikmasdan Markaziy bankka xabar berilishi lozim. Ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq bo'lgan

ulushiga egalik qilish uchun Markaziy bankdan oldindan rozilik olinishi talab etiladi.

Markaziy bankning roziligi olingan ulush miqdorini oshirish uchun Markaziy bankdan takroran oldindan rozilik olinishi lozim.

Bir aksiyador yoki o'zaro bog'liq aksiyadorlar guruhining bank ustav kapitalidagi ulushi (davlat ulushidan tashqari) ustav kapitali umumiy miqdorining yigirma besh foizidan oshishi mumkin emas (chet el kapitali ishtirokidagi banklar va xususiy tijorat banklari bundan mustasno).

Agar shaxs yuridik shaxsning boshqaruviga yoki uning siyosatiga katta ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa, ushbu shaxs bunday yuridik shaxsni nazorat qiluvchi hisoblanadi.

Shaxs quyidagi hollarda katta ta'sir o'tkazuvchi hisoblanadi:

- mazkur yuridik shaxsning yirik ishtirokchisi bo'lsa;

- yuridik shaxsning aksiyadorlari, boshqaruv organlari yoki ishtirokchilari bilan rasmiy ravishda kelishuv tuzib yohud boshqa har qanday tarzda uning faoliyatiga rahbarlik qilish va/yoki uni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lsa.

Yuridik shaxsning yirik aksiyadori yoki ishtirokchisi deganda, mazkur yuridik shaxsning ustav kapitali yoki uning ovoz beruvchi aksiyalarining o'n va undan ortiq foiziga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita egalik qiluvchi bir yoki o'zaro kelishuv bilan bog'langan bir necha shaxslar tushuniladi.

To'g'ridan-to'g'ri egalik qilish deganda, aksiyador (ishtirokchi) tomonidan yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushiga yoki uning ovoz beruvchi aksiyalariga bevosita egalik qilish tushuniladi.

Bilvosita egalik qilish deganda, yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushiga yoki uning ovoz beruvchi aksiyalariga sho'ba korxonalar va jamiyatlar orqali egalik qilish tushuniladi.

Agar ikki va undan ortiq shaxslar rasmiy kelishuv asosida harakat qilsa yoki bank aksiyalariga jamoa bo'lib to'g'ridan-to'g'ri yoxud bilvosita egalik qilish maqsadida ongli ravishda birgalikdagi faoliyatni olib borish hollari mavjud bo'lsa, ular bank aksiyalariga egalik qilish maqsadida o'zaro kelishuv bilan bog'langan shaxslar bo'lib hisoblanadi.

Agar shaxs va boshqa yuridik shaxs bank aksiyalariga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita egalik qilsalar hamda mazkur shaxs ushbu yuridik shaxsning yirik ishtirokchisi yoki uning boshqaruv, kuzatuv kengashi a'zosi yoxud vakili bo'lsa, mazkur shaxs yuridik shaxs bilan kelishuv asosida faoliyat yurituvchi bo'lib hisoblanadi.

Quyidagi ikki yoki undan ortiq shaxslar bir-biri bilan kelishuv asosida faoliyat yurituvchilar bo'lib hisoblanadi, agar ular:

- ushbu barcha shaxslarning yirik ishtirokchisi, a'zosi (sherigi) yoki yuridik vakili hisoblangan hech bo'lmaganda bitta shaxs bilan bog'liq bo'lsalar;

- bitta bankning aksiyalariga egalik qilsalar hamda ayni vaqtda ular bitta yuridik shaxsning (mazkur bankdan tashqari) boshqaruv, kuzatuv kengashi a'zolari, yirik ishtirokchilari (sherigi) yoki yuridik vakillari bo'lsa yoxud ushbu shaxslar yaqin qarindosh bo'lishsa.

Shaxsning yaqin qarindoshlari bo'lib eri, xotini, ota-onasi, bolalari, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari, bobolari, buvilari, nevaralari hisoblanadi.

Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir-yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar.

Bank muassislari moliyaviy jihatdan barqaror va obro'ga ega bo'lishlari lozim.

Yuridik shaxsning moliyaviy barqaror bo'lmaganligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- balansning nolikvidligi;
- to'lovga qobiliyatsizlik yoki bankrotlik;
- bu yuridik shaxs rasmiy ravishda bankrot deb e'lon qilinishidan qat'i nazar, uning passivlarining aktivlaridan oshib ketishi;
- yuridik shaxsning majburiyatlari bank barqarorligiga nisbatan muayyan tavakkalchiliklarni yuzaga keltirsa;
- yuridik shaxs taqdim etgan moliyaviy hujjatlar bu shaxs zarur hollarda bank ustav kapitalidagi ulushini oshira olmasligini ko'rsatsa;
- yuridik shaxs tomonidan bank aksiyalarining sotib olinishi natijasida bankka yoki uning omonatchilariga moliyaviy xavf solinishi mumkinligini ko'rsatuvchi boshqa hollar ma'lum bo'lsa.

Quyidagi shaxslar bank muassislari bo'la olmaydilar:

- offshor hududlarda ro'yxatga olingan norezident yuridik shaxslar;
- offshor hududlarda istiqomat qiladigan chet el fuqarolari;
- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, jamoat fondlari, xalqaro nedavlat notijorat tashkilotlari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, agar qonun hujjatlarida boshqacha holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa.

Bankning ta'sis etilishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Muassislar aksiyadorlik jamiyati shaklidagi bankni tashkil etish uchun avval ta'sis shartnomasini imzolaydilar, so'ngra ta'sis yig'ilishini o'tkazadilar.

Mazkur harakatlar muassislar tomonidan O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 5-6-son, 61-modda), «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 29-30-son, 278-modda) qonunlari hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Bankni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasida quyidagilar bo'lishi lozim:

- bankni ta'sis etish borasida birgalikda faoliyat ko'rsatish tartibi;
- bank ustav kapitali miqdori;
- muassislar o'rtasida joylashtirilishi lozim bo'lgan aksiyalar turlari, ularning nominal qiymati, har xil turdagi aksiyalarning nisbati, ularni to'lash miqdori va tartibi;
- muassislarning bankni tashkil etishga doir huquq va burchlari.

Ta'sis shartnomasiga muassislarning kelishuviga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Ta'sischilar tomonidan bank ustavi tuziladi va u faoliyatni litsenziyalashda muhim ahamiyatga ega.

Bank ustavida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- bankning to'liq va qisqartirilgan nomi hamda uning joylashgan eri (pochta manzili);
- bank operatsiyalarining ro'yxati, maqsadi va faoliyat muddati;
- ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati, ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimlanishi;
- ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish tartibi;
- chiqarilayotgan aksiyalar turlari, ularning nominal qiymati, har xil turdagi aksiyalarning nisbati;
- sof foyda va dividendlarni taqsimlash hamda zararlarni qoplash tartibi;
- zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi;
- bank aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari;
- bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, a'zolarining soni, vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar;
- yillik hisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiqlash tartibi;

- bank auditi tartibi, shu jumladan, buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari;

- bankni qayta tashkil etish va tugatish tartibi;

- bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari.

Bank ustavida qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham bo'lishi mumkin.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlarining pul mablag'lari hisobidan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan bank ustav kapitalini shakllantirishda hamda bank aksiyalarini sotib olishda foydalanish taqiqlanadi. Mazkur talabga zid holda ustav kapitaliga kiritilgan mablag'lar egalariga qaytarilishi va shu vaqtning o'zidayoq aksiyalar kelgusida sotish uchun bankka topshirilishi lozim.

Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanilishi mumkin.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagilar asosiy omil hisoblanadi:

-Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori bo'yicha talablarga muvofiqligi;

-bank kapitali, shu jumladan ustav kapitali miqdorini doimiy ko'paytirib borishning rejalashtirilganligi;

-ko'zda tutilayotgan daromadlar hamda fondlarni shakllantirish istiqbollari;

-muassislarning zarur hollarda qo'shimcha kapital kiritish qobiliyati.

Bank ro'yxatga olingunga qadar ustav kapitalini shakllantirish uchun muassislar tomonidan Markaziy bankda yoki rezident banklarning birida vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'i ochiladi.

Bank ustav kapitalining belgilangan eng kam miqdori mazkur vaqtinchalik jamg'arma hisobvaraqda muassislar tomonidan bankni ro'yxatga olingunga qadar to'liq shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Markaziy bankning bankni ochish uchun bergan dastlabki ruxsati hamda bank muassislarining vakolatli shaxsi tomonidan vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi ariza vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'ini ochishga asos bo'ladi.

Vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'idan ustav kapitali jamg'arilgunga va litsenziya olingunga qadar foydalaniladi. Mazkur hisobvaraqdagi mablag'lar bank tomonidan depozit sifatida jalb etilishi mumkin.

Bankni ro'yxatga olish rad etilgan hollarda muassislarning vakolatli shaxsiga bu haqda yozma ravishda xabar beriladi. Bunda, vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'idagi mablag'lar mazkur hisobvaraqa ochilgan bank tomonidan muassislarga qaytariladi.

Bank ro'yxatga olinganidan va unga litsenziya berilganidan keyin Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'ini ochish uchun Markaziy bankning Toshkent shahar hududiy Bosh boshqarmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- vakillik hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi ariza;
- Markaziy bankda ro'yxatga olingan bank ustavi nusxasi;
- litsenziya nusxasi;
- imzolar va muhr izi namunalari qo'yilgan, notarial tarzda tasdiqlangan kartochka.

Vakillik hisobvarag'i ochilganidan keyin vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'i ochilgan bank muassislarning vakolatli shaxsi arizasiga ko'ra vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'idagi mablag'larni tashkil etilgan bankning vakillik hisobvarag'iga o'tkazadi hamda uch kunlik muddatda vaqtinchalik jamg'arma hisobvarag'ini yopadi.

Bank ro'yxatga olingach va litsenziyaga ega bo'lgach muassislar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bankni tashkil etish bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq qilingan xarajatlar haqida hisobot beradilar.

Ularning harakati aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ma'qullansa, bank shartnomaga muvofiq ular tomonidan sarflangan summani qaytarib beradi.

Ustav kapitalining eng kam miqdori 2011-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- banklar uchun — 10 mln. evro ekvivalentida;
- xususiy tijorat banklari uchun — 5 mln. evro ekvivalentida.

Yangi tashkil etilayotgan banklar uchun ustav kapitali eng kam miqdorining hisob-kitobi Markaziy bank tomonidan valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarni yuritish uchun e'lon qilingan evro kursining muassislar tomonidan bank tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan (ta'sis yig'ilishi o'tkazilgan) kundagi kursidan kelib chiqqan holda milliy valyutada amalga oshiriladi.

Bank ro'yxatga olingandan keyin uning ustav kapitali miqdorida egasi yozilgan aksiyalar chiqariladi va ular muassislar o'rtasida joylashtiriladi.

Bank nomida «Bank» atamasi yoki mazkur atama qo'shib yasalgan so'z birikmalari ishlatilishi hamda bankning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilishi lozim. Bank nomi firma nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida keltirilgan talablarga muvofiq bo'lishi zarur.

Markaziy bank tomonidan bankning rahbar xodimlariga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

Bankning rahbar xodimlariga bank kengashining raisi va a'zolari, boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari, boshqaruv a'zolari, bosh bankning bosh buxgalterlari, amaliyot boshqarmasi va bank filiallarining rahbarlari hamda ularning bosh buxgalterlari kiradi. Ular (bank kengashi raisi va a'zolaridan tashqari) «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari va ularning filiallari rahbarlari, bosh buxgalterlari, boshqaruv a'zolari, kredit uyushmalari hamda mikro kredit tashkilotlari ijro organlari rahbarlari lavozimlariga tavsiya etilayotgan nomzodlarga nisbatan malaka talablari qo'yish tartibi to'g'risida»gi nizamning talablari asosida kasbga muvofiqligi aniqlanadi.

Bank kengashining raisi va a'zolari Markaziy bank tomonidan suhbatga taklif etilishlari mumkin. Ular aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi.

Chet el kapitali ishtirokidagi bank va chet el bankining sho'ba bankini tashkil etishga qo'shimcha talablar quyidagilardan iborat:

1. Faqat moliyaviy ahvoli mustahkam va obro'ga ega bo'lgan norezident banklarga O'zbekiston Respublikasi hududida o'z sho'ba banklarini ochishga yo'l qo'yiladi. Bunda, qisqa muddatli majburiyatlari IVSA, Moody's yoki Standart and Poor's tasniflari bo'yicha A1 (yoki A+)dan past bo'lmagan reytingga ega bo'lgan norezident banklar ustunlikka egadirlar.

2. O'zbekiston Respublikasi hududida o'z sho'ba bankini ochish yoki bank ustav kapitalida ishtirok etish istagini bildirgan norezident bankning ustav kapitali 500 mln. evro ekvivalentiga teng summadan kam bo'lmasligi kerak.

3. Norezident jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek, ellik foizdan ortiq aksiyalari (ishtirokchilar badallari) norezident jismoniy va/yoki yuridik shaxslarning egaligida, foydalanuvda yoki tasarrufida bo'lgan rezident yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan banklarning aksiyalarini sotib olish, ularga egalik huquqini

berish va shu kabi boshqa munosabatlar bo'yicha kelishuvlar faqat Markaziy bankning oldindan ruxsati olinganidan so'ng amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi hududida norezident banklarning filiallarini tashkil etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Chet el kapitali ishtirokidagi banklar va chet el bankining sho'ba banklarida — bosh buxgalter, boshqaruv raisi o'rinbosari lavozimlariga, boshqaruv raisi o'rinbosarlari bir kishidan ko'p bo'lgan banklarda esa — birinchi o'rinbosar lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tayinlanadi.

6. Chet el kapitali ishtirokidagi banklarda bank kengashi a'zolarining hech bo'lmaganda bittasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi lozim, chet el bankining sho'ba banklari bundan mustasno.

7. Bankni tashkil etishda norezident bank ishtirok etgan hollarda Markaziy bank qo'shimcha ravishda quyidagi omillarni ko'rib chiqadi:

- norezident bank mamlakatidagi nazorat darajasi va sifati;
- norezident bankning IBCA, Moody's yoki Standart and Poor's tasniflari bo'yicha kredit reytingi;

- norezident bank mamlakatida omonatlarni muhofaza qilish tizimi;

- norezident bank mamlakatidagi iqtisodiy ahvol.

Markaziy bank mazkur bandeda qayd etilgan omillarni belgilash maqsadida quyidagilar bilan munosabatlarni o'rnatadi:

- norezident bank mamlakatida bank nazoratini amalga oshiruvchi organ bilan;

- norezident bank mamlakatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan;

- norezident bank mamlakatidagi fiskal organlar bilan.

Bankni tashkil etishda norezident bank ishtirok etsa, qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

a) norezident bankning tegishli organi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etishda qatnashish to'g'risida qaror;

b) muassis-norezident bankning ustavi;

v) muassis-norezident bank joylashgan mamlakatdagi bank nazorati organining muassis-norezident bankning bank faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega ekanligi, jumladan, o'z mamlakatida qaytarib berish sharti bilan pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga ega ekanligi haqidagi yozma tasdiqnomasi;

g) bank nazorati organining muassis-norezident bank joylashgan va ro'yxatdan o'tkazilgan joyda nazoratda ekanligini tasdiqlovchi yozma tasdiqnomasi;

d) auditorlik firmasi tomonidan tasdiqlangan muassis-norezident bankning oxirgi uch-yillik moliyaviy hisoboti;

e) bank nazorati organining muassis-norezident bank O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan bank ustav kapitalida qatnashishi uchun bergan yozma ruxsatnomasi yoki muassis-norezident bank mamlakati qonunlariga ko'ra bunday ruxsatnoma talab etilmasligi to'g'risidagi yozma tasdiqnomasi;

j) muassis-norezident bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) haqidagi quyidagi ma'lumotlar:

- familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxslar uchun), firma nomi (yuridik shaxslar uchun);

- tug'ilgan sanasi va joyi (jismoniy shaxslar uchun), davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi va joyi (yuridik shaxslar uchun);

- norezident bank aksiyadorlarining mazkur bank ustav kapitalidagi ulushi.

Norezident banklar O'zbekiston Respublikasining faoliyat ko'rsatayotgan banklari ustav kapitali ulushini sotib olgan hollarda ham mazkur bandda keltirilgan hujjatlar taqdim etiladi.

Bankni tashkil etishda bank bo'lmagan norezident yuridik shaxslar qatnashsa qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) muassis vakolatli organining uning O'zbekiston Respublikasi hududidagi bank ustav kapitalida ishtirok etishi to'g'risidagi qarori nusxasi;

b) auditorlik firmasi tomonidan tasdiqlangan muassisning oxirgi uch-yillik moliyaviy hisoboti;

v) agar muassisning mamlakati qonunlari talab qilsa, muassis joylashgan mamlakat nazorat organining uning O'zbekiston Respublikasi hududidagi bank ustav kapitalida ishtirok etishiga roziligini tasdiqlovchi hujjati;

g) muassisning to'lovga layoqatliligi to'g'risida birinchi darajali chet el banki tomonidan berilgan tasdiq;

d) muassisning ta'sischi-lari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar:

- ta'sischi-yuridik shaxslar uchun — firma nomi, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi va joyi, muassisning ustav fondidagi (kapitalidagi) ulushi;

- ta'sischi-jismoniy shaxslar uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi (to'liq manzili), ishbilarmonlik yoki professional faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, muassisning ustav fondidagi (kapitalidagi) ulushi.

Barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasi yoki muassis-norezident bank ro'yxatdan o'tkazilgan davlatdagi vakolat berilgan boshqa konsullik muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Bankni tashkil etishda norezident jismoniy shaxs qatnashsa, qo'shimcha ravishda uning to'lovga layoqatliligini (ustav kapitalidagi o'z ulushini to'lashga layoqatliligini) tasdiqlovchi birinchi darajali chet el banki tomonidan berilgan tasdiq, shuningdek, uning mablag'larining qonuniyligi to'g'risidagi xorijiy davlat vakolatli organining ma'lumotnomasi ilova qilinadi.

Birinchi darajali chet el banki bo'lib qisqa muddatli majburiyatlari IVSA, Moody's yoki Standart and Poor's tasniflari bo'yicha A1 (yoki A+)dan past bo'lmagan reytingga ega bo'lgan bank hisoblanadi.

Norezidentlarning arizasini ko'rib chiqish va ularning moliyaviy ahvolini baholashda, Markaziy bank norezidentlar mamlakatining nazorat organi ma'lumoti va fikr-mulohazalariga tayanadi.

Zarurat bo'lganda, Markaziy bank o'z mezonlari va fikr-mulohazalarini qo'llash huquqiga ega.

Chet el kapitali ishtirokidagi banklar va chet el bankining sho'ba banklarini ro'yxatga olishda ularning chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirishga tayyor bo'lishlari majburiydir.

Norezidentlar tomonidan bankni tashkil etishga berilgan arizalarni rad etish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- mahalliy iqtisodiyotga yoki raqobat muhitiga yomon ta'sir o'tkazish xavfining mavjudligi;
- biznes-rejaning asoslanmaganligi va moliyaviy institutning muvaffaqiyatli ish olib borishiga yordamlashmasligi;
- ularning mamlakatida bank nazoratining etarli darajada emasligi (norezident bank ishtirok etsa);
- norezident mamlakatining nazorat qiluvchi organlari tomonidan rad etish tavsiya qilinsa;
- norezidentning ustav kapitalida jinoiy faoliyatdan olingan mablag'larning mavjud bo'lishi yoxud ularning aksiyadorlari tarkibida offshor hududlarda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslarning mavjud bo'lishi;
- norezidentning moliyaviy holati qoniqarsiz bo'lsa;

- bankning chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirishga tayyor emasligi;

- bank kengashi (chet el bankining sho'ba banki bundan mustasno) va boshqaruvi tarkibida O'zbekiston Respublikasi fuqarosining bo'lmashligi;

- bankning xavfsiz va barqaror faoliyat yuritishiga xalaqit beruvchi boshqa holatlar.

Bankni tashkil etish uchun dastlabki ruxsatni berish uchun litsenziyalash departamenti bir oy muddat ichida muassislar taqdim etgan hujjatlar to'plamini talablarga muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Notarius tasdig'idan o'tkazilishi talab qilinmaydigan va hajmi bir varaqdan ko'p bo'lgan hujjatlar alohida yig'majild shaklida tikilgan bo'lishi lozim.

Taqdim etilgan hujjatlar to'plami to'liq jamlansa Litsenziyalash departamenti Markaziy bankning Kredit tashkilotlarini ro'yxatga olish va litsenziyalash komissiyasiga bankni ochish uchun dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi masalani kiritadi, aks holda hujjatlar to'plami qaytarish sababi va qancha muddat ichida hujjatlarni takroran taqdim etish mumkinligi ko'rsatilgan holda qaytariladi.

Hujjatlarni qayta ko'rib chiqish uchun taqdim etish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi lozim. Ushbu muddatdan kechikib taqdim etilgan hujjatlar yangidan taqdim etilgan hisoblanadi. Muassislar tomonidan takroran taqdim etilgan hujjatlarni qayta ishlash uchun ketgan vaqt hujjatlarni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatga kirmaydi.

Takroran topshirishda qayta ishlangan hujjatlar yangidan tegishli tartibda rasmiylashtirilishi va tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi qaror barcha zarur hujjatlar ilova qilingan ariza taqdim etilgan kundan boshlab uch oydan kechikmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bankning dastlabki ruxsati muassislar moliyaviy imkoniyatlari va obro'si, biznes-reja, kapital tarkibi, moliya rejasi hamda tegishli bank binolari va jihozlari bilan ta'minlash imkoniyatlarini baholash asosida beriladi.

Dastlabki ruxsat olinganidan keyin muassislar bankni ro'yxatga olish va litsenziya olish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-texnik va boshqa tadbirlarni amalga oshiradilar. Bank boshqaruvi raisi va bosh buxgalteri nomzodlari tanlanib, Markaziy bankning roziligini olish uchun taqdim etiladi. Dastlabki ruxsatning olinishi litsenziya berilishini kafolatlamaydi.

Markaziy bank tomonidan berilgan dastlabki ruxsat u olingan kundan boshlab olti oydan oshmaydigan muddat davomida o'z yuridik kuchini saqlab qoladi.

Quyidagi hollarda dastlabki ruxsat amal qilish muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

- muassislar yoki bankning rahbar xodimlari tarkibida Markaziy bank talablariga javob bermaydigan o'zgarishlarning yuz berishi yoki yangi ishtirokchilar va bankning rahbar xodimlariga beriladigan rezyume, shaxsiy balans qaydnomasi, biznes-rejaning va yirik muassislar yoki rahbarlarga taalluqli bo'lgan holatlarning o'zgartirilgan qismining taqdim etilmasligi;

- bank mulkiy-huquqiy shaklining o'zgarganligi, biznes-rejadagi va kapitaldagi muayyan tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi;

- muassislar yoki ular bilan bog'liq shaxslar moliyaviy ahvolidan yomonlashishi;

- bankni boshqarish xavfsiz va barqaror bo'lmashligini ko'rsatuvchi holatlarning ma'lum bo'lishi;

- qonun hujjatlarini buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligining aniqlanishi.

Banklar Markaziy bankda Tijorat banklarini ro'yxatga olish kitobida ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab yuridik shaxs maqomini oladilar. Ro'yxatga olish bilan bir vaqtda ularga litsenziya beriladi.

Bankni ro'yxatga olish va litsenziya olish uchun muassislar dastlabki ruxsat olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda quyidagi talablarni bajarishlari shart:

a) muassislarning vakolatli shaxsi imzolagan bankni ro'yxatga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani taqdim etish;

b) bankni ro'yxatga olish va litsenziya olish uchun ushbu Nizomda nazarda tutilgan barcha zaruriy talablarni bajarish;

v) bank binolari muhofazasini ta'minlash hamda muhandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash, dasturiy mahsulotlarni tayyorlash;

g) Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabdan kam bo'lmagan miqdorda bank ustav kapitalini shakllantirish hamda ustav kapitaliga yo'naltirilgan to'lovni tasdiqlovchi hujjatlarni va muassislar ro'yxatini taqdim etish;

d) bank boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari, bosh buxgalter va uning o'rinbosarlari egallab turgan lavozimlariga kasbiy muvofiqliligini baholash bo'yicha Markaziy bankning ijobiy xulosasini taqdim etish;

e) barcha hujjatlarning fayl (elektron) ko'rishdagi nusxalarini ham taqdim etish.

Bankni ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza taqdim etilganidan so'ng Litsenziyalash departamenti ochilayotgan bankni tekshiradi.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror Markaziy bankning barcha talablari bajarilgan kundan boshlab bir oy ichida qabul qilinadi.

Quyidagilar bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi:

a) ta'sis shartnomasi va ustavning qonun hujjatlariga mos kelmasligi;

b) bir yoki bir necha muassis moliyaviy ahvolidagi qoniqarsizligi;

v) muassislar mablag'lari manbalarining deklaratsiya qilinmaganligi (xususiylar tijorat banklari ustav kapitalida ishtirok etayotgan rezident jismoniy shaxslardan tashqari);

g) bank ro'yxatga olinadigan vaqtgacha bank eng kam ustav kapitalining shakllantirilmaganligi;

d) bank binolari muhofazasining ta'minlanmaganligi hamda muhandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanmaganligi, dasturiy mahsulotlarning tayyor emasligi;

e) tashkil etilayotgan bank rahbari va bosh buxgalterining kasbga nomuvofiqligi.

Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya bankka unda ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Tashkil etilayotgan bankni boshqarish imkoniyatlari, umumiy tavakkalchilik va kapital tuzilmasini o'rganish asosida ayrim faoliyat turlari cheklab qo'yilishi mumkin.

Litsenziya uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

Chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirish uchun banklarga «Tijorat banklariga chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar berish qoidalariga» muvofiq bosh yoki ichki litsenziyalar beriladi.

Ro'yxatga olingan bankning yuridik yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:

a) bank ustavi. Uning titul varag'ida bank ro'yxatga olinganligi to'g'risida belgi qo'yilib, Markaziy bank vakolatli mansabdor shaxsining imzosi va Markaziy bank muhri qo'yiladi;

b) bank tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasi (asl nusxa bankda saqlanadi);

v) ta'asis yig'ilishi bayoni;
g) bank kengashi raisi imzolagan ta'asischilar ro'yxati;
d) O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarori nusxasi (bankning muassisi davlat bo'lsa);

e) muassis norezident shaxs tegishli organining O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan bank ustav kapitalida qatnashish yoki sho'ba bank tashkil etish to'g'risidagi qarori;

j) Markaziy bank Boshqaruvining bankni davlat ro'yxatiga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi qarori;

z) litsenziya (asl nusxa bankda, nusxalari Markaziy bank va uning tegishli hududiy Bosh boshqarmasi yig'majildida saqlanadi);

i) ro'yxatga olish kartasi.

Yuridik yig'majild uch nusxada tayyorlanadi:

- bir nusxa yangi tashkil etilgan bank kengashi raisiga imzo chektirilgan holda topshiriladi;

- bir nusxa Markaziy bankda saqlanadi;

- bir nusxa Markaziy bankning yangi tashkil etilgan bank joylashgan hududdagi Bosh boshqarmasiga yuboriladi.

Bank ro'yxatga olingunga qadar bank nomidan bajarilgan bank operatsiyalari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bank ro'yxatga olinganidan keyin o'n kunlik muddatda o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq organiga zarur hujjatlarni topshiradi.

Bankni ro'yxatga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun yig'im undiriladi. Mazkur yig'im bankni ochish uchun dastlabki ruxsatni berish bosqichida undiriladi. Arizani qayta ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

Bank ro'yxatga olinganligi va unga litsenziya berilganligi uchun davlat bojlari undiriladi. Davlat bojlari va yig'imning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Litsenziya dublikatini berishda yoki uni qayta rasmiylashtirishda bankni ro'yxatga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im summasining teng yarmi miqdorida yig'im undiriladi.

Banklar Tijorat banklarini ro'yxatga olish kitobiga kiritilgan o'zlari haqidagi va ularning muassislari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun Markaziy bankka eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida to'lov amalga oshirishlari lozim.

Davlat organlariga bank hamda uning muassislari to'g'risidagi ma'lumotlar to'lov amalga oshirilmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Ma'lumotlar Tijorat banklarini ro'yxatga olish kitobidan ko'chirma ko'rinishida beriladi.

Litsenziyaning asl nusxasi yo'qolgan taqdirda, bank bir haftalik muddatda bu haqda Markaziy bankka yozma ravishda ma'lumot beradi va uni qayta tiklash uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- avval berilgan litsenziyaning yo'qolganligi sababi ko'rsatilgan hamda litsenziya dublikati berilishini so'rab, litsenziyani saqlash uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarga nisbatan ko'rilgan va bunday holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar aks ettirilgan ariza;

- topilmalar byurosi tomonidan litsenziyaning yo'qotilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma;

- ommaviy axborot vositalari manbalariga yo'qotilgan litsenziyani haqiqiy emas deb topish to'g'risida berilgan e'lon nusxasi.

Markaziy bank bir oy muddat ichida taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va litsenziyani yo'qotgan bankka uning dublikatini beradi.

Agar litsenziya dublikati olingandan so'ng avval yo'qotilgan litsenziya topilsa, bank besh ish kuni ichida litsenziyaning asl nusxasini bekor qilish uchun Markaziy bankka topshiradi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

3.2. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi

Yuqorida qayd etilganligi kabi, tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi quyidagi omillar ta'sirida turlicha bo'lishi mumkin:

- bankning ixtisoslashuvi;
- bankning tashkil etilish shakli;
- bankni tashkil etish maqsadlari;
- bank tashkil etilayotgan hudud iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Shunga qaramasdan, harakatdagi qonun va qoidalarga muvofiq, banklarning boshqaruv organlari quyidagilar hisoblanadi:

1. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
2. bank kengashi (kuzatuv kengashi);

3. bank boshqaruvi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bankning oliy boshqaruv organidir. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vazifalari va vakolatlari qonun hujjatlari va bank ustavi asosida belgilanadi.

Odatda aksionerlarning umumiy yig'ilishi-yilda 1 marta, zarur hollarda aksionerlarning ko'pchiligi (2/3) ning talablariga muvofiq, navbatdan tashqari yig'ilishlari bo'lib o'tadi. Aksionerlarning umumiy yig'ilishlarida asosan quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- bank boshqaruvining-yillik hisoboti;
- bank taftish komissiyasining-yillik hisoboti;
- bank balansi, daromad va xarajatlari vasof foydasini taqsimlashi masalalari;
- keyingi-yil uchun qimmatli qog'ozlar emissiyasini belgilash;
- keyingi-yil uchun tashqi auditni tanlash;
- bank kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;
- bank boshqaruvi mehnatini baholash va ularni saylash hamda tasdiqlash uchun nomzodlarni Markaziy bankka taqdim etish;
- bank ustavi va qonunchilik doirasidagi boshqa masalalar.

Qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiruvchi masalalar bank kengashi yoki uning boshqaruviga topshirilmaydi.

Bank kengashining miqdoriy tarkibi bank ustavi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra belgilanadi.

Bunda, aksiyadorlari soni 500 tagacha bo'lgan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklarning Kengashi tarkibi kamida besh a'zodan, aksiyadorlari soni 501 tadan 1000 tagacha bo'lgan banklarda kamida etti a'zodan va aksiyadorlari soni 1000 tadan ortiq bo'lgan banklarda kamida to'qqiz a'zodan iborat bo'lishi lozim.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklarning bank kengashi a'zolarining umumiy soni aksiyadorlar sonidan qat'i nazar, beshtadan kam bo'lmashligi kerak.

Ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar soni o'ttiz kishidan kam bo'lgan yopiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan bankda kuzatuv kengashi vazifasi bank ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi zimmasiga yuklanishi mumkin.

Odatda bank kengashi yig'ilishlari har bir chorakda bir marta, zarur hollarda kengash a'zolari (2/3) ning talablariga muvofiq, navbatdan tashqari tarzda yig'ilishlari o'tkaziladi.

Bank kengashi raisi aksionerlar umumiy yig'ilishidan keyin saylangan a'zolar yig'ilishi tomonidan saylanadi.

Bank kengashi yig'ilishida asosan quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- bank boshqaruvining choraklik hisobotlari;
- bank ichki audit guruhining hisobotlari; bank strategik masalalarining bajarilishi;
- bank faoliyatining ayrim jihatlari bilan bog'liq masalalar;
- bank ustavi va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa masalalar.

Bank boshqaruvi bankning ijro organi bo'lib, bankka operativ rahbarlikni amalga oshiradi hamda bank faoliyati uchun javobgar hisoblanadi. Boshqaruvga rais rahbarlik qiladi.

Boshqaruv qonun hujjatlariga muvofiq bank kengashi vakolatiga kiritilgan masalalarni hal qilish huquqiga ega emas. Boshqaruv bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga hisobot beradi.


Bank boshqaruvi a'zolari, aksionerlar va bank kengashi a'zolaridan farqli o'laroq, ular aksioner bo'lishlari shart emas. Ular yollanma ishchilar, ya'ni soha mutaxassislaridan tashkil topadi. Shuning uchun ham ular Markaziy bankning kasbga layoqathilik komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishlari lozim.

Bank boshqaruvi yig'ilishlari uning faoliyatini operativ boqsharish masadida strategik rejaning bajarilishini ta'minlash har oyda bir yoki bir necha marta rejaga muvofiq o'tkazilishi mumkin.

Bankning tashkiliy tuzilmasi biznes-rejada ko'rsatilgan faoliyat turlarini o'zida aks ettirishi kerak. Tashkil etishning nazarda tutilayotgan ko'lami amalga oshirilishi rejalashtirilgan operatsiyalar hajmiga mos bo'lishi kerak.

Ishga jalb etilayotgan xodimlarning malakasi bank tomonidan bajarilishi ko'zda tutilayotgan faoliyatining belgilangan turlariga mos bo'lishi hamda ular soni bank faoliyatini amalga oshirishni ta'minlash uchun etarli bo'lishi kerak.

Quyidagi biz yirik tijorat banklari Respublika apparati uchun taxminiy tarkibiy tuzilishni keltirib o'tamiz:



1-rasm. Yirik tijorat banklari Respublika apparatining taxminiy tarkibiy tuzilishi.

Bank qonun hujjatlariga muvofiq bankda ichki nazorat holatini, jumladan, moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini, hisobning

ishonchliligi va aniqligini, hisobotlarning to'liq va obyektivligini, bank qonunchiligi hujjatlari va boshqa ichki hujjatlarga, bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari va tartiblariga rioya qilinishini tekshirish (audit) va monitoringini amalga oshiruvchi, shuningdek, bank operatsiyalarining samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo'yicha bank kengashiga maslahatlar beruvchi mustaqil tarkibiy tuzilma - ichki audit xizmatini tashkil etishi shart.

Ta'kidlaganimizdek, bankni tashkil etish maqsadi va ixtisoslashuvi inobatga olingan holda qo'shimcha departament va boshqarmalar tashkil etilishi mumkin.

Masalan, ko'pchilik tijorat banklarida kichik biznes va tadbirkorlikni kreditlash uchun mustaqil departament yoki bankni yangi xizmat turlarini taqdim etish uchun mustaqil bo'linmalar (masalan, plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatish ulgurji xizmatlar ko'rsatish) tashkil etilishi mumkin.

Bank faoliyat yuritish uchun litsenziya olgandan kundan boshlab tarkibiy tuzilmalari tashkil qilinadi va o'z faoliyatini boshlaydi.

Harakatdagi qonun qoidalarga muvofiq tijorat banklari xizmatlar ko'lamini inobatga olgan holda hamda o'zlarining hududiy filiallarini ochishlari mumkin. Bank filiallarini ochish uchun quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Bank nomidan bank operatsiyalarining barchasini yoki bir qismini, shu jumladan, filial joylashgan hududda vakolatxona (vakil) vazifalarini amalga oshiruvchi alohida bo'linma bank filiali hisoblanadi.

Filial uni tashkil etgan bank tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi. Filial nomi bank nomiga to'liq mos kelishi kerak.

Filial o'z faoliyatini bank kengashi tasdiqlagan filial to'g'risidagi nizom va bank tomonidan berilgan ishonchnoma doirasida bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bank filiallari qonun hujjatlariga muvofiq bank kengashi qaroriga binoan Markaziy bankdan oldindan rozilik olingan holda ochiladi (yoki tugatiladi) hamda Markaziy bankda ro'yxatga olinadi.

Ro'yxatga olingunga qadar filial tomonidan amalga oshirilgan faoliyat noqonuniy hisoblanadi.

Markaziy bankning bank filialini ochishga beradigan dastlabki ruxsatini olish uchun Markaziy bankka filialni tashkil etish to'g'risidagi kengash qarori, mazkur filialni ochish uchun iqtisodiy asoslov hamda filialning taxminiy balans qaydnomasi va daromadlar to'g'risidagi taxminiy hisoboti taqdim etilishi lozim.

Taqdim etilgan hujjatlar to'plami to'liq jamlansa Litsenziyalash departamenti Kredit tashkilotlarini ro'yxatga olish va litsenziyalash komissiyasiga bank filialini ochish uchun dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi masalani kiritadi, aks holda hujjatlar to'plami qaytarish sababi ko'rsatilgan holda qaytariladi.

Dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi qaror barcha zarur hujjatlar ilova qilingan ariza taqdim etilgan kundan boshlab bir oydan kechikmagan muddatda qabul qilinadi.

Dastlabki ruxsatni olish uchun bankning moliyaviy holati qoniqarli bo'lishi va u iqtisodiy me'yorlarga hamda qonun hujjatlari talablariga rioya etishi lozim.

Filialni ochish to'g'risida dastlabki ruxsatni olgandan so'ng bank filialni tashkil etish bo'yicha tashkiliy-texnik va boshqa tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Markaziy bank tomonidan bank filialini ochish uchun berilgan dastlabki ruxsat u berilgan vaqtdan boshlab bir-yil mobaynida o'z kuchini saqlab turadi.

Filial quyidagi shartlarga rioya qilgan holda ochilishi mumkin:

- bank qoniqarli moliyaviy ahvolda ega bo'lishi lozim;
- bank iqtisodiy me'yorlarga va qonun hujjatlariga rioya etishi kerak;
- bank filiali rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga taklif etilayotgan nomzodlar kasbga muvofiq bo'lishi zarur;
- talablarga muvofiq bank filiali binolari muhofazasini ta'minlagan hamda texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlagan, dasturiy mahsulotlarni tayyorlagan bo'lishi lozim.

Bank barcha filiallarning ichki vakillik hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni hisobga olgan holda kunlik jamlama buxgalteriya balansini tuzish uchun dasturiy mahsulotlarga ega bo'lishi lozim.

Bank filiali Markaziy bank talablariga javob beradigan bino va jihozlar bilan ta'minlanishi kerak.

Filialni ro'yxatga olish uchun Markaziy bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- bank filialini ro'yxatga olish uchun bank kengashi raisining imzosi qo'yilgan murojaat xati;
- bank filiali to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi bank kengashining qarori;

- bank filiali to'g'risidagi nizom. Unda bank o'z vakolatlari doirasida filialga beradigan huquqlar va uning zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar belgilab qo'yiladi;

- bank filiali rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga ko'rsatilgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, bank filiali rahbarlarining egallab turgan lavozimlariga kasbiy muvofiqligini baholash bo'yicha Markaziy bank komissiyasining ijobiy xulosasi;

- talablarga muvofiq bank filiali binolari muhofazasini ta'minlanganligi va texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanganligi, dasturiy mahsulotlarning tayyorligi yuzasidan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi.

Bank filialini ochish uchun taqdim etilgan hujjatlar bir oy mobaynida ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan hujjatlarning Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lganda hamda bank filialini tashkil etish bo'yicha tashkiliy-texnik va boshqa tadbirlar amalga oshirilganda, Litsenziyalash departamenti bank filialini ro'yxatga olish to'g'risidagi masalani Kredit tashkilotlarini ro'yxatga olish va litsenziyalash komissiyasi muhokamasiga kiritadi. Aks holda, asoslantirilgan sabablari ko'rsatilgan holda taqdim etilgan hujjatlar qaytariladi. Hujjatlar qaytadan topshirilganda, bank filiali to'g'risidagi nizom bank kengashi tomonidan yangidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Banklarning filiallari yuridik shaxs hisoblanmaydilar, va ular ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab o'z faoliyatlarini boshlaydilar.

Bank filiali yuridik yig'majildi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bank kengashining mazkur filialni tashkil etish to'g'risidagi va uning nizomini tasdiqlash haqidagi qarori;

- bank filialini tashkil etish iqtisodiy asoslab berilgan holda uni ro'yxatga olish to'g'risidagi murojaat xati;

- bank filiali to'g'risidagi nizom. Uning titul varag'ida bank filiali ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi belgi, Markaziy bankning vakolatli mansabdor shaxsi imzosi hamda muhri qo'yilgan bo'lishi kerak;

- Markaziy bankning qaroridan ko'chirma;

- bank filiali rahbari va bosh buxgalteri lavozimiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, bank filiali rahbarlarining egallab turgan lavozimlariga kasbiy muvofiqligini baholash bo'yicha Markaziy bank komissiyasining ijobiy xulosasi;

- ro'yxatga olish kartasi.

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilangan tartibda Markaziy bank filialni tugatishni talab qilishi mumkin.

Filialni tugatish ishlari qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

3.3. Banklar faoliyatida vasiylikning joriy etilishi

Banklar faoliyatida vasiylikni joriy qilish «Banklarga vasiylik qilish to‘g‘risida»gi nizom asosida amalga oshiriladi. Vasiylik - bankni adekvat moliyaviy ahvolda keltirish, uning faoliyati qonunchilikka mos kelishini ta‘minlash yoki buning iloji bo‘lmasa, bankni qayta tashkil etish yohud tugatishga tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etiladigan hamda ma‘muriy, yuridik, moliyaviy, tashkiliy va boshqa tadbirlarni o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar majmuidir.

Vasiy - vasiylik davrida bankning muvaqqat ma‘muriyatini boshqaruvchi mansabdor shaxs. Vasiylik tartibi boshlang‘ich muddatda 12 oygacha joriy etiladi.

Bankka vasiylik qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlar bankning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi

Bankka vasiylik qilish tartibi bank tomonidan yo‘l qo‘yilgan hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real havf soluvchi tartibbuzarliklar yuz bergan hollarda Markaziy bank qaroriga ko‘ra joriy etiladi. Bunday tartibbuzarliklarga katta zararlar ko‘rilishiga olib keluvchi quyidagi hollar kiradi:

- qonunchilik va Markaziy bank me‘yoriy hujjatlarining buzilishi;
- havfli va nosog‘lom bank faoliyatini amalga oshirish;
- Markaziy bank majburiy ko‘rsatmalarini atayin va uzoq vaqt davomida bajarmaslik;
- hujjatlar yoki yozuvlarni Markaziy bank nozirlaridan yashirish yohud bank nazorati xizmati talab qilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortish.

Quyidagi hollarda bank faoliyati omonatchilar hamda kreditorlar manfaatlariga real havf soladi:

- a) har qanday darajadagi kapitalning etariligi koeffitsienti Markaziy bank belgilagan ko‘rsatkichdan 75 va undan ortiq foizga pasayishi;
- b) bankning depozitorlar va kreditorlar talablari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishga qodir emasligi;
- v) bankning real yoki potensial zararlari;

- uchta bir-biridan keyin keluvchi har chorakda umumiy regulyativ kapitalning 10 foizidan;

- vaqtdan qat'iy nazar umumiy regulyativ kapitalning 50 foizidan oshib ketishi;

g) omonatchilar tomonidan bankka ishonib topshirilgan mablag'lar butligiga real havf soluvchi boshqa har qanday hollar.

Bankka vasiy belgilash to'g'risidagi qarorni qabul qilishda Markaziy bank quyidagi shartlarni e'tiborga olishi kerak:

a) vasiylik tartibi amal qilishi davrida bankning moliyaviy ahvoli zarur darajaga etishi ehtimoli;

b) bank aktiv va passivlarining katta qismini saqlash imkoniyati;

v) vasiylik tartibi joriy etilishi vaqtidagi aktivlarning real summasi hamda vasiylik jarayonida bank aktivlarini sotishdan tushishi mumkin bo'lgan summa.

Yuqoridagi talablarning birtasi yoki bir nechtasi buzilgan holda Markaziy bankning tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti bank bo'yicha xulosa tayyorlaydi hamda vasiylikni belgilash to'g'risidagi masalani Markaziy bank Boshqaruviga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

Vasiylikni joriy etishga doir taqdimnomada quyidagilar bo'lishi lozim:

- vasiylikni joriy etish asoslari;

- vasiy nomzodi hamda vasiylik tartibining amal qilish muddatlariga oid takliflar.

Markaziy bank Boshqaruvining vasiylikni belgilash to'g'risidagi farmoyishi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- bankning nomi va manzili;

- bankka vasiylikni joriy etish asoslari;

- vasiylik amal qilishining boshlanishi va davom etish muddati;

- vasiy vakolatlari doirasiga kiruvchi cheklovlar ro'yxati (agar ular mavjud bo'lsa);

- vasiy nomzodi.

Markaziy bank Boshqaruvining bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi farmoyishi ushbu qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida imzo qo'ydirilgan holda bank rahbariyatiga topshiriladi. Shundan so'ng bankning barcha operatsiyalari va bitimlari to'xtatiladi.

Markaziy bank Boshqaruvining bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi farmoyishi bank mablag'lari hisobiga Markaziy bank tomonidan matbuotda e'lon qilinadi. Mazkur farmoyish kuchga kirganidan

ma'ruq bank rahbariyati vasiyga qabul qilish - topshirish dalolatnomasi asosida bank muhrlari, burchak muhrlari, blanklari, qimmatliklari, xonalar va seyflarning kalitlari, shuningdek, bankning boshqa mulki va hujjatlarini topshirishi shart.

Markaziy bankning bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi qarori yuzasidan qonunchilikka muvofiq sud organlariga shikoyat qilinishi mumkin.

Vasiy Markaziy bank tomonidan bank nazorati bilan shug'ullanuvchi Markaziy bank xodimlari, yuridik va konsalting firmalari xodimlari hamda mustaqil mutaxassislar tarkibidan tayinlanadi. Vasiy o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari va ko'rsatmalariga amal qiladi.

Bankka vasiy etib tayinlanadigan shaxs 1998-yil 25 sentyabrda tasdiqlangan 22-sonli «Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risidagi Nizomda bank boshqaruvi raisiga nisbatan belgilangan talablarga mos kelishi lozim.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» Qonunning 26-moddasiga muvofiq bank aktyadori, qarzidori va kreditori yoki bankka aloqador bo'lgan shaxs yulud 1998-yil 9 dekabrda tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 2 dekabrda ro'yxatga olingan) 42-sonli «Banklar o'rtasida va ularga daxldor shaxslar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar to'g'risida»gi Nizomga ko'ra bunday shaxslarning yaqin qarindoshlari vasiy etib tayinlanishi mumkin emas.

Vasiy hamda muvaqqat ma'muriyatda band bo'lgan shaxsga ish haqi to'lash shartlari Markaziy bank va vasiy o'rtasida tuziladigan alohida shartnoma bilan belgilanadi. Muvaqqat ma'muriyatda band bo'lgan Markaziy bank xodimlari, jumladan, vasiyga vasiylik tartibi belgilangan bankda ish haqi to'lanadi. Ushbu toifadagi shaxslar ish haqi miqdori ularning asosiy ish joylaridagi ish haqidan kam bo'lmasligi lozim. Vasiyning ish haqi bank boshqaruvi raisining ish haqidan kam bo'lmasligi kerak. Muvaqqat ma'muriyat a'zolarining qayd etilgan toifasi uchun ularning asosiy ish joylarida lavozim maoshi miqdorida ish haqi saqlanib qoladi.

Vasiyning vazifasi bankning kreditorlari va depozitorlari manfaatlarini ko'zlab, uning to'lovga layoqatlilikini saqlab qolish hamda tiklash bo'yicha choralar qabul qilish, mavjud tartibbuzarliklarga barham berishni ta'minlovchi boshqarish mexanizmini yaratish, shuningdek, moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirish va bank faoliyatining qonunchilikka

mos kelishini ta'minlashga yo'naltirilgan samarali tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Vasiylikni joriy etish to'g'risidagi qaror topshirilgan vaqtdan boshlab hamda butun tartib davomida:

a) bank boshqaruvi, bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari to'xtatiladi;

b) bank boshqaruvi, bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining barcha vakolatlari vasiyga o'tadi;

v) vasiy vasiylik belgilangan bank nomidan harakat qiladi.

Vasiy quyidagi huquqlarga ega:

a) o'z xohishiga ko'ra bank, bank nazorati, yuridik, konsalting yoki auditorlik kompaniyalari xodimlari yoki mustaqil mutaxassislar tarkibidan muvaqqat ma'muriyat uchun xodimlarni ishga yollash;

b) vasiylik qilinayotgan bank xodimlarining ish haqini uning moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda belgilash;

v) bank xodimlarini amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra ishdan bo'shatish;

g) amaldagi qonunchilikka muvofiq bank bo'limlari va filiallarini yopish to'g'risida qaror qabul qilish;

d) bank aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga doir dividendlarni, shuningdek, bank rahbariyati va mansabdor shaxslariga to'lanadigan barcha to'lovlarni to'xtatib qo'yish;

e) bank mablag'lari hisobidan investitsiyalash yoki kreditlash ko'zda tutilgan bank shartnomalariga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

j) agar fuqarolar depozitlari va investitsiyalarining (bank aksiyalaridan tashqari) taxminiy qiymatini saqlab qoladigan choralar ko'riladigan bo'lsa, ushbu depozitlar va investitsiyalarni ko'pi bilan bir-yilga qisman yoki to'liq cheklab qo'yish to'g'risida istalgan vaqtda e'lon qilish;

i) bank nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab, da'vo talablarini qo'yish, bank kreditorlari talablarining qonuniyligini aniqlash;

k) bank aktivlari va passivlarini sotish;

l) vasiylik rejasi va vasiy vakolatlariga muvofiq boshqa choratadbirlarni ko'rish.

Vasiyga bildirilmay va uning yozma roziligini olmay turib, bank nomidan va uning hisobidan amalga oshirilgan barcha bitimlar haqiqiy deb hisoblanmaydi.

Markaziy bank bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan vaqtdan boshlab, vasiy bank aktivlarini nazorat qilishni ta'minlashi lozim. Bu quyidagilarni anglatadi:

a) Bank mulki, jihozlari, barcha turdagi moliyaviy va moddiy aktivlarining but saqlanishini ta'minlash, bunda zarur bo'lsa, xavfsizlik va militsiya organlari xizmatidan foydalanish;

b) qimmatbaho buyumlar, jumladan, naqd pullar, qimmatli qog'ozlar, avtomobillar va san'at asarlarini vasiy tasarrufiga o'tkazish;

v) zarur bo'lsa, eshik qulflarini o'zgartirish;

g) bank hujjatlari va mulkidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida qo'riqlash xizmatini yangi tarkib bilan almashtirish.

Bank faoliyatida jinoiy javobgarlikka oid hollar, ayniqsa, chet el hisobvaraqlariga doir tartibbuzarliklar aniqlangan vaqtda vasiy zudlik bilan Markaziy bankni bundan xabardor qilishi lozim.

Vasiy banklarning, ayniqsa, chet el banklarining vakillik hisobvaraqlaridagi vakilligi va ulardan noqonuniy foydalanish himoya qilinmaganligini ta'minlash uchun, ular ustidan alohida nazorat o'rnatishi shart. Buning uchun bankning mablag'larini saqlovchi respublikadagi va chet eldagi barcha moliyaviy muassasalarga mablag'larni olish yoki o'tkazish faqat vasiyning ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risida zudlik bilan xabar berish kerak. Ushbu xabarlar shoshilinch tartibda jo'natilishi lozim. Yozma xabarlarni jo'natishdan oldin oluvchilarni bu haqda telefon orqali ogohlantirib qo'yish zarur.

Markaziy bank (uning tegishli hududiy Bosh boshqarmalari) va vakil banklarga bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob-pul operatsiyalarini amalga oshirish uchun hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo'lgan muassasalar rahbarlarining imzolari namunalari qo'yilgan yangi varaqcha taqdim etiladi (bunda vasiy tayinlangunga qadar taqdim etilgan varaqcha tekshiriladi).

Vasiy quyidagi ishlarning amalga oshirilishini ta'minlashi lozim:

a) vakillik hisobvaraqlarining ahvoli to'g'risidagi hisobotlarni qiyoslash;

b) pul mablag'lari va valyuta hisobini yuritish;

v) bank inventarlash ro'yxatiga asosan jihozlarni tekshirish;

g) balans va kredit portfeli bo'yicha kreditorlik qarzlarni tekshirish;

d) aniqlangan balansni tayyorlash.

Bank aktivlari belgilangan buxgalterlik hisobi va baholash undozalariga muvofiq baholanadi.

Vasiy aktivlarni tekshirib, baholab bo'lgach, vasiy bu ma'lumotni tayyorlab Markaziy bankka taqdim etishi lozim.

Vasiylik muddati tugaganidan so'ng (ushbu davr Markaziy bank tomonidan uzaytirilgan hollar bundan mustasno) vasiy Markaziy bankka bankning moliyaviy ahvoli va istiqbollari to'g'risidagi yozma hisobotni taqdim etadi. Hisobotda vasiy asoslanadigan moliyaviy hisobotlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan bank aktivlari va passivlari qiymatini o'z ichiga oladi va quyidagi tavsiyalardan birini o'zida mujassamlaydi:

a) vasiylik tugatilganligi hamda bank aksiyadorlari, kengashi va boshqaruvining vakolatlari tiklanganligi to'g'risida;

b) bankni qonun va Markaziy bankning yo'riqnomalari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida vasiylik tartibini uzaytirish to'g'risidagi batafsil reja, shu jumladan, imkon qadar bankning regulyativ kapitalini qonun talab etadigan yoki hisobotda belgilangan jadvalga muvofiq eng kam darajaga oshirish;

v) bank aktivlari va/yoki passivlarining istalgan qismini sotishga doir batafsil reja;

g) bankni qayta tashkil etish bo'yicha batafsil reja;

d) bank litsenziyasini qaytarib olish va bankni tugatish bo'yicha tavsiya.

Oldindan ko'zlangan yoki nojo'ya harakatlar (harakatsizlik) natijasida bankka etkazilgan zarar uchun vasiy amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi. Bunda vasiy zimmasiga me'yordagi ishlab chiqarish tavakkalchiligi toifasiga kirishi mumkin bo'lgan zararlar uchun javobgarlik yuklatilmaydi.

Bankka vasiylik qilish muddati davomida Markaziy bank vasiyning faoliyatini nazorat etadi. Bunda u quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

a) bankka vasiylik qilish davrida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlar bo'yicha vasiyga tavsiyalar berish (asosiy chora-tadbirlar rejasini tavsiya etish);

b) vasiydan uning faoliyati va bank faoliyati haqida istalgan axborotni taqdim etishni talab qilish;

v) vasiyning bajarilgan ishlar haqidagi hisobotini tinglash;

g) vasiylik boshlang'ich muddatini ko'pi bilan 6 oyga cho'zish;

d) bankka vasiylik qilishni yakunlash to'g'risida qaror qabul qilish.

Bankka vasiylik tartibi belgilangan davrda banklar uchun belgilab qo'yilgan tartib va muddatlarda Markaziy bankka hisobot taqdim etiladi.

Agar vasiyning faoliyati Markaziy bankni qoniqtirmasa, u istalgan vaqtda vasiyni almashtirish huquqiga ega.

Vasiyning yakuniy hisoboti olinganidan so'ng 30 kun davomida agar vasiy o'z hisobotida boshqa harakatlarni tavsiya etmagan bo'lsa hamda Markaziy bank ushbu harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun real istiqbollar yo'q, deb belgilasa, Markaziy bank bank litsenziyasini qaytarib olishi va bankning tugatilishini tayinlashi mumkin.

Markaziy bank reja amalga oshirilishidan oldin yoki u amalga oshirilishi davomida unga o'zgartirishlar kiritishga haqli. Markaziy bank, shuningdek, vasiylik jarayonini to'xtatib qo'yish, bank litsenziyasini qaytarib olish va bank tugatilganligi to'g'risida e'lon qilish huquqiga ega.

Vasiylik tartibi quyidagi asoslarga ko'ra to'xtatiladi:

a) Markaziy bank qaroriga ko'ra belgilangan vasiylik muddati tugaganda;

b) Markaziy bank tomonidan, jumladan bankni sog'lomlashtirishning iloji bo'lmasa yoki bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlanishi munosabati bilan vasiylikni muddatidan oldin to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinganda.

Bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlanishi va ish sifatining yaxshilanishi munosabati bilan (jumladan muddatidan ilgari) vasiylik to'xtatilgach, Markaziy bank yoki vasiy tomonidan mazkur bankka nisbatan belgilangan barcha cheklashlar bekor qilinadi. Bunda vasiylik muddati davomida ta'sis hujjatlariga, boshqaruv organlari va bank xodimlari tarkibiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini saqlab qoladi.

Agar vasiylik davomida bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlashmasa va uning ish sifati yaxshilanmasa, Markaziy bank qonunchilikda belgilangan tartibda bank litsenziyasini qaytarib olish va uni tugatish huquqiga ega.

3.4. Tijorat banklarini tugatish tartibi

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tugatish «Banklarni tugatish tartibi to'g'risida»gi 240-sonli nizomga asosan amalga oshiriladi.

Bankni tugatish - boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy vorislik tartibida huquqlar va majburiyatlar o'tmagan holda bank faoliyatini tugatish. Likvidator (tugatuvchi) yoki tugatish komissiyasi Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab uch kun mobaynida tayinlanadi.

Tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank va uning bank joylashgan manzil bo'yicha hududiy Bosh boshqarmasi mutaxassislari kiritilishi mumkin.

Banklar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ko'zda tutilgan tartibda bank qonunchiligida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda tugatiladi.

Tugatish jarayonining maqsadi bank omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat.

Bank ixtiyoriy yoki majburiy ravishda tugatilishi mumkin (Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya chaqirib olinganida).

Banklarni tugatish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

a) bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chaqirib olinishi;

b) Markaziy bank roziligi mavjud bo'lgan holda aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishining bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi qarori;

Bank Markaziy bank tomonidan tugatilganda bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya, shuningdek, ayrim operatsiyalarni bajarish uchun berilgan litsenziyalar (agar bunday litsenziyalar mavjud bo'lsa) chaqirib olinadi.

Bankni tugatish jarayoni Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to'g'risidagi qarori chiqqan kundan boshlangan deb hisoblanadi. Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to'g'risidagi qarori u qabul qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Qaror u qabul qilingan kuni bank rahbariyatiga (mazkur qarorni olganligiga to'g'risida) imzo qo'ydirilgan holda topshiriladi.

Bankni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin, Markaziy bank Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobiga bankda tugatish jarayoni ketayotganligi to'g'risidagi yozuvni kiritadi.

Tugatilayotgan bankning Markaziy bank majburiy zahiralar hisobvarag'ida hisobda turgan mablag'lari tugatuvchi tomonidan bankni tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risidagi tasdiqnoma taqdim etilganidan so'ng uch kunlik muddatda tugatilayotgan bank joylashgan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi huzuridagi Hisob-kitob-kassa markazida ochiladigan bankning tugatish hisobvarag'iga qaytariladi.

Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab bankni tugatish jarayoni yakunlanishiga qadar quyidagi cheklashlar belgilanadi:

a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, boshqa organlar va bank mumsabdor shaxslarining vakolatlari to'xtatiladi, jumladan, ularning mulkni tasarruf etish va majburiyatlarni to'lash, shuningdek, bankni boshqarish huquqlari bekor qilinadi. Bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining likvidator hisobotlarini maslahatli tarzda muhokama qilish huquqi saqlanib qoladi;

b) tugatilayotgan bank nomidan yoki uning hisobidan amalga oshirilgan harakatlar ular faqat likvidator tomonidan bajarilgan holdagina yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin;

v) bankning barcha qarz majburiyatlari muddati o'tgan hisoblanadi;

g) tugatilayotgan bankning barcha turdagi qarzlari bo'yicha penya va foizlarning hisoblab yozilishi to'xtatiladi;

d) tugatilayotgan bank ishtirokida sudda ko'rilayotgan mulkiy xususiyatga ega bo'lgan tortishuvlar agar ularga doir qabul qilingan qarorlar qonuniy kuchga kiritilmagan bo'lsa to'xtatiladi;

e) bankka tegishli mulkiy xususiyatga ega bo'lgan barcha talablar faqat likvidator nomiga bildirilishi hamda mazkur nizom va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin;

j) tugatish jarayoni boshlangunga qadar sud tomonidan qabul qilingan qarorlar va tugatilayotgan bankka nisbatan mulkiy talablarga oid sudning ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ijro etilishi uchun tugatish komissiyasiga topshiriladi.

Bankni tugatish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moddiy nazorat va inventarlash;
 - aktivlarni tekshirish;
 - aktivlarni baholash va sotish;
 - sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini yakunlash.

Markaziy bank bankni tugatish jarayonini nazorat qilib turishi shart. Ushbu maqsadlarda Markaziy bank muntazam ravishda bank aktivlarini baholash, bu aktivlarni tugatish va daromadlarni taqsimlash to'g'risida hujjatlar olib turadi.

Tugatish komissiyasi raisi etib tayinlangan shaxs yoki likvidator sifatida yollanayotgan yuridik shaxs rahbari, shuningdek, likvidator (tugatish komissiyasi)ning bosh buxgalteri sifatida yollangan shaxs va tugatish komissiyasining boshqa a'zolari Markaziy bankning banklar rahbarlari va bosh buxgalterlariga nisbatan qo'ygan malaka talablariga mos kelishi lozim.

Likvidator, ekspertlar va tugatish jarayonida band bo'lgan boshqa shaxslar faoliyatiga haq to'lash shartlari likvidator tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladigan tugatish rejasida qayd etiladi.

Bankni tugatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar mazkur bank hisobidan amalga oshiriladi. Banklarni tugatishga doir xarajatlarni Markaziy bank tomonidan moliyaviy ta'minlashga yo'l qo'yilmaydi.

Tugatilayotgan bank majburiyatlariga doir hisob-kitoblarni bajarishda tugatish bilan bog'liq xarajatlar navbatdan tashqari tartibda amalga oshiriladi. Likvidator yoki tugatish komissiyasi a'zolari tomonidan amaldagi qonunchilik buzilgan hollarda, Markaziy bank boshqa likvidator yoki tugatish komissiyasi a'zolarini tayinlashni talab qilishga haqli.

Bank tugatilguniga qadar u Markaziy bank nazorati ostida bo'ladi va Markaziy bank uni tekshirib turish huquqiga egadir. Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishdan bosh tortishi, shuningdek, majburiy tugatish to'g'risidagi qarori yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat berish mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi (ishtirokchilari) tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

Bank aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qaroriga asosan bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilishi lozim. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to'g'risidagi iltimosnoma aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi zarur.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi iltimosnoma bilan birga Markaziy bankka quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi tugatish sabablari ko'rsatilib qabul qilgan qarori;

bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilingan vaqtdagi balans hisoboti;

tugatish komissiyasi a'zolari ro'yxati;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlagan tugatish rejasini.

Markaziy bank iltimosnoma qabul qilingan kundan boshlab bir oy davomida bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Markaziy bank ushbu iltimosnomaga rozi bo'lmasa bank rahbarlari va aksiyadorlariga bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik bermasligi to'g'risida asoslangan qarorni etkazadi. Markaziy bank zarur hollarda tugatish rejasi va jadvalini ko'rib chiqish yoki boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

Likvidator Markaziy bankning tugatish to'g'risidagi roziligi olingandan keyin, kreditorlar o'z talablarini bildirishi mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatgan holda ushbu ma'lumotni kamida ikki respublika gazetasida e'lon qilishi lozim.

Talab qilinayotgan barcha choralar bajarilgach tugatish komissiyasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlaganidan so'ng 7 kun ichida Markaziy bankka hisobot va tugatish balansini taqdim etishi lozim.

Bankni majburiy tarzda tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qaroriga asosan bankni majburiy ravishda tugatish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

a) passivlarning aktivlardan oshib ketishi tufayli bankning to'lovga layoqatsiz bo'lib qolishi;

b) litsenziya berilishiga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi aniqlanishi;

v) bank o'z omonatchilari yoki boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarni bajarishga layoqatsizligi;

g) hisobot ma'lumotlarining muntazam ravishda buzib ko'rsatilishi;

d) qonunchilikka hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi litsenziya shartlariga zid bo'lgan bank operatsiyalarining amalga oshirilishi;

e) litsenziya berilgan vaqtdan boshlab bir-yildan ortiq muddatda bank operatsiyalarini bajarishni kechiktirish;

j) monopoliyaga qarshi qoidalarining buzilishi;

z) O'zbekiston Respublikasi xududida sho'ba bankni tashkil etgan korijiy davlat banki litsenziyasining qaytarib olinishi.

Bank tomonidan yo'l qo'yilgan omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi tartibbuzarliklarga quyidagilar kiradi:

a) amaldagi qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlarining buzilishi;

b) xavfli yoki nosogʻlom bank faoliyatining yuritilishi;

v) bankning Markaziy bank koʻrsatmalarini atayin va uzoq muddat bajarmasligi;

g) bank tomonidan hujjatlar yoki yozishmalarning Markaziy bank inspektorlaridan yashirilishi yoki bank nazorati xizmatiga talab etilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortilishi.

Quyidagi hollarda bank faoliyati omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soladi deb tan olinadi:

• bank kapitalining etarlilik koeffitsienti darajasi Markaziy bank belgilagan ushbu iqtisodiy meʼyorning 75 foizidan kam boʻlishi;

bank ketma-ket keluvchi har uch chorakda bank regulyativ kapitalning 10 foizidan yoki vaqtdan qatʼiy nazar regulyativ kapitalning 50 foizidan ortiq miqdorda potentsial zarar koʻrishi yoki koʻrishi mumkin ekanligi;

omonatchilar va kreditorlarning bankka ishonib topshirgan mablagʻlari butligiga real xavf soluvchi boshqa hollar.

Likvidator tayinlangan vaqtdan boshlab unga bank ishlarini boshqarish vakolatlari oʻtadi.

Likvidator tayinlangan vaqtdan boshlab va Markaziy bank bilan kelishilgan holda uning zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

a) bank aktivlari va passivlarini toʻliq nazorat qilish;

b) bank ishlarini boshqarish bilan bogʻliq javobgarlik;

v) kreditorlar talablarini eng yuqori ravishda qondirilishni taʼminlovchi narxda bank aktivlarini sotish;

g) har uch oyda kamida bir marta tugatish jarayoni, jumladan, sotilayotgan aktivlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni batafsil aks ettiradigan muntazam hisobotlarni tuzish hamda bu hisobotlarni Markaziy bankka taqdim etish.

Likvidator noqonuniy yoki atayin notoʻgʻri qilingan harakatlar (harakatsizlik) natijasida bankka keltirilgan zarar uchun javobgardir.

Likvidator tugatish bilan bogʻliq meʼyordagi operatsiya tavakkalchiligi toifasiga kiruvchi zararlar uchun javob bermaydi.

Likvidator quyidagi huquqlarga ega:

a) bank aktivlarini aniqlash hamda tugatish maqsadlarini hisobga olgan holda mulk egasi va bank boshqaruvi organlari vakolatlari doirasida ularni tasarruf etish;

b) bank nomidan tugatish ishlari va bank faoliyatini yakunlash maqsadlariga muvofiq bank rahbariyati vazifalarini bajarish;

v) bank aktivlari va mulkini zahiraga olish;

g) bank hujjatlari va mulki, shuningdek, garov ta'minoti sifatida berilgan boshqa mol-mulk butligini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish;

d) tugatish jarayonini amalga oshirish uchun mustaqil mutaxassislar tarkibidan xodimlarni, shuningdek, o'z xohishiga ko'ra bank xodimlarini (qorovullardan tortib malakali maslahatchilargacha) shartnoma asosida yollash. Bank kreditorlari bu jarayonga xodimlar sifatida jalb etilishi mumkin emas;

e) tugatilayotgan bankning moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda mehnat qonunchiligiga muvofiq xodimlarga ish haqi va boshqa to'lovlarni belgilash;

j) sudda tugatilayotgan bank nomidan qatnashish;

z) omonatchilar va kreditorlarning talablarini qondirish uchun mablag'lar etishmasa tugatuvchi bank mulkini sotish huquqiga ega;

i) bank nomidan talablar qo'yish, bank kreditorlari talablarining qonuniyligini aniqlash va qonuniy deb topilgan talablarni qondirish.

Likvidator tayinlangunga qadar oxirgi uch oy davomida kreditorlarning biriga yoki bank bilan aloqador istalgan shaxsga imtiyoz berish maqsadida amalga oshirilgan to'lovlar va boshqa aktiv operatsiyalari likvidator tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin, omonatlarni olish, ish haqiga doir oddiy to'lovlar yoki boshqa mukofotlar bundan mustasno. Bu holda tugatuvchi amalga oshirilgan to'lov yoki bankning boshqa aktiv operatsiyalari haqiqiy emas deb tan olinishi to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qiladi.

Kelib tushayotgan barcha depozitlar va garov xatlari ijro etilmay, bank tugatilayotgani haqidagi bildirishnoma bilan jo'natuvchiga qaytarilishi shart.

Tugatish jarayoni boshlangach, tugatuvchi bank mulkini inventarlashni tashkil etishi va oraliq balansni tuzishi shart.

Markaziy bank tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab tugatuvchi bank aktivlari ustidan jismoniy nazoratni ta'minlashi shart. Bu quyidagilarni anglatadi:

a) xavfsizlik xizmati, militsiya organlari va boshqa mavjud vositalardan foydalangan holda bank binolari va jihozlari butligini ta'minlash;

b) qimmatbaho buyumlar, shu jumladan, naqd pul, qimmatli qog'ozlar, avtomobillar va san'at asarlarini tugatuvchining ixtiyoriga o'tishi;

v) eshik qulflarini almashtirish;

g) bank hujjatlari va mulkidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida qo'riqlash xizmatini almashtirish.

Firibgarlik yoki jinoiy faoliyat to'g'risida shubha tug'dirayotgan hollar (ayniqsa chet el valyutasi hisobvaraqlarida) aniqlansa, likvidator zarur choralar ko'rish uchun bu haqda zudlik bilan Markaziy bankka ma'lum qilishi zarur.

Bankning barcha ishlari, jumladan ishlanmagan depozitlar va ssudalarni qoplash uchun tugatish jarayoni boshlangunga qadar olingan mablag'larga doir ishlar nihoyasiga etkazilishi hamda yordamchi va bosh daftarlarga kiritilishi shart.

Bankning so'nggi ish kuniga yakuniy balans tayyorlanishi lozim.

Likvidator Markaziy bankning bank joylashgan yerdagi hisob-kitob-kassa markazida «X banki tugatilmoqda» degan maxsus tugatish hisobvarag'ini ochadi. Chet el valyutasi ular uchun mo'ljallangan alohida tugatish hisobvaraqlarida saqlanishi zarur. Bank resurslari ushbu hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Faqat likvidator tugatish hisobvaraqlaridan foydalanishning mutlaq huquqiga ega. Aktivlarni sotishdan tushgan barcha tushumlar tugatish hisobvaraqlarida saqlanadi.

Likvidator bankning vakillik hisobvaraqlari, ayniqsa chet el banklaridagi hisobvaraqlar ustidan alohida nazorat o'rnatishi zarur. Likvidator bank mablag'lari saqlanayotgan barcha respublika va chet el moliya muassasalariga bank tugatilayotgani hamda ularning mablag'larini o'tkazish faqat likvidatorning ruxsati bilangina amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risida xabar berishi kerak. Bunday xabarlar shoshilinch ravishda berilishi lozim. Yozma xabarlarni jo'natishdan oldin ularni oluvchilarga bu haqda telefon orqali ma'lum qilish kerak. Agarda bank filiallari yoki chet el hisobraqamlarida mablag'lar mavjud bo'lsa, ularni telegraf orqali «X bank tugatilmoqda» -tugatish hisobvarag'iga o'tkazish lozim.

Likvidator aktivlarni tekshirib, zarur bo'lgan bildirishnomalarni jo'natgach, quyidagilar asosida tugatish hisobotini tayyorlashi lozim:

- yakuniy balans;
- vakillik hisobvaraqlari ahvoli to'g'risidagi hisobotlarni qiyoslash;
- pul mablag'lari va valyuta hisobini yuritish;
- bank inventarlash ro'yxatlari bo'yicha jihozlarni tekshirish;
- balans va kredit portfeli bo'yicha kreditorlik qarzlarni tekshirish.

Bankning moliyaviy aktivlari quyidagilardan iborat:

- pul mablag'lari;
- ssudalar;

- qimmatli qog'ozlar;
- valyuta boyliklari.

Milliy va chet el valyutalaridagi banknotlar, tangalar va bank vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar shaklidagi moliyaviy aktivlar nominal qiymati bo'yicha baholanadi.

Qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlar bahosi qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatga bog'liq.

Bank kreditlari portfeli berilgan kreditlarni uchinchi tomonga sotish yoki bu qarzlarni bo'yicha mablag'larni olish imkonini beradigan boshqa yo'l bilan tugatiladi.

«Yaxshi kreditlar» sifatida tavsiflangan kreditlar bozor narxida sotilishi kerak. Kredit va sotuv kunigacha hisoblangan foizlar miqdoridan tarkib topgan nominal narxdan past bo'lgan bahoda mazkur kreditlar sotilgan har bir hol bo'yicha likvidator tugatish hisobotida asoslar keltiradi.

Muammoli zayomlarni sotishda tugatuvchi quyidagi tavsiyalarga amal qilishi lozim:

- Ssuda qiymati uning nominal qiymatiga tenglashtiriladi. Bunday zayomlarni odatda banklar va boshqa moliya kompaniyalari xarid qiladi.

- Muammoli zayomlarni sotish uchun yakka tartibdagi xaridorlarga shartnoma bo'yicha sotish, tanlab olingan qatnashchilar guruhi o'rtasida xususiy raqobot savdolari, shuningdek, kimoshdi savdolari kabi usullardan foydalaniladi.

- Zayomlarni boshqa xaridorlarga sotish imkoniyati bo'lmagan hollarda ularni qarzdorning o'ziga nominal qiymatidan kam bahoda sotish mumkin. Likvidator har bir shunday holni tugatish hisobotida asoslab berishi shart.

- Muammoli kreditlarni sotish imkoni bo'lmasa likvidator garovga qo'yilgan mulkni sotish chorasini ko'radi yoki qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qiladi.

Nomoliyaviy aktivlarga quyidagilar kiradi:

- binolar va inshootlar;
- transport vositalari;
- san'at asarlari;
- orttexnika;
- mebel, jihozlar va bankning boshqa mulki.

Nomoliyaviy aktivlar likvidator tomonidan malakali baholovchi mutaxassis ishtirokida baholanadi. Tugatuvchi nomoliyaviy aktivlar narxiga ta'sir etuvchi barcha axborot va omillarni o'rganadi va shular asosida taxminiy sotuv narxini belgilaydi. Binolar, inshootlar va transport

vositalari ko'chmas mulkni baholashga doir belgilangan talablarga muvofiq baholanadi.

Nomoliyaviy aktivlar baholanganidan keyin tugatuvchi potentsial xaridorlarga aktivlar sotilishi ko'zda tutilayotganligi haqida xabar beradi yoki qonunchilik va mazkur Nizomda ko'zda tutilgan hollarda bank mulkini sotadi.

Xaridorlar bilan muzokaralar davomida sotilayotgan nomoliyaviy aktivlarning dastlabki narxi o'zgarishi mumkin. Agarda aktiv hisob-kitob qiymatidan ancha past narxda sotilsa, likvidator ushbu hol ro'y berishi sabablarini hujjatlashtirishi shart. Ko'rsatilgan hujjatlar hisobotda aks ettiriladi va unga ilova qilinadi.

Omonatchilar va kreditorlar talablarini qondirish likvidatorning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Likvidator tayinlanganidan keyin bir kunlik muddatda ikkita markaziy gazetada kreditorlar talablarini tasdiqlovchi hujjat bilan birgalikda talablarni bildirish tartibi va muddati hamda kreditorlar o'z talablarini da'vo qilishlari mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatilgan holda bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risidagi xabarnomani beradi. Talablarni bildirish muddati tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi lozim. Ushbu muddat tugaganidan keyin likvidator tomonidan talablarni qabul qilinmaydi.

Likvidator bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risida barcha kreditorlar va omonatchilarga yozma ravishda ma'lum qiladi. Bunda tugatuvchi xabarnomada ularning shaxsiy hisobvaraqlarida qayd etilgan qarz yoki omonat miqdor ko'rsatadi.

Xabarnomada likvidator da'volarni berish muddatini ma'lum qiladi. Ushbu muddat tugagach da'volar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Kreditorlar va tugatilayotgan bankning o'zaro majburiyatlari mavjud bo'lsa, ular o'zaro qoplanishiga yo'l qo'yiladi.

O'zaro qoplash quyidagi talablarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi:

- o'zaro qoplash faqat to'lov muddati etib kelgan majburiyatlar bo'yicha ruxsat etiladi;
- biron bir majburiyat bo'yicha e'tiroz bildirilmaydi;
- ikkala tomon ham qarzni inkassatsiya qilish va to'lash huquqiga ega bo'lishi shart;
- avtomatik ravishda o'zaro qoplashga yo'l qo'yilmaydi, tomonlar bir-biriga ariza bilan murojaat qilishlari shart;

- turli valyutalardagi majburiyatlarning o'zaro qoplanishi Markaziy bankning uni bajarish kunidagi ayirboshlash kursi bo'yicha amalga oshiriladi;

- bankka aloqador shaxslar bank oldidagi majburiyatlarini bajarmasa, ularga bankning boshqa qarzdorlariga qo'yilayotgan talablar qo'yiladi;

- bog'liq shaxslarga berilgan qarzlarga oid majburiyatlarning o'zaro qoplanishiga ruxsat etilmaydi;

- aksiyadorning aksiyadorlik kapitalini to'lashga doir bank oldidagi majburiyatlari bankning ushbu aksiyador oldidagi boshqa majburiyatlari bilan qoplanishi mumkin emas.

O'zaro qoplashda omonatchilar va kreditorlar talablarini qondirish navbati hisobga olinadi.

Bank tugatilayotganda uning kreditorlari talablari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda qondiriladi. Jismoniy shaxs bo'lgan omonatchilar tugatishdan kelib tushgan tushumlar hisobiga o'z omonatlarini olishda ustuvorlikka egadirlar. Tugatilayotgan bankning mulki bir navbatdagi barcha talablarni to'liq qondirish uchun etarli bo'lmasa, mavjud mablag'lar amaldagi qonunchilikka muvofiq kreditorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Quyidagi hollarda kreditorlarning talablarini qondirishdan bosh tortilishi mumkin:

- a) talabnomalar belgilangan muddat o'tganidan so'ng olingan bo'lsa;
- b) tugatuvchi tomonidan asossiz deb topilgan bo'lsa;

Likvidator kreditorlar tomonidan talablarni bildirish muddati tugaganidan so'ng kreditorlar talablarini qondirishga doir quyidagi choralarni ko'rish lozim:

- qabul qilingan talablar ro'yxatini tuzish;
- tugatuvchi tasdiqlamagan talablarni rad etish;
- har bir kreditor qarzi miqdori va talablarni to'lash ketma-ketligini belgilash;

- kreditorga ularning talablari qabul qilinganligi yoki rad etilganligi to'g'risida ma'lum qilish;

- oraliq balansni tuzish.

Kreditorlar talablarini qondirish rad etilganligi to'g'risida ularning manziliga yozma tarzda habarnoma jo'natiladi. Kreditor talablarini qondirish rad etilgan yoki uni ko'rib chiqishdan bosh tortilgan holda u likvidatorga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Tugatilayotgan bankning pul mablag'lari kreditorlar talablarini qondirish uchun mavjud bo'lmasa, tugatish komissiyasi sud qarorlari ijrosi uchun belgilangan tartibda kimoshdi savdolari orqali bank mulkini sotadi.

Tugatilayotgan bankning mulki etarli bo'lmaganligi tufayli kreditorning qondirilmagan talablari to'langan hisoblanadi. Shuningdek, kreditor da'vo bilan sudga murojaat qilmagan bo'lsa, tugatuvchi tomonidan tan olinmagan hamda sud qarori bilan kreditorning talablari qondirilishi rad etilgan talablar to'langan hisoblanadi.

Kreditorlar talablari qondirilganidan so'ng qolgan bank mulki qonunchilikda belgilangan tartibda taqsimlash uchun bank aksiyadorlariga beriladi.

Tugatish ishlari yakunlanganidan so'ng likvidator bajarilgan ishlar to'g'risidagi yakuniy hisobotni va tugatish balansini tuzadi.

Likvidator Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tugatish komissiyasining Markaziy bank tasdiqlaydigan qilingan ishlar to'g'risidagi hisoboti;

- bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig'ilishining bankni tugatish (ixtiyoriy ravishda tugatilganda) to'g'risidagi bayonnomasi;

- Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qarori;

- bankni tugatish to'g'risida gazetalarda e'lon qilingan axborot nusxasi;

- tugatish komissiyasini tuzish to'g'risidagi qaror;

- bankning oxirgi ish kunidagi balansi;

- tugatish balansi;

- balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha tugatish balansi;

- soliq inspeksiya'sining tugatish dalolatnomasi;

- yo'q qilish uchun bank hujjatlari va yig'majildlari ajratilganligi to'g'risida dalolatnoma;

- hujjatlarni arxivda saqlash uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;

- muhrlar yo'q qilish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga topshirilganligi to'g'risida tasdiqnoma.

Markaziy bank taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, bankni Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib tashlash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

Bankni Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib chiqarib tashlash to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng 10 kun davomida

Markaziy bank Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga hamda bank joylashgan manzil bo'yicha ularning organlariga bank tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotni etkazadi. Bank Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib tashlangan vaqtdan boshlab tugatilgan hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Vasiylik, zarar, kapital, tijorat banki, litsenziya, likvidlilik, foyda, qayta tashkil etish.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklariga Bosh litsenziyani berish uchun qanday talablar bajarilishi lozim?

2. Qaysi shartlar bajarilganda tijorat banklariga valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi Bosh litsenziya beriladi?

3. Tijorat banklari qay tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi?

4. Tijorat banklari qanday funksional tuzilishga ega?

5. Banklar qaysi shakllarda va qanday tartibda qayta tashkil etiladi?

6. Bankning Bosh litsenziyasini chaqirib olish uchun qaysi sabablar asos bo'ladi?

7. Qaysi holatlar tijorat banki faoliyatida vasiylikni joriy etish uchun sabab bo'ladi?

8. Tijorat banklarini tugatish tartibi qanday?

IV bob. TIJORAT BANKLARI PASSIV OPERATSIYALARI VA ULARNING TARKIBI

4.1. Bank balansi va uning tuzilishi

Bugungi kunda har bir korxonada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan va xo'jalik faoliyati bo'yicha ishlab chiqqan hisob siyosatiga asoslanib o'zining buxgalteriya hisobini yuritadi. Buxgalteriya hisobining asosi bo'lib, uning asosida tuziladigan moliyaviy hisobot shakllari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu hisobot shakl turlarini tuzishga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Bu davr taqozosidir.

Yuritiladigan har bir hisobot shakli turi muayyan korxonaning moliyaviy holati, uning barqarorligi hamda iqtisodiy mustaqilligini ko'rsatib turuvchi hujjat hisoblanadi. Bu hujjat turli xil, ya'ni ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bu hujjatning asosiy foydalanuvchilari bo'lib korxonaning ma'muriy boshqaruv apparati tarkibiga kiruvchi xodimlar hisoblanadi. Asosiy foydalanuvchilar deyilishiga sabab, bu apparat tarkibiga kiruvchi xodimlarning moliyaviy hisobot shakl turlariga kiruvchi hujjatlardan foydalana olish qobiliyati (ishga bo'lgan mas'uliyati) korxonaning istiqbolini ko'rsatib beradi. Tashqi foydalanuvchilar uchun esa, ular ikkilanmchi zarur hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan quyidagi hujjatlar moliyaviy hisobot shakllariga kiritiladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Moliyaviy hisobot shakllari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladi.

Moliyaviy hisobot shakllarining eng asosiysi buxgalteriya balansi hisoblanadi. Bank balansi tijorat bankining resurslari holati, ularning shakllanish manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari, shuningdek,

bank faoliyatini hisobot davri boshi va oxiridagi moliyaviy natijalarini pul shaklida ifodalaydi. Bank balansi – bu analitik hisobning barcha shaxsiy hisobvaraqlaridagi qoldiq summasini aks ettiradigan buxgalteriya hisobining asosiy hujjatidir. Balansda aks ettirilgan ma'lumotlar tahlili bankning ma'lum davridagi faoliyatiga majmuali tavsif berish imkonini yaratadi. Balansni baholash deganda mavjud o'z mablag'larini aniqlash, resurslar manbalari strukturasiidagi o'zgarishlar, aktivlar tarkibi va dinamikasi hamda boshqalarni bilish imkoni tushuniladi. Bundan tashqari, balans asosida tijorat bankining likvidlilik holati, daromadlilik va mavjud taraqqiyot istiqbollari to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Banklar balansi tarkibi va tuzilishi ularning faoliyati xususiyati va o'ziga xosliklari, kredit tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobini tuzish tamoyillari va bank operatsiyalarida qo'llanilishiga bog'liq.

Tijorat banki balansi bankning o'z va jalb etilgan mablag'lari holati hamda ularni kredit hamda aktiv operatsiyalarga joylashtirilishini aks ettiruvchi buxgalteriya hisoboti shakli hisoblanadi. Bundan tashqari, bank balansi bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni ifodalaydi, haqiqiy olingan foydani aks ettiradi. Balans hisob va hisobotning yagona hujjati bo'ladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Banklar balansi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan banklarda buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga mos unifikatsiyalangan sxema bo'yicha tuziladi. Bank balanslari tijorat axborot vositalariga kiradi hamda tezkorlik, aniqlik va ishonchlik talablariga javob beradi. Bank balansi operativligi uni har kunlik tuzilishida ko'rish mumkin. Bunday tartib banklardagi buxgalteriya hisobini ma'lum darajada to'g'riligi va ishonchliligini kafolatlaydi.

Taxminiy balans qaydnomasi (ming so'mda)

6-jadval

Aktivlar	Yil	1	2	3
Naqd pullar				
Markaziy bankdagi vakillik hamda zaxira hisobraqamlari				
Boshqa banklardagi vakillik hisobraqamlari				
Qimmatli qog'ozlar				
Kreditlar				
Ipoteka ssudalari				

Tijorat ssudalari			
shu jumladan, jismoniy shaxslarga			
Boshqa kreditlar			
Minus: kreditlar va lizing bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxira			
Sof kreditlar			
Asosiy vositalar			
Boshqa aktivlar			
Jami aktivlar			
Passivlar			
Talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlari			
Korxonalar			
Iste'molchilar			
Boshqalar			
Jamg'arma omonatlari			
Muddatli omonatlar			
Jami omonatlar			
Qarzlar			
Markaziy bankdan			
Banklardan			
Boshqalar			
Boshqa passivlar			
Jami passivlar			
Jami kapitallar (2-shakl)			
Jami passivlar va kapital			

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 1998-yil 9-noyabrda tasdiqlangan, 22-son va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 11 fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan «Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi Nizomda bank balansi qanday ko'rinishda bo'lishi kerakligi ko'rsatilib o'tilgan. Ushbu Nizomga asosan bank balansining taxminiy qaydnomasi quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida ko'rinib turganidek, balans ikki qismdan – aktiv va passiv hamda bunga mos ravishda balans hisobvaraqlari aktiv va passiv

hisobvaraqlariga ajratiladi. Balansning ikkala qismi jami summalari o'zaro teng bo'lishi kerak, ya'ni

Aktiv=Passiv

Balans passivini ham, o'z navbatida, ikki qismga ajratish mumkin: bank majburiyatlari va kapital. Bu mulohazani e'tiborga oladigan bo'lsak, yuqoridagi tenglamamiz quyidagi ko'rinishni oladi:

Aktiv=Majburiyatlar+Kapital

Endi bank balansini boshlang'ich sxemasini hosil qildik:

BALANS

AKTIV	PASSIV
AKTIVLAR	MAJBURIYATLAR +
JAMI(A=P)	KAPITAL JAMI(A=P)

Bank ishida balans aktivlariga quyidagilar kiradi: naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari (A), Markaziy bankdagi vakillik hamda zahira hisobvaraqlari (B), boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari (V), qimmatli qog'ozlar (G), kreditlar (D), asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar hamda arzon va tez eskiruvchi buyumlar (E), shuningdek, boshqa aktivlar (Z). Majburiyatlar esa ikki asosiy mezondan iborat: bankka qo'yilgan turli xil depozitlar (J) va nodepozit qarzlari (I). O'z navbatida, depozitlar quyidagilardan iborat: talab qilib olinadigan, jamg'arma va muddatli depozitlar. Nodepozit qarzlari esa Markaziy bankdan olingan qarzlari, banklardan olingan qarzlari va boshqa qarzlardan tashkil topadi. Kapital quyidagi moddalardan iborat: ustav kapitali (K), qo'shilgan kapital (L), aksiyadorlardan sotib olingan o'z aksiyalari (M), rezerv kapitali (N) va taqsimlanmagan foyda (O). Endi tenglamamizni quyidagi ko'rinishga keltirishimiz mumkin:

$$A+B+V+G+D+E+Z = J+I+K+L+M+N+O$$

Bank balansini tuzganimizda bir qancha tamoyillarga amal qilamiz. Bu tamoyillarga amal qilmaslik bank balansini xato tuzilishiga olib keladi.

Balans hisobotini tuzish tamoyillarining birinchisi bu likvidlikning pasayib borish tamoyili hisoblanadi. Bizga ma'lumki, balans aktivining

ketma-ket moddalari yuqoridan pastga qarab likvidligi pasayib borishi tartibida joylashtirilgan.

Bank balansida aktivlarning joylashish tartibi

7-jadval

Naqd pullar
Markaziy bankdagi vakillik hamda zaxira hisobraqamlari
Boshqa banklardagi vakillik hisobraqamlari
Qimmatli qog'ozlar
Kreditlar:
- Ipoteka ssudalari
- Tijorat ssudalari
shu jumladan, jismoniy shaxslarga
- Boshqa kreditlar
Minus: kreditlar va lizing bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxira
Sof kreditlar
Asosiy vositalar
Boshqa aktivlar

Aktiv moddalarining eng birinchi moddasida mutloq likvid bo'lgan naqd pullar joylashgan: naqd pullar har joy va istalgan paytda milliy iqtimodiyotda har bir odam tomonidan qabul qilinadi – uni olishga va berishda hech qanday e'tirozlar bo'lmaydi. Bank o'z likvidligini ta'minlash maqsadida zaruriy hollarda Markaziy va boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqaalaridan foydalanishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilish naqd pullarni realizatsiya qilishga qaraganda bir muncha murakkabroqdir (bu yerda moliyaviy jihatdan barqaror korxonalar, tashkilot va muassasalarning qimmatli qog'ozlari nazarda tutilmoqda). Bu qimmatli qog'ozlarni realizatsiyasi uchun bir necha kun talab etiladi. Kreditlarning pulga aylanish darajasi ancha past. Ularni qaytarib berish qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishga qaraganda ko'proq muddatni talab etadi va h.k.

Balans hisobotini tuzishda tamoyillardan ikkinchisi bo'lib talab qilib olish muddatining uzayib borish tamoyili hisoblanadi. Keling bank balansining passiv qismiga nazar tashlaylik.

Bank balansida passivlarning joylashish tartibi

8-jadval

Talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlari:
- Korxonalar
- Iste'molchilar
- Boshqalar
Jang'arma omonatlari
Muddatli omonatlar
Jami omonatlar
Qarzlari:
- Markaziy bankdan
- Banklardan
- Boshqalar
Boshqa majburiyatlar
Jami majburiyatlar
Jami kapital
Jami majburiyatlar va kapital

Ko'rinib turganidek, bank balansining passiv qismini ketma-ket moddalarini talab qilib olish muddatlari uzayib bormoqda. Passivning eng birinchi moddasi talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlaridan iborat. Bizga ma'lumki, bank mijozi o'z depozitini talab qilib olinadigan hisobvaraqlarga qo'ygan taqdirda, bu depozitini istalgan payt va hech qanday to'siqsiz olishi mumkin (bank ish kunidan tashqari bo'lgan vaqtlar hisobga olinmaganda). Passivning keyingi moddasi jang'arma depozitlari hisoblanadi. Bank siyosatidan kelib chiqqan holda mijozlar 3 kundan 5 kungacha muddatda o'z jang'arma depozitini talab qilib olishi mumkin. Muddatli depozitlar mijoz bilan bank o'rtasida kelishilgan muddat davomida saqlanadi. Belgilangan muddat o'tganidan so'ng esa, mijoz o'z muddatli depozitini olish huquqiga ega bo'ladi (muddatidan oldin mijoz iltimosi bilan muddatli depozit olib ketilishi mumkin, faqat bu depozit talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazilib, depozit qaytarib beriladi). Bank, pul etishmovchiligi kuzatilgan taqdirda, Markaziy bank hamda boshqa banklardan qarz so'rashi mumkin va h. k.

4.2. Bank resurslari va ularning iqtisodiy mohiyati

Banklar faoliyatini olib borish avvalo, yetarli miqdordagi bank resurslarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bank resurslarining

mukammal tashkil qilinishi va tejamli ishlatilishi har qanday bank faoliyatining samarali olib borilishiga zamin yaratadi. Hosil qilingan resurslar banklarning tijorat va xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank resurslarini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o'zgartirib turishni ham o'z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Resurs - frantsuzcha «ressource»¹ so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» so'zi turli xil ma'nolarda, ya'ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda tez-tez uchrab turadi. Shundan iqtisodiy resurslarni jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarining asosiy elementlaridan biri deb hisoblash mumkin. Undan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslarning asosiy qismi moliyaviy resurslar bo'lib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablag'larini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablag'lari, chek- depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblanadi.

Ko'zlangan asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda, moliyaviy resurslarning ajralmas qismi bo'lgan bank resurslariga kengroq to'xtalmoqchimiz. Bank resurslari to'g'risida respublikamizda i.f.n. B.Babaev, A.Omonov, U.Ortiqov² va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Unda bank resurslarining mohiyati, tarkibi, resurslarni shakllantirish bilan bog'liq muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini keng ochib berishga harakat qilingan. Respublikamizda

¹ Азриляжна А. Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики, 1999. - 852 с.

² Б.Б.Бабаев «Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использования». Дисс. На соиск уч. ст. к.э.н.-Т. БФА.,2002.

А.Омонов «Тijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari» i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T: 2008

U.Ortiqov «Bank resurslari va ularni boshqarish» i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T: 2008

pul bozorini shakllantirish va unda pul resurslari bilan operatsiyalar o'tkaziladigan banklar faoliyatining strategiyasini ishlab chiqish uchun bank resurslari tushunchasi hamda banklarning resurslar bilan bog'liq holda o'tkaziladigan operatsiyalarning mohiyatini to'liq anglash va talqin etish bo'lim.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan nazariy manbalar hamda amaliyotchilar iqtisodiy tahlillarini o'rganar ekanmiz, shu narsaga amin bo'ldikki, «bank resurslari» tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Masalan, E.Rid, R.Kotter, E.Pill va R.Smitlarning¹ hammuallifligi ostida chop qilingan «Kommercheskie banki» kitobida bank balansini tushuntirilgan holda ko'rish mumkin va unda pul mablag'larining manbalariga alohida e'tibor berilganligi hamda ularni tadqiq etishda banklarning passiv operatsiyalarini chuqur tahlil qilish zarurligi ta'kidlanganining guvohi bo'ldik. Yana bir guruh D. Polfreman va F. Ford² kabi iqtisodchi olimlar bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini, bank passivlari deb ko'rib chiqishgan hamda ular bank aksionerlari mablag'lari va jamg'armachilarining mablag'laridan tashkil topgan, degan fikrni bildirishgan. Ko'rinib turibdiki, xorijlik mualliflar bank resurslarini o'z qarashlari orqali ifodalab ularning shakllanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan ko'ra, tijorat banklarining passivlariga kengroq e'tibor berishgan. Bu holatni bir jihatdan ijobiy baholash mumkin, ya'ni xorijiy banklar faoliyatida avvalambor banklarning majburiyatlari va ularning bajarilishi, bizning fikrimizcha, old vazifa qilib belgilab olingan. Bu qarashning ikkinchi jihati shundaki, tijorat banklari shu resurslarni o'z majburiyatlarini bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal ko'radi va shu orqali resurslardan yuqori namuna olish uchun qattiq kredit siyosatini olib boradi, hamda tijorat banklarining faoliyati mijozlari oldida olgan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan bo'ladi. Biz mazkur paragrafnig boshida resurs tushunchasiga ta'rif berganda «resurs» - bu, nafaqat mablag', balki u zahira va imkoniyat ham deb o'tgan edik. Shundan kelib chiqib, «bank resurslari» nafaqat qarz majburiyatlari yoki egalik huquqini olish uchun mablag' jalb qilish, balki bank uchun daromad keltiradigan zahira va imkoniyat hamdir.

Biz xorijlik olimlar D.Polfreman va F.Fordlarning fikrlaridan farqli ravishda shuni ta'kidlamoqchimizki, bankning passivlari va uning resurslari tushunchasi bir xil tushuncha emas. Bizning fikrimizcha, bank

¹ E.Рид, Р. Коттэр, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991. с 10.

² Диффреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. Перевод с англ. Москва инфра 1996. с 102.

passivlari bank resurslarini tashkil qilish manbai bo'lib, ularning hajmi bir necha omillarga bog'liq:

- banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan faoliyati;

- pul-kredit siyosatini boshqarish sohasidagi Markaziy bankning siyosati; bankning jalb qilingan mablag'lari va ularning tarkibi;

- tijorat banki tomonidan Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy zahira miqdori;

- boshqa passivlar.

Iqtisodiy manbalarda va bank mablag'larining shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar o'zlarining turlicha ta'riflari orqali izoh berganliklarining shohidi bo'lamiz.

Rossiyalik olim O. Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, undan aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi¹. Shunday fikrni boshqa bir guruh mualliflarning ilmiy izlanishlarida ham uchratish mumkin. Tijorat banklarining resurslari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan tashkil qilinishini ta'kidlash, bizning fikrimizcha, ularning manbalariga ko'proq e'tiborni qaratadi. Bank resurslarining zarurligi bank faoliyatini tashkil qilish va olib borish natijasida shakllanadi. Banklar tashkil qilinishining ilk bosqichlarida banklardan avvalambor, o'z kapitalining mavjud bo'lishi va banklar keyingi faoliyatlarini olib borishlari uchun esa mablag'lar jalb qilinishi talab qilinadi. Shu boisdan, tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, biz bank resurslari - bu bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, bankning o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan, bankning daromad olishga asos bo'luvchi zahira va imkoniyatlarning yig'indisidir degan ta'rifni keltirmoqchimiz. Bu ta'rif orqali biz birinchi navbatda bank siyosatini amalga oshirishda qo'yilgan

¹ Лаврушин О.И. Банковская дело.-Учебник.-М.:Финанси и статистика.-1998 г.-С.68.

vaqtidan kelib chiqqan holda, bank resurslarini turli manbalardan tashkil qilinishini ta'kidlashimiz mumkin.

Tijorat banklari boshqa xo'jalik subyektlari kabi o'zining xo'jalik va nafaqat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslarga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining munomaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Hali shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatildi, ikki bosqichli bank tizimi shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Hundan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ko'lami, resurslar hajmiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Shundan kelib chiqib, bank resurslari tijorat banki faoliyatini keng olib borishga asos bo'lib, bankka ma'lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega bo'lgan zahira va imkoniyatdir. Tijorat banklari o'zining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga o'z faoliyatining strategik yo'nalishlarini belgilaganda shu zahira va imkoniyatlarning ko'lamini keng ko'rib chiqishi va resurslarni o'z faoliyat yo'nalishlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

Chet el adabiyotlarida¹ mablag'larni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli xil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Albatta, bozor munosabatlarining rivojlanishi banklar faoliyatida raqobatbardosh moliyaviy institutlar va fondlarning shakllanishiga olib keladi. Lekin, fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir xil emas. Turli fondlar va muassasalar faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan va kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalarga nisbatan tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yo'qotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha past yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

¹ Синки Дж. Ф. Управление финансами коммерческих банков. Перевод с англ. М.: Саталлау. 1994, с. 22-23.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo'lib hisobga olinadi. Bular: banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'laridir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. Birinchisi, bu jalb qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqarorliklikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bank sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi. Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati, to'lovlarning amalga oshirilishi natijasida, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa, o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi.

Shu sabab, o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunday o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;

- iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida, tijorat banklarining zarar ko'rish darajasining oshishi;

- aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;


- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Banklarda mavjud bo'lgan mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga va ularning manbaalariga qarab bank resurslari o'z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo'linadi. Bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma'lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo'lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo'yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo'lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo'lmasa, zarur miqdordagi mablag'larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurslar bozorida sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin. Shunday qilib, o'z mablag'lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tarkibiy shakllanish jihatdan tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi. Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar; olingan banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan ochilgan «Vostro» depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar.

Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratish mumkin. Bu bankning o'z mablag'lari, ularga tenglashtirilgan mablag'lar hamda jalb qilingan va qarz mablag'laridir.

Tijorat banklarining o'z mablag'larini oladigan bo'lsak, ular o'zining ishonchlik darajasi buyicha farqlanadi. O'z mablag'lari elementlari orasida (umuman rezerv bazasida) eng ishonchligi, tijorat banklarining ustav kapitalidir. Tijorat banklarining resurs bazasini quyidagicha tasniflash mumkin.



2-rasm. Tijorat banklari resurslarining shakllanish jihatdan tarkibiy tasnifi

Tijorat banking resurs bazasini tashkil qilinishi, tahlili va boshqarilishi umumiy obyektiv iqtisodiy qonunlar, hamda bank tizimining

tizimli tashkil qilinishiga asoslanadi. Quyida tijorat banklarining resurslarini tasnifini keltiramiz.

Tijorat banklari resurslarining manbasi bo'yicha tasniflanishi

9-jadval

Tasnif belgilari	Resurslar turlari	Izoh
Manbai bo'yicha	O'z mablag'lari	Nizom, qo'shimcha kapital, zaxiralar, foyda va zararlar hisob raqamidagi qoldiq
	Jalb qilingan va qarz mablag'lari	Mijozlarning hamda vakil - banklarning depozit, jamg'arma va boshqa hisob raqamlaridagi mablag'lar; aholi omonatlari
Mablag'lar -ning kimga tegishligi bo'yicha	Bankka tegishli	O'z mablag'lari: taqsimlanmagan foyda, taqsimotdan keyingi joriy davrning foydasi, o'z mablag'larini ko'payishiga ta'sir qiluvchi xarajatlarni hisobga olmagan holda emission daromad
	Bankka tegishli bo'lmagan	Banklararo kredit, jalb qilingan depozitlar, maxsus jamg'armalar, korxonalarining hisob raqamlardagi vaqtincha bo'sh pul mablag'lari, bankning kreditorlik qarzlari, debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha zahiralar
Muddatiga ko'ra	Uzoq muddatli	O'z mablag'lari, o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar, uzoq muddatli depozitlar
	Qisqa muddatli	Qisqa muddatli depozitlar, korxonalar va tashkilotlarning talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqdan ortgan mablag'lar
Qiymati	To'lovli	Depozitlar, boshqa yuridik shaxslarning kreditlari
	Nisbatan to'lovsiz	Talab qilib olinguncha hisob raqamlari, korxonalarining hisob raqamlari
Ishonchlilik darajasiga ko'ra	Ishonchli	O'z mablag'lari, uzoq muddatli depozitlar
	Ishonchsiz	Talab qilib olinguncha depozitlar, korxonalar va tashkilotlarning hisob raqamlaridagi qoldiqlar
Ko'payish manbai	O'z ichki va tashqi mablag'lari	Taqsimlanmagan foyda. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aksiya, obligatsiya) shu jumladan, bank aktivlarini sotish, ko'chmas mulkni ijaraga berish

Jalb qilingan ichki va tashki qarz mablag'lari	Qimmatli qog'ozlarni konvertatsiya qilish, fuqarolarning omonatlari, yuridik shaxslarning depozitlari, banklararo kreditlar
--	---

Bu tasnif iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan qisqacha tasniflardan farqli ravishda bank resurslarining manbasi, turlari, kimga tegishliligi, muddati, qiymati, ishonchlilik va risk darajasini ko'rsatish imkoniyatlarini o'zida mujasamlashtirgan holda ishlab chiqildi.

Tijorat banklarining barcha resurs bazasidagi elementlarni turli belgilar bo'yicha guruhlariga ajratdik:

- manbalari bo'yicha;
- mablag'lar kimga tegishliligi bo'yicha;
- muddatiga ko'ra;
- qiymatiga ko'ra;
- ishonchlilik darajasiga ko'ra;
- ko'payish manbaiga ko'ra va boshqalar.

Tavsiya qilingan tasnif, bizning fikrimizcha, banklar faoliyati uchun zarur bo'lib, tijorat banklari o'zida mavjud bo'lgan resurslarni qaysi manbadan, qanday qiymatda, qancha muddatga jalb qilinganligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bu tasnif asosida tijorat banklari mablag'lari qaysi subyektga tegishli ekanligi va bu subyektning moliyaviy ahvoli, unga shu mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda, ularning likvidlik, ishonchlilik darajasi, shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasini aniqlashga hamda shu omillar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab turishga yordam beradi.

Odatda tijorat banklarining faoliyati asosiy xususiyati shundan iboratki, ularning resurs bazasining asosiy qismini (80-90) foizini chetdan jalb etilgan mablag'lar, qolgan (10-20) foizini esa o'z mablag'lari tashkil etadi. Kelgusi bo'limlarda ularga batafsil to'xtalib o'tamiz.

4.3. Bank mablag'larini tashkil qilish nazariyasining modeli va usullari

Har bir iqtisodiy subyektning faoliyatini rejalashtirish nuqtai nazaridan ularning jang'armalari va ular salmog'ining o'zgarish kvotasini belgilash banklar va ularga o'xshagan boshqa subyektlar

oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala pul mablag'larini bilan ishlovchi subyektlar uchun nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatiga ega. Mamlakat miqyosida resurslarni jalb qilish, nafaqat davlat ahamiyatiga, balki mamlakat moliyaviy bozorida faoliyat ko'rsatuvchi boshqa moliyaviy subyektlar uchun ham muhim, chunki bu subyektlar o'zaro raqobat asosida faoliyat ko'rsatadilar va ularning bu raqobatga asoslangan faoliyati shu subyektlar hamda davlat uchun foyda keltirishi lozim. Banklar tomonidan pul mablag'larini yig'ish, boshqa depozitlarni jalb qilish strategiyasini amalga oshirish bankning kredit-investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun ham zarurdir.

Jamg'arma, ya'ni pul mablag'larini yig'ish nazariyalari iqtisodiy fanlar rivojlanishining asosiy qismlaridan hisoblanadi. Mablag'larni jalb qilish nazariyalari va ularning kelib chiqishi bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Keyinschilikkacha bo'lgan davr (XVI-XVIII asrlar).
2. Keyinschilik davri (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi).
3. Zamonaviy davr (XIX asr – hozirgi davr).

Iqtisodchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni qiyosiy tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, jamg'armaning yagona omili daromad ekanligi ko'rsatib berilgan va jamg'armaning daromadga bog'liqligini quyidagi formulada ifodalash mumkin,

$$G_s = d + K_s \cdot D$$

bu yerda

G_s – jamg'arma miqdori;

d – jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadning o'rtacha miqdori, bunda past darajadagi daromadda jamg'arish amalga oshirilmasligi mumkin ($d < 0$);

K_s – daromad hisobidan jamg'arma o'sishining koeffitsienti ($K_s > 0$);

D – jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad miqdori.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pul mablag'larini jamg'arishi kvotasini topish mumkin.

$$\frac{G_s}{D} = \frac{d}{D} + K_s$$

A.Marshall d va K_s ko'rsatkichlarining jamg'arma funktsiyalarini turli iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida ko'rib chiqqan. Bu omillar qatoriga u birinchidan, madaniy, tarixiy, an'anaviy, urf-odatlarini, ikkinchidan, jamg'armalar bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalarini olgan.

A.Marshall jamg'arma jarayoni bilan bog'liq holatlarni tahlil qilib «Накопленные богатства регулируются множеством разнообразных

причин: обичаем, привычкой к сдержанности и умением предвидет будущее, а в первую очередь — силой семейных привязанностей»¹ deb ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan omillar d — miqdorining kam yoki ko'p bo'lishini boshqarib turadi. Undan tashqari jamg'arma o'sish koeffitsiyenti olingan daromaddan qay darajada foydalanish, uai taqsimlash, joriy va kalajakdagi pulga bo'lgan talab, boshqacha qilib aytganda, pulning diskontlashtirilgan qiymati yoki vaqt birligida pul qiymatining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Bu holda jamg'armaning foydalilik darajasi bo'yicha foiz stavkasi bilan o'lchanadi. Agar jamg'armaga bo'ladigan foiz stavkasi yuqori bo'lsa demak, uning foydalilik darajasi ham shuncha yuqori va aksincha, iste'molni chegaralab jamg'armaga ajratilgan mablag'ning samarasi past bo'lishi mumkin.

Jamg'arma nazariyasining ikkinchi bosqichi (Dj.M.Keyns, R.Goldemit va boshqalar) jamg'arma funksiyasini tavsiflashda asosiy ko'rsatkichlar daromadlar summasi, iste'mol va jamg'armalarning o'zaro bog'liqligini, ular o'rtasidagi farqlar miqdorini ko'rib chiqqanlar. Dj.M.Keyns tomonidan olg'a surilgan jamg'arma funktsiyasining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u jamg'armaning yuzaga kelishida insoniy omillarni, subyektiv boshqa sabablarni ham ko'rib chiqqan va bu omillar jamg'arma yuzaga kelishida ustivor rol o'ynaydi deb qabul qilgan.

Bunda Keyns quyidagi gipotezalarga asoslangan:

1. Olingan daromaddan jamg'arma qilishda yoki uning bir qismini jamg'arma sifatida saqlab qolishda sakkizta asosiy rag'bat yoki sabab bo'ladi. Bular: ehtiyotkorlik, oldindan ko'ra bilish, hisob-kitob qila bilish, yaxshilikka intilish, mustaqillik, tadbirkorlik, mag'rurlik va ziqnalidir. Albatta, bu rag'bat yoki sabablar bugungi kunda ham o'z ahamiyati va o'miga ega deb o'ylaymiz.

2. Yuqoridagi rag'batlar iqtisodiy subyektlarning hatti-harakatiga bog'liq, boshqacha qilib aytganda ularning daromad olishi bilan iste'moli ham oshishi mumkin, lekin jamg'arma bo'lishi uchun iste'molning o'sishi daromad o'sishidan past yuradi.

3. Daromad o'sishi bilan iste'mol hajmi nisbatan kamayadi va jamg'arma hajmi oshadi.

Keyns tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda daromadning oshishi bilan jamg'arma kvotasi (salmoq'i)ning oshishi to'g'ri proporsional ekanligi tasdiqlandi. Nobel mukofoti sovrindori amerikalik olim

¹ Маршалл А. Принципы политической экономии: пер. с англ. М. Прогресс, 1984. (Част II) с 47.

S.Kuznets qator davlatlarda aholi jamg'armasining o'sishi bilan birga uzoq vaqt davomida jamg'arma kvotasining o'zgarmaganligini yoki sezilarsiz o'zgarmaganligini tadqiqot qilgan. AQSh, Frantsiya, Germaniya kabi davlatlarda ikkinchi jahon urushi tugagandan keyingi-yillarda nisbatan jamg'armalar o'sgan bo'lsada, keyinroq bu hol oldingi holatga qaytgan, ya'ni daromad oshsada, jamg'arma kvotasi sekinlik bilan o'sib borgan yoki o'zgarmagan.

Bu boshqa qator omillarning ta'siri alohida olgan daromadning ta'siridagi ancha yuqori bo'lishi mumkinligini ko'rsatilgan. Ular shunday holatga olib kelishi mumkinki, yuqori daromad yuqori jamg'arma kvotasini bermasligi, aksincha kam daromad yuqori jamg'arma kvotasiga ham olib kelishi mumkin.

Keyingi davrda boshqa omillarni kompleks ravishda ko'rib chiqish masalasiga ustivorlik berilgan. Bunday omillar qatoriga:

1. Davlatning siyosiy-iqtisodiy barqarorligi va uning siyosatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sohaga e'tibor jamg'armalarni kamaytirishga olib kelishi mumkin. Agar jamiyatda davlat tomonidan yuqori ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar belgilangan bo'lsa (yuqori ish haqi, nafaqa, pensiya to'lovlari, tibbiy sug'urta va boshqalar) bu hol alohida qora kunga jamg'arma qilmashligiga sharoit yaratadi.

2. Davlatning moliyaviy barqarorligi. Bu omil ham jamg'armalarning tarkibini o'zgartirib, unga ikki tomonlama ta'sir qilish mumkin. Birinchidan, bu omil aholining rasmiy (banklardagi) jamg'armalarini oshirish va bu jamg'armalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning manbai bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan bu omil norasmiy jamg'armalar (chet el valyutasidagi, «yostiq»dagi, chet eldagi va boshqalar)ni kamaytirishi mumkin. Natijada jamg'armaning umumiy miqdori kamayadi.

3. Bozor infrastrukturasi xususiyatlari, mamlakatdagi iste'mol darajasi ham jamg'armalarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, tovarlar va xizmatlar soni va sifatini yaxshilash, ularni tashviqot-targ'ibot, reklama qilish, moliyaviy instrumentlar (kredit, ipoteka)dan foydalanish, aholining milliy mentaliteti, dam olish, boshqa tadbirlar uchun mablag'lar yig'ish, masalan, o'zbeklarda to'y-tomosha uchun, dala-hovli, uy-joy qurish va h.k. ham jamg'armalar talab qiladi.

4. Ma'daniy-tarixiy va tabiiy xususiyatlar ham iste'molga u orqali jamg'armaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu omil ham jamg'armaning kamaytirishi mumkin. Yuqoridagi tahlil bo'yicha jamg'armaning quyidagi modellarini tasniflash mumkin.

A-Model—»turmush farovonligi—katta hamyon» modeli. Bu model ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror, aholisi yuqori daromad oluvchi (25 – 50 ming evro) va jamg'armaga moyil bo'lgan aholi ustivor bo'lgan davlatlar bo'lib, ularda jamg'arma kvotasi yuqori bo'lib, u o'rtacha 15 – 30% ni tashkil qiladi.

V-Model – «iste'mol jamiyati». Bu model ham yuqori barqarorlik va daromadga ega bo'lgan davlatlarga ta'luqli bo'lib, ularda daromad diapozoni 25-40 ming evro bo'lishiga qaramasdan ularning iste'molida yangicha hayot tarziga mos keluvchi ilg'or g'oyali iste'mol ustun turadi. Shu sabab bu davlatlarda turli yangiliklarga ko'p e'tibor berilganligi sabab daromad yuqori bo'lsada, jamg'arish kvotasi past bo'lib o'rtacha 3–8%ni tashkil qiladi.

S-Model – «jamg'arma – hayot qutqaruvchisi». Bu modelga kiruvchi davlatlarda iqtisodiy, moliyaviy yoki siyosiy jihatdan nobarqaror bo'lgan davlatlarda o'rtacha daromad 20 ming evrogacha bo'lib, bu mamlakat aholisi o'zining an'anaviy tadbirlari va boshqa an'anaviy turmush tarzini ta'minlash uchun jamg'armalar qiladilar. Haqiqatda ularda jamg'arma kvotasi nisbatan yuqori bo'lib, 10 – 20% ni tashkil qiladi.

D-Model – «Maqsad va imkoniyatlar ko'lami kengligi» modeli bo'lib, bu guruhga kiruvchi davlatlarda iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, o'rta miyona daromad (17–23 ming evro) milliy an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvida olib boriladi. Bularda jamg'arma kvotasi yuqori emas, bor yo'g'i 2 – 3% va undan past miqdorlar bo'lishi mumkin.

Umuman olganda jamg'arma miqdorining qanchalik yuqori bo'lishi mamlakat iqtisodiyotiga shunchalik ko'proq ichki resurslarni jalb qilishga imkon yaratadi, albatta, bu sohada keng rolni bank tizimi o'ynaydi.

Biz pul mablag'larini jamg'arish nazariyasini ko'rib chiqib, jamg'arishning mamlakat iqtisodiyoti uchun qanchalik muhim ekanligini ta'kidlamoqchimiz. O'zbekiston bozor munosabatlariga kirib borayotgan yosh davlatlardan bo'lib, uning aholisi yuqoridagi davlatlar aholisidan yuqori daromad olmasada, O'zbekiston aholisining milliy an'analari uning jamg'arma jarayonida qatnashuvini taqozo qiladi.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan zamonaviy nazariyalarning asosiy g'oyasi aholi daromadlarining yuqori bo'lishi, aholi jamg'armalarining ham yuqori bo'lishini ta'kidlaydi. Shundan ke'ib chiqib, O'zbekiston aholisi daromadlarining oshib borishi bilan aholi jamg'armalarining miqdorini ham proporsional ravishda oshib borishi guvohi bo'lmoqdamiz.

Jamg'armalar iqtisodiyotning asosiy subyekti bo'lgan banklar tomonidan amalga oshirilsa, uning mamlakat iqtisodiyoti uchun foydasi juda yuqori bo'ladi.

4.4. Tijorat banklari o'z mablag'lari va unda bank kapitalining o'rni

Bank balansining passivida kredit berish, qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish va boshqa turdagi operatsiyalarni bajarish hamda yuqori foyda olish maqsadida mablag'lar yig'iladi. Biz oldingi paragraflarda ko'rib chiqqanimizdek, bank passivlarining ichida muhim o'rinni bankning o'z kapitali va unga tenglashtirilgan mablag'lar egallaydi.

Mulk shaklidan qat'iy nazar ixtiyoriy korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas qismi bo'lib, ularning o'z kapitali hisoblanadi. Banklar ham boshqa ixtiyoriy korxonalar singari o'z faoliyatini boshlashda o'z kapitalini shakllantirish bilan bog'liq bosqichdan o'tadilar.

Hozirgi zamon tijorat banklarining resurs bazasi tarkibida o'z mablag'larining ulushi odatda ancha kichikligini e'tirof etish mumkin. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari rivojlana borgan sari ularning o'z mablag'larining ulushi ham oshib boradi. Shu bilan birga passiv operatsiyalarning rivojlanishi bankning umumiy jalb qilingan mablag'larining ham salmog'ini oshishiga olib keladi. Bank barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarli qo'yilmalarni sug'urtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bankning o'z kapitali muhim baza hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham, bank o'z kapitalining funksiyalari, roli va hajmi boshqa tadbirkorlik sohaslariga qaraganda o'zgacha xususiyatlarga ega. Bank faoliyatida uning kapitali rolining muhimligi shundan dalolat beradiki, oxirgi-yillarda banklarning kapitallashuvini jadallashtirishda hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda.

Odatda banklar o'z kapitali va rezervlari hisobiga mablag'larga bo'lgan umumiy ehtiyojning 10 foizidan kamroq qismini qoplaydi, nomoliyaviy korporatsiyalarda esa ushbu munosabat 40-55 foizni (ba'zi tarmoqlarda undan ham yuqori) tashkil etadi.

Bankning aksionerlik kapitali va unga tenglashtirilgan moddalarning muhim bir funksiyasi sifatida bank barqarorligini va faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'lib, unda bank mablag'lari tarkibi muhim

ahamiyatga ega hisoblanadi. O'z mablag'lar – bank uchun moliyaviy resurslar manbasi. U bank faoliyati boshlang'ich bosqichida qator birinchi navbatdagi harajatlar amalga oshirilayotganda (er va binoni sotib olish, asbob – uskunalarni o'rnatish, ishchi xodimlarga ish haqini to'lash va hokazolar) nihoyatda zarurdir. Keyingi bosqichlarda ham, bank operatsiyalarini kengaytirishda, bankning o'z kapitali muhim rol o'ynaydi. Bankning o'z kapitali hisobiga turli xildagi rezervlar tashkil qilinadi. Chet elda garchi bank operatsiyalari ko'lamini kengaytirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar manbasi bank foydasi bo'lsada, ba'zan yangi aksiyalarni va uzoq muddatli zayomlarni muomalaga chiqarish orqali yirik strukturaviy xaraktyerdagi tadbirlar (bo'limlarni kengaytirish, qo'shib yuborish va boshqalar) amalga oshiriladi.

Bank kapitalining boshqa zaruriy funksiyasi - himoyaviy kafolat funksiyasidir. O'z kapitali yordamida bank kutilmagan zararlar yoki odatdagidan tashqari xarajatlarni qoplaydi. Garchi bunday xarajatlarni qoplash uchun maxsus rezervlar mavjud bo'lsada, katta salbiy hodisalar yuz berganda rezervlar etmay qolishi va aynan shu paytlarda aksionerlik kapitalining ma'lum bir qismi ishlatilishi mumkin. Bunday holatlarda faqat obligatsiyalarni sotishdan tushgan tushumlar evaziga bankning joriy xarajatlarini qoplash mumkin emas, chunki obligatsiyalarning o'zi qarzdorlik guvohnomasidir. Albatta, bankrotlik yuz berganda yoki bank faoliyati to'xtatilganda, barcha mol-mulki auksionda sotiladigan holati mustasno. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundan iboratki, bank o'z joriy faoliyatining zarar va xarajatlarini qoplashda aksionerlik kapitalidan foydalanmaguncha, u to'lovga qobiliyatli hisoblanadi.

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda bankning o'z resurslari va bank kapitali to'g'risidagi tushunchalarning turli xil ta'riflarini uchratish mumkin. Rossiyalik iqtisodchi V.P.Ivanovning fikricha, «Bank kapitali - bir tomondan, bozor iqtisodiyoti mahsuli, ikkinchi tomondan esa, u taraqqiyotning zaruriy shartidir».¹

Bank kapitali albatta bank faoliyatini olib borish va uni rivojlantirish uchun juda muhim ekanligi muallif tomonidan ta'kidlanganligini e'tirof qilish mumkin. Lekin shu bilan birga bank kapitalining mavjudligi nafaqat bozor iqtisodiyotining mahsuli, balki qaysi tizimda bo'lishidan qat'iy nazar bank faoliyatini olib borishning asosi hisoblanadi.

¹ В.В.Кисилев «Управление банковским капиталом» Москва, «Экономика», 1997. с 18.

Ukrainalik bir guruh olimlarning fikricha, «Банковский капитал - совокупность капиталов привлеченных банком, которые используются ими в виде банковских ресурсов для кредитно-расчетных и других операций. Собственный (акционерный и резервный) капитал банка составляет меньшую часть банковского капитала. В отличие от торгового промышленного капитала собственный капитал банка вполне в банковском деле и приносит банковскую прибил».¹

Bu guruh olimlarning fikricha bank kapitali ham aksariyat hollarda mablag' jalb qilish orqali kelgan mablag'dir va ularni banklar resurs sifatida kredit va hisob-kitob operatsiyalari uchun ishlatadilar. Endi banklar faoliyati nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, banklarning kapitali korxonalar, tashkilotlarning kapitalidan ko'ra kamroq, ularning faoliyatini olib borishda o'z kapitalidan ko'ra chetdan jalb qilingan mablag'lardan ko'proq foydalanadilar. Banklar ixtiyorida chetdan jalb qilingan mablag'lar salmog'i boshqa xo'jalik subyektlarining qaraganda bir necha barobar ortiqdir. Shu bois tijorat banklari o'z faoliyatini olib borishda birinchi navbatda chetdan jalb qilingan mablag'larni oborotga qo'yishadi, bank kapitali esa bank faoliyatini turli xil risklardan himoya qiluvchi dastak sifatida harakatda bo'ladi. Qachonki bank ixtiyorida mavjud bo'lgan mablag'lar, uning faoliyatini normal olib borish uchun etarli bo'lmasa va bank faoliyatida moliyaviy jihatdan qiyinchiliklar yuzaga kelsa, bank kapitalidan kredit operatsiyalarni amalga oshirish, turli xil hisob-kitoblarni olib borishi, umuman bank majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Bu hol bank faoliyatining va uning likvidligining nobarqarorligidan dalolat berishi mumkin.

Rus iqtisodchilari tomonidan tayyorlangan «Финансово-кредитный словарь» китобида «Банковский капитал – Совокупность денежных капиталов, привлеченных в капиталистические банки и используемые ими для кредитно-расчетных и других операций»² degan ta'rif keltirilgan bo'lib, bu ta'rif ukrainalik iqtisodchilarning ta'rifiga o'xshab ketadi va unda ham bank kapitaliga jalb qilingan mablag'lar sifatida qaraladi.

Albatta, bank kapitali, avvalom bor, uning iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashining asosi hisoblanadi. Bankda doimiy ravishda barqaror kapital bazasining bo'lishi bank faoliyatini doimiy ravishda xavf-xatarsiz faoliyat yuritishi bankning operatsiyalari ko'lamini kengaytira borishga asos bo'ladi. Bank kapitali bazasining barqaror

¹ С.И.Лукаш, А.А.Малюткина «Банковская энциклопедия» Днепропетровск, 1994, с 24.

² Финансово-кредитный словарь. Москва «Финансы и статистика», 1984. И т., с 112.

bo'lishi uning riskli operatsiyalar olib borishga ham bir manba sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga bank tomonidan tashkil qilingan turli fondlarni bank kapitali deb qarash bizning fikrimizcha bank kapitali tushunchasining bankning o'z mablag'lari tushunchasi bilan aralashib ketishiga va ular o'rtasidagi farqning yo'qolib borishiga olib kelishi mumkin. Bankning o'z mablag'lari tushunchasi bank kapitali tushunchasiga qaraganda keng ma'noga ega bo'lib, u o'z ichiga bank kapitalini ham qamrab oladi. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarning qisqa tahlili shuni ko'rsatadiki, O.I.Lavrushinning fikricha, «Под собственными средствами банка следует понимать различные фонды, создаваемые в хозяйственной деятельности, а также полученную прибыль по результатам деятельности текущего и прошлых лет»¹.

Bizning fikrimizcha yuqorida keltirilgan ta'riflar aksariyat holda bir-biridan unchalik farq qilmaydi, ya'ni yuqorida mualliflar bankning o'z mablag'lari va bank kapitalini ayrim bir xil tushunchaga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Amerikalik iqtisodchilar Kris Dj Barlton va Diana MakNotonning fikricha, bank kapitali bank faoliyatida yuzaga keladigan turli xil ko'zda tutilmagan holatlarning oldini olish uchun etarli rezerv bo'lishi bilan birga, o'zgaruvchan sharoitga moslashishda yuzaga keladigan to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf qilishda yordam beradi. Shu sababli ular bank kapitaliga «амортизатор на случай неожиданной аварии»² deb ta'rif berganlar va bank kapitalining hajmi har bir mamlakatda bank tizimi hamda uning iqtisodining rivojlanishiga qarab turlicha bo'lishini ta'kidlashgan. Mahalliy iqtisodchilardan A. Omonov «Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir»³ deb ta'kidlaydi.

Bank kapitali bu bank ta'sischi tomonidan qo'yilgan mablag'lar bo'lib, u ustav kapitali va rezerv fondlari, hamda taqsimlanmagan foydadan iborat. Bankning kapitali to'g'risida gapirganda, avvalom bor, bank kapitali uning ta'sischi tomonidan to'plangan mablag' ekanligiga e'tibor berish lozim. Turli xil fondlar, taqsimlanmagan foyda esa bank faoliyati maxsul sifatida yuzaga kelishi mumkin va ular bank kapitalining o'zgarishiga, ya'ni oshib borishiga zamin yaratadi.

¹ «Банковское дело» под редакцией акад. О.И.Лаврушина Москва «Финансы и статистика» 1998. с 70-73.

² Криз Д.Ж. Барлтон и Д. МакНотон «Банковские учреждения в развивающихся странах» ИИ том. Всемирный банк Вашингтон, ДС. 1992. с 101.

³ А.А.Омонов «Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari».i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati.T.2004,-7 b.

Zamonaviy yirik bankni millionlab dollar mablag'ga ega bo'lgan bank sifatida emas, balki o'nlab va yuzlab milliard dollarlab pul mablag'iga ega bo'lgan muassasa sifatida qarash mumkin 50-yillarning o'rtalarida faqat «Bank of Amerika» 10 mlrd. dollardan ortiq aktivga ega bo'lgan. 1985-yilga kelib 42 ta Amerika banki va 100 dan ortiq boshqa davlatlarning banklari 17 mlrd. dollardan ortiq aktivga ega bo'lgan. Qariyb ikki asrlik tarixga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar banklaridan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi banklari endi o'zining birinchi qadamlarini qo'ymoqda. Shu bois bu tijorat banklarining ustav fondlari kam miqdorga ega. Barcha rivojlanayotgan davlatlarda bank kapitali tashkil qilishda uning eng kam miqdori, banklarning moddiy texnika bazasining va kadrlar kasb mahoratining bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan davlatlarga nisbatan pastligi bank tizimi tashkil qilishning birinchi bosqichlarning xususiyatlaridan hisoblanadi. Bank kapitali tashkil topishining yana bir xususiyati bu sobiq ittifoq tizimidagi faoliyatni bozor munosabatiga transformatsiya qilishdan iborat va bu hol chuqur iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar asosida kechishi bilan ham xarakterlanadi.

Jahonning barcha mamlakatlarida banklarning likvidligini oshirish va mijozlari o'rtasida ishonchliligini mustahkamlash maqsadida Markaziy Bank tomonidan ustav kapitalining minimal hajmi o'rnatiladi. O'tgan-yillar davomida tijorat banklarining qo'shimcha aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish va realizatsiya qilish, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mablag'larini depozitlarga jalb qilish orqali banklarning kapitallashuvini oshirish bo'yicha dasturlar qabul qilingan. Albatta, kapitallashuvning oshishi o'z-o'zidan bank resurslarining oshishiga asos bo'ladi.

Banklarning minimal ustav kapitali¹

10-jadval.

Yillar	Tijorat banklari uchun	Chet el kam ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1-yanvar 1998	1,5 mln. AQSh dol. ekv.	5 mln. AQSh dol. ekv.	0,3 mln AQSh dol. ekv.
1-yanvar 1999	2,0	5,0	0,3

¹ Nizom va qarorlar asosida tayyorlangan.

1-yanvar 2000	2,5	5,0	0,3
1-yanvar 2002	2,5	5,0	1,25
1-yanvar 2005	5,0	5,0	2,5
1-yanvar 2008	5,0 mln.Evro ekv.	5,0 mln.Evro ekv.	2,5 mln.Evro ekv.
1-yanvar 2011	10 mln.Evro ekv.	10 mln.Evro ekv.	5,0 mln.Evro ekv.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6 apreldagi «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsion faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan banklarning kapitallashuv jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Qarorga asosan tijorat banklari ustav fondining minimal miqdorini o'stirib borib, uning miqdorini 1 yanvar 2011-yilga:

- tijorat banklari uchun – 10 mln. Evro ekvivalentida so'mga;
- xususiy banklar uchun – 5 mln. Evro ekvivalentida so'mga etkazish ko'zda tutilgan edi¹.

Bank aksionerlik kapitalining tarkibi xilma-xildir.

Aksionerlik kapitali (equity capital) quyidagilardan iborat:

- a) oddiy aksiyalar;
- b) imtiyozli aksiyalar;
- v) ortiqcha kapital;
- g) taqsimlanmagan foyda.

Oddiy aksiyalar bu bank kapitalida qatnashayotganlik to'g'risida guvohlik beruvchi va dividend shaklida daromad keltiruvchi qimmatbaho qog'ozdir. Bunday aksiyalar muddatsiz bo'ladi, ya'ni bank o'z faoliyatini to'xtatib qo'ymagunicha aksiyalar muomolada bo'ladi. Oddiy aksiyalar o'z egasiga aksionerlik majlisida ovoz berish huquqini beradi. Dividendlar miqdori oldindan muayyan belgilanmagan daromadiga bog'liq.

Imtiyozli aksiya egalari oddiy aksiya egalari qaraganda ma'lum ustuvorliklarga ega: bankning oladigan daromadi miqdoridan qat'iy nazar imtiyozli aksiyalar dividendi oldindan qat'iy belgilangan bo'ladi; aksiyadorlar huquqi bank bankrotga uchraganda ustuvorlikka ega.

¹ «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsion faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 6-aprel 2010-yil.

Bank imtiyozli aksiyalarining quyidagi turlari mavjud:

- muddatsiz (perpetual), ya'ni o'z qoplash muddatiga ega bo'lmagan va egasi tomonidan bankka sotib olinishini talab qila olish mumkin bo'lmagan imtiyozli aksiya;

- konvertirlanadigan (convertible), ya'ni ma'lum kelishilgan muddatdan so'ng muayyan miqdordagi oddiy aksiyalarga almashtirilishi ko'zda tutilgan imtiyozli aksiyalar;

- cheklangan muddatli (limited-life) oldindan e'lon qilingan sanada bank tomonidan sotib olinadigan imtiyozli aksiyalar.

Bank kapitalida imtiyozli aksiyalar summasi oddiy aksiyalarning summasiga nisbatan juda kichik bo'ladi.

Oddiy va imtiyozli aksiyalar emissiyasi miqdori har-yili aksionerlar umumiy yig'ilishida belgilib olinadi.

Ortiqcha kapital (surplus capital) bu oddiy va imtiyozli aksiyalarning sotish kursi bilan nominal bahosi o'rtasidagi farq hisobiga hosil qilingan kapitaldir. Ba'zi hollarda ortiqcha kapitalning summasi aksiyalarning nominal qiymatidan oshib ketishi mumkin.

Taqsimlanmagan foyda (undivided profits) bu bank ixtiyorida qoladigan daromad summasi. Yil (chorak) oxirida bankning barcha rezultatsiv schyotlaridagi summalar foyda va zararlar schyotiga pul o'tkaziladi, so'ngra umumiy yig'ilgan summaning ma'lum bir qismi soliqqa, ma'lum bir qismi aksiyadorlar uchun dividendga, ma'lum bir qismi turli xildagi rezervlarga o'tkaziladi va qolgan qoldiq summa esa taqsimlanmagan foydani tashkil qiladi. Taqsimlanmagan foyda bank rahbariyati va umumiy aksiyadorlar majlisi tomonidan boshqariladi.

Bank kapitaliga uning turli xildagi rezervlar ham kiradi. Ularning jumlasiga:

a) kutilmagan hodisalar uchun rezerv;

b) dividend to'lash uchun rezerv;

v) qoplanmagan kreditlar yoki lizing operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun rezerv.

Kredit bo'yicha yo'qotishlar rezervi bank uchun o'ta muhimdir, chunki u qarzlarni to'lanmaganda bankning joriy faoliyatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan uzilishlarning oldini olishga imkon yaratadi. Ushbu rezervga o'tkazilgan mablag'lar soliqqa tortilmaydi, shuning uchun ham banklar mazkur rezervga ko'proq mablag'larni o'tkazishga harakat qiladilar. Biroq banklarni nazorat qiluvchi organlar ushbu rezerv summasini cheklashga harakat qiladilar. Masalan: ilgari AQShda 6 yil ichida yo'qotilgan summalarning o'rtachasini yoki berilgan kredit

umumiy qiymatning ma'lum foizini (0,6%) rezervga hisoblash ruxsat berilgan edi. Hozirgi kunda esa faqat bir-yil mobaynida haqiqatda ham yuz bergan umidsiz qarzlarning summasinigina rezervga o'tkazish ruxsat berilgan. Bankning ishonchliligi avvalom bor uning moliyaviy holati bilan belgilanadi. Uning kapitalining etarlilik, aktivlarining sifati, balans likvidlilik, faoliyati va boshqaruvining samaradorligi bilan belgilanadi.

Bank kapitali bankning uzoq vaqt samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishining asosiy omili hisoblanadi. Chunki:

Birinchi, kapital «Qora kun» uchun asosiy resurs hisoblanadi, bank joriy yo'qotishlarini kapital hisobidan qoplash yo'li bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish, bankni bankrotlikdan saqlab qolishi mumkin.

Ikkinchi, kapital bank o'z faoliyatini keng qamrovli olib borib mablag'larni jalb qilish resurs bazasini tashkil qilguncha uning faoliyatini asosiy manbasi hisoblanadi.

Uchinchi, bank kapitali bank faoliyatining ko'rsatkichi bo'lib bankning obro'sini oshirish, mijozlarning unga ishonchini mustahkamlaydi.

To'rtinchi, kapital bankning tashkiliy jihatdan o'sishiga, yangi xizmatlar ko'rsatishga imkon beruvchi manba shaklida namoyon bo'ladi.

Bank kapitali va uning o'lchami bank resurslari tarkibida katta ahamiyatga ega. Bank kapitalining bank resurslarida tutgan o'rmini ochish uchun uning quyidagi funksiyalarini ko'rib o'tamiz:

1. Bank kapitali boshqaruvchi tomonidan yuzaga kelgan muammolar hal qilinguncha joriy xarajatlarni qoplaydi.

2. Bank kapitali boshqa etarlicha depozitlar jalb qilinguncha uni tuzish, tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yish va faoliyat ko'rsatish uchun zaruriy mablag'lar bilan ta'minlaydi.

3. Bank kapitali mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshiradi, qo'llab-quvvatlaydi va kreditorlarni bankning moliyaviy kuchiga ishonishga undaydi. Bank kapitali etarli darajada katta bo'lishi kerak va hattoki iqtisod inqirozga yuz tutgan vaqtda ham u mijozlarning kreditga bo'lgan talabini qondirishi kerak.

4. Bank kapitali bankning tashkiliy o'sishini va yangi xizmat turlari ishlab chiqishni ta'minlashi kerak.

Bank kapitali bankning uzoq muddatdagi kelajagini, hayotiyligini va o'sishini maromga keltirib turuvchi regulyator hisoblanadi. Juda tez kengayayotgan bank, ya'ni kredit va depozitlarning summasi shiddat

bilan o'sayotgan bank, bozordan shunga javob signallari olishni boshlaydi. Bu aks ta'sir bank tomonidan kengayish sur'atlarini sekinlashtirish yoki qo'shimcha kapital jalb qilishi kerakligini bildiradi.

Bank kapitali bank faoliyatini bir tekis ta'minlab turishi uchun doimo to'ldirib turishi kerak va nafaqat aksiyalar hisobidan, balki boshqa manbalar hisobidan ham. O'z kapitalining tabiatini bilish uchun esa uning shakllanish manbalarini ham yaxshi bilish katta ahamiyatga ega. Undan tashqari bankning o'z kapitali - bu bank tomonidan aktiv operatsiyalarning oshirishning asosidir. Shu sababli har bir bank uchun uni oshirish yo'larini topish birinchi darajali masalalardan biridir. Manba sifatida o'tgan-yildan qolgan taqsimlanmagan foyda, bank zahiralari, qo'shimcha qimmatli qog'ozlarni joylashtirish yoki yangi paychilarni jalb qilishni ko'rsatib o'tish mumkin.

Xalqaro Bazel qo'mitasining andazalariga e'tiboran bankning jami kapitali asosiy va qo'shimcha kapitalga ajratiladi.

Asosiy kapital tarkibiga quyidagi elementlar kiritiladi:

1. Ustav kapitalining to'langan qismi (oddiy aksiyalar qiymati);
2. Muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aksiyalar;
3. Emission daromad;
4. Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summasi;
5. O'tgan-yillarning taqsimlanmagan foydasi.

Qo'shimcha kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira-ning riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi;

2. Qayta baholash zaxirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda erining qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zaxira miqdori tushuniladi;

3. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari;

4. Kontsoloditsiyalashgan sho'ba korxonalarini tashkil etish maqsadida yo'naltirilgan mablag'lar.

Regulyativ kapital **bank faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy me'yorlar hisob-kitobini** amalga oshirish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitalning yig'indasidan iborat.

Regulyativ kapital tarkibiga xavfsiz bo'lmagan va nosog'lom bank faoliyatining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan shartlar (tashkil qilinadigan jamg'armalar/zaxiralardan belgilangan maqsadga

muvofiq foydalanish, qarz majburiyatlarini chiqarish shartlari va boshqalar) bilan cheklangan kapital elementlari kiritilishi mumkin emas.

I darajali kapital regulyativ kapitalning 75 foizidan kam bo'lmashligi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining uchdan bir qismidan oshib ketsa, oshgan summa regulyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi.

I darajali kapital o'z navbatida I darajali asosiy kapital va I darajali qo'shimcha kapitalni o'z ichiga oladi.

I darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalining 60 foizidan kam bo'lmashligi va o'z ichiga quyidagilarni olishi zarur:

a) bankning to'liq to'langan oddiy aksiyalari;

b) qo'shilgan kapital — oddiy aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

v) taqsimlanmagan foyda:

bank balansidagi avvalgi-yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan kapital zaxiralar va boshqa zaxiralar (tekinga olingan mulklar (30905) va boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi (30908) bundan mustasno);

to'lanmagan dividend summasidan tashqari o'tgan-yillardan qolgan taqsimlanmagan foyda;

joriy-yil zararlari;

g) ozchilik ulush egalarining bank yig'ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;

d) devalvatsiya zaxirasi.

I darajali qo'shimcha kapital o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bunday aksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim:

muayyan sotib olish sanasi yoki shartlariga ega emas;

egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;

bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin;

ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan dividendlar to'lanmaydi;

bank faqat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan oldindan olingan ruxsati bilan va chiqarilganiga 10-yildan kam bo'lmagan aksiyalar va sotib olinadigan summani kapitalning o'sha turi yoki boshqa undan yuqoriroq turiga almashtirgandan so'ng yoxud bank kapitalining

monandligi kapitalga qo'yilgan minimal talabdan yuqori ekanligini ko'rsatgandan so'ng, ularni sotib olishi mumkin bo'lgan.

b) qo'shilgan kapital — imtiyozli aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

v) I darajali qo'shimcha kapitalga qo'shilish shartlariga javob beruvchi sho'ba korxonalarining ishtirok etish ulushi (sho'ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo'lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar).

Dividend stavkalari o'zgarib turuvchi imtiyozli aksiyalar I darajali kapital hisob-kitobiga kiritilmaydi.

II darajali kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) joriy-yildagi sof foydasi, bankning oraliq moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tgan bo'lsa — tasdiqlangan moliyaviy natijalaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, aks holda bank hisobotidagi sof foydaning 50 foizi;

b) chegirmalardan so'ng tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizidan yuqori bo'lmagan miqdordagi standart kreditlarga (aktivlar) yaratiladigan zaxiralar;

v) chegirmalardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali xususiyatlariga ega bo'lgan vositalar). Aralash turdagi majburiyatlar, shuningdek, I darajali kapitalga kiritilmagan imtiyozli aksiyalar, agar ular quyidagi shartlarga javob bersa, II darajali kapitalga kiritiladi:

to'liq to'langan;

garov bilan ta'minlanmagan;

bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari va bank boshqa kreditorlari talablari bajarilgandan so'ng qondiriladigan;

aksiya egasining tashabbusi bilan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining oldindan berilgan roziligisiz to'lanishi mumkin bo'lmagan;

bankning barcha zaxiralarini qoplashi va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermaydigan;

agar bank oxirgi 3 ta chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa yoxud oddiy yoki imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar (foizlar) to'lamaslik to'g'risidagi qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to'lash muddati emitent xohishiga ko'ra kechiktirilishi mumkin bo'lgan aksiyalar;

g) subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali

kapitalning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz summasi to'lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5-yil davomida-yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

garov ta'minotiga ega bo'lmashligi;

bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar va bankning boshqa kreditorlari talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi;

boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan keyin bo'lishi;

muddatidan avval O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ruxsati bilan qaytarilishi.

d) aktivlarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

Kapitaldan chegirmalar kapital monandligi koeffitsiyentlari hisoblangunga qadar I darajali kapitaldan chegiriladi.

I darajali kapitalni hisoblab chiqarishda I darajali asosiy kapital va I darajali qo'shimcha kapital yig'indisidan quyidagilar chegiriladi:

nomoddiy aktivlar;

birlashmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar kapitaliga barcha investitsiyalar summasi, shu jumladan, bunday xo'jalik yurituvchi subyektlar kapitalini tashkil qiluvchi qarz majburiyatlari;

boshqa banklarning kapitaliga qilingan investitsiyalar.

Bank kapitalini jalb qilish bankning yuritayotgan siyosatiga ko'ra ichki va tashqi manbalardan shakllantirilishi mumkin.

Ichki imkoniyatlar hisobidan kapitalni jalb qilish, bank kapitalining asosiy manbai bo'lib har doim aksionerlarga to'lanmagan va bankda taqsimlanmagan holda qoldirilgan foyda xizmat qilgan. Kapitalni jalb qilishning afzal tomoni shundan iboratki, bank kapitalni shakllantirish jarayonida ochiq bozordan mustaqil bo'ladi va shu bilan birga qarzlarni joylashtirish bo'yicha xarajatlardan holi bo'ladi. Ichki imkoniyatlardan foydalanib kapitalni oshirish nafaqat mavjud aksionerlarning jamiyat ustidan bo'lgan nazoratini susaytirmaydi, balki aksiyalarga hisoblangan dividendlar ham kamaymaydi. Masalan, bank kapitalni ko'paytirish yo'li sifatida aksiya chiqarishni tanladi, aksiyalarning bir qismi yangi aksionerlarga sotildi va bu esa mazkur aksionerlar keyinchalik jamiyatning kelajakdagi malum foyda qismiga va uning siyosatiga aralashishga, hal qilishda qatnashishga huquqni qo'lga kiritishini anglatadi.

Ushbu holatda kapitalga bo'lgan ehtiyojni qondirishda foydaning o'sishiga tayanishga etibor joriy foydaning qaysi qismi taqsimlanmagan holda qolishi va qaysi qismi aksionerlarga dividend ko'rinishida taqsimlanishining echimiga qaratilishini bildiradi, ya'ni dividendlar ulushi oshirilmaydigan, ushlab qolingan foyda qismini aniqlanishi zarur. Ushlangan foyda kattaligi bankni boshqarishda katta ahamiyatga ega. Ushlangan foyda past darajada o'rnatilgan kattalik (yani dividendlarning ulushi katta bo'lganda) u bank kapitali ichki manbalarining sekin o'sishiga olib keladi. Ushlangan foyda bilan birga u bankning bankrotlik ehtimolini oshiradi va daromad taqsimlovchi bank aktivlarining o'sishini chegaralaydi. Ushlangan foydaning kamligi esa (ya'ni dividendlarning ulushi kichik bo'lganda) aksionerlarga to'lanadigan dividendlarning kamayib ketishiga olib keladi. Bu esa bank aksiyalarining qiymati kamayib ketishiga olib kelishi mumkin. Bank aksiyalarining yuqori bozor qiymatini ta'minlovchi siyosat bankning optimal dividend siyosati hisoblanadi. Agar bank aksiyalarining daromadlilik xatarlilik darajasi teng bo'lgan boshqa investitsiyalardan kelgan daromadga teng bo'lsa, bankka yangi aksionerlar jalb qilinishi va eskilari esa kelajakda ham bank aksiyalarining ushlovchisi bo'lib qolishi mumkin. Bank uchun katta ahamiyatga ega muamlo bo'lgan masala – bu bank tomonidan stabil dividend siyosatini olib borilishidir. Agar bank dividendlari hech bo'lmasa eski darajada saqlansa ham, u investorlarning aksiyalarga ishonchli daromad manbai sifatida qaralishi va aksiyalarni sotib olishga undovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank aksiyalari bo'yicha dividendlarning kamayishi haqida elon qilinishi ularning bozor bahosi tushib ketishiga sabab bo'ladi. Bu nafaqat mavjud aksionerlarning xayatlantirishiga sabab bo'ladi, balki bo'lishi mumkin bo'lgan aksionerlarni o'z fikridan qaytishiga ham olib kelishi mumkin va oxir oqibatda qo'shimcha kapital to'plashga xalaqit berishi mumkin.

Kapital jalb qilishning tashqi manbalari. Tijorat banklari faoliyati davomida kapitalni jalb qilishning tashqi manbalaridan ham foydalanishga zaruriyat tug'iladi. Kapitalning tashqi manbalariga quyidagilar kiradi:

1. Qoldiq aksiyalarni sotish;
2. Imtiyozli aksiyalarni sotish;
3. O'zaro muddatli qarz majburiyatlarini chiqarish;
4. Aktivlarni sotish;
5. Asosiy fondlarning ayrim turlarini ijaraga olish, masalan, bankka tegishli binolarni.

Bank qaysi bir yo'lni tanlashi ko'pgina omillar tasiri ostida shakllanadi, shulardan biri bu aksionerlarning daromadiga ta'sir qilishidir. Undan tashqari bu masalani hal qilishda bankning xatarga beriluvchanligi, bank nazoratiga ta'siri, aktiv va majburiyatlar bozorining ahvoli ham ma'lum miqdorda rol o'ynaydi.

Umuman olganda oddiy aksiyalarning emissiyasi kapitalni jalb qilishning tashqi manbalari ichida oddiy aksiyalarni joylashtirish xarajatlarining kattaligi va aksionerlar daromadlarining qarz majburiyatlari egalariga nisbatan tutgan o'rni bilan bog'liq xatarlari bilan ajralib turadi. Chiqarilgan aksiyalar bank ishlatishi mumkin bo'lgan qarzlar ulushini kamaytiradi va shu bilan birga bank tomonidan kelgusida qo'shimcha mablag' jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Imtiyozli aksiyalarning sotilishi oddiy aksiyalarning sotilishiga o'xshab xarajati ko'p talab qiluvchi manbalardan hisoblanadi. Imtiyozli aksiyalar egalari oddiy aksiya egalariga nisbatan bank foydasiga birlamchi huquqqa ega bo'lganliklari sababli imtiyozli aksiyalar chiqarilgandan so'ng oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar kamayib ketishini kutish mumkin. Imtiyozli aksiyalar ham oddiy aksiyalar kabi bankning kelajakda qarz olish imkoniyatini oshiradi.

Subordinatsiyalashgan qarz qog'ozlarining bank uchun afzalligi shundaki, ular qarz majburiyatlari ulushining va bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foydaning oshishiga olib keladi, qachonki mazkur qarzlardan foydalanish oqibatida keladigan daromad unga to'lanadigan xarajatlardan yuqori bo'lsa. Undan tashqari mazkur qarz majburiyatlaridan kapital to'ldirish, oshirish manbai sifatida qo'llaniladigan davlatlarda qarz bo'yicha foiz to'lovlari soliq to'lanadigan bazani kamaytiradi. Yana bir narsani ko'rsatib o'tish lozimki, bu qarz turi ham boshqa qarzlar kabi bankrotlik xatarini oshiradi.

O'z faoliyatini bir maromda ushlab turishda va kapitalni boshqarishda banklar o'z asosiy vositalarini, masalan, bank joylashgan binoni sotadi va uni yangi bino egasidan ijaraga oladi. Odatda bu operatsiya bankka katta hajmdagi mablag' olib kelishiga va o'z kapitalining sezilarli oshishiga, bankning kapital pozitsiyasi kuchayishiga olib keladi. Bu kabi operatsiyalar inflyatsiya va iqtisodiy o'sish sur'ati bank balansida aks ettirilgan mol-mulkning joriy qiymatining uning boshlang'ich qiymatiga nisbatan o'zgarishidan yuqoriroq bo'lgan davrlarda qo'llanilganda katta samara bergan.

Agar amaldagi qonun va qoidalar bo'yicha bank mulkining eskirish me'yori qanchalik katta bo'lsa, bank uchun mazkur operatsiyani amalga oshirish uchun manfaatdorlik shunchalik katta bo'ladi.

Shunday qilib, tijorat banklari kapitalining mohiyatini to'g'ri ifodalash va uni tashkil qilishda unga ta'sir qiluvchi omillarni to'g'ri aniqlash bank faoliyatining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish uchun tijorat banklarining o'zlari etarli mablag'larga ega bo'lishi uchun, o'zining kapitalining salmog'i-yildan-yilga oshib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bank kapitali salmog'i va uning miqdorini oshirib borishi bank resurslari hamda uning faoliyati barqarorligini ta'minlashga asos bo'ladi.

4.5. Bank kapitalining etarliligi va samaradorligi

«Kapitalning etarliligi» so'zi bank barqarorligiga berilgan umumiy bahoni va bankning riskka bardoshlilik darajasini ifodalaydi. Etarlilik tamoyilining mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin: o'z kapitalining miqdori aktiv miqdoriga (riskni hisobga olgan holda) mutanosib bo'lishi kerak.

Regulyativ kapital chegirmalarni hisobga olgan holda I darajali va II darajali kapital yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$\text{RK} = (\text{I darajali kapital} + \text{II darajali kapital}) - \text{Chegirmalar}$$

Regulyativ kapitalni aniqlashda I darajali va II darajali kapitaldan regulyativ kapital miqdorini aniqlash uchun quyidagilar chegirib tushlanadi:

- I darajali kapitaldan chegirmalar nomoddiy aktivlar, shu jumladan, pudvlni tashkil etadi.

- nomoddiy aktivlar;

- birlashmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar kapitaliga barcha investitsiyalar summasi, shu jumladan, bunday xo'jalik yurituvchi subyektlar kapitalini tashkil qiluvchi qarz majburiyatlari;

- boshqa banklarning kapitaliga qilingan investitsiyalar.

Bunda regulyativ kapitaldan chegirmalar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida» PF-4053-son Farmoniga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 47-son, 461-m.) muvofiq auksion va

tanlov savdolarida banklarga realizatsiya qilingan ishlab chiqaruvchi bankrot korxonalar negizida tashkil qilingan korxonalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi F-4010-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan «Iqtisodiy nochor korxonalarini auktsion va tanlov savdolarida tijorat banklariga realizatsiya qilish tartibi»ga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 49-son, 479-m.) muvofiq xo'jalik sudlarining qarorlariga binoan kreditor banklar balansiga tugatish qiymati bo'yicha qabul qilingan ishlab chiqaruvchi bankrot korxonalar mol-mulki negizida tashkil etilgan korxonalariga tijorat banklarining investitsiyalari kiritilmaydi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi (TAUS) chegirmalar ajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2015-yil 1-sentyabridan boshlab tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy miqdori (TAUS) quyidagi tarzda hisoblanadi:

TAUS = Chegirmalar chiqarilgan tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar summasi + Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT) + Bozor tavakkalchiliklari summasi (BT), bunda:

OT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Bankning oxirgi uch-yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 15 foiz);

Yalpi daromad = (foizli daromadlar — foizli xarajatlar) + boshqa daromadlar.

Agar yalpi daromad qaysidir-yilda nolga teng yoki salbiy ko'rinishda bo'lganda, o'rtacha ko'rsatkichni hisoblashda u maxrajdan va suratdan chiqarib tashlanishi lozim.

BT = (100 / belgilangan K1 ning eng kichik darajasi) X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 10 foiz).

Ochiq valyuta pozitsiyalarining umumiy summasini hisoblashda xorijiy valyutalarning umumiy uzun yoki umumiy qisqa ko'rsatkichlari yig'indisining mutloq ko'rsatkichining eng kattasi olinadi.

Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 10 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Regulyativ kapitalning etarlilik (monandlik) koeffitsienti K1 quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K1 = RK / TAUS$$

2016-yil 1-yanvardan boshlab K1 ning eng kichik darajasi 0,115 (11,5 foiz) miqdorida belgilanadi.

2019-yil 1-yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart.

Shuningdek, 2017-yilning yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,125 (12,5 foiz); 2018-yilning 1-yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,135 (13,5 foiz) tashkil etadi.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo'shimcha zaxiradan iborat. Hunday zaxiradan maqsad banklar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik davrlarida zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasining ta'minlanishini kafolatlash hisoblanadi.

I darajali kapitalning monandlik koeffitsiyenti:

$$K2 = \text{I darajali kapital} / \text{TAUS}$$

shartida aniqlanadi.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi barcha aktivlarning 3,0 foizi sifatli I darajali kapital bo'lishini hisobga olgan holda va Bazel 3 me'yorlariga muvofiq K2 koeffitsiyenti 2015-yilning 1 sentyabridan 0,075 (7,5 foiz); 2016-yilning 1 yanvaridan 0,085 (8,5 foiz); 2017-yilning 1 yanvaridan 0,095 (9,5 foiz); 2018-yilning 1-yanvaridan 0,105 (10,5 foiz) va 2019-yilning 1-yanvaridan 0,110 (11 foiz) miqdoridan kam bo'lmashligi lozim.

Banklar 2015–2018-yillarda soliqlar to'langandan so'ng qoladigan sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan miqdorda kapitalni oshirish bo'yicha barcha choralarini ko'rishlari lozim.

Kapitalning monandligiga qo'yilgan minimal talablar (%)¹

11-jadval

Talab kuchiga kirish sanasi	Regulyativ kapitalga, (K1)	I darajali kapitalga, (K2)	I darajali asosiy kapitalning regulativ kapitaldagi ulushi
01.09.2015	10	7,5	6
01.01.2016	11,5	8,5	7
01.01.2017	12,5	9,5	7,5

¹ Oliylik banklari kapitalning monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom. Ro'yxat raqami 2013/2014-yil 6-iyul.

01.01.2018	13,5	10,5	8,5
01.01.2019	14,5	11	9,5

Kapitalning monandlik darajasi talablari bilan bir qatorda banklar leveraj koeffitsiyentiga (K3) rioya etishlari kerak:

$$K3 = \frac{\text{I darajali kapital}}{(\text{Umumiy aktivlar} + \text{balansdan tashqari vositalar} + \text{hosilaviy (derevativ) vositalar} - \text{Nomoddiy aktivlar})}$$

Leveraj koeffitsiyentining eng kichik darajasi 0,06 (6 foiz)ga teng.

Leveraj – bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, u I darajali kapitalning nomoddiy aktivlar qiymati, jumladan, gudvillni chiqarib tashlagan holda umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Leveraj koeffitsiyentini hisoblashda kelgusida balans aktivlarida aks etishi ehtimoli bo'lgan bank balansining «Ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvaraqlaridagi aktivlar ham hisobga olinadi. Bularga kapitalni monandligini hisoblashda qo'llaniladigan aktivlar kiradi.

Bankning biznes-rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash chog'ida soliqlar to'langandan keyingi foyda va kapitalni oshirishga ajratmalarning tegishli miqdori prognoz qilinadi.

Bank kengashi har-yili bankning kredit va investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va tasdiqlash chog'ida foydadan kapitalni oshirishga yo'naltiriladigan ajratmalar miqdorini e'tiborga oladi.

«Kuk koeffitsiyenti» – bank kapitalining balansdagi va balans orti aktivlari o'rtasidagi minimal nisbatni belgilaydi. Uni hisoblashda mamlakatlar bo'yicha farqlanuvchi tavakkalchilik darajasi va normalari inobatga olinishi kerak. Bu koeffitsient 8% darajasida o'rnatilgan bo'lib, uning eng kamida yarmi bankning o'z kapitaliga to'g'ri kelishi kerak.

Bank tizimining likvidiligi va to'lov qobiliyatini yanada mustahkamlash maqsadida xalqaro bank «Bazel» qo'mitasi tomonidan bank kapitalining etarliligiga nisbatan yangi talablar qo'yilgan. U «Bazel-III» deb nomlanadi.

Kapitalning samaradorligi darajasi odatda quyidagicha aniqlanadi:

$$S_k = SF/K$$

Bu yerda

S_k – kapitalning samaradorligi;

SF – sof foyda;

K – umumiy kapital.

Shu tarzda I va II darajali kapitalning samaradorlik darajasini alohida-alohida tarzda ham aniqlash mumkin.

«Bazel-III»ning paydo bo'lishi asosiy sabablari quyidagilar:

1. Bank sektori barqarorligini kuchaytirish.

2. Likvidlilik riskini o'lchash, standartlar va monitoring bo'yicha xalqaro yondashuvlar.

Bazel-III tavsiyalarini qo'llashdan ko'zlangan maqsadlar:

-bank sektorining moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan taqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini oshirish;

-risk-menjment va boshqaruv sifatini oshirish;

-banklar faoliyati, kapital bazasi shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.

Bazel-III negizidagi asosiy yangi talablar:

-kapital etarliligiga nisbatan yangi talablar (oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish, qo'shimcha maxsus zaxira kapitalini shakllantirish);

-2 ta likvidlilik koeffitsiyentiga (liquidity coverage ratio, net stable funding ratio) nisbatan me'yoriy talablarni joriy etish;

-levcraj koeffitsiyentini joriy qilish (bunda koeffitsiyentning o'rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me'yoriy darajasi 3 foiz etib belgilanadi).

Bank kapitali etarliligiga nisbatan yangi talablar:

-I darajali kapitalga minimal talab 2019-yil 1-yanvarga kelib esa 6 % ga etadi;

-bazaviy I darajali kapital (oddiy aksiyalar+taqsimlanmagan foyda)ga nisbatan 2015-yildan buyon esa 4,5 % darajasida belgilandi;

-fuvqulotda holatlar uchun maxsus zaxira kapitali (Capital Conservation Buffer) shakllantirilib, uning me'yoriy darajasi 2019-yilga kelib 2,5 % etib belgilanadi;

Bank kapitali etarliligi bo'yicha Bazel-III talablarini joriy etish muddatlari (Tegishli moliyaviy-yilning 1 yanvar holatiga)

12-jadval

Indikatorlar	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.
Hazaviy I darajali kapital (Oddiy kapital+taqsim-	3,5%	4,0%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%

12-jadvalning davomi

Ianmagan foyda)ga minimal talab (Minimum Common Equity Cpital Ratio=core tier-one capital)							
Maxsus zaxira kapitali (Capital Conservation Buffer)				0,625%	1,25%	1,875%	2,50%
Bazaviy I darajali kapitalga minimal talab +Maxsus zaxira kapitali	3,5%	4,0%	4,5%	5,125%	5,75%	6,375%	7,0%
I darajali kapitalga minimag talab(Minimum Tier I Capital)	4,5%	5,5%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%
Umumiy kapitalga minimal talab (Minimum Total Capital)	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%
Umumiy kapitalga minimal talab+Maxsus zaxira kapitali	8,0%	8,0%	8,0%	8,625%	9,25%	9,875%	10,5%

Shu'ba korxonalariga investitsiyalar bo'yicha Bazel III ga muvofiq banklarga kapitalning 15 foizidan oshmaydigan miqdorda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy muassasalarning oddiy aksiyalariga investitsiyalar qilishga ruxsat beriladi. Investitsiyalarning yuqoridagi 15% dan ortiq qismi 2015-yil 1 yanvardan boshlab kapital tarkibidan 100 foiz chegirib tashlandi.

Bazel III tavsiyalarini joriy etishda kutilayotgan muammolar:

-oddiy aksiyalar salmog'ini oshirish uchun qo'shimcha aksiyalarni muomalaga chiqarish va investorlarni jalb etish, aksiyalar taklifining ortishi hisobiga aksiya bahosining pasayishi;

-taqsimlanmagan foyda salmog'ini oshirish borasida aksiyadorlar o'rtasida manfaatlar kelishmovchiligining yuzaga kelishi;

iqtisodiy retsessiya sharoitida sof foydani oshirish imkoniyatining cheklanishi;

- yangi likvidlik talabini joriy etish hisobiga daromadlilikning pasayishi;

- banklarning kreditlash ko'lamining qisqarishi.

4.6. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari va nodepozit resurslari

Tijorat banklari resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil etadi. Har bir tijorat banki faoliyatida jalb qilingan mablag'lar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tijorat banklarining o'z mablag'lari asosan bankni tashkil qilish va shakllantirish bilan bog'liq vazifani amalga oshirsa, jalb qilingan mablag'lar esa, bankning barqaror daromad olish imkoniyatini ta'minlab turadi. Shuning uchun ham, har bir tijorat bankining jalb qilingan mablag'larini doimiy tahlil qilib borish bankning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Tijorat banklarida puxta o'ylangan depozit va kredit siyosati bo'lishini talab qiladi. Tijorat banklarida depozit va kredit siyosatining to'g'ri tashkil etilganligi, ular orasidagi bog'liqlik va nisbatning optimal tanlanganligi banklarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari resurslarining tarkibida depozitli manbalar muhim rol o'ynaydi. Depozitlar quyidagilardan tashkil topadi:

1. Talab qilib olinadigan depozitlar
2. Jamg'arma depozitlari
3. Muddatli depozitlar

Talab qilingungacha bo'lgan depozitlar bo'yicha hisobvaraqlari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday schetlar guruhi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i bo'yicha foizlar minimal darajada yoki umuman to'lanmasligi mumkin.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqlar bo'yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o'rnatiladi, ammo u bo'yicha daromad hamisha muddatli qo'yilmalarga qaraganda pastroq bo'ladi. Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkasi hajmini o'rnatishdagi muhim omil bo'lib mablag'lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag'ni qo'yish yoki olishi mumkin;
- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to'lanadi va h. k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag'larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qilinguncha hisobvaraqlardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvaraqa egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo'lgan biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli talab qilgungacha hisobvarag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqlardagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lmog'i lozim.

Muddatli depozitlar - bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlarlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liqdir. Qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo'yilmalar rasmiylashtiriladi. Bunday aniq chegaralar pul qo'yuvchilarni o'zlarining mablag'larini ratsional tashkil qilish va qo'yilmalar qo'yishga rag'batlantiradi, shuningdek banklarga o'zlarining likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankning barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;
- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;
- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;
- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi va h.k.

Jamg'arma depozitlari aholi pul jamg'armalarining to'planishi uchun xizmat qiladi. Jamg'arma depozitlarga pul mablag'larini jamg'arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo'yilmalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatli tomonlari saqlashning rag'batlantirilishi va yuqori daromadlilik darajasi, ma'lum davr ichida jamg'arila borishi kabilar hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, aholi mablag'larini jalb qilish hisoblanadi va yirik tijorat banklari bu borada muvaffaqiyatli raqobat qilmoqdalar.

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojolanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni (dastlabki yoki real depozitlar Markaziy bank tomonidan chiqarilgan naqd pullar asosida shakllanganlikni taqazo qiladi) cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazish, shu bilan birga esa, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit multiplikatsiyasi (ya'ni mablag'larning bir bankdan boshqasiga zanjirsimon shaklda o'tkazilishi) va kredit ekspantsiyasi deb nom olgan.

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zahira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo'lib xizmat qiladi. Agar majburiy zaxira yo'q deb taxmin qilinsa nazariy jihatdan depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspantsiyasi cheksizlikka teng va teskarisi, majburiy zaxira 100% bo'lgan taqdirda depozit multiplikatsiyasi 0 ga teng bo'ladi.

Depozit (yoki kredit) multiplikatsiyasining maksimal miqdori yoki chegarasini hisoblash uchun quyidagi matematik formuladan foydalanish mumkin.

$$D = D_0 \frac{1}{R}$$

bu yerda

D – bank tizimida shakllantirilishi mumkin bo‘lgan depozitning maksimal miqdori;

D_0 – dastlabki depozit;

R – depozit birligiga teng keladigan likvidliklik zaxirasi.

Majburiy zaxira darajasiga teskari mutanosib ravishda multiplikatsiya darajasi o‘zgaradi, demak, majburiy zaxira darajasi oshsa, bank tizimining kredit salohiyati imkoniyatlari ham kamayadi.

Depozit multilikatsiyasi va kredit ekspansiyasi g‘oyasi quyidagi iqtisodiy zaruriyatni keltirib chiqaradi: har qanday tijorat banki depozitlarni qabul qila turib, o‘z mijozlari oldidagi majburiyatlarni bajarishlari uchun uning ma‘lum bir qismini likvidliklik zahirasi sifatida saqlashlari lozim. Shu bois tijorat banklarining kredit berish salohiyati miqdori bank tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar, majburiy zaxira va likvidliklik zaxirasi hajmiga bog‘liq. Kredit salohiyati miqdori (Ks) ni qisqacha holda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Ks = D - Mz - Lz$$

bu yerda

D - jalb qilingan mablag‘lar;

Mz - majburiy zaxira miqdori;

Lz - likvidliklikni ta‘minlash bo‘yicha zaxiralar.

Shunday qilib, tijorat banklarining kredit salohiyatiga:

- bankka jalb qilingan mablag‘larning umumiy miqdori;
- Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan majburiy zaxira darajasi;
- joriy likvidliklikni saqlash maqsadida tashkil qilingan zaxira va undan foydalanish tartibi;
- kredit salohiyati manbalarining tarkibi va barqarorligi;
- bank majburiyatlarining tarkibi va umumiy miqdori kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi va 2005-yil apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish to‘g‘risida»gi Farmonlariga asosan tijorat banklari aholining bo‘sh mablag‘larini muddatli depozitlarga jalb qilishni oshirishga qarab banklar daromadi imtiyozli soliqqa tortilish va foiz miqdorlarini oshirish mumkinligi ta‘kidlangan.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish;
- bank aksiyalarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- evro-dollarlar bozoridan qarz olish;
- obligatsiyalar chiqarish va boshqalar.

Shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy davlatlarda tijorat banklarini rivojlantirishda resurslarning nodepozit manbalariga katta e'tibor beriladi. Ular bozorda raqobatchilik asosida vositachilar (brokerlar) orqali resurslarni sotib oladilar. Bu yerda birinchidan mablag'larni sotib olish g'oyasi bankning o'ziga tegishli, ikkinchidan, bu g'oya bankning biror-bir mijoz bilan bog'liq emas. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foylanadilar. Odatda nodepozit mablag'lar yirik miqdorda sotib olinadi.

Mazkur bo'lim bo'yicha xulosa qilib, shuni ta'kidlamoqchimizki, O'zbekistonda tijorat banklarining resurslari salmog'ini oshirishga katta e'tibor berilayotgan hozirgi vaqtda tijorat banklari qo'yilmalariga mablag'larni jalb qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar bank resurslarini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu sohada:

- aholi mablag'larini jalb qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqish;
- mijozlar – pul jamg'aruvchilarga turli-tuman bank xizmatlarini ko'rsatish;
- qo'yilma muddati tugashi bilan mukofot berish bilan investitsion xarakterdagi qo'yilmalarga yuqori foiz stavkasini qo'llash;
- doimiy pul jamg'aruvchilarga «bankka sadoqati» uchun mukofot to'lash;
- mijoz va bank iqtisodiy qiziqishlarini optimallashtiradigan aralash xarakterda amal qiluvchi NAU va SAPS tipidagi hisobvaraqlarni qo'llashni amalga oshirishlari mumkin.

4.7. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish amaliyoti

Tijorat banklari resurslarini tashkil qilishning uchinchi muhim manbai bo'lib, ularning qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish

hisoblanadi. Tijorat banklari, odatda, oddiy aksiyalar, imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlarini muomalaga chiqaradilar.

Hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar ularning majburiyatlari tarkibida aks etmaydi, balki ularning ustav kapitalida hisobga olinadi. Xorijiy mamlakatlarda esa, tijorat banklarining imtiyozli aksiyalarini sotishdan olingan mablag'lar ularning majburiyatlari tarkibida hisobga olinadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida tijorat banklari qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan mablag'lar ular passivlarining hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Masalan, Doyche bankning passivlari hajmida bankning qimmatli qog'ozlarini sotib olishdan olingan pul mablag'lari 2004-yilning 31-dekabr holatiga 20,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilning 31 dekabr holatiga bu ko'rsatkich 19,6 foizni tashkil qildi¹.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish bilan bog'liq operatsiyalarining rivojlanmaganligi bir qator omillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining rivojlanmaganligi;
- qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish amaliyotining respublikamizning qator tijorat banklarida shakllanmaganligi;
- tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarining investorlar uchun investitsion jozibadorligining ta'minlanmaganligi.

Rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi tijorat banklariga qimmatli qog'ozlarni bozor mexanizmlari orqali qulay baholarda tez sotish imkonini beradi. Bunda tijorat banklari tomonidan asosiy e'tibor qimmatli qog'ozlarga to'lanayotgan foizlarning barqarorligini ta'minlashga va investorlarning bank qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari real qiymatining pasayishiga yo'l qo'ymaslikka qaratiladi. Odatda, investorlarning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari real qiymatining pasayishi valyuta kurslarining tebranishi va inflyatsiya ta'sirida yuz beradi. Tijorat banki tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'oz bo'yicha valyutaning almashuv kursi pasaysa, bu holat tijorat bankining ana shu valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayishiga olib

¹ «Deutsche Bank – Annual Report, 2005» ma'lumotlari asosida hisoblandi.

keladi. Buning natijasida tijorat banki qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligi pasayadi. Xo'sh, bunday sharoitda tijorat banki emitent sifatida qanday choralar ko'rishi lozim? Ushbu savollar tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan bog'liq bo'lgan amaliyotini takomillashtirish orqali o'z echimini topadi.

Inflyatsiya darajasining yuqori va nobarqaror bo'lishi investorlarning qimmatli qog'ozlarga, shu jumladan, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarining real qiymatini pasayishiga olib keladi. Chunki inflyatsiya sarflangan mablag' qiymatining ma'lum qismini yutib yuboradi. Ushbu muammo Yaponiya, Evrozona malakatlarida mavjud emas. Chunki Yaponiyada inflyatsiya nollik darajada va buning ustiga deflyatsiya muammosi mavjud.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini ta'minlashda tijorat bankining likvidliligi va to'lovga qobilligini ta'minlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, reyting agentliklari tijorat banklarining kredit va to'lovga qobillik reytingini aniqlashda asosiy e'tiborlarini ularning likvidliligi va to'lovga qobilligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning darajalariga qaratadilar.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday sharoitda odatda tijorat banklari tomonidan subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari chiqariladi. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari uzoq muddatli obligatsiyalar ko'rinishida bo'lib, ularni sotish tijorat bankiga uzoq muddatli resurslarga ega bo'lish imkonini beradi. Shunisi xarakterliki, uzoq muddatli subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini sotishdan olingan mablag'lar tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritiladi. Lekin ularni emissiya qilish hajmi cheklangan bo'lib, Bazel standarti ikkinchi darajali kapitalga nisbatan 75% qilib belgilangan.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini oshirishda ulardan olinadigan daromadlarga nisbatan soliq imtiyozlarini qo'llash muhim rol o'ynaydi. Chunki investorlar soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq imtiyozi qo'llanilayotgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga harakat qiladilar. Masalan, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aksiyalaridan olinadigan daromadlar 2016-yilning 1-yanvariga qadar soliqdan ozod qilingan. Bu esa, investorlarga, tijorat banklari qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish yo'li bilan, soliq yukini keskin kamaytirish imkonini beradi. Chunki olinadigan dividendlar soliqdan to'liq ozod qilinadi.

Tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish man qilinadi:

- davlat ro'yxatisiz qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish;
- emitentga va qimmatli qog'ozlarga oid ma'lumotlarni oshkora qilmasdan turib qimmatli qog'ozlarni chiqarish;
- tegishli litsenziyaga ega bo'lmasdan turib qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida soxta bitimlar asosida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish;
- konfidentsial ma'lumotlarni noqonuniy tarzda ishlatish;
- qimmatli qog'ozlar bozori amal qilish printsiplariga rioya etmaslik.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining qimmatli qog'ozlariga nisbatan iqtisodiy me'yorlar asosida ham cheklovlar belgilaydi.

Lekin shuni ta'kidlash joizki, tijorat banki qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan barcha me'yoriy talablarni bajarsa ham, bank aksiyasini sotish uchun Markaziy bankning roziligini olishi zarur. Markaziy bank esa, bank aksiyasini sotib oluvchi subyekt moliyaviy jihatdan nobarqaror bo'lsa, tijorat bankiga rad javobini berishi ham mumkin. Ushbu tartibning joriy etilishi tijorat banklari aksiyadorlari tarkibiga nohalol va moliyaviy nosog'lom aksiyadorlar kirib qolishining oldini olishga qaratilgan.

Bundan tashqari, noqonuniy, jinoiy yo'l bilan topilgan pul mablag'larining tijorat banklari ustav kapitaliga kirib qolishi ham Markaziy bank uchun noqulay holat hisoblanadi. Shu sabballi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida maxsus funktsional bo'linma ana shu masalaning nazorati va monitoringi bilan shug'ullanadi.

Xulosa qilib aytganda:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning ular passivlarining hajmidagi salmog'i juda past darajada qolmoqda, bu esa, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan emission operatsiyalarining rivojlanmaganligidan dalolat beradi;

ikkinchidan, tijorat banklari qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini oshirishda qilingan investitsiyalar va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini pasayishiga yo'l qo'ymaslik muhim omil sanaladi;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarining me'yoriy bazasi shakllantirilgan.

4.8. Tijorat banki resurslarini boshqarish usullari va konsepsiyalari

Bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi paytda bank sohasini rivojlantirish va iqtisodiy jihatdan yuksaltirish uchun kredit muassasalarini barqarorligiga erishish juda muhimdir. Shuning uchun tijorat banklari tarmog'ini kengaytirish hamda ular o'rtasida depozitlar, banklararo kredit va boshqa resurslarni jalb etish uchun raqobatni yuzaga keltirishga katta e'tibor berilmoqda.


Keng ma'noda bank resurslarini boshqarish, omonatchilar va boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb etish va mazkur bank uchun mablag'lar tegishli kombinatsiyasini belgilash bilan bog'liq faoliyatdir. Tor ma'noda esa, bank resurslarini boshqarish deganda zaruriyatga ko'ra qarz mablag'larini faol ravishda topish yo'li bilan likvidlikka bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar va harakatlar tushuniladi. Passiv operatsiyalarni boshqarishda bank qo'shimcha risk qilishdan tashqari, mablag'larni jalb etish xarajatlari bilan ushbu mablag'larni qarz va qimmatli qog'ozlarga joylashtirishdan olinishi mumkin bo'lgan daromad o'rtasidagi nisbatni e'tiborga olishi kerak. Binobarin, aktivlarni boshqarish va passiv operatsiyalarini boshqarish o'rtasidagi o'zaro aloqa bankning foyda ko'rishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Resurslar negizi bank faoliyati uchun birinchi darajali ahamiyatga ega. Biz bilamizki, tijorat banklari aktiv operatsiyalarni o'zlarida mavjud bo'lgan hamda jalb etilgan pul mablag'lari manbalari doirasidagina amalga oshira oladilar. Binobarin, ayni bankning passiv operatsiyalari uning aktiv operatsiyalarining hajmi va miqyosini belgilaydi. Bank resurslarini shakllantirish va maqbullashtirish jarayoni, tijorat banklarining resurs salohiyatini tashkil etadigan pul mablag'lari barcha manbalarini boshqarish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar barqaror resurslar potentsialini oshirib borish uchun qarz mablag'larini keng jalb etadilar. Bank qarz mablag'lari hisobiga aktivlar jami miqdorining 80 foizdan ko'prog'i shakllanadi. Qarz mablag'larini jamlash imkoniyati ko'p jihatdan qo'yidagi tashqi omillarga:

- iqtisodiy faollik darajasiga;
- mintaqaning rivojlanganlik darajasiga;
- muqobil qo'yilmalar imkoniyatlariga;
- inflyatsiya yuzasidan qilinadigan tahminlarga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, tijorat banklari o'z faoliyatlarini doimo turli iqtisodiy subyektlar orasida bo'lib o'tadigan turli-xil iqtisodiy aloqalarning o'zgaruvchan shart-sharoitlarida olib borishadi. Bunday aloqalarning umumiyliigi tijorat banklarining ish faoliyatini yuzaga keltiradi va bu faoliyat o'z ta'sirini tijorat banklarining ish olib borish xarakteri hamda barqarorligini ko'rsatadi. Tijorat banklarining faoliyat olib borish muhiti ikki xil yo'nalishda ko'rib chiqiladi: makromuhit (bankning tashqi muhitdagi faoliyati), mikromuhit (bankning ichki muhitdagi faoliyati).

Makromuhit tushunchasi, bankning tashqi omillar bilan bo'lib o'tadigan keng aloqalaridan kelib chiqadi. Bunday aloqalar bank uchun tashqi muhitni tashkil qiladi va unga quyidagi shart-sharoitlar: uzluksiz davom etib kelayotgan iqtisodiy sharoit, tabiiy sharoit, ilm-fan-texnik sharoit, demografik sharoit, madaniy sharoit va boshqalar kiradi.



3-rasm. Tijorat bankining makromuhit konsepsiyasi.

Iqtisodiy sharoit, har bir tijorat bankining o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini to'liqligicha ifodalab turishini ta'minlaydi. Mamlakatdagi umumiy, iqtisodiy vaziyat, aholi hamda ish faoliyat olib boruvchi subyektlarning iqtisodiy faollik darajasini aniqlab beradi va aholining iste'mol qilish hamda jamg'arish faolligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, har bir aniq iqtisodiy vaziyat kapitalni iqtisodiyotning turli yo'nalishlariga taqsimlashga va o'z navbatida bunday taqsimlangan kapital bank mijozlari guruhlariga taqsimlanishiga yordam beradi.

Tabiiy sharoit, bevosita yoki bilvosita bank mijozlarining ish faoliyatiga ta'sir qiladi, chunki u tabiiy resurslarning ishlatilishi, ularni qo'riqlanishi va tabiiy ofatlarning yuzaga kelishining oldini ola bilish borasida alohida ahamiyat berilishi lozim bo'lgan muhit hisoblanadi.

Ilm-fan texnik sharoit, bank uchun ilm-fan va texnika tomonidan yaratilgan texnologiyalarni ishlatish va ular orqali o'z mijozlariga zamonaviy, bank xizmatlarini ko'rsatish, ularning xizmatlar sifatini yanada oshirish va yangi xizmat turlarini taklif qilish shart-sharoitlarini yaratib beradi.

Siyosiy sharoitga, avvalam bor, huqumat organlari tomonidan qabul qilingan qonunlar, huquqiy va me'yoriy aktlar kiradi. Hukumat ularga rioya qilinishini doimo nazorat qilib boradi. Markaziy bank esa tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Mamlakatdagi barqaror siyosat, siyosiy holat bank tizimining barqarorligi asosini ta'minlaydi.

Madaniy sharoit, jamiyat a'zolari xulq-avtorini aniqlashga yordam beradi. Jamiyatda rioya qiluvchi madaniy normalar va xulq-atvor, qonun va qoidalar mazkur jamiyat rivojlanishi uchun muhim hal qiluvchi omil sifatida ta'sir qilish mumkin.


Demografik sharoitni o'rganish, bankning bozordagi o'rnini aniqlashda va shu orqali o'ziga kerakli bo'lgan mijozlar to'plamini jalb qilishda muhim o'rin egallaydi. Bankni bunday mijozlarga nisbatan quyidagi ma'lumotlar qiziqtiradi: tug'ilish darajasi, mijozlarning yoshi, migratsiya koeffitsienti aholining bilim olish darajasi va ularning qayerda ishlashi, qancha daromad olishi ya'ni to'lay olish qobiliyati, obro'si va boshqalar qiziqtiradi.

Bankning mikromuhiti uning o'z ichki faoliyatidan kelib chiqadi, shu bilan birga bu yerda: bankning xizmat turlari, hisob-kitob turlari, to'lov usullari mahsulot etkazib beruvchilar, vositachilar, mijozlar va bankning o'z xodimlari ularning kasb mahoratlari inobatga olinadi.

Tijorat banklari turli xil xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashib, o'z oldilariga turli xil masalalar qo'yib, ularni hal qilishga harakat qilishadi va buning natijasida ularning tashkiliy tuzilmasi bir me'yorda saqlanib turmasligi yuzaga kelishi mumkin.

Tijorat banki ichidagi aloqalarning qay darajada muhimligini baholash qiyindir. Bunday aloqalar nafaqat formal, tashkiliy tuzilishiga, balki tijorat bankining ichki tartib qoidalari va undagi noformal bo'lgan aloqalarga bog'liqdir. Bunday sharoitlar bank xodimlari ish aktivligini yaratadi va barcha xodimlarni ishga yondashtiradi.

Bankning mikromuhitida, mijozlar muhim o'rin tutadi. Mijozlarning qay darajada bank uchun foydaliligi va tarkiblashtirilganligi bankka moliyaviy resurslarning jalb qilinishi va ularning sifatli joylashtirilishiga imkon beradi va bankning ish unumini ta'minlaydi.



4-rasm. Tijorat bankining mikromuhit konsepsiyasi.

Bankning mahsulot etkazib beruvchilar bilan bo'lgan o'zaro aloqalari doimiy bo'lmisligi mumkin, chunki tijorat banki kundalik ish faoliyatida ishlatish uchun zarur bo'lgan kompyuter jixozlari, kantselyariya buyumlari, plombalar va boshqa jixozlarni mahsulot etkazib beruvchidan doimiy ravishda sotib olmaydi, lekin shunga qaramasdan turib bank va mahsulot etkazib beruvchilar orasida aloqalar doimiy ravishda mutanosib ushlanib turishi kerak.

Banklar o'z faoliyati davomida ikki turdagi vositachilar bilan ishlar olib borishi mumkin. Bularning birinchisi, maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'lsa; ikkinchisi moliya-kredit muassasalari bilan uzviy bog'liqlikdagi qo'yidagi uch yo'nalishdagi:

1. Qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan operatsiyalar;
2. Bajarilayotgan moliyaviy operatsiyalarni sug'urtalash;
3. Kredit resurslarini sotib olish yoki sotish bilan bog'liq operatsiyalar kiradi.

Ko'p tijorat banklari o'z ish faoliyatlarini raqiblar orasida olib borishadi. Oxirgi-yillarda banklarning rivojlanib ketishi ular orasida raqobatning o'sishiga sabab bo'ldi. Bu esa, nafaqat, bozor va mijozlar faoliyatini o'rganib chiqish, balki raqiblar faoliyatini ham doimiy ravishda o'rganib borishni talab qilmoqda. Hozirgi kunlarda, banklar

vaqtni obro'ga ega bo'lishi va maksimal foyda olish uchun o'z raqiblarini o'tganmishga ko'p vaqt va mablag' sarflashmoqda.

Birinchiidan – tijorat banki likvidlik muammosini qo'shimcha pul mablag'larini kapital bozoridan sotib olish yo'li bilan hal eta borishi mumkin. Real tarzda ushbu fikr-mulohaza g'arb mamlakatlarida amalda ro'yobga chiqqan.

Ikkinchiidan – tijorat banki o'z likvidligini Markaziy bankdagi keng miqiyosda qarzga beriladigan pul mablag'laridan yoki vakil banklaridan qarzga olinadigan, shuningdek evrovalyutalar bozoridan olinadigan qarzlardan foydalanib likvidlikni ta'minlashi mumkin.

Keyingi-yillarda banklar o'z likvidliklarini ta'minlash uchun keng miqiyosda qarz olishdan foydalanmoqdalar. Qarz mablag'laridan foydalanish ko'lamini kengaytirish keyingi-yillarda bank kreditlariga talab oshganligi va talab qilingungacha omonatlar nisbatan sekin ko'payayotganligi bilan belgilanadi. Iqtisodiy faollik kuchayishi va inflyatsiya sur'ati oshishi xo'jalik firmalarining kreditlarga bo'lgan ehtiyojlari oshishini anglatadi. Bundan tashqari firmalar ham, xususiy shaxslar ham foiz stavkalariga nisbatan sezgirroq bo'lib qolganlar. Shu munosabat bilan, ta'kidlab o'tganimizdek, talab qilingungacha depozitlar ko'payishi sekinlashdi. Xarajatlar ko'payishi banklarni o'z resurslaridan to'liqroq va unimlir oq foydalanishga undadi. Banklarning mablag'larga ehtiyoji vaqti-vaqti bilan oshadi. Banklar ushbu vaqtinchalik ehtiyojni xalqaro amaliyotda banklararo kreditlar, zaxira fondlari, REPO bitimlari yoki evrodollarlar bozoridan qarz olish yordamida qondiradilar.

Bank resurslarini boshqarishning asosiy kontseptsiyalarining juda keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, banklararo kreditlar nazariyasi hisoblanadi.

Banklararo kreditlar nazariyasi Markaziy bank yoki vakil bankdan qarz olish zahiralarning (binobarin, likvidlikning ham) holatini tuzatish uchun mablag'larni safarbar etishning «hisob oynasi» (discount window) deb ham nomlanadigan bir usulidir. Zahiralarni baravarlashtirib borishning ushbu usuli keng tarqalmagan bo'lsada, bunday qarzlar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Mablag' joylashtirishdan naf ko'rishdan tashqari, kreditor banklar bank faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha ham amaliy sherikchilik munosabatlari o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Moliyaviy barqaror katta banklardan tashqari, tashkil qilinish, rivojlanish bosqichida turgan banklar bo'sh kredit resurslariga ega bo'ladi.

Kredit resurslarining o'rnini qoplash muddatlari turlichadir. Xalqaro amaliyotda 1, 3 va 6 oy muddatidagi depozitlar, bir kundan toki bir necha-yilgacha eng yuqori muddatli ko'proq tarqalgan. Banklararo kredit bo'yicha stavka odatda, xo'jalik yurituvchilarga berilgan kreditlar bo'yicha belgilanadigan foiz stavkalaridan pastroq bo'ladi va Markaziy bankning rasmiy hisobga olish stavkasiga muvofiq ravishda tuzatiladi. Qarz oluvchi bank boshqa banklardan kredit resurslari jalb etishiga uning o'z mijozlarining qarz mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi, ya'ni o'z kredit qo'yilmalarini kengaytirishi hamda bank likvidligini tartibga solib borish zaruriyati sabab bo'ladi. Banklararo kredit jalb etish ikkita usulda: mustaqil ravishda, to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar yo'li bilan yoki moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Banklarning o'zlari banklararo kredit to'g'risida kelishgan taqdirda ularning munosabatlari maxsus shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Banklararo shartnomalarning aksariyati muddatli shaklda, qolganlari esa muddatsiz shaklda tuziladi. Iqtisodiy barqarorlik bo'lmagan sharoitda kredit bozorida qanday vaziyat yuzaga kelishini va bankning moliyaviy ahvoli qanday bo'lishini oldindan bilish qiyin. Chunki, kredit resurslari etishmasligi yoki ortiqcha bo'lib qolishi mumkin.

Banklararo shartnomaning muddatsiz shakli banklararo kreditni shartnomada belgilangan eng qisqa muddatga berishni ko'zda tutadi. Bu muddat tugaganidan keyin kredit muddatsiz kreditlar toifasiga o'tadi, ya'ni kreditor – bank tomonidan olindan ma'lum qilingan holda istalgan paytda talab qilib olinishi mumkin. Kredit resurslarini qarzga olgan bank ularni qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u boshqa banklarning muddatli qarzlardan foydalanadi.

Bo'sh resurslar jalb etish (joylashtirish) to'g'ridan-to'g'ri (sotuvchi-haridor) emas, balki vositachi ishtirokida kechadi. Banklarning o'zlari, brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari, kredit do'konlari shu yo'sinda qatnashishlari mumkin.

Banklar resurslarini boshqarishning asosiy konsepsiyalaridan yana biri evrodollar bozorida qarz olish nazariyasi hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Birinchi darajali kapital, banklararo kredit, depozit, joriy hisobraqam, ikkinchi darajali kapital, kapitalning etarlicligi, passiv, resurs, regulyativ kapital, qimmatli qog'oz.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklari resurslarini shakllantirishning qanday modellari va usullari mavjud?
3. Tijorat banklari resurslarining depozitli manbalariga nimalar kiradi?
4. Banklar resurslarining depozitsiz manbalariga nimalar kiradi?
5. Tijorat banklari depozitlarining etarliligi qanday aniqlanadi?
6. Tijorat banklari kapitalining etarliligi qanday aniqlanadi?
7. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari qay tartibda muomalaga chiqariladi?
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari kapitalining etarliligini oshirishga nisbatan qo'yilgan qanday yangi talablarni bilasiz?

V BOB. TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH

5.1. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va uning tarkibi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, bank tizimini davlat tasarrufidan chiqarish, bank sektorida aksionerlik, paychilik hamda xususiy shakldagi banklarning rivojlanishini ta'minlash va tijorat asosida faoliyatni yuqori daromad olishga yo'naltirish banklar oldida turgan asosiy maqsadlardan biridir.

Bunday sharoitda bank faoliyatini va aktivlar sifatini tahlil qilish mikro va makro darajada katta ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bu – bank tomonidan foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali yo'naltirishdir. Aktiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida banklar kredit beradi, har xil investitsiyalarda yoki qushma korxonalar tashkil qilishda ishtirok etadi. Bunda belgilangan likvidlik me'yoriga amal qiladi va ayrim tur investitsiyalar bo'yicha risklarni maqsadga muvofiq taqsimlanishini ta'minlaydi.

Bankning aktiv operatsiyalarini 4 ta guruhga bo'lish mumkin:

- Kredit operatsiyalari. Buning natijasida bankning kredit portfeli shakllanadi.

- Investitsiya operatsiyalari. Buning natijasida bankning investitsiya portfeli shakllanadi.

- Kassa va hisob-kitob operatsiyalari. Bu orqali bank o'z mijozlariga asosiy xizmat turlarini ko'rsatadi.

- Boshqa aktiv operatsiyalari. Mazkur operatsiyalar bank faoliyatini samarali amalga oshirishga tegishli infratuzilma yaratish bilan bog'liq operatsiyalardir

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi Qonunning 4-moddasida banklar tomonidan bajariladigan quyidagi operatsiya turlari alohida ajratib ko'rsatilgan. Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradilar:

1. Jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;

2. Omonatlarni jalb etish;

3. Kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

4. Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunki:

5. Mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;

6. Chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida qoida-hududda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;

7. Pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini otkazmoq qilish;

8. Uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;

9. Uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish bo'yicha o'zaro olish;

10. Qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

11. Bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

12. Jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;

13. Moliyaviy lizing;

14. Xalqaro bank amaliyotiga muvofiq litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyati bilan bog'lanishga haqli emaslar.

Bankning aktiv operatsiyalari tahlili daromadlilik, risklilik va likvidlilik nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak. Bank taraqqiyoti omadlaridan ma'lumki, bank aktivlari daromadlilik va likvidlilik bir-biriga qarshidir. Bank likvidlilik va uning daromadlilik o'rtasidagi aloqadorlik tahlili likvidlilik ahamiyatining ustunligi to'g'ri-unda kulona chiqarishga imkon beradi. Bu mezonning ustunligini hisobga olib natijasi ko'rsatilgan qarasha-qarshilikni muvofiqlashtirishga va bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishga erishishga olib keladi.

Bankning faoliyatida aktivlarning tutgan rolini yana ham mukammalroq o'rganish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash muhimdir:

- tashkilotlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va banklarga berilgan kreditlar bo'yicha umumiy kredit summasini hisoblash;
- berilgan kreditlarni ularning muddatlari, tarmoqlarga berilishi va ularning umumiy karzdagi salmog'ini aniqlash;
- ssudalarning o'rtacha foiz stavkalarini hisoblash va kredit bahosining o'rtacha darajasini aniqlash;
- umumiy ssudalarning ichida muddati o'tgan qarzlarning salmog'ini hisoblash.
- bank tomonidan berilgan yirik kreditlarning hajmini aniqlash;
- berilgan turli darajadagi kreditlarning Markaziy bank yo'riqnomalariga javob berishini hisoblash.

Tijorat banklari o'z faoliyatlarini olib borishda aktivlar, ularning tarkibi va optimal joylashtirilishi katta ahamiyatga ega. Bank aktivlari tarkibi deyilganda balans yakuniga ko'ra har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushuniladi. Bankning aktiv va majburiyatlarini risk, daromadlilik va likvidlikka ta'siri nuqtai nazaridan taqqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tijorat banki balansining aktiv yoki passivlari tuzilmasiga baho berishdan oldin yuqoridagi ko'rsatkichlardan kelib chiqib balansning har bir moddasiga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5.2. Bank aktivlarining sifat darajasi va maxsus zaxiralarni shakllantirish tartibi

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari ustuvordir. Shunday ekan, bankning moliyaviy hamyoni ham, ko'p hollarda, ushbu amaliyot natijasiga bog'liq bo'lib qoladi. Kreditning qay tartibda berilishi va uning o'z vaqtida qaytishini ta'minlash uchun tijorat bankining olib boradigan o'nlab operatsiyalarini mavzudan chetda qoldirib, kredit mablag'larining o'z vaqtida qaytmassligining makroiqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash masalasida to'xtalish lozimdir.

Tijorat banklari o'z mijozlari faoliyati to'g'risida doimiy axborotga ega bo'lishi, ularning kredit qobiliyatini, to'lov intizomi ahvolini tahlil qilishi va muammoli kreditlardan kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi zahiralar vujudga keltirishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2015-yil 13-iyunda tasdiqlangan «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni

qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi 2696-sonli Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu nizomda berilgan kreditlarning tasniflanishi va kredit risklarini baholashning yangi tartibi, mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi zahiralar hisoblanishi, ushbu zahiralar ishlatilish tartibi ko'rsatilgan.

Mazkur tartibning mohiyati shundan iboratki, tijorat banklarining muammoli kreditlarini qoplash maqsadida majburiy tarzda zahiralar mavjudga keltirilishi va ular operatsion xarajatlarga kiritilishini ko'zda tutadi. Bu esa, banklar barqarorligini oshirishda ko'maklashadi hamda banklar kredit portfelini real baholash imkonini beradi.

Bankda zahiralarni to'g'ri va aniq tashkil qilinganligi bank tomonidan kreditlarning tasniflanishi aniq amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

Zahiralarni to'g'ri tashkil qilinishi ma'lum bir risk mezonlarini belgilaydi. Ushbu mezonlardan kreditning to'rt guruhdan qaysi biriga topshililigi aniqlasa bo'ladi va albatta, buning oqibatida muayyan yo'qotishlarga qarshi zahiralar tashkil qilinishi amalga oshiriladi.

Kredit operatsiyalari nazariyasida uning o'z vaqtida qaytish muddati muvofiq bo'lib, ta'minlanganlik darajasi bilan o'lchanadi. Ya'ni, ssuda ta'minoti nazoratini amalga oshirganda, avvalambor, garov miqdori qo'yilgan talablarni qay darajada bajarilganligini ko'rib chiqish kerak. Buni quyidagicha hisoblash mumkin: kreditning asosiy qarzi miqdori va uning foizlari qo'shilgan holda, garovning sotilishida mumkin bo'lgan xarajatlarni miqdori qo'shilgan holda topiladi, lekin bu miqdor, kredit miqdoriga nisbatan 125 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik ahvoli yomonlashganda va shartnomada ko'rsatilgan shartlarga rioya qilinmagan hollarda «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, bank bundan buyon kredit berishni to'xtatishga hamda oldin berilgan kreditlarni ta'minot sifatida qabul qilingan va kredit shartnomasida ko'zda tutilgan majburiyatlar orqali qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan muddatidan oldin undirib olishga haqlidir.

Agar garov to'g'risidagi shartnomada ko'zda tutilgan bo'lsa, bank garovga qo'yilgan mulkni mustaqil ravishda sotishi mumkin. Garov predmeti kimoshdi savdosida yoki vositachi korxonalar orqali sotiladi. Agar qarz oluvchi to'lov muddati keladigan kundan 90 kun ichida kredit shartnomasiga muvofiq qarzni to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajarmasa, bank «Bankrotlik to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish uchun Xo'jalik sudiga murojaat qilishi kerak.

Tijorat banklari amaldagi nizomga muvofiq kredit portfeli sifatini muntazam ravishda tahlil qilib borish, har bir kreditga bog'lik, risk darajasini sinflarga bo'lgan holda aniqlashi zarur.

Bank balansidagi qarzdorlik sifati qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, uning kredit qobiliyati darajasi, kredit qaytarilishi istiqbollari, tegishli va to'g'ri rasmiylashtirilgan real ta'minotning mavjudligiga, shuningdek, o'tib ketgan muddatiga qarab 5 sinfga bo'linadi.

Tijorat banklari qarzlarni bo'yicha ehtimol bo'lgan yo'qotishlar uchun zahira tashkil qilishi kerak. Bu zahiralarga mablag'lar amaldagi tartibda kiritiladi. Qarzlarni bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahira xo'jalik organlariga berilgan kreditlar tahlili hamda bank risk darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash asosida tashkil qilinishi kerak. Zahiralarni belgilash asosida zahira hajmi amaldagi qarzdorlik yoki xatar guruhiga bog'liq bo'ladi. Berilgan qarz kiritilgan xatar guruhi yomonlashgan taqdirda qarzlarni bo'yicha ehtimol tutilgan yo'qotishlar uchun zahiraga ajratmalar har oyda o'tkazib borilishi lozimdir.

Respublikamiz bank amaliyotida kredit portfelini tasniflash mezonlari va ajratiladigan zahira miqdorlari¹

13-jadval

	Kreditlarning turlari	Tasniflash mezonlari	Zahira ajratmasi miqdori (asosiy qarz qoldiq summasidan foizda)
1	Standart	Muddatida qaytariladigan kreditlar, etarli pul oqimiga ega, yaxshi ta'minlangan	1 %
2	Substandart	Moliyalashtiriladigan loyihaning amalga oshirishga va qarzdorning to'lov qobiliyatiga shubha paydo bo'lsa	10 %
3	Qoniqarsiz	To'lov manbaalari etarli bo'lmasa, kapitalining etarlilik darajasi past, muddati o'tgan qarzlarni 90 kungacha bo'lsa.	25 %

¹ «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi 2696-sonli Nizom.

Shubhali	Asosiy qarz va foizlar bo'yicha 90 kundan ortiq, lekin 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, qarzdor bankrot deb e'lon qilinsa.	50 %
Umidsiz	Asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan osh muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb topilsa.	100 %

Kreditlarning riskka tortilish darajasi bo'yicha tasniflanishida har bir muammoli kredit bo'yicha zahira hosil qilinishi talab qilinadi.

Har bir bank kredit portfelini tasniflagan paytda zahira tashkil qilishi talab etiladi. Hozirgi kunda ba'zi bir tijorat banklari ushbu zahiralarni portfeldagi ulushi kam bo'lganligi uchun tashkil qilishmaydi, oqibatda portfeldagi muammoli kreditlarning ulushi kundan-kunga oshib boraveradi.

O'z vaqtida qaytarilmagan kreditlarni qaytarish choralari izlanilmasa va tezlik bilan chora-tadbirlar ko'rilmasa, bankning ustav kapitaliga, depozitga olingan mablag'larga, omonatchilarga va boshqa mizojlarga katta zarar etkaziladi va bank o'z majburiyatlarini bajara olmasdan bankrotlik darajasigacha borib qolishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun bank xodimlari tomonidan kreditlarni o'z vaqtida nazoratini olib borish zarur. Bankning kredit bo'limiga tegishli monitoringni uzluksiz ravishda olib borish kerakdir. Kredit portfelidagi har bir kredit bo'yicha o'z vaqtida nazorat va nazorat natijasida muammoli kreditlarni qaytarish yoki konsultativ ko'rinishdagi ishlar olib borilsa, kredit portfelining risklilik darajasi kamayadi. Kreditlar muammoli kreditlarga aylanmasdan ularni ta'minoti garovga olingan mulkni sotuvga ko'yish yoki kreditni kafolatlagan shaxslardan o'z majburiyatlarini bajarishini talab etish kerak.

Har bir tijorat banki o'z kreditlarining qaytmasligini oldini olish uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda zahira ajratmalarini ajratib borishlari kerak. Bu zahiralalar tijorat banklarining balansida umidsiz bo'lib qolgan kreditlarni yopish uchun ishlatiladi. Bu zahira ajratmalarining va kredit portfelining o'z vaqtida monitoringini olib borish bankning likvidligini saqlab turadi. Tijorat banklari faoliyatini tekshirish jarayonida ular tomonidan zahira tashkil qilinganligi

tasdiqlansa va zahira tashkil qilingan kredit miqdori muddati o'tgan qarz miqdorlariga mos kelsa, shunda kreditlar yuzasidan bankning olib boradigan monitoringi qoniqarli deb baholanib, o'z vaqtida qaytmay qolgan kreditlar Bank Kengashi tomonidan balans hisobidan chiqariladi.

Ushbu mavzudagi xulosalarimizni yanada amaliyotga yaqinligini ko'rsatish uchun tahliliy taqqoslash uslubidan foydalanib, obyekt sifatida AQSh amaliyotidan misol keltirsak.

Avval ta'kidlaganimizdek, zahiralari aktivlarni tasniflash asosida olib boriladi. Ya'ni, birinchi galda aktivlar tarkibiga e'tibor berish kerak. Masalan, AQShda 1938-yilda nazorat organlari tomonidan aktivlarni tasniflash borasida tartib qabul qilindi hamda mazkur tartib bugungi kunga qadar amal qilmoqda.

AQSh bank tizimida aktivlarni tasniflash tartibiga ko'ra, aktivlar 4 ta sinfga ajratiladi. Jumladan:

1. Standart aktivlar. Ular bo'yicha umumiy zaxira kamida 2 foiz ajratiladi.

2. Substandart aktivlar. Bunday aktivlar tarkibiga qaytishi kafolatlanmagan, ya'ni nuammoga ega bo'lgan aktivlar kiradi. Ular uchun 20 foiz ajratma qilinadi.

3. Shubhali aktivlar. Bular ayrim zarar keltiruvchi aktivlar bo'lib, lekin ularning aniq hajmini hali aniqlash imkoni bo'lmaydi. Ular uchun 50 foiz ajratma qilinadi.

4. Umidsiz aktivlar. Bunday aktivlarga qaytarilmasligi aniq bo'lgan va hayotiy qobiliyatga ega bo'lmagan aktivlar kiradi. Ular uchun 100 foiz ajratma qilinadi.

Biz quyidagi jadval ma'lumotlari orqali AQSh banklarining inspektorlari tomonidan aktivlar sifatini baholashda «SAMEL» tizimini qo'llash amaliyotini ko'rib chiqamiz.

AQSh tijorat banklarini nazorat qilishda qo'llanilayotgan «SAMEL» tizimining tasniflash mezonlari¹

14-jadval

Tasniflangan aktivlar qiymati bilan kapital o'rtasidagi nisbat (foiz hisobida)	«SAMEL» reytingi
5% dan kam	Kuchli
5% dan 15% gacha	Qoniqarli

¹ Ёгуртжан С. Ключевые принципы эффективного банковского надзора. Пер. с англ. - Вена, 1999. 13-6.

15% dan 30% gacha	O'rta miyona
30% dan 50% gacha	Tanqidiy
50% dan yuqori	Qoniqarsiz

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aktivlarning sifati bilan kapitali nisbatida uzviy bog'liqlik mavjud, ya'ni aktivlar sifati qanchalik darajada past bo'lsa, bankka shunchalik darajada ko'proq zarar keltiradi. Bu o'z navbatida, kapitalni kamayishiga olib keladi, chunki bu zararlar bank kapitali hisobidan qoplanadi. Shuningdek, katta miqdorda kapitalga ega bo'lgan banklar kichik miqdordagi kapitalga ega bo'lgan banklarga nisbatan zararni qoplash qobiliyatiga ko'proq ega bo'ladilar.

Shuni qayd etish lozimki, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda yaxshi va standart toifalar bitta bo'lib, unga mansub kreditlar uchun eng kamida 2 foiz miqdorda ajratma qilish amaliyoti mavjud. Lekin, ushbu ajratmaning bizning banklarimiz uchun joriy qilinmasligining asosiy sababi shundaki, O'zsanoatqurilishbank, TIF Milliy bank va boshqa respublikamizdagi yirik banklarda mazkur guruhga mansub kreditlar salmog'i juda katta miqdorni tashkil etadi. Ushbu kreditlar tarkibining aksariyati hukumatimiz kafolati asosida berilgan kreditlar xisoblanadi. Agar biz mazkur toifadagi kreditlar uchun eng kamida 2 foiz zahira qilishni joriy etadigan bo'lsak, bu ajratma miqdori juda katta miqdorni tashkil qilishi aniqdir. Harakatdagi tartiblarga mazkur ajratma asosan bevosita bankning xarajatlariga olib boriladi. Bu esa, tijorat banklari moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Tijorat banklari depozit bazasining keyingi-yillarda sezilarli o'sishi va markazlashgan davlat kafolati bilan berilayotgan kreditlarning kamayishi bank aktivlarini xalqaro andozalarga moslab o'zgartirish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, respublikamiz banklarining aktivlarini 5 ta sinfdan 4 ta sinf bo'yicha tasniflash amaliyotiga o'tkazish mumkin deb hisoblaymiz.

Jahonning ko'p mamlakatlarida ishlamayotgan aktivlar muammosini echish uchun hamda bank sohasidagi inqirozni bartaraf etish uchun davlat banklardan muammoli aktivlarni sotib olgan. Ko'p mamlakatlarning hukumatlari tomonidan banklarning «yomon» aktivlari bilan maqsadli ishlash uchun maxsus korporatsiyalar tuzilgan. Bunday tashkilotlar bank tizimining tuzilishi hamda iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha mutlaqo turlicha bo'lgan mamlakatlarda tashkil etilgan.

Xalqaro amaliyotda muammoli aktivlarni boshqarishda asosan ikkita yondashuv qo'llaniladi: markazlashgan hamda markazlashmagan. Birinchi yondashuv davlat tomonidan butun bank tizimining muammoli aktivlarini sotib olish va boshqarish bo'yicha maxsus korporatsiya tuzilishini ko'zda tutadi. Bunday tuzilmalarning asosiy maqsadi bo'lib tijorat banklarining muammoli kreditlarini ajratib, chiqarib olish hisoblanadi. Sotib olingan kreditlar korporatsiyaning qarz majburiyatlari yoki aksiyalariga, yohud bevosita hukumatning qarz majburiyatlariga almashtiriladi. Mazkur yondashuvning afzalligi bo'lib muammoli kreditlarni tez ajratib olish imkoniyatining mavjudligi, kamchiligi bo'lib esa alohida tuzilmani shakllantirish uchun qo'shimcha xarajatlarning mavjudligi hamda restrukturizatsiya jarayonining uzoq davom etishi hisoblanadi. Muammoli qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish bo'yicha xorijiy tajribaning tahlili kredit portfelida muammoli kreditlari mavjud banklar sonining ko'pligida va sotib olinayotgan aktivlar o'xshashligining ma'lum darajasida restrukturizatsiyaning bunday usuli ko'proq ma'qul bo'lishini ko'rsatmoqda.

Markazlashmagan usulning mohiyati bankning tarkibida yoki uning doirasidan tashqarida ishlamayotgan aktivlarni boshqarish bo'yicha tegishli tuzilmani tashkil etishdan iboratdir. Bunday yondashuv Shvetsiya va Polshada qo'llanilgan. Qiyinchilikni boshdan kechirayotgan banklarning soni ko'p bo'lmaganda, markazlashmagan usuldan foydalanish ko'proq samara beradi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, banklar muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lishi mumkin. Bu modelning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham mavjud, ya'ni banklar tashqi aralashuvsiz o'z faoliyatini o'zgartirishga qodir bo'lmasligiga, shuningdek, muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan mijozlarni kreditlashni davom etishi mumkin. Yaponiya va Shvetsiyada muammoli kreditlar bilan ishlashda ikkala usuldan ham foydalanilgan.

Banklardan muammoli kreditlarni sotib olish jarayonini Markaziy bank (Chili, Vengriya, Polshada) bilan bir qatorda restrukturizatsiya qilish bo'yicha agentlik (Chexiya, AQSh, Meksika, Janubiy Koreya) ham amalga oshirishi mumkin.

Muammoli kreditlarni sotib olish bahosi kreditlarni balans qiymatining 3% dan 100% gacha bo'lgan qismini tashkil etgan.

Muammoli aktivlarni banklarning boshqaruvida qoldirishning ijobiy tomonlaridan yana biri bo'lib bank-mijoz munosabatlarining uzilmasligi

hisoblanadi. Bunday qaror qarzning so'ndirilishi taqdirida kredit qonunchiliklarini qayta tiklashga imkon beradi.

Korporatsiya tomonidan muammoli aktivlarni sotib olish pul mablag'lari bilan bir qatorda hukumat kafolati ostidagi obligatsiya va aksiyalar hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mo'ljallanishicha, so'ndirish muddatining tugashiga qadar muammoli aktivlarning ko'p qismi qoplanadi, bundan olingan mablag'lar esa qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlarga yo'naltiriladi.

Aktivlarni boshqarish bo'yicha korporatsiyalar, odatda, bank tizimini restrukturizatsiya qilish davriga tuziladi. Ularning amal qilish davri turli mamlakatlarda turlichadir. Chexiyadagi sog'lomlashtirish bo'yicha Agentlik, Shvetsiyadagi banklarni qo'llab-quvvatlash Agentligi – 5 yil atrofida, AQShning Tartibga solish bo'yicha Trust Kompaniyasi – 6 yil atrofida ishlagan.

Shu bilan birga, jahon amaliyotida bunday tuzilmalarni keyingi taqdirining boshqa variantlari ham ma'lumdir. Qator mamlakatlarda ular qaylab qolingan. Masalan, Janubiy Koreya va Tailandda yangi vakolatlariga ega bo'lgan aktivlarni boshqarish bo'yicha agentliklar bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Doimiy ravishda ishlovchi muammoli aktivlar bozorining tashkil etilishi inqirozdan darak beruvchi asosiy instrument bo'lib hisoblanadi.

Muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish jarayonida ushbu muammoni hal qilishda davlatning roliga to'xtalib o'tish joizdir. Moliyaviy sog'lomlashtirishda davlatning ishtiroki o'z o'rnida turlicha usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Davlat korxonalarini kreditlar yoki maxsus davlat majburiyatlari shaklidagi qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlashi mumkin. Tijorat banklarining balanslaridagi korxonalarining ishonchsiz qarzlarni o'zining uzoq muddatli majburiyatlari bilan almashtirishi mumkin.

AQSh bank sektori samaradorligining pastligi ishlamayotgan kreditlarni katta hajmda to'planishiga olib keldi. Bu esa o'z o'rnida mamlakat iqtisodiyotining keyingi o'sishi yo'lidagi to'siq bo'ldi. Davlat banklarining ishlamayotgan kreditlarini kelib chiqishining sabablarini tahlil ularning 30 foizi mazkur banklarning ishiga boshqaruv organlarining aralashuvi natijasida, 10 foizi huquqiy tizim me'yorlari rivojlanish darajasining pastligi yoki qonunchilikni yaxshi bilmaslik oqibatida, 15 foizi ba'zi tarmoqlar, shu jumladan, harbiy tarmoq korxonalarining yopilishi yoki qo'shib ketishi natijasida shakllanganligini ko'rsatdi.

Xitoy hukumati vujudga kelgan vaziyatni yaxshilash maqsadida banklardan ichki nazorat mexanizmini takomillashtirishni talab qilmoqda hamda mamlakatda banklar tomonidan kreditlashtirish hajmlarini cheklash bo'yicha choralarini ko'rmoqda. 2004-yildan buyon majburiy zahira me'yorlari ikki marotaba ko'tarilgan va ortiqcha ishlab chiqarish xavfi mavjud bo'lgan sohalarni, ya'ni po'lat quyish hamda metallurgiya tarmoqlari, avtomobil sanoati, alyuminiy, tsement ishlab chiqarish va hashamatli uy-joy qurilishi tarmoqlarini kreditlashga cheklovlar joriy qilingan.

1998-yilda Yaponiya bank tizimidagi umidsiz kreditlar hajmini YaIMga nisbatan 12% dan ortiqroqni tashkil etdi. Buning natijasida 21 ta yirik banklardan 3 tasi bankrotlikka uchradi. Xususiy ABK (Yaponiya kreditlarni sotib olish bo'yicha kooperativ kompaniyasi) tashkil etildi. Bu usul banklarga soliqlardan ba'zi bir imtiyozlarni berdi, lekin inqirozdan olib chiqa olmadi. 1998-yilning noyabr oyida hukumat yangi mexanizm ishlab chiqdi, unga ko'ra muammoli kredit hukumat nazoratiga o'tkazilgan. Bridj-banklarning ishlamayotgan kreditlari depozitlarni sug'urtalash Korporatsiyasi tomonidan moliyalashtiriladigan alohida tashkilotga o'tkazilishi lozim bo'lgan. Yaponiya bank tizimini tartibga soluvchi organi bo'lmish moliyaviy xizmatlar Boshqarmasi (FSA)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2002-yilning mart oyi oxiriga yapon banklarining umidsiz qarzlari 52 trln. ienni (435 mlrd. dollarni) tashkil etgan. Ta'kilash joizki, umidsiz kreditlarning 56 foizi qurilish kompaniyalari, moliyaviy kompaniyalar hamda ko'chmas mulk savdosi bilan shug'ullanuvchi firmalarga to'g'ri keladi.

Goldman va Morgan Stanley kabi xorijiy investitsion banklari hamda fondlari xatarli kapital bilan ishlash bo'yicha boy tajribaga ega bo'lganligi sababli muammoli kreditlar bozorida afzallikka ega bo'lmoqda. Biroq sharoitning yomonlashishi bilan ularning mamlakatdan chiqib ketishi mumkinligidan xavfsiragan yaponiyalik qarzdorlar xorijiy kompaniyalarga ishonchsizlik bilan qaramoqda.

AQShda kredit-jamg'arma muassasalarining shubhali qarzdorlikni sotib olish va shu bilan bog'liq muammolarni echish maqsadida 1989-yilda tartibga solish bo'yicha Trast Korporatsiyasini (Resolution Trust Corporation, RTC) tashkil etilgan. Besh-yil mobaynida tartibga solish bo'yicha Trast Korporatsiyasi tomonidan nominal qiymati 400 mlrd. dollarni tashkil etuvchi aktivlar sotib yuborilgan. Sotilmay qolgan aktivlar tarkibida esa, 8 mlrd. dollarga teng bo'lgan to'liqligicha umidsiz qarzdorlik qolgan. Sotilgan aktivlarning o'rtacha bahosi ularning dastlabki balans

qiymatining 87 foizini tashkil etdi. RTC qator holatlarda xaridorlarga sotib olingan aktivlarni belgilangan davr mobaynida qayta moliyalash hisobiga qaytarib olish imkoniyatini bergan. Sotishga taklif etilayotgan, mukammal tuzilishga ega bo'lgan aktivlarni yirik paketlarining sifatini baholash uchun juda ko'p vaqt sarf etilayotganligi ma'lum bo'lishi bilan aktivlarni sotishning bunday shakli qo'llanila boshladi. Sotib olish shartlari aktivlarning har xil turlari bo'yicha turlicha bo'lgan, ammo bu shartlar bo'yicha sotib olingan aktivni bir-yil davomida qaytarib olish imkoniyati mavjud bo'lgan. Amaliyotda bunday sxema bo'yicha sotib yuborilgan jami aktivlarning uchdan bir qismi xaridorlar tomonidan qaytarib sotib olingan.

O'z faoliyatining so'nggi bosqichida mazkur trust korporatsiyasi tomonidan ipoteka kreditlari kabi aktivlarning noan'anaviy shakllarini sekyuritizatsiya qilish faoliyati keng qo'llanildi. Bunday holatda ma'lum darajadagi bir turdagi kreditlarni o'z ichiga qamrab olgan «pul (pool)» shakllangan. Bunday «pul» keyinchalik o'zi tomonidan ta'minlangan sertifikatlar chiqarish uchun trust fondiga o'tkazib berilgan. Jami bo'lib 42.2 mlrd. dollarga teng bo'lgan ipoteka kreditlarining sekyuritizatsiyasi amalga oshirilgan.

Ekspertlarning fikricha, sekyuritizatsiya mexanizmidan foydalanish Trust Korporatsiyasiga vaqtning chegaralanganligi sharoitida har bir ipoteka kreditini yakka tartibda sotgandan ko'ra ularning anchagina hajmini yuqoriroq baholarda sotish imkoniyatini berdi. AQShda 80-yillarning so'ngidagi bank sohasidagi inqirozni bartaraf etish xarajatlari YaMMga nisbatan 3-5% ga etdi.

Shunday qilib, yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammoli kreditlarni bartaraf etish bo'yicha jahon mamlakatlarining boy tajribasini o'rganib chiqish mazkur muammoga endigina duch kelgan mamlakatlar bank tizimlarida olib borilishi zarur bo'lgan islohotlarni rejalashtirishda yuqori samara keltirishi mumkin.

5.3. Tijorat banklarida aktivlar portfelini boshqarish usullari

Tijorat banklari aktivlari birinchi navbatda qisqa muddatli kelajakni nazarda tutadi va har kungi bank balansini boshqarish ishi bilan bog'liqdir. U bank faoliyatida daromadni oshirish va risklarni chegaralashga yo'naltirilgan. Shuning uchun aktivlarni boshqarishning moliyaviy jihatdan asosiy maqsadi:

- uning daromadini oshirish;

- faoliyatidagi risklarni pasaytirish;

Shuningdek, uzoq muddatli strategik rejalashtirish ham muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklari aktivlarini tahlil qilish uchun muammoli kreditlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur. Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar ko'rish hollariga mo'ljallangan zaxiralar etarililigini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar, naqd pullar va vakillik hisobvaraqlari, ssuda va boshqa aktivlar holatiga e'tibor qaratiladi.

Bankning aktiv operatsiyalari tahlili daromadlilik, risk darajasi, likvidlilik nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak. Bank taraqqiyoti manbalaridan ma'lumki, bank aktivlari daromadliliigi va likvidliliigi bir-biriga qarama-qarshidir. Likvidlilik va uning daromadliliigi o'rtasidagi aloqadorlik tahlili likvidlilik ahamiyatining ustunligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu mezonning ustunligini hisobga olish natijasi ko'rsatilgan qarama-qarshilikni muvofiqlashtirishga va bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishga erishishga olib keladi.

Bankning faoliyatida aktivlarning tutgan rolini yana ham mukammalroq o'rganish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash muhimdir:

- tashkilotlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va banklarga berilgan kreditlar bo'yicha umumiy kredit qoldig'ini hisoblash;
- berilgan kreditlarni ularning muddatlari, tarmoqlarga berilishi va ularning umumiy qarzdagi salmog'i bo'yicha hisoblash;
- ssudalarning o'rtacha foiz stavkalarini hisoblash;
- umumiy ssudalarning ichida muddati o'tgan qarzlarning salmog'i bo'yicha hisoblash.
- bank tomonidan berilgan eng katta kreditlarning hajmini hisoblash;
- berilgan turli darajadagi kreditlarning Markaziy bank yo'riq-nomalariga javob berishini hisoblash;

Bulardan tashqari yana ham quyidagi koeffitsiyentlar borki, bularni ham hisoblash foydadan holi bo'lmaydi:

- aktivlardan foydalanish samaradorligi;

Daromad keltiruvchi aktivlar o'rtacha summasining o'rtacha barcha aktivlarning summasiga nisbati.

Bu koeffitsent aktivlarning qancha bo'lagi foyda keltirishini ko'rsatadi.

- Kredit berishda depozit mablag'laridan foydalanish koeffitsenti;

Kreditlarning o'rtacha qoldig'ining depozitlar o'rtacha qoldig'iga nisbati bo'lib hisoblanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar bankning kredit siyosatning sifatini ko'rsatib, bank aktivlarining maqsadga muvofiq tuzilishini, ularning risklilik darajasini va bankning likvidligiga, daromadlilikiga, rentabelligiga ta'sirini ko'rsatadi.

Bank aktivlarini boshqarish ko'p jihatdan moliyaviy risklarni nazorat qilish va kamaytirishga bog'liqdir. Har qanday bankka tegishli majburiy maqsadga muvofiq hujjatlar to'plami mavjud emas. Lekin banklar o'z aktivlarini shakllantirishda quyidagi hujjatlar bo'lishi kerak:

1. Foiz stavkalari o'zgarishiga bog'liq balans o'zgarishi hisoboti.

2. Foiz stavkalari o'zgarishiga bog'liq, aktivlarni undirish muddati grafigi.

3. Likvidlikni boshqarish bo'yicha hisobotlar:

• jamg'arish holati bo'yicha hisobot;

• aktivlarni undirish grafigi;

• mablag' manbalari va yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar;

• likvidli aktivlar tarkibi va mablag'lar manbalarining beqarorlik darajasi tahlili;

4. Muammoli aktivlar bo'yicha hisobot:

• faoliyatsiz kreditlar va boshqa ishlamayotgan aktivlar bo'yicha hisobot;

• hisobdan chiqarish uchun muddati o'tgan kreditlarga jamg'arilgan mablag'lar bo'yicha hisobot;

• kreditlar va boshqa aktivlarni hisobdan chiqarish bo'yicha hisobot;

5. Iqtisodiy hisobotlar:

• inflyatsiya tahlili;

6. Foiz stavkalari bo'yicha hisobot:

• fondlar qiymati tahlili;

• joriy bank foiz stavkalari sharhi;

• asosiy raqobatchilar foiz stavkalari to'g'risida ma'lumot;

Tijorat banklarining aktivlarini boshqarishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida, tijorat ssudalari nazariyasidan hamda kutilayotgan daromad nazariyasidan keng ko'lamda foydalaniladi.

Tijorat ssudalari nazariyasiga ko'ra, bankning kreditlash jarayonini tovarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchga tomon harakatlanish bosqichlariga bog'liq ravishda tashkil qilish lozim. Ushbu nazariya mualliflarining fikriga ko'ra, tijorat banki resurslarining asosiy qismini qisqa muddatli ssudalarga joylashtirishi lozim, resurslarni qo'zg'almas mulk

obyektlariga va qimmatli qog'ozlarga joylashtirish banklarning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kutilayotgan daromad nazariyasiga ko'ra, tijorat banklari mijozlarining pul tushumlarining kelib tushish davriga mos ravishda kreditlarning qoplash muddatini belgilash zarur. Ushbu nazariyaga ko'ra, mijozlarning yangi kreditlarga bo'lgan ehtiyojini boshqa banklardan kredit olish yo'li bilan yoki bankning portfelidagi qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan qoplash lozim.

Aktiv operatsiyalar yuqorida qayd etilganidek, bu bank tomonidan foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali yo'naltirishdir. Bunga bozorda yuzaga kelgan holatni, bankning joriy holatini tizimli tarzda tahlil qilish, bank aktivlari harakati va tarkibiga doimo zaruriy o'zgartirishlar kiritish orqali erishiladi.

Bank aktivlarini iqtisodiy ahamiyatiga qarab quyidagicha tasniflash mumkin;

-daromadlilik darajasi bo'yicha – yuqori daromad keltiruvchi operatsiyalar;

-likvidlilik darajasi bo'yicha ba'zi aktivlardan to'lov vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi yoki shunday mablag'larga aylantiruvchi operatsiyalar. Jumladan, aytish mumkinki, bank hisobot balansida aktivlarni likvidlilik darajasini pasayishi bo'yicha joylashtirish qabul qilingan.

- xatar darajasi bo'yicha-ba'zi bank operatsiyalari bo'yicha daromad olish maqsadida joylashtirilgan mablag'larni qaytmasligini xatari yuqori bo'ladi.

Muayyan bankning likvidliligini baholashda qaysidir aktivdan keladigan daromadliliknigina (mos ravishda bank resurslarini joylashtirish bo'yicha operatsiyalarni) emas, shu aktiv yoki bank aktiv operatsiyasidan, bank resurslarini qaytarilmasligi oqibatida ko'rish mumkin bo'lgan zarar xatarini ham hisobga olish zarur.

O'zbekiston bank amaliyotida bank aktivlarini holatini baholash uchun ularning xatar darajasi va ularni qaytarilmasligi oqibatida ma'lum qismini yo'qotish ehtimoli bo'yicha ular to'rt guruhga ajratilgan. Bunda alohida toifa va guruhlar bo'yicha mos tuzatuvchi koeffitsientlar biriktirilgan.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish aktivlarning maqsadga muvofiq tarkibiy tuzilishini, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiya darajasini, xatarli aktivlarning

baqamni, muammoli va sifatsiz aktivlarni, aktivlarning o'zgaruvchanlik darajalarining oqilona darajasini ta'minlashni o'zida mujassamlashtiradi.

Aktivlar portfelini boshqarish nazariyasi quyidagi uslubiy qoidaga asoslanadi:

Birinchidan, tijorat banki mablag'larini qisqa muddatli ssudalarga berganda uning likvidliligi saqlanadi. Bu qoida ba'zi G'arb davlatlari qonunlarida o'z aksini topsa-da, amaliyotda esa, u «ikkinchi darajali zaxiralar» nomini olgan.

Ikkinchidan, agar kreditni to'lash grafigi uchun mijozning kelgusi davrda oladigan daromadlarning tushish grafigi asos qilib olinsa, u holda bank likvidligini rejalashtirish mumkin.

Demak, bank likvidligiga kredit va investitsiyalarning to'lash muddatini o'zgartirish orqali ta'sir etish mumkin. Amaliyotda bu qoida investitsiya portfelini pog'onali boshqarishda o'z aksini topadi.

Tijorat banklari o'zlarining investitsiya siyosatini ishlab chiqish va investitsiya portfelini shakllantirishda, avvalo qimmatli qog'ozlarning quyidagi xususiyatlariga e'tiborni qaratishi lozim:

- foydalilik;
- likvidliligi;
- bozor bahosining barqarorligi;
- kapitalni oshirish manbai;
- ishonchlilik darajasi;
- risk.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha kreditor yoki sug'urtalash, depozitariy va kliring – hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

Tijorat banklari investitsion portfelini shakllantirishda mablag'lar qo'yish uchun aniq aktivlarni aniqlashi, shuningdek investitsiya qilingan kapitalni aktivlar o'rtasida taqsimlash nisbatlarini tahlil qiladi. Banklar ushbu holatda uch holatga duch keladi:

- selektivlik – (mikroprognoz) qimmatli qog'ozlarni tahlil qilish va alohida turdagi qimmatli qog'ozlarning baholar o'zgarishi dinamikasini prognozlash;

- operatsiyalar vaqtini tanlash – (makroprognoz) o'zgarmas daromadli fond instrumentlari uchun (masalan, korporativ obligatsiyalar) belgilangan bahoga nisbatan aksiyalar bahosining o'zgarishi darajasini prognozlash;

- diversifikatsiya – bu investitsion portfelni shunday shakllantirishki, natijada riskni minimallashtirish va kamaytirish tushuniladi.

Mavjud portfel optimal bo'lmay qolganda uni yangidan shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Optimal investitsion portfelni shakllantirish uchun investitsion strategiyani ishlab chiqish kerak va unda qo'yilgan mablag' daromadlilikini risklar va investitsiyalash vaqtini hisobga olgan holda tahlil qilish lozim. Tijorat banklari investitsion portfeli aniq tuzilgan bo'lishi va investor turi, investitsiya maqsadi, risk darajasi, portfel turini aniqlash uchun qimmatli qog'ozlar turlari bo'yicha taqsimlangan bo'lishi kerak.

Qimmatli qog'ozlar bozorida risklar qancha yuqori bo'lsa, portfelni boshqarish sifatiga talab shuncha yuqori bo'ladi. Boshqaruv jarayonini maqsadi investitsion portfelning sifatini saqlash hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar bilan ishlashning asosiy qoidalaridan biri quyidagicha ifodalanadi: «qimmatli qog'ozlarga barcha mablag'larni qo'yish mumkin emas, balki kelajakda to'satdan vujudga keluvchi investitsion masalalarni echish uchun bo'sh mablag'lar zahirasiga ega bo'lish lozim». Ushbu qoida «qimmatli qog'ozlar bilan ishlashning oltin qoidasi» deb yuritiladi. Bunday masalalarni echishda ma'lum xarajatlar mavjud bo'lib, ularning miqdori foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi.

Turli toifadagi investorlar uchun banklar mijozlarning investitsiya strategiyasini shakllantirishga, loyihani moliyalashni tashkil etishga ko'maklashishdan boshqa qimmatli qog'ozlar majmuini boshqarish va sotib olingan aksiyalarning dividendlarini olishgacha bo'lgan maslahat xizmatlarining ko'pgina turlarini ko'rsatishlari mumkin.

Tijorat banklari investitsion portfelini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

1. portfelni qimmatli qog'ozlar turlari va vaqti bo'yicha diversifikatsiyalash;

2. ko'proq daromad olish;

3. riskni minimumga pasaytirish;

4. pul oqimini vaqt bo'yicha teng taqsimlash;

5. soliqqa tortish bazasini kamaytirish.

Investitsion portfel diversifikatsiyasi – riskni kamaytirish maqsadida mablag'ni investitsiyalar bo'yicha taqsimlash. Masalan, portfel quyidagi tamoyillar asosida shakllantiriladi:

- likvidlilik – qimmatli qog'ozlarni portfeldan chiqarganda, ularni nominal bahosidan past bahoda sotilmaslik imkoniyati;

- daromadlilik – har daqiqada investitsion portfelni yuqori bozor qiymatiga erishishi;

- muddatlilik - investitsion portfeldagi qimmatli qog'ozlarni daromad keltirish vaqti bo'yicha taqsimlanishi;
- qaytarishlilik – qimmatli qog'ozlar olingan narxdan past narxda sotilishi mumkinligini oldini olish;
- investitsion portfeldagi har bir kategoriya bo'yicha qimmatli qog'ozlarning hajmini nazorat qilish.

Mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash tijorat banklariga aktivlarni diversifikatsiyalash imkonini beradi, riskni kamaytiradi, natijada potentsial daromadi oshadi va mijozlarni rag'batlantiradi.

Qimmatli qog'ozlar o'ziga xos xususiyatga ega: daromad oshsa, risk oshadi, hamda daromad kamaysa, risk kamayadi.

Bankning qimmatli qog'ozlar portfelining strukturasi

15-jadval

Qimmatli qog'ozlar portfeli		
Investitsiya portfeli	Savdo portfeli	
Foiz va dividend shaklida foyda olish maqsadida olingan qimmatli qog'ozlar	Qaytarib sotish bo'yicha qimmatli qog'ozlar	REPO operatsiyalari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar


Tijorat banki investitsiya faoliyati olib borishning passiv strategiyasida asosan kutish, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir maromda va doimiy ravishda daromad olishda ularning bozordagi o'rtacha darajadagi daromadga yaqin darajada foydalanadi. Passiv strategiyani olib borishda banklar ikki xil usuldan foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari qimmatli qog'ozlar investitsiya portfelini shakllantirish va uni boshqarishda passiv strategiyaning ikki usulidan ham foydalanadilar. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan asosan qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faoliyati olib borilmoqda.

Portfelni investitsiyalashning asosiy masalalaridan biri investitsiyaning sharoitlarini yaxshilash, qimmatli qog'ozlar majmuasiga bitta alohida olingan qimmatli qog'oz qila olmaydigan faqatgina ularning kombinatsiyalari orqali amalga oshadigan investitsion xarakteristika berish hisoblanadi. Faqatgina portfel shakllantirish jarayonida berilgan investitsion sifatga erishish mumkin. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar portfeli shunday instrumentki, uning yordamida investorga minimal risk bilan talab etilgan mustahkam daromad ta'minlanadi. Banklar u yoki bu

qimmatli qog'ozlarni sotib olayotgan vaqtida ma'lum bir maqsadlarga erishishga harakat qiladilar, bu maqsadlarning asosiylari quyidagilar:

- qo'yimalarning o'sishi;
- qo'yimalarning likvidiligi;
- qo'yimalarning xavfsizligi.



5-rasm. Daromad manbasi bo'yicha investitsion portfel tasnifi.

Investitsion qimmatli qog'ozlar bozor narxining o'sishi yoki foiz daromadi ko'rinishida daromad keltiradilar. Portfel daromadliligi berilgan vaqt oralig'i bilan bog'liq xarakteristikasidir. Bu oraliq cheksiz bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari, jumladan, respublikamiz bank tizimida aktivlar portfelini boshqarishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ularni tahlil qilish va muammolarni hal qilishni talab qiladi.

5.5. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning zamonaviy holati

Likvidlilikni boshqarish o'rganilayotganda bu kategoriya aktiv va passivlarni boshqarishning tarkibiy qismi ekanligini esda tutmoqlik kerak. Aktiv va passivlarni boshqarishdan asosiy maqsad riskning minimal darajasini ta'minlagan holda foiz tushumlarini va foiz to'lovlari

o'rtasidagi farqni maksimallashtirish yoki hech bo'lmasa barqaror darajada saqlashdan iboratdir. Bu maqsadga erishishning muhim sharti depozit potentsialini oshishini aktiv operatsiyalari kengayishiga bog'liqligi ustidan nazorat o'rnatishdir.


Aktivlarni boshqarish nazariyasi quyidagi uslubiy qoidaga asoslanadi:

Birinchiidan, tijorat banki mablag'larini qisqa muddatli ssudalarga berganda uning likvidligi saqlanadi. Bu qoida ba'zi G'arb davlatlari qonunlarida o'z aksini topsada, amaliyotda esa, u «ikkinchi darajali zaxiralar» nomini olgan.

Ikkinchiidan, agar kreditni to'lash grafigi uchun mijozning kelgusi davrda oladigan daromadlarning tushish grafigi asos qilib olinsa, u holda bank likvidligini rejalashtirish mumkin. Demak, bank likvidligiga kredit va investitsiyalarning to'lash muddatini o'zgartirish orqali ta'sir etish mumkin. Amaliyotda bu qoida investitsiya portfelini pog'onali boshqarishda o'z aksini topadi.

Halqaro bank amaliyotida banklarning aktiv va passivlarini boshqarishning amaliy jihatdan bir qancha metodlari ishlab chiqilgan. Jahon amaliyotida eng keng tarqalgan quyidagi ikki metod aktiv va passivlarni boshqarishda shug'ullaniladi:

1. Birlashgan (yagona) manba metodi.
2. Taqsimlangan manbalar metodi (konvertatsiya).




6-rasm. Umumiy fond mablag'lari modeli yordamida aktivlarni boshqarish¹

¹ Abdullaeva Sh.Z. «Bank ishi». TMI, «Moliya-iqtisod». Toshkent. 2003 y.

Birlashgan manba metodining mazmuni uning nomidan ham anglashiladi. Bunda jalb qilingan va o'z mablag'lari turli aktivlarga joylashtiriladi. Birlashgan manba metodida banklarning jalb qilingan mablag'lari bank kassassiga yoki bankning vakillik hisobvarag'iga yig'iladi va ushbu yig'ilgan mablag'lar hisobidan aktiv operatsiyalar amalga oshiriladi. Quyidagi keltirilgan rasmda banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning birlashgan manba metodi aks ettirilgan.

Ushbu rasmda ko'rish mumkinki, tijorat banki tomonidan jalb qilingan mablag'lar avval umumiy fondga yig'iladi va ehtiyojga qarab turli yo'nalishlarda foydalaniladi. Masalan, jismoniy shaxslarning bankdagi jamg'arma depozitlari shakllantirilsa, ushbu mablag' kassada aks ettiriladi va bank ushbu mablag'lardan xizmatlarni ko'rsatish yoki mahsulotlarni realizatsiya qilishda erkin foydalanadi. Ushbu usuldan xalqaro amaliyotda ham O'zbekiston bank amaliyotida ham keng foydalaniladi. Chunki samaradorlik yuqori bo'lgan usul hisoblanadi. Albatta barcha metodlar singari mazkur metod universallikka da'vo qilmaydi. Metodning kuchsiz tomoni aktiv va passivlar bog'liqligiga ahamiyatining yo'qligidir.



7-rasm. Aktivlarni taqsimlash modeli yordamida aktiv va passivlarni boshqarish¹.

¹ Abdullaeva Sh.Z. «Bank ishi». TMI, T.: «Moliya-iqtisod», 2003-y.

Yuqoridagi rasmda aktivlar va passivlarni boshqarishning taqsimlash metodiga muvofiq boshqarish tartibi keltirilgan.

Tijorat banklarida shuningdek, jalb qilingan mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri aktivlarga joylashtirilishi mumkin. Jalb qilingan ma'lum muddatga jalb qilinadi va ushbu muddat va summaga mos aktiv operatsiyalarga yo'naltiriladi. Ushbu usul texnik jihatdan murakkab va riskli hisoblanadi.


Mazkur metodga muvofiq bankning jalb qilingan yoki o'z resurslari bo'limidan qat'iy nazar barcha resurslar aktiv operatsiyalarga mudatti va summasiga muvofiq joylashtiriladi. Taqsimlangan manbalar metodi fondlar manbalarini bo'linishga asoslanadi. Bu metodni qo'llashda aktivlarni ishlatishning belgilangan yo'nalishlari belgilangan manbalar bilan bog'lanadi va bunda ularning mos holda likvidlilik va foydaliligi hisobga olinadi.

Aktiv va passivlarni boshqarish texnikasining taraqqiyoti, bir vaqtning o'zida risklarning ortishi va fondlarni o'zgaruvchanligi manbalarining bo'linganligi metodikasini ustun qilib qo'yadi. Masalan, agar bank fondlari asosan qisqa muddatli, doimiy bo'lmagan majburiyatlardan iborat bo'lsa, demak mablag'larning asosiy qismi qisqa muddatli kreditlar va qimmatli qog'ozlarga joylashtirilishi kerak. Aksincha, bank o'z fondlarini uzoq, muddatli manbalar hisobiga shakllantirgan bo'lsa, ma'lum bir risk bilan manbalarni uzoq muddatli kreditlarga joylashtirish yoki loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirishi mumkin.

Tijorat banklarida aktiv va passivlarni mos hajmda va muddatda mutanosibligi tamoyili mavjud. Buning nazariy asosi bankning «oltin qonuniyat»ida o'z aksini topgan. «Bankning aktivlari uning majburiyatlari bilan muddatda va miqdor jihatdan moc bo'lishi kerak». Amalda bank aktivlari va passivlari tarkibi mos holda hajmi va muddat mutanosibligi to'la ta'minlanmaydi. Chunki yuz berayotgan moliya va kredit jarayonlari, iqtisodiy kon'yunkturasi bunga to'sqinlik qiladi. Aynan «oltin qonuniyat» sof holda takrorlanmasada bu qoidaga intilish va maqsad qilib, strategiya ishlab chiqish likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilik muammolarini samarali hal qilishga yordam beradi. Shunday qilib, aktiv va passiv operatsiyalar tarkibini tahlili yordamida kerakli likvidlilik mavqeiga erishish mumkin. Foydalilikni oshirish uchun aktiv operatsiyalar daromadligiga erishish va passivlar bo'yicha xarajatlarni minimallashtirish hamda likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilikni optimal nuqtada bank boshqarishning kaliti hisoblanadi.

Bankni samarali boshqarilishi aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasini to'g'ri belgilanishiga bog'liq. Hozirgi vaqtda bir qancha

banklar aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasi maxsus qo'mitalar xulosalariga ko'ra ishlab chiqadilar (masalan, aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi). Bunday qo'mitalarning foizlarni o'zgarish riski strategiyasi ishlab chiqishini belgilaydi, balki qisqa va uzoq muddatli rejalashtirish, nolikvidlilik riskidan himoyalash choralarini ishlab chiqish, berilayotgan kreditlar sifatini nazorat qilish, resurslarni jalb qilish xarajatlarini optimalashtirish bilan ham shug'ullanadi. Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi faoliyati aktiv va passivlarni boshqarish strukturasi asoslanadi.



8-rasm. Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish tuzilishi.

Tijorat banklari aktivlarini asosan to'rt kategoriyaga bo'lib o'rganish mumkin: kassadagi naqd pullar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar, ssudalar, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar va asosiy vositalar. Bank aktivlari sifati uning tarkibi bilan belgilanadi.

Xalqaro bank amaliyoti tajribalari shuni ko'rsatadiki, kreditlar tijorat banklari aktivlarining tarkibida 60 foizdan kam bo'linasligi kerak. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlardan

keyin kassadagi naqd pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar cpallaydi. Bu esa, tijorat banklari uchun salbiy holat hisoblanadi. Tijorat banklari aktivlari tarkibida kassali aktivlarning yig'ilishi bank likvidliligini ta'minlash jihatdan ijobiy hisoblansada, daromadlilik nuqtai-nazardan salbiy hisoblanadi. Tijorat banklari aktivlari tarkibida kassali aktivlarning ulushi xalqaro amaliyotda 2 foiz miqdorida bo'lishi normal holat hisoblanadi.

Bugungi kunda tijorat banklari aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlar ulushining pastligi salbiy holat hisoblanib, bank aktivlarining daromadlilik va likvidliligini ta'minlashning muhim instrumenti ta'sirchanligi past ekanligini ko'rsatadi.

Respublikamiz tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'ining kichik ekanligi. Tijorat banklari aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlar ulushining pastligi quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Bank aktivlari miqdorining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarga nisbatan keskin o'sish sur'atiga ega ekanligi;

2. Tijorat banklari aktivlari tarkibida asosiy ulushni bank kreditlari tashkil etib, uning o'sish dinamikasi qimmatli qog'ozlar portfeliga nisbatan yuqori o'sish darajasiga ega.

Banklarda kreditlashning to'g'ri tashkil etilishi, kredit munosabatlaridagi risk darajasini kamaytirish va kredit mexanizmining uzviy harakatlanishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada faollashtirish borasida ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotning real sektori korxonalariga ajratilayotgan kreditlar miqdori bankning boshqa aktivlariga nisbatan yuqori o'sish tendentsiyaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, bank aktivlarining daromadlilik va likvidliligini ta'minlashda bank kreditlarining muddati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tijorat banklari qisqa muddatli kreditlar bankning likvidliligini ta'minlashda ahamiyat kasb etsa, uzoq muddatli kreditlar barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining jami aktivlardagi ulushi yoki yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar portfeli darajasi bank likvidliligini va daromadlilikini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati yuqori rivojlanish ko'rsatkichga ega bo'lsada, bank aktivlari tarkibida kichik ulushga ega. Tijorat banklari

aktivlari likvidliligi va daromadliligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblangan investitsion portfelni shakllanishi va uning holatini baholash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aholi qo'lidagi bo'sh naqd pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Tijorat banklari bu aktivlarni Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga joylashtirmoqda.

Tijorat banklari aktivlarining tuzilishi va sifati, mavjud aktivlarning likvidligiga, riskli aktivlarning hajmiga, muammoli va sifatsiz aktivlarning salmog'iga hamda daromad keltiruvchi aktivlarning hajmiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishda aktivlar portfelini boshqarish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarish bankning daromadliligi va likvidliligini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish bankning samarali faoliyatini amalga oshirishning, uning kredit investitsiya siyosatini olib borishining asosi hisoblanadi. Mavjud resurslarni sifatli va daromad keltiradigan qilib joylashtirish banklarning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarining kredit portfelini ularning sifat darajasi, risk darajasi bo'yicha, tarmoqlar bo'yicha, kreditning manbalari, ta'minlanganligi, muddatlari va boshqalar bo'yicha tahlil qilish mumkin.

Har qanday bank ham o'zining aktivlarini samarali boshqarishda ma'lum bir muammolarga uchraydilar. Bank aktivlarining sifati, aktivlarning maqsadga muvofiq tuzilishiga, likvidliligiga, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasiga, riskli aktivlarning hajmiga, muammoli va sifatsiz aktivlarning salmog'iga va aktivlarning o'zgaruvchanlik sifatlariga bog'liq.

Tayanch so'z va iboralar

Aktiv, bank balansi, daromad, daromad keltiradigan aktivlar, daromad keltirmaydigan aktivlar, diversifikatsiya, zarar, zaxira ajratmasi, kredit, kapital, majburiyat, muammoli kredit, portfel, foyda.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining aktiv operatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklarining aktivlari daromadliligiga ko'ra qanday guruhlanadi?

3. Tijorat banklarining aktivlari risk darajasiga ko'ra qanday guruhlanadi?

4. Tijorat banklarining aktivlari likvidligiga ko'ra qanday guruhlanadi?

5. Tijorat bankining balansi qanday tarkibiy qismlardan iborat?

6. Bank balansining aktiv qismi qaysi printsipl asosida quriladi?

7. Bank balansining passiv qismi qaysi printsipl asosida quriladi?

8. Tijorat banklari aktivlarining sifatini baholashda qaysi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin?

9. Banklarning aktivlar portfelini boshqarishda qaysi usullar qo'llaniladi?

10. Tijorat banklarida aktivlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari qanday tashkil etiladi?

11. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining zamonaviy holati qanday?

VI BOB. TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

6.1. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining ahamiyati va turkumlanishi

Tijorat banklari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish hisoblanadi. Valyuta operatsiyalari, bir tomondan, tijorat banki mijozlarining xorijiy valyutalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ularning valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, tijorat banklariga daromad olish imkonini beradi.

Tijorat banklari spread shaklida, ya'ni valyutalarni sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi farq sifatida daromad oladilar. Bundan tashqari, xorijiy valyutadagi aktivlarni qayta baholash, mavjud bitimga qarama-qarshi operatsiyalarni amalga oshirish orqali ham tijorat banklari valyuta operatsiyalaridan daromad oladilar.

2002-yilning 1-yanvaridan boshlab naqd evroning muomalaga kiritilishi natijasida evropa banklari Germaniya markasi, Frantsiya franki, Italiya lirasi, Belgiya franki, Avstriya shillingi, Ispaniya peseti kabi qator naqd valyutalarning muomaladan chiqib ketishi yuz berdi va buning natijasida ular 5 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi spread shaklidagi daromaddan mahrum bo'lishdi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari deganda banklar tomonidan xorijiy valyutalar va valyutaviy qimmatliklarni sotib olish va sotish operatsiyalariga aytiladi.

Xorijiy valyutalar – bu xorijiy davlatlarning milliy pul birligidir. Evrozonaga kiruvchi mamlakatlar uchun evro milliy valyuta hisoblanadi.

Valyutaviy qimmatliklarga quyidagilar kiradi:

- oltin va boshqa nodir metallar;
- xorijiy valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlar;
- xorijiy valyutalarda emissiya qilingan veksellar;
- xorijiy valyutalarda yozilgan cheklar.

O'zbekiston Respublikasida oltin valyutaviy qimmatlik hisoblansa-da, oltinni sotishga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud bo'lib, u

markazlashgan tarzda eksport qilinadi. Shu sababli, oltin quymalar aholiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotilmaydi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga ko'ra, 3 turga bo'linadi:

1. Spot operatsiyalari.
2. Muddatli valyuta operatsiyalari.
3. Svop operatsiyalari.

Spot inglizcha «spot» degan so'zdan olingan bo'lib, naqd bitim degan ma'noni anglatadi.

Tijorat banklari muddatli valyuta operatsiyalarining 3 shakli mavjud:

1. Forvard operatsiyalari.
2. Valyuta opsiyonlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.
3. Valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Svop inglizcha «swap» degan so'zdan olingan bo'lib, ayirboshlash degan ma'noni anglatadi.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini quyidagicha turkumlash mumkin (9-rasm).


Rasm tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib beradi deb hisoblaymiz.

Yamayka xalqaro konferentsiyasida oltinni demonetizatsiya qilinishi dunyo miqyosida belgilangan qat'iy belgilangan kurslar rejimining barham topishiga olib keldi. Natijada barcha etakchi xorijiy valyutalar erkin suzish rejimiga o'tishdi. Bu esa, o'z navbatida, valyuta riskining kuchayishiga olib keldi va muddatli valyuta bitimlari bozorining rivojlanishiga kuchli turtki berdi.

Forvard valyuta operatsiyalarining rivojlanishi svop operatsiyalarini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratdi. Chunki, valyutaviy svop operatsiyasi spot va forvard bitimlarining uyg'unlashuvidan tashkil topadi.

Valyuta fyucherslari va opsiyonlari hosilaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi va derivativlar deb ataladi.

Qayd etish joizki, derivativlar bilan amalga oshiriladigan spekulyativ operatsiyalar yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi va ular tijorat banklariga katta miqdorda zarar keltirishi mumkin. Bunga aniq misol qilib 1995-yil 25-fevralda bankrot deb e'lon qilingan Angliyaning «Berings» bankini keltirish mumkin. Holbuki, ushbu bank 233-yillik tarixga ega edi.



9-rasm. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining turkumlanishi

Berings bankning Singapur filiali treyderi Nik Lison banki passividagi barcha bo'sh turgan pul mablag'larini Singapur fond birja chiqib, Yaponiya korporatsiyalarining fyuchers va opsiyonlarini s olishga yo'naltirdi. Oradan 3 kun o'tgandan so'ng Yaponiyaning K shahrida dahshatli zilzila bo'ldi. Zilzila natijasida Yaponiya korporats larining fyuchers va opsiyonlarining bahosi keskin pasayib ketdi. Natij: Berings bank 1,3 mlrd. AQSh dollari miqdorida zarar ko'rdi.

Berings bankining Prezidenti dunyoning eng boy odamlaridan hisoblangan Bruney sultoni bilan do'st edi. U bankni qutqarib qo uchun Bruney sultonidan 1,0 mlrd. dollar qarz so'radi. Ammo su

¹ Mualliflarning shaxsiy ishlanmalari.

havakkul qilishni hohlamadi. Oxir-oqibat 233-yillik tarixga ega bo'lgan Herings bank bankrot bo'ldi.

Forvard, fyuchers va opsiyon bitimlari hamda valyutaviy svop muddatli valyuta bozorining instrumentlari hisoblanadi.

6.2. Tijorat banklarining spot operatsiyalari

Spot operatsiyalari spot bitimi tuzilgandan keyin ikki ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalaridir.

Spot yuqori riskli valyuta operatsiyasi hisoblanadi va uning yuqori riskliligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Spot operatsiyasini amalga oshirish vaqti juda qisqa bo'lganligi sababli unda sug'urta elementlarini qo'llab bo'lmaydi.

2. Spot operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi quyidagi 5 ta xalqaro zaxira valyutalarda amalga oshiriladi va ularning barchasi erkin suzish rejimiga ega.

Erkin suzish rejimiga ega bo'lgan valyutalarning nominal almashuv kursi katta diapazonlarda tebranishi mumkin.

3. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi ayrim omillarni prognoz qilish imkonining yo'qligi.

Masalan, 1990-yilda Iroq bilan AQSh boshchiligidagi davlatlar koalitsiyasi o'rtasida urush bo'ldi. Birlashgan qo'shinlar qo'mondoni bo'lgan amerikalik general urushni 1 hafta ichida tugatishga va'da berdi. Bu esa, xalqaro moliya bozori ishtirokchilarining xotirjam bo'lishiga olib keldi. Ammo urushning boshlanganligiga bir oy o'tgandan so'ng Iroq o'zining «Skad» raketalari bilan Saudiya Arabistonini poytaxti Er-Riyad shahrida joylashgan AQSh dengiz piyodalarning yotog'iga (kazarma) zarba berdi. Bu Iroqqa qarshi urushda qatnashayotgan arab davlatlari uchun kutilmagan holat va fojia edi. Chunki, AQSh o'zining havo hujumiga qarshi «Patriot» tizimi Iroqqa qarshi urushda qatnashayotgan davlatlar hududini Iroq raketalaridan 100 % himoya qilishiga va'da bergan edi.

Shu kundan boshlab, OPEKka a'zo bo'lgan arab davlatlari Fors ko'rfazi orqali neft eksport qilishni to'xtatdilar. Bu esa, jahon bozorlarida neft bahosining keskin ko'tarilishiga olib keldi. 1 barrel neft o'sha paytda arab davlatlari tomonidan 11-13 AQSh dollariga sotilgan bo'lsa, uning bahosi 42 dollarga ko'tarildi. Sobiq Sovet Ittifoqi, Meksika, Venesuela, Ruminiya kabi neft eksport qiluvchi mamlakatlar neft eksportidan katta miqdorda daromad olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Neft mahsulotlarini

import qiluvchi Turkiya, Yaponiya, Evropa davlatlari esa, bundan jiddiy zarar ko'rdilar.

Neft bahosining keskin oshishi AQSh dollari kursining ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Chunki, neft shartnomalarining 90 foizdan ortiq qismi AQSh dollarida tuzilgan edi. Buning natijasida jahon valyuta bozorlarida AQSh dollariga bo'lgan talabning oshishi yuz berdi.

Spot operatsiyalari spot kurslar asosida amalga oshirilaadi.

Spot kurs deganda spot bitimi tuzilayotgan paytda belgilab qo'yiladigan valyuta kursi tushuniladi va bu kurs ikki ish kuni mobaynida o'zgarmasdan qoladi.

Spot kursni aniqlashning birja usuli va birjadan tashqari usuli mavjud.

Taraqqiy etgan davlatlarda va qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari, birja usulida spot kurs valyuta birjalarining savdo zallarida dilerlar, maklerlarning ochiq savdo qilishlari natijasida aniqlanadi. Shunisi xarakterliki, AQSh dollari, Evro, Angliya funt sterlingi va Shveytsariya frankining kursi verguldan keyin to'rttagacha birlikda aniqlanadi. Masalan: 1 dollar = 1,2310 - 1,2330 shv. franki. Yoki 1 funt sterling = 1,6770-1,6790 dollar.

Valyuta birjalarining savdo zallarida valyuta savdosi faqat oxirgi ikkita raqam bilan amalga oshiriladi. Hech qaysi diler ikkita raqamdan oldinda turgan raqamlarni hech qachon aytmaydi.

Chap tomonimizda turgan birinchi kurs sotib olish kursi hisoblanadi va u **BID** deb ataladi, o'ng tomonimizda turgan kurs, ya'ni ikkinchi kurs sotish kursi hisoblanadi va u **OFFER** deb ataladi. Valyutaning sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi farq tijorat bankining daromadi hisoblanadi va u **SPREAD** deb ataladi.

Har bir spot bitimi bo'yicha alohida spot kurs aniqlanadi. Tijorat bankining har bir dileriga valyutalarni sotib olish va sotish bo'yicha limit belgilanadi. Diler o'sha limit doirasida valyutalarni spot sharti bo'yicha sotib olish va sotishni amalga oshiradi.

Valyuta birjasidagi kompyuter dasturi spot operatsiyalaridagi talab va taklifga qarab milliy valyutaning oldi-sotdi qilinayotgan etakchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursini aniqlaydi. Masalan, London vaqti bilan soat 11.00da Buyuk Britaniya funt sterlingining, Frankfurt-na Mayne shahrida soat 13.00 da evroning etarkchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursi aniqlanadi va butun dunyoga e'lon qilinadi.

Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi fiksing deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasida buyurtmali valyuta savdosi tizimi mavjud.

So'mning nominal birja kursi O'zbekiston Respublikasi Valyuta Birjasi (O'RVB) da AQSh dollariga bo'lgan talab va taklif asosida aniqlanadi. Qayd etish jiozki, respublikamizda valyuta kursini aniqlashning tijorat spot kurslariga asoslanadigan va fiksing shaklida aniqlanadigan bozor mexanizmi mavjud emas. Shu sababli, respublikamizda so'mning nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur mexanizmning mohiyati shundaki, O'RVBga a'zo bo'lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar: a) AQSh dollarini sotib olish maqsadida so'mda berilgan buyurtmalar; b) AQSh dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). Markaziy bankning Bosh dileri buyurtmalarni qabul qilishni to'xtatish to'g'risidagi buyruqni bergandan so'ng har ikkala xildagi buyurtmalar bo'yicha jami nominal miqdorlar aniqlanadi. Shundan keyin so'mda berilgan buyurtmalarning jami summasini AQSh dollaridagi buyurtmalar summasiga bo'lish yo'li bilan o'zbek so'mining 1 AQSh dollariga nisbatan nominal birja kursi aniqlanadi.

O'z navbatida, so'mning nominal almashuv kursi tijorat spot kursi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.


O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo'jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma'lum qismini majburiy tartibda sotishda qo'llaniladi.

Birjadan tashqari usulda spot kurs tijorat banklari dilerlarining telefon orqali so'zlashuvlari yoki internet orqali muloqotlari natijasida aniqlanadi.

Tijorat banklarining naqd xorijiy valyutalarni sotish kursi va sotib olish kursi o'rtasidagi farq sifatida oladigan spread shaklidagi daromadi ularning valyuta operatsiyalarining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Tijorat banklarining naqd xorijiy valyutalarga bo'lgan talabni to'g'ri baholagan holda, ularning sotib olish va sotish kursini belgilashi spread miqdorini oshirish imkonini beradi.

2003-yilning 8-oktyabrida O'zbekiston Respublikasi hukumati xalqaro Valyuta Fondi Nizomi VIII-moddasining 2 bo'lim a-bandisi, 3 va 4-bo'limlari bo'yicha belgilangan majburiyatlarni qabul qilinganligi va bundan o'sha-yilning 15-oktyabridan boshlab kuchga kirganligi konversion operatsiyalarni rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Ushbu majburiyatlar o'zini to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha xorijiy valyutalarga erkin almashtirishni o'z ichiga oladi. VIII-moddaning 2-bo'lim a-bandiga muvofiq, mamlakatimiz hukumati joriy operatsiyalar bo'yicha valyutaviy cheklashlarni joriy qilishga haqli emas. Ushbu moddaning 3-bo'limiga muvofiq, O'zbekiston hukumati diskriminatsion valyuta siyosatini amalga oshirishga haqli emas. Nihoyat, VIII-moddaning 4-bo'limiga muvofiq, boshqa davlatlar tomonidan taqdim etilgan so'mlar yo o'sha mamlakatning milliy valyutasiga yoki SDRga konvertatsiya qilib berilishi lozim. Ammo 2003-yilning 15-oktyabriga qadar olingan so'mlar bo'yicha O'zbekiston hukumati 4-bo'lim majburiyatlarini o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan ishlab topilgan so'mlar faqat joriy operatsiyalardan ishlab topilgan bo'lishi kerak.



10-rasm. O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida amalga oshirilgan konversion operatsiyalar hajmi, mlrd. AQSh dollari.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2011-yilda RVBda amalga oshirilgan konversion operatsiyalar hajmi 2010-yilga nisbatan sezilarli

Shu bilan birga, tijorat banklari spot operatsiyalaridan zarar ko'rishlari ham mumkin. Odatda, tijorat banki qisqa valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan valyutaning keyingi ish kunidan boshlab kursining ko'tarilishi zararni yuzaga keltiradi. Aksincha, tijorat banki qisqa valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan valyutaning kursini keyingi ish kunidan boshlab pasayishi bankning balansida foydani yuzaga keltiradi.

Agar tijorat banki uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo'lgan xorijiy valyutaning kursi pasaysa, u holda bankning balansida zarar yuzaga keladi. Chunki, bu vaqtda tijorat banki arzon valyutani qimmat bahoda sotib olgan hisoblanadi.

Shuningdek, tijorat banki tomonidan belgilangan xorijiy valyuta-ning sotib olish kursining Markaziy bankning birja kursidan yuqori bo'lishi bankning balansida zararni yuzaga keltiradi. Masalan, Markaziy bankning birja kursi bo'yicha 1 AQSh dollari 2198,00 so'mga teng. Tijorat bankining 1 AQSh dollarini sotib olish kursi esa, 2200,00 so'mni tashkil etadi. Bunday sharoitda tijorat banki har bir dollardan qayta baholash natijasida 2 so'm zarar ko'radi (2200 – 2198). Buning sababi shundaki, qayta baholash Markaziy bankning birja kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining spot operatsiyalaridan ko'rgan zararlari summasi 55302-hisobraqamning debetida, spot operatsiyalaridan olgan foydasi esa, 45401-hisobraqamning kreditida aks etadi. Respublikamiz banklarining spread shaklidagi daromadi ham 45401-hisobraqamning kreditida aks etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 30-yanvardagi PQ-1914-sonli «Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'ri-sida»gi Qaroriga muvofiq, 2013-yil 1-fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga vakolatli banklar tomonidan naqd xorijiy valyutalarni sotish to'xtatildi¹. Demak, respublikamiz tijorat banklarida spread shaklidagi daromad bundan buyon mavjud bo'lmaydi.

Respublikamiz tijorat banklari spot operatsiyalarining asosiy qismini import qilingan tovarlar bo'yicha va olingan xalqaro kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni amalga oshirish maqsadida so'mni AQSh dollari va evroga ayirboshlash operatsiyalari (konversion operatsiyalar) tashkil etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2013. - №6 (558). – B. 5-6.

Bu yerda,

U / D –ustama yoki diskont.

SK – spot kurs.

F'SO'F – foiz stavkalari o'rtasidagi farq. Foiz stavkalari o'rtasidagi farq aniqlanayotganda bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyuta bo'yicha esa, depozitlarning foiz stavkasi baholovchi valyuta bo'yicha aniqlanadi.

FShM – forvard shartnomasining muddati.

BVFS – bitim valyutasi bo'yicha foiz stavkasi.

Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija ustama hisoblanadi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija diskont hisoblanadi.

Forvard marjasi quyidagi sabablarga ko'ra kotirovka qilinadi:

Birinchidan, forvard marjalari ko'pchilik holatlarda o'zgarishsiz qoladi, spot kurslari esa tez-tez o'zgaradi, shu sababli, ustama va diskontlarning kotirovkasiga kam tuzatish kiritiladi.

Ikkinchidan, valyuta bitimlarining sezilarli qismida forvard kurslarini emas, balki ustama va diskontni bilish talab qilinadi.

Ustama va diskontning o'lchov birligi pips deb ataladi.

Forvard kursi spot kursidan ustama yoki diskont so'mmasiga farq qiladi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, olingan natija ustama hisoblanadi va bunda forvard kursi spot kursidan yuqori bo'ladi. Aksincha, bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa olingan natija diskont hisoblanadi, bunda forvard kursi spot kursidan past bo'ladi.

Forvard operatsiyalari dastlab eksportyorlarning sotilgan tovarlar uchun kutilayotgan eksport tushumini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida yuzaga keldi. Keyinchalik tijorat banklari o'rtasidagi munosabatlarda ham forvard operatsiyalaridan foydalanish kuchaydi. Shunisi xarakterliki, forvard operatsiyalaridan spekulyativ maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Chunki, birinchidan, forvard operatsiyalarini amalga oshirish uchun valyuta mablag'larining mavjud bo'lishi shart emas; ikkinchidan, forvard shartnomalari nisbatan uzoq muddatga

tuziladi; uchinchidan forvard kursining darajasi ko'proq foiz stavkalarining o'zgarishiga bog'liq.

Tahlil jarayonida forvard operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlarga asosiy e'tibor qaratiladi:

1. Forvard operatsiyalarining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etilganligi.

Forvard operatsiyalari tijorat banklari uchun balansdan tashqari operatsiya hisoblanadi, shu sababli, birinchi navbatda, forvard shartnomalari so'mmasini tegishli balansdan tashqari hisobraqamlarda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish lozim. Haqiqatda, tijorat banklarining xorijiy valyutalarni sotib olish maqsadida tuzilgan forvard shartnomalari 92716-«Forvard bitimi bo'yicha sotib olish» hisobraqamining debetida va 96367-«Forvard bitimi bo'yicha sotib olish kontr hisobvarag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tijorat banklarining xorijiy valyutalarni sotish maqsadida tuzilgan forvard shartnomalari 92709-«Forvard bitimi bo'yicha sotish» hisobraqamining debetida va 96365-«Forvard bitimi bo'yicha sotish kontr hisobvarag'i»ning kreditida hisobga olinadi.

Tahlil jarayonida forvard shartnomalarining muddati tugagandan so'ng amalga oshirilgan buxgalteriya o'tkazmalari ham sinchiklab tekshirilishi lozim. Shunisi xarakterliki, forvard operatsiyalari shartnoma muddati tugashi bilan xarakteriga ko'ra spot operatsiyalariga aylanadi. Shuning uchun ham keyingi buxgalteriya o'tkazmalari spot bo'yicha beriladi.

Balans hisobraqamlari bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari berilgandan so'ng forvard operatsiyalari bo'yicha ochilgan balansdan tashqari hisobraqamlar yopiladi. Tijorat bankining xorijiy valyutani sotib olish maqsadida tuzgan forvard shartnomasi so'mmasiga ochilgan balansdan tashqari hisob raqamlari 92716-«Forvard bitimi bo'yicha sotib olish» hisobraqamini kreditlash va 96367-«Forvard bitimi bo'yicha sotib olish kontr hisobvarag'i»ni debetlash yo'li bilan yopiladi.

Tijorat bankining xorijiy valyutani sotish maqsadida tuzgan forvard shartnomasi so'mmasiga ochilgan balansdan tashqari hisobraqamlari 92709-«Forvard bitimi bo'yicha sotish» hisobraqamini kreditlash va 96365-«Forvard bitimi bo'yicha sotish kontr hisobvarag'i»ni debetlash yo'li bilan yopiladi.

2. Forvard operatsiyalari bo'yicha ustama va diskontni to'g'ri hisoblanganligi

Forvard operatsiyalari forvard kursi asosida amalga oshiriladi. Forvard kursining darajasini belgilovchi omil ustama va diskont hisoblanadi.

Agar baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, olingan natija ustama hisoblanadi. Bunday holatda forvard kursini aniqlash uchun spot kurs ustama miqdoriga oshiriladi.

Agar baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi. Bunday holatda forvard kursini aniqlash uchun spot kurs diskont miqdoriga kamaytiriladi.

3. Forvard operatsiyalari bo'yicha foyda va zararlar so'mmasini, shu jumladan, realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar so'mmasini baholash.

Forvard operatsiyalari bo'yicha foyda va zararlar so'mmasini baholash uchun 45405 va 55306-hisobraqamlarining qoldiqlari olinib, tahlil qilinadi.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar so'mmasini baholash uchun 16901 va 22802-hisobraqamlarining qoldiqlari olinib, tahlil qilinadi.

Tahlil qilingan davr mobaynida zararlar so'mmasi kamayish tendentsiyasiga, foyda so'mmasi esa, o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar to'lov muddati kelmagan muddatli valyuta shartnomalarini qayta baholash natijasida yuzaga keladi. Har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga moliyaviy hisobot topshirayotganda muddati kelmagan valyuta shartnomalari qiymatini qayta baholashlari va ular bo'yicha foyda va zararlar so'mmasini aniqlashlari zarur.

Muddati kelmagan valyuta shartnomalarining qiymatining qayta baholash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy hisobot tuzilayotgan kundagi birja kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunga qadar barcha xorijiy valyutalardagi shartnomalarning so'mmasi AQSh dollariga aylantiriladi. Undan keyin shartnomalarning dollardagi qiymati Markaziy bankning birja kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi. Tijorat banki xodimlari tomonidan Markaziy bankka moliyaviy hisobot topshirilayotgan paytda ularning pozitsion hisobraqamida, ya'ni 17101-hisobraqamida qoldiq bo'lmasligi lozim.

Muddatli valyuta operatsiyalarining ikkinchi shakli valyuta opsiyonlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor buxgalteriya o'tkazmalarini to'g'ri rasmiylashtirilganligiga, operatsiyalarning daromadlilikiga va mazkur operatsiyalardan ko'rilgan zararlarni baholashga qaratiladi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan berilgan kol opsiyonlar alohida, put opsiyonlar alohida baholanadi.

Kol opsiyonlar ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi. Put opsiyonlar esa, ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

Valyuta opsiyonlari valyuta forvard operatsiyalaridan farqli ravishda o'z egasiga majburiyat yuklamaydi, balki faqat huquq beradi. Shuning uchun ham valyuta opsiyonlari valyuta riskidan 100% himoyalaniish imkonini beradigan yagona moliyaviy instrument hisoblanadi.

Valyuta opsiyonlarining uch standarti mavjud bo'lib, ularni bank auditi jarayonida hisobga olish shart hisoblanadi. Chunki bu standartlar risk darajasiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanadi.

Valyuta opsiyonlarining birinchi standarti evropa standarti deb ataladi va bu opsiyonlar o'z egasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so'ng opsiyondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta opsiyonlarining ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va mazkur opsiyonlar o'z egasiga opsiyon shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiyondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsiyonlarining amerika standartida risk darajasi evropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi va shu sababli, ularning ustama darajasi yuqori bo'ladi.

Valyuta opsiyonlarining uchinchi standarti – bu Bermud standartidir. Ushbu standartdagi opsiyonlardan faqat opsiyon shartnomasi muddatining ma'lum bir davrida foydalanish mumkin.

Tijorat banklarining valyuta opsiyonlaridan oladigan daromadlari 45404-hisobraqamining kreditida, opsiyonlardan ko'rilgan zararlar esa, 55306-hisobraqamining debetida hisobga olinadi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining uchinchi shakli valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta fyucherslari valyutalarni sotib olish yoki sotish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, ular bo'yicha hisob-kitoblar faqat kliring palatalari orqali amalga oshiriladi. Kliring palatalari tijorat banklaridan avans to'lovlari o'tkazishni talab qiladi. Avans to'lovlari fyucherslar yuzasidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlash

maqsadda o'tkaziladi. Valyuta fyucherslari valyuta optsionlaridan farqli ravishda ishtirok etuvchi tomonlarga majburiyat yuklaydi. Valyuta optsionlarining egalarida esa, huquq bor, ammo majburiyat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar (valyuta derivativlari) chet el valyutasi oldi-sotdisi bo'yicha shartnomalar bo'lib, ularda belgilangan majburiyatlardan muayyan muddat o'tgach yoki chet el valyutasining qiymatiga yoxud uning kursi o'zgarishiga bog'liq ravishda bajarilishi mumkin.

Chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar bo'yicha operatsiyalar:

-vakolatli banklar tomonidan o'zaro yoki chet el banklari bilan cheklovlarsiz, ochiq valyuta mavqei limiti doirasida;

-agar shartnoma tuzish joriy xalqaro operatsiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lsa, banklarning mijozlari tomonidan vakolatli banklar orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizning tijorat banklarida, shu jumladan, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining faoliyatida valyuta optsionlari va fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar mavjud emas.

Agar forvard operatsiyalari natijasida valyuta turi bo'yicha qisqa valyuta pozitsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tijorat bankining xodimlari o'sha valyutani sotib olish bo'yicha forvard shartnomasi tuzishlari zarur. Agar forvard operatsiyalari natijasida valyuta turi bo'yicha uzun valyuta pozitsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, u holda tijorat bankining xodimlari o'sha valyutani sotish bo'yicha forvard shartnomasi tuzishlari zarur.

Agar tijorat bankida valyuta optsionlari bo'yicha qisqa pozitsiya yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bank emitent sifatida kol optsionlar so'mmasini ko'paytirishi lozim. Agar tijorat bankida valyuta optsionlari bo'yicha uzun pozitsiya yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bank emitent sifatida put optsionlar so'mmasini ko'paytirishi lozim.

Valyuta fyucherslari bo'yicha yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni yopish yoki qisqartirish maqsadida qisqa pozitsiya yuzaga kelgan valyutalarni sotib olish borasida fyuchers shartnomalari tuzish maqsadga muvofiqdir. Agar tijorat banki fyuchers shartnomalari bo'yicha ma'lum bir valyutada uzun pozitsiyaga ega bo'lsa, u holda ushbu valyutani sotish xususida fyuchers shartnomasini tuzish talab etiladi.

Muddatli valyuta operatsiyalarining hajmi sezilarli darajada katta bo'lganda ularning tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasiga ta'siri kuchli bo'ladi.

4. Tijorat banklarining haqiqatda amalga oshirilmagan forvard operatsiyalari hajmini aniqlash.

Bank amaliyotida mutlaqo amalga oshirilmagan yoki muddatida amalga oshirilmagan forvard operatsiyalarining mavjudligi tabiiy holat hisoblanadi. Chunki forvard shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlardan biri shartnoma muddati tugagan paytda to'lovga noqobil bo'lib qolishi mumkin. Bunga yorqin misol qilib, Rossiya Federatsiyasida 1997-yilda yuz bergan moliyaviy inqirozni keltirish mumkin. Moliyaviy inqiroz natijasida Rossiyaning bir qator tijorat banklari xorijiy banklar oldidagi forvard shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajara olmadilar. Chunki inqiroz natijasida ko'plab tijorat banklarida likvidlilik muammosi yuzaga keldi va buning oqibatida banklar balansining nolikvidliliyi yuz berdi.

Rossiya tijorat banklarining nolikvidliliyi natijasida xorijiy banklar forvard shartnomasi bo'yicha olishi lozim bo'lgan valyuta mablag'larini ololmay qoldilar. Rossiya rublining kursini keskin pasayishi natijasida valyutalarni sotib olish maqsadida tuzilgan forvard shartnomalari bo'yicha xorijiy banklarning balansida yirik miqdorda realizatsiya qilinmagan foyda yuzaga keldi va bu so'mmalar forvard shartnomalarining muddati tugashi bilan zararga aylandi.

Rossiya rublining kursini keskin pasayishi natijasida AQSh dollari va boshqa xorijiy valyutalarni sotish yuzasidan tuzilgan forvard shartnomalari bo'yicha Rossiya banklarida yirik miqdorda zarar yuzaga keldi. Muddati kelmayan forvard valyuta shartnomalari bo'yicha esa, ujdada yirik miqdorda realizatsiya qilinmagan zarar yuzaga keldi. Natijada, bir tomondan, muddatli valyuta operatsiyalarining tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyasiga nisbatan salbiy ta'siri yuzaga keldi; ikkinchi tomondan esa, tijorat banklarining forvard operatsiyalari bilan bog'liq holatda moliyaviy holatini yomonlashishi yuz berdi.

6.4. Tijorat banklarining svop operatsiyalari

Iqtisodiy adabiyotlarda svop operatsiyalarining mazmuni xususida munozarali fikr va mulohazalar mavjud emas. Svop operatsiyalari deganda, odatda, ma'lum bir valyutani spot sharti bo'yicha sotish va uni forvard sharti bo'yicha sotib olish tushuniladi yoki valyutani forvard sharti bo'yicha sotish va spot sharti bo'yicha sotib olish tushuniladi.

Svop operatsiyalari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish;

- likvidlilikni boshqarish;

- ochiq valyuta pozitsiyasini qisqartirish.

Shunisi xarakterliki, svop operatsiyalari valyuta zahiralarini valyuta riskidan ishonchli tarzda himoya qiladi, ammo yuqori daromad keltirmaydi. Chunki bu operatsiyalarda doimo ikkita bir-bitiga qarama-qarshi operatsiya mavjud bo'ladi.

Tijorat banklarining svop operatsiyalarini tekshirishda va baholashda svopga xos bo'lgan har ikkala shartni to'g'ri amalga oshirilganligiga e'tibor beriladi. Ya'ni valyutani spot sharti bo'yicha sotilganligi va forvard sharti bo'yicha sotib olinganligi yoki valyutani forvard sharti bo'yicha sotilganligi va spot sharti bo'yicha sotib olinganligi tekshiriladi.

Svop operatsiyalari respublikamizning bir qator tijorat banklarida, shu jumladan, TIF Milliy bankida, «Asaka» bankida mavjuddir.

Svop operatsiyalari bo'yicha tijorat banklarining «Nostro» vakillik hisobvaraqlaridagi ortiqcha valyuta mablag'larini joylashtirish valyuta riskini boshqarishning samarali usuli hisoblanadi. Har qanday tijorat banki xorijiy valyutadagi ortiqcha mablag'larni svop operatsiyasi bo'yicha joylashtirish uchun to'rtta ketma-ketlikdagi operatsiyani bajaradi. Biz bu operatsiyalarni aniq bir misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Misol. Aytaylik, TIF Milliy bankining AQSh dollaridagi Nostro vakillik hisobvarag'ining minimal ishchi qoldig'i 2,0 mln dollarni tashkil etadi. AQShning «CitiCorp» banki TIF Milliy bankining muddatli depozitlari bo'yicha 100 ming dollar miqdorida foiz to'ladi. Bizga ma'lumki, depozitlar uchun to'langan foizlar tijorat banki «Nostro» vakillik hisobraqamining debetida aks ettiriladi. Demak, TIF Milliy bankining AQShning «CitiCorp» bankidagi «Nostro» vakillik hisobraqamining minimal ishchi qoldig'i 100 ming dollarga ko'paydi va 2,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Ana shu 100 ming dollar miqdoridagi bank vakillik hisobraqamining ortiqcha qoldig'ini svop bo'yicha joylashtirish uchun quyidagi to'rt operatsiyani bajaramiz:

1. TIF Milliy bankining xodimlari 100 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni etakchi, valyuta kursi barqaror bo'lgan valyutalardan biriga spot sharti bo'yicha sotadi. Aytaylik, bank bu operatsiyani 2005-yilning 10 may kuni amalga oshirdi. Ya'ni, 100 ming dollar spot sharti bo'yicha Shveysariya frankiga sotildi. Spot kurs: 1 dollar q 1,4790 frank. Natijada TIF Milliy banki 12 may kuni 147900

shveytsar franki miqdoridagi tushumga ega bo'лади. Mazkur operatsiyadan keyin TIF Milliy bankining AQShning «CitiCorp» bankidagi «Nostro» vakillik raqami 100 ming dollarga kreditlanadi, uning dollardagi pozitsion hisobraqami ana shu so'mmaga debetlanadi.

2. TIF Milliy banki 147900 frank miqdoridagi tushumni Shveytsariyaning «Kredit Swiss» bankiga muddatli depozit sifatida joylashtiradi. Muddatli depozitning muddatini 3 oy deb oladigan bo'lsak, bu muddat 12 avgustda tugaydi.

3. TIF Milliy banki xorijiy bank bilan 100 ming AQSh dollari sotib olish uchun 3 oylik forvard shartnomasini tuzadi. Forvard shartnomasining muddati 2005-yilning 12 avgustida tugaydi. Muddatli depozit shartnomasi bilan forvard shartnomasining muddati mos kelishi lozim.

4. TIF Milliy banki 2005-yilning 12 avgustida Shveytsariya frankidagi muddatli depozitni hisoblangan foizlari bilan birgalikda qaytarib oladi va bu so'mma hisobidan 100 AQSh dollarini forvard kursi bo'yicha sotib oladi.

Valyuta operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida tijorat banklarining valyuta mablag'larini svop bo'yicha joylashtirish operatsiyalarini to'g'ri amalga oshirilganligi tekshirish, muddatli valyuta operatsiyalarining bankning ochiq valyuta pozitsiyasiga ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tahlil jarayonida tijorat banki valyuta pozitsiyasining umumiy miqdorini qancha qismini muddatli valyuta operatsiyalari hisobiga shakllanganligini aniqlab olish lozim. Undan keyin esa, har bir valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyalarining muddatli valyuta operatsiyalari hisobiga shakllanganligi aniqlaymiz.

Svop operatsiyalari 6 oydan 15-yilgacha muddatga amalga oshiriladi.

Ammo 1-yildan 4-yilgacha muddatga amalga oshiriladigan svop operatsiyalari keng qo'llaniladi.

Agar svop operatsiyasi bitta bank bilan amalga oshirilsa, bu sof svop (pure swap) deb ataladi.

Svop bozori 1981-yilda paydo bo'ldi. Unga qadar svop bozori mavjud emas edi.

Svop bozori birjadan tashqari bozor bo'lib, davlat tomonidan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining valyutaviy svop operatsiyalari «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 28-iyundagi 15/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 24-iyulda 1839-son bilan ro'yxatga olingan va 2011-yil 3-iyunda 1839-1-son bilan qo'shimcha kiritilgan.

Nizomga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda chet el valyutasi sifatida AQSh dollari, evro, Angliya funt sterlingi, Shveysariya franki va Yaponiya ienasidan foydalaniladi;

- valyutaviy svop operatsiyasi so'm va chet el valyutasi bilan, shuningdek, ikki chet el valyutasi bilan amalga oshiriladi;

- Markaziy bank bilan vakolatli banklar o'rtasidagi, shuningdek, vakolatli banklarning o'zaro valyutaviy svop operatsiyalari Savdo tizimida tuziladi va bajariladi

-vakolatli banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi valyutaviy svop operatsiyalari bevosita banklarda amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga muvofiq:

- so'm bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi miqdorida yoki O'zbekiston banklari assotsiatsiyasining banklararo kredit stavkasi bo'yicha o'rnatilishi mumkin;

- dollar, funt sterling, ien bo'yicha foiz stavkalari sifatida mazkur mamlakatlar Markaziy banklarining qayta moliyalash stavkalari olinadi;

- Shveysariya franki bo'yicha foiz stavkasi sifatida 3 oylik LIBOR olinadi.

6.5. Banklarda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish tartibi va unga qo'yiladigan talablar

Markaziy bank Boshqaruvining 2008-yil 28-iyundagi 15/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom»da valyuta pozitsiyasi va ochiq valyuta pozitsiyasiga quyidagicha ta'riflar berilgan.

Valyuta pozitsiyasi – vakolatli bank tomonidan chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyasini, shuningdek, boshqa operatsiyalarni amalga oshirish natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablar yoki majburiyatlarning o'zgarishiga olib keladigan vakolatli bankning chet el

valyutasidagi aktivlari (talablari) yoki majburiyatlari o'rtasidagi nisbatini ifodalaydigan ko'rsatkich.

Ochiq valyuta pozitsiyasi – bu vakolatli bankning chet el valyutasidagi talablari uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasiga mos (teng) bo'lmagan holatdagi valyuta pozitsiyasidir.

Ochiq valyuta pozitsiyasi limiti – har bir chet el valyutasi bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan alohida va bankning ochiq valyuta pozitsiyasi va regulyativ kapitali qiymat kattaligiga Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan cheklovlardir.

Vakolatli banklar valyutaviy svop operatsiyasini amalga oshirishda Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan ochiq valyuta pozitsiyasi limitlari:

- chet el valyutasining har bir turi bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi;
- ochiq valyuta pozitsiyalari qiymat kattaligiga rioya qilishlari lozim.

Hohlagan bir valyuta bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi deganda bankning shu xorijiy valyuta bo'yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi va u uzun valyuta pozitsiyasi deb yuritiladi. Bank valyutani sotib olganda u uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo'ladi va uni shu valyuta bo'yicha boshqalar oldida talabi oshadi, sababi sotgan tomon valyutani etkazib berish majburiyatini olgan.

Valyuta operatsiyalari jarayoni¹

16-jadval

	Shartnoma	Jarayonning nomlanishi	Qatnashuvchilar nomlari
Sotib olish	buy	long	bull
Sotish	sell	short	bear

Aksincha, shu valyuta bo'yicha majburiyatlarning aktivlardan oshsa, ya'ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'lsa valyuta pozitsiyasi qisqa bo'ladi. Xorijiy valyuta sotganda qisqa valyuta pozitsiyasi yuzaga keladi, sababi valyutani sotib olgan tomongan etkazib berish majburiyati shakllanadi.

Agar valyuta bo'yicha talablar va majburiyatlar teng bo'lsa valyuta pozitsiyasi yopiq bo'ladi.

¹ <http://www.finkredit.com> – sayti ma'lumotlari.

Valyuta pozitsiyasining umumiy holati(summasi) deganda barcha valyutalar bo'yicha uchun(qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi.

Agar bank operatsion kun davomida valyuta operatsiyalarini olib borishda ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha qo'yilgan limitdan ortiq operatsiya amalga oshirgan, ya'ni valyutani ko'p sotib olgan bo'lsa bo'lsa, u holda valyuta pozitsiyasi ortiq sotib olingan valyutani sotib yuborish yo'li bilan balanslashtirib yopiladi.

O'zbekistonda vakolatli banklar har oyda oyning 3chi kunigacha Markaziy Bankka o'zlarining ochiq operatsiyalari va unga rioya qilinganligi to'g'risida hisobot berishlari lozim.

Tijorat banklari litsenziya olganlaridan keyin valyuta operatsiyalarini amalga oshirayotib, ular balans ko'rsatkichlari asosida, har bir valyutada alohida amalga oshirgan operatsiyalari bo'yicha ushbu valyutada talab yoki majburiyatga ega bo'ladilar. Tijorat bankida bu kabi ochiq valyuta holatlari bo'yicha Markaziy bankning «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilish» Qoidalari batafsil yoritib beradi. Shu jumladan, mazkur holatda uchraydigan atamalar (uzun, qisqa, umumlashgan pozitsiyalar, talab va majburiyat, valyuta pozitsiyasi limiti, regulyativ kapital va boshqalar), ochiq valyuta pozitsiyasini hisoblash usuli, joriy paytda amal qilayotgan valyuta pozitsiyasi limiti miqdori, vakolatli banklarning bu borada olib boradigan hisoboti tartibi ko'rsatilgan.

Tijorat banki valyuta operatsiyalarida yuzaga keladigan noxush holatlar riskidan saqlanishda qo'llanadigan asosiy me'yoriy hujjat «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilish» Qoidalari 2005-yil 28-mayda yangitdan tahrir qilindi. Unga ko'ra, alohida valyuta bo'yicha bajarilgan operatsiyalarga avval amal qilgan me'yor, ya'ni 5% li cheklov 10%gacha oshirildi, barcha valyutalar bo'yicha operatsiyalarga nisbatan 20% cheklov amal qilishi davom ettirildi.

Banklarda valyuta pozitsiyasini aniqlashga doir quyidagi misolni keltirib o'tmoqchimiz.

Mazkur misolda «A» bankning AQSh dollari bo'yicha umumiy risk miqdori 2.360.843 dollarni tashkil etmoqda.

Valyuta pozitsiyasiga limit har bir davlatda uning iqtisodiyotining holati va mamlakatning moliyaviy tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib o'rnatilishi ma'lum. Quyida keltirilgan ma'lumotlar bunga yorqin dalil bo'ladi.

«A» bankning joriy valyuta pozitsiyasi¹

17-jadval

Valyuta	Uzun pozitsiya	Qisqa pozitsiya	AQSh dollari kursi
Funt sterling	3.127.000 dol.	2.000.000	1,5635
Evro	4.632.500 dol.	5.000.000	0,9265
Shveyts.frank	4.000.000	2.816.901 dol.	1,4200
Yaponiya iena	300.000.000	2.581.756 dol.	116,2

Quyidagi keltirilgan davlatlarda ochiq valyuta pozitsiyasiga quyidagicha miqdorda belgilangan: ¹

1. Avstriya (1997-yil 31-dekabr holatiga): bir valyuta turi bo'yicha kun davomida 30% va umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 50% qilib belgilangan;

2. Xitoy (1998-yil 31-yanvar holatiga): kun davomida moliya institutlari xorijiy valyutani oldi-sotdi qilishlarida kapitalga nisbatan 20% hajmdan oshirmasliklari lozim. Shu bilan birga, kunning oxirida, ya'ni valyuta pozitsiyalarini yopishda kapitalga nisbatan 1% miqdorda ochiq limit ushlashga ruxsat etilgan;

3. Buyuk Britaniya (1997-yil 31-dekabr holatiga): bu yerda ochiq valyuta pozitsiyasiga qat'iy limit o'rnatilmagan. Lekin, faqat foizsiz depozitlarning 0,35%i Angliya bankida saqlanishi ko'zda tutilgan;

4. Avstraliya (1998-yil 31-mart holatiga): 1998-yil 27-martdan ochiq valyuta pozitsiyalariga limitni o'rnatish tashqi valyuta bozorida ishtirok etuvchi dilerlarga vakolat berilgan;

5. Shvetsiya: (1997-yil 31-dekabr holatiga): bir valyuta turi bo'yicha kun davomida 15% va umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 30% qilib belgilangan;

6. Vetnam: (1997-yil 31-dekabr holatiga): kapitalga nisbatan umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 15% limit belgilangan;

7. Litva: (1997-yil 31-dekabr holatiga): bir valyuta turi bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi bankning kapitaliga nisbatan 20% va umumiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 30% dan oshmasligi belgilangan;

¹ «A» bankning hisobot materiallari asosida hisoblandi.

8. Evropaning ba'zi davlatlarida (1997-yil 31-dekabr holatiga): Ochiq valyuta pozitsiyalari Evropa Hamjamiyatining direktivalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida moliya-bank tizimini valyuta sohasidagi inqirozlardan saqlash, shuningdek, valyuta risklarini minimallashtirish uchun ochiq valyuta pozitsiyasi me'yorlarini Markaziy bank Boshqaruvida qabul qilingan «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi qoidalari» belgilab beradi.

Tayanch so'z va iboralar

Bitim valyutasi, baholovchi valyuta, birja kursi, valyuta, valyutaviy qiymatlik, valyuta fyuchersi, valyuta opsiioni, diskont, xorijiy valyuta, realizatsiya qilinmagan foyda, realizatsiya qilinmagan zarar, spot, svop, sof svop, forvard, fiksing, ustama.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Spot operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
3. Spot kursni aniqlashning qanday usullari mavjud?
4. Spot operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijalar qanday aniqlanadi?
5. Forvard operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
6. Forvard kursi qanday qanday aniqlanadi?
7. Forvard kursi va spot kurs o'rtasida farqning yuzaga kelishi qaysi omilga bog'liq?
8. Valyuta opsiioni nima?
9. Valyuta fyuchersi nima va u valyuta opsiionidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
10. Svop nima va uning qanday turlari mavjud?
11. Tijorat banklarining «Nostro» vakillik hisob raqamidagi valyuta mablag'larini qanday qilib svop bo'yicha joylashtirish mumkin?

VII BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

7.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalarini tashkil etishning nazariy asoslari


Tijorat banklari pul mablag'larni yuridik va jismoniy shaxslardan jalb qiladi va ularni daromad olish maqsadida joylashtiradi. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida emitent va investor sifatida ishtirok etadi. Bu esa, qimmatli qog'ozlar bozori, mablag'larni joylashtirishda kredit bozoriga raqobatchi risk darajasi past va barqaror daromad keltiruvchi manba ekanligini ko'rsatadi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar resurslarini joylashtirish bilan bog'liq faoliyati aktiv operatsiya hisoblanib, tijorat bankining likvidligi va daromadligini muvofiqlashtirib turadi.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini nazariy nuqtai-nazardan ko'rib chiqishni, bankning o'ziga ta'rif berishdan boshlaylik. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida shunday ta'rif berilgan. «...yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish...». Ushbu mazmundagi ta'rifni boshqa adabiyotlarda ham uchratishimiz mumkin.

Ta'rifda belgilab o'tilgan – «...qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish...» ko'rsatmasi banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib borishidagi nazariy hamda huquqiy asos deb ayta olamiz. Chunki bank omonatlarni jalb qilib, uning evaziga qimmatli qog'ozlarni sotib oladi. Bu aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va boshqalardir. Keyingi ko'rsatmasi – «... ularni qaytarishlik, to'lashlik va muddatlilik shartlari asosida o'z nomidan joylashtirish...», bu yerda banklar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish evaziga yig'ilgan mablag'lardan kreditlar beradi yoki boshqa obyektlarga (boshqa qimmatli qog'ozlarga bo'lishi mumkin) investitsiya qiladi. «... to'lovlarni amalga oshirish...», - bu yerda ham banklar qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz, dividend va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bankka berilgan ta'rifdagi barcha ko'rsatmalar banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan ham emission, ham investitsion, qolaversa to'lovlarni amalga oshirishda vositachilik operatsiyalarini asosini tashkil qilgan ekan.

Tijorat banklari universal moliya-kredit institutlari bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari hisoblanadi. Turli mamlakatlarda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni turlichadir. Lekin, shuni aytish kerakki, tijorat banklarining milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorlari bilan o'zaro munosabatlarining amaliy jihatdan bog'liqligi bo'lgandek umumiy nazariy bog'liq tomonlari ham bor.



11-rasm. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini tasnifi.

Jahon amaliyotida 50-yillarning oxiridan boshlab tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoriga ham bevosita, ham bilvosita yo'llar bilan ta'siri va kirib borishi kuzatilgan. Tijorat banklarining o'rni qimmatli qog'ozlar bozorida qonun bilan chegaralangan mamlakatlarda (Yaponiya, AQSh, Kanada va boshqalar) ular trust operatsiyalari, brokerlik firmalari bilan hamkorlik, investitsion kompaniyalar va banklarni kreditlash kabilar orqali investitsion va vositachilik faoliyatlari bilan shug'ullanish uchun aylanma yo'llar qidirib topmoqda. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda keng faoliyatni AQSh, Angliya va Germaniya tijorat banklari yuritmoqda. Bunda banklarga qonun tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan barcha operatsiyalarni amalga oshirish ruxsat berilgan, ya'ni ular emitentlar (asosan obligatsiyalarni muomalaga chiqarish), vositachilar va qolaversa yirik investorlar sifatida ishtirok etadilar).

Har qanday mamlakatning qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning roli oshishi asosiy omili bo'lib - o'sha mamlakat xo'jalik subyektlarining moliyaviy resurslardan keng doirada foydalanishini ta'minlovchi hamda yuqori innovatsion-investitsion faoliyati va ularning moliyaviy risklarini sug'urtalash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlab beruvchi zamonaviy va sifatli bank xizmatiga bo'lgan talabining-yil sayin oshib borayotgani hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarda hozirgi davrga kelib tijorat banklarining investitsion faoliyati va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan tushayotgan daromadlari foydaning shakllanishida tobora sezilarli rol uynamoqda.


Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat shakllarini kengayishi va diversifikatsiyalanishi tijorat banklari boshchiligidagi yirik moliya-bank gruppalarining tashkil bo'lishiga olib keldi. Ular o'z atrofida investitsion fondlar, brokerlik firmalari, trust kompaniyalar, konsultatsion firmalar va hokazolar kabi nisbatan mustaqil tarkibiy bo'linmalarining yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

Tijorat banklari xorijiy mamlakatlarda investitsion-bank filiallari va shu'ba korxonalarini tashkil qilib, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqib bormoqda. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari qonun tomonidan tug'ridan-tug'ri chegaralangan mamlakatlarning, aynan usha banklar tomonidan ochilgan xorijiy filiallarining investitsion faoliyati doirasi tobora kengayib bormoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatining yangi shakli sifatida - u yoki bu moliya aktivlariga kapitalni investitsiya qilish bilan bog'liq qator masalalar bo'yicha konsultatsion xizmatlar ko'rsatish

bozorni kimb kelmoqda. Konsultatsion xizmatlar ko'rsatish-turli aktiv-
larning daromadi va risklari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini chuqur taxlil qilish
hamda mijozlar uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olish algoritmi va
qimmatli qog'ozlar portfelini uning daromad dinamikasini hisobga olgan
holda shakllantirish kabilarni amalga oshiruvchi bankning ichki
informatsion tizimiga tayanadi.

Aytib o'tganimizdek, tijorat banklari o'z aksiyalari, obligatsiyalari,
veksellari, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan
emitent sifatida, shuningdek o'z hisobidan qimmatli qog'ozlar sotib
oluvchi investor sifatida gavdalanadi. Qolaversa, komission rag'batlan-
tirish evaziga qimmatli qog'ozlar bilan vositachilik operatsiyalarini
amalga oshirish huquqiga egadir.



**12-rasm. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati
yo'nalishlari.**

Tijorat banklari tomonidan o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishi
orqali moliyaviy resurslar jalb qilinadi hamda o'z va qarz mablag'lari
shakllantiriladi. Investitsion va vositachilik faoliyatlari resurslarni
joylashtirish orqali va vositachilik xizmatlarini ko'rsatish orqali daromad
olishga harakat qiladi.

Tijorat banklarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular fond
bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, ushbu bozorda
salmuqli investor va eng ishonchli emitent hisoblanadi. Rivojlangan
bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiya kompaniyalari aktivlari-
ning 40-80 foizi bank kapitallari hisobidan ta'minlanishini hisobga olsak,

qimmatli qog'ozlar bilan o'tkazilgan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa, bank foydasini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

A.Koltinyuk o'zining «Ринок ценных бумаг» darsligida «investitsion maqsad, daromadlilik va risk boshqarilsa, qo'yilgan investitsion maqsadga asosan bir yoki bir necha xil qimmatli qog'ozlarni sotib olish ehtiyoji tug'iladi. Mazkur holatlar esa umumiylikda aniq bir kontsentratsiyaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar to'plamini tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlarning mazkur to'plami esa investitsion portfel» deb atalishni ta'kidlaydi.¹

Investitsiyalash – bu pullarni ular qiymatining oshishi yoki ma'lum miqdorda daromad keltirishi maqsadida u yoki bu moliyaviy vositalarga kiritish jarayonidir². Investitsion portfel - bu bir yoki bir necha maqsadlarni ko'zlagan holda hisob-kitoblar asosida tanlab olinadigan moliyaviy instrumentlar yig'indisidir³. Dj.Lorensning tijorat banklari investitsion portfeli xususidagi qarashlari A.Koltinyukning fikrlari hamohang bo'lib, bir-birin to'ldiradi.

E.Jukov banklarning investitsion operatsiyalariga quyidagicha ta'rif beradi «Investitsion operatsiyalar – bu banklar mablag'larini qimmatli qog'ozlarga kiritish hisoblanib, banklarning ma'lum miqdorda daromadlilik va likvidlilikni saqlab turishga asos bo'ladi.⁴

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari tomonidan mablag'larni qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilishi iqtisodiyotni moliyalashtirish va rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi.

Tijorat banklari investitsion siyosati orqali qimmatli qog'ozlarga mablag'larni yo'naltirishda quyidagilarni ta'minlashga erishishi lozim:

1. Qimmatli qog'ozlardan foiz ko'rinishida qo'shimcha daromad olish.

2. Yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali daromad keltiruvchi likvid aktivlari salmog'ini oshirish va shu orqali bank likvidlilikini oshirish.

3. Qimmatli qog'ozlarga resurslarni joylashtirish orqali bank faoliyatidagi risklarni pasaytirish.

¹Колтинюк Б.А. «Ринок ценных бумаг» учебник 2-е издание, издательство В.А. Михайлова «Санкт-Петербург»-2001г.

² Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д.Джонк «Основы инвестирования» М: – Издательство «Дело» - 1997г. -18ст.

³ Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д.Джонк «Основы инвестирования» М: – Издательство «Дело» - 1997г. -21ст.

⁴ «Банки и небанковские кредитные организации и их операции» Учебник под ред. д.э.н., проф., академика РАЕН Э.Ф. Жукова, Москва «Вузовский учебник» - ВЗФЕИ – 2005г. 172ст.

Investitsion qimmatli qog'ozlar bozor narxining o'sishi yoki foiz daromadi ko'rinishida daromad keltiradilar. Portfel daromadliligi berilgan vaqt oralig'i bilan bog'liq xarakteristikasidir. Bu oraliq cheksiz bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishda o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- foiz ko'rinishida qo'shimcha daromad olish;
- kapitalni saqlash va uning asosidagi qimmatli qog'ozlarning kurs qiymatini ortishi hisobiga kapitalni oshirish;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha risklarni pasaytirish.

Tijorat banklari o'zlarining bo'lajak investitsiya siyosatini ishlab chiqishda va investitsiya portfeli hajmi hamda uning tarkibini aniqlashda eng avvalo ular qimmatli qog'ozlarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlariga e'tiborni qaratadilar:

- foydalilik;
- likvidlilik (samaradorlik);
- kapitalni oshirish manbai;
- ishonchlilik darajasi;
- risk.

Tijorat banki – avvalambor, moliya bozorida operatsiyalar o'tkazish yo'li bilan foyda olish maqsadini ko'zlagan tadbirkorlik faoliyatining subyektidir. Bu maqsadga erishish banklarning xo'jalik subyektlariga ma'lum bir qator o'ziga xos moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Zamonaviy yirik tijorat banklari xo'jalik subyektlariga ko'plab turli xizmatlar ko'rsatadilar. Bularga - mijozlar aktivlarini ishonchli boshqarish, ya'ni trust operatsiyalari, moliya bozorida brokerlik xizmatlarini ko'rsatish, depozitga mablag'lar jalb qilish va plastik kartochkalarni emissiyasi, kreditlar berish va oldi-sotdi operatsiyalar, depozitar hisob yuritish va qimmatli qog'ozlar anderraytingi, qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun seyflarni ijaraga berish, konsalting xizmatlar ko'rsatish va boshqalar kiradi.

Hammaga ma'lumki, tijorat banklarining nisbatan fundamental vazifasi - ayni davrda ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lgan iqtisodiyotning subyektlaridan, qo'shimcha moliyalashtirishga talabi bor iqtisodiyotning boshqa subyektlariga pul mablag'larini qayta taqsimlashdan iboratdir. Shunday ekan, banklar pul mablag'larini jalb qilib, o'zlariga ishlatish uchun emas, balki oxir oqibatda iqtisodiyotning boshqa subyektlari tomonidan ishlatilishiga vositachilik qiladilar. Bunda banklar

mijozlar topshirig'i bilan ularning pul mablag'larini joylashtiruvchi brokerlar sifatida gavdalanmasdan, balki mustaqil hal qiladilar. Bank vositachilarning maxsus turiga kiradi. U, mablag'larni jalb qilib, o'ziga majburiyat yaratib oladi. Lekin, bankdan shu pul mablag'larini olgan mijozning o'z majburiyatini bajarish-bajarmasligiga qaramasdan, bank o'zining bshqa mijozlar oldidagi majburiyatini bajarishi shartdir.

Tijorat banklari ham milliy, ham jahon xo'jaligi doirasida qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan aksariyat operatsiyalarining hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi tashkilotlar sifatida o'rtaga chiqib minimal muddat ichida savdo oborotiga xizmat ko'rsatish uchun tayyor bo'lgan iqtisodiyotning moliyaviy resurslarini eng harakatchan qismini o'zida mujassamlashtiradi. Bu resurslar qoida bo'yicha banklarning talab qilingunga qadar hisob raqamlarida jamlanadi.

Iqtisodiyotdagi mablag'larni qayta taqsimlovchi boshqa moliyaviy institutlardan banklarning mohiyatan olib qaraganda farqi - uning pul mablag'larini jalb qilish usulidadir. Masalan, investitsion fondlar o'z mijozlarining qo'yilmalari uchun foizlar to'lovini kafillamaydilar, chunki foizli to'lovlar investitsion fond faoliyatining natijasiga bog'liqdir. Ayrim paytlarda uning faoliyati natijasiz yoki salbiy natija bilan yakunlanishi mumkin. Shunga o'xshash hollar pensiya fondlarida ham uchraydi.

Shunday qilib, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari bo'yicha mulohazalarimizni jamlagan holda aytish kerakki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatning yangi, o'ziga xos alohida yo'nalishi -banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati paydo bo'lmoqda. U qimmatli qog'ozlar bilan emission, investitsion va vositachilik operatsiyalarini amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. Bu, professional jihatdan murakkab faoliyat bo'lib, chuqur iqtisodiy va yuridik bilimlarni, matematik va informatsion ta'minlanishini hamda qimmatli qog'ozlar bozorining yangi instrumentlari bilan ishlashda yuqori darajada amaliy tajribani talab qiladi. Bankning mohiyati va uning o'ziga xos funktsiyalari banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishiga nazariy tarafdin tug'ri keladi. Chunki banklar pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshiradi. Qimmatli qog'ozlar esa pul mablag'larining nusxa ko'rinishidir, ya'ni fiktiv kapitallardir. Bank tomonidan pul mablag'larini harakatga keltirishi natijasida uning mahsuloti yaratiladi — pulning ikkiga ko'paytmasi. Aynan shu ko'paytmasi, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida ham o'z ifodasini topadi.

Bu faoliyatni o'rganib chiqishda qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish va unda moliya institutlari ishtirokining bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham katta yordam beradi deb o'ylaymiz.

7.2. Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalarni amalga oshirishning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini yoritishda ularni 4 guruhga ajratib o'rganamiz. Ular quyidagilar:

1- bo'lim. Kodeks va qonunlar.

2- bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

3- bo'lim. Qonun osti hujjatlarni ishlab chiquvchi davlat organlari – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va boshqa shu kabi organlar tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riq-noma, nizom va tartiblar.

4- bo'lim. Tijorat banklari tomonidan mustaqil ishlab chiqiladigan ichki tartib va siyosatlari kiradi. Banklar ichki tartib va siyosatini amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqadi va o'z faoliyatida ulardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasida banklarning operatsiyalari «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonunga asosan belgilanadi. Qonunning 4-moddasiga ko'ra:

Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradilar:

a. jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;

b. omonatlarni jalb etish;

c. kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

d. Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunonchi:

e. mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;

f. chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;

g. pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;

h. uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;

i. uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

j. qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

k. bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

l. jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;

m. moliyaviy lizing;

n. xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Ushbu moddaning 4 ta bandi aynan banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Tijorat banklari shuningdek, investitsion operatsiyalarni amalga oshirishda qimmatli qog'ozlarga oid qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonunning 7-moddasiga binoan «Banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi». Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassasalari bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, tijorat banklari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunga asosan, ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni cheklanmaydi, yopiq aksiyadorlik jamiyatining muassislari esa kamida uch shaxsdan iborat qilib belgilanadi. Jamiyatning har bir muassisi uning aksiyadori bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan tijorat banklari investitsion vositachi sifatida qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni olib boradi. Mazkur qonunning 19-moddasiga asosan:

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat quyidagilar sifatida amalga oshiriladi:

- investitsiya vositachisi (brokeri, dileri);
- investitsiya maslahatchisi;
- investitsiya fondi;
- investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi;
- depozitariy;
- hisob-kitob - kliring palatasi;
- transfer-agent;
- qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Litsenziya talabgoriga uning arizasiga binoan qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalga oshirish uchun yoki mazkur faoliyat turining qismlari uchun litsenziya berilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borish uchun belgilangan cheklashlar hisobga olingan holda beriladi.

Faqat qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi bo'lgan kamida ikki xodimga ega yuridik shaxslar (investitsiya fondi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi uch-yil muddatga beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

«Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni 21-moddasida investitsiya vositachisining (brokerining, dilerining) faoliyati yoritilgan bo'lib unga ko'ra, vositachilik yoki topshiriq shartnomasi yoxud mijozning vositachisi yoki ishonchli vakili sifatida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish uchun berilgan ishonchnoma asosida ish olib boruvchi yuridik shaxs broker ekanligi belgilangan.

Mijozlarning bitimlar tuzish uchun brokerga berilgan qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari, shuningdek, broker tomonidan shartnomalar asosida mijozlar bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'lari brokerga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida va bankda ochadigan alohida hisobvaraqda turishi kerak.

Broker o'ziga mijozni tomonidan topshirilgan pul mablag'laridan, mijozga uning topshiriqlari ko'rsatib o'tilgan pul mablag'lari hisobidan bajarilishini yoki ular mijozning talabiga binoan qaytarilishini kafolatlagan holda o'z manfaatlarini ko'zlab foydalanishga, agar bu mijoz bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, haqlidir.

Brokerga pul mablag'laridan o'z manfaatlarini ko'zlab foydalanish huquqini bergan mijozlarning pul mablag'lari brokerga bunday huquqni bermagan mijozlarning pul mablag'lari turgan hisobvaraqdan alohida bo'lgan hisobvaraqda turishi kerak. Broker o'z pul mablag'larini bu hisobvaraqqa o'tkazishga haqli emas, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul mablag'larini mijozlarga qaytarish va mijozlarga qarz berish hollari bundan mustasno.

Broker har bir mijozning pul mablag'lari hisobini yuritishi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni faqat mijozning topshirig'iga binoan va u bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, amalga oshirilgan bitimlar va operatsiyalar to'g'risida unga hisobot berib borishi shart.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish narxini oshkora e'lon qilish orqali ushbu qimmatli qog'ozlarni o'zi e'lon qilgan narxlarda sotib olish va sotish majburiyati bilan o'z nomidan hamda o'z hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari tuzuvchi yuridik shaxs dilerdir. Diler qimmatli qog'ozlar narxidan tashqari ularga doir oldi-sotdi shartnomasining boshqa muhim shartlarini: sotib olinadigan va sotiladigan qimmatli qog'ozlarning eng kam va eng ko'p miqdorini, shuningdek e'lon qilingan narxlarning amalda bo'lish muddatini oshkora e'lon qilish huquqiga ega. Ushbu e'londa qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi shartnomasining boshqa muhim shartlari ko'rsatilmagan taqdirda, diler o'z mijozni taklif qilgan muhim shartlar asosida shartnoma tuzishi shart. Diler qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan bo'yin tovlagan taqdirda, unga nisbatan shunday shartnoma tuzishga majbur qilish haqida va mijozga etkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risida da'vo qo'zg'atilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 13-noyabrdagi «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat bankining investitsiyaviy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 998-sonli qaroriga muvofiq, «Asaka» Davlat-aksiyadorlik tijorat bankining investitsiya faoliyati sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida:

1. bankning o'z resurslarini safarbar qilish va ulardan, shuningdek, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun samarali foydalanish, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarib olinishini ta'minlash;

2. zamonaviy xorijiy yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega texnologiyalar va uskunalarni tatbiq etish asosida yangi sanoat ishlab chiqarishlarni tashkil etish hamda faoliyat yuritayotganlarini moderni-

zatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar mablag'larini jalb etish;

3. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi va ichki bozorlarda sotish istiqbollari chuqur tahlil qilish va loyihani amalga oshirishdan olinadigan moliyaviy samarani prognozlash asosida investitsiya loyihalarini tanlab olish, kompleks baholash va ekspertiza qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

4. zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish va barqaror ishlab chiqarish faoliyatini olib borishni, keyinchalik ularni strategik investorlarga sotish uchun tayyorlashni ta'minlaydigan krizisli boshqaruvning zamonaviy usul va mexanizmlaridan foydalanish;

5. mijozlarga, jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish negizida keng miqyosdagi bank va konsalting xizmatlarini ko'rsatish, korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarni tashqi va ichki bozorlarga olib chiqishda ko'rgazmalar, yarmarkalar tashkil etishda va boshqa shakllar orqali ko'maklashish;

6. ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash uchun zamonaviy yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega mashinalar, uskunalar, texnika va texnologiyalarni lizing shartlari asosida xarid qilishni ta'minlaydigan lizing operatsiyalarini kengaytirish;

7. investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha bank xodimlarini qayta tayyorlash sifati hamda malakasini yanada oshirish, tijorat banklarini bankning investitsiyaviy faoliyatini aktivlashtirish vazifalarini samarali echish qobiliyatiga ega, professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Ushbu jarayonda Asaka bank kapitallashuv darajasi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan oshirilib, uning investitsion faolligi jonlantirildi. Shunga o'xshash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 16-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq bankining kapitallashuvini yanada ko'paytirish va investitsion faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 986 sonli qaror, ««Paxta-bank» va «G'alla-bank» aksiyadorlik-tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2008-yil 8-oktyabrdagi 975-sonli qarori, «O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat-qurilish bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2008-yil 13-avgustdagi 944-sonli qarori misol bo'la oladi.

Banklarning mutlaq ko'pchiligi aksiyadorlik tusida bo'lganligi ham ularning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish muammolariga doimo qiziqib qarashga sabab bo'ladi, bu esa ularning o'z fond boyliklari bilan ham, shuningdek, boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan ham o'tkaziladigan ishlarni takomillashtirishga alohida e'tiborni keltirib chiqaradi.

Banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish asosida o'z ustav va aylanma fondlariga qo'shimcha resurslarni jalb qilish ehtiyoji kuchayib borishi ham ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faollashuvida muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar ham banklarning investitsion operatsiyalarini tartibga solish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari aksiyadorlik jamiyatlarning aksiyadorlarni sotib olgandan keyin, u bu jamiyatni moliyaviy holatini barqarorligini saqlab turishga majbur bo'lib qolishi ham mumkin. Chunki bu yerda bank tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni yo'qotish riski yuzaga chiqadi. Bunday holatlarni oldini olish uchun tijorat banklarini qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faoliyati bo'yicha ma'lum cheklovlar ko'zda tutilgan. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qilingan investitsiyalarni tartibga solish me'yorlari¹

18-jadval

Bitta emitent qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Bitta emitentning nodavlat qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	Maks 0,15
	I darajali kapital	
Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar umumiy miqdori	Maks 0,25
	I darajali kapital	
Ustav kapitali va boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal miqdori.	Ustav kapitali va boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar umumiy miqdori	Maks 0,50
	I darajali kapital	

¹ Norqobilov S.X. va boshq. «Xalqaro amaliyotda bank nazorati». T.: TMI. 2007.

Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va uning sho'ba tashkilotlari tomonidan investitsiya institutlaridan tashqari barcha tashkilotlarning ustav kapitalini 20 foizidan ortiq ulushiga egalik qilish ta'qiqlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida ta'kidlab o'tgan cheklovlar tijorat banklari tomonidan kredit garovi uchun qabul qilingan qimmatli qog'ozlarni sotish huquqiga qo'llanilmaydi. Bunday holatlarda, tijorat banklari garov uchun qabul qilingan qimmatli qog'ozlar yuzasidan huquqini bir oy davomida amalga oshirilishi lozim.

1. Tijorat banki tomonidan bitta korxonaning ustav kapitaliga va shu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qiladigan qo'yilmalar miqdori birinchi darajali tijorat bankining regulyativ kapitalini 15 foizidan ortmasligi kerak;

2. Tijorat banki tomonidan barcha emitentlarning ustav kapitaliga va ularning boshqa qimmatli qog'ozlariga qiladigan investitsiya qo'yilmalari miqdori regulyativ kapitalining 50 foizidan ortmasligi kerak;

3. Tijorat banki tomonidan nodavlat qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi uchun qo'yilmalari miqdori birinchi darajali tijorat bankining regulyativ kapitalining 25 foizidan ortmasligi kerak.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha kreditorlar yoki sug'urtachilar, depozitariy va kliring – hisob-kitob markazlari rovida qatnashchilari sifatida qatnashishlari mumkin. Jumladan, tijorat banklari qarz oluvchilardan berilayotgan qisqa muddatli kreditlar uchun garov sifatida qimmatli qog'ozlarni qabul qilish mumkin. Kreditlarga ko'rsatiladigan ko'pdan-ko'p xizmatlar orasida banklarning veksellar bilan o'tkazadigan operatsiyalari ham bor. Banklar mustaqil ravishda investitsiya va savdo portfelini shakllantirish tartibini o'rnatadi, shu bilan birga qimmatli qog'ozni bir portfeldan ikkinchisiga o'tkazishi mumkin. Odatda qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadni keltirmasa va keltirish kutilmasa, shuningdek u o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarib bo'lsa yoki moliyaviy resurslarni ishlatilishini yaxshiroq yo'llari paydo bo'lsa ular sotiladi.

Turli toifadagi investorlar uchun banklar mijozlarning investitsiya strategiyasini shakllantirishga, loyihani moliyalashni tashkil etishga ko'maklashishdan boshqa qimmatli qog'ozlar majmuini boshqarish va sotib olingan aksiyalarning dividendlarini olishgacha bo'lgan maslahat xizmatlarining ko'pgina turlarini ko'rsatishlari mumkin.

7.3. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish tartibi

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga asosan tijorat banklariga quyidagi faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat etilgan:

- qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish (veksellar, aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va hosilaviy qimmatli qog'ozlar - fyucherslar, opsiyonlar);
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish va saqlash, hamda ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;
- tovarlarni etkazib berish va xizmat ko'rsatishdan kelib chiqan talab huquqlarini qo'lga kiritish hamda shu talablarni bajarishda uchraydigan risklarni o'z zimmasiga olish, shu talab hujjatlari bo'yicha inkassatsiyani amalga oshirish;
- mijozlarning topshiriqlarini bajarish, ya'ni mablag'larni jalb qilish va joylashtirish, qimmatli qog'ozlarni boshqarish va mijozlarning topshirig'iga binoan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;
- bank faoliyati bilan bog'liq konsultatsion xizmatlar ko'rsatish.

Yuqoridagi faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun tijorat banklariga cheklanishlar qo'yilmaganligi sababli, ular O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida emitentlar, investorlar va vositachilar sifatida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan banklarning investitsiya qilishining asosiy obyekti bo'lib banklarga kafolatlangan qat'iy va barqaror daromad keltirayotgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari hisoblanadi. Tijorat banklari o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan resurslarini asosini davlat qisqa muddatli obligatsiyalarga joylashtirmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi tijorat banklari davlat qisqa muddatli obligatsiyaga investitsiya qilishda agressiv siyosat olib bormoqda, ya'ni obligatsiyalarning ikkilamchi bozorida kurslarning pasayishi va ko'tarilishi o'yinida qo'shimcha daromad topmoqda.

Mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash banklarga o'z aktivlarini diversifikatsiya qilish, bu bilan tavakkalchilikni pasaytirish va potentsial daromadlarni oshirish, shuningdek bank mijozlari omonatlarini xo'jalik yurituvchi subyektlar kapitallariga samarali investitsiyalash uchun safarbar qilish vositasida makroiqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishni rag'batlantirish imkonini beradi.

Banklar investitsiyalari qo'yilgan har qanday korxonada faoliyati monitoringi bo'yicha boshqarish tajribasiga ega bo'lishi shart, chunki investitsiyalarni amalga oshirishda prudentsial (oqilona) yondashuvni talab qiladigan investitsiyalar bilan bog'liq muayyai tavakkalchiliklar mavjud.

Banklar shuni anglashlari kerakki, ular korxonada aksiyalariga egalik qilib va unga kredit beradigan bo'lsalar, qarzdor moliyaviy qiyinchilikka uchragan hollarda ham o'z investitsiyalarini himoyalash maqsadida kreditlashni davom ettirishga majbur bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, banklar moliyaviy hamjamiyatda o'z obro'sini himoya qilish uchun korxonaning moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlashga majbur bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda banklar shuni inobatga olishlari lozimki, bank yo'qotishlari summasiga doir mavjud tavakkalchilik qisqa muddatli bo'lishiga qaramasdan, bu uning asosiy kapitaliga nisbatan juda yuqori bo'lishi mumkin. Bank qimmatli qog'ozlar emitenti bo'lgan korxonaning bankrotlikka uchrashi tufayli zarar ko'rishi mumkin, biroq bunday yo'qotishlarning asosiy sababi qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini noto'g'ri baholash va ularni uzoq vaqt saqlashdir. Bunday ahvol bank obro'sining tushishi hamda uning ahvolidan yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Banklar Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Litsenziyada banklar bajaradigan operatsiyalar ro'yxatida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan faoliyat maxsus qayd etilishi lozim.

Litsenziyada ko'rsatilgan operatsiyalar ro'yxatiga qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan faoliyatning kiritilishi banklar tomonidan quyidagi hujjatlarning topshirilishi asosida amalga oshiriladi:

- ariza;
- Bankning investitsiya siyosati to'g'risidagi Nizom;
- Bankning emissiya siyosati to'g'risidagi Nizom.

Qimmatli qog'ozlar bilan faoliyatni amalga oshirish uchun beriladigan ariza quyidagi axborotni o'z ichiga olishi lozim:

a) bank ushbu faoliyatni amalga oshirishda foydalanishni ko'zlayotgan, rejalashtirilayotgan faoliyat, siyosat va tadbirlarning batafsil bayoni;

b) ko'zda tutilayotgan foydaning bank kapitaliga nisbatan foizda ifodalangan miqdori yoki ushbu faoliyatdan kutilayotgan foyda;

v) bunday faoliyat ustidan olib boriladigan ichki nazorat turlari va ularga nisbatan qo'yiladigan talablar;

g) qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslar uchun bitimlar bo'yicha qarorlar qabul qilishga doir vakolatlar va cheklovlar;

d) qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari;

e) bank ichki hisobi va hisobotini yuritish;

j) qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar monitoringi bo'yicha axborot tizimiga nisbatan qo'yiladigan talablar va h.k.

Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan Investitsiya siyosatida quyidagimasalalar aks ettirilishi lozim:

a) investitsiya strategiyasi va maqsadlari (masalan, foyda olish, bankning qimmatli qog'ozlar emitentini boshqarishdagi ishtiroki, likvidlikni saqlash, garov talablariga mos kelish va h.k.);

b) bank mablag'larni investitsiyalashni rejalashtirayotgan qimmatli qog'ozlar turlari va shakllari, investitsiyalarni amalga oshirish muddatlari;

v) bank qaysi uslublar bilan quyidagilarni rejalashtirmoqda:

- emitentlar va ularning faoliyat sohalari bo'yicha aksiyalarni jamlashni chegaralash;

- qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarning xavfsizligini va ularning sifatini baholash;

- qimmatli qog'ozlar emitenti bo'lgan korxonalarining moliyaviy ahvolini va boshqarish tajribasini baholash;

- investitsiyalar diversifikatsiyasini amalga oshirish va h.k.

Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan Emissiyada quyidagi masalalar aks ettirilishi lozim:

a) emissiya faoliyati strategiyasi va maqsadlari (masalan, ustav kapitalini shakllantirish, likvidlikni saqlash, qarz mablag'larini jalb qilish va h.k.);

b) bank chiqarishni rejalashtirayotgan qimmatli qog'ozlar turlari va shakllari, emissiya muddatlari;

v) qimmatli qog'ozlar likvidligini va muomalada bo'lishini saqlab turish;

g) qarz majburiyatlarining o'z vaqtida qoplanishini ta'minlash va h.k.

Markaziy bankning Qimmatli qog'ozlar departamenti tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamentining talabiga ko'ra ikki hafta muddat ichida qimmatli

qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan faoliyatni Markaziy bank litsenziyasiga kiritish imkoniyati to'g'risida yozma tarzda xulosa beradi.

Qimmatli qog'ozlar departamentining xulosasi asosida Ttijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan faoliyatni Markaziy bank litsenziyasida ko'rsatilgan operatsiyalar ro'yxatiga kiritadi

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan hollarda qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

a) bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, shuningdek, ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan qo'yilmasi miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak. Ushbu me'yor bir emitentning ham «Investitsiyalar» hisobvaraqlari, ham «Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi» hisobvaraqlari bo'yicha nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmalarini hisobga olgan holda hisoblanadi;

b) bankning barcha emitentlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Bank boshqa banklarning ustav kapitalida (sho'ba va chet el kapitali ishtirokidagi banklarni tashkil etish hollari bundan mustasno), shuningdek, bank ustav kapitalining o'n yoki undan ortiq foiziga ega bo'lgan yuridik shaxsning ustav fondida ishtirok etish huquqiga ega emas.

Bank to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita (shu'ba korxonalar orqali) yuridik shaxs ustav fondining 26 foizidan ortiq qismiga egalik qila olmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) banklarning sug'urta va lizing tashkilotlari ustav fondidagi ishtiroki;

b) banklarning nobank kredit tashkilotlari ustav fondida, shuningdek, moliyaviy bozorlar infratuzilmasining bir qismi bo'lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar ustav fondidagi ishtiroki;

v) banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yuritadigan tashkilotlar ustav kapitalidagi ishtiroki;

g) belgilangan tartibda xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarining 50 foizgacha miqdorini ularning qimmatli qog'ozlar birlamchi bozorida chiqarilishidan xarid qilishda ishtiroki.

Bank tomonidan yuridik shaxs ustav fondining 26 foizidan ortiq qismini sotib olishda yoki bankning bevosita yohud bilvosita mazkur yuridik shaxsning faoliyatiga ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi shartnoma tuzilganda, bank Markaziy bankka yozma xabar berishga majburdir.

Agar emitent faoliyati yoki amaldagi yoxud rejalashtirilayotgan bank investitsiyalari miqdori omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlariga ziyon etkazishi mumkinligi yoki investitsiyalarni boshqarishda bank tajribasi etarli emasligi aniqlansa, Markaziy bank istalgan emitent qimmatli qog'ozlariga bank tomonidan kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga qo'shimcha cheklovlar belgilash huquqiga ega.

Garov huquqlarini amalga oshirish natijasida qimmatli qog'ozlar olingan hollarda bank 1 oy muddat ichida olingan qimmatli qog'ozlarni sotishi shart. Agar qimmatli qog'ozlar ko'rsatilgan muddatda sotilmasa, ular «Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi» yoki «Investitsiyalar» hisobvaraqlariga o'tkaziladi va u bo'yicha mazkur qayd etilgan cheklovlar hisoblanadi.

Tijorat banklariga joylashtirilmagan, qayta sotib olingan yoki boshqacha tarzda emitent - aksiyadorlik jamiyatlarining tasarrufiga o'tgan aksiyalar bilan «repo» bitimlarini amalga oshirishga ruxsat etilmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar zarur monitoring va operatsiyalar amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi adekvat axborotni bank rahbariyatiga taqdim etish uchun keng qamrovli boshqaruv axborot tizimiga ega bo'lishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar portfeli bo'yicha ichki hisobotlar qimmatli qog'ozlar turlari va ko'rinishlari bo'yicha bo'linishni, sifat reytingi, nominal va bozor qiymatini, xarid qilish/sotish sanasini, foiz stavkalarini, imtiyozlarni, olingan dividendlarni (foizlarni), oldi-sotdi bitimlari bo'yicha foydani o'z ichiga olishi kerak. Bunday hisobot ham investitsiya qilingan qimmatli qog'ozlar, ham oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha muntazam ravishda tayyorlanishi lozim.

Bankning turli bo'linmalari o'rtasida majburiyatlarning kerakligicha taqsimlanishi, qarorlar qabul qilish hamda bitimlar turi va hajmiga doir cheklovlar belgilash bo'yicha vakolatlarining taqsimlanishi, shuningdek, suiiste'molchiliklarning oldini olish uchun banklar tegishli ichki nazoratni amalga oshirishi zarur. Bunday ichki nazorat, xususan, quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

a) oldi-sotdi arizalarini qabul qiluvchi yoki qayta ishlovchi shaxslar buxgalteriya operatsiyalarini amalga oshirmasligi, pul mablag'lari,

tasdiqnomalarni olmasligi yoki buxgalterlik o'tkazmalarini taqqoslamasligi lozim;

b) buxgalterlik operatsiyalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar oldi-sotdi arizalarini qabul qilmasliklari yoki tasdiqlash maqsadida bitim natijalarini taqqoslamasliklari zarur;

v) barcha operatsiyalar hujjatlar bilan tasdiqlangan hamda birlamchi hujjatlar va buxgalterlik yozuvlari bilan taqqoslangan bo'lishi lozim;

g) hisobvaraqlardagi qoldiqlar, kliring, to'lovlar, bitimlar buxgalterlik o'tkazmalariga jalb etilmagan shaxslar tomonidan muntazam ravishda taqqoslanishi va auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazilishi kerak;

d) agar bank brokerlik operatsiyalarini bajarsa, u holda har bir mijoz uchun hisobvaraqlar ochishi va mijozning qimmatli qog'ozlari bilan bajariladigan barcha operatsiyalari bo'yicha qimmatli qog'ozlarning turlari, operatsiyalar sanasi, sotilgan/sotib olingan qimmatli qog'ozlar narxi va soni miqdori ko'rsatilgan holda yozuvlarni olib borishi lozim.

Tijorat banklari investitsiya vositachisi sifatida faoliyat olib borishi mumkin.

Investitsiya vositachisi – birja va birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorlarida brokerlik va/yoki dilerlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi.

Brokerlik faoliyati – bu investitsiya vositachisi tomonidan topshiruv yoki komissiya shartnomalari yoxud bunday bitimlarni amalga oshirish uchun ishonchnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi ishonchli shaxs yoki komissioner sifatida qimmatli qog'ozlar bozorida fuqarolik-huquqiy tuzdagi bitimlarning amalga oshirilishidir. Brokerlik faoliyatini amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi broker deb ataladi;

Dilerlik faoliyati – investitsiya vositachisi tomonidan ma'lum qimmatli qog'ozlarning xarid va (yoki) sotish narxlarini oshkora e'lon qilish yo'li bilan, ushbu qimmatli qog'ozlarni e'lon qilingan narxlar bo'yicha xarid qilish va (yoki) sotish majburiyatini olgan holda o'z nomidan va o'z hisobiga qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlarining amalga oshirilishi. Dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi diler deb ataladi;

Mijoz - qimmatli qog'ozlarni uning manfaatlarini ko'zlab va uning hisobiga xarid qilish va/yoki sotish taklifi bilan brokerga murojaat qilgan shaxslar hisoblanadi.

Investitsiya vositachisi qimmatli qog'ozlar bozorida kasb faoliyatini amalga oshirish chog'ida o'z kasb faoliyati doirasida qimmatli

qog'ozlarning oldi-sotdi shartnomalari va mijozlar bilan brokerlik xizmatlarini ko'rsatishga tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishi, shartnomalarni tuzish va bajarish bilan bog'liq barcha zarur axborotni mijozlarga ma'lum qilish uchun barcha zarur chora-tadbirlarini ko'rishi, brokerlik va dilerlik faoliyati qo'shib olib borilganda mijozlar topshirig'i bo'yicha qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlarini o'z bitimlariga nisbatan birinchi navbatda amalga oshirishi, oldi-sotdi shartnomasiga oid topshiriqlar va majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq xatarlar haqida mijozni xabardor qilishi, birjalar, birjadan tashqari savdolar tashkilotchilari va ular a'zolari hisoblangan kliring palatalari qoidalariga rioya etishi, hamda qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, o'z taomillari va qoidalariga muvofiq qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar ichki hisobini yuritishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyatini amalga oshirish chog'ida:

a) tegishli litsenziyasiz qimmatli qog'ozlar bilan qandaydir bitimlarni amalga oshirish;

b) mijozlar bilan ularning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlarini cheklovchi shartnomalarni tuzish;

v) taqiqlangan bitimlarda yoki qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan bitimlarda ishtirok etish;

g) investitsiya vositachisiga tegishli qimmatli qog'ozlar bilan ularga to'la haq to'langunga qadar bitimlarni amalga oshirish;

d) investitsiya vositachisi tomonidan saqlanayotgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlarni investitsiyalashdan daromad olinishi to'g'risida mijozga kafolat berish yoki va'da qilish;

e) agar qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar emissiyasini to'xtatib qo'ygan bo'lsa, mijozlarning qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda xizmatlar ko'rsatish;

j) qimmatli qog'ozlar bozorida tegishli kasb faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining kasb xizmatlaridan foydalangan holda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

z) investitsiya vositachisining bank hisobraqamlarida turgan mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'laridan mijozning ko'rsatmasisiz foydalanish taqiqlanadi, shartnomada maxsus qayd etilgan hollar bundan mus-tasno.

Brokerlar mijoz tomonidan quyidagilar haqida axborot berilishini talab qilishga haqli:

a) mijozning to'lovga qobilligi - qimmatli qog'ozlarni xarid qilish shartnomasini tuzish chog'ida;

b) qimmatli qog'ozlar va ularga egalik huquqining mavjudligi - ularni sotish shartnomasini tuzish chog'ida;

v) qimmatli qog'ozlarga uchinchi shaxslarning huquqlari mavjudligi yoki emitentning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, qimmatli qog'ozlar taqdim etadigan huquqlarni amalga oshirishni to'xtatib qo'yishiga yoxud imkon bermasligiga olib keluvchi mijozga ma'lum bo'lgan vaziyatlarning mavjudligi;

g) mijozning muomala layoqati jismoniy shaxslarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni to'liq hajmda yoki qisman bajarish layoqati;

d) mijozlar rahbarlarining huquqiy layoqati - yuridik shaxslarning yuridik shaxslar manfaatlarini ko'zlashi va ko'rsatilgan yuridik shaxslar uchun yuridik oqibatlariga olib keluvchi harakatlarni amalga oshirish layoqati.

Investitsiya vositachisi komissiya, topshiruv shartnomalari yoki ular tomonidan taqdim etiladigan huquqlar ro'yxatini o'z ichiga olgan ishonchnoma asosida brokerlik xizmatlari ko'rsatadi.

Broker shaxsan o'ziga berilgan topshiriqni bajaradi, boshqa shaxsga topshiriq (qayta ishonchnoma) berish hollari bundan mustasno. Brokerlar tomonidan bitimlarni amalga oshirishga qayta ishonchnoma berishning faqat brokerlar tomonidan amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

Brokerlik xizmatlarini bajarish jarayonida investitsiya vositachisi o'z pul mablag'larini qo'llashga haqli, shartnoma amal qilishi tugashi bilan o'zaro hisob-kitob-larni amalga oshirish chog'ida mijoz tomonidan ular qoplanadi.

Mijoz bilan tuziladigan shartnomada broker quyidagi barcha muhim shartlarni oldindan ko'zda tutishi shart:

a) shartnoma turi - topshiruv yoki komissiya shartnomasi;

b) xizmatlar turi - qimmatli qog'ozlar xarid qilish yoki sotish, shuningdek mijoz istagiga ko'ra broker vakolatiga kiradigan boshqa qo'shimcha xizmatlar;

v) emitentning nomi, qimmatli qog'ozlarning turi va tipi, ularning miqdori, nominal qiymati, xarid (sotish) narxi;

g) mijozning qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlarni o'ziga olishi to'g'risidagi majburiyatlari;

d) qimmatli qog'ozlarni berish va ularga haq to'lash muddati va usuli;

e) investitsiya vositachisi oladigan haqining hajmi va uni to'lash muddatlari;

j) taraflarning javobgarligi.

Broker:

a) o'z mijozlarining birinchi talabiga ko'ra topshiriqning qanday bajarilayotgani haqidagi barcha ma'lumotlarni xabar qilishi shart, agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa;

b) bitim amalga oshirilgach, mijozga darhol uning topshirig'iga ko'ra tuzilgan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini tasdiqlovchi shartnomalarning ko'chirma nusxasi yoki boshqa hujjatlarni berishi va amalga oshirilgan bitimlar shartlari haqidagi axborotni xabar qilishi shart, agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa;

v) topshiriqni bajarish uchun amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha olingan barcha narsani mijozga darhol berishi shart, agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa;

g) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq mijozlarning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari saqlanishi va alohida hisobi yuritilishini ta'minlashi, qonun hujjatlari va tuzilgan shartnomaga muvofiq mijoz uchun amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ularga muntazam ravishda hisobot, mijoz hisobi yuritiladigan hisobraqamlaridagi pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar harakatiga oid ko'chirmalar va boshqa hujjatlarni taqdim etishi shart;

d) qimmatli qog'ozlarini nominal tutib turgan mijozlarga qimmatli qog'ozlar emitenti yoki uning agentidan olingan, qimmatli qog'ozlarga huquqni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va axborotni taqdim etishi shart.

Dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshirayotganda:

a) qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshirgunga qadar qimmatli qog'ozlarning boshlang'ich qat'iy xarid va sotish narxlarini ommaviy ravishda e'lon qilishi.

Diler narxdan tashqari qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasining boshqa muhim shartlarini: xarid qilinayotgan va/yoki sotilayotgan qimmatli qog'ozlarning eng kam va eng ko'p miqdori, shuningdek e'lon qilingan narxlar amal qiladigan muddatni e'lon qilishga haqli. Boshqa

muhim shartlarga ko'rsatmalar e'lon qilinmaganda diler o'ziga murojaat qilgan shaxs tomonidan taklif qilingan muhim shartlarda shartnoma tuzishi kerak. Diler shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda unga nisbatan bunday shartnomani majburan tuzish va/yoki etkazilgan zararlarni qoplash haqida da'vo taqdim etilishi mumkin.

Tayanch so'z va iboralar

Aksiya, anderryayting, bank, depozit sertifikat, jamg'arma sertifikat, oblitsiya, opsiyon, qimmatli qog'oz, fyuchers.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan investitsion operatsiyalari qanday amalga oshiriladi?
2. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan emission operatsiyalari qanday amalga oshiriladi?
3. O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan qaysi turdagi qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqariladi?
4. Banklarning anderryayting operatsiyalari qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Emissiyaviy qimmatli qog'oz deganda nimani tushunasiz?
6. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyat deganda nimani tushunasiz?
7. Derivativlar nima va ular nima maqsadda muomalaga chiqariladi?

VIII BOB. KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

8.1. Kreditlashni tashkil etishning nazariy asoslari

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishda aylanma mablag'lar muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish, xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo'llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo'llash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish avvalombor aylanma mablag'lardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berish tijorat banklari tomonidan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni asosida va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tijorat banklari tomonidan kreditlar O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuniga asosan, o'z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlarga beriladi. Bundan tashqari kreditlar yuridik maqomiga ega bo'lmagan yakka tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish uchun ham ajratiladi. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi subyektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradilar. Kreditlar asosan mijozning asosiy hisob-kitob hisobvarag'i joylashgan tijorat banki tomonidan beriladi. Zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan kreditlar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi. Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy beqarorlik, xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Banklarning qisqa muddatli kreditlari amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan ssuda bo'lib, uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli kreditlar boshqa kredit turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi. Uzoq muddatli kreditlar bir-yildan ortiq muddatga beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning asosiy turi bo'lib bank krediti, ya'ni tijorat banklari tomonidan beriladigan har xil turdagi va ko'rinishdagi kreditlar hisoblanadi. Kredit munosabatlari yuzaga kelishi uchun uning obyektlari va subyektlari bo'lishi lozim. Bank krediti tohasidagi kredit munosabatlarining subyekti bo'lib, banklar hamda xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va boshqa subyektlar hisoblanishi mumkin. Ma'lumki, kreditlash jarayonida kredit munosabatlarining subyektlari bir tomondan kredit beruvchi va ikkinchi tomondan kredit oluvchi sifatida qatnashadilar.


Kreditorlar bo'lib, o'zining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga qarz oluvchi ixtiyoriga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadilar.

Qarz oluvchi – o'ziga tegishli bo'lmagan mablag'ni vaqtincha ishlatib, uni belgilangan muddatda qaytarib berish va u bo'yicha foiz to'lash majburiyatini oluvchi tomondir. Bank kreditiga kelsak, kredit munosabatlarining subyektlari bo'lib, albatta, kredit beruvchi bank va qarzdor bo'lib turli yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Kreditning bu turi asosan banklarning jalb qilingan mablag'lar bilan ishlashi bilan bog'liq. O'zida jalb qilingan mablag'larni ehtiyoji borlarga qayta taqsimlash orqali banklar kreditor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida xususiy, davlat, jamoa va kollektiv mulkchiligiga asoslangan korxonalar va tashkilotlar tuzilishi hamda faoliyat ko'rsatishiga huquqiy asoslar yaratildi. Shu bilan birgalikda, aralash mulkchilikka asoslangan korxonalar ham ochilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'ldi.

Ayniqsa, hukumat tomonidan xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish, aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularni xususiylashtirish va banklar faoliyatini erkinlashtirish sharoitida kredit munosabatlari subyektlarining ko'lami oshib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditlash tarkibini quyidagicha tasvirlash mumkin:



13-rasm. Kredit munosabatlarning tarkibiy qismlari.

Kreditlash obyekti – bu qarzga olingan pul yoki tovar shaklidagi moddiy boyliklardan iborat. Uch bazaviy element (kreditlash subyekti, obyekti va ta'minoti) umumlashgan holda kreditlash tizimi sifatida harakat qiladi. Lekin boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak, kredit ta'minotsiz ham ajratilishi mumkin. Masalan, obro'li va xalqaro bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan firma, joriy moliyaviy kiyinchiliklarga duch kelib bank kreditiga murojaat etdi. Bunda bank iloji boricha bu kreditni berishga harakat qiladi, chunki bunday mijozni yo'qotish bank uchun foydali emas. Yana bir misolda ko'rishimiz mumkin, bir korxonaga kelajagi juda samarali, istiqbolli va foydali bo'lgan loyihani bankka taqdim etib, bu loyihani moliyalash uchun kredit so'rashi mumkin. Bank ushbu loyiha istiqboliga amin bo'lib, yuqori foyda olish maqsadida kredit berishi mumkin.

Endi kreditlash subyektiga yana qaytadigan bo'lsak, qarz oluvchi bo'lib mulkchilik turidan qat'iy nazar, bank ishonchini qozongan, ma'lum moddiy va huquqiy kafolatlarga ega foiz to'lash va kreditni o'z vaqtida qaytarishga rozi bo'lgan subyektlar bo'lishi mumkin.

Kreditlash subyektlariga yanada aniqroq yondashadigan bo'lsak ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- davlat korxonasi va tashkilotlari;
- kooperativlar;
- ishlab chiqarish subyektlari va savdo tashkilotlari;
- yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, fermerlar, mikrofirmalar, shirkatlar, birlashmalar;
- boshqa banklar;

• boshqa xo'jaliklar xususan hukumat korxonalari, qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Undan tashqari, qisqa muddatli kreditlarni yuridik shaxs maqomini olganidan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tadbirkorlar ham olishlari mumkin. Yuqoridagi subyektlar kredit oluvchi sifatida faoliyat ko'rsatsa, tashqari banklari yoki boshqa kredit muassasalari kredit beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, banklar banklarni kreditlarda qarz oluvchi subyekt sifatida ham faoliyat ko'rsatadilar.

Qishloq xo'jaligida banklar dehqonchilik va chorvachilik xarajatlari; mineral o'g'itlar, yoqilg'i va boshqa xarajatlarni kreditlashadi. Umuman olganda, qisqa muddatli kreditlar quyidagi 3 ta asosiy obyektни kreditlashga yo'naltiriladi:

- ✓ Tovar-moddiy boyliklar.
- ✓ Ishlab chiqarish xarajatlari.
- ✓ Hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan mablag'lar.

Tovar moddiy boyliklar yuqori salmoqqa ega bo'lgan kreditlash obyekti hisoblanadi. U korxonaning tovar moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga joriy qilishda mavsumiy korxonalarda tovar moddiy boyliklarni rejadan tashqari qabul qilinganda, import mahsulotlari kelib tushganda, ularni transportirovkasi bilan bog'liq xarajatlarni, savdo va ta'minot tashkilotlarida tovar zaxiralari yuzaga kelganda kreditlarga murojaat etiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish bilan mablag'lar tushishi jarayoni bir-biriga mos kelmaganda, tugallanmagan ishlab chiqarish salmog'i oshib ketganda kelgusi davr xarajatlariga, ba'zi korxonalariga yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va korxonani qayta ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni amalga oshirishda kreditlarga murojaat etiladi.

Aylanma mablag'lar odatda debitorlik qarzlari yoki tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanadi. Qurilish uchun «oraliq» kreditlari bino va inshootlar, savdo markazlari va shu kabilarni qurish uchun beriladi. Aniqrog'i kredit, bino va inshootlarni qurishda kerak bo'ladigan qurilish materiallari, qurish jihozlarini sotib olishga, quruvchi ishchilarni yollashga beriladi.

Chakana tovarborotga kreditlar banklar tomonidan avtomobillar, elektrmaishiy jihozlar, mebellar va boshqa uzoq muddat ishlatiladigan tovarlarni kreditga sotib olishga, dilerlar kreditga sotish shartnomasini

imzolaganidan so'ng paydo bo'ladigan debitorlik qarzini moliyalashtirishga beriladi. Bu kabi kreditlashni debitorlik qarzini sotib olish yoki faktoring deb ham izohlash mumkin.

Kreditlar firmalarning joriy ehtiyojlari uchun, aylanma mablag'larning aylanishini ta'minlash uchun, ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash uchun tez pulga aylanuvchi aktivlari garovi ostida, 12 oygacha bo'lgan muddatga beriladi. Ta'minot sifatida odatda xom-ashyo zahiralar, tovar-moddiy zaxiralari, tayyor mahsulot va ko'p hollarda debitorlik qarzi hisoblanadi. Bu turdagi kreditning keng tarqalgan shakli faktoring hisoblanadi. Tijorat banklari firmalarga uning debitorlik qarzining 90 foizi miqdorida kredit beradi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar korxonaning mol etkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshirishda, akkreditiv ochishda, ish haqi bo'yicha davlat korxonalariga kreditlar berishda, o'zaro qarzlarni kechishda kreditlarga murojaat etiladi.

Uzoq muddatli kreditlar quyidagi kreditlash obyektlariga yo'naltirilishi mumkin:

- ✓ ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun;
- ✓ ishlab chiqarish obyektlarini qayta ta'mirlash, texnik qurollantirish va kengaytirish uchun;
- ✓ texnikalar, asbob-uskunalar va transport vositalarini sotib olish uchun;
- ✓ yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun;
- ✓ noishlab chiqarish sohasidagi obyektlarni qurish va hokazo.

Ko'rinib turibdiki, kreditlarning turlariga qarab ularning kreditlash obyekti va subyekti farqlanadi. Masalan:

- tijorat kreditida – kreditlash obyekti tovar hisoblanib, subyekt esa sotuvchi bilan xaridor hisoblanadi;
- bank kreditida yuqorida ko'rib chiqqan barcha obyektlar bo'lishi mumkin;
- iste'mol kreditida – kreditlash obyekti iste'mol tovarlari hisoblanadi;
- xalqaro kreditda – kreditlash subyekti bo'lib asosan davlatlarlar va xalqaro moliya tashkilotlari hisoblanadi va hokazo.

Tijorat banklarida kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Kreditning qaytaruvchanligi.
2. Kreditning maqsadliligi.
3. Kreditning muddatliligi.

4. Kreditning ta'minlanganligi.

5. Kreditning to'lovliligi.

Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya'ni pulning xarakati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi.

Banklar tomonidan kreditlar albatta ma'lum bir maqsad uchun ajratiladi. Masalan, aylanma mablag'larni to'ldirish, asosiy vosita xarid qilish, ish haqi to'lash va boshqalar uchun ajratiladi.

Kredit so'ralayotgan maqsad va uning samaradorligi darajasi kredit olish uchun taqdim etiladigan biznes rejada o'z aksini topadi. Bank tomonidan ushbu reja va unda aks ettiriladigan maqsad hamda uning samaradorligi kreditning belgilangan muddatida qaytishiga to'liq ishonch hosil qilingandagina kredit ajratish uchun qaror qabul qilinadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili, u qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatliligi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishinigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishni aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq. Kreditlash muddatliligining bu ikki tomonlama xarakteri inobatga olinganda vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar, xo'jaliklar o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablag'laridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'larni qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Shunday qilib, kreditning muddati kredit ajratilgan maqsad natijasida kredit oluvchida hosil bo'ladigan vaqtincha bo'sh pul oqimi muddatlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, kredit aylanma mablag'larni xarid qilish uchun ajratilgan bo'lsa, ushbu aylanma mablag'lar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan pul oqimi davri bilan bog'liq. Asosiy vositalar xarid qilish muddati va eskirishini qoplash uchun amortizatsiya ajratmalari davriga bog'liqdir.

Qaytaruvchanlik tamoyili kreditning mazmunini ifodalab, bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar-pul munosabatlarining iqtisodiy kategoriyalaridan farqi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytaruvchanlik kreditning ajralmas atributi hisoblanadi. Kreditning sanab o'tilgan tamoyillari uning qaytaruvchanligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Kreditning keyingi tamoyili - kreditning ta'minlanganligidir. Bunda kreditning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zahiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zahirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan kreditlar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta'minlanganligi sifatida tovar-moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik hamda kreditlarni sug'urtalash shakllari amaliyotda keng qo'llanilmokda. Bu holat bank risklarini kamaytirgan holda kreditlarning bankka o'z vaqtida qaytishini ta'minlash asosi hisoblanadi. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qo'yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50 foizidan 80 foizigacha miqdorida beriladi. Uning miqdori asosan garovga qo'yilgan mulkning likvidlilik darajasiga bog'liq.

Odatda kreditlar kafolat yoki kafillik ta'minotiga asoslangan holda ajratilishi lozim bo'lganda kafolatchi yoki kafil korxonaning to'lov qobiliyatiga ishonch hosil qilishi lozim.

Kreditlashning yana bir tamoyili - olingan kredit uchun haq to'lash yoki foizlilikdir. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxonaga o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'laridan vaqtincha foydalan-ganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Kredit uchun

haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga shu jumladan resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan umumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

Kredit ta'minotini rasmiylashtirish va bu jarayonda bank xodimlarining harakatlari to'g'risida keyingi bobda to'liq to'xtalib o'tamiz. Bankning kreditlash tamoyillarining barchasini amaliyotda yalpi qo'llanilishi bank manfaatlarini himoyalashga munosib yordam beradi.

Darsligimizning keyingi boblarida har bir kredit turlarini, faktoring, lizing operatsiyalarini amalga oshirish jara yonlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimizki, tijorat banklarida kreditlash asoslari bo'lib, amaldagi qonunlar, Prezident qarorlari va farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bank yo'riqnomalari va tijorat banklarining kredit siyosati hisoblanadi.

8.2. Tijorat banklari kredit siyosati, maqsadi va vazifalari

Yuqorida qayd etilgani kabi tijorat banklari tomonidan kreditlashni tashkil etish asoslaridan asosiysi bo'lib, banklar ishlab chiqqan kredit siyosati hisoblanadi. Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarning ikki subyekti bank va qarz oluvchining o'zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida tijorat banklarining olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan hujjat kredit siyosatida o'z aksini topadi.

Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi. Tijorat bankining kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 2-martdagi «Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida» gi nizomiga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va

uslublarini belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishda doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.¹

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'lik obyektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushunilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to'g'ri olib borishga, yuqori risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko'p xodim ishlashdan qat'iy nazar, bankda bu siyosat bo'lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifitsirlashgan umumiy qoida va tamoyillarning bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati barcha bank xodimlari-kichik xodimdan bank boshqaruvi raisigacha bir xil ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va echimlar to'plami deyiladi. Ushbularning asosiylari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- Kredit hujjatlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- Kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- Barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;

- Eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish;

- Bank xizmat ko'rsatadigan mintaqa, kredit qo'yilmalarinig asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

- Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi.

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me'yorda amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to'g'ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo'lish, bank kreditlarini to'g'ri baxolash imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtda kredit

¹ Abdullaeva Sh.Z. «Bank risklari va kreditlash». T.: «Moliya», 2002. 33-56 b.

muammoli siyosiy, iqtisodiy va huquqiy shartlarni hisobga olgan holda ancha muvaffaq bo'lishi darkor.

Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: kredit qo'yilmalari hajmining o'sishini, risk yuqori bo'lgan operatsiyalarning oqilona diversifikatsiyasini, qisqa va uzoq muddatli kredit qo'yilmalari hajminin keskin ko'paytirish va ularning samaradorligini taminlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuningdek, kredit siyosat investitsion kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos «kredit tili»ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab kolish uchun katta axamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish, bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi teng, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning kreditorlari va aksiyadorlari foydasini ko'paytiradi va farovonligini oshiradi. Masalan, aniq bir tijorat bankning kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilarni belgilab olinganligini kurishimiz mumkin:

Bular:

- kredit risklarini darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolini aniqlash kredit riskini bashorat qilish;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chiqish;
- kredit qo'yilmalarni diversifikatsiya qilinishi, ularning likvidligini va daromadligini taminlash;
- kredit olgan mijoz bilan doimiy aloqada bo'lib turish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, dexqon va fermer xo'jaliklarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Bank tomonidan, xo'jalik subyektlarining aylanma mablag'lari etishmasligi, mavjud mablag'larni me'yordan ortiqcha tayyor mahsulot qoldiklariga jalb qilinishi, mablag'larning tayyor mahsulot sifatida qotirib quyish sabablarini o'rganib borish. Zararga ishlayotgan va bankrotlik alomatlari ko'zga tashlanayotgan xo'jalik subyektlarining moliyaviy ahvolini doimiy monitoringini tashkil qilish bank kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlashi va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash tarmoqlari bo'yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xujaligi, kapital qo'yilmalarni moliyalash va boshqa tarmoklarga kredit berish. Kredit turlari bo'yicha: «kredit liniyalarini ochib va ochmay» kreditlash yoki kreditlashning boshqa usullarini qullashni belgilab berishi mumkin.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari lozim. Qarzdor yoki garov axvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhim.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha «to'lovsizlik» tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank boshqaruvi va kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar qurilishini talab qilinishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq, kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank kengashi va boshqaruvi a'zolariga yuklatilgan. Odatda tijorat bankning kredit siyosati yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

- bank o'rni va obro'sini moliyaviy-barqaror banklar singari yaxshilash;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativlariga muvofiq, darajada o'z kapitalining etarliligini ta'minlash:

- bankning samaradorligi va barqarorligini qo'llab-quvvatlagan holda uning daromadlari maksimalashuvini ta'minlovchi aniq kredit va investitsiya siyosatini o'tkazish;

- strategik jihatdan muhim bo'lgan shahar va tumanlarda yangi omonat kassalarini ochish bilan bog'liq bo'lgan bank tarmog'ini kengaytirish.

Kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan mavjud va yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta'minlash, yuqori sinf darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. Shuning uchun bank-kredit siyosatining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

➤ kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilishning barcha darajalar bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;

➤ bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq, belgilangan shartlarning mavjudligi;

➤ maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;

➤ bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishlari siyosati (ya'ni depozitlar bo'yicha, investitsiya bo'yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha va hokazo)ning uzviy bog'liqligidir.

Hozirgi kunda kredit siyosatini tuzishda har bir tijorat banki mustaqil bo'lib, ular kredit siyosatining mohiyati, maqsadi va tarkibini takomillashtirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo'jalik subyektlarini kreditlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidligini ta'minlash uchun avvalambor, banklarning kredit siyosatini to'g'ri ishlab chiqishga e'tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalar tufayli vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatini oqilona tanlash va o'tkazishni taqozo qiladi.

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo'lagi sifatida kredit bozorida bankning xarakat qilishidan ko'zlagan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarni amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini, hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilib aytganda, kredit siyosati kredit risklarni kamaytirish orqali bankning xavfsizligi, likvidligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida kreditlash bo'yicha oldindan belgilangan qoida va echimlar majmuasi asosida tashkil qilingan

kredit portfelini boshqarish sohasidagi bankning strategiya va taktikalari yig'indisidir. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa omillarni inobatga olgan holda mustaqil o'zining kredit siyosatini ishlab chiqishi va olib borishi mumkin.

Odatda ssuda operatsiyalari bank foydasining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuni inobatga olgan holda banklar o'z kredit siyosatini ishlab chiqishda va olib borishda ssuda operatsiyalaridan keladigan daromad va ularning samarali olib borilishiga katta e'tibor berishlari lozim. Bankning kredit operatsiyalarini olib borish va ularning samaradorligi uchun javob berish bankning boshqaruvi zimmasiga yuklatiladi. Boshqaruv kreditlarni berish bilan bog'liq vazifalarni boshqaruvning quyi tabaqalariga yuklaydi. Kredit qo'mitasi kreditni qaysi sohalarga berish, kredit berishning umumiy tamoyillari, uni berishdagi cheklanishlar va boshqalarni ishlab chiqadi hamda shularning amalga oshirilishini nazorat qilib borishi lozim.

Xorijiy davlatlarning yirik banklarida yozma ravishda bankning kredit siyosati to'g'risida memorandum ishlab chiqiladi va barcha bank xodimlari o'z faoliyatini shu memorandum asosida olib borishlari zarur. Memorandumning tarkibi har bir bankning faoliyat xususiyatini hisobga olgan holda har xil bo'lsada, u bank faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qay tariqada olib borishni o'z ichiga oladi. Memorandumda olib boriladigan siyosatning asosan, ya'ni ko'prok ishonchli va foyda keltiruvchi kreditlar berish, kreditlar berishda mavjud kredit resurslarni hisobga olish, beriladigan kreditlarning risklilik darajasini hisobga olish, kredit berishning oxirgi chegarasini belgilab berish va boshqalar ko'rsatiladi.

Hujjatda qaysi kreditlarni berish bank uchun foydali va qaysi kreditlarni berishdan bank saqlanishi lozimligi, bank xodimlariga kreditlar berish, kreditlarning sifatini nazorat qilish shakllari va boshqalar ko'rsatiladi.

Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- bank uchun mas'ul bo'lgan kreditlar turlari;
- qanday kreditlar, berishdan bank o'zini tutishi;
- ko'ngildagiday bo'lgan qarzlarning tarkibi;
- ko'ngilsiz qarzlarning tarkibi;
- bankning kreditlash bilan bog'liq faoliyati doirasi;
- bankning o'z xodimlariga kredit berish doirasidagi siyosati;
- qarzdorlikning har xil darajalariga ko'ra kreditlarning hajmini qisqartirish;

▪ kredit riskini boshqarish, tekshiruv va nazorat doirasidagi bankning siyosati.

Yirik bir Amerika banklarining memorandum sxemasi 5 ta bo'limni, ya'ni umumiy qoidalar, kreditlar kategoriyasi, kredit siyosatining har xil masalalari, kredit portfeli sifati ustidan nazorat hamda bank qo'mitalarini o'z ichiga oladi.

Kredit siyosati bo'yicha memorandum umumiy tavsiya va yullanmalarini o'z ichiga oladi va u bank xodimlarining amaliy ishbilarmonligini cheklab ko'yamaslikni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda tijorat banklari mustaqil ravishda o'z kredit siyosatini ishlab chiqadilar. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, bazi banklar faoliyatida bu siyosatni ishlab chiqishda ma'lum kamchiliklarni kurish mumkin. Birinchidan, kredit siyosatini ishlab chiqishda ko'prok bosh banklar aktiv rol uynab ular har doim ham bankning quyi bug'inlarining kredit ishlarini inobatga olmaydigan xolatlarini uchratish mumkin.

Ikkinchidan, bank salmog'i katta-kichikligidan qat'iy nazar har bir bank xodimi bankning kredit siyosatining hech bo'lmaganda maqsadi, umumiy yo'nalishlari bilan tanish bo'lishi, ularning bajarilishi bo'yicha faoliyat olib borish lozim.

Ko'pgina tijorat banklarining kredit siyosatida asosiy e'tibor kreditlar berishi bo'yicha erkinlik, kredit turlari, kreditlarni to'lash, foiz stavkalari, kredit bo'yicha garov qiymati va uning bahosi, mijoz to'g'risida moliyaviy axborot, o'z vaqtida to'lanmagan va muddati kechiktirilgan kreditlar, bank kengashi va boshqaruvchiga beriladigan hisobotlar, kreditlarning konsentratsiyasi, aloqador shaxslarning ishlash tamoyillari, riskni baholash, kredit portfelini audit qilish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi ko'zda tutilgan bo'lsada, ularning mohiyatini ochib berishda ba'zi bir noaniqliklar mavjud edi.

Masalan, kreditlarni konsentratsiya qilish to'g'risidagi yo'nalishida kreditlarning turi, hududiy joylanishi va boshqa belgilari bo'yicha konsentratsiya qilish lozim deyilsa, yana shunday kreditlar konsentratsiyasi banklarini katta zararlarga qo'yishi mumkinligi ta'kidlanadi. Yoki mijozlarning moliyaviy ahvolini ifodalovchi kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlarni ifodalovchi kreditning bahosi va samaradorligini ko'rsatuvchi yo'nalishlar keltirilmagan. Tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqishda ish yo'nalishlar bo'yicha aniq ma'lumot va hujjatlarga ega bo'lishi va kredit siyosati sifatida rejalashtirishlari, fikrimizcha, banklarni katta risklardan oldindan himoya qilishi mumkin. Undan tashqari yuqorida keltirilgan kreditni konsentratsiyalash bo'limi

o'rniga kreditlarni diversifikatsiyalash yoki kredit portfelini boshqarish bo'limi deb kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Banklar tomonidan beriladigan kreditlar Respublikani iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga, infrastrukturani takomillashtirishga, eksport salohiyatini kengaytiruvchi sohalarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tijorat bankining kredit siyosati, kredit bozorini tahlil qilish va eng kichik kredit riskka ega bo'lgan bozorlarni aniqlash, mablag'larni depozitga jalb qilish, kreditlash jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, bankning depozit va kredit portfelini boshqarishni optimallashtirish, muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirish, bankning likvidligi va to'lovga layokatliligini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimni yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2000-yil 21-martdagi farmoni tijorat banklarining faoliyatini olib borishda va ularning kredit siyosatini tuzishda to'la erkinlik va mustaqillik berilishiga yo'l ochib berdi. Endilikda tijorat banklari o'zlarining mustaqil kredit siyosatini ishlab chiqmoqdalar. Chunki hamma banklar uchun to'g'ri keladigan, yagona kredit siyosati mavjud emas edi. Alohida olingan tijorat banki uning faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi risklarni inobatga olgan holda mintaqa, viloyat, tumandagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy holatdan kelib chiqib o'z kredit siyosatini ishlab chiqishlari kerak. Bankning aniq kredit siyosatiga ega emasligi bank risklarini oshiradi. Kredit siyosatining aniq emasligi belgilab qo'yilgan vazifalarning to'liq bajarilishiga va undan kutilgan samaraga erishishga to'sqinlik qiladi.

Bankning kredit siyosatini olib borish, kredit portfelining samarali natijasini ta'minlashni ko'zda tutganligi uchun banklarning kredit portfelini tashkil qilishga ta'sir qiluvchi omillar ichida banklar xizmat ko'rsatish bozorining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan har bir bank o'zi tanlagan bozor sektoridagi asosiy mijozlarning qarz mablag'iga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo'limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzdorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan quyidagi 3 omillarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi:

2. Kredit resurslari (o'z va jalb qilingan mablag'lari) manbalari;

3. Kreditlash, qarzdorlar turlari va yo'nalishlari;

4. Bozorda kredit resurslariga bo'lgan talab va taklif.

Jalb qilingan kredit resurslarini boshqa tijorat banklari markazlash-tirilgan fondlaridan sotib olish sifatida foydalangan kreditlardan foydalanish uchun foizlar jalb qilingan resurslar summasi plus bank (daromadi) marjasi orqali aniqlanadi.

Garov ta'minoti bo'yicha talablar aniq sifatli xarakteristikalariga mos bo'lishi kerak, ya'ni (saqlash) uzoq muddat saqlashning mavjudligi; narxlarning nisbatan barqarorligi; garovga qo'yiladigan mulkning bozor talablariga mos kelishi, likvidligi va boshqalar.

Favqulodda holatlar yuz beradigan bo'lsa, garov egasi garov mulkini o'z hisobidan uning to'liq qiymatini sug'urta qilish kerak. Garovga olingan mulk qiymati kredit summasiga nisbatan 25 foizdan yuqoriroq bo'lishi kerak.

Tijorat banklarining kredit taqdim etishdagi asosiy vazifasi — omonatchilarning pullarini kimga ishonib topshirish mumkinligini hal etishdan iborat. Bu faoliyat o'ta muhim va o'ta ta'sirchan jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sarmoya tuzilmasidagi leverajni jiddiy oshirish imkonini beradi. Bank kreditlarni qachon, kimga va qanday shartlarda berishni aniq belgilab olishi shart.

Bank faoliyati doimo turli risklar bilan bog'liq. Shuning uchun kreditlar depozitlar va boshqa majburiyatlar bilan o'z mablag'lari o'rtasida mavjud muvozanatni saqlash bankning eng muhim maqsadlaridan biridir. Oqilona kredit sifati bank kredit portfelini sifat jihatdan tartibga solish ko'lamini, mablag' ochish imkoniyati eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli manbalari va muddatlari bo'yicha mutanosibligini bank majburiyatlari va aktivlari tuzilmasining mosligini hisobga olishi kerak. Kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari bank boshqaruvi Kengashi tomonidan belgilanadi.

Shu tariqa, kredit siyosatini qat'iy va batafsil ishlab chiqish har qanday bank uchun katta ahamiyat kasb etadi va u kreditlash tadbirlarini mazmunini anglatadi. Bu tadbirlarni amalga oshiradigan xodimlar majburiyatlarni belgilab beradi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni taminlash, risklarni boshqarish, bank me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi—barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelni sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatnda, uning kreditorlari va aksiyadorlari foydasini ko'paytiradi va farovonligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat bankining kredit siyosati bankning kreditlashni amalga oshirishdan maqsadi va strategiyasini, kredit berish jarayonida bank xodimlarining vakolat darajasi va mas'uliyatini, tijorat banki tomonidan beriladigan kreditlarning turlari va toifasi, bank krediti yo'naltiriladigan iqtisodiyot sohaslarini belgilab olish, kreditlash usullari, kreditlash ko'rsatkichlari, kreditlarni qaytarib to'lash shartlari va qoidalari, kreditning muddati, qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlar, yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda qiluvchi qarzdorlarning faoliyatiga oid moliyaviy axborotlar, garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar, kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish bo'yicha talablar Bank boshqaruvi va Kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha talablarni o'zida ifoda qilishi lozim.

8.3. Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar va uning ahamiyati

Tijorat banklari kredit siyosati O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi PQ-726-sonli «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-sonli «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1047-sonli «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2009-yil 28-yanvardagi PQ-1050-sonli «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2009-yil 12-martdagi PQ-1072-sonli «2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi, 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090-sonli «Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik subyektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2009-yil 28-iyuldagi PQ-1166-sonli

«Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrda PF-4058-sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-avgustda 349-sonli «Iqtisodiyotni kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizomi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 2-martda 905-son bilan ro'yxatga olingan), O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq hamda kelgusi-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning ustuvor yo'nalishlari hisobga olingan holda ishlab chiqiladi.

Kredit siyosati tijorat banklari kengashi tomonidan har-yili tasdiqlanadigan va bankning kredit faoliyati maqsadlarini, kredit portfelini samarali boshqarish maqsadida bank tomonidan kreditlashda yuzaga keladigan risklarni boshqarishda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar, usullar va yondashuvlarni belgilab beradigan hujjat hisoblanadi.

Bevosita kreditlashga doir, jumladan kredit arizasini ko'rib chiqish, kredit berish, monitoring qilish, kreditni so'ndirish jarayonlari bilan bog'liq yuridik normalar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlariga, shuningdek, tijorat banklarni kreditlashga oid ichki me'yoriy hujjatlariga amal qilishlari lozim.

Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank kengashi tomonidan-yiliga kamida bir marta tegishli-yilning 1 fevraligacha bo'lgan muddatda kayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizomi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 28-noyabrda 905/3-son bilan ro'yxatga olingan)ga asosan, kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- Kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi;
- Vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash;
- Kredit turlari;
- Kreditlarning to'planishi;

- Kreditlarni to'lash;
- Qarzdorlarga doir moliyaviy axborot;
- Garov ta'minotiga nisbatan ko'yiladigan talablar;
- Kredit monitoringiga nisbatan ko'yiladigan talablar;
- Foiz stavkalari;
- Bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar;
- Ko'zda tutilmagan holatlar moddalari (balansdan tashkari moddalar);
- Kredit portfelini audit qilish;
- Bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar.

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jixatidan farq qiladi. U bank maqomi va u joylashgan manzildan qat'iy nazar kredit siyosatida aks ettirilishi lozim bo'lgan umumiy masalalar ro'yxatini belgilab beradi. Bunda kredit siyosatining yo'nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat, moliyaviy axborotlarni ta'hlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim.

Banklarning kredit siyosatining maqsadi bankning biznes rejasiga muvofiq mavjud resurslarni iqtisodiyotning real sektorini moliyalash uchun kreditlar va ularga tenglashtirilgan jarayonlarga joylashtirish yo'li bilan tegishli-yil uchun daromadlarni ta'minlash, bunda bankning likvidligini maqbul darajada saqlash, xatarlarni diversifikatsiyalash va ularni kamaytirish vositalaridan foydalanish hisoblanadi.

Ko'pgina tijorat banklari kredit siyosati strategiyasi quyidagilarga yo'naltirilgan bo'ladi:

- iqtisodiyotning real sektori, eksport qilinadigan, import o'rmini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishga va mahalliy xom-ashyoni qayta ishlashga qaratilgan loyihalarni ustuvor kreditlash;
- kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama, jumladan byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari, shuningdek, xalqaro moliya institutlari liniyalari bo'yicha jalb qilinadigan mablag'lar orqali kredit bilan qo'llab-quvvatlash;
- Bank kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushini qarz oluvchilarning to'lov intizomini tiklash va mustahkamlash, shuningdek, loyihalarga yangi investorlarni jalb qilish orqali qisqartirish;
- kredit xatarlarini kamaytirish uchun kreditorlar o'rtasidagi axborot almashuvi tizimida ishtirok etish.

Kreditlashni bank kredit siyosatining asosiy strategik yo'nalishlariga muvofiqligini, shuningdek kredit jarayonlariga doir tartibotlarning bir xilligini ta'minlashi lozim.

Kredit siyosati quyidagilarni belgilaydi:

- kredit jarayonini boshqarish bo'linmalari va organlari tuzilmasini;
- Kredit qo'mitasi tarkibini shakllantirish va uning vakolatlarini;
- ko'rsatkichlarga bog'liq ravishda kreditlar berish bo'yicha qarorlar qabul qilish tartibini;
- kreditlarning sifatiga bog'liq ravishda bank uchun maqbul daromadlilik va xatar darajasini;
- kreditlash jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarga nisbatan talablarni;
- belgilangan tartibda kreditlar bo'yicha samarali monitoring jarayoni va ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun adekvat zaxiralarni shakllantirish tartibini;
- kredit xatarlarini boshqarish tartibi va uni nazorat qilish vositalarini.

Tijorat banklari kredit siyosati tayanadigan asosiy tamoyillari quyidagilar:

- ✓ Bankning umumiy rivojlanish strategiyasi va bank faoliyatining alohida yo'nalishlari (depozit, investitsion, aktiv va passivlarni boshqarish, foiz) siyosati bilan uzviy bog'liqlik;
- ✓ beriladigan kreditlarning asosiy kreditlash tamoyillari – qaytuvchanlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik, maqsadli foydalanish va bank uchun rentabellik tamoyillariga majburiy rioya qilish;
- ✓ kreditlarning samaradorligi, ularning ta'minlanganligi hamda bank va qarz oluvchilar tomonidan shartnomaviy majburiyatlarni qabul qilishning yuridik jihatlarini oqilona baholash;
- ✓ Bank tomonidan kredit jarayonlari amalga oshirilishi bo'yicha aniq o'rnatilgan cheklovlarning mavjudligi;
- ✓ kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida mas'uliyatni taqsimlash.

Kredit jarayoni bank tomonidan beriladigan kreditlar va ularga tenglashtirilgan jarayonlar bo'yicha qaytmaslik tavakkalchiligini minimallashtirish, ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun adekvat zaxiralarni yaratish hisobga olingan holda tashkil etilishi lozim.

Banklar kredit siyosatini amalga oshirish va kreditlash uchun tegishli sharoitlarni yaratish jarayonida quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

- yuqori sifatli aktivlar yaratish (kreditlar va ular bo'yicha foizlarni o'z vaqtida qaytarish) imkonini beradigan tavakkalchilikka yo'l qo'yish va daromadlilikning barqaror maqsadli darajasini ta'minlash;

- Bankning strategik maqsadlariga mos iqtisodiy jihatdan istiqbolli va rentabel loyihalarni moliyalash uchun ssudalar berish;

- Bank mijozlari bilan uzoq muddatli, foyda keltiruvchi munosabatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish;

- Bankda mavjud jalb etilgan resurslardan birinchi o'rinda iqtisodiyotning real sektorini, jumladan, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni kreditlash uchun foydalanish;

- kreditlashning o'zini oqlamagan, shuningdek, vaqtinchalik, bank amaliyotida istiqbolsiz usullaridan foydalanishdan qochish;

- Bank kredit portfelining yuqori sifatini ta'minlash maqsadida kredit xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish.

Banklar daromadlilikning etarli darajasini saqlash maqsadida aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi tomonidan belgilanadigan stavkalar bo'yicha kreditlar berishni ko'zda tutishlari lozim.

Banklar Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida sanoat, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bilan bog'liq loyihalarni kreditlash hajmlarini oshirib boradi. Bunda kreditlar tadbirkorlar uchun maksimal darajada qulaylashtiriladi, jumladan maxsus imtiyozli kreditlash fondi, byudjetdan tashqari fondlar va Hukumat qarorlariga muvofiq boshqa manbalar orqali imtiyozli kreditlash uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirda banklar asosan ichki manbalar orqali uzoq muddatli kreditlash hajmlarini oshirish siyosatini davom ettirmoqda. Banklar O'zbekiston Respublikasining investitsion va boshqa hukumat dasturlariga, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hududiy dasturlariga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish amaliyotini davom ettirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.05.2006-yildagi №PQ-350-sonli «O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq va ustuvor investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, tijorat banklari tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari orqali moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarni amalga oshirish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

Kredit siyosati kredit berish jarayonida jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida kayd etiladi.

Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berish davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo'yilishi kerak.

Kreditlar berish va kredit jarayonlariga tenglashtirilgan amaliyotlarni (faktoring, overdraft, lizing, kafolatlar va boshqalar) amalga oshirish to'g'risidagi qarorlar bankning quyidagi jamoaviy boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadi:

1. Filial Kredit qo'mitasi.

2. Bank Kredit qo'mitasi.

3. Bank Boshqaruvi.

4. Bank kengashi.

Barcha kredit vakolatlari mijoz qarzining yalpi summasiga asoslangan bo'lib, u:

- Bank tomonidan ro'yxatga olingan barcha bevosita ssuda qarzdorligi;

- har qanday kredit liniyalari yoki mijozga nisbatan boshqa majburiyatlarning foydalanilmagan qismi;

- bank tomonidan mijoz foydasiga berilgan har qanday mavjud kafolatlar;

- mijoz boshqa mijozning qarzlari uchun majburiyatni zimmasiga olgan barcha bilvosita qarzlari (mijozning bank tomonidan tasdiqlangan kafolatlari);

- ko'rib chiqish bosqichida bo'lgan kredit.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha qarzdorliklar summasi berilgan kredit vakolatlari darajasiga teng yoki undan kichik bo'lishi lozim, aks holda kredit rasmiylashtirilmasligi lozim.

Tijorat banklari kredit siyosatida kollegial organlar vakolatlarini taqsimlashning quyidagi vakolat darajalari ko'zda tutiladi:

Bank Kengashi:

a) bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga ajratilayotgan kreditlar (faktoring, lizing jarayonlarini amalga oshirish, qoplanmagan akkreditivlar ochish va qoplanmagan kafolatlar berish) summasi yoki bank oldidagi umumiy majburiyatlari I darajali bank kapitalining 10 foizdan ortiq bo'lgan hollarda qaror qabul qiladi;

b) Markaziy bank me'yoriy hujjatlariga muvofiq bankka daxldor shaxslar bilan tuziladigan kredit bitimlarini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qiladi;

v) bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga milliy va xorijiy valyutada kreditlar ajratish to'g'risida bank kredit qo'mitasi vakolatlaridan yuqori bo'lgan, lekin I darajali bank kapitalining 25 foizidan ko'p bo'lmagan, shuningdek loyihalarni kreditlash muddati 10-yildan ortiq bo'lgan hollarda qaror qabul qiladi;

g) balansdan tashqari «ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvarag'ida 5-yildan ortiq muddatda hisobi yuritilayotgan «umidsiz» aktivni (asosiy qarz, foizlar, jarima choralari va penyalarni) hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi va mazkur qarorni bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida tasdiqlaydi;

d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31-dekabrda 290-sonli «eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «eksport qiluvchi korxonalarining banklarning kreditlari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan va joriy qarzlari summasini tarkibiy o'zgartirish hamda jarima sanksiyalari va penyalarni hisobdan chiqarish bo'yicha murojaatlarini Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish bo'yicha Respublika komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi Vaqtinchalik nizom»ga muvofiq iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish bo'yicha Respublika komissiyasi yig'ilishi bayonnomasi asosida bank kreditlari bo'yicha jarima sanksiyalari va penyalarni hisobdan chiqarish bo'yicha qaror qabul qiladi.

e) kreditlash va monitoring amaliyoti bilan bog'liq kuchaytiruvchi, biroq bank kredit siyosati, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va banklarni ichki me'yoriy hujjatlariga zid bo'lmagan vakolatlar darajalarini belgilaydi.

Bank va filiallar kredit qo'mitalari.

Bank va filiallar kredit qo'mitalarining vakolatlari bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kredit qo'mitasi to'g'risida»gi nizom bilan belgilanadi. Bunda:

a) Kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatlari har bir filial bo'yicha differentsiyalangan ravishda filialning o'tgan moliya-yilidagi kredit jarayonlarining samaradorligi (daromadliligi), mijozlar bazasi tarkibi, kredit portfeli sifati, kredit xodimlarining kasbiy mahorati, filialda

kreditlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan taftishlar, tekshirishlar natijalaridan kelib chiqqan holda o'rnatiladi.

b) Banklar kredit qo'mitasining filiallar kredit jarayonlari bo'yicha qarori filial kredit qo'mitasining ijobiy qarori mavjud bo'lgan holda qabul qilinadi.

v) Banklar kredit qo'mitasi uzoq muddatli kreditlar berish bo'yicha (filialga o'rnatilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqilganda) filiallar kredit qo'mitalariga hisobraqamlari bo'yicha katta aylanmalarga ega, kreditga layoqatlilik sinfi 2 dan kam bo'lmagan va/yoki kredit bo'yicha etarlicha likvid ta'minotga ega korxonalar bo'yicha (bankning investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish va monitoring qilish departamenti xulosasi asosida) qarorlar qabul qilish yuzasidan bir martalik vakolatini topshirishi mumkin.

Banklarning kredit siyosati, bankning kredit qo'mitasi raisiga (u ishda bo'lmagan paytda kredit qo'mitasi raisi o'rinbosariga) bank filiallariga quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishga ruxsat etish vakolatlarini berishni ko'zda tutadi:

- alohida xo'jalik subyektlariga kredit summasi uchinchi shaxslarning kafilligi bilan 100% ta'minlangan hollarda filiallar uchun belgilangan limitlar doirasida ssudalar berishga;

- alohida hollarda (filialga o'rnatilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqilganda) hisobraqamlari bo'yicha va bank filiallariga topshiradigan naqd pul tushumlari hajmi bo'yicha katta aylanmalarga ega strategik muhim mijozlarga qisqa muddatli ssudalar berish bo'yicha filiallarga bir martalik vakolatlarni berish;

- Tijorat banklari kredit qo'mitasi ruxsati bilan berilgan kreditlar bo'yicha kredit hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi va kafolatlar chiqarish bo'yicha shartlarning bajarilishi ustidan nazorat hamda ularning keyingi monitoringini amalga oshirish mas'uliyati filiallar kredit qo'mitalari zimmasiga yuklatiladi.

Iqtisodiyot alohida sohalarining respublika iqtisodiy mustaqilligini rivojlantirish va mustahkamlash, fuqarolarning hayot farovonligini oshirishdagi muhim ahamiyatini hisobga olgan holda banklar kredit siyosatida quyidagi eng ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

- sanoat (avtomobilsozlik, engil, nefetgaz, mashinasozlik, elektrotexnika, oziq-ovqat);

- qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq sobalar;

- qurilish, qurilish materiallari ishlab chiqarish;

- foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash;
- ichki va tashqi savdo;
- turizm va xizmatlar komplekslari infratuzilmasi (mehmonxona biznesi, AYoQSh, avtoxizmatlar, maishiy xizmatlar va b.);
- transport va aloqa infratuzilmasi;
- iste'mol kreditlari.

Kredit portfelini kreditlar turlari bo'yicha diversifikatsiyalash, kreditlarning alohida iqtisodiyot tarmoqlarida to'planishi bilan bog'liq xatarlarni minimallashtirishni ta'minlash maqsadida banklar kreditlash turlari, muddatlari bo'yicha alohida cheklovlarni saqlab qolishadi.

Bankning ustuvor maqsadlaridan kelib chiqilgan holda, uzoq muddatli kredit qo'yilmalari bank kredit portfeli umumiy miqdorining kamida 70 foizini tashkil qiladi. Muddatlar bo'yicha kredit qo'yilmalari hajmlari har-yili rejalashtirilayotgan-yil uchun biznes reja tarkibida tasdiqlanadi.

Bank ishonchli kreditlari uchun xatarning maksimal miqdori I darajali bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi lozim.

Barcha yirik kreditlarning umumiy summasi I darajali bank kapitali miqdoriga nisbatan 8 martadan ortiq bo'lmashligi lozim.

Har qanday bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhining balansdan tashqari majburiyatlarini ham hisobga olgan holda I darajali bank kapitalining 10 foizidan ortiq bo'lgan kreditlari jami summasi yirik kredit hisoblanadi.

Bitta qarz oluvchi yoki o'zaro daxldor qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keladigan xatarning maksimal miqdori I darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim. Kreditlarning bitta sohada to'planishi kredit portfeli umumiy summasining 50 foizidan oshmasligi lozim. O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan va/yoki pul depozitlari bilan ta'minlangan kreditlar va boshqa majburiyatlar bundan mustasno.

Kreditlash muddatlari bo'yicha cheklovlar.

Kreditlash muddati:

- kredit liniyasi ochilgan holda aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ishlab chiqarish tsiklini tashkil qilishga, ulgurji va chakana savdo korxonalariga beriladigan kreditlar bo'yicha – 1-yildan oshmasligi lozim;
- chakana savdo korxonalariga – 3 oydan ortiq bo'lmagan muddatga kreditni va foizlarni naqd pulda to'lash hamda shartlarini qayta ko'rib chiqmaslik va muddatini uzaytirmaslik shartlari bilan (1-yildan oshmagan kredit liniyasi ochilgan holatlarda, har bir individual kreditlar muddati 3 oydan oshmasligi lozim);

- kichik biznes korxonalariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha –2008-yil 28-noyabrdagi PF-4058 sonli firmoning 1-ilovasiga muvofiq 18 oydan oshmasligi lozim;

- investitsiya loyihalari uchun kreditlar bo'yicha 10-yildan oshmasligi lozim;

- aholiga ipoteka kreditlari bo'yicha 15-yildan oshmasligi lozim.

10-yildan ortiq muddatga kreditlar istisno tariqasida Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo'yicha yoki xorijiy bank va boshqa moliya institutlarining jalb etilgan kredit liniyalari orqali (Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida va kredit bitimlarida belgilangan shartlar asosida) berilishi mumkin.

Bankning kredit bo'linmalari tomonidan iqtisodiy normativlarga rioya qilinishi, kreditlarning to'planishi ustidan nazorat banklarning tegishli departamentlari, ushbu nazorat natijalari 1 oyda bir marta Kredit qo'mitasi va Bank Boshqaruviga etkaziladi.

Kredit jarayonini tashkil etish va kredit portfelini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar kredit qo'mitasining rahbarligi ostida amalga oshiriladi hamda kredit tavakkalchiligini hisobga olgan holda foydaning barqaror, mo'ljalli va maqbul normasiga erishishga qaratilgan, shuningdek, berilgan kreditlarga sifatli xizmat ko'rsatilishi va ularning monitoringini ta'minlashi lozim.

Ssuda berish qarz oluvchi to'g'risida, uning kreditni qaytarishga layoqatini baholashga imkon beradigan axborot mavjudligini taxmin qiladi. Axborot o'z vaqtida taqdim etilmasa yoxud haqqoniy bo'lmagan, xatolikka ega moliyaviy hisobot taqdim etilsa, ssudalar berish tavsiya etilmaydi.

Ssuda berish to'g'risidagi qaror vakolatli organ tomonidan loyhaning biznes-rejasi (TIA) tahlilidan so'ng qabul qilinadi. Kredit ehtimolli qarz oluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarida hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan hujjatlar to'plami taqdim etilganidan so'ng berilishi mumkin. Taqdim etilayotgan hujjatlar to'plamining tarkibida biznes-reja/TIA (ipoteka, iste'mol va ta'lim kreditidan tashqari) bo'lishi va unda qarz oluvchi tomonidan majburiy tartibda loyihani o'zini qoplashi, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan joriy faoliyatni amalga oshirish uchun pul oqimining etarli ekanligi, ssuda va foizlarni to'lash jadvali xususida asoslangan hisob-kitoblar keltirilishi, shuningdek, bank kreditidan foydalanib ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish rejalashtirilayotgan tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotish

bozori mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar va asoslanma, marketing tahlili va ehtimolli xaridorlarni aniqlash aks ettirilishi lozim.

Kreditlar va ularga tenglashtirilgan aktivlar (faktoring, lizing va boshqalar) bo'yicha foiz stavkalarining belgilanishi banklarning «foiz siyosati» bilan tartibga solinadi. Foiz stavkalari valyutaning turi, kreditning muddatlari va hajmlari, resurslarning manbalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tijorat banklari kredit liniyalarining shartlari, jalb qilingan resurslar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi darajasi, qarz oluvchilarning kreditni qaytarish qobiliyati, kredit tavakkalchiligining darajasi va boshqa ehtimolli xatarlarga bog'liq ravishda belgilanadi.

Kreditlarni to'lash jadvali kreditlashning turiga bog'liq ravishda, biznes-reja (TIA) bo'yicha naqd pul oqimining tahlili asosida hamda qarz oluvchining ishlab chiqarish siklini hisobga olgan holda belgilanadi. kreditning oxirgi muddati bilan bir paytda kreditning butun summasi to'lovini belgilash tavsiya qilinmaydi.

Bank kredit siyosati bank kredit qo'mitasi tomonidan qaror qabul qilingan sanadan boshlab, kredit shartnomasida o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa,

- qisqa muddatli kredit bo'yicha 30 bank kuni ichida,
- uzoq muddatli kredit bo'yicha esa 90 bank kuni ichida moliyalashtirish ochildirgan taqdirda bank kredit qo'mitasining qarori o'z kuchini yo'qotishi belgilanadi.

Bankning kredit siyosati qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda kredit foizlarini va asosiy qarz to'lovini undirishga qaratilgan.

Kreditdan foydalanish muddati kreditni maqsadi, uning qoplanishi, qarz oluvchining to'lov qobiliyati va kredit ta'minotiga bevosita bog'liq ravishda belgilanishi lozim.

Ssudani olish uchun berilgan arizada uni to'lashning birlamchi va ikkilamchi manbalari ko'rsatilishi lozim. Hatto qat'iy ta'minot bo'lgan taqdirda ham ssudani to'lashning manbalari va istiqbollari asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Kafolatni sotishdan tushadigan mablag'lar ssudani to'lashning ikkilamchi emas, birlamchi manbasi hisoblanadigan kreditlar (tegishli tarzda rasmiylashtirilgan muddatli depozitlar bundan mustasno) berilishi mumkin emas.

Chet el valyutasidagi qarzdorlikni to'lash uchun mablag'lar etishmagan taqdirda qarzdorlikni milliy valyutada, uni birjadan tashqari valyuta bozori mablag'lari yoxud bankning o'zining resurslari hisobiga

chet el valyutasiga aylantirish yo'li bilan qoplashga yo'l qo'yilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrda 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi»ga muvofiq bank, garovga qo'yilgan mol-mulkni yoki kredit bo'yicha ta'minotning boshqa turini sotishdan tushgan mablag'lar Qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini qoplash uchun etarli bo'lmaganda, bank kredit bo'yicha qarzdorlikni Qarzdorning garovda bo'lmagan boshqa likvidli mol-mulki hisobiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan va notarial tasdiqlangan yozma bitim asosida qoplashga haqli bo'ladi.

Xorijiy valyutada kredit yoki unga tenglashtirilgan aktivlar bo'yicha qarzdorlik bo'lib, qarz oluvchining chet el valyutasida mablag'i bo'lmasdan, ammo milliy valyutada mablag'i bo'lgan holatda, siyosatda milliy valyutani qarzdorlik valyutasiga bank mablag'lari hisobiga operatsiyani amalga oshirish kunidagi Markaziy bank kursi bo'yicha konversiyalash nazarda tutiladi.

Ssudalarni restrukturizatsiyalash mazkur kreditni berish to'g'risida qaror qabul qilgan kredit qo'mitasining qarori asosida amalga oshiriladi. Restrukturizatsiyalash deganda ilgari tuzilgan kredit shartnomasi shartlarining (kreditlash muddatining, foiz stavkasining, asosiy qarzni qaytarish bo'yicha to'lovlar davriyligi, kredit uchun foizlarning o'zgarishi) hech bo'lmaganda birortasini o'zgartirishga aytiladi. Kredit oxirgi muddatlari uzaytirilgan (prolongatsiya) taqdirda kredit qo'mitasining qarorini bank boshqaruvi tasdiqlaganidan so'ng kuchga kiradi.

Kreditlarni restrukturizatsiyalash, odatda, bunga iqtisodiy asoslanma bo'lganida amalga oshirilishi mumkin, muayyan kredit bo'yicha restrukturizatsiyalash to'g'risida qaror loyihaning o'zgartirilgan TIA (biznes-rejasi) hamda restrukturizatsiyalash sabablari va maqsadga muvofiqligini tahlil qilish asosida qabul qilinishi mumkin.

Kreditlarni restrukturizatsiyalash kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni rasmiylashtirish hamda zarur holatlarda kreditni ta'minotiga oid hujjatlarni (garov, kafillik, kafolat shartnomalari, sug'urta polislari, depozitlar) qayta rasmiylashtirish bilan kechishi lozim.

Ayrim hollarda, qarz oluvchida bank oldidagi to'lov majburiyatlarini bajarishi uchun obyektiv sabablarga ko'ra pul mablag'lari vaqtinchalik bo'lmaganida kredit siyosati kredit kelishuvlari shartlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini nazarda tutadi.

Kreditlar quyidagi shartlarga asosan restrukturizatsiya qilinishi mumkin:

a) kreditlashning umumiy muddati o'zgarmagan holda kreditni to'lash jadvalining o'zgarishi;

b) kreditlash umumiy muddati o'zgargan holda kreditni to'lash jadvalining o'zgarishi (kafolat yoki ta'minotning boshqa turi bo'yicha shartnomaning muddatini qayta rasmiylashtirish sharti bilan);

v) foizlarni to'lash jadvalining o'zgarishi;

g) kredit bo'yicha foiz stavkasining o'zgarishi;

d) kredit bo'yicha majburiy tartibda tegishli qo'shimcha ta'minot taqdim etilib, berilayotgan kredit miqdorining o'zgarishi;

e) kredit bir valyutadan ikkinchisiga konversiya qilinib, kredit shartlarining qayta ko'rib chiqilishi;

j) kreditni moliyaviy sog'lomlashtirishga, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga, kredit va foizlar to'lanishiga qaratilgan, kreditlarni restrukturizatsiyalashning qonunchilikda man etilmagan boshqa turlari.

Kredit shartnomasida:

- qisqa muddatli,

- uzoq muddatli sifatida belgilangan kreditning toifasi kredit muddati qayta ko'rib chiqilishi yohud uni maqomi muddati o'tgan deb o'zgartirilishi sababli o'zgar olmaydi.

Kredit muddati uzaytirilgan taqdirda, agar kredit shartnomasida foizlarni to'lash asosiy qarzni to'lash bilan bir paytda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, hisoblangan, ammo muddatida to'lanmagan foizlarning ham muddati ayrim holatlarda uzaytirilishi mumkin.

Ishonchli kreditlarni muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bank kredit qo'mitasining kreditni restrukturizatsiyalash bo'yicha qarori, qarz oluvchi tomonidan banklar kredit qo'mitasining bayonnomasida ko'rsatilgan shartlar bajarilmagan taqdirda qaror qabul qilingan sanadan boshlab uch oy o'tganidan so'ng o'z kuchini yo'qotadi.

Bankda ssudalar sifatini va butun Kredit portfelini baholash uchun xatar darajasini, shuningdek, kredit yo'qotishlarini qoplash zaxirasini hisob-kitob qilish uchun yagona baholash tizimi ishlatiladi. Har bir kreditni tasniflash va ehtimolli yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxirani shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimolli yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom»ga (O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) muvofiq amalga oshiriladi.

Kreditga xizmat ko'rsatish jarayonida kredit xodimlari har bir qarz oluvchining kredit jildini yuritadilar. Kredit jildi Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritishning tartibi to'g'risida»gi nizomi talablariga muvofiq shakllantiriladi.

Kredit jarayonlari va qarz oluvchilarning kredit tarixi xususida ma'lumotlar olish maqsadida bank kredit axboroti milliy instituti bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuniga muvofiq nazorat qilinishi lozim bo'lgan kredit jarayonlari bo'yicha bank qarz oluvchilarni identifikatsiyalash bo'yicha barcha talab etilgan tartibotlarni yuritadi hamda amalga oshirilayotgan jarayonlarning ichki nazorati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

Kredit to'lanmasligi xavfini bartaraf etish maqsadida qarz oluvchi kredit ta'minotini taqdim etishi mumkin, unga qo'yiladigan asosiy talab sotiluvchanligidir. Kredit miqdorining har xil turdagi ta'minotlarning qiymatiga nisbati kreditlash bo'yicha banklarning ichki normativ va Markaziy bank hujjatlari, shuningdek, chet el valyutasida kredit liniyalarini ochgan xalqaro valyuta institutlarining kelishuvlari bilan belgilanadi.

Kreditni qaytarish ta'minotini tasdiqlaydigan hujjatlar ssuda berilgunga qadar bankka bir yoki bir necha xil shaklda taqdim etiladi. Ta'minotning qabul qilinadigan barcha turlari amaldagi qonunchilik va banklarning meyo'riy hujjatlari talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Ta'minot sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin:

a) O'zbekiston Respublikasi Hukumatining, vakolatlangan boshqa shaxslarning kafolati,

b) davlat qimmatli qog'ozlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari, qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa qimmatli qog'ozlar va ustav fondlaridagi ulushlar,

v) bankda ochilgan hisobraqamlarda to'rgan erkin ayirboshlanadigan va milliy valyutadagi garov,

g) banklarning kafolatlari,

d) yuridik yoki jismoniy shaxsning mulk obyekti hisoblangan mulkning likvidli garovi,

e) o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiruvchi moliyaviy barqaror sug'urta kompaniyalarining kafolatlari yoki sug'urta polisleri,

j) to'lov qobiliyati va kafilning moliyaviy jihatdan ishonchiligi tekshirilgan uchinchi shaxslarning kafilligi,

z) jismoniy shaxslarning kafilligi – ta'lim, iste'mol, jumladan, avtokredit, va ipoteka kreditlari bo'yicha;

i) kredit summasini kamida 1,25 ortiq miqdorda qoplaydigan, eksport kontrakti bo'yicha talab qilish huquqlarini mijozdan bank foydasiga voz kechib o'tkaziladigan eksport kontrakti. Ta'minotning bunday turi faqat moliyaviy barqaror mijozlarni kreditlashda qabul qilinishi mumkin,

k) qonunchilikda ta'qiqlanmagan ta'minotning boshqa turlari.

Garovga qabul qilinadigan mol-mulkning qiymatini aniqlash «Baholash faoliyati to'g'risida», «Garov to'g'risida», «Ipoteka to'g'risida» Qonunlar va shu masalaga taalluqli boshqa hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlari va tijorat banklari ichki siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Mol-mulk qiymatini baholash, baholanadigan ashyoning bozor narxini aniqlashga asoslanishi, yozma shaklda bayon etilishi, uni aniqlashning asoslari xususida foydalanuvchilarga tushuncha berish uchun etarli tavsifga ega bo'lishi lozim. Baholanadigan ashyoning bozor narxi uni sotish zarur bo'lganda ehtimolli yo'qotishlarni aks ettirishi lozim.

Ta'minot sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin emas:

a) byudjet tashkilotlarining kafilligi, qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno;

b) moliyaviy jihatdan barqaror bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarning kafilligi;

v) likvid bo'lmagan mol-mulk;

g) tarixiy, madaniy yoki boshqa jihatdan qimmatligi yohud boshqa sabablarga ko'ra garovga olinishi/davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiylashtirilishi va sotib olinishi mumkin bo'lmagan mol-mulk;

d) fuqarolar mol-mulking qonunchilikka binoan undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan ayrim turlari.

Kafilning va kafolat beruvchining to'lov qobiliyatini baholash Markaziy bank va Tijorat banklarining kreditlash bo'yicha me'riy hujjatlarida bayon etilgan talablarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Kreditlar bo'yicha qabul qilingan ta'minot monitoringi chorakda kamida bir marta kreditga xizmat ko'rsatuvchi filial tomonidan amalga oshiriladi.

Kredit monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) kreditni monitoring qilish,
- b) Kredit portfelini monitoring qilish.

Kredit monitoringining asosiy maqsadi – qarz oluvchining to'lovga qobiliyatsizligini barvaqt aniqlash hamda kredit va foizlar so'zsiz to'lanishini ta'minlash. Kredit monitoringi, bankning ichki normativ hujjatlarida o'zga tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qarz oluvchining hisobraqamiga xizmat ko'rsatiladigan manzil bo'yicha kreditni bergan bankning tarkibiy tuzilmasi tomonidan amalga oshiriladi. Kreditlar monitoringi tizimi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) joriy monitoring (kreditni olish va to'lash bosqichida),
- b) keyingi monitoring (hisobdan chiqarilgan va bankning balansdan tashqarida hisobga olinadigan kreditlar monitoringi).

Qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik ahvoli yomonlashganda, bank nazoratidan bosh tortganida, hisobot ma'lumotlarining haqqoniy emasligi hamda buxgalteriya hisobinining izdan chiqqanlik faktlari yuzaga chiqqanda bank kredit shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirishi kerak:

- a) kreditlash to'xtalishi to'g'risida ogohlantirib da'vo xatlarini yuborish,
- b) ssuda qarzdorligi qoldig'ini undiruvga muddatidan avval taqdim qilish;
- v) kredit shartnomasi shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa harakatlar.

Kredit portfelini monitoring qilishdan maqsad kredit xatarlari darajasini baholash hamda kreditlar portfeli sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir. Kredit portfeli bo'yicha yaxlit shakllantirilgan zaxiralarni monitoringi kredit bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kredit portfeli tuzilmasini tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) kreditlar reytingi;
- b) kredit tarixi;
- v) ta'minot sifati;
- g) tarmoqqa tegishliligi.

Kreditlarni tasniflash hamda ssudalar bo'yicha ehtimolli yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralarni yaratish to'g'risida qaror qarz oluvchini quyidagi mezonlar bo'yicha dinamikada baholash asosida qabul qilinadi:

- a) qarz oluvchining moliyaviy ahvoli;
- b) mijozning kredit tarixi;

v) tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ta'minotning mavjudligi;

g) qarz oluvchini korxonasining rahbariyat va boshqaruvining sifati.

Ehtimolli yo'qotishlarga mo'ljallangan zaxira faqat kredit bo'yicha to'lanmagan qarzдорlikni qoplash uchun ishlatiladi. Asosiy qarz va foizlarni to'lashda muammoli kreditlar alohida monitoring ostida bo'ladi.

Qarz oluvchining to'lov majburiyatlarini tasdiqlash maqsadida Bank turli ko'rinishdagi (to'lov, bo'nak to'lovi, kontraktni, taklifni bajarish va b.) kafolat, kafillik beradi hamda hujjatli akkreditivlarni ochadi.

Kafolat, kafilliklarni muomalaga chiqarganda hamda pul mablag'lari bilan ta'minlanmagan akkreditivlarni ochganda bank, kreditlashda qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va kreditni ta'minotini tekshirishda amalga oshiriladigani kabi ish olib boradi. Kafolat jarayonlarini va hisob-kitobning akkreditiv shakllarini o'tkazishda Bank akkreditiv va kafolatlar bo'yicha tegishli xalqaro qoidalarga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat bankining ichki hujjatlariga tayanadi.

Qabul qilingan kafolat, akkreditiv majburiyatlari va kafillik uchun Bank amaldagi tariflarga muvofiq mijozdan komissiya to'lovi undiradi.

Kompleks kredit nazorati funktsiyalarini taqsimlash bo'yicha vakolat bank boshqaruvi zimmasiga yuklatiladi.

Kredit portfeli nazorati tegishli kredit qo'mitasi tomonidan unga topshirilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi. Kredit qo'mitasining faoliyati kredit tavakkalchiligini hisobga olgan holda foydaning barqaror, mo'ljalli va maqbul normasiga erishishga qaratilgan. Kredit qo'mitasi kredit standartlari, kredit siyosati, kreditlarni berish jarayoni va kredit portfelining sifatini belgilaydi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. U, shuningdek, asosiy kredit buyurtmalarini ko'rib chiqadi hamda taqdim etilgan kredit limitlarining bajarilishini nazorat qiladi. Kredit qo'mitasining faoliyati kredit qo'mitasi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi. Kredit jarayonini amalga oshirish bankning tegishli departamentalriga hamda xizmat ko'rsatuvchi filiallarga yuklatiladi va banklarning tegishli ichki normativ hujjatlari (qoidalar, texnikaviy tartiblar, tartibotlar va sh.k.) bilan tartibga solinadi.

Bankning yuridik xizmati va filiallarning yuristlari kreditga oid: kredit shartnomalarini rasmiylashtirish va tuzish, garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalash shartnomalari hamda kreditning garov bilan ta'minlanmagan qismini qaytarmaganda qarz oluvchining mas'uliyatini sug'urtalash, shuningdek, beriladigan kreditlar bo'yicha ta'minotni taqdim etishga qaratilgan shartnomalarini rasmiylashtirish va tuzish, muddati o'tgan ssudalarni undirish bo'yicha da'vo ishlarini amalga

oshirishda bankning tegishli tarkibiy tuzilmalari, sud va boshqa organlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini ko'rib chiqadi.

Bankning yuridik boshqarmasi, shuningdek, kredit jarayonlari masalalarida bank faoliyatini belgilaydigan amaldagi qonunchilik va normativlardagi o'zgarishlarni kuzatib boradi, bankning tegishli tarkibiy tuzilmalarini amaldagi qonunchilik o'zgargani xususida xabardor qiladi.

Bankning kredit jarayoni bilan bog'liq har bir bo'limasi o'z ishini bankning kredit siyosatiga muvofiq umumiy vazifalaridan kelib chiqqan holda, funktsional vazifalarida belgilangan maqsad va vazifalarga asoslanib quradi.

Amaldagi qoidalar va bank siyosatiga muvofiq kredit portfelining auditini ichki va tashqi audit organlari tomonidan amalga oshiriladi. Audit va tahlil jarayonida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilishi lozim:

- a) kredit munosabatlarining amaldagi qonunchilikka va bank kredit siyosatining talablariga mosligi;
- b) berilgan kreditlarning bankning tasdiqlovchi kollegial boshqaruv organi vakolatlariga muvofiqligi;
- v) garov ta'minotining haqqoniylik va moslik jihatidan kredit siyosati talablariga muvofiqligi;
- g) kredit xatarlarini tegishli tarzda baholash va/yoki ularni imkon qadar kamaytirish bo'yicha choralarni belgilash;
- d) ustama foizlarning kredit siyosati talablariga muvofiqligi;
- e) yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralarning Markaziy bank va amaldagi qoidalariga muvofiqligi.

Kredit siyosati bank kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng bank boshqaruviga uni amalga oshirish bo'yicha vakolatlar, ijro etish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni tashkil etish uchun beriladi.

Joriy kredit siyosati kamida-yilda bir marta, zarurat yuzasidan esa bundan ham tezroq muddatda qayta ko'rib chiqiladi. Kredit siyosatini qayta ko'rib chiqishdan maqsad – joriy siyosatning bankni qisqa va uzoq muddatli strategik vazifalariga muvofiqligini ta'minlashdan iborat.

Shunday qilib, har bir tijorat bankining kredit siyosati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan holda, Markaziy bank talablari asosida mustaqil ishlab chiqiladigan hujjatdir.

Tayanch so'z va iboralar

Zaxira ajratmalari, kredit, kreditlash bosqichlari, kredit siyosati, kredit ta'minoti, kredit portfeli, kredit to'lovi, muammoli kreditlar, monitoring, risk.

Takrorlash uchun savollar

1. Kreditlashni tashkil etish xususidagi qanday ilmiy-nazariy qarashlarni bilasiz?
2. Kreditlashni tashkil etish qaysi huquqiy asoslarga tayanadi?
3. Tijorat banklarining kredit siyosatining maqsadi nima va u kim tomonidan tasdiqlanadi?
4. Banklarning kredit siyosatida kreditlashning qaysi jihatlari o'z ifodasini topadi?
5. Tijorat banklarining kredit siyosatiga Markaziy bank tomonidan qanday talablar qo'yilgan?
6. Kreditlar berish bo'yicha tijorat banklarining filiallari qanday vakolatlarga ega?

IX BOB. KREDITNING TA'MINOTI VA UNING SHAKLLARI

9.1. Kreditning ta'minoti tushunchasi va uning kredit munosabatlaridagi ahamiyati

Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berishliligi, muddatlilik, ta'minlanganligi, maqsadlilik va to'lovlilik tamoyillaridir. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyili kreditning ta'minlanganligidir. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari yoki boshqa manbalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Kreditning ta'minlanganlik tushunchasi, bu xo'jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan moddiy boyliklarning bir so'mi qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo'jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to'liq tovar moddiy boyliklari va ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoklarga ta'minlanmagan bank kreditlarining berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmaslik ehtimolini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida, bankning likvidligiga va pul muomalasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga muhim e'tibor berilmokda.

Kreditning ta'minlanganligi deyilganda, berilgan kreditning qaytarilishi aniq moddiy qiymatliklar, pul xarajatlari yoki pul mablag'larini olishga bo'lgan huquq bilan kafolatlanganlik bo'lishi tushuniladi. Kreditning ta'minlanganligi amaliyotda garov obyektini tegishli tartibda rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ayrim hollarda, masalan, yirik mijozlarga kredit berilayotganida garov sifatida aniq shaklga ega bo'lgan garov obyektini emas, balki aktivlarning umumiy summasi olinishi mumkin.

Ta'minlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi.

Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi.

Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli (blankali) deb ham ataladi. Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchining obro'si, faoliyatini hisobga olgan holda uning daromadlari darajasi va kredit tarixi to'liq baholanganidan so'ng beriladi.

Kredit olayotgan korxonaga bankka tovar yoki tovar hujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkni garovga qo'yadi. Agarda bank bergan kredit qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida bankka qaytarilmasa, bank tovarni sotish hisobidan qarz o'rmini qoplash huquqiga ega bo'ladi.

Bank ssudalarining tovar moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank aylanmasidagi pullar nakd pulga transformatsiyalanib turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligida tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar turli shakldagi ta'minlanganlikka ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 259- moddasiga asosan qarzdorning majburiyatlarini garov, qarzdorning mulkini ushlab qolish, kafolat, va qonun bo'yicha yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa usul bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin. Bu ta'minotning qaysi birini tanlash majburiyat turiga bog'liq. Aksariyat hollarda kredit va qarz shartnomasini bajarish bo'yicha garov, kafolat qulay hisoblanadi. Qarz oluvchi kreditning ta'minlanganligi sifatida bir yoki bir necha turdagi ta'minlanganlikni qo'yishi va uni kredit shartnomasida ko'rsatishi mumkin. Kreditning ta'minlanganligi bo'yicha garov kredit shartnoma bilan bargalikda rasmiylashtiriladi va unga albatta ilova qilinishi lozim.

Jahon amaliyotida bank kreditlarini ta'minlashning keng tarqalgan turlari quyidagilar hisoblanadi:

- yer, uy-joy;
- qimmatli qog'ozlar;
- debitorlik qarzlari yig'indilari;
- tegishli hujjatlar bilan birga taqdim etilgan tovarlar;

- sug'urta polislari va boshqalar.

Yer, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk muhim ta'minlash obyekti bo'lib hisoblanadi. U hech qachon o'z qiymatini to'la yo'qotmaydi. Shu sababli, er, uy-joy ishonchli garov hisoblanadi. Odatda erning bahosi doimiy ravishda o'sib boradi va u barqaror hisoblanadi. Ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda erning bahosi sezilarli darajada yuqori sur'atlar bilan o'sadi, shuning uchun ham erni garovga olish asosida kreditlash moliyalashtirishning nisbatan xavfsiz shakli hisoblanadi. Bunda banklar istalgan va garovga olingan erni sotish yo'li bilan kredit va uning foizini undirib olishlariga qattiq ishonadilar. Lekin, erni garov sifatida foydalanish uchun huquqiy asoslar etarli bo'lishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasida er fondining mutloq asosiy qismiga nisbatan xususiy mulkchilik mavjud emas. Qishloq xo'jaligida fermerlarga erlar uzoq muddatli ijaraga berilgan.

Qimmatli qog'ozlar bank uchun ma'qulroq ta'minlash turi hisoblanadi. Chunki qimmatli qog'ozlarni fond bozorida osongina sotish mumkin, bankda saqlash uchun xarajatlar talab qilinmaydi. Shular bilan bir qatorda, ularni sotish va sotib olishda ortiqcha rasmiyatchilikning yo'qligi qimmatli qog'ozlarning ta'minlanganlik obyekti sifatida ahamiyatini oshiradi. Ayni vaqtda shuni esda tutish lozimki, agar ta'minlanganlik sifatida aksiya olinayotgan bo'lsa, uning kursi keskin tebranishi mumkinligini, kurs pasayganda zarar ko'rishligini, albatta inobatga olish lozim.

Hukumatning qimmatli qog'ozlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yuqori likvidli garov obyektlari sifatida tijorat banklari tomonidan tan olinadi.

Hukumatning qisqa, o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari mavjud bo'lib, ulardan kreditlar olishda garov sifatida faol tarzda foydalaniladi. Lekin O'zbekiston Respublikasida ushbu obyektidan faol tarzda foydalanish real shart-sharoiti mavjud emas.

Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, shubhasiz, yuqori likvidlilik xususiyatiga egadir. Chunki tijorat banki markaziy bankdan o'ziga ajratilgan qayta hisobga olish kontingenti doirasida istalgan vaqtda trattalarni topshirib pul mablag'lari olish mumkin.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G'arbiy Evropa davlatlari xo'jalik amaliyotida sanoat korxonalarining Hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Har qanday qimmatli qog'ozning

to'lovini Hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi.

Debitor qarzdorlik yig'indisi deganda, bu yerda ochiq schyotlar bo'yicha hisob-kitoblardagi qarzdorlik yig'indisi tushuniladi. Bu pul bankning mijozi jo'natgan tovarlari uchun haridorlardan olishi lozim bo'lgan puldir. Bu turdagi ta'minlash obyekti jahon amaliyotida keng qo'llaniladi.

Xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar ko'pchilik davlatlarda, xususan, respublikamizdagi kreditning keng qo'llaniladigan ta'minlanish obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta qilinuvchi sug'urta kompaniyasiga badal to'lab boradi. Sug'urta muddati tugashi bilan mablag' to'lagan shaxsga qaytarilishi mumkin. Bank sug'urta polisini yig'ilgan badallar yig'indisi miqdorida ta'minlanganlik uchun qabul qiladi.

Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli kredit shartnomasi bo'lib hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatda kreditlash jarayonida qo'llaniladi. Uzoq muddatli kredit berishda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda ba'zi hollarda, tijorat banklari tomonidan o'z sho'bbalarini va muassasalarini kredit berishda shu usul qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin, qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda, ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib etkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvchi natijasida aniqlanadi.

Kreditlar sifatli aktivlar bilan, aytaylik, er yoki hukumatning qimmatli qog'ozlari, ya'ni davlat zayomlari bilan ta'minlangan bo'lsa, u holda ularning foiz stavkasi ta'minlanmagan kreditlarnikiga nisbatan past

bo'lishi mumkin. Chunki, bunda kreditni qaytarmaslik riski minimal-
lashtirilgan bo'ladi. Xalqaro kreditlar oltin, olmos, platina kabi nodir
metallar bilan ta'minlangan bo'lsa, ularning foiz stavkasi sezilarli
darajada past bo'ladi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez
sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan,
korxonaga tegishli bo'lgan mulkni o'z ichiga olishi kerak.

Bank ssudalarini tovar-moddiy boyliklari bilan to'liq ta'minlan-
ganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank
mablag'larining aylanishi, ya'ni pullari naqd pulga va aksincha
transformatsiyalanib turadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida asosan
ta'minlanmagan kreditlar beriladi. Ular blank(ishonch)li kreditlar deb
ataladi.

Blankli kreditlar berishni keng tarqalganligining asosiy sababi
kuyidagilar:

- tijorat banklarida mijozlarning mulkiy va moliyaviy holatini
baholash tizimi yuqori darajada rivojlanganligi;

- mijoz bilan bank o'rtasidagi munosabatlarning uzoq-yillar davom
etayotganligi va shu-yillar davomida bankda mijozga nisbatan ishonch
hosil bo'lishi;

- kreditlarni garov ta'minoti bilan ta'minlash ortiqcha xarajatlarni
va qo'shimcha vaqtni talab qiladi;

- garov ta'minoti sifatida olingan obyektlar bahosining pasayish
xavfi doimo saqalib qoladi.

Kreditlarni garov ta'minoti bilan ta'minlashning asosiy sabablari, bu
mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik tufayli mijozlarning
pul oqimi zaif va nobarqarorligidir. Bizga ma'lumki, kredit garov obyekti
bilan ta'minlanmagan taqdirda, uni qaytarishning yagona manbai bo'lib
mijozning pul oqimi hisoblanadi. Pul oqimi qanchalik zaif va nobarqaror
bo'lsa, kreditning qaytmaslik ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta'minlanganligi qarz oluvchi
o'ziga olgan majburiyatlarni buzgan sharoitida qarz beruvchining
mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va kreditni biror
garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda o'zining amaliy aksini
topadi. Bu umumiktisodiy barqarorlik davrida, ayniqsa, muhimdir.

9.2. Garov mexanizmi va uning tuzilishi

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqiy majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Garovga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha o'z talabi garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga, qonunda belgilab qo'yilgan chegirishlardan keyin, haqli bo'ladi. Garovga oluvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni yo'qotganlik yoki unga ziyon etkazganlik uchun sug'urta haqidan, bu mol-mulk kimning foydasiga sug'urta qilingan bo'lishidan qat'i nazar, o'z talabi yuqoridagi asoslarda qanoatlantirilishiga haqli, basharti mol-mulkni yo'qotish yoki unga ziyon etkazish garovga oluvchi javobgar bo'lgan sabablarga ko'ra yuz bergan bo'lmasa. Garov shartnoma yoki qonun asosida amalda yuzaga keladi.

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquqlar garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Garovga qo'yiladigan mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda garov zakalat deb hisoblanadi. Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka hisoblanadi. Qarzdorning o'zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Ashyoning mulkdori ashyoni garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lgan shaxs huquqni garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdorning rozilgisiz ashyoviy huquqni garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Garov mexanizmi - bu garov to'g'risidagi shartnomani tayyorlash, tuzish va ijro etish jarayonidir.

Garov asosida yuridik shaxslarning ham, jismoniy shaxslarning ham majburiyatlari ta'minlanishi mumkin. Garov shartnoma yoki qonun asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda garov shartnomasi keng tarqalgan bo'lib, qarzdor o'z hoxishiga binoan, o'z mulkini kreditor bilan shartnoma tuzgan holda garovga qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan garov predmeti bo'lib, garovga qo'yuvchi shaxsning har qanday mulkni, shu bilan birga qimmatbaho qog'ozlar va mulkka egalik xuquqlari bo'lishi mumkin.

Garov predmetining egasi gapovga qo'yuvchi shaxs bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, garovga qo'yuvchi shaxs nafaqat ham qarzdor

bo'lishi mumkin, balki uchinchi shaxs ham bo'lishi mumkin. Mulkdan foydalanish huquqi, uning haqiqiy egasi singari, mulkka egalik qilish, foydalanish kabi huquqlarni, agar qonun va shartnomalarda ko'rsatilgan bo'lmasa, qarz beruvchi shaxsga beriladi. Amaliyotda garovdan foydalanish, uni qo'llashning maxsus mexanizmi bo'lishini ko'zda tutadi.

Garov predmetining miqdor va sifat jihatlariga umumiy va maxsus talablar mavjud bo'lib, sifat jihatiga bo'lgan umumiy talablar quyidagilar-dan iborat:

- Garov predmeti qarz oluvchiga tegishli bo'lishi kerak;
- Garov predmetlari pul qiymatiga ega bo'lishlari shart;
- Garov predmetlari likvid bo'lishi ya'ni realizatsiya qilinish xususiyatiga ega bo'lishlari kerak.

Garovning miqdoriga bo'lgan umumiy talab bu garovga qo'yilgan mulk qiymatining berilgan kredit va unga hisoblangan foizlar summasidan ko'p bo'lishidan iborat.

Garovning sifat va miqdor jihatlariga bo'lgan maxsus talablari garov shakliga va risklilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tovar-moddiy boyliklarning garov predmeti bo'lishga maqbulligi 2 omil orqali aniqlanadi:

- boyliklarning sifati;
- kreditorni ularning saqlanishi ustidan nazorat qila olish imko-niyati.

Tovar-moddiy boyliklarining sifat mezoni quyidagilar hisoblanadi: tez realizatsiya qilinishi, narxlarning nisbatan barqarorligi, sug'urtalash imkoniyati, saqlanish muddatining uzoqliligi. Shuning uchun tez eskiradigan tovarlar garovga qabul qilinmaydi.

Faqatgina ushbu mezonlarni aniqlash va ularga mos keladigan boyliklarni garovga qabul qilish emas, balki ularni saqlanishini ta'minlash ham muhimdir. Faqat shundagina qo'yilgan garov kreditning qaytarilishiga kafolat bo'lishi mumkin.

Garov predmetiga quyidagilarni kiritish mumkin: korxonalar va tashkilotlar asosiy fondlari (bino, inshootlar, uskunalalar), tovar-material buyumlari, tovar-transport xujjatlari (varrant, konosament, ombor xujjatlari, shartnoma va b.), valyuta mablag'lari - qimmatbaho buyumlar va qimmatbaho qog'ozlar.

Garov ikki shaklga bo'linadi:

- garov predmeti o'z egasida qolishi;
- garov predmeti garovni oluvchiga berilishi.

Garov obyekti o'z egasida qolgan holda u quyidagi xuquqlarga ega:

- garovga qo'yilgan mulkdan foydalanish va unga egalik qilish;
- garov bilan ta'minlangan, majburiyaglar bo'yicha qarz egasiga o'tkazish va boshqalar.

Bu holatda garov beruvchi shaxs o'z hisobidan garov predmetini umumiy qiymatini sug'urtalashi, uning yaxshi saqlanishi ta'minlashi va mulkni ijaraga berilishi haqida garov oluvchini ogohlantirishi lozim.

Garov predmetining o'z egasida qolishi quyidagi hollarda yuz beradi:

- oborotdagi tovarlarni garovga qo'yish;
- ko'chmas mulkni garovga quyish.

Oborotdagi tovarlarni garovga qo'yish garov vaqti kelganda garov beruvchi o'z oborotidagi tovarlarini hammasini yoki qisman sotib o'z qarzini summasini yoki undan ko'pini-qaytarishi tushuniladi. Bunda garovga qo'yuvchi shaxs o'z tovar mahsulotlarini hisob-kitobini va to'g'ri saqlanishini ta'minlashi shart. Oborotdagi tovarlarni garovga qo'yish asosan savdo va ta'minot tashkilotlarda ko'proq foydalaniladi. Masalan, mahsulot va tovarlarni sotib olish.

Kuchmas mulk garovi (ipoteka)- korxonalar, tashkilotlar, bino, inshoot va qurilishlarni, yer va undan foydalanish huquqlarini garovga qo'yish tushuniladi.

O'z kreditlarini bino, inshoot va qurilma uskunalarni garov asosida berishlarida, banklar nafaqat ularning qanchalik tez sotilishini, balki kredit oluvchining foyda olish darajasini, garovlarning sotilishi imkoniyatini hisobga olgan holda, ularning kreditni qaytarish sharoitidagi muhitni ham hisobga olishlari lozim.

Bank, garov predmetini ushlab turuvchi subyekt sifatida, garovga qo'yilgan mulkning hujjatlari asosida uning haqiqiylikini, holatini va uni saqlanayotgan muhitini tekshirishga haqlidir.

Agar garov predmeti garov beruvchi tomonidan sarflangan yoki ishlatib zarar yetkazilgan bo'lsa, unda garovga beruvchi shaxs ushbu mulkni qayta tiklashi yoki boshqa mulk bilan qoplashi lozim, aks holda bank-garov mulkini ushlab turuvchi subyekt sifatida berilgan kreditni o'z muddatidan oldini talab qilishga haqli hisoblanadi.

Garovga qo'yishning ikkinchi shakli- garovga qo'yilgan mulkni o'z egasida emas, balki uni ushlab turuvchi shaxsda qolishi hisoblanadi. Bu tur boshqachasiga «zaklad» deb ham yuritiladi va bank amaliyotida qulay garov turi bo'lib, unda ko'chmas mulk bo'lmagan mulk gapovga qo'yiladi.

Ushbu shakl bank faoliyatida keng qo'llanilib, asosan garovga ko'yilgan mulk ko'chmas mulk bo'lib hisoblanmasa bankda bunday garov e'tiborli bo'lib hisoblanadi. Buning asosiy sababi bankka qo'yilgan har qanday hollarda bank uni qaytarishga qodir ekanligi hisoblanadi.

Ushbu garov shakli quyidagi turlarda bulishi mumkin:

- mustahkam (ishonarli) garov;
- huquqiy garov.

Mustahkam (ishonarli) garov klassik jihatdan, tovar va boshqa mulkni kredit tashkiloti omborida yoki qarz oluvchi omborida bank nazorati ostida saqlashi tushiniladi. Zakladga olingan qimmatbaho buyumlar o'z navbatida quyidagi talablarga javob berishi lozim: tez sotiladigan, sug'urtalash oson bo'lgan, bank nazorati ostida uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lishi lozim.

Albatta, ushbu mulklarni bank tomonidan nazorati turli xil qiyinchiliklarga va xarajatlarga olib keladi. G'arb mamlakatlarida ushbu xizmatlarni ombor tashkilotlari banklar uchun (xizmat) ko'rsatadi. U mulk va uning saqlanish bo'yicha to'laqonli nazorat olib borishi, undan tashqari bergan kreditining qaytishi imkoniyatlariga to'laroq ishonch hosil qilish mumkin.

Garov predmeti uni saqlanishini ta'minlash bilan bir qatorda bank uchun yana boshqa majburiyatlarni bajarishishga olib keladi. Masalan, garov mulkini ushlab turuvchi subyekt (bank) shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa garov beruvchi manfaatlariga mos kelgan holda mulkning hisob-kitobini olib borishi lozim, majburiyatlar bajarilgandan so'ng garov beruvchi mulkni qaytarilishini ta'minlashi lozim.

Garov predmetining kimda qolishidan qat'iy nazar, garov mulkini beruvchi yoki uni oluvchi subyekt mulkni turli xil tabiiy ofatlardan sug'urtalashi lozim. Nafaqat tabiiy ofatlaridan, balki mulkni o'g'irlanishi yoki davlat organlari tomonidan garov mulkini beruvchi subyektning iqtisodiy faoliyatini to'xtatib quyishidan ham sug'urtalashi lozim. Sug'urta hodisalar bo'lib o'tib, mulkka zarar yetkazganda, bank garov mulkini ushlab turuvchi, subyekt sifatida sug'urta qoplamasini o'z krediti hisobiga olishga haklidir.

Garov predmetini har qanday hollarda ham sug'urta qilish mulkni beruvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksida, qarz oluvchi bitta mulkni bir nechta kreditorga garovga qo'yishi belgilangan. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 273-moddasiga asosan garovga qo'yilayotgan mulk, ilgari tuzilgan garov shartnomasiga asosan taqiqlanmasa, qabul

qilinadi. Shuni unutmaslik lozimki, qonun chiqaruvchilar birinchidan, garovga quyilayotgan mulk majburiyat summasidan yuqori bo'lishi lozim; ikkinchidan, turli kreditorlarning muddatlari turlicha bo'lgani uchun, majburiyatlarni ham ketma-ket bajarish mumkin, bank kreditor sifatida mulkni garovga olishdan oldin, garovga qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini tekshirib ko'rishlari lozimligini uqtiradilar. Bu esa, har bir bankni o'z ketma-ketligida talablarini qo'yishi va mijozni kreditlash masalasini hal etishini ta'minlaydi. Garov shartnomasi yuridik hujjat bo'lib, garov mulki ta'minlayotgan majburiyatdan holi ravishda tuziladi.

Garov shartnomasi og'zaki emas balki, yozma hujjat tarzida amalga oshirilishi lozim. Bu hujjatda garov predmetini shaklini, majburiyat shartlarini, majburiyat muddatini, mulkning hajmi va qiymatini, garov subyektlarining majburiyatlarini va garov shartlarini bajarilmaganda tortishuvni oldin xal etish masalalarini aks ettirishi lozim.

Garov shartnomasida, shular bilan birga, ikkala tarafning nomlari va adreslari garovga qo'yilgan mulkni qayerda joylashgani ko'rsatilishi lozim. Agar yuqoridagi ko'rsatmalar ko'rsatilmasa garov shartnomasi xaqiqiy hujjat bo'lib hisoblanmaydi. Garov shartnomasini tuzilgan vaqtdan boshlab garov xuquqi paydo bo'ladi va garov mulkiga nisbatan garov xuquqi ushbu mulkni garovga berilgan vaqtdan boshlanadi.

Garov shartnomalari uchun notarial guvohnomalar joriy etilgan. Ammo, ikkala tomonning kelishuvi notarial tomondan tasdiqlashga, har qanday kelishuv xoh og'zaki bo'lsin, asosiy shartnomaga qo'shimcha qilib kiritiladi.

Mulkning qanday shakl bo'lishidan qat'iy nazar, davlatning garov mulki ruyxatdan o'tishi majburiy belgilangan. Ya'ni, garov shartnomasi tuzilib, unga qo'l qo'yilgandan so'ng va notarial tasdiqlagandan so'ng, garovga qo'yilgan mulk davlat garov organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Garov mulki qo'yilgani hisobiga garovni ushlab turuvchi o'zining talablarini qondirishga haqli. Ya'ni bu ushbu vaqtdagi garovni ushlab turuvchi subektning qilgan hamma xarajatlari (foizlari, zararlari, muddati o'tkazilib yuborilishi, mulkni ushlab turish xarajatlari va sud xarajatlari) kiradi.

Kreditor qo'ygan majburiyatlarini qarz oluvchi o'z vaqtida bajarmasa, garov predmet hisobidan o'z talablarini bajarishni da'vo qilish mumkin. Bunda kreditor qo'yilgan muddatda sudga murojat etib, talab qilishga hakli. Sud organiga murojaat etmasdan, faqatgina garov subyektlarining shartnomalarida garov majburiyatlari bajarilmasa yoki bajarish shartlari ko'rsatilgan bo'lsa va ushbu shartnomani notarial tasdiqlatilgan

bo'lsa, kreditor mulk orqali talablarini qondirishi mumkin. Kreditor qo'yilgan majburiyatlarni bajarilmaganligini yoki to'liq bajarilmaganligini isbot qilishi lozim. Agar sud qarori bank hisobiga hal bo'lsa, unda mulk sotilib kreditor o'z talablarini u tushumdan qondirishi mumkinligi haqida hujjat beriladi.

Garov predmeti konunda ko'rsatilgan asosida, ommaviy savdo yo'li bilan sotiladi. Bunda mulkning boshlang'ich narxi sud qarori bilan belgilanadi. Eng yuqori bahoni to'lagan shaxsga ushbu mulk sotiladi. Mulq sotilmagan vaqtda, bank va qarz oluvchi kelishib, bank garov predmetini o'z hisobiga olishi va talablarini qondirishi mumkin. Mulq qayta sotuvga chiqarilib sotilmay qolsa, kreditor mulkni 10% ga arzon qilib keyingi sotuvga chiqarishi mumkin. Agar garov oluvchi garovni sotish to'g'risidagi bildirishdan keyin mulk 1 oy davomida sotilmasa garov oluvchi uni o'z ihtiyorida qoldirish xuquqidan foydalansa garov shartnomasi tugatiladi.

Qonun chiqaruvchi organlar quyidagi hollarda tortishuvsiz kreditor hisobiga hal etilishi mumkinligini ko'rsatgan. Bunda agar garov shartnomasida ko'rsatilgan bo'lsa va shartnoma notarial tasdiqlangan bo'lsa. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda (agar) garovga qo'yilgan mulk sotilgunga qadar garovga qo'yuvchi shaxs sotuvni to'xtatishi mumkin, agarda shartnoma majburiyatlarini bajarsa.

Garov huquqi garov majburiyatlari bajarilganda quyidagi hollarda to'xtaydi:

- garov mulkini buzulishi, yo'qolishi yoki yo'q bo'lishi;
- garov predmetini erkin sotuvda sotilishi;
- garov mulkiga egalik qilish bankga o'tishi bilan.

Garov xuquqini to'xtatishining eng sodda normal holi bo'lib, garov mulki orqali majburiyatlarni bajarilishi kerakli xujjatlar bilan tasdiklanishi lozim. Majburiyatlar to'liq bajarilmasa garov shartnomasi o'z kuchida qoladi.

Bank moddiy boyliklar garovi ostida kredit berayotganda kreditni qaytarilishini ta'minlash uchun realizatsiya qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olgan holda garov qiymatini ssuda qiymatiga mosligini tekshirishi shart.

9.3. Kredit-garov munosabatlarining huquqiy asoslari

Garov munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 264-291-moddalari va «Garov to'g'risida»gi, «Ipoteka

to'g'risida»gi «Garov reestri» to'g'risidagi qonunlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq garov predmeti garovga qo'yuvchining shaxsiy mulki hisoblangan yoki xo'jalik yuritish to'liq huquqi bo'yicha unga tegishli bo'lgan har xil mulk va mulkiy huquq bo'lishi mumkin. Garovga beriladigan mulk identifikatsiya qilinishi lozim. U bank tomonidan kredit bo'yicha ta'minot sifatida ikki xil shaklda qabul qilinishi mumkin: garov-*(zalog)* (garovga qo'yilgan mulk garov beruvchi ya'ni qarzdorda qoldiriladi) va garov-*zaklad* (garovga qo'yilgan mulk garov oluvchi(bank)ga beriladi).

Garovga ko'ra qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi, qonunda belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday subyektlari: jismoniy va yuridik shaxslar, davlat o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida milliy valyutada yoki chet el valyutasida ifodalangan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrda PQ-1438-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisida bayon etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi»ga asosan tayyorlangan «**Garov reestri to'g'risida»gi Qonun** 2013-yil 19-iyulda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, o'tgan-yilning 22 avgustida Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013-yil 23-oktyabrda imzolandi. Ushbu qonun 2014-yil 1-iyuldan e'tiboran kuchga kirdi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda garov reestrini shakllantirish, yuritish va foydalanish sohasidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy tartibga solib, moliya-kredit bozoridagi shaffoflikni oshirish, kreditorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, kredit tavakkalchiligini kamaytirish hamda garov aylanmasining oshishi hisobiga kichik

biznes vakillarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari va iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik ko'lamlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Garov reestri - qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek, qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni (bundan buyon matnda yozuvlar deb yuritiladi) o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasidir.

Garov reestrini yuritish yozuvlarni kiritish, o'zgartirish va chiqarib tashlashni o'z ichiga oladi. Garov reestrini yuritish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzurida tashkil etiladigan garov reestrini yurituvchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

Garov reestrini yurituvchi tashkilot:

- murojaat etgan har bir yuridik yoki jismoniy shaxs bilan tuziladigan shartnoma asosida yozuv kiritish uchun garov reestriga kirish, shuningdek undan real vaqt rejimida, shu jumladan Internet axborot tarmog'i orqali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi;

- yuridik va jismoniy shaxslarga garov reestridan foydalanish bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatadi;

- murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslarga garov reestriga yozuv kiritish oqibatlarini tushuntiradi;

- garov reestridagi axborotni qarzdor - soliq to'lovchining identifikatsiya raqami yoki yozuvning yagona ro'yxatdan o'tkazish raqami bo'yicha izlash imkoniyatini ta'minlaydi;

- foydalanuvchiga kiritilgan yozuv to'g'risida elektron shaklda, zarur hollarda esa qog'ozda axborot taqdim etadi.

Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

- garov reestriga yozuvlar kiritishga va ularni o'zgartirishga;
- garov reestridan yozuvlarni chiqarib tashlashga;
- garov reestridan ko'chirmalar olishga haqli.

Foydalanuvchilar majburiyatlari esa:

- garov reestriga xolis va ishonchli ma'lumotlar ko'rsatilgan yozuvlarni kiritishi;

- garov reestriga o'zlari kiritgan yozuvlar muntazam ravishda yangilanib turilishini ta'minlash.

Garov reestriga:

- majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash (garov) vositasi sifatida qarzdorlar berib qo'ygan mol-mulkka nisbatan kreditorlarning huquqlari, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslardan, shu jumladan, ushlab qolish, lizing, tovarga bo'lgan mulk huquqini tovarning haqi to'langunga qadar sotuvchida (kreditorda) saqlab qolgan holda uni sotish, kelajakda muayyan hodisa yuz bergan taqdirda mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazish, to'lovni kechiktirgan yoki bo'lib-bo'lib to'lagan holda tovarlarni olish-sotishdan yuzaga keladigan huquqlar to'g'risidagi;

- undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori to'g'risidagi;

- qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlarini cheklash (servitut, mol-mulkni xatlash, bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish) to'g'risidagi;

- qarzdorning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarini to'lash to'g'risidagi talablar to'g'risidagi;

- qarzdorning ta'minlangan majburiyati bajarilmagan taqdirda yuzaga keladigan boshqa talablar to'g'risidagi yozuv kiritiladi.

Garov reestriga yozuv kiritish foydalanuvchi tomonidan elektron shaklda amalga oshiriladi. Garov reestriga kiritilayotgan yozuv quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

1) qarzdor va kreditor to'g'risidagi axborot (soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, jismoniy shaxslar uchun - familiyasi, ismi va otasining ismi yoki yuridik shaxslar uchun - nomi va tashkiliy-huquqiy shakli);

2) qarzdorning mol-mulki va kreditorning bu mol-mulkka bo'lgan huquqlari tavsifi.

Garov reestriga yozuvni kiritish vaqti va sanasi kreditorning qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmagan hollarda boshqa kreditorlar va uchinchi shaxslardan oldin undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratishga, boshqa talablarni qanoatlantirishga bo'lgan navbatini, imtiyozli huquqini aniqlash uchun asos bo'ladi. Garov reestriga yozuv kiritilganligi uchun haq undiriladi, uni undirish shartlari va miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Kreditor sifatida qatnashayotgan foydalanuvchi tomonidan yozuv kiritish qarzdorning roziligi bilan amalga oshiriladi. Qarzdorning roziligi qarzdorning identifikatsiya ma'lumotlari, shuningdek, kreditorning qaysi mol-mulkka huquqi bo'lsa, o'sha mol-mulk ko'rsatilgan holda elektron hujjat tarzida yoki qog'ozda rasmiylashtiriladi. Qarzdorning yozma

mulkiy garov reestridan yozuv chiqarib tashlangunga qadar kreditorda saqlanishi kerak. Sudning undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori to'g'risida yozuv kiritish yoki kiritilgan yozuvdan mol-mulkning bir qismini chiqarib tashlash yoki undagi axborotni o'zgartirish kreditor tomonidan qarzdorning roziligisiz amalga oshiriladi. Qarzdorning zimmasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlilar bo'lgan taqdirda, davlat soliq va boshqa xizmati organlari qarzdorning roziligisiz yozuv kiritadi. Tergov va surishtiruv organlari qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlarini cheklash (mol-mulkni xatlash, bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish) to'g'risida o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilgan taqdirda, qarzdorning roziligisiz yozuv kiritadi. Agar qarzdor yozuvni noxolis va ishonchsiz deb hisoblasa va kreditor uni chiqarib tashlashni yoki o'zgartirishni rad etsa, kiritilgan yozuvga doir e'tirozlar qarzdor sifatida qatnashayotgan foydalanuvchi tomonidan garov reestriga kiritiladi.

Garov reestridagi yozuvga o'zgartirish mazkur yozuvni kiritgan foydalanuvchi tomonidan qarzdorning mol-mulki almashtirilgan yoxud mol-mulki tarkibida o'zgarishlar bo'lgan yoki qarzdorning o'zi almashtirilgan, shuningdek, sud qarori qonuniy kuchga kirgan hollarda kiritiladi. Foydalanuvchi yozuvga o'zgartirishlarni o'z vaqtida kiritishi shart.

Garov reestridan yozuvni chiqarib tashlash mazkur yozuvni kiritgan foydalanuvchi tomonidan kreditorning qarzdor mol-mulkiga bo'lgan huquqlari bekor qilingan, majburiyatlar bajarilgan taqdirda va qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Foydalanuvchi garov reestridan yozuvni o'z vaqtida chiqarib tashlashi shart.

Garov reestridagi yozuvni izlash qarzdor - soliq to'lovchining identifikatsiya raqami yoki yozuvning yagona ro'yxatdan o'tkazish raqami bo'yicha amalga oshiriladi. Garov reestrini yurituvchi tashkilot yozuvlarni izlash natijalari bo'yicha elektron hujjat tarzida yoki qog'ozda garov reestridan ko'chirma taqdim etishi mumkin. Garov reestridan ko'chirma berilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda haq undiriladi.

9.4. Garov obyektlarini baholash va garov shartnomasining tuzilishi

Garovga qo'yilayotgan mol-mulkni baholash O'zbekiston Respublikasining «Baholash faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga asosan amalga oshiriladi.

Mulk garovi – bu kredit ta'minotining eng ko'p tarqalgan shakllaridan hisoblanadi. Mulk garovi garov shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. To'lov majburiyati bajarilmaganda bank ushbu garovni sotish orqali kreditni qoplashi mumkin.

Garovga olinayotgan mol-mulkni turiga qarab mustaqil yoki bank ichki baholovchisi (kredit komissiyasi) baholashi mumkin. Tashqi baholovchi tomonidan mol-mulk baholanganda qarz oluvchi tomonidan uning xizmat haqi to'lanadi.

Garovga olinayotgan mol-mulkni kredit komissiyasi joyiga chiqib quyidagi shartlarni hisobga olgan holda baholashi kerak:

- mol-mulkga bo'lgan egalik huquqi;
- garovga olinayotgan mol-mulkning boshqa majburiyatlardan xolisligi;
- uzoq muddat davomida saqlanish xususiyati;
- mol-mulkning jismoniy va ma'naviy eskirishi darajasi;
- garovga olinayotgan mol-mulk bahosining barqarorligi;
- iste'mol va ishlatish chegaralari (garovga olingan ta'minot turi tor doiradagi ixtisoslashtirilgan sohalarda ishlatilmasligiga e'tiborni qaratish lozim).

Garovga olinayotgan mol-mulk turiga qarab, bank filiallari qarz oluvchi bilan ipoteka, ko'chmas mulk va boshqa turlar bo'yicha yozma shartnoma imzolaydi. Bu shartnomalar notarial idoralarda tasdiqlanishi kerak.

Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talabnomalar, xususan hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno. Fuqarolarning undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan ayrim turdagi mol-mulkni garovga qo'yish qonun hujjatlari bilan man etilishi yoki cheklanishi mumkin. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garov talabning uni qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi, xususan foizlar, neustoyka, ijroni kechiktirib yuborish natijasida etkazilgan zarar to'lanishini, shuningdek, garovga oluvchining garovga qo'yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to'lanishini ta'minlaydi.

Agar shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yilgan mol-mulk garovga qo'yuvchida qoladi. Garovga

qo'yilgan muomaladagi tovarlar garovga oluvchiga topshirilmaydi. Garov narsasi garovga oluvchi tomonidan qulflangan va muhrlangan holda garovga qo'yuvchida qoldirilishi mumkin. Garov narsasi garovga qo'yilganligini bildiruvchi belgilar qo'ygan holda garovga qo'yuvchida qoldirilishi mumkin (qat'iy garov). Garovga qo'yuvchi tomonidan egalik qilish yoki foydalanish uchun vaqtincha uchinchi shaxsga topshirilgan garov narsasi garovga qo'yuvchida qoldirilgan hisoblanadi. Qimmatli qog'oz bilan tasdiqlangan mulkiy huquq garovga qo'yilganida, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchiga yoki notarius depozitiga topshiriladi.

Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan yohud, basharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa - notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lganida esa - u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Basharti, garov narsasi qonunga yoki shartnomaga asosan garovga qo'yuvchida bo'lishi lozim bo'lsa, garov huquqi unga garov narsasi berilgan paytdan, basharti bunday topshirish shartnoma tuzilishidan avval amalga oshgan bo'lsa - shartnoma tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Garov to'g'risidagi shartnomada garov narsasi va uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Unda garovga qo'yilgan mol-mulk taraflarning qaysi birida ekanligi ham ko'rsatilishi shart.

Garov to'g'risidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi kerak. Ipoteka to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, notarial tasdiqlanishi kerak bo'lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta'minlash yuzasidan ko'char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnoma notarial tasdiqlanishi shart. Ipoteka to'g'risidagi shartnoma tegishli mol-mulk haqida tuziladigan bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Garov narsasi bo'lgan ashyoga garovga oluvchining huquqlari (garov huquqi), agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyoning kimga mansubligiga qarab joriy qilinadi. Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan hosil, mahsulot va daromadlarga garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda joriy qilinadi. Butun korxonaga yoki boshqa mulkiy kompleks ipotekasida garov huquqi uning tarkibiga kiruvchi ko'chmas va ko'char mol-mulkning hammasiga, shu jumladan, talab qilish huquqi va mutlaq huquqlarga, shu

bilan bir qatorda ipoteka davrida olingan huquqlarga ham, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, joriy qilinadi. Bino yoki inshoot ipotekasiga ayni bir vaqtning o'zida o'sha shartnoma bo'yicha shu bino yoki inshoot joylashgan er uchastkasini yohud bu uchastkaning garovga qo'yilayotgan obyekt ishlashini ta'minlaydigan qismini yoki garovga qo'yuvchiga qarashli bo'lgan ushbu uchastkani yohud uning tegishli qismini ijaraga olish huquqini bir vaqtda ipotekaga qo'ygan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Yer uchastkasini ipotekaga qo'yishda garov huquqi, agar shartnomada boshqacha shart nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yuvchining ushbu uchastkada bo'lgan yoki qurilayotgan binolari va inshootlariga joriy qilinmaydi. Shartnomada bunday shart bo'lmasa, undiruv garovga qo'yilgan er uchastkasiga qaratilgan taqdirda garovga qo'yuvchi er uchastkasi uning bino yoki inshootdan o'z o'rnida foydalanish uchun zarur bo'lgan qismidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini saqlab qoladi. Uchastkaning bu qismidan foydalanish shartlari garovga qo'yuvchining garovga oluvchi bilan kelishuvi asosida, nizo chiqqan taqdirda esa - sud tomonidan belgilanadi. Agar garovga qo'yuvchiga emas, balki boshqa shaxsga qarashli binolar yoki inshootlar joylashgan er uchastkasiga ipoteka belgilangan bo'lsa, garovga oluvchi undiruvni ushbu uchastkaga qaratganida va u kimoshdi savdosida sotilganida garovga qo'yuvchining ushbu shaxsga nisbatan huquq va burchlari uchastkani sotib oluvchiga o'tadi. Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida paydo bo'ladigan garovga nisbatan esa - qonunda, garovga qo'yuvchi kelajakda ega bo'ladigan ashyolarni va mulkiy huquqlarni garovga qo'yish nazarda tutilishi mumkin. Agar garovga qo'yilgan mol-mulk boshqa talablarni ta'minlash uchun yana bir garov narsasiga aylansa (navbatdagi garov), navbatdagi garovga oluvchining talablari oldingi garovga oluvchilarning talablari qanoatlantirilganidan keyin ushbu mol-mulk qiymatidan qanoatlantiriladi. Agar garov to'g'risidagi oldingi shartnomalarda navbatdagi garov taqiqlab qo'yilgan bo'lmasa, navbatdagi garovga yo'l qo'yiladi. Garovga qo'yuvchi har bir navbatdagi garovga oluvchiga ushbu mol-mulkning mavjud bo'lgan barcha garovlari haqida ma'lum qilishi shart va u ushbu majburiyatni bajarmaslik tufayli garovga oluvchilarga etkazilgan zarar uchun javob beradi.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi garovga qo'yilgan mol-mulk kimdaligiga qarab:

1) garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi tufayli uning to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu mol-mulkning to'la qiymati garov bilan ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, talab miqdoridan kam bo'lmagan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan qo'rtalashi;

2) garovga qo'yilgan mol-mulkning asralishini ta'minlash uchun, bu jumladan, uni uchinchi shaxslarning tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun zarur choralarni ko'rishi;

3) garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki uning shikastlanishi tufayli paydo bo'lganligi to'g'risida ikkinchi tarafni darhol ogohlantirishi shart.

Garovga oluvchi va garovga qo'yuvchi ikkinchi tarafdagi garovga qo'yilgan mol-mulkning mavjudligini, miqdorini, holatini va uni saqlash sharoitlarini hujjatlar asosida va amalda tekshirishga haqli. Agar garov to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan shikastlanishi xavfini o'z zimmasiga oladi. Garov narsasi garovga oluvchiga topshirish chog'ida qancha summaga baholangan bo'lishidan qat'i nazar, garovga oluvchi garov narsasi yo'qolganligi uchun uning haqiqiy qiymati miqdorida, garov narsasiga shikast etkazilganligi uchun esa - bu qiymat qancha summaga kamaygan bo'lsa, shuncha summa miqdorida javob beradi. Agar garov narsasi shikastlanish natijasida undan bevosita o'z vazifasi bo'yicha foydalanish mumkin bo'lmaydigan darajada o'zgargan bo'lsa, garovga qo'yuvchi undan voz kechishga va uning yo'qolganligi uchun haq talab qilishga haqli. Shartnomada garovga oluvchining garov narsasi yo'qolishi yoki shikastlanishi tufayli garovga qo'yuvchiga etkazilgan boshqa zararni to'lash majburiyati nazarda tutilishi mumkin. Garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzdor bo'lgan garovga qo'yuvchi garov narsasining yo'qolishi yoki shikastlanishi tufayli etkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talabni garov bilan ta'minlangan majburiyatlarni qoplash uchun hisobga olishga haqli.

Ta'minot sifatida moliyaviy vositalar qabul qilinganda quyidagicha bo'ladi.

Moliyaviy vositalarning ta'minot sifatida qabul qilinishi

19-jadval

Ta'minot turi	Garov obyektini baholashga qo'yilgan talablar	Qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilish miqdori foizda
Sug'urta polisi (qaytmaslik xatari).	hujjatlar va moliyaviy hisobotlarning bevosita bog'liqliligi.	Ta'minotning 100% miqdorida
Davlat qisqa muddatli majburiyatlari. (DQMM)	Birjadan tashqari bozorda haridor tomonidan taklif etilgan bahoning 100%i miqdorida	Garov bahosining 90% miqdorida
Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)	Toshkent, Seul, Tokio, Nyu-York yoki Evropa Ittifoqi davlatlari fond birjalarida haridorlar tomonidan taklif etilayotgan va chet el valyutasi bilan belgilangan bahoning 100% miqdorida.	Garov bahosining 90% miqdorida
Aksiyalar (birjada qiymatga ega bo'lgan)	Toshkent, Seul, Tokio, Nyu-York yoki Evropa Ittifoqi davlatlari fond birjalarida haridor tomonidan taklif etilayotgan aksiyalarning chet el valyutasi bilan belgilangan bahosining 100% miqdorida.	Garov bahosining 75% miqdorida
Aksiyalar (birjada qiymatga ega bo'lmagan)	Korxonalar tashkilotlarining tegishli tarzda tasdiqlangan moliyaviy hujjatlari (hisobot davri va o'tgan davrlardagi auditorlar tomonidan tasdiqlangan balans) asosida taklif etilayotgan bahoning 100%i miqdorida.	Garov bahosining 75% miqdorida
Tijorat banklaridagi so'mdagi depozitlari	Bankning ishonchlilik reytingi (0% dan 100% gacha) asosida	Ta'minotning 100% miqdorida
Tijorat banklaridagi valyuta depozitlar	Bankning ishonchlilik reytingi (0% dan 100% gacha) asosida	Ta'minotning 100% miqdorida

Ta'minot turlarining baholash tamoyillari quyida o'z ifodasini topgan.

- Uchinchi shaxslarning kafilligi ta'minot turi sifatida qabul qilinganda garov obyektini baholashga qo'yilgan talab yuridik shaxslar uchun moliyaviy hisobotlar asosida hisob - kitoblarga asoslanishi va jismoniy shaxslar uchun doimiy daromad manbasiga ega bo'lishi talab etiladi va qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 100 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan;

- Bankning yoki sug'urta kompaniyasining kafolati ta'minot turi sifatida qabul qilinganda garov obyektini baholashga qo'yilgan talab Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida kafolatchi reyting darajasining talab darajasida bo'lishi talab etiladi va qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 100 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan;

- Erkin er maydoni (bog'lar) va qurilish maydonlari (tadbirkorlik maqsadlariga mo'ljallangan) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda:

a) Baholovchi agent ta'minot obyektining bozor bahosidan 1-yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlashi lozim, chunki ta'minot huquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov obyektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1-yil muddat o'tishi mumkin. b) Garov obyektini sotib olish qiymatidan (bitim 1-yil muddatdan keyin tuzilmagan bo'lsa) 1-yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot huquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov obyektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1-yil muddat o'tishi mumkin.

v) bank jarayoni orqali odatiy baholash. Bunda baholash qiymatidan 1-yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash lozim, chunki ta'minot huquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov obyektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1-yil muddat o'tishi mumkin.

Qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 80% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Ijaraga beriladigan ko'chmas mulk (turar joy va tadbirkorlik maqsadlariga mo'ljallangan) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda shartnoma asosida har-yili kelishiladigan ijara haqi uzoq muddatli investitsiyalarning kapitalizatsiya qilinadigan foiz summasi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda, baholash summasi qiymatidan 1-yil ichida olinadigan foizlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi, chunki ta'minot huquqini tez realizatsiya qilib bo'lmaydi. Garov obyektini bank hisobiga o'tkazish va uni sotish yuzasidan sudning qarori chiqquncha 1-

yil muddat o'tishi mumkin (kapitalizatsiyaning bu omili rahbariyatning qaroriga asosan vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi).

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi turar joy bahosining maksimal 50%i miqdorida, tadbirkorlik maqsadlariga mo'ljallangan mulk bahosining maksimal 80%i bo'lishi belgilangan.

- Dastgoh, uskuna va jixozlar (asosiy vositalar) ta'minot turi sifatida qabul qilinganda:

a) kompyuter vositalari. Sotib olish bahosi (uskuna) minus 20%-yillik amortizatsiya (eskirish qiymati) (sotib olingan-yilni hisobga olgan holda).

b) ko'chmas dastgoh (uskuna). Sotib olish bahosi minus 20%-yillik eskirish qiymati.

v) transport va harakatlanuvchi vositalar. Sotib olish bahosi minus 20% (engil transport) yoki 15% (ogir transport)-yillik qiymati eskirishi.

Bunda qo'yilgan ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi garov bahosining maksimal 80% i miqdorida bo'lishi belgilangan.

- Zargarlik buyumlari va qimmatbaho metallar ta'minot turi sifatida qabul qilinganda ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 60 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan;

- Olinishi kutilayotgan bank o'tkazmalari ta'minot turi sifatida qabul qilinganda ta'minot qiymatining bank tomonidan qabul qilinishi 80 foiz miqdorida bo'lishi belgilangan.

9.5. Tijorat banklarida garov obyektlarini realizatsiya qilish tartibi

O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq undiruv qaratilgan garovdagi mol-mulkni realizatsiya qilish (sotish) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kim oshdi savdosida sotish orqali amalga oshiriladi.

Garov narsasini almashtirishga, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchining roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Agar garov narsasi nobud bo'lgan yoki shikastlangan yohud unga bo'lgan mulk huquqi yo xo'jalik yuritish huquqi qonunda belgilangan asoslarga ko'ra bekor qilingan bo'lsa, garovga qo'yuvchi oqilona muddatda (nizo chiqqan taqdirda esa - sud belgilagan muddatda) garov narsasini tiklashga yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, uni teng qiymatli boshqa mol-mulk bilan almashtirishga haqli.

Agar shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki qonunning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo'yuvchi garov narsasidan uning vazifasiga ko'ra foydalanishga, shu jumladan, undan hosil va daromadlar olishga haqli. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa va garovning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo'yuvchi faqat garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa shaxsga berishga, uni ijaraga yoki bepul foydalanish uchun boshqa shaxsga topshirishga yohud uni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli. Garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan mol-mulkni vasiyat qilib qoldirish huquqini cheklaydigan kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy emasdir. Garovga oluvchi o'ziga topshirilgan garov narsasidan shartnomada nazarda tutilgan hollardagina foydalanishga haqli bo'lib, garovga qo'yuvchiga undan foydalanish to'g'risida muntazam hisobot berib turadi. Shartnomaga muvofiq garovga oluvchi zimmasiga asosiy majburiyatni bajarish maqsadida yoki garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab, garov narsasidan hosil va daromadlar olish burchi yuklab qo'yilishi mumkin. Garovga oluvchi o'z ixtiyorida bo'lgan yoki bo'lishi lozim bo'lgan garovga qo'yilgan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egallashidan, shu jumladan garovga qo'yuvchining egallashidan talab qilib olishga haqli. Shartnoma shartlariga ko'ra garovga oluvchiga o'ziga topshirilgan garov narsasidan foydalanish huquqi berilgan hollarda u boshqa shaxslardan, shu jumladan, garovga qo'yuvchidan ham, o'z huquqining har qanday buzilishini bartaraf etishni, garchi bu buzilishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham talab qilishi mumkin.

Garovga oluvchining (kreditorning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni o'zi javobgar bo'lgan vaziyatlarda bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish mumkin. Agar garov bilan ta'minlangan majburiyatning qarzdor tomonidan buzilishi juda arziyas bo'lsa va shu tufayli garovga oluvchining talablarining miqdori garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatiga mutlaqo mos kelmasa, undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishni rad etish mumkin, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Garovga oluvchining talabini garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan qondirishga, agar bu garov to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yohud undiruvni garov narsasiga qaratish uchun asoslar vujudga kelganidan keyin garovga

oluvchining garovga qo'yuvchi bilan tuzilgan, notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvi asosida yo'l qo'yiladi. Mazkur kelishuv tufayli huquqlari buzilgan shaxsning da'vosiga ko'ra bunday kelishuv sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Agar garovga qo'yuvchining garovga oluvchi bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchining talablari garovga qo'yilgan ko'char mol-mulk hisobidan sud qaroriga muvofiq qondiriladi. Agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, undiruv garovga oluvchiga topshirilgan garov narsasiga garov to'g'risidagi shartnomada belgilangan tartibda qaratilishi mumkin.

Undiruv garov narsasiga quyidagi hollarda faqat sudning qaroriga muvofiq qaratilishi mumkin:

1) garov to'g'risida shartnoma tuzish uchun boshqa shaxs yoki organing roziligi yoxud ruxsati talab qilinganida;

2) garov narsasi jamiyat uchun tarixiy, badiiy yoki o'zga madaniy ahamiyatga ega mol-mulk bo'lsa;

3) garovga qo'yuvchi yo'qolgan bo'lsa va uning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmasa.

Undiruv qaratilgan garovdagi mol-mulkni sotish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kimoshdi savdosida sotish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Garovga oluvchi garov bilan ta'minlangan majburiyatni quyidagi hollarda muddatidan ilgari bajarishni talab qilishga haqli:

1) agar garov narsasi garovga qo'yuvchida qoldirilgan bo'lib, garov to'g'risidagi shartnoma buzilgan holda uning egaligidan chiqqan bo'lsa;

2) garovga qo'yuvchi garov narsasini almashtirish qoidalarini buzgan bo'lsa;

3) garov narsasi garovga oluvchi javob bermaydigan vaziyatlarda yo'qolgan bo'lsa.

Garovga oluvchi quyidagi hollarda garov bilan ta'minlangan majburiyatni muddatidan ilgari bajarishni talab qilishga, agar uning talabi qondirilmasa, undiruvni garov narsasiga qaratishga haqli:

1) garovga qo'yuvchi navbatdagi garov qoidasini buzgan bo'lsa;

2) garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlash va asrash yuzasidan burchlarni bajarmasa;

3) garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni tasarruf etish qoidalarini buzsa;

4) sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari majburiy ijro etilayotganda undiruv garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratilgan bo'lsa.

Garov quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- 1) garov bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lganida;
- 2) nazarda tutilgan asoslar bo'lganida garovga qo'yuvchining talabi bilan;
- 3) garovga qo'yilgan ashyo nobud bo'lganida yoki garovga qo'yilgan huquq bekor bo'lganida;

4) garovga qo'yilgan mol-mulk kimoshdi savdosida sotilgan taqdirda, shuningdek uni sotish mumkin bo'lmagan taqdirda. Ipoteka bekor bo'lgani haqida ipoteka to'g'risidagi shartnoma ro'yxatga olingan reestrda belgi qo'yilishi kerak;

5) agar garovga oluvchi nazarda tutilgan huquqdan foydalanmagan bo'lsa, bundan garovga qo'yilgan mol-mulk realizatsiya qilinmaganligi va talablari garov bilan ta'minlanmagan kreditorlarning o'z talablarini qanoatlantirish uchun mazkur mol-mulkni qabul qilishni rad etganligi hollari mustasno.

Garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilishi natijasida yoki garovga qo'yuvchining talabi bilan garov bekor bo'lganida ixtiyorida garovga qo'yilgan mol-mulk bo'lgan garovga oluvchi uni darhol garovga qo'yuvchiga qaytarib berishi shart. Garovga qo'yilgan mol-mulkka mulk huquqi yoki uni xo'jalik asosida yuritish huquqi bu mol-mulkni haq olib yoki haq olmasdan boshqa shaxsga berish natijasida yoxud universal huquqiy vorislik tartibida garovga qo'yuvchidan boshqa shaxsga o'tgan taqdirda garov huquqi o'z kuchida qoladi. Agar garovga oluvchi bilan kelishuvda o'zgacha tartib belgilangan bo'lmasa, garovga qo'yuvchining huquqiy vorisi garovga qo'yuvchining o'rniga o'tadi va uning hamma burchlarini bajaradi. Agar garovga qo'yuvchining garov narsasi bo'lgan mol-mulki huquqiy vorislik tartibida bir necha shaxsga o'tgan bo'lsa, huquqiy vorislarning (mol-mulkni oluvchilarning) har biri garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmaslikning garovdan kelib chiqadigan oqibatiga mazkur mol-mulkning o'ziga o'tgan qismiga mutanosib ravishda javob beradi. Agar garov narsasi bo'linmasa yoki boshqa asoslarga ko'ra huquqiy vorislarning umumiy mulki bo'lib qolsa, ular solidar garovga qo'yuvchilarga aylanadilar. Agar garovga qo'yuvchining garov narsasi bo'lgan mol-mulkka mulk huquqi qonun bilan belgilangan asoslar va tartibda, davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganligi (haqini to'lab olish), rekvizitsiya yoki natsionalizatsiya oqibatida bekor bo'lsa, garovga qo'yuvchiga boshqa mol-mulk beriladi yoki tegishli haq to'lanadi. Bunday holda o'rniga-o'rin berilgan mol-mulkka garov huquqi tatbiq etiladi yoki tegishlicha, garovga oluvchi garovga qo'yuvchiga

tegishi kerak bo'lgan haq summasidan o'z talabini imtiyozli qanoatlantirish huquqiga ega bo'ladi. Garov narsasi bo'lgan mol-mulk aslida ushbu mol-mulkning egasi boshqa shaxs ekanligi asosida yoki jinoyat yohud boshqa huquqbuzarlik sodir etganlik uchun garovga qo'yuvchidan qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilgan hollarda ushbu mol-mulkning garovga qo'yilishi bekor bo'ladi.

Garovga qo'yilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan summa garovga oluvchining garov bilan ta'minlangan talabidan oshib ketsa, farq garovga qo'yuvchiga qaytarib beriladi.

Tayanch so'z va iboralar

Baholovchi kompaniya, garov obyekti, garov shartnomasi, garov reestri, kredit, likvidlilik, marjinal qiymat, sug'urta polisi, ta'minot, qimmatli qog'oz, qo'zg'almas mulk.

Takrorlash uchun savollar

1. Kreditning ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
2. Kredit ta'minoti kredit munosabatlarida qanday o'rin tutadi?
3. Yuqori likvidli garov obyekti deganda nimani tushunasiz?
4. Kredit uchun garov qay tartibda rasmiylashtiriladi?
5. Garov obyektini sotish tartibi qanday?
6. Garov obyekti baholovchi kompaniya tomonidan qanday baholanadi?
7. Marjinal qiymat deganda nimani tushunasiz?


X BOB. KREDITLASH JARAYONI VA ULARNING BOSQICHLARI

10.1. Kreditlash bosqichlari tushunchasi va uning tashkil etilishi

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki subyekti – bank (qarz beruvchi) va mijoz (qarz oluvchi) ning o‘zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxonada va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to‘g‘ri amalga oshirish kredit riski darajasini pasaytirishga, hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to‘la-to‘kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tuzilganligiga bog‘liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda o‘z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihati hisoblanadi. Bu kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.



13-rasm. Kreditlash jarayonini tashkil etishning umumiy ko‘rinishi

Yuqoridagi rasmda banklarda kredit jarayoni bo‘g‘inlari keltirilgan bo‘lib, ularni mohiyati oldingi boblarda yoritilgan. Biz ushbu bobda tijorat banklarida kreditlash jarayoni bosqichlari haqida to‘xtalamiz.

Tijorat banklarida kreditlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mijoz kredit olish uchun bankka ariza beradi.
2. Bankning kredit bo'limi mutaxassisi mijoz bilan suhbat o'tkazib, kreditni olishdan maqsad va muddatini aniqlaydi.
3. Kredit ajratish uchun tahlil qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar(balans, biznes reja) taqdim etiladi.
4. Mijozning moliyaviy ahvoli tahlil qilinadi.
5. Kredit ta'minoti turlaridan biri taqdim etiladi.
6. Kredit mutaxassisi o'z xulosasi va tavsiyasini bankning kredit qo'mitasiga taqdim qiladi.
7. Kredit qo'mitasi kredit berish yoki bermaslik to'g'risida xulosa chiqaradi.
8. Mijozning garov sifatida taklif qilayotgan mulki har tomonlama o'rganilib, tahlil qilinadi.
9. Kredit shartnomasi tuziladi va kredit beriladi.
10. Kreditning qaytarilishi muntazam ravishda tekshirilib turiladi.
11. Kredit to'liq qaytarilgandan so'ng, mazkur «Kredit ishi» yopiladi.

Kredit olish uchun bankka ariza bergan mijozning moliyaviy ahvolini tahlil qilish, xulosa chiqarish va kredit berish bilan shug'ullanuvchi bo'lim kredit boshqarmasi yoki bo'limi deyiladi. Bu boshqarma mijoz arizasini baholashda uchta eng muhim savolga javob olishi lozim:

1. Mijoz kredit olish qobiliyatiga egami (layoqatlimi)? Nima uchun siz shunday xulosaga keldingiz?
2. Bank va omonatchilar huquqini himoya qiluvchi va qarz oluvchiga yuqori sifatli kredit xizmati ko'rsatishni ta'minlovchi kredit shartnomasi to'g'ri tuzilgan va kerakli hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?
3. Kreditni to'liq qaytara olmaslik ehtimoli paydo bo'lganda, bank mijozning garov mulkini tez, xarajatsiz va xatarsiz sota oladimi?

Kredit mutaxassisi kredit talabnomasini baholashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. **Mijoz xususiyati va kredit olishdan maqsadi.** Bunda mijoz kreditni vaqtida va to'liq hajmda qaytarib berish uchun majburiyat va mas'uliyatni to'la his qilayotganiga ishonch hosil qilishi lozim. Mijozning kredit olishdan maqsadi aniq bo'lishi va dalillar asosida isbotlab berilishi hamda kredit mutaxassisi bu isbotlarning haqqoniyligi, bankning kredit siyosatiga mos kelishi va mijozning kreditni qaytarib berish niyati qat'iy ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu maqsadda tajribali kredit

mutaxassislari talabnomani o'zlari to'ldirishga harakat qiladilar va bu qo'lyozni mijoz og'zaki muloqotda bo'lib, savoliar orqali uning xususiyati, maqsadli niyati va samimiyligini aniqlab oladilar. Agar mijoz avval kreditdan foydalanmagan bo'lsa, ikkinchi bir shaxs kafil sifatida jalb qilinadi va bu bilan bank berayotgan kreditning qaytarilishi kafolatlanadi. Chunki mijoz o'zi uchun kafillik bergan shaxsni noqulay ahvolda qo'ymaslik uchun qo'lidan kelgan hamma imkoniyatlardan foydalanib kreditni to'liq va o'z vaqtida qaytarishga harakat qiladi.

Mijozning ariza (talabnoma)si bank uchun birinchi navbatda uning kimligi va kredit tarixini o'rganish uchun zarur. Shuning uchun butun dunyoda mijozlarning kredit tarixini o'rganuvchi, kredit oluvchilar to'g'risida ma'lumotlar yig'uvchi va ushbu ma'lumotlarni ma'lum miqdordagi to'lov evaziga taqdim etuvchi maxsus «Kredit byuro»lari mavjuddir.

O'zbekistonda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoshida «kredit axborotlarini markazlashgan instituti» (KAMI) tashkil etilgan bo'lib, ushbu institut malakat bo'yicha barcha kreditlar va kredit oluvchilar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni to'playdi hamda banklarning so'rovlariga asosan ularga taqdim etadilar.

Harakatdagi qoidalarga asosan KAMI tashkil etilganidan boshlab barcha tijorat banklari kreditlar bo'yicha to'liq ma'lumotlarni (kredit hujjatlari, kredit shartnomasi, kreditning va foiz to'lovlarining to'lanishi kabilarni) KAMI bazasiga yuboradilar. Shuning uchun barcha kreditlar va kredit oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar KAMIda to'plangan. Kredit munosabatlarining oltin qoidalaridan biri esa «kredit oluvchining obro' - (reputatsiya)si ni to'liq bilmasdan, uning kredit tarixini o'rganmasdan» kredit ajratmaslikdan iboratdir.

2. Mijozning daromadi darajasi va barqarorligini aniqlash kredit mutaxassisi uchun muhimdir. Bunda u mijozdan barcha to'lovlardan keyin qoladigan sof oylik daromadlari to'g'risida ma'lumot talab qiladi, mijozni ish bilan ta'minlovchilarga murojaat qilib, firmaning ishlash muddati, manzilgohi va sug'urta kafolati haqida so'rab-surishtiradi.

Ushbu jarayonni amalga oshirishda kredit oluvchining bankga taqdim etgan «biznes reja»si tahlili muhim hisoblanadi. Biznes reja tahlilini amalga oshiruvchi kredit bo'limi xodimi kredit oluvchi iqtisodiyotini juda yaxshi bilmog'i lozim. Masalan, qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi kredit xodimi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati, iqtisodiyoti, xarajatlari, daromadlarining bozor bahosi to'g'risidagi tushunchalarga to'liq ega bo'lmog'i lozim. Tahlil jarayonida kredit evaziga amalga oshiriladigan xarajatlarning bozor

3. Bank kreditini qaytarish omillaridan biri, **kreditning ta'minlanganligidir**, ya'ni mijozga tegishli uy, bino, inshootning mavjudligidir. Bundan tashqari, telefonning mavjudligi ham biron bir muammo paydo bo'lganda, bankka mijoz bilan xarajatsiz bog'lanish imkoniyatini beradi.

Kredit ta'minoti sifatida mol-mulk garovga olingan holda quyidagilarga e'tibor beriladi:

-garovga olinadigan mol-mulknii keyinchalik bank tasarufiga o'tkazishning qonuniy imkoniyatlari. Buning uchun garov shartnomasi imzolanishidan avval unga huquqshunosning yozma xulosasi olinishi lozim.

-garovga olinadigan mol-mulkning bozor bahosiga mosligi. Bank xodimi garov mulkini ko'rib, uning bahosi to'g'risida yozma xulosa tayyorlashi shart.

-garov mulkining kelgusi davrdagi bahosi ya'ni, kreditni qaytarish muddati kelgunicha mulkning moddiy va ma'naviy eskirishi, inflyatsiyaning ta'siri va h.k.

-garov mol-mulkini albatta garov reesteriga kiritilganligi;

-garov mol-mulkinining saqlanish holati va sifati.

Ta'minot sifatiga uchunchi bir shaxsning kafilligi yoki sug'urta polisi qabul qilinganda, kafillik va sug'urta shartnomalari mukammal o'rganilib ularga ham huquqshunosning yozma xulosasi olinishi shart. Yana bir bor shuni eslatib o'tmoqchimizki, so'ralgan kreditning odatda kamida 120 foizi miqdoridagi mol-mulklar garovga qabul qilinadi.

Barcha omillar ichida eng asosiysi, **mijoz ma'lumotlarining to'laqonliligi, mijozning samimiyligi va rostgo'yligidir**. Chunki mijoz o'zining sog'lig'i, kelajakdagi bandligi to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumot bersa, bank bundan katta zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun kreditlardan kutiladigan yo'qotishlarni kamaytirishning asosiy vositasi likvid garov va kafolatlarning mavjudligidir.

10.2. Tijorat banklarida kredit yig'ima jildi (paketi)ni shakllantirish tartibi va kredit hujjatlariga qo'yiladigan talablar

Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan va Adliya Vazirligida 2000-yil 29-martda 906-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizom talablariga muvofiq har bir berilgan kredit uchun kredit yig'majildii yuritilishi lozim. Ushbu yig'majildii kredit shartnomalarini imzolash yoki

bahosiga mosligi hamda daromad manbalari va miqdorining to'g'ri va haqqoniyligini tahlil qilmog'i lozim. Kreditning grafik bo'yicha qaytish miqdori to'liq xarajatlar tarkibiga kiritilganligi, daromad va xarajatlar hamda soliq to'lovlaridan qolgan summa, ya'ni, sof daromadning kredit uchun foiz to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirish uchun etarligiga ishonch hosil qilmog'i kerak.

Agar kredit yangi texnika va texnologiyalarini xarid qilish va kichik ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga yo'naltirilgan taqdirda bunday biznes rejalar tahlilida quyidagilarga e'tibor qaratilishi shart:

- olinayotgan texnika yoki texnologiyalarni ishlatish uchun etarli shart-sharoitlarning mavjudligi;

- ishlab chiqarishni tashkil etiladigan joyi va uning infrastrukturalari (elektr energiyasi, transformatorlar mavjudligi, transport tarmog'iga qulayligi va boshqalar);

- ishlab chiqarish to'la quvvat bilan ishlashi uchun marketing darajasi, ya'ni zarur bo'lgan xom-ashyolar bilan ta'minlanishi, ya'ni xom ashyolar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarning mavjudligi, ishlab chiqarilgan maxsulotlarni realizatsiyasini ta'minlash uchun tovar sotib oluvchilar bilan shartnomalarning mavjudligi kabilar.

3. Mijozning depozit hisob varag'idagi o'rtacha kunlik qoldiq miqdori ham uning talabnomasini baholash uchun muhimdir. Ba'zi banklar kreditning qaytmaslik ehtimolini sezishlari bilan, mijozni o'n kun oldin ogohlantirgan holda, uning depozit hisob varag'i bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankka murojaat qilib, depozit hisob varag'idagi mablag'ni ssuda hisob varag'iga o'tkazish to'g'risida talab qiladilar.

4. Agar mijoz jismoniy shaxs bo'lib iste'mol krediti olmoqchi bo'lgan taqdirda yuqoridagilardan tashqari qo'shimcha ravishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

1. Mijozning bandlik darajasi va yashash sharoiti iste'mol krediti talabnomasini qondirishning yana bir muhim omilidir. Mijoz mazkur ish bilan faqatgina bir necha oy band bo'lsa va yashash joyda qisqa vaqt ichida turgan bo'lsa, kredit mutaxassisi bunday mijozga kredit berishni rad qilishi mumkin.

2. Qarzni to'lash bosqichlari tahlil qilinganda, mijozning-yillik va oylik daromadi aniqlanadi. Buning ma'nosi shuki, kredit mutaxassisi qarzning har bir qismini o'z vaqtida to'liq qaytarilishini ta'minlash uchun mijozning xatti-harakatini nazorat qiladi va bu bilan mijozning o'z mablag'larini boshqarish qobiliyatini o'rganadi.

tasdiqlash kunida ochiladi hamda asosiy qarz va foizlar bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirilganidan so'ng yopiladi.

Ushbu nizom banklar tomonidan beriladigan barcha kreditlarga, shuningdek, unga ochilayotgan kredit liniyalariga nisbatan qo'llaniladi. Bank kreditlarni o'zining ichki kredit siyosatiga va kredit operatsiyalarini yuritishning umumiy shartlariga muvofiq ravishda beradi.

Bankning bevosita kreditlash bilan shug'ullanuvchi tarkibiy tuzilmalari bank filiallarida xizmat ko'rsatiladigan mijozlarga ajratilgan kreditlar bo'yicha ochilgan kredit yig'majildlaridagi hujjatlarning Markaziy bankning kreditlashga oid me'yoriy hujjatlari va bankning ichki kredit tartibotlari talablariga rioya etilishi, to'liq hamda to'g'ri rasmiylashtirilishi va bankning kredit portfeli hisobotida to'g'ri aks ettirilishi yuzasidan nazorat o'rnatadi.

Kreditga doir yig'majildda kreditni berish uchun talab qilinadigan umumiy hujjatlar quyidagilarga muvofiq kelishi lozim.

-qarzdor tomonidan imzolangan va kredit berilishidan oldingi sana qo'yilgan, kreditdan foydalanish maqsadlari bayon etilgan va kredit ta'minlangan holda garov mavzui ko'rsatilgan ariza;

-qarz oluvchining ta'sis hujjatlari; bunda hujjatning nusxalari mas'ul kredit xodimi tomonidan qarz oluvchining yuridik ishidan olingan bo'lishi shart;

-biznes-reja (iste'mol krediti va biznes-rejani taqdim etish shart bo'lmagan kreditning boshqa turlari bundan mustasno);

-agar shaxs qarzdorning vakili bo'lsa, qarzdor nomidan kredit shartnomasini imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjat, imzolar nusxasi;

-tuzilgan kredit shartnomasining asl nusxasi;

-qabul qilingan buxgalterlik andozalariga muvofiq tayyorlangan, oxirgi hisobot sanasida qarzdor tomonidan imzolangan moliyaviy hisobotlar, jumladan, balans hisoboti hamda daromadlar va pul oqimiga doir hisobotlar; zarurat tug'ilganda qarz oluvchining hisobotlari bank va bankning konsultatsion bo'limining mas'ul kredit xodimi hamkorligida talab qilinayotgan formatga muvofiq keltirilishi shart;

-mas'ul bank xodimi tomonidan tayyorlangan, kreditni to'lash uchun qarzdorning naqd pul massasi oqimining etariligini tasdiqlovchi pul oqimi to'g'risidagi hisobot tahlili;

-bank kredit qo'mitasining kredit tasdiqlangan muddat va shartlarini o'z ichiga oluvchi kredit shartnomasini tasdiqlashga doir qarori.

-Agar kredit ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan bo'lsa, kredit yig'majildiga quyidagi qo'shimcha hujjatlar kiritiladi:

- ipoteka to'g'risida tuzilgan shartnomaning asl nusxasi;
- hisobot bahosiga muvofiq garov mavzui bozor qiymatini taqqoslash va uni saqlab turish uchun etarli bo'lgan axborot va tahlilni o'z ichiga oluvchi baholash to'g'risidagi hisobot;

- agar kredit garovni sotib olishni moliyalash maqsadida berilgan bo'lsa, uni sotish narxini tasdiqlovchi hujjatlar.

Agar kredit boshqa shaxs tomonidan kafolatlansa, kredit yig'majildiga quyidagi qo'shimcha hujjatlar kiritiladi:

- kafillik to'g'risidagi shartnoma yoki yozma kafolat;
- auditorlik tashkiloti yoki auditorning kafolatchining (kafil) qoniqarli moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi xulosasi.

- Shaxsning kafil nomidan (kafolatchi) kafolat to'g'risidagi shartnomani (majburiyatni) imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Agar kredit ko'chmas mulkni qurish, ta'mirlash va tiklashni moliyalash maqsadida berilgan bo'lsa, bank kredit yig'majildiga smeta hujjatlarini, shuningdek, bank tomonidan tayyorlangan tekshirish to'g'risidagi hisobotni yoki kredit berilgan ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani kiritish lozim.

Yuqorida talab etiladigan hujjatlar mohiyati, zarurligi, tahlili to'g'risida oldingi bo'limlarda batafsil to'xtalib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 22-fevralda tasdiqlangan, 432-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan kredit monitoringi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlar keltirilgan. Unga ko'ra, tijorat banklari har bir berilayotgan yoki olinayotgan kreditlar bo'yicha kredit paketiga quyidagi hujjatlarni ilova qilish lozim:

1. qarzdorning moliyaviy ahvoli va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi imkoniyatlarini tekshirish maqsadida tegishli shartnomalar tuzilganidan so'ng bank va qarzdor o'rtasida yuz bergan muammolarni aks ettiruvchi yozishmalar va hujjatlar;

2. kredit ta'minoti sifatida berilgan mulkni tekshirish hujjatlari;

3. qarzdor kafilining moliyaviy ahvolini aks ettirgan barcha hujjatlar;

4. kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar;

5. qarzdor to'lovlarni amalga oshirmagan holda bank tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

Kreditga doir xizmat ko'rsatuvchi bankning o'tkazish to'g'risidagi shartnoma shartlariga muvofiq kreditning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini aks ettiruvchi hujjatlarni kredit paketida yuritishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 2-martdagi 906-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish jarayoni to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, tijorat banklarida kredit paketini tashkil qilishga nisbatan quyidagi talablar belgilangan:

1. Tijorat banki mijozdan kredit hujjatlarini yuritish uchun zarur bo'lgan istalgan ma'lumotni talab qilishga haqli;

2. Tijorat banki berilgan har bir kredit uchun kredit paketi ochadi va bu paket kredit to'liq qaytarilgandan keyin yopiladi;

3. Jismoniy shaxslarga ipoteka kreditlari berishda quyidagi hujjatlar talab qilinishi mumkin:

- mijozning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- mijozning ish joyidan mijozning nomiga berilgan tavsiyanoma;

- 086-shakldagi tibbiy ma'lumotnoma;

- mijoz pasportining nusxasi;

- mijozning avtomashina, hovli, uy kabi mulkining mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar;

- mijozning mehnat daftarchasidan ko'chirma;

- oldi-sotdi shartnomasi.

Mijoz ssuda olish uchun bankka belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirib topshirganidan keyin kredit kommissiyasining qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilib, bank va kredit oluvchi o'rtasida imzolangan kredit shartnomasiga asosan mijozga kredit beriladi. Buning uchun mijozga alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi.

Ushbu hisobraqamining debetida mijozlarga ssudalar beriladi. Bank tomonidan berilgan ssudalar qaytarilganda yoki muayyan ssudaning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu ssudalar bo'yicha ko'rilgan zarar qoplanayotganda tegishli ssuda hisob raqamlari kreditlanadi.

Berilgan ssudalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun zahiralar bankning harajatlari hisobidan yaratiladi. Ushbu zahiralar qarzdorning moliyaviy holatini berilgan ssudaning ta'minlanganligi va qaytmaslik risklari baholash natijasida yaratiladi.

Mijozga kredit berishni rad etilgan holda uning sababi to'liq aks ettirilgan yozma xabarnoma tayyorlanadi.

10.3. Kredit shartnomasining mazmuni va uning tuzilishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banki va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlari kredit shartnomasiga asoslanadi. Shu bois bank tomonidan

yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlashni tashkil etishning asosiy xususiyatlaridan biri – bu har bir kredit bitimining shartnomaviy xarakterga ega ekanligidadir.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning 31-moddasida banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlari shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, amaliyotda banklar va mijozlar o'rtasidagi har bir kredit munosabati shartnomaviy xarakterga ega.

Bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi kredit bitimining huquqiy-iqtisodiy shartlarini aniqlaydi. Kredit shartnomasi huquqiy hujjat sifatida kredit bitimi bilan bog'liq barcha masalalarni tartibga solish imkonini beradi.

Kredit shartnomasi yuridik hujjat hisoblanib, uning barcha punktlari bajarilishi tomonlar uchun majburiydir. Bu O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi bilan belgilab qo'yilgan.

Kredit shartnomasining mohiyati shundan iboratki, unga ko'ra bank (kreditor) shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida va unda belgilangan miqdorda qarz oluvchiga pul mablag'larini kreditga berish, qarz oluvchi esa kreditni va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarib berish majburiyatini oladi.

Kredit shartnomasida tomonlarning nomlanishi, shartnomaning amal qilish muddati, kredit bitimining predmeti va shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari, bu majburiyatlarni bajarilishining huquqiy kafolatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Kredit shartnomasi odatda yozma shaklda tuziladi va kerakli shaxslar tomonidan imzolanadi, yozma shaklda tuzilmagan kredit shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi.

Fuqarolik Kodeksining 744-moddasiga asosan kredit shartnomasiga ko'ra, bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mabalg'lari(kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Kredit shartnomasi:

1. **ikki tarafdama shartnomadir**, ya'ni har ikki taraf tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi;

2. **haq evaziga tuziladigan shartnomadir**, ya'ni qarzdor kreditorga kredit olganligi uchun foiz, marja, komissiya ko'rinishida haq to'lashi lozim;

3. konsensual shartnomadir, ya'ni u kredit shartnomasi taraflar tomonidan imzolanishi bilanoq tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi, biroq berilgan kreditga foizlar shartnoma tuzilgan kundan emas, balki haqiqatda kredit mablag'laridan foydalanilgan davr uchun to'lanadi;

4. xo'jalik shartnomasidir, chunki kredit shartnomasi asosan tadbirkorlik faoliyatiga mansub sohalarda tuziladi.

Kredit miqdori va uning qaytarilish muddati, foiz miqdori va uni to'lash muddati, kreditning maqsadi va boshqalar kredit shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi.

Tijorat banki va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlari kredit shartnomaga asoslanadi. Rivojlangan davlatlar bank tizimida har qanday kredit munosabatlari unda ishtirok etuvchi tomonlarning mavqeidan qat'iy nazar o'zaro manfaatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Kredit shartnomada quyidagi asosiy shartlar ko'rsatiladi.

1. Kreditning maqsadi.

Tijorat banki uchun kreditning qanday maqsadlarga so'ralayotganligi muhim hisoblanadi. Shartnomada kreditning qaysi maqsad uchun ishlatilishi ko'rsatiladi. Kreditni qaysi maqsad uchun ishlatilishini korxonalar o'zlarining biznes rejasida ko'rsatib o'tishlari shart. Biznes rejada ko'rsatilgan maqsad bo'yicha kredit summasi o'tkazilib beriladi va korxonaning keyingi faoliyati ham bank tomonidan shartnoma asosida nazorat qilib boriladi. Tarmoqlardagi o'zaro nomutanosibliklar, o'sha tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarining holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banki mana shu omillarni hisobga olishi kerak.

2. Kredit summasi.

Kredit shartnomasida kreditning summasi mijozning garovga qo'ygan mulkining 80 foizi miqdorida yoki kafolatlangan summa miqdorida belgilanib ko'rsatiladi. Tijorat banki mijoz arizasida ko'rsatilgan summani har tomonlama asoslab berishi kerak. Odatda mijozlar o'z imkoniyatlarini maksimal darajada baholab keladilar. Tijorat banklari kerakli hollarda kreditlanayotgan obyektga to'la o'rganib chiqish uchun mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

3. Kreditning foiz stavkasi.

Hozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari qayta moliyalash stavkasini va jalb qilgan resurslarining bahosini hisobga olgan holda o'zlarining kredit siyosatiga muvofiq foiz stavkasini mustaqil o'rnatadi.

4. Kreditni qaytarish muddati.

Shartnomaga asosan kreditdan foydalanish muddati kelganda kredit olgan korxonada kreditni qaytarmasa, muddati o'tgan qarz hisob

raqamiga chiqariladi. Har oyning birinchi kuniga har oy uchun olinadigan foiz summasini o'z vaqtida to'lab bormasa, muddati o'tgan foiz hisoblanib boriladi. Kredit uchun olinadigan foiz bir necha marta muddati o'tgan foiz hisob raqamiga chiqsa, bank kreditni muddatidan oldin yopishga farmoyish beradi. Barcha ssuda operatsiyalari shu hisob raqam orqali olib boriladi. Kredit summasi bankning o'z mablag'lari hisobidan vakillik hisob raqami orqali to'lab beriladi.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan kredit berish «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunga asosan olib boriladi. Banklar tomonidan kredit berish kreditlashning asosiy tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Kreditlash tamoyillari va mijozning balansi asosida moliyaviy ahvoli va kreditga layoqatliligi aniqlanib mijoz bilan bank o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Kredit shartnomasi huquqiy jihatdan bir qator xususiyatlarga ega. O'zining huquqiy tabiatiga ko'ra kredit shartnomasi tomonlarning maqsadlarini va shu maqsadlarning amalga oshirishini birlashtiradi. Maqsad sifatida kredit shartnomasi bankning ma'lum shartlar asosida ssuda berish roziligi va qarz oluvchining uni ma'lum davrdan so'ng qaytarib berishga tayyorligini aks ettiradi. Maqsadlarning bajarilishi sifatida kredit shartnomasi ssuda berish va to'lash bo'yicha aniq harakatni ko'zda tutadi. Mijozning ssudani qaytarish bo'yicha majburiyatlari shartnomani imzolashdan oldin amalga oshirilgan bo'lsa ham, faqatgina ssuda olingandan so'ng paydo bo'ladi. Kredit shartnomasi, shuningdek kredit bitimining iqtisodiy shartlarini tartibga soladi. U bir tomondan mijoz talabining to'laroq hisobini, ikkinchi tomondan esa, bankni kredit riskidan saqlashning muvofiq mexanizmini ta'minlab beradi.

Har bir kredit shartnomasida uning predmetini aniqlovchi punkt bo'ladi. Lekin uning tarkibi mijozlar talabiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Bank bilan mijoz o'rtasida kredit shartnomasini tuzishda barcha shartnomalar uchun zarur bo'lgan quyidagi asosiy talablar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin:

- barcha huquq va majburiyatlarni to'liq himoya qilish imkonini beruvchi, barcha holat va vaziyatlar uchun to'g'ri keluvchi **universal shartnomalar shakli mavjud emas**. Barcha holat va vaziyatlarni o'z ichiga qamrab oladigan shartnoma shaklini ishlab chiqish imkoni yo'q;

- shartnoma (bizning holatda kredit shartnomasi) – **individual** xarakterga ega bo'lgan rasmiy yuridik hujjatdir;

- aniq kredit shartnomasini tuzishda, kredit olish uchun murojaat qilgan mijozlarga alohida (individual tarzda) yondashib, ularning huquqiy maqomi, tashkiliy-huquqiy shakli va kreditlanayotgan loyihaning xususiyatiga e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir;

- shartnoma tuzish jarayoniga yuridik va iqtisodiy jihatdan puxta, aniq, talab darajasida ijodiy yondashishi kerak.

Kredit shartnoma tarkibi qonunda belgilanmagan. Kredit shartnomasini tuzishda bir qancha talablarni bajarish kerak:

- kredit maqsadli bo'lishi shart;
- kreditning summalari aniq belgilangan bo'lishi shart;
- kreditni qoplash tartibi aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim;
- kredit muddati ko'rsatilishi shart;
- kreditning ta'minlanganligi asoslangan bo'lishi lozim;
- kredit foizlari ko'rsatilishi lozim va boshqalar.

Bu shartlarning har birini bank kredit bo'limlarining xodimlari chuqur bilishlari zarur. Chunki bu shartlardan birortasining asossiz belgilanishi kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarilmasligiga olib kelishi mumkin. Har bir kredit shartnomasi shakliga ko'ra quyidagi to'rtta asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Mustahkam huquqiy asos;
2. Shartnoma tuzish erkinligi;
3. Tomonlarning o'zaro manfaatdorligi;
4. Shartnoma shartlarining kelishilganligi.

Kredit shartnomasining **huquqiy asosini** qonunlar, bank faoliyatiga oid boshqa yuridik va me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Kredit shartnomasini tuzish erkinligi mijozni ssuda olmoqchi bo'lgan bankni tanlash erkinligida va bankning shu mijozga kredit berish masalasini echish erkinligida o'z aksini topadi. Ikkala tomon shartnomaviy munosabatlarga o'z xohishlariga ko'ra kiradilar.

Tomonlarning bir-biridan o'zaro manfaatdorligi kredit shartnomasi shartlarini kelishish imkoniyatini bildiradi. Har bir tomon ham o'z manfaatlarini qondiruvchi optimal variantni topishga harakat qiladi.

Kredit shartnomasi tarkibini shakllantirishda muhim va yordamchi shartlarning bor ekanligiga ahamiyat berish kerak.

Muhim shartlar deganda, biz kredit shartnomasini tuzish imkoniyatini aniqlovchi shartlarni tushunamiz. Ularga tomonlarning nomi, shartnoma muddati, predmeti va summasi, ssudani berish va qaytarish tartibi, ssudadan foydalanish bahosining darajasi, kredit qaytarilishining ta'minlanganligi, tomonlarning javobgarligi kiradi.

shimcha shartlar kredit qaytarilishini ta'minlashga, qo'shimcha yaratishga qaratilgan bo'ladi. Ular aniq bir qarzdorlar uchun taniladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

qarzdorning aniq bir kreditga layoqatlilik darajasiga erishish majburiyati;

-hisob va hisobotning zaruriy holati;

-gurovga qo'yilgan mulkni saqlanganligi;

-bank nazorat qoidalariga rioya qilishlik;

-bank ruxsatisiz korxonani qayta tashkil etishni ta'qiqlanganligi va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarni hisobga olgan holda, kredit shartnomasining umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

➤ Shartnoma maqsadi

➤ Bank huquqlari

➤ Qarz oluvchining huquqlari

➤ Bank majburiyatlari

➤ Qarz oluvchining majburiyatlari

➤ Shartnomaning amal qilish muddati

➤ Boshqa shartlar

➤ Tomonlarning yuridik manzili va imzolari.

Shartnoma boshlanishida ishtirokchilarning yuridik shaxs sifatidagi rekvizitlari: qarz oluvchi uchun – nomi, bo'ysunganligi, hisob-kitob varag'i nomeri; bank uchun esa uning nomlanishi, ular tomonidan ish ko'ruvchi shaxslar mansabi, ismi, familiyasi, otasining ismi ko'rsatiladi. Bu bo'limda shuningdek, mijozning huquqiy shaklini: u alohida korxonami yoki tashkilotmi(shirkat, korporatsiya) ko'rsatish kerak.

* «shartnoma maqsadi» bo'limi kredit bitimi obyektini sifat va miqdor tavsifini aks ettiradi.

Kredit bitimi obyektining sifat tavsifi ssudaning maqsadli yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Shularga ko'ra kredit turi quyidagicha tavsiflanadi:

1) **Maqsadiga ko'ra kredit.**

-kundalik ishlab chiqarish talablarini;

-savdo-vositachilik ehtiyojlarini;

-investitsiya ehtiyojlarini;

-iste'mol ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi.

2) **Iqtisodiy tarkibiga ko'ra**

-to'lovga mablag' etishmasligi;

-tovar-moddiy boyliklarini shakllantirish;

- qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- ko'chmas mulk sotib olish va boshqalar uchun berilgan kreditlar.

3) Obyekt umumlashuviga ko'ra kredit

- yiriklashgan;
- jamlangan (yig'ma);
- alohida ehtiyojga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Shartnoma maqsadi bo'limida kredit bitimi obyekt va shuningdek kredit summasi ko'rsatiladi. U kreditlashning miqdoriy chegarasini xarakterlaydi. Kredit agarda kredit liniyasi ochish tartibida berilayotgan bo'lsa, uning darajasi oylarga bo'lingan holda ko'rsatiladi.

Ikkinchi bo'lim ssudani berish va qaytarish tartibi va u bo'yicha bank huquqlarini o'z ichiga oladi. Yiriklashgan yoki jamlangan obyektни kreditlash sistematik tarzda amalga oshiriladi va shuning uchun kredit berish ayni to'lovlar amalga oshirilayotgan paytda hisob-kitob varag'idan o'tmagan holda bajariladi. Kreditni qaytarish ham huddi shunday sistematik tarzda hisob-kitob varag'idan tomonlar kelishilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Kredit shartnomasida bankning quyidagi huquqlari belgilanadi:

- qarz oluvchidan kreditni ishlatishini nazorat qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan buxgalteriya va statistika hisobotlarini olish;
- berilgan kreditlar uchun foizlar olish;
- shartnoma shartlariga amal qilinmagan hollarda shartnomani bekor qilib, kredit berishni qisman yoki to'liq to'xtatish va berilgan kreditlarning muddatidan oldin foizlari bilan undirib olish;
- qayta moliyalash foizi o'zgargan holda kredit uchun foizlarni o'zgartirish;
- shartnoma muddatini uzaytirish sabablarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;
- shartnomada ko'rsatilgan boshqa huquqlar;
- kredit bo'yicha qarzdorlik jadval bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikka o'tkazilgandan so'ng mijozning hisobraqamiga pul mablag'i bo'lganda va kelib tushgan holatda kreditning asosiy summasini qaytarish maqsadida mijozning roziligisiz uning hisob raqamidan memorial order bilan chegirib olinishi amalga oshiriladi.

- qarzdorning pul mablag'lari etishmagan taqdirda kredit bo'yicha qarzlarni qarzdorning roziligiga ko'ra uning likvidli mol-mulki hisobidan yoki xo'jalik sudi orqali qarzdorning mol-mulkiga qaratish yo'li bilan undirish;

... kredit qarz oluvchi tomonidan muddatida qaytarilmagan holda ... tartibidagi tartibda oshirish:

a) kredit summasi muddati o'tgan qarzdorlikka chiqarilgandan so'ng ... kredit shartnomasida ko'rsatilgan foiz to'lovi darajasining ... baravar miqdorida;

b) kredit summasi muddati o'tgan qarzdorlikka chiqarilgandan so'ng ... kredit shartnomasida ko'rsatilgan foiz to'lovi darajasidan 1,3 ... baravar miqdorida;

v) 60 kundan so'ng Markaziy bankning qayta moliyalash darajasi ... miqdorida foiz to'lovlarini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi ... Markaziy bankining 425-sonli tartibi asosida tadbirlar amalga oshiril- ... gunda foiz hisoblash balansdan tashqari hisob raqamlar orqali amalga ... oshiriladi;

Qarz oluvchi to'lovga qobiliyatsiz deb belgilanganda, biznes rejada ko'rsatilgan pul oqimlari tushumi muddatida ta'minlamay bank oldida qarzdorliklarni yuzaga keltirganda, u tomonidan kreditning ta'minlanishi bo'yicha majburiyatlari bajarilmaganda, kreditning asosiy qarzi yoki unga tegishli foiz to'lovlar ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmaganda, qarz oluvchi tomonidan kreditning ishlatilishi majburiyatlari buzilganda, qarz oluvchi tomonidan hisobotlar muntazam taqdim etilmaganda yoki ular aniq bo'lmaganda, bank xodimlariga birlamchi hisobotlar va muhosiblik hujjatlarini o'rganishga ruxsat berilmaganda, kafil tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda, tashkilotning tugatilishi yoki bankrot bo'lishi holati kelib qolganda, garovga olingan mulk saqlash holati talabga javob bermagan hollarda bank quyidagi huquqlarga ega:

-ushbu kredit shartnomasida qayd etilgan kreditni qarz oluvchiga to'liq yoki qisman berishni rad etishi;

-berilgan kredit va u bo'yicha foiz to'lovlarini muddatidan oldin undirish, shu jumladan, ushbu shartnomada belgilangan kredit ta'minoti hisobidan undirish;

-ta'minot turini boshqa likvid turiga almashtirilishini talab qilishi mumkin.

Alohida obyektlarni kreditlash esa o'zgacha mexanizmga ega bo'lib, u kredit shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak. Masalan, kreditni berish va qaytarish to'liq summada yoki qismlarga bo'lib bajarilishi mumkin. Muvofiq tarzda kredit berish va qaytarishning summa va muddatlari ko'rsatilishi kerak. Ssudani berish mablag'lari to'g'ridan-

to'g'ri to'lovlarni bajarishga yo'naltirish yo'li bilan, shuningdek mablag'larni hisob-kitob varag'iga o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holatda ssudaning maqsadli yo'naltirilganligini ta'minlovchi mexanizm bo'lishi kerak. U o'z ichiga: a) mijozning ssudani maqsadli yo'naltirilganligiga rioya etish majburiyati; b) berilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi ustidan bank nazorati shaklini oladi.

Kredit shartnomasining **3-bo'limida** qarz oluvchining huquqlari ko'rsatiladi.

Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

1. kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va muddatda kreditni olish;

2. shartnomaga asosan yoki kreditor qarshi bo'lmasa, kreditni muddatidan oldin qaytarish;

3. shartnomaga amal qilinmasa kredit shartnomasini bekor qilish;

4. kredit shartnomasi muddatini uzaytirish va qayta moliyalash stavkasiga asosan kredit foizini o'zgartirishni talab qilish;

5. kredit shartnomasida ko'rsatilgan boshqa huquqlar.

Kredit shartnomasining **4-bo'limida** bankning majburiyatlari aks etadi. Bank majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

-o'z vaqtida kreditni berish va pul hisob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish;

-kredit shartnomasiga binoan kreditlarga foiz hisoblash;

-kreditni va unga foizlarni muddatidan oldin undirish hollarida qarzdorga ma'lumot berish;

-normativ hujjatlarning o'zgarishi to'g'risida mijozni xabardor qilib turish;

-shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlar.

Bu majburiyatlarni bajarmaganda bank mijozga jarima to'lashi ko'zda tutilgan bo'ladi (odatda har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foiz miqdorida). Shuningdek, bank kredit berishni to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish huquqiga egadir. Agar qarz oluvchi uni qaytara olmasligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, berilgan kredit bank tomonidan muddatidan ilgari undirilishining sabablari to'g'risida qarz oluvchiga yozma xabar berish va boshqalar.

5-bo'lim mijozning majburiyatlariga bag'ishlanib, bu bo'limda kreditlarning maqsadsiz ishlatilishi aniqlangan hollarda, maqsadsiz ishlatilgan summaning 25 foizi miqdorida jarima to'lash va ushbu shartnomaning 1-bandida ko'rsatilgan kredit summasining to'liq qaytarilishini;

qarz oluvchi korxonalar rahbari investitsiya loyihalarini (biznes reja) texnik iqtisodiy asoslanganligi, axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va tahonchiligi, loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslash parametrlarini va biznes rejalarini amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi, biznes reja bo'yicha ko'zda tutilgan pul oqimlarini grafik bo'yicha tushishini ta'minlashi;

- bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklar sug'urta idoralarida sug'urtalangan va kredit shartnomasi yuridik kuchga ega bo'lishi uchun harakatdagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan notarial idoralarda tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi shart.

Bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklarning yaxlitligini saqlash yuzasidan to'liq moddiy javobgar bo'lishi (kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlar to'liq to'langunga qadar) ularni sotib yubormasligi va boshqa uchinchi shaxsga bermasligi shart. Kafolatchi tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda, tugatilishi yoki bankrotlik holatiga kelib qolish holatlari ro'y berganda, kredit ta'minotiga berilgan mulk holati yomonlashganda, bank talabiga binoan olingan kredit va foizlarni muddatidan oldin uzish yoki ta'minotini boshqa likvid ta'minotga almashtirish ko'zda tutilish mumkin.

Kredit uchun foiz to'lovlar odatda har oyning 20 sanasigacha to'lanadi.

Qarz oluvchi bankka quyidagilarni ta'minlaydi:

-Qarzlarning yuzaga kelish sanalari ko'rsatilgan debitor va kreditor qarzdorligi bo'yicha yoyilmasi ilova qilingan-yillik va chorak balanslari;

-Muddati o'tgan qarzlarning bo'yicha solishtirma dalolatnomalar va Bank nazorat funksiyasi uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar;

-Birlamchi hisobotlar va muhosiblik hujjatlariga ruxsat berilishi va bank talabiga ko'ra qarz oluvchi tegishli hujjatlardan zarurlari nusxasi taqdim etilishi;

-Kreditning maqsadli ishlatilishi yuzasidan bank xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazilishini ruxsat berilishi, shuningdek, kreditning ishlatilishini joyiga chiqib tekshirish uchun ruxsat berilishi;

-Ushbu kredit shartnomasi bilan huquqiy jihatdan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklarini saqlanishi holati bo'yicha bank xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazishga ruxsat berilishi;

-Agar kredit sug'urtalangan bo'lsa, har-yil uchun sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida to'lab borilishi;

-Har-yil uchun alohida kafil tashkilot moliyaviy holati to'g'risida yozma ma'lumot taqdim etish kabilar bo'lishi lozim.

Shuning uchun mijozning majburiyatlari to'g'ridan-to'g'ri kreditning tamoyillari, qoidalari va shartlariga amal qilishga bog'liqdir.

Mijoz majburiyatlariga yana quyidagilar kiradi:

-kreditdan belgilangan maqsadlarda foydalanishni ta'minlash;

-o'z vaqtida foizlarni to'lash va kreditni qaytarish;

-o'z to'lovga layoqatliligi to'g'risida bankka ma'lumot berib turish;

-kreditni ta'minlash;

-berilgan kredit bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni echish uchun birlamchi buxgalteriya hisobotlari va hujjatlarini kerakli paytda kredit bo'limiga taqdim etish;

-3-shaxsdan kredit olish to'g'risida bankni xabardor qilish;

-korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarishi hollarida bankni xabardor qilish;

-likvidatsiya paytida zudlik bilan kreditni (foizlari bilan) qaytarish;

-shartnomaga binoan boshqa majburiyatlar.

Kredit shartnomasining ushbu bo'limida kredit qaytarilishini ta'minlovchi aniq usullari ko'rsatiladi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

-garovga qo'yilgan tovar-moddiy boyliklar;

-bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati

-uchinchi shaxsning kafilligi;

-Sug'urta polisi.

Yuqorida keltirilgan kredit qaytarilishini kafolatini ta'minlovchi usullar kreditning barcha turlarida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini hisobga olgan holda ishlatiladi. Ular mijozga ishonch etarli bo'lmaganda, ssudani pul tushumlari hisobiga qaytarishning yuqori riski mavjud bo'lganida qo'llaniladi.

5-bo'limda kreditdan foydalanganlik uchun bankka to'lanadigan foizlar darajasini aks etadi. Bu bo'limda quyidagi hollardagi foiz stavkasini belgilash qayta ko'rib chiqish, maqsadga muvofiqdir:

a) shartnomada ko'rsatilgan ssudadan foydalanish muddati davomida;

b) ssuda prolongatsiya qilinganda;

v) ssuda to'lashni kechiktirganda;

g) mijozning kreditga layoqatliligining yomonlashganida yoki bitimning kredit riskini ko'paytiruvchi boshqa omillarning paydo bo'lishida.

Hundan tashqari kredit shartnomasida kreditga foiz hisoblash va uning muddatlarini ko'rsatilishi zarur. Inflyatsiya sharoitida kredit shartnomasining yana bir punktida boshlang'ich o'rnatilgan foiz stavkalarining inflyatsiya o'sish darajalariga bog'liq holda o'zgartirish tartibi berilgan bo'ladi. Foiz stavkasini qayta ko'rib chiqishga asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi sabab bo'ladi.

Ba'zi hollarda kredit shartnomada tomonlarning javobgarligi 6-bo'limda tomonlar olgan majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganda O'zbekiston Respublikasi qonunlari oldida javobgar ekanligi va sanksiyalar berilgan bo'ladi.

«Shartnomaning qo'shimcha shartlari» degan bo'limda oldingi bo'limlarda ko'rsatilmagan boshqa shartlar belgilanadi. Ularga agar mijoz bu bankda hisob-kitob varog'iga ega bo'lmasa, summa va muddati ko'rsatilgan majburiy muddatli depozit ochish; kreditlash yoki kredit liniyasi limitining boshlang'ich o'rnatilgan summasini o'zgartirish tartibi; kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini kiritish mumkin.

«Kelishmovchiliklarni hal qilish» degan bo'limida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) tomonlar o'rtasida shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish;

b) o'zaro kelishuv bilan hal qilish mumkin bo'lmagan kelishmovchiliklarni O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan respublika xo'jalik sudida hal qilish.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit shartnomasining yana bir bo'limi shartnomaning amal qilish muddati bo'lib, unda kredit shartnomaning amal qilish muddatini, ya'ni uning boshlanishi va oxirini belgilaydi.

Shartnomada shuningdek, tomonlarning yuridik manzili (pochta adresi, hisob-kitob yoki vakillik hisoblari, telefon, faks) ni hamda muhrlar bilan tasdiqlangan imzolari aks ettiriladi.

10.4. Kredit monitoringi mazmuni, turlari va uning kredit qaytarilishidagi ahamiyati

Kreditlash operatsiyalari tijorat banklarining o'z kredit siyosatlari asosida, Markaziy bankning kredit siyosatiga quyilgan talablaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Kredit monitoringi kredit siyosatining

ajralmas tarkibiy qismi bo'lib mijozlarga berilgan kreditlarning qaytarilishini, qolaversa, banklarning asosiy daromad manbalaridan biri hamda eng riskli operatsiyasi bo'lgan kreditlash bankning raqobatbardoshligini, rentabelligini qisqacha ifodalaganda, bankning kelajagini ta'minlaydi.

Kredit monitoringi berilgan kreditlarni qaytarilishi va uni ta'minlash borasida qabul qilinadigan ishlovlar va chora-tadbirlar tizimidir.

Kredit monitoringi kreditlar holatini doimiy kuzatib borishini ko'zda tutadi.

Monitoring kreditdan foydalanishning butun davri mobaynida, kredit oluvchi bilan yaqin aloqalarni saqlab turgan holda kredit va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomada ko'zda tutilgan muddatlarda so'zsiz qaytarilishini ta'minlashdan iborat.

Kredit monitoringidan ko'zlangan bosh maqsad – qarz oluvchining to'lovga layoqatsizligini (kredit bo'yicha qarz majburiyatlarini belgilangan muddatda bajara olmasligini) ilk bosqichdayoq aniqlash hamda kreditlarni so'zsiz qaytarish va hisoblangan foizlarni to'lanishini ta'minlashdir.

Kredit monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

- kreditni monitoring qilish;
- kredit portfelini monitoring qilish.

Bank kreditlarni monitoring qilish tizimi quyidagicha shakllantirilgan:

a. dastlabki monitoring – kredit buyurtmasini ko'rib chiqishda kredit hujjatlarining to'liqligi, to'g'ri va puxta rasmiylashtirilganligi, ta'minlanganligi va maqsadlilikini o'rganish;

b. joriy monitoring – kreditni ajratish va kreditdan foydalanish davrida maqsadli foydalanishni, kredit va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarilayotganligini nazorat qilish, qarzdorning va ta'minotning joriy holatini muntazam baholab borish;

Kredit ajratilgan kundan boshlab bank xodimlari birinchi navbatda uning maqsadi ishlatilishi tekshiriladi va u alohida dalolatnomada rasmiylashtiriladi.

d. yakuniy nazorat – kredit portfeli samarali boshqarish va diversifikatsiyasini nazorat qilish. Kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarilmaslik holatini yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash.

Kreditlar kredit qo'mitasining qarori asosida, belgilangan me'yoriy shartlar asosida, alohida ssuda hisobraqamini ochish va ushbu hisobraqamdan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasi asosida moddiy tovar boyliklar uchun nakd pulsiz mablag' o'tkazish yo'li bilan qarz

beriladi. Tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring amalga oshiriladi va u qarz oluvchi tomonidan uning loyihasi va kredit shartnomasi shartlarining amalga oshirilishiga har tomonlama ko'maklashishiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Monitoring jarayonida kredit olgan mijozning xo'jalik moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot etkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish hajmlari, noishlabchiqarish harajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda va daromad mutanosibligi, o'z aylanma mablag'lari mavjudligining dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zahirolari ahvoli, aylanma mablag'larning aylanishi tahlil qilinadi. Bank qarz oluvchining kreditga layoqatliligi bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi va uning ko'rsatkichlarini qarzdorning kredit paketiga tikib boradi.

Bulardan tashqari bankka taqdim etilgan garovning holati va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanishi kredit shartnomasida kelishilgan shartlarga muvofiq garov obyektini faoliyat joyining o'zida o'rganiladi.

Qurilishni moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar bo'yicha bank monitoring jarayonida kreditlangan obyektida kredit shartnomasida qayd etilgan muddatlar va shartlar asosida bajarilgan ishlar hajmining nazorat o'lchovini amalga oshiradi.

Berilgan kreditlardan boshqa maqsadlarda foydalanganlik holati aniqlanganda, bank kredit shartnomasida belgilangan tartibda, kreditning maqsadga nomuvofiq ishlatilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan muddatdan oldin undirib olish huquqiga ega. Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, bank Fuqarolik kodeksining 280-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq mustaqil ravishda sudga murojaat etmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega.

Kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar quyidagilarni tashkil etadi:

- kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim;
- kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak;
- qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha «to'lovsizlik» tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari,

shuningdek, bank Boshqaruvi va Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvoning yomonlashishi, yashirin sabablari va sog'lomlashtirish rejalari batafsil bayon etiladi. Siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit monitoringi faoliyatining asosiy tamoyili quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Turli xil ko'rinishdagi kreditlarning davriy nazorati. Bu nazorat asosan kichik hajmdagi kreditlar yuzasidan bo'lib, 30 kunlik, 60 kunlik, 90 kunlik nazoratlar shaklida bo'ladi.

2. Kredit nazorati bosqichlarining diqqat bilan qayta ko'rishni, ya'ni:

- mavjud kredit bo'yicha to'lovlar hisobi ma'lumotlarining ishonchligi;

- kredit ta'minotining holati va sifati;

- huquqiy jihatdan kredit qaytarilishining ishonchli ma'lumot — hujjatlarining to'liq bo'lishi lozim;

- mijozning bank krediti bo'yicha moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va natijada kredit miqdorining ortishi yoki qisqartirilish darajasi;

- berilgan kreditning bank kredit siyosatiga va standartlariga mos bo'lishi.

3. Muammoli ssudalarni tez-tez tekshirilishi.

4. Iqtisodiy nobarqarorlik davrida kreditlarni tez-tez nazorat qilish va boshqalar.

Berilgan kreditlarning monitoringi bo'yicha kredit yig'majildiga tikiladigan hujjatlar quyidagilardan iborat:

- kredit shartnomasi tuzilgandan keyingi davrda mijoz bilan bank o'rtasidagi aloqalarni tasdiqlovchi hujjatlar (xatlar, yozishmalar va boshqalar);

- mijozning choraklik balans hisobotlari;

- kreditning ta'minoti sifatida qabul qilingan mulkning bahosini aks ettiruvchi hujjatlar;

- mijozga kafillik bergan korxonaning moliyaviy holatini baholash imkonini beradigan hujjatlar;

- kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytishini tasdiqlovchi hujjatlar;

- mijoz kreditni qaytara olmay qolgan sharoitda bank tomonidan ko'riladigan choralarni tasdiqlovchi hujjatlar.

Hozirgi kunda kreditlash sohasida eng asosiy muammolardan biri kreditning to'liq qaytarilishidir. Bu o'rinda kredit monitoringi juda katta ahamiyatga ega. Kreditlarning to'liq qaytib kelmasligiga asosiy sabab, «kredit tanlovi»ning iqtisodiy tamoyilga mos tushmay qolishidir. Bu yo'qotishlar, xatolar bevosita kredit oluvchi subyekt haqida ma'lumotlarning etarli emasligi yoki obyektiv emasligidan yuzaga keladi. Buning uchun xorij amaliyotida keng qo'llaniladigan va hozirda O'zbekistonda ham amaliyotga tadbiq qilinib borilayotgan kredit Byurosini tashkil qilish, unda markazlashgan holda, mijozlar haqida to'liq ma'lumotlar bera oladigan axborotlar bazasini yaratish va uni ishonchli va obyektiv ishlashini shakllantirish banklar uchun, iqtisodiyot uchun, bir bank infrastrukturasi uchun katta foyda keltiradi. Birinchidan, tezkor ma'lumotlar asosida banklar hamda mijozlar vaqtdan yutadilar. Ikkinchidan, bu tezkor ma'lumotlar kredit harajatlarini pasaytiradi, uchinchidan, bank faoliyati operativligini, barqarorligini, salohiyatini oshiradi va albatta, kredit monitoringi ishlari ham qisman engillashadi, xususan muammoli kreditlarning kamayishi hisobiga.

Kredit monitoringi ishlarini engillashtiradigan yana biror xususiy echim kreditlarni berishda mijozning biznes loyihasidan kelib chiqqan holda, loyihaning marketing tadqiqotining xaqqoniyligi, hayotga yaqinligi bo'lishi kerak chunki yangi ishlab chiqariladigan tovarga talab qanchali yuqori bo'lsa, loyihaning moliyaviy natijasi ham samarali bo'ladi. Bu esa, kreditlarni to'liq qaytarilishini ta'minlaydi. Zotan, kredit monitoringining asosiy vazifasi mijozga kreditni qaytarishiga ko'maklashishdir.

Kredit oluvchining moliyaviy-xo'jalik ahvoli yomonlashgani, buxgalteriya hisob-kitobi o'z holiga tashlab qo'yilgani, hisobot va ma'lumotlarining ishonchsiz (noto'g'ri)ligi hamda, bank nazoratidan qochish (bo'yin tovlash) hollari aniqlangan taqdirda, bank kredit berishni to'xtatish huquqiga ega. Berilgan kreditlar esa, kredit shartnomasining shartlaridan kelib chiqqan holda, kredit ta'minotiga qabul qilingan majburiyatlardan foydalanish orqali (kredit oluvchining mablag'lari hisobiga) muddatidan oldin undiriladi.

Tayanch so'z va iboralar

Garov obyekti, kredit, kreditlash jarayoni, kreditlash bosqichlari, kredit shartnomasi, kredit yig'ma jildi, kredit monitoringi, kreditlash usullari, kreditlash shakllari.

Takrorlash uchun savollar

1. Kreditlash necha bosqichda amalga oshiriladi?
2. Banklarda kredit yig'ma jildi qanday shakllantiriladi?
3. Kredit hujjatlarini rasmiylashtirishga nisbatan qanday talablar qo'yiladi?
4. Mijozning kredit tarixi deganda nimani tushunasiz?
5. Kredit shartnomasining tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?
6. Kredit monitoringi nima va u qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Kredit monitoringining qanday turlari mavjud?

XI BOB. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI

11.1. Tijorat banklari foiz siyosatining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit boshqaruvida asosiy komponent vazifasini bajaradi, balki kredit munosabatlarini boshqarishda iqtisodda ustuvor ham hisoblanadi.

Bank foizidan foydalanish mexanizmi bir nechta elementlarni o'zida mujassamlashtiradi va uning yordamida bank foiz siyosati vujudga keladi hamda uning amaldagi ko'rinishi ssuda foizi hisoblanadi. Bank foiz stavkasiga olimlar turlicha ta'riflar berganlar¹. Masalan, I.O. Lavrushin bank foizini kredit munosabatlarida qatnashuvchi subyektlardan biri bank bo'lgan holda vujudga kelishini ta'kidlaydi. Ssuda foizi esa ssudan vaqtinchalik foydalanishga ssudalashtiriladigan o'ziga xos narx hisoblanadi. Shunga o'xshash ta'rifni yana bir olim I.Tavasiev berib u shunday deydi: «banklar uchun pullar o'zida «oldi-sotdi» predmetini ifodalab o'zining narxi bo'lgan bank foiziga ega»². Nazariy nuqtai nazardan uni to'lash manbai bo'lib kreditdan foydalanish natijasida olinadigan qarz oluvchi foydasining bir qismi hisoblanadi.

Bank foizining turli xil shakllari mavjud bo'lib ular: depozit foizi ko'rinishida, ssuda foizi, shu bilan birlikda banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya foizlari va boshqalardir.

Bank foizi mazmunida shuni nazarda tutish kerakki, bank muassasalari o'zining mablag'larini emas, balki chetdan keladigan mablag'larni ssudaga joylashtiradi. Bank faoliyatida bajarilmaydigan majburiyatlar riski, aktiv tomondan pul qo'yuvchilarning ham passiv tomondan majburiyatlar bajarilmasligi riskini oshiradi.

Bank foizi 2 xil ma'noda foydalaniladi:

1. Bank jalb qilgan mablag'lar (boshqa kredit tashkilotlaridan olingan banklararo kreditlar, jismoniy va yuridik shaxslarning omonotlari va

¹ Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. 2-э изд. Перераб. и доп. / О.И. Лаврушина. - Москва: Финансы и статистика, 2005. -672 с.

² Тавасиев А.М. (ред.) Банковское дело. Управление и технологии Учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям. — 2-э изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005 г. — 671с.

depozitlariga foiz, mijozlarning hisobvaraqlaridagi qoldiqlarga foiz) ga to'laydigan qiymatni ifodalashda;

2. Bank joylashtiradigan mablag'larga olinadigan qiymatni ifodalash uchun. Boshqacha qilib aytganda bank foizi turli shakllarda:

↓ Depozit foizi;

↓ Ssudalar bo'yicha foiz;

↓ Banklararo kreditlar bo'yicha foiz;

↓ Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha foizlar shaklida namoyon bo'ladi.

Foizning mutloq miqdori hech narsani anglatmaydi. Shu sababdan kredit kelishuvining samaradorligini oydinlashtirish kredit qiymatining u yoki bu ma'qul qiymatni aniqlash uchun nisbiy ko'rsatkich - foiz normasi ko'rsatkichidan foydalaniladi:

Ssuda kapitali bozorining turli sektorlari xususiyatlaridan kelib chiqib bir turdagi foiz stavkalari (bank va nobank) ning bir necha guruhini ajratish mumkin:

- Kredit muassasalari o'rtasidagi qisqa muddatli kredit operatsiyalarida qo'llaniladigan pul bozori stavkasi;

- Qayta moliyalashtirish stavkasi;

- Qimmatli qog'ozlar bozoridagi (birlamchi va ikkilamchi bozor) stavkalar;

- Bank va boshqa kredit muassasalarining nobank tashkilotlariga va jismoniy shaxslar uchun foiz stavkalari.

O'z navbatida yuqoridagi guruhlarning har biri doirasida foiz stavkalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Bitim muddatlari bo'yicha:

- ❖ Qisqa muddatli;

- ❖ Uzoq muddatli.

Foiz stavkalarining tuzilishi bo'yicha:

- ❖ asosiy(bazaviy);

- ❖ qo'shimcha, ya'ni asosiy qarz o'zgarishi natijasida o'zgaradigan foiz stavkalar.

Shakllanish xarakteri bo'yicha- bozor va tartiblanadigan to'g'ri yoki egri (Markaziy bank va boshqa subyektlar stavkalari) stavklariga bo'linadi. Tartiblanadigan stavkalarga qayta moliyalashtirish stavkasi va Markaziy bank shtraf stavkalari kiradi.

Foydalanish ko'lamiga bo'yicha- hududiy, milliy va halqaro kredit bozorlarida qo'llaniladigan stavkalar.

Kreditdan foydalanish davrida o'zgarish xarakteriga qarab - fiksirlangan (o'zgarimas) va suzuvchi (o'zgaruvchi) stavkalarga ajratiladi.

Lavrushin I.O. ssuda foizini belgilar bo'yicha quyidagicha turga ajratadi¹:

Kredit shakllari bo'yicha - tijorat foizi, bank foizi, iste'mol foizi, lizing bitimlari bo'yicha foiz, davlat krediti bo'yicha foiz.

Kredit muassasalari turi bo'yicha-Markaziy bank hisob stavkasi, bank foizi, lombard foizi.

Investitsiya turi bo'yicha-oborot mablag'lariga kredit bo'yicha foiz, asosiy fondlarga investitsiya bo'yicha foiz, qimmatli qog'ozlarga investitsiya bo'yicha foiz.

Kreditlash muddatlari bo'yicha foiz.

Kredit muassasalarining operatsiya turlari bo'yicha foiz.

Bank foizdan foydalanish mexanizmi o'zida banklar amalga oshiradigan foiz stavkasi siyosatining elementlari majmuini ifodalaydi. Mexanizmning alohida elementlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

Foiz darajasini shakllantirish usullari;

Foiz stavkalarining differensiyalash mezonlari bo'yicha;

Markaziy bank tomonidan foiz normasini tartiblash metodlari bo'yicha;

Foizlar bo'yicha to'lovlarni o'tkazish va undirish tartibi bo'yicha;

Foizning qarz oluvchilar moddiy manfaatlar tizimi bilan o'zaro bog'liqligi;

Kredit muassasalarinng daromadlari va xarajatlarini shakllantirishda foizning o'rni.

Bank foizidan foydalanishning zamonaviy mexanizmi quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Foiz darajasi kredit bitimi tomonlari o'rtasidagi kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda shartnoma orqali aniqlanadi.

Markaziy bank doimiy ravishda to'g'ridan-to'g'ri ssuda foiz normasini ma'muriy boshqaruvidan uning darajasini qayta moliyalashtirish foiz stavkasini o'zgartirish va majburiy rezervlar normasini manevrlash orqali tartibga solishning iqtisodiy usullaridan foydalanadi.

Ssudalar bo'yicha foiz stavkalari tijorat banklari tomonidan kredit kelishuvining aniq shartlarini hisobga olib o'rnatilmoqda, ya'ni ssuda hajmi va uni tugash muddati, ta'minot mavjudligi, mablag'larni jalb

¹ Лаврушин О.И., Мамонова И.Д., Валенцева Н.И. Банковское дело// Учебник. -М.: КНОРУС, 2009. — 768 с.

qilishdagi xarajatlar, kreditni rasmiylashtirish va nazorat bo'yicha xarajatlar, qarz oluvchining kreditga layoqatligi va boshqalar.

Bank passiv operatsiyalari bo'yicha foiz bo'sh pul mablag'larini vaqtincha omonatlarga jalb qilish stimuli sifatida oshib bormoqda.

Foizlarning o'tkazilishi va undirilish tartibi shartnomada belgilanadi. Amaliyotda ssuda kunlari sanasi yaqinlashishi bilan oddiy foizlar hisoblash usulidan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda foizlarni to'lash manbasi kredit qo'yilmalarining yo'nalishidan kelib chiqib turlichadir. Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi, uzoq muddatli va muddati o'tgan kreditlar bo'yicha xarajatlar korxonaga soliqqa tortilgan foydasiga olib boriladi.

Zamonaviy foiz mexanizmining xususiyati bevosita foizlar bo'yicha daromad va xarajatlarning bank yakuniy moddiy manfaatlari bilan bevosita bog'liqligi hisoblanadi.

Bank xarajatlari 2 asosiy elementlardan tarkib topadi:

Resurslarni shakllantirish bo'yicha xarajatlar;

Bank faoliyatini ta'minlovchi xarajatlar.

Birinchi guruh xarajatlarga- jalb qilinadigan depozitlar (muddatli, jamg'arma va talab qilib olingunga qadar depozitlar) ga to'lovlar, Markaziy bankning resurslariga foiz, banklararo ssudalar bo'yicha, qimmatli qog'ozlar bo'yicha va boshqalar.

Ikkinchi guruhga boshqa operatsion va bank ma'muriy boshqaruv xarajatlari kiradi. Jumladan:

✓ Qimmatliklar va hujjatlarni tashish uchun transport ijarasi xarajatlari;

✓ Blankalar, magnit lentalar va boshqa narsalarni sotib olish uchun xarajatlar;

✓ Hisob-kitob markazi xizmatlariga xarajatlar;

✓ Amortizatsiya xarajatlari;

✓ Bank xodimlariga ish haqi xarajatlari;

✓ Binolarni saqlash va ta'mirlash xarajatlari.

Har bir alohida olingan bitimda foiz normasini hisoblashda tijorat banklari quyidagilarni hisobga oladilar:

Bazaviy foiz stavkasining darajasi, bu ma'lum davrga ta'minlangan ssudalar bo'yicha bankning eng kreditga layoqatli mijozlari uchun o'rnatiladi;

Alohida har bitim sharoitidan kelib chiqib riskni qo'shish.

Bazaviy foiz stavkasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bazaviy foiz stavka= $B_1 + B_2 + F_d$;

Bu yerda,

B_1 - rejalashtirilayotgan davrga barcha kredit resurslarining o'rtacha real bahosi;

B_2 - bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha rejalashtirilayotgan xarajatlarning joylashtirilayotgan mablag'lar hajmiga nisbati;

P - bank ssuda operatsiyalarining rejalashtirilgan foydalilik darajasi.

Kredit resurslarining o'rtacha real bahosi (S_1) o'rtacha tortilgan formula bo'yicha hisoblanib alohida resurs turi bahosi va uning bank umumiy jalb qilingan resurslar summasidagi ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.

O'z navbatida alohida bank jalb qilgan resursning o'rtacha haqiqiy bahosi mazkur resurs bozoridagi nominal bahosi va majburiy zahira normasiga korrektirovka asosida aniqlanadi:

$\frac{P_d * 100 \% B_d}{I - \text{majburiy zahira normasi}}$

Bunda

B_d -jalb qilingan muddatli depozitlarning o'rtacha haqiqiy bahosi;

P_d - depozit foizining o'rtacha bozor bahosi.

Riskni hisobga olgan holatda quyidagi mezonlardan kelib chiqib guruhlanadi:

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligi;

Ssuda bo'yicha ta'minot va uning xarakteri;

Mijozning bank bilan mustahkam aloqasi;

Foizlarni hisoblash usullari;

Qarz oluvchining kredit muddatiga rioya qilishligi.

Ma'lumki ssuda foizi bank daromadini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va jalb qilingan mablag'larga to'lovlar uning xarajatlari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Bank foiz marjasi bank aktiv va passiv operatsiyalarpi bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari o'rtasidagi farq muhim ma'no kasb etadi.

Foiz marjasi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_h = \frac{F_f - X_f * 100 \%}{A_d}$$

Bunda

M_h - foiz marjasining amaldagi hajmi;

F_f - foizli daromadlar;

X_f - Foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar;

A_d - foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi aktivlar.

Foiz marjasining tahlili quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Amaldagi foiz marjasini bazaviy bilan solishtirish, foizlar bo'yicha daromadlarning oshishi yoki kamayishi sur'atlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi;

Foiz marjasi komponentlarini o'zgarishining tahlili daromad (xarajatlarning)larning qaysi kategoriyasi uning umumiy o'zgarishiga olib kelishini aniqlash imkonini beradi.

Foiz marjasining hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bo'lib kredit qo'yimalari va ularning manbalari hajmi va tarkibi, to'lovlar muddati qo'llaniladigan foiz stavkalar xarakteri va boshqalar bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Bozor mexanizmi rivojlanishi sharoitida g'arb mamlakatlarining tajribasini hisobga olish muhimdir. G'arb mamlakatlarida bir vaqtning o'zida bir qator foiz stavkalarini - fiksirlangan va suzib yuruvchi foiz stavkalarini qo'llashadi. Bu odatda bozor kon'yukturasining o'zgarishiga bog'liq bo'lib hisoblanadi.

G'arb amaliyotidagi tijorat banklari aktiv va passivlarni foiz stavkalarini tezlik bilan tartibga solish va yangi darajasiga o'tishdan kelib chiqib 4 ta katgoriyaga bo'lishadi:

1. Bozor sharoiti o'zgargan holda aktiv va passivlar bo'yicha qo'llaniladigan tezkor va to'liq foiz stavkalarini ko'rib chiqish, ya'ni ko'rib chiqiladigan aktiv va passivlar;

2. 3 oy mobaynida to'liq tartibga solish;

3. Stavkalar 3 oydan oshgan muddatda ko'rib chiqiladigan aktiv va passivlar;

4. To'liq fiksirlangan foiz stavkali aktiv va passivlar.

Birinchi 2 guruh aktiv va passivlar foiz stavkasining o'zgarishiga ta'sirchan bo'lib ularning o'zaro munosabati bank foiz riskini baholash shuningdek foiz marjasini o'zgarishini prognozlash mumkin bo'ladi. Birinchi 2 ta guruh (1 va 2) aktiv va passivlarning balanslashmaganlik holati g'arb bank adabiyotlarida GEP nomini olgan. Agar foiz stavkasiga ta'sirchan aktivlar unga mos passivlardan ohsa GEP ijobiy, kam bo'lsa salbiy GEP bo'lib hisoblanadi.

Foiz stavkalari o'sgan vaqtda bank uchun ijobiy GEP ma'qul bo'lib bunda aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha stavkalar o'rtasidagi

uzilisho'sadi, ya'ni bank foiz marjasi o'sadi. Aksincha foizning bozor darajasi pasayganda, salbiy GEP ushlab turiladi va fiksirlangan foiz stavkali aktivlar foizlar bo'yicha to'lovlarni tezkor ko'rib chiqish bilan xarakterlanadigan passivlar hisobiga qo'llab quvvatlanadi.

11.2. Foiz stavkalari va ularning turlari

Kreditning asosiy sharti – bu undan vaqtinchalik foydalanganlik uchun haq to'lash. Bu haq kredit summasiga nisbatan foiz hisobida olinadi va u kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning bahosi foiz bo'ladi. Boshqa tovarlardan farqliroq qarz pulining narxi - bu uning ma'lum to'lov ehtiyojini qondirishdek xossasidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq bo'ladi. Qarz puli kapital sifatida yoki odatdagi to'lov yoki xarid vositasida ishlatiladi. Shuning uchun ham qarzdor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to'laydi.

Rossiyalik yirik iqtisodchi olimlarning fikricha, foiz stavkasi bu tomonlarning kredit asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabat bo'lib, kreditning oqilona foydalanishini ta'minlaydi.

Bank sohasida «aktiv» va «passiv» operatsiyalar bo'yicha foizlar uchraydi. Aktiv operatsiyalar bo'yicha foizlar – bu mijozlar tomonidan bankka to'lanadigan foizlar. Passiv operatsiyalar bo'yicha foizlar esa, bu mijozlarning depozitlari va qimmatli qog'ozlari bo'yicha bank tomonidan to'lanadigan foizlar. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar o'rtasida moliyaviy vositachilar sifatida qatnashayotib, banklar tomonidan jalb qilingan mablag'larni mijozlarga vaqtinchalik foydalanishga beradilar. Bunda qarz beruvchilar depozitlar bo'yicha foizlar oladi, qarz oluvchilar ma'lum vaqtda mablag'lardan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar bank manfaati esa marja ko'rinishida ifodalanadi.

Entsiklopedik lug'atda foiz (lotincha pro centum) so'zi yuzdan bir degan ma'noni anglatishi qayd etilgan. «Ssuda foizi esa - bu kreditorning ssudadan foydalanganligi uchun qarzdordan oladigan to'lovidir – foiz miqdori esa bank tomonidan o'rnatilishi»¹ ta'kidlangan. Foiz stavkasiga bir tomonlama matematik miqdor sifatida ham yondashish va to'langan foizlarni kredit bahosining asosi sifatida qarashimiz mumkin.

Ma'lumki, kredit operatsiyalari bu kreditor va kredit oluvchi o'rtasida pul mablag'larini vaqtincha ishlatib turish uchun uni

¹ Большой экономический словарь Под ред. А.Н.Азримана. -М.: Фонд «Правовая культура», 1994. – 1041 стр.

foydalanishga berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlardir. Mijoz uchun eng muhim masala bo'lib olinadigan kreditning bahosidir, ya'ni u bo'yicha to'lanadigan to'lovlar hisoblanadi.

G'arb mamlakatlarining pul-kredit munosabatlarida turli xil foiz stavkalari qo'llaniladi. 1-darajali foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash foiz stavkasi hisoblanadi. Qayta moliyalash foiz stavkasini oshirish pul-kredit hajmining qisqarishiga, inflyatsiya sur'atining pasayishiga, lekin shu bilan birga iqtisodiyotga investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib keladi. Demak, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish foiz siyosati inflyatsiya darajasini, hamda iqtisodiy o'sish xarakterlarini hisobga olgan holda mamlakatning pul-kredit tizimining holatiga qarab olib borilishi kerak.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablag'larni jalb qilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish sohasida olib boriladigan foiz siyosatidir.

Pul-kredit resursi sifatida bank foizi ko'rinishidagi bahoga ega bo'lgan oldi-sotdi predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Foiz qarz oluvchidan pul mablag'idan vaqtincha foydalanganlik uchun to'lanadigan ma'lum bir miqdordagi haq hisoblanadi. Buni boshqacha tushuntiradigan bo'lsak, kredit foydalanishga berilgani uchun emas, balki kreditdan foydalanish huquqi berilgani uchun haq to'lanadi. Agar kredit oluvchi resursdan foydalanmasa, harakatsiz bo'lganda ham unga foiz to'laydi. Kredit uchun nafaqat foiz, balki asosiy qarz summasi, ba'zi holatlarda komission haq hamda majburiyatlar bajarilmaganda shartnomada ko'rsatilgan tartibda jarimalar ham to'lanishi mumkin. Lekin, bank kreditining bahosi bo'lib tijorat bankning kredit operatsiyasi bo'yicha olinadigan daromadlari hisoblanadi.

$$\text{Foiz stavkasi} = \frac{\text{Kredit bo'yicha olingan daromadlar}}{\text{Kredit qo'yilmalari summasi}} * 100\%$$


Kreditor qarz oluvchiga kredit beradi, qarz oluvchi mablag'lardan foydalanadi va ma'lum muddat davomida o'sgan qiymatni oladi hamda shu daromadning bir qismini kreditorga kredit foizi sifatida to'laydi.

Kredit oluvchi uchun kelajakda o'sib borgan iqtisodiy aktivni qaytara olgan taqdirda uning qilgan investitsiyasi rag'batlantiriladi.

Ba'zi adabiyotlarda kredit foizining yana bir manbasi - bu mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatilgan. Buni biz lizing munosabatlarida

ko'rishimiz mumkin, lekin kredit munosabatlarida uning asosiy manbasi tadbirkorlik faoliyatidan ko'rilgan foyda hisoblanadi.

Banklarda foiz siyosatini o'rganish jarayonida ularni tasniflash va aniq belgilariga ko'ra guruhlash muhim hisoblanadi. Foiz siyosati va umuman kredit foizlarini guruhlashda turli mezonlar asos qilib olinishi mumkin. Kredit bahosining darajasi kredit shakliga bevosita bog'liq bo'lib, uni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



14-rasm. Kredit foiz stavkasining kredit shakllari bo'yicha turkumlanishi.

Kredit foizlari tijorat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, lizing bitimlari va xalqaro kredit shakllari bo'yicha turkumlangan. Kredit shakllari ichida tijorat, iste'mol va bank kreditlarining foizlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Kredit shakllari ichida bank krediti keng tarqalganligi bois, uning bahosini shakllanish jarayoni muhim hisoblanadi.

Foiz nazariyasiga muvofiq, umuman foizlar singari kredit foizlari nominal va real foiz stavkalarga ajratiladi.

Real foiz stavkasi = nominal foiz stavkasi – inflyatsiya darajasi


Masalan, kreditga berilgan 100 so'm 1-yilda nominal foiz stavkasida 10 % teng miqdorda kreditorga 110 so'm bo'lib qaytsa, real foiz stavkasida esa tovar xizmatlarni sotib olish qobiliyatini anglatadi, ya'ni shu davrdagi inflyatsiyaning darajasi hisobga olinadi. Nominal foiz stavkasi – bu inflyatsiyani hisobga olmaydigan foiz. Real foiz stavkasi - inflyatsiyani hisobga oladigan foiz stavkasi. Agar-yillik inflyatsiya

darajasi 6 foizni tashkil etsa, u holda bizning misolimizda real foiz stavkasi 4 (10-6) foizni tashkil etadi.

Kreditlar foizlarini hisoblash usuliga asosan, kredit foizi oddiy va murakkab foizlarga bo'linadi. Oddiy foizlarni hisoblashda asosiy qarzni qoldiq summasidan foizlar hisoblab chiqariladi. Murakkab foiz usulida esa, hisoblangan foizlar esa asosiy qarz qoldig'iga qo'shilib hisoblanadi. Foizlarni hisobga olishning ikkinchi usulidan bank amaliyotida kam foydalaniladi.

To'lash shakliga ko'ra foizlar oddiy va diskontlangan shaklda bo'lib, oddiy foizlarda kredit bo'yicha foizlarni olingan kreditni qaytarish grafigiga muvofiq to'lash amalga oshiriladi. Diskontlangan foizlar, esa kredit berilgan vaqtda ushlab qolinadi va jadval asosida asosiy qarz summasi qaytariladi.

Quyida keltirilgan rasmda bank kreditlari bo'yicha foizlarni turli mezonlar asosida tasniflanishini ko'rib o'tamiz.



15-rasm. Kredit bo'yicha foizlarning tasniflanishi.

O'zgarish xarakteriga ko'ra kredit foizlarini ikki turga ajratimiz. Qat'iy belgilangan foizlar kredit shartnomasiga muvofiq o'zgarmaydi va bozor stavkalarining o'zgarishi hisobga olinmaydi. Odatda fiksirlangan foizlar qarz oluvchilarga foydali bo'lib, ularga xarajatlarni rejalashtirishga yordam beradi va inflyatsiya sharoitida kredit bahosi yanada arzonlashadi. Suzuvchi foizlarda kreditor va mijoz o'rtasida bazaviy stavka o'zgarishiga (Markaziy bankning qaytamoliyalashtirish stavkasi

yoki banklararo va pul bozorlari stavkalari) asosan shartnomaga o'zgar-tirish kiritish nazarda tutiladi. Suzuvchi foizlar banklarning bozor stavkalari o'zgarishi riskini kamaytirish va boshqarishda qo'l keladi. Shuningdek, inflyatsiya sharoitida bank aktivlari qadrsizlanishining oldini oladi.

Banklarning foiz siyosati bugungi kunda bank likvidligini ta'minlash va uni optimal boshqarishga qaratilishi kerak. Ssuda foizining diffe-rentsiyasi aktiv operatsiyalar bo'yicha qo'yilmalar likvidligiga bog'liq holda bo'lishi lozim. Milliy iqtisodiyotda bank foizining rolini oshirish, uning bevosita ta'sir doirasini kengaytirish va iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Amaliyotda foiz stavkasini hisoblashning turli usul va yo'llari mavjud. Masalan, bank amaliyotida oddiy hamda murakkab foizlar hisoblanadi.

Oddiy foizlar qisqa muddatli kreditlashda qo'llanib shartnomaga asosan foizlarni hisoblash har chorakda bir marta yoki boshqa muddatda amalga oshiriladi. Bunda qarz oluvchining asosiy qarz summasini hisobga olgandagi to'lovlar hajmi quyidagicha:

$$S=P*(1+n*i);$$

Bunda:

S-boshlang'ich qarzni hisobga olgandagi kredit bo'yicha to'lov summasi;

P-boshlang'ich qarz;

i- foiz stavka;

n-ssuda muddati.

Murakkab foizlar asosan uzoq muddatli kreditlashda foydalanilib bunda hisoblangan foizlar kreditorga bitim oxirigacha to'lanmay balki qarz asosiy summasini oshiradi.

Bu usuldan foydalanganda hisoblangan foizlar qarz summasiga qo'shilib ularga foiz hisoblash davom ettiriladi. Murakkab foizlarni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$S=P*(1+i)^n \text{ -o'zgarmas foiz stavkasi uchun;}$$

$S=P*(1+i_1)^{n_1} * (1+i_2)^{n_2} * \dots * (1+i_k)^{n_k}$ - o'zgaruvchan foiz stavkalar uchun;

Bunda

S- dastlabki qarz summasi;

i- dastlab berilgan qarz summasi;

n-foiz stavkalar;

k-o'zgargan foiz stavkalar.

Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, ularning summasi, ularni to'lash vaqti, davri, to'lash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o'rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomonidan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidligiga, kredit resurslari bahosiga, kredit riskining darajasiga qarab tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomada aks ettiriladi. Kredit bo'yicha foizlar muddati kelganda memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo'lgan depozit hisobvarag'idan grafik bo'yicha undirib olinadi.

11.3. Tijorat banklari foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi omillar

Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda va bu o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda, aynan banklar, ta'bir joiz bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog'liq.¹


O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlarining asosiy qismini kreditlar tashkil qilib, bank faoliyati natijalari va samaradorligi bevosita shu operatsiyalarga bog'liq hisoblanadi. Bu esa, tijorat banklarining kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil qilish va samarali kredit siyosatini ishlab chiqishni talab qiladi. Eng asosiysi esa, banklarda kredit operatsiyalarining samaradorligi bank kreditining bahosi shakllanishiga bog'liq hisoblanadi. Kredit bahosining to'g'ri o'rnatilishi bank faoliyatida yuzaga keluvchi kredit risklarini kamaytirish va ularni samarali boshqarishga yordam beradi.

Shunday ekan, optimal kredit bahosini shakllantirish, uning darajasi nafaqat bank manfaatlari, balki mijoz manfaatlariga ham mosligiga erishish muhim masala hisoblanadi. O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimining shakllanishi va turli mulkchilik shaklidagi tijorat banklarining faoliyat yuritishi banklararo raqobatni shakllantirib, ular o'rtasida moliyaviy bozorlarda mustahkam o'ringa ega bo'lish intilishlarini keltirib chiqardi. Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar / - T.: «O'zbekiston», 2009. - 48 b.

ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri ham banklararo raqobat bo'lib, uning to'la qonli shakllantirilishi bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ujrat banklari foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va uni tahlil qilish foiz stavkalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan rasmda foiz stavkalar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tasnifi keltirib o'tamiz.



16-rasm. Foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillar tasnifi.

Ushbu rasmda foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi umumiy va xususiy omillarga tasniflanishini ko'rib chiqdik. Unga muvofiq umumiy omillar makro darajadagi ko'rsatkichlar o'zgarishlarini o'zida ifoda etadi. Xususiy omillar esa, bank kredit operatsiyasini amalga oshirish tartib-qoidalari, resurslar qiymati va mijozlar bilan sherikchilik munosabatlarini ifodalaydi.

Mamlakat Markaziy banki pul-kredit siyosatining holati ham albatta foiz siyosatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Chunki, Markaziy bank pul-kredit siyosati, uning bosh maqsadi ya'ni mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida mamlakatda pul muomalasini boshqarish bilan chambarchas bog'liq. Pul muomalasini boshqarish esa, pul massasiga, uning miqdori pul bozori va bozordagi pulning bahosiga bog'liqdir.

Markaziy bankning pul muomalasini boshqarishga qaratilgan har qanday pul-kredit siyosati kredit foiziga o'z ta'sirini ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Markaziy bankning «arzon pullar» (ekspansion) siyosati kredit foiz stavkasini pasaytirsam, uning «qimmat pullar» (restriksiya) siyosati kredit foiz stavkasi darajasini oshishiga olib keladi.

Nazariy jihatdan qaraganda pul ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, tovar, umumiy ekvivalent. Shunday ekan, inflyatsiya darajasi har qanday tovarning bozordagi bahosiga ta'sir qilgani kabi, pulning bahosi ya'ni kredit foiziga ham ta'sir qiladi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik to'g'ri proporsionaldir, ya'ni birinchisining o'sishi ikkinchisining ham o'sishiga olib keladi va aksincha.

Mamlakatda pul bozorining rivojlanish darajasi asosan quyidagilarga bog'liq:

- tijorat banklari resurslarining miqdori va sifati;
- mamlakatda mavjud vaqtincha bo'sh mablag'larni bank aylanmasiga jalb qilinishi darajasi (shu jumladan, aholining ham);
- banklararo kredit bozorining faoliyati;
- banklararo vaqtincha bo'sh resurslardan foydalanish imkoniyatlari;
- resurslardan mobil ravishda foydalanish uchun bank texnologiyalarining mukammalligi kabilar.

Albatta, bir bankda mavjud vaqtincha bo'sh turgan resurslardan boshqa banklar tomonidan tez va samarali foydalana olishi kredit foiz stavkasi darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Raqobatdagi takliflar deganda tijorat banklaridan tashqari pul bozoridagi pulning taklifini nazarda tutiladi. Bu birinchi navbatda Markaziy bankning pul taklifiga ta'siri, qolaversa mamlakatda mavjud

bank kredit tashkilotlari pul takliflari, g'arb mamlakatlarida omonat kassalari, pochta, sug'urta va lizing kompaniyalarining pul bozoridagi faolligi ham kredit foiziga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatda Markaziy bankning valyuta munosabatlarini tartibga solish uchun amalga oshiradigan valyuta intervensiyasini yoki valyutani tartibga solish bilan bog'liq operatsiyalari pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi. Pul taklifining o'zgarishi esa, albatta uning bahosini ya'ni kredit foiziga ta'sir etadi.

Mamlakatda pul muomalasini boshqarishda pul-kredit siyosati bilan bir qatorda soliq-fiskal siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Ular bir-birlari bilan uyg'un va mutanosib ravishda olib borilgandagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Soliq-fiskal siyosatidagi o'zgarishlar pul taklifi va talabiga ta'sir ko'rsatadi, natijada kredit foizining ham o'zgarishiga olib keladi.

Dunyodagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarning kredit foiz stavkasiga ta'siri 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yaqqol namoyon bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi foiz stavkalariga xususiy omillarning ta'siri alohida olingan kreditlar va kredit oluvchi o'rtasidagi kredit munosabatlarida yuzaga keladi. Kreditorlar odatda, kreditning qaytmaslik va foizlarning o'z vaqtida undirilmaslik risklarini yumshatish maqsadida alohida kredit turlari va alohida mijozlar uchun turli kredit foizlarini o'rnatishga urinishadi. Masalan, ishonchli mijoz yoki likvid ta'minot uchun kredit foiz stavkasi ishonchsizroq mijozga yoki sifatsiz kredit ta'minoti uchun foizlarga nisbatan pastroq bo'ladi.

Iqtisodiyotda kreditga bo'lgan talab ko'p omillarga bog'liq. Birinchidan, kreditga bo'lgan talab mamlakatdagi baholar darajasi bilan funktsional bog'liqlikka ega. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar bahosi ko'tarilishi sharoitida, subyektlar qo'shimcha mablag'ga muhtoj bo'ladi. Chunki ishlab chiqarish uchun zarur tovar va xizmatlar bahosi oshishi qo'shimcha mablag'ni talab etadi. Bunday holatda tashqi moliyalash manbalariga, xususan bank kreditlariga talab ortadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, texnologik jarayonlarning takomillashuvi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi kabilar ham pul mablag'lariga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, kreditga bo'lgan talab jamiyatda olinadigan daromad bilan funktsional bog'liqdir. Mamlakatdagi uy xo'jaliklari va yirik firmalar tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad darajasining o'sishi

yoki daromad me'yorining oshishi bank kreditlarini olishga moyillikni oshiradi. Shunday ekan, kreditga bo'lgan talab daromad o'zgarishiga nisbatan proporsional ravishda o'zgarib boradi.

Kredit taklifi pul bozorlarida moliyaviy vositachilar yoki kreditorlar tomonidan pul mablag'larining taklifiga bog'liq. Kredit resurslari bozoridagi taklif darajasi ham bir qator omillarga bog'liq holda shakllanadi. Bulardan eng asosiysi, jamiyatda yangidan hosil bo'lgan qiymatning jamg'armaga atalgan qismining oshib borishi, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarda vaqtincha bo'sh pul mablag'larining ortib borishi hamda ularning bank aylanmasiga jalb etish darajasi.

Banklararo raqobatni rivojlantirilishi, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarning son va sifat ko'rsatkichlarini oshiribgina qolmasdan, iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kreditlarning foiz stavkasiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha olimlarning fikrlariga to'xtalib o'tmoqchimiz:

Foiz stavkasiga ta'sir etuvchi omillar¹

20-jadval

№	Omillar	Izoh
1	2	3
1.	Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati	• Ya'ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pul chiqarilgan. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa, u kamayadi.
2.	Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi	• Aniqrog'i shu pulning iste'mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko'p foyda keltirsa, yoki iste'molchi ehtiyojini to'laroq qondirsa, foiz yuqori bo'ladi, aks holda u pasayib ketadi. Bunda pulni hozir ishlatishdan tegadigan naf taqqoslanadi.
3.	Qarzni to'lash muddati va sharti	• Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta kichik-kichik qismlarga bo'lib, bema'lol qaytarish mumkin bo'lsa, qarzdor past foizni ma'qul ko'radi. Gap shundaki, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko'rish mumkin va shu hisobdan foiz to'lash engil bo'ladi.

¹ Abdullaev Yo. va boshq. «Bank ishi» TMI., T.: «Moliya-iqtisod» 2009. 242 b.

4.	Qarzning qanday pul bilan berilishi	<ul style="list-style-type: none"> • Agar qarz erkin konvertirlangan valyutada berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u oddiy valyutada berilsa, foiz nisbatan past o'rnatiladi. Konvertirlangan pul obro'-e'tiborli bo'lganidan uni ishlatish oson, undan tezda daromad ko'rish mumkin.
5.	Inflyatsiya darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Inflyatsiya yuz bersa, qarzga beriladigan pul egasiga qaytib kelguncha o'z qadrini qisman yo'qotadi. Bunda pul egasi yutkazadi. Shu sababli foiz inflyatsiyani hisobga olib o'rnatiladi. Foiz inflyatsiya shiddatiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi.
6.	Pulni qarzga berishdan ko'ra boshqa yo'sinda ishlatishdan tushadigan daromad	<ul style="list-style-type: none"> • Bunda pul egasining afzal ko'rish tamoyili amal qiladi. Agar aksiya dividendi yuqori bo'lsa, foiz pasayadi va aksincha. Agar aksiyaga 15 % dividend berilsa, foiz undan yuqori bo'lishi shart. Aks holda pul egasi uni qarzga bermay, aksiya sotib olishni afzal ko'radi.
7.	Qarz berishning risk darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, foiz yuqori bo'ladi. Odatda moliyaviy baquvvat va nufuzli firmalar uchun past foiz belgilanadi. Yuqori va past foiz o'rtasidagi farq pul egalari uchun ma'lum darajada qarz riskini kamaytiradi, chunki bir yerda foizning kamligi, boshqa yerda uning ortiq bo'lishi bilan qoplanadi.

1. Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati, ya'ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pul chiqarilgan. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa, u kamayadi.

2. Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi, aniqrog'i shu pulning iste'mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko'p foyda keltirsa yoki iste'molchi extiyojini to'larok qondirsa, foiz yuqori bo'ladi, aks holda u pasayib ketadi.

Biz ta'kidlab o'tganimizdek, real daromadning o'sishi kreditga bo'lgan talab va taklifga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida iqtisodiyotda resurslar ko'payib, ular aylanishi tezlashadi. Daromad samarasining mexanizmi iqtisodiy tsikl davridagi foiz stavkasining

darajasi bilan tushuntiriladi. Foiz stavkasining o'zgarishi real daromad harakatiga mos keladi. Chunki subyektlar real daromadining o'sishi pul mablag'lariga bo'lgan talabni oshiradi. Bunda foiz stavkasi darajasi nisbatan oshadi. Umuman foiz stavkasining oshishi, daromadning real o'sishiga mutanosib ravishda bo'ladi.

Xalqaro kredit munosabatlarida foiz stavkasi milliy kredit tizimidagi foiz darajasiga bog'liq holda belgilanadi. Ssuda foiziga ta'sir etuvchi omillarning xalqaro-valyuta va moliya-kredit munosabatlari bilan bog'liqligi tufayli foiz stavkasining darajasi milliy stavkalardan birmuncha farq qiladi.

Jahon bozorida raqobatchilik natijasida foiz stavkalarining tez-tez o'zgarishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda beqarorlik, inflyatsiyaning kuchayishi, valyuta kursining tebranishi kabilar bilan izohlanadi.

Xalqaro kredit munosabatlarida foiz stavkasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:


- qarz oluvchining mamlakatdagi valyuta, moliya-kredit, iqtisodiy va siyosiy ahvol;
- loyiha riski xarakteri;
- kredit manbalari;
- kredit qiymatini tartibga solish bo'yicha xalqaro kelishuvlar;
- foiz stavkasi turlari (suzib yuruvchi, qat'iy va aralash);
- raqobatdagi takliflarning mavjudligi;
- kredit muddati;
- inflyatsiya sur'ati;
- kreditning tijorat operatsiyalariga bog'liqligi;
- jahon va milliy bozorda ssuda kapitalining holati;
- qarz oluvchi va kreditorning maqomi, nufuzi va moliyaviy holati;
- kredit ta'minoti sifati;
- kredit bo'yicha sug'urta qoplamasining mavjudligi;
- qarz oluvchining olingan kreditdan kelishilgan muddatda foydalanish majburiyatining mavjudligi;
- tijorat bitimlariga nisbatan kredit kelishuvi tuzilgan vaqt;
- bitim summasi;
- kredit va to'lov valyutasi;
- valyuta kursi dinamikasi va boshqalar.

3. Qarzni to'lash muddati va sharti. Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin – asta kichik – kichik qismlarga bo'lib, bemaolol qaytarish mumkin bo'lsa, qarzdor yuqori foizga rozi bo'lishi mumkin. Agar

qo'z qisqqa vaqtga berilsa, uni bir yo'la to'lash shart bo'lsa, qarzдор past foizni ma'qul ko'radi. Demak, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko'rish mumkin va shu hisobdan foiz to'lash engil bo'ladi.

4. Qarzning qanday valyutada berilishi. Agar qarz erkin konvertirlangan valyutada berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u milliy valyutada berilsa, foiz nisbatan past o'rnatiladi.

5. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiya yuz bersa, qarzga berilgan pul o'pasisiga qaytib kelgunicha o'z qadrimni qisman yo'qotadi. Bunda pul o'pasi yutqazadi.



17-rasm. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasining o'zgarish dinamikasi.¹

2014-yilda inflyatsiya darajasi tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichdan past bo'ldi va inflyatsiyaning-yillik darajasi 7 foizni tashkil etdi.

2005-2014-yillar davomida inflyatsiya darajasi belgilangan prognoz ko'rsatkichlar darajasida jilovlanib, tovar va xizmatlar bahosi keskin o'sishining oldi olingan. Bunda qat'iy monetar siyosat yuritilayotganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining 2011-yildan 14 foiz darajasidan 12 foizga pasaytirilishi va 2015-yil 1 yanvardan 9 foizga tushirilishi ham inyatsiyaga qarshi yuritilayotgan siyosatning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa, o'z navbatida tijorat banklarida depozit va kredit xizmatlarini ko'rsatish amaliyotida, ularga nisbatan tariflarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etdi. Iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash va

¹ O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank internet sayti www.cbu.uz – ma'lumotlari asosida tuzildi.

aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda samarali foiz siyosatini yuritishni ta'minlamoqda.

2014-yil davomida kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining ham pasayishi kuzatildi. Xususan, qisqa muddatli (muddati bir-yilgacha bo'lgan) kreditlar bo'yicha foiz stavkalari-yil boshidagi 13,8 foizdan-yil oxiriga kelib 13,2 foizga tushdi. Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2010 -yilda 13 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2011-yilda 11,8 foizgacha pasaydi. 2011-yilda jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari-yil boshidagi 9,9 foizdan-yil oxirida 9,6 foizgacha tushdi.¹

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini va bank xizmatlari samaradorligini oshirish tijorat banklarining muhim strategiyalaridan hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi bank xizmatlarining samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Bank xizmatlarining samaradorligi esa, xizmatlar bahosi darajasiga chambarchas bog'liq. Banklarning xizmatlar bozorida etakchi bo'lish, xizmatlar soni va sifatini oshirish bugungi kunda tijorat banklari baho siyosatining muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi.

Tijorat banklari xizmatlari bahosini xizmatlar tannarxi, bozordagi talabga va raqobatchilarning mazkur xizmatlar bo'yicha baho darajasiga muvofiq shakllantiriladi. Ma'lumki, har qanday mahsulot va xizmatlar bahosini shakllanishida asosiy omil sifatida uning tannarxi olinadi. Tijorat banklarining xizmatlarining tannarxiga rejalashtirilgan marjani (foyda) qo'shish orqali shakllantiriladi. Shu sababli, yuqorida ta'kidlanganidek, foiz inflyatsiyani hisobga olib o'rnatiladi.

6. Pulni qarz berishdan ko'ra boshqa yo'l bilan ishlatishdan tushadigan daromad. Agar aksiya dividendi yuqori bo'lsa, foiz pasayadi va aksincha, agar aksiya dividendi past bo'lsa, foiz undan yuqori bo'lishi shart. Aks holda pul egasi uni qarzga bermay, aksiya sotib olishni afzal ko'radi. Bu yerda albatta riska yuqori e'tibor qaratiladi.

7. Qarz berishning xatar darajasi. Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo'lib, qarz qaytishi shubxali bo'lsa, foiz yuqori bo'ladi. Yuqori va past foiz o'rtasidagi farq pul egalari uchun ma'lum darajada qarz xatarini kamaytiradi, chunki bir yerda foizning kamligi, boshqa yerda uning ortiq bo'lishi bilan qoplanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank internet sayti www.cbu.uz – ma'lumotlari.

Foiz siyosatida asosiy e'tibor pul bozorining barqarorligini va bank depozitlari jozibadorligini ta'minlashga, jumladan, aholi omonatlari tur'yicha real foiz stavkalarining ijobiylikini saqlab qolish hamda tijorat banklari depozitlar portfelidagi uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining maqbulligini ta'minlashga qaratiladi.

O'zbekistonda aholining bank tizimiga bo'gan ishonchini oshirish maqsadida aholi omonatlarini kafolatlash tizimi yaratildi. Shu bilan birga aholi omonatlarini qabul qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 20-fevraldagi PF №3968-sonli «Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmonning qabul qilinishi banklarning resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qilib, tijorat banklari tomonidan aholiga bozor foiz stavkalari depozitlar taklif etildi.

Shunday qilib, tijorat banklari tomonidan ular faoliyati samaradorligini oshirishda, barcha ta'sir etuvchi omillarni to'liq hisobga olgan holda iqtisodiy konyunkturaga va mijoz manfaatlariga mos keladigan foiz siyosatining yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

11.4. Bank krediti bahosi shakllanishi bo'yicha xorij tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida kredit bahosini shakllantirish bankning jalb qilingan resurslari qiymati, kredit riski darajasi, kredit amaliyoti xarajatlari, Markaziy bankning pul-kredit siyosati, kreditga bo'lgan talab va taklif, raqobat kabi omillar tahliliga asoslanadi. Xorijiy mamlakatlarda kredit bahosining shakllanishi borasidagi orttirilgan tajriba va amaliyotni o'rganish natijasida mamlakatimiz tijorat banklarida kredit bahosi shakllanishini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilamiz.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida kredit bahosini belgilash turli bosqichlarda va chuqur tahlillar asosida olib boriladi. Chunki kredit bahosini bunday chuqur tahlil qilishdan asosiy maqsad bank kredit operatsiyalarining samaradorligiga erishish va bankning strategik maqsadlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida kredit bahosini belgilashda bir qancha modellar qo'llaniladi. Bu modellar bank faoliyatining xususiyatlari, kreditlash usullari, mijozlarni toifalarga ajratish va boshqa jihatlari asosida amalga oshiriladi. AQSh tijorat banklari amaliyotida

kredit bahosini belgilashda foydalaniladigan usullar va modellar xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Kredit tizimi rivojlangan mamlakatlarda kredit bahosini belgilashda quyidagi modellardan keng foydalaniladi:

- «Qiymat plyus» modeli;
- «Baho yetakchiligi» modeli;
- «Qiymat – foyda» modeli.

1. «Qiymat plyus» modeli. Tijorat banklarida kredit bahosi shakllanishining oddiy modeli «Qiymat plyus» bo'lib, bunda bank tomonidan jalb qilinadigan mablag'lar va kredit amaliyoti bo'yicha bankning operatsion xarajatlari hisobga olingan holda kredit bahosi shakllantiriladi. Mazkur model bo'yicha kredit bahosining shakllanishida quyidagi komponentlar hisobga olinadi va ularning yig'indisi sifatida umumiy qiymat aniqlanadi:

- bank uchun qarz oluvchini kreditlash maqsadida jalb qilingan mablag'lar qiymati;

- bank operatsion xarajatlari, shu jumladan kredit boshqarmasi xodimlarining oylik ish haqlari, kreditni rasmiylashtirish, hisobvaraq ochish, kredit monitoringi va kreditni so'ndirilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;

- bajarilmasligi mumkin bo'lgan majburiyatlar riski darajasiga to'lov (bankning risk ustamasi);

- kredit bo'yicha bank marjasi yoki bankning oladigan minimal daromadi.

Buni quyidagi formula orqali ifodalaymiz:

$$\begin{array}{r}
 \text{Kredit} \\
 \text{bahosi}
 \end{array}
 =
 \begin{array}{r}
 \text{Kreditlash} \\
 \text{uchun jalb} \\
 \text{qilingan} \\
 \text{mablag'lar} \\
 \text{qiymati}
 \end{array}
 +
 \begin{array}{r}
 \text{Bankning} \\
 \text{operatsion} \\
 \text{xarajatlari}
 \end{array}
 +
 \begin{array}{r}
 \text{Bank-} \\
 \text{ning} \\
 \text{risk} \\
 \text{usta-} \\
 \text{masi}
 \end{array}
 +
 \begin{array}{r}
 \text{Bank-} \\
 \text{ning foiz} \\
 \text{marjasi}
 \end{array}$$

Ko'rsatilgan komponentlardan har biri kredit summasiga nisbatan-yillik foiz shaklida aks ettirilishi mumkin. «Qiymat plyus» modeli oddiyligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Lekin «Qiymat plyus» modelining kamchiliklari sifatida bank o'z xarajatlarini aniqlash jarayonining texnik jihatdan murakkabligi va boshqa kreditorlar tomonidan taklif qilinadigan foiz stavkalar, ya'ni raqobat omilining hisobga olinmasligi hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan beriladigan

kreditlar bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga yuqorida keltirib o'tilgan komponentlarning mos foizlarini qo'shish orqali keltirib chiqariladi. Masalan, bank o'z mijozidan 10 mln. so'mlik kredit buyurtmasini oldi va bazaviy stavka 14 foizni tashkil qildi. Kreditni rasmiylashtirish va nazorat qilish bo'yicha operatsion xarajatlar tahlil natijasida kredit summasining 2 foizini tashkil qilishi aniqlandi. Kredit boshqarmasi kredit riski bo'yicha 2-6 % miqdorida ustama o'rnatilishini belgilib qo'ygan. Bank esa o'z foiz marjasini 2 % qilib o'rnatdi. Shundan kelib chiqib, tijorat banki kreditining bahosi 20 foizni, ya'ni (14%+2%+2%+2%) ni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin.

2. «Baho etakchiligi» modeli. «Qiymat plyus» modelida keltirilgan kamchiliklar kredit bahosini shakllanishining boshqa bir modelini, ya'ni «Baho etakchiligi» (baho liderligi) modelining paydo bo'lishiga olib keldi. 1930-yillardagi buyuk depressiya davrida AQSh ning eng yirik banklari «Praym-rayt» (gohida u bazaviy yoki ma'lumot stavkasi deb ataladi) nomi bilan mashhur bo'lgan kreditlar bo'yicha unifikatsiyalashgan foiz stavkasini hamda qisqa muddatli kreditlar bo'yicha kreditga layoqatliligi yuqori ishonchli mijozlarga taklif qilinadigan eng past stavkani o'rnatish tartibini joriy etdilar.

Hozirgi vaqtda AQSh da «praym-rayt» stavkasi tijorat banklari amaliyotida etakchi stavka bo'lib, kredit bo'yicha o'z stavkalarini doimiy ravishda e'lon qilib boradigan yirik banklarning, ya'ni «pul markazlari» tomonidan e'lon qilinadigan stavkasi hisoblanadi. Ko'p-yillar davomida ushbu stavka barqaror bo'lgan, ammo qimmatli qog'ozlar bozori va inflyatsiyaning shiddatli rivojlanishi sharoitida «praym-rayt» suzib yuruvchi stavkasi qo'llanila boshlandi. Har qanday qarz oluvchiga beriladigan kredit bo'yicha haqiqatdagi foiz stavka quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Kc = Bc + U + Rm ;$$


Bunda:

Ks – kredit foiz stavkasi;

Bs – bazaviy yoki praym-reyt stavkasi (bank marjasini hisobga olingan holdagi);

U – ustama, birinchi sinfga kirmaydigan mijozlarga majburiyatlarni bajara olmasligi uchun qo'yiladigan ustama;

Rm – risk mukofoti.



«Praym-rayt» stavkasi pul bozorining muhim stavkalari o'zgarishi natijasiga asoslanadi. Etakchi banklar tomonidan «praym-rayt» suzib yuruvchi stavkani hisoblashning ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

1. «praym plyus» usuli;
2. «praym ko'paytirish» usuli.

Quyidagi keltirilgan jadvalda «praym-rayt» stavkalarining o'zgarishining tijorat banklari kredit bahosiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

«Praym-rayt» stavkalari o'zgarishining kredit bahosiga ta'siri tahlili

21-jadval

No	Foiz stavkalari	«praym plyus» usulida	«praym ko'paytirish» usulida
1. Bazaviy stavka oshganda			
1.1.	10	12	12
1.2.	12	14	14,4
1.3.	14	16	16,8
1.4.	16	18	19,2
1.5.	18	20	21,6
2. Bazaviy stavka pasayganda			
2.1.	17	19	20,4
2.2.	15	17	18
2.3.	13	15	15,6
2.4.	11	13	13,2
2.5.	9	11	10,8

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foiz stavkalar bazaviy stavkalarining

ko'tarilishi sharoitida «praym ko'paytirish» usuli bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar «praym plyus» usul bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlarga nisbatan tez o'sadi. Bu usullarda «praym-reyt» stavkasiga bank tomonidan qo'yiladigan ustama mos ravishda qo'shish yoki ko'paytirish orqali aniqlanadi. Misol uchun bazaviy stavka 14 foizni tashkil qilsa va unda qarz oluvchiga qisqa muddatli kredit bo'yicha «praym + 2%» usulida 16 foiz belgilanadi. «Praym ko'paytirish» usulida esa («praym-reyt*1.2») 16,8 foiz o'rnatiladi. Bazaviy stavkalarining pasayish sharoitida esa teskari holat kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, «praym ko'paytirish» usuli geometrik progressiyaga, «praym plyus» usul arifmetik progressiyaga muvofiq tarzda o'zgaradi.

1970-yillardan boshlab, xo'jalik subyektlariga taqdim etiladigan kreditlar bo'yicha asos sifatida ishlatiladigan foiz stavkalar «praym-rayt» bilan bir qatorda tijorat banklari LIBOR (London banklararo taklif stavkasi) stavkasini keng doirada foydalana boshladilar. Bu bank tizimining globallashuvi bilan hamda etakchi banklar tomonidan evrodollarni kredit resurs sifatida tobora ko'p ishlatilishi bilan bog'liq.

Kredit bo'yicha «praym-rayt» asosida foiz stavkalarining takomillashgan modeli 1980-yillarda paydo bo'ldi. «Praym-rayt» modelining paydo bo'lishi kuchli raqobat sharoitida yirik banklarning bozorni egallash va mijoz bazasini kengaytirishga qaratilgan faoliyati bilan izohlanadi. Bank kreditlariga talab ortib borgan sari, foiz stavkani kerakli darajada ushlab turish va boshqa banklar bilan raqobatlasha olish muammosi paydo bo'la boshlaydi. Misol uchun AQSh da ko'pchilik banklar ba'zi yirik va o'rta korporatsiyalarga «praym-reyt»dan past pul bozori stavkasi bo'yicha bir necha kun va hafta muddatga operatsion xurujatlar, riskni qoplash va daromad olish uchun unchalik katta bo'lmagan marja (0,25 foizdan 0,75 foizgacha) qo'shib boriladigan foizlarda kredit berishni amalda qo'llay boshladi. Ushbu stavka quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\begin{array}{l}
 \textit{Kredit foiz stavkasi} \\
 \textit{(\textit{\langle\langle\textit{praym-reyt}\rangle\rangle\textit{ dan past})} = \textit{Pul bozorida} \\
 \textit{mablag' jalb qilish} + \textit{Riskni qoplash} \\
 \textit{bo'yicha xarajatlar} \textit{ va daromad} \\
 \textit{ustama} \\
 \textit{olish uchun}
 \end{array}$$

«Praym-reyt» stavkasidan farqli ravishda past stavkalar amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Bu foiz stavkalar bankning mablag'larni jalb

qilish borasidagi stavkalariga tenglashib qolgan edi. Ushbu stavkalarining joriy qilinishi «praym-reyt» stavkasining bazaviy stavkasi funksiyasini yo'qolishiga olib keldi.

Keyingi-yillarda rivojlangan mamlakatlar bank tizimida paydo bo'lgan, «Baho etakchiligi» modelining yana bir shakli sifatida «kep» deb ataluvchi stavkalar kredit foizlarini aniqlashda qo'llanilmoqda. Buning mazmuni shundaki, bank mijozga suzib yuruvchi stavkada kredit berganda bazaviy stavkalar o'zgargan sharoitda ham o'zgarmaydigan kreditning maksimal foiz stavkasi hisoblanadi. Ammo banklar o'zlarining kredit shartnomalari bo'yicha «kep» stavkalarini o'rnatishda ehtiyot bo'lishlari lozim. Yuqori foiz stavkalarini ushlab turishning uzoq davri, suzib yuruvchi foiz stavkalari bo'yicha riskning qarz oluvchidan kreditorga o'tib ketishga olib kelishi mumkin.

3. «Qiymat-foйда» modeli asosida kredit stavkasini o'rnatish. AQSh bank amaliyotida tijorat banklarining barcha xarajatlarini va kreditlash faoliyatida yuzaga keladigan risklarni qoplay oladigan hamda bank uchun etarli daromadni ta'minlaydigan kredit bahosi shakllanishining murakkab modellari ishlab chiqilib amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Shunday modellardan biri «Qiymat-foйда» modeli hisoblanadi. Bu modelga muvofiq, bank zarur moliyaviy resurslarni jalb qilishi, kreditlash amaliyoti xarajatlarini qoplashi va natijada etarli foydaga erishishi ko'zda tutiladi.

«Qiymat-foйда» modeli nuqtai nazaridan kredit foiz stavkalarini o'rnatishga yondashuv «mijozning daromadliligi tahlili» nomi bilan mashhur bo'lgan kontseptsiyaning bir yo'nalishi hisoblanadi. Kredit bahosi qarz oluvchi mijozlarning daromadlarini tahlili asosida shakllantiriladi. Bunda kredit olishga buyurtma bergan mijozlarni o'rganishda, qarz oluvchi mijozning bank bilan munosabatlarini tahlil qilishga asosiy e'tibor qaratiladi. Tahlil obyekti mijozdan keladigan daromadlar hisoblanib, bank mijozidan olinadigan kredit foizlaridan tashqari daromad keltiradigan boshqa manbalar ham tahlil qilinadi. Mijozdan olinadigan bank daromadlariga kredit foizlari, majburiyatlar bo'yicha komission haq, vositachilik haqi va ma'lumotlar taqdim etishdan olinadigan daromadlar kiritiladi.

Quyidagi keltirilgan jadvalda biz yuqorida o'rgangan modellarning o'ziga xos afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib o'tamiz.


Kredit bahosi shakllantirish modellarining afzallik va kamchiliklari

2.2 jadvul

№	Model nomi	Afzalliklari	Kamchiliklari
1.	«Qiymat plyus»	Kreditlash amaliyotidagi barcha xarajatlar hisobga olinadi va kredit bahosi aniq o'rnatiladi.	Boshqa kreditorlar tomonidan raqobat omilining hisobga olinmasligi
2.	«Baho etakchiligi» modeli	Foiz risklarini boshqarish imkonini beradi.	Ba'zida kredit riskining ortishiga olib kelishi mumkin
3.	«Qiymat – foyda» modeli	Bank risklarini optimal boshqarish mumkin va bankning mijoz bazasini oshiradi.	Texnik jihatdan murakab usul, barcha omil larni hisobga olish va ko'p vaqtni talab etadi

Tijorat banklari tomonidan kredit bahosini shakllantirishda bank faoliyatining yo'nalishlaridan, mijozlar tarkibi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, yuqoridagi modellardagi ba'zi bir tahliliy usullarning qo'llanilishi o'z samarasini beradi.

Rossiya banklari amaliyotida kredit foiz stavkalari mijozlarning alohida toifalari bo'yicha har chorakda risk darajasi, kredit muddati, valyutasi va kredit xizmatlari bozoridagi holatga bog'liq holda shakllantiriladi.



18-rasm. Mijoz pul tushumlari va kredit bahosining o'zaro bog'liqligi.¹

¹ Моисеев С.Р. «Ценаобразование» на кредит в Россия и возможности его оптимизации // Банковское дело, № 4, 2009. С.27-33.


Tijorat banklarida mijozlarni toifalarga ajratish va unga mos ravishda kredit bahosini shakllantirish bir qator afzalliklarga ega:

- birinchidan, tijorat banklari yirik mijozlarini kreditlash kichik kreditlarga nisbatan kam xarajatli bo'lib, yuqori daromad keltirishni ta'minlaydi;

- ikkinchidan, bankning kichik mijozlari kreditlash amaliyoti xarajatlari oshib, kredit bahosining yuqori shakllanishiga olib keladi.

Shunday ekan, bank mijozlarini pul tushumlariga asosan toifalarga ajratish va ularga mos ravishda kredit bahosini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quyidagi keltirilgan rasmda misol tariqasida bank kreditlari foiz stavkalarining tarkibiy qismlari keltirilgan.



19-rasm. Rossiya banklari amaliyotida rublda berilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining tarkibiy qismi¹ (2008-yil 31 dekabr holatiga, foiz hisobida).

Rasm ma'lumotlari asosida Rossiya banklari amaliyotida kredit foiz stavkasining asosiy qismini bankning moliyaviy resurslari bahosi tashkil etib, 2008-yilda 46 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Kredit bahosining qolgan 54 % qismini bankning maxsus zaxiralarga ajratmalar,

¹ Моисеев С.Р. «Ценообразование» на кредит в Россия и возможности его оптимизация // Банковское дело, № 4, 2009. С.27-33.

kreditlash amaliyoti bilan bog'liq operatsion xarajatlari, to'lanadigan soliqlar va tijorat bankining rejalashtirilgan foydasidan tashkil topgan.

Mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilish, kredit ta'minoti sifatini baholash, kreditning maqsadi va boshqa omillar tahlili natijasida kredit riski darajasi baholanadi. Foiz stavkalarini belgilash jarayonida muammolar paydo bo'lsa, u holda har bir mijoz uchun alohida stavka belgilanishi xususida qaror qilinishi zarur.

Ayrim mamlakatlarning (Singapur, Malayziya) bank amaliyotida ba'zi toifadagi mijozlarga nisbatan past foiz stavkada kreditlar taqdim etiladi. Buning sababi, mijoz olgan kreditdan keladigan daromadidan tashqari boshqa operatsiyalarini bajarish orqali bankka ko'proq foyda keltiradi. Natijada bank mijoziga kredit berishdan olinadigan daromad pasayishi kuzatiladi, lekin aslida bankning mijoz bilan bo'ladigan boshqa munosabatlaridan oladigan daromadlari uning o'rmini qoplaydi.

Jismoniy shaxslarni kreditlash va ularga taklif etilayotgan foiz stavkalarini o'rganishda Rossiya tajribasiga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki Rossiya tijorat banklari amaliyotida kredit xizmatlariga qo'shimcha to'lovlarning joriy qilinishi mijozlarning kreditni qaytarish imkoniyatlarini pasaytirdi va natijada bank kreditlarining qaytmasligiga olib keldi. Shu o'rinda Rossiya bank amaliyotida mavjud ko'rsatkichni keltirib o'tamiz. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki raisi o'rinbosari G.Melikyanning ta'kidlashicha, ayrim tijorat banklari kredit portfelida mavjud muammoli kreditlarning 30 foizi aynan bank kreditlari bo'yicha bahoning noto'g'ri va yuqori shakllantirilganligi hisobiga yuzaga kelgan¹.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida ham jismoniy shaxslarni kreditlashda berilgan kreditlarning ijobiy darajasi ta'minlanadi. Polsha 2000-yil va Ukraina bank amaliyotida 2006-yildan boshlab joriy qilindi. Xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida mijozlarga juda past foizlarda, ba'zi hollarda foizsiz kreditlarni taqdim qilishni taklif qilib, ularni chalg'itish orqali banklarga jalb qilinadi. Bank tijorat tashkiloti sifatida haq evaziga jalb qilingan resurslarni tekinga joylashtirishi mumkin emas. Demak, bank bunday kredit amaliyotlaridan boshqa usullar bilan daromad olishni rejalashtiradi, ya'ni kredit bo'yicha shartnomadagi foiz to'lovlaridan tashqari, yuqorida ta'kidlangan qo'shimcha to'lovlarni undirishga harakat qiladi. Kredit foiz stavkasining ijobiy darajasini ta'minlash bankning kreditlash bo'yicha olishni rejalashtirgan daromadlari,

¹ «Potrebitelskiy krediti viveli na chistiy protsent», / *Kommersant*. №2 (3578), 2007.

ya'ni mijozning kredit bo'yicha jami to'lovlari yig'indisini berilgan kredit summasiga nisbati sifatida aniqlash va uni mijozga taqdim etish orqali belgilanadi.

Rossiya bank amaliyotida qarz oluvchi mijozlarga kredit bahosini aniq ifodalovchi kredit foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta'minlash bo'yicha majburiy tartib ishlab chiqilgan. Unga muvofiq tijorat banklari jismoniy shaxslarga beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarni ijobiy darajasini ta'minlashi va u to'g'risidagi ma'lumotlarni qarzdorga taqdim etishi talab etiladi. Rossiya Markaziy bankining «Jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan kreditlar bo'yicha samarali foiz stavkalarni ta'minlash tartibi to'g'risida» gi (29.12.2006-yilda qabul qilingan) tartibiga muvofiq, barcha tijorat banklari kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta'minlagan holda, o'z mijozlariga taqdim qila boshladi.

Tayanch so'z va iboralar

Bazaviy stavka, depozit, kredit, murakkab foiz, nominal foiz stavkasi, omonat, oddiy foiz, pul bozori stavkalari, real foiz stavkasi, foiz siyosati, suzuvchi foiz stavkasi, foiz stavkasi, qayta moliyalash stavkasi, qat'iy belgilangan stavka.

Takrorlash uchun savollar

1. Foiz stavkalarining qanday turlari mavjud?
2. Tijorat banklari foiz siyosatining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Oddiy foizlar qanday hisoblanadi?
4. Murakkab foizlar qanday hisoblanadi?
5. Tijorat banklari jalb qilgan resurslarning bahosiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Tijorat banklari kreditlarining bahosiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
8. Pul bozorida foiz stavkalari qanday shakllanadi?
9. Kapitallar bozorida foiz stavkalari qanday shakllanadi?

XII BOB. AYLANMA MABLAG‘LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASH USULLARI

12.1. Aylanma mablag‘lar tushunchasi va uning korxonalar faoliyatidagi o‘rni

Aylanma kapital xo‘jalik yurituvchi subyektlar aylanma (o‘zgaruvchan, mobil) aktivlariga avanslashtirilgan kapital qiymatini o‘zida ifodalaydi. Bu kapital xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansining «Aylanma aktivlar» deb nomlangan ikkinchi bo‘limida aks ettiriladi. Odatda, aylanma kapital quyidagi bir necha asosiy guruhlarga klassifikatsiya qilinadi:

- takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda funksional mo‘ljallanganligi bo‘yicha;
- shakllantirish va moliyalashtirish manbalariga ko‘ra;
- lividlilik darajasiga qarab;
- va boshqa belgilariga muvofiq.

Aylanma kapital juda ko‘p funksiyalarni bajaradi. Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

- takror ishlab chiqarish;
- rag‘batlantirish;
- taqsimlash;
- ishlab chiqarish va muomala sohasining yagonaligini ta‘minlash;
- ishlab chiqarish jarayoning uzluksizligini ta‘minlash;
- va boshqalar.

Aylanma kapital o‘z funksiyalarini ham pulli va ham natural-buyum shakllarida amalga oshiradi.

Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini uni funksional jihatdan quyidagi ikki tashkil etuvchi belgilab (aniqlab) beradi:

- aylanma kapitalning natural-buyum shakllari yoki aylanma ishlab chiqarish fondlari;
- muomala fondlari.

Tarkibiy tuzilma jihatidan aylanma kapitalning natural-buyum shakllariga, eng avvalo, ishlab chiqarish zahiralardan iborat bo‘lgan quyidagilar kiradi:

- xom-ashyo va asosiy materiallar;

- sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar;
- yoqilg'i;
- qadoqlash va qadoqlash materiallari;
- joriy ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- inventarlar va xo'jalik buyumlari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari;
- o'z ishlab chiqarishining yarim tayyor mahsulotlari;
- kelgusi davr xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Aylanma kapitalning tarkibiy tuzilmasini tashkil etuvchi muomala fondlarining tarkibi quyidagilardan iborat:

- tayyor mahsulot va qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar, ortib jo'natilgan tovarlar;

- pul mablag'lari – kassadagi pullar, hisob-kitob va valyuta hisob varaqlaridagi pullar, bankdagi maxsus hisob varaqlari (akkreditivlar va chek daftarchalari, depozit hisob varaqlari, boshqa to'lov hujjatlari);

- qisqa muddatli (bir-yildan ortiq bo'lmagan muddatda) moliyaviy quyilmalar – boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar, davlat va mahalliy zayomlarning foizli obligatsiyalari, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga berilgan zayomlar, aksionerlardan o'z aksiyalarini sotib olish;

- debitorlik qarzlarning barcha ko'rinishlari, sotib oluvchilar va buyurtmachilarning qarzlari, ustav kapitaliga badallar bo'yicha ta'sis-chilarning qarzlari, berilgan avanslar, boshqa debitorlarning mablag'lari.

Aylanma kapitalning boshqa qismi pulli ko'rinishda shakllantiriladi va aylanma fondlarning iqtisodiy elementlariga pulli kapitalni doimiy avanslashtirish ko'rinishida doiraviy aylanishda bo'ladi. Pul mablag'larining doiraviy aylanishi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarishga zarur bo'lgan moddiy resurslar qiymatining to'lanishi bilan boshlanadi va shu xarajatlarning mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum ko'rinishida qaytishi bilan tugallanadi.

Doiraviy aylanish jarayonida aylanma kapital doimiy qiymat kategoriyasi sifatida saqlanib qolsa-da, o'z tarkibiy qismlarining funktsional shakllarini uzluksiz ravishda quyidagi ketma-ketlikda o'zgartiradi: pul mablag'lari – xom-ashyo va materiallar zahiralari – tayyor mahsulot – debitorlik qarzlari – tushum ko'rinishida tushadigan pul mablag'lari. Bunda aylanma kapital kompaniya moliyaviy holatining o'lchovchisi va tartibga soluvchisi hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

- o'zlik va ularga tenglashtirilgan mablag'lar;
- qarziy va jalb qilingan mablag'lar.

O'z navbatida, aylanma mablag'lar (kapital)ni shakllantirish va moliyalashtirishning o'z manbalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav kapitali;
- foyda;
- emission daromad.

Emission daromad, ayrim hollarda, ta'sischiлик foydasi deb ham yuritiladi.

O'zlikka tenglashtirilgan manbalar qat'iy passivlardan, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar aylanmasida doimiy ravishda mavjud bo'ladigan jalb qilingan mablag'lardan iborat. Ish haqi va ijtimoiy sug'urta bo'yicha qarzlari, qadoqlarni qaytarish bo'yicha garovlar, kelgusi davr xarajatlarni qoplash bo'yicha zahiralari shu shaklda vaqtinchalik foydalanilishi mumkin.

Qarz mablag'lari o'z aylanma mablag'larining etmagan qismini to'ldirishga mo'ljallangan. Ularning tarkibiga:

- banklarning qisqa muddatli kreditlari;
- zayomlar;
- uzoq muddatli kreditlari.

Jalb qilingan mablag'lar:

- mol etkazib beruvchi va pudratchilarning kreditorlik qarzlari;
- va boshqa kreditorlar ko'rinishida maydonga chiqadi.

Aylanma kapitalning foydalanish samaradorligini xarakterlovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar aylanma mablag'lar aylanishining soni va aylanma mablag'lar bir marta aylanishining uzoqligi hisoblanadi va ular quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{am} = T : Q_u,$$

$$U_{1a} = K_c : A_{am}$$

Bu yerda, A_{am} - aylanma mablag'larning aylanuvchanligi;

T - realizatsiyadan olingan tushum;

Q_u - aylanma mablag'larning-yillik o'rtacha qoldig'i;

U_{1a} - aylanma mablag'lar bir marta aylanishining uzunligi (uzoqligi);

K_c - tahlil davridagi kunlar soni.

Aylanma mablag'larning aylanuvchanlik ko'rsatkichi ularning tahlil qilinayotgan davrdagi aylanish tezligini o'zida ifodalaydi. Agar-yillik aylanish tezligi aniqlansa, ya'ni-yillik realizatsiya tushimini aylanma mablag'larning o'rtacha-yillik qoldig'iga nisbatani olinsa, natija tahlil-yili davomida aylanma mablag'lari necha marta aylanganligini bildiradi. Xuddi shu usulda aylanma mablag'larning oylik, choraklik, yarim-yillik va-yillik aylanish tezligi aniqlanadi. Joriy davrda aylangan aylanma mablag'larning aylanish tezligi o'tgan davrdagi ularning aylanish tezligi bilan solishtirish natijasida korxonada aylanma mablag'laridan samarali foydalanish ko'rsatkichiga baho beriladi.

Aylanma mablag'lar bir marta aylanishining davrini aniqlash ko'rsatkichi ularning tahlil davrida necha kunda bir marta aylanganligini bildiradi. Aylanma mablag'larni bir marta aylanishi kunlari soni kamayib borgan sari ulardan foydalanish samaradorligi oshib borganligini ifodalaydi.

Zahiralarning aylanuvchanligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A_z = T_{sm} : Q_{zu}$$

Bu yerda, A_z - zahiralarning aylanuvchanligi;

T_{sm} - sotilgan mahsulot tannarxi;

Q_{zu} - zahiralarning o'rtacha qiymati.

Debitorlik qarzlarni to'lashning kunlardagi o'rtacha davomiyligi sotib oluvchilarning schyotlar bo'yicha to'lash tezligini aks ettiradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$DQ_{tud} = DQ^{-s} : T^{-k}$$

Bu yerda, DQ_{tud} - debitorlik qarzlarni to'lashning kunlardagi o'rtacha davomiyligi;

DQ^{-s} - debitorlik qarzlarning o'rtacha summasi;

T^{-k} - realizatsiyadan olingan kunlik o'rtacha tushum.

Bu ko'rsatkichning past darajasi xo'jalik yurituvchi subyektlar debitorlardan pulni undirish bo'yicha ishining samaradorligidan darak beradi. Biroq, ayrim hollarda, bu narsa xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit siyosatining haddan ziyod qattiqligini ham ko'rsatib, realizatsiya qilingan mahsulotlarning uncha katta bo'lmagan qismi kreditga sotilganligini ham anglatadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini ta'minlashda va moliyaviy tahlilda sof aylanma kapitalni monitoring qilish muhim rol o'ynaydi. Umumiy ko'rinishda sof aylanma kapital aylanma aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi

farqdan iborat. Qisqa muddatli passivlarning tarkibiy tuzilmasida kelgusi davr daromadlari ham kiritilib, ular xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zlik pul mablag'lari bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham sof aylanma kapitalni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$S_{ak} = AA - QP$$

Bu yerda, S_{ak} - sof aylanma kapital

AA - aylanma aktivlar;

QP - qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlaridan tashqari).

Sof aylanma kapitalni boshqarishning natijaliligini sof aylanma kapitalning aylanish koeffitsienti xarakterlab beradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_a = T_s : S_{ak}$$

Bu yerda, K_a - sof aylanma kapitalning aylanish koeffitsiyenti;

T_s - realizatsiyadan olingan sof tushum;

S_{ak} - sof aylanma kapitalning o'rtacha qiymati.

Aylanma mablag'larni boshqarishda ularni likvidlik darajasi bo'yicha strukturizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadlar uchun likvidlikning quyidagi ikki ko'rsatkichidan faol foydalaniladi:

- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- absolyut likvidlik koeffitsiyenti.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti ma'lum bir sana uchun aniqlanib, uning aniqlanish tartibi quyidagicha:

$$K_{jl} = A_n : QP \geq 2$$

Bu yerda, K_{jl} - joriy likvidlik koeffitsiyenti;

A_n - aylanma aktivlar (balansning 2-bo'limi);

QP - qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi ikkidan kichik bo'lmasligi lozim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, g'arb iqtisodiyotida uning darajasiga birdan kichik bo'lmagan hollargacha yo'l qo'yiladi.

Absolyut likvidlik koeffitsiyenti eng likvidli aktivlarning (pullar va qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar) qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi va uni formula orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_{al} = (PM + MQ) : QP \geq 0,2$$

Bu yerda, K_{al} - absolyut likvidlik koeffitsiyenti;

PM - pul mablag'lari;

MQ - qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar;

QP - qisqa muddatli majburiyatlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Bu koeffitsiyentning darajasi 0,2 dan katta bo'lib, biroq amaliyotda bu narsa o'z faoliyatining turli davrlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy siyosati va ishining samaradorligiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma kapitaldan foydalanishning samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq. U, eng avvalo, to'lov intizomi-ning ahvoli, aylanma mablag'larning turli funktsional elementlariga joylashtirilgan quyilmalarning hajmi bilan belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasida aylanma kapitaldan samarali foydalanishga ishlab chiqarishning chiqitlarsiz yuqori texnologiyalarga asoslanganligi, materiallar qiymatining pasayishi, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarining minimallashtirish, ishlab chiqarish zahiralarini va ularning harakatini oqilona tashkil qilish hamda natijali boshqaruv, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Muomala sohasida bunday omillar qatoriga mol etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan ishlarni yaxshilash, samarali xo'jalik aloqalaridan foydalanish, zamonaviy marketingni amalga oshirish, tayyor mahsulot zahiralarini kamaytirish va uning realizatsiya qilinishini tezlashtirish kabilar kiradi. To'lov qobiliyatini ta'minlash (mustahkamlash) va mablag'larning aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida debitorlik qarzlari va pul oqimlarini boshqarishni yaxshilash ham bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi.

12.2. Aylanma mablag'larni tashkil etish manbalari va kreditning roli

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun avanslashtirilgan qiymat ishlab chiqarish va muomala sferalarida doimiy ravishda aylanib turishi zarur. Avanslashtirilgan qiymat mehnat vositalari va predmetlarini sotib olishga sarflanishi mumkin. Shu jihatdan ishlab chiqarish vositalarini ikki shakldagi aktivlarga, ya'ni uzoq muddatli va aylanma aktivlarga bo'lish mumkin. Uzoq muddatli aktivlar ishlab chiqarishda uzoq-yillar davomida qatnashadi. Eskirib borishi bilan uzoq muddatli aktivlar o'z qiymatini qisman yangi yaratilayotgan mahsulotga o'tkazib boradi. Aylanma aktivlar uzoq muddatli aktivlardan farq qilib, ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va yaratilgan mahsulotga o'z qiymatini to'la o'tkazadi, shakli o'zgaradi.

Aylanma aktivlar aylanish jarayonida uch bosqichni bosib o'tadi: 1. Ishlab chiqarish va tovarlarni sotish bilan bog'liq bosqichlar.

Aylanishning birinchi bosqichida ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi (P-T(i/v)). Korxonalarining ajratilgan pul fondlari ishlab chiqarishning ashyoviy omiliga aylanadi. Birinchi bosqichning xususiyati bundakki, bu bosqichda ba'zi korxonalar o'z mablag'lari etarli bo'lmagan holda qarzga bank kreditini oborotga jalb qilishlari mumkin. Aylanma aktivlar aylanishning ikkinchi bosqichi - ishlab chiqarish bosqichi (T-i/ch-q) bo'lib, bunda ishlab chiqarish omillari (ish kuchi va ishlab chiqarish vositalari) qo'shilishi yuzaga keladi va bu jarayon aylanma aktivlari aylanishi iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ifodalashga yordam beradi. Chunki, ikkinchi bosqich asosiy va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda yangi qiymatga ega bo'lgan yangi mahsulot yaratiladi. Ikkinchi bosqich, ishlab chiqarishda samaradorlikka erishish omillariga boy bo'lgan bosqich bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishni to'qaytirish uchun:

- ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash;

- material resurslarini iqtisod qilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini arzonlashtirish;

- mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish zarur. Aylanma aktivlar aylanishining uchinchi bosqichi, (T'-P')da yangidan yaratilgan mahsulot realizatsiya qilinadi. Oxirgi bosqichda aylanma mablag'lar yana boshlang'ich shakl - pul shakliga o'tadi va bu esa aylanish jarayonini boshidan boshlash imkonini beradi.

Aylanma aktivlar aylanishining uchala bosqichi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularni o'rganish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish, uning uzluksizligini ta'minlash, aylanish bosqichlari bo'yicha aktivlarni to'g'ri taqsimlash ishlab chiqarishda samaradorlikka, korxonalar moliyaviy faoliyatining yaxshi natijalarga erishishiga olib kelishi mumkin.

Fondlar aylanishining asosiy shakli - pul shakli ishlab chiqarishni tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ular aylanishining asosiy shakli, jarayon boshlanishida pul mablag'larini avanslashtirish va jarayon tugashida aktivlarning pul shakliga o'tishidir. Haqiqatda pul mablag'larini avanslashtirmasdan turib fondlar aylanishini boshlash mumkin emas va shundan kelib chiqqan holda boshqa bosqichlar o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi.

Korxonalarining avanslashtirilgan mablag'lari natural-ashyoviy shaklda va boshqa shaklda, ya'ni qiymat shaklida bo'lishi mumkin. Aktivlarning qaysi bir turini moslashtirishga qarab, ular asosiy va aylanma mablag'larga bo'linadi.

Avanslashtirishning xususiyati shuki, mablag'lar korxonada doimiy ravishda bo'lib turadi va aktivlarning aylanishiga qarab o'z shaklini o'zgartirib turadi. Aktivlarning aylanishi davomida aylanma mablag'lar pul shaklidan ishlab chiqarish zahiralari shakliga, ishlab chiqarish zahiralari shaklidan tugallanmagan ishlab chiqarish (tayyor bo'lmagan mahsulot)ga, tugallanmagan ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot shakliga o'tadi. Oxirgi bosqichda mahsulot sotiladi, ya'ni tovar shaklidan pul shakliga o'tadi va jarayon boshida avanslashtirilgan mablag'lar kelib tushgan tushum hisobidan tiklanadi.

Aylanma aktivlar iqtisodiy kategoriya sifatida bir necha xususiyatlarga ega. Shulardan biri - aylanma ishlab chiqarish va muomala aktivlari uchun avanslashtirilgan qiymatlarni bir iqtisodiy kategoriya - aylanma aktivlar kategoriyasiga birlashishidir. Ba'zi iqtisodchilar aylanma aktivlarni iqtisodiy kategoriya sifatida qaramaydilar. Ularning fikricha, aylanma fondlarga iqtisodiy kategoriya sifatida tovar ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil qiladi. Aylanma aktivlarning yana bir xususiyati - ularning tashkil qilinishi va ulardan foydalanishdir.

Aylanma aktivlarning aylanishini boshlash uchun avvalom bor avanslashtirilgan qiymatga ega bo'lish lozim.

Aylanma aktivlar korxonada balansining aktiv qismida ko'rsatilib quyidagi tarkibiy guruhlariga bo'linadi.

I guruh. Tovar-moddiy boyliklar, bularga:

- ishlab chiqarish zahiralari;
- tayyor mahsulot;
- tovarlar kiradi.

II guruh. Ishlab chiqarish xarajatlari, bularga:

- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi.

III guruh. Pul mablag'lari, bularga:

- g'aznadagi pul mablag'lari;
- valyuta mablag'lari;
- hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari;
- boshqa schyotlardagi pul mablag'lari kiradi.

IV guruh. Debitorlar, bularga:

- xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar;
- bo'nmak to'lovlari;
- byudjet bilan hisob-kitoblar;
- xodimlar bilan hisob-kitoblar;
- shu'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- uyushma korxonalar bilan hisob-kitoblar;
- ta'sischi bilan hisob-kitoblar;
- boshqa debitorlar kiradi.

Aylanma aktivlar o'zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab aylanishi davrida ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi. Aylanma aktivlarning aylanish davridagi xususiyati xo'jalik subyektining qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligiga bog'liq. Mavsumiy tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, tayyorlov, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar)da aylanma aktivlarning aylanishi bir tekisda kechmaydi. Chunki bu tarmoqlarga aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj-yilning fasliga, mavsumga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida qish, bahor oylarida aylanma aktivlarga bo'lgan talab oshishi, kuzga kelib aylanma aktivlarga bo'lgan talab kamayishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi va shunga o'xshagan boshqa tarmoqlarda aylanma aktivlarga bo'lgan talab bank kreditini jalb qilish yo'li bilan qoplanishi mumkin.

Mavsum bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo, ta'minot va boshqalar)da aylanma aktivlarning aylanishi (mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) bir maromda kechishi mumkin. Shunga qaramasdan nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol etkazib beruvchidan kelib tushishda, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, transport bo'yicha qiyinchiliklar bo'lganda, import mollar ko'p miqdorda kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayoni va boshqalarda aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank krediti hisobidan qoplashi mumkin.

Rejali iqtisodiyot sharoitida aylanma aktivlar bo'yicha normativlar o'rnatilgan.

Normativ - bu minimal miqdordagi zahiralalar bo'lib, ular doimo xo'jalik subyektlari oborotida bo'lishi lozim. Normativ miqdorini korxonalar o'z mablag'idan qoplashi kerak.

Oxirgi-yillarda xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlariga normativ o'rnatish yana amaliyotda qo'llanilmoqda. Korxonalar va tashkilotlar o'zida mavjud zaxira va harajatlar summasini xom cho't

qilish asosida o'tgan davrda mavjud mablag'lar va kutilayotgan o'zgarishlarni hisob-kitob qilish yo'li bilan kreditga bo'lgan talabni aniqlaydilar.

Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlari quyidagi manbalar hisobidan tashkil qilinadi:

1. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari.
2. Bank kreditlari.
3. Kreditor qarzlari
4. Boshqa manbalar

Xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini normal olib borish uchun tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarining minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Korxonalarining o'z aylanma mablag'lari quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- a) davlat korxonalarida byudjetdan ajratmalar hisobidan;
- b) yuqori tashkilotlarning ajratmalari;
- v) ta'sisчилarning pay badallari;
- g) aksiyador korxonalarda aksiyalar chiqarish va sotish yo'li bilan vujudga keladigan manbalar hisobidan.

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari uning kapitalida o'z ifodasini topadi. Ustav kapitali asosan foyda hisobidan yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan ko'paytirib boriladi. Korxonaning o'z kapitalining miqdori qancha yuqori bo'lsa, uning faoliyati shunchalik boshqa kreditorlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni o'z aylanma mablag'larining yuqori salmog'i korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligidan dalolat beradi. Aylanma aktivlarning ikkinchi manbasi - bank krediti va boshqa qarz mablag'lari hisoblanadi. Korxonaning normal faoliyatini olib borish uchun o'z aylanma mablag'lari etarli bo'lmasa, oborotga qisqa muddatli bank kreditlari jalb qilinishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida bunday ahvol mavsumiy va vaqtinchalik zahiralari va xarajatlarni qoplash, akkreditiv ochish va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida va boshqa shunga o'xshash holatlarda yuzaga keladi.

Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlarini tashkil qilishda kreditning rolini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

1. Kreditning xo'jalik oborotida ishtirok etishi aylanma mablag'larni iqtisod qilishga olib keladi.
2. Kredit xo'jaliklar faoliyatida uchrab turuvchi mavsumiy ehtiyoj, boshqa holatlar bilan bog'liq bo'linishlarning oldini olishga yordam beradi.

3. Kredit ishlab chiqarish, tayyorlov va sotish jarayonini tezlashtiradi va hajmini oshiradi.

4. Kredit o'z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

5. Bank korxonalariga kredit berish yo'li bilan ularning faoliyatini yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Aylanma aktivlarning uchinchi manbasi - kreditor qarzlardir.

Kreditor qarz shaklidagi mablag'lar korxonaga tegishli bo'lmagan mablag'lar bo'lsa-da, ular korxonada oborotida doimo ishtirok etadi. Shu tufayli ular aylanma aktivlarning manbai hisoblanadi.

Kreditor qarzlarga quyidagilar kiradi:

1. Mol etkazib beruvchilar bilan hisoblar.
2. Byudjet bo'yicha qarzlilar.
3. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlilar.
4. Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlilar.
5. Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlilar.
6. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlilar.
7. Shu'ba korxonalariga qarzlilar.
8. Uyushma korxonalariga qarzlilar.
9. Boshqa kreditorlar.

Aylanma aktivlarning boshqa manbalariga moddiy rag'batlantirish fondi va boshqa fondlar qoldiqlari kirishi mumkin. Korxonalarining moliyaviy ahvoli ijobiy bo'lsa, u o'z vaqtida bank kreditini to'lashi, mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilishi, ish haqini to'lashi, byudjetga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi mumkin. Korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashganda to'lanmagan qarzlilar hosil bo'ladi.

To'lanmagan qarzlilar:

- a) bank kreditlari bo'yicha;
- b) mol etkazib beruvchilarga o'z vaqtida to'lanmagan qarzlilar;
- v) ish haqi bo'yicha to'lanmagan qarzlilar va boshqalar bo'yicha yuzaga keladi.

To'lanmagan qarzlilarining yuzaga kelish sabablari korxonada ko'zlangan rejalarining amalga oshirilmaganligi, aylanma aktivlardan foydalanishida samaraga erisha olmaslik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aylanma aktivlardan foydalanishda bo'ladigan kamchiliklar:

1. Korxonalar o'z aylanma mablag'lari bilan etarli ta'minlanmagan sharoitida;
2. Aylanma aktivlar aylanishi sekinlashganda;

3. Korxonada talabdan ortiqcha tovar moddiy boyliklar zaxiralari yig'ilib qolganda;

4. Aylanma aktivlar ko'zda tutilganidan boshqa maqsadlarga ishlatilganda yuzaga keladi.

Shunday qilib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonada, tashkilot va muassasalarning to'laqonli faoliyatini tashkil etish uchun aylanma mablag'lari zarurdir. Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun esa, ularning doimiy ravishda aylanma mablag'laridan foydalanishlarini talab qiladi.

Turli tarmoqlarda aylanma mablag'lari aylanish davri turlichadir. Buning natijasida qaysi tarmoqda aylanma mablag'larining aylanish tezligi yuqori bo'lsa, ushbu tarmoq bozorda sotuvchi sifatida tayyor hisoblanadi. Aylanma mablag'lari uzoq davrni talab qiladigan tarmoqlarda (masalan, qishloq xo'jaligi) bozorda sotib oluvchi sifatida qatnashishlari uchun pul mablag'lariga talab vujudga keladi. Ushbu talab asosan bank kreditlari hisobiga qondiriladi. Korxonalarda aylanma mablag'larning uzluksiz ravishda aylanishini ta'minlash uchun bank kreditiga talab doimiy ravishda mavjuddir.

12.3. Kreditga layoqatlilik tushunchasi va uning kreditlash jarayonidagi ahamiyati

Banklar tomonidan kreditlash jarayonini samarali tashkil qilishda mijozni kredit to'loviga layoqatliligining ta'limi va uni baholash muhim o'rin tutadi. Berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytib kelishini hohlaydigan har qanday bank, birinchi navbatda, mijozning kredit arizasi va uning kredit tarixini mukammal o'rganib chiqishi lozim. Bu jarayon bank riskini oldini olishning ilk bosqichi hisoblanadi.

Kredit to'loviga layoqatlilik, kredit berishda e'tiborga olinadigan asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki tijorat bankining o'z faoliyati natijasi uchun javobgarligi har qanday usullar orqali kredit riskini kamaytirishni talab etadi. Kredit uchun foiz bankning asosiy daromad manbai bo'lib hisoblanadi.

Korxonaning kredit to'loviga layoqatliligi tijorat bankiga kredit berish mumkinligi, kreditning miqdori hamda foiz stavkasi darajasini belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, kredit to'loviga layoqatlilikni aniqlash ssudani o'z vaqtida qaytarish ehtimolini va natijada bank riskini kamaytirish imkonini beradi.

Kredit to'loviga layoqatlilik jihatidan ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan korxonalar hech qanday to'siqlarsiz kredit olishlari va kredit hisobidan tovar-moddiy boyliklarni sotib olishlari, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirishlari mumkin. Kredit to'loviga layoqatlilik bo'yicha salbiy ko'rsatkichga ega bo'lgan subyektlar bankdan kredit ola olmasada, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish va sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellilik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risidagi axborotga ega bo'ladilar.

Korxonalar va banklar uchun kredit to'loviga layoqatlilik ko'rsatkichlarining muhimligini hisobga olib, biz, kredit to'loviga layoqatlilik ko'rsatkichlarining iqtisodiy mohiyatini oydinlashtirishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ko'pgina mualliflar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda kreditga layoqatlilik tushunchasi keng yoritilgan bo'lsada, hozirgi davrgacha ular o'rtasida yakdillik, yagona bir fikr mavjud emas. Bu borada V.M Yanishevskaya «kredit to'loviga layoqatlilik – bu bank tomonidan mijozga kredit ajratish mumkinligi va uning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan mijozning kredit va uning foizlarini kelajakda o'z vaqtida qaytara olish imkoniyati»¹ degan ta'rifni keltiradi. A.D.Sheremet esa mijozning kredit to'loviga layoqatlilik tushunchasiga «mijozning barcha majburiyatlarini o'z vaqtida va to'la qaytara olish qobiliyati»² degan ta'rifni beradi. Bu esa kredit to'loviga layoqatlilik hamda to'lovga layoqatlilik tushunchalari aynan bir ma'noni anglatadi degan xulosaga olib keladi.

O.I.Lavrushin «bank mijozining kredit to'loviga layoqatliligi – bu uning o'z vaqtida qarz majburiyatlari bilan hisob-kitob qila olish qobiliyati»³ degan fikrni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, barcha mualliflar tomonidan korxonalarining kredit to'loviga layoqatliligi – bu qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyati sifatida ta'rif beriladi. Fikrimizcha, bu ta'rif ko'proq korxonaning to'lovga layoqatliligiga tegishlidir. Amaliyotda kredit to'loviga layoqatlilik – bu mijozning bankdan olgan kreditlari va foiz to'lovlari, ya'ni mijozni faqatgina bank oldidagi qarzlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifoda qiladi.

¹ Янишевская В.М. Анализ платежеспособности предприятий и организаций: Практическое руководство для государственных и иных предприятий. - Москва, 1991. - С. 5-6.

² Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С., Негашев ЭВ. Методика финансового анализа предприятия. - Москва: Юни-Глоб, 1992. - С. 34-36.

³ Лаврушин О.И. Анализ экономической деятельности клиентов банка. -Москва: Инфра-М, 1996. - С. 55-56.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalarda qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj yuzaga keladi va bu ehtiyoj zarur bo'lganda bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Shu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit va uning muhim elementlaridan biri kreditga layoqatlilikni baholashning o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi¹. Chunki banklar ham bozor munosabatlarining mustaqil subyektlaridan bo'lib, iqtisodiy jihatdan faoliyat natijalari uchun o'zlari javobgar hisoblanadilar. Banklarning maqsadi ham korxonalarinikiga o'xshash bo'lib, ular o'z xarajatlarni o'z daromadlari hisobidan qoplab yuqori foyda olishga intiladilar. Banklarning foyda bilan ishlashi ularning yanada keng tarmoqli faoliyat olib borishiga, mijozlarga ko'rsatadigan xizmat turlari va sifatini kengaytirishga, ustav kapitalini oshirishga, bank xodimlarini moddiy rag'batlantirishga, ko'proq mablag' ajratishga, o'z aksionerlariga ko'proq dividendlar to'lashning va bularning barchasi bankka bo'lgan ishonchning yanada oshishiga imkoniyat yaratadi². Tijorat banklari faoliyatida qo'ygan maqsadga erishish va bergan kreditlarining samara bilan bankka qaytib kelishini ta'minlashi uchun mijozning moliyaviy holatini uning kreditni o'z vaqtida qaytara olishi imkoniyatlarini tekshirib ko'rishi lozim. Kreditlash jarayoni turli xildagi risk omillari bilan bog'liq bo'lib, kreditga layoqatlilik kreditni o'z vaqtida to'lashni o'zida mujassamlashtiradi³. Shuning uchun bank ssuda berayotganda kreditga layoqatlilikni o'rganishi, ya'ni qarz oluvchining moliyaviy holatini hamda uning kreditni o'z vaqtida to'liq qaytarib berish qobiliyatini baholashni shart deb biladi. Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishning maqsadi qarz oluvchining majburiyatini o'z vaqtida va to'liq qaytarib berish qobiliyatini aniqlashdan iborat. Shu bois bank o'ziga olishga tayyor bo'lgan risk darajasi u taqdim etayotgan kredit hajmi va kredit berish shartlarining qay darajada bajarilishiga bog'liq. Bank nafaqat mijozning ma'lum kunlardagi to'lov qobiliyatini baholashi, shu bilan birga, uning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ham prognozlashi zarur⁴. Moliyaviy barqarorlikni va kredit operatsiyalaridagi risk hisobini obyektiv baholash, bankka kredit resurslarini samarali boshqarish hamda foyda olish imkonini beradi. Bozor munosabatlarining

¹ Козлова Э.П., Галантна Э.Н. Бухгалтерский учёт в коммерческих банках. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 640 с.

² Берdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliliği. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2002. – 21 b.

³ Omonov A.A. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. – T.: Moliya-iqtisod., 2010. – 267 b.

⁴ Туйчиев З.Н. Вопросы финансово-кредитного обеспечения жилищного строительства в Республики Узбекистан. Автореф. дис. канд. эк. наук. – Т.: 2002. – 22 с.

rivojlanishi korxonalarining to'lov qobiliyati va barqarorligini aniqlashda chet el tajribasiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritish zaruratini tug'dirdi, bunda buxgalteriya balansining yangi tahlilini yuritish asosiy o'rinni egallaydi. Balansdagi aktiv va passivlarni qabul qilingan moddalar bo'yicha guruhlantirilishi, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni etarli darajada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bank risklarini kamaytirish va uning daromadini oshirishda kredit jarayonini tug'ri tashkil qilish, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Mijozga berilgan kredit o'z vaqtida qaytib kelishini xohlaydigan bank avvalambor mijozning kredit zayavkasi va uning kredit tarixini mukammal o'rganib chiqishi lozim. Bu jarayon bank riskini oldini olishning ilk bosqichi hisoblanadi¹. Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini o'rganish va kredit berilgandan keyin kredit monitoringini muntazam olib borish bank riskini kamaytirish va uning daromadini oshirishning navbatdagi bosqichlaridan biri hisoblanadi².

Kreditlash jarayonini tashkil qilish kredit arizasini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Biz amaliyotda kredit arizalarini ko'rishda nimalarga e'tibor berish zarurligini ta'kidlamoqchimiz. Har bir mijozga chuqur e'tibor bilan munosabatda bo'lish, har bir bank xodimining faoliyat ko'rsatish qoidalarining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri bo'lgan – kreditga layoqatlilikdir. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda ma'lumotlarning har xil manbalaridan foydalaniladi:

- a) bevosita mijozlardan olingan materiallar;
- b) mijoz haqidagi bank arxivida mavjud bo'lgan materiallar;
- v) mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar (uning mol etkazib beruvchilari, kreditorlari, uning mijozlari, banklari va boshqalar) tomonidan berilgan ma'lumotlar;
- g) xususiy va davlat agentliklari va tashkilotlarining hisobotlari va materiallari (kreditga layoqatlilik haqidagi hisobotlari, investitsiya bo'yicha ma'lumotnomalar va boshqalar).

Bank tomonidan o'rganib chiqilgan materiallarni va mijoz tomonidan berilgan bevosita ma'lumotlarni olgan kredit bo'limining ekspertlari

¹ Kaitmov N.F. Risklar va tijorat banklarining foydasini shakllantirish muammolari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 1998. – 19 b.

² Бабасев Б.Б. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использование. Автореф. дис. на соискание ученой степени к.э.н. – Ташкент, 2002. – 21с.

o'z bank arxiviga murojaat qiladi. Agar mijoz oldin ham kredit olgan bo'lsa arxivda uning qarzini kechiktirib to'langanligi va boshqa kamchiliklari haqidagi ma'lumot bo'ladi. Undan tashqari bank boshqa kredit tashkilotlari bilan aloqa o'rnatib, ushbu qarzdor to'g'risida ma'lumot olishi mumkin. Kredit arizasini baholashda kredit bo'limi xodimlari aniq qarz oluvchi bilan bog'liq savollarni ko'rib chiqibgina qolmay, u faoliyat ko'rsatayotgan mintaqa, tarmoqlarda yuzaga kelgan iqtisodiy ahvolni ham hisobga olishlari lozim¹. Kredit berish bo'yicha sifat tahlili ham bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

- a) qarz oluvchi obro'sini o'rganib chiqish;
- b) kredit maqsadini aniqlash;
- v) asosiy qarz va foizlarning qaysi manbalar hisobidan qoplanishini aniqlash;
- g) bank qisman o'z bo'yniga oladigan qarz oluvchining risklarini baholash.

Qarz oluvchining reputatsiyasi sinchkovlik bilan tekshiriladi, bunda mijozning kredit tarixini o'rganib chiqish juda muhimdir. Korxonalar rahbarining shaxsiy va ish bilan bog'liq bo'lgan xislatlariga ham katta e'tibor beriladi.

Davlat mulkchiligiga asoslangan jamiyatda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit mexanizmda muhim o'rinni egallay olmadi. Banklar faoliyatiga davlat yakka hukmronligi ularning mustaqil subyekt sifatida faoliyat ko'rsatishiga tushqinlik qiladi va kredit resurslari markazlashgan tarzda, reja asosida tasdiqlanadi. Eng xususiyatli tomoni shundaki, banklar beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil o'zlarini belgilay olmas edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit berishda e'tibor qilinadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qoladi. Chunki tijorat banki o'z faoliyati natijasi uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo'lib hisoblanadi. Korxonaning kreditga layoqatlilikini o'rganish tijorat bankiga kredit berish mumkinligini aniqlashga, uning miqdorini, foiz stavkasining darajasini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqari, kreditga layoqatlilikini aniqlash ssudani o'z vaqtida qaytarish ehtimolini, eng asosiysi bank riskini kamaytirishga imkon beradi. Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning o'zi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlarning tahliliga asoslanib, ular mol etkazib beruvchilar haridorlar va boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarni

¹ Авагян Г.Л. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: учеб. пособие: – М.: Магистр, 2007. – 350 с.

o'rnatishlari mumkin¹. Ijobiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichga ega bo'lgan korxonalar hech qanday to'siqlarsiz kredit olishlari va uning hisobidan tovar moddiy boyliklarni sotib olishi, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, oldindan olingan kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lashga yo'naltirishlari mumkin. Salbiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar bankdan kredit oloimasada, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish, sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risidagi axborotga ega bo'ladilar.

Ba'zi iqtisodchilar qarz oluvchining kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini baholashda birinchi o'ringa korxonaning daromad olish imkoniyatini qo'yishadi. Bizning fikrimizcha, daromad olish - korxonaning ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turining natijasi hisoblanib, shu natijaga erishish maqsadida korxonalar kreditga muhtojlik sezadi. Agar qarzlarni to'lash miqyosida qaraydigan bo'lsak, kreditga layoqatlilikka nisbatan to'lovga layoqatlilik tushunchasi kengroqdir. Chunki to'lovga layoqatlilik jismoniy va huquqiy shaxslarning barcha qarz va majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan farq qilib, ssuda bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatini ko'rsatadi. Undan tashqari kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan to'lash manbalari bilan ham farq qiladi. Korxonalar, tashkilotlar o'z qarz, majburiyatlarini sotishdan tushgan tushum yoki boshqa har xil tushumlar hisobidan amalga oshirsa, kredit bo'yicha qarzlarni to'lash birinchi navbatda mahsulotni sotish hisobidan tushgan tushumdan amalga oshirilishi belgilanadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, to'g'ri kredit bergan bank, korxonalar to'lovga layoqatli bo'lmagan holda ham bergan kreditni, to'liq qaytib olishni mo'ljallashi mumkin. O'zining barcha ahamiyatiga qaramasdan bu ko'rsatkichlar ayrim ma'noda chegaralangan ahamiyatga ega. Birinchidan, ko'pgina ko'rsatkichlar, shu jumladan, moliyaviy ahvolni, kapitalning borligi va boshqalarni xarakterlovchi ko'rsatkichlar asosan o'tmish bilan bog'liq bo'lib, ular o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi, kelajakdagi kreditga layoqatlilikni rejalashtirish esa kelajakda ssudalarni qaytarilish imkoniyatlariga baho beradi. Ikkinchidan odatda bunday ko'rsatkichlar hisobot muddatiga qolgan qoldiq asosida hisoblanadi, vaholanki ma'lum davrdagi oborotlar

¹ Boboqulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash: muammolar va echimlar. Monografiya. - T.: «Fan va texnologiya», 2007. - 183 b

haqidagi ma'lumotlar ssudalarni qaytarish imkoniyatlarini to'laroq tasvirlaydi.

Mijozning kreditga layoqatligini aniqlash murakkab jarayon bo'lib, u kredit va foiz to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun zamin hisoblanadi. Bu jarayonda yondashuv mijozning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq o'rganishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bizning fikrimizcha, kreditga layoqatlilikni aniqlashga barcha mijozlar bo'yicha bir xil yondashuv talab etilmasdan, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuv maqsadga muvofiqdir.

12.4. Yuridik shaxslarning kreditga layoqatlilikini baholash usullari

Yuqorida ko'rib chiqqan ko'rsatkichlarimiz respublikamiz bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatlilikini baholashda keng qo'llanilayotgan ko'rsatkichlardir. Ularga tayangan holda mijozning kredit qobiliyati qaysi sinfga tegishligini bilish mumkin.

Mijozning kredit to'loviga layoqatlilik sinflari

23-jadval

	Nomi	1 sinf	2 sinf	3 sinf
1.	To'la qoplash koeffitsienti	2 gacha	2 dan 1 gacha	1 dan 0,5 gacha
2.	Likvidlilik koeffitsienti	1,5 gacha	1,5 dan 1 gacha	1 gacha
3.	Muxtorliyk koeffitsienti	60 % gacha	60 % dan 30% gacha	30 % gacha

Birinchi sinfga tegishli bo'lgan mijozlar uchun imtiyozli kreditlar berilishi mumkin.

Ikkinchi sinfga tegishli bo'lgan mijozlar uchun umumiy sharoitlarni hisobga olgan holda imtiyozli kreditlar berilishi mumkin. Agar bu mijoz ikkinchi sinfga tegishli bo'la turib, lekin ish faoliyatida salbiy nuqsónlarga ega bo'lsa, u holda bunday mijozlar bilan shartnoma tuzishda qo'shimcha chora-tadbirlar qo'llanishi kerak. Misol uchun, ular ustidan nazoratni kuchaytirish, kreditni qaytarilishi uchun qo'shimcha garov yoki kafolat xati talab qilish, foiz stavkasini ko'tarish, berilayotgan kredit miqdorini kamaytirish kabi holatlarni hisobga olish zarur.

Uchinchi sinfga tegishli bo'lgan mijozlar kredit qobiliyatiga ega emas, deb hisoblanadi, ularga faqatgina yuqori tashkilotning kafolat xatini

hisobga olgan holda yoki foiz stavkasini yuqori belgilab, mol – mulkini garovga olib kredit berish mumkin.

Ajratilgan kreditlar mol-mulkni garovga olish asosida berilgan kredit shartnomasi to'g'ri tuzilib, hech qanday nuqsonlarga ega emas, kredit berilgan foiz stavkasi imtiyozli qilib belgilanganligi aniqlandi.

Agar mijozga asosiy vositalar yoki aylanma mablag'lar sotib olish uchun pul mablag'lari zarur bo'lsa, lekin ma'lum bir muddat o'tgunga qadar olingan kredit bo'yicha hisoblashish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u holda mijoz bankning muddatli kreditidan foydalanadi.

12.5. Jismoniy shaxslarning kredit qobiliyatini baholash tartibi

Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatligini baholashda skoring metodidan foydalaniladi. Skoring metodida mijozga tegishli bo'lgan har qanday omil o'z miqdoriy darajasiga ega. Ushbu omillar bo'yicha tegishli ballarni qo'shish orqali jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligi baholanadi. Hozirgi kunda skoring kreditlashning ko'p metodlaridan amaliyotda foydalaniladi. Ulardan eng keng tarqalgani Dyuran modeli hisoblanadi.

Amaliyotda har bir bank mijozlarni kreditga layoqatliligini baholashda turli xil metodlardan foydalanadi, bunday usullar sirasiga skoring usuli, va balli hisoblash usulini keltirish mumkin.

OATB «Hamkorbank»da qarzdorning kreditga layoqatliligini baholashda skoring usulidan foydalanib kelinmoqda. Quyidagi jadvalda biz jismoniy shaxslarni kredit to'loviga layoqatliligini skoring usulida baholash mezonlari bilan tanishib chiqamiz.

Jismoniy shaxslarni kredit olish kobiliyatini skoring usuli yordamida baholash mezonlari¹

1. Qarz oluvchi to'g'risida birlamchi ma'lumotlar

24-jadval

No	Ko'rsatkichlar	Umumiy ballar	Qo'yilgan ball
1	Qarz oluvchining yoshi		
	yoshi 25 dan yuqori 35 gacha	8	8
	yoshi 35 dan yuqori 50 gacha	4	
	yoshi 50 dan yuqori 60 gacha, 18 yoshdan yuqori 25 eshgacha	2	

¹ ATB «Hamkorbank» ma'lumotlari asosida hisoblandi.

24-jadvalning davomi

	Mazkur manzilda yashash muddati		
2	5-yildan ortik	8	8
	3-yildan ortik 5-yilgacha	4	
	1-yildan ortik 3-yilgacha	2	
	1-yilgacha	1	
3	Oilaviy axvoli		
	Oilali	9	
	Turmush qurmagan	6	6
	Ajrashgan	2	
4	Kasbi, egallab turgan lavozimi		
	Malakali mutaxassis(ishchi, xizmatchi), uddaburon tadbirkor	10	10
	Rahbarlik lavozimida ishlaydi.	7	
	Talaba	4	
	Jami:	35	32

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, skoring usuli orqali baholash tizimining birinchi qismi bevosita qarz oluvchiga tegishli bo'lgan birlamchi ma'lumotlar bo'lmish yoshi, tegishli hududda yashash muddati, oilaviy holati va kasbi singari eng muhim 4 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan. Ushbu ko'rsatkichlarda tahlil qilinayotgan qarz oluvchi yig'ish mumkin bo'lgan jami 35 ball dan 32 ballga baholandi. Bank kreditga layoqatlilikning ball (reyting) tizimini qo'llashi ham mumkin, unda, har bir koeffitsiyentga (uning normativga yaqinligiga qarab) ballarda belgilanadi va to'plangan ballar yig'indisiga qarab mijozning yuqori, o'rta yoki past guruh likvidlik bo'yicha ajratiladi. Bu birinchi qism baholash uchun ijobiy ko'rsatkich sanaladi. Baholashning ikkinchi qismi bo'lmish qarz oluvchining moliyaviy holati juda ham muhim ahamiyat kasb etadi (25-jadval).

2. Qarz oluvchining moliyaviy-mulkiy holati¹

25-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Umumiy ball	Qo'yilgan ball
	Qarz oluvchining bir oylik daromadi		
	Eng kam ishhaqining 25 barobaridan ortiq	10	

¹ ATB «Hamkorbank» ma'lumotlari asosida hisoblandi.

1	Eng kam ishhaqining 10 barobaridan ortiq 25 barobarigacha	5	5
	Eng kam ishhaqining 4 barobaridan ortiq 10 barobarigacha	3	
	Eng kam ishhaqining 4 barobarigacha	1	
	Qaramog'idagi boqimandalar soni		
	Qaramog'ida hech kim yo'q	10	
2	Qaramog'ida 1 ta bokimanda	5	5
	Qaramog'ida 1 dan ko'p 3 ta gacha	2	
	Qaramog'ida 3 dan kup boqmandalar mavjud.	1	
	Qo'shimcha mol mulklarini mavjudligi.		
	Bahosi eng kam ish haqini 1000 barobaridan kam bo'lmagan miqdorda o'zini biznes obyekti (savdo do'koni, ishlab chiqarish tsexi, texnikalari) va yengil avtomashinasi mavjud	10	10
3	Bahosi eng kam ish haqini 400 barobaridan kam bo'lmagan miqdordagi yengil avtomashinasi mavjud	3	
	Yuqorida sanab o'tilgan mol mulklari yo'q	2	
	Alokador qarzdorning daromadi.		
	Eng kam ish haqining 25 barobaridan ortiq	8	
4	Eng kam ishhaqining 10 barobaridan ortiq 25 barobarigacha	3	3
	Eng kam ish haqining 4 barobaridan ortiq 10 barobarigacha	2	
	Qarz oluvchining va alokador qarzdorning oila daromadidagi ulushi		
	Qarz oluvchining va alokador Qarzdorning oila daromadidagi ulushi 70 % dan ortiq	8	8
5	Qarz oluvchining va alokador qarzdorning oila daromadidagi ulushi 50 % dan yuqori 70 % gacha	3	
	Qarz oluvchining va alokador qarzdorning oila daromadidagi ulushi 50 % gacha	1	

	O'z yashash joyini mavjudligi		
	O'ziga tegishli xovli joy eki kvartirasi mavjud	8	8
6	Ota onasining uyida yashaydi va o'ziga tegishli xovli joyi yoki kvartirasi mavjud emas.	3	
	Ijarada yoki qarindoshlarini uyida yashaydi.	0	
	Jami	54	39

Jadval ma'lumotlari qarz oluvchining kreditni qaytara olish imkonini ko'proq o'zida aks ettiradi va shuning uchun ham maksimal 54 ballik shkalada baholanadi. Qarz oluvchining oylik daromadidan tortib turar joyining kimga tegishliligigacha olib boriladigan baholash natijasida tahlil qilinayotgan mijoz 39 ballga baholandi. Bu o'rtacha ko'rsatkich sanaladi va so'nggi uchinchi bo'lim baholari natijasida kredit olish imkoniyati holati oydinlashadi.

3. Mijozning bank bilan aloqasi¹

26-jadval

№	Ko'rsatgichlar	Umumiy ball	Qo'yilgan ball
	Kredit tarixi		
	2 marta va undan ko'p ijobiy tarixi mavjud	6	6
1	1 marta ijobiy kredit tarixi mavjud	4	
	Yangi mijoz	3	
	Salbiy kredit tarixi mavjud	0	
	Kreditni muddati		
	2-yilgacha	5	5
	2-yildan ortik 3-yilgacha	4	
2	3-yildan ortik 5-yilgacha	3	
	5-yildan ortik	2	
	Jami	11	11
	Hammasi(1+2+3 bo'lim)	100	82

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida xulosa qiladigan bo'lsak, bank mijozning ishonchlik darajasini tekshirish imkoniga ega bo'ladi va

¹ ATB «Hamkorbank» ma'lumotlari asosida hisoblandi.

shundan so'ng umumiy xulosalar chiqarishi mumkin. Tahlil malumotlariga ko'rinib turibdiki, birinchi mezon bo'yicha qarz oluvchi 35 ball dan 32 ball to'plagan, ikkinchi mezon, ya'ni qarz oluvchining moliyaviy mulkiy holati bo'yicha 54 ball dan 39 ball yig'ilgan, uchinchi mezon mijozning bank bilan aloqasi bo'yicha 11 ball to'plagan, ushbu mijozning kreditga layoqatlilik darajasi yaxshi deb baholangan. Shular bilan bir qatorda mijozni balli tizimda baholanishi ijobiy baholangan. Chunki, belgilangan qoida va me'yorlar asosida to'plagan ballar quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida ushbu xulosaga kelinadi.

Skoring usulida baholash mezoni bo'yicha mijozning kredit olish imkoniyati¹

27-jadval

Mijozning kreditga layoqatliligi	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
To'plangan ball	77-100 ballgacha	50-77 ballgacha	0-50 ballgacha
Kreditlash holati	Kredit ajratiladi	Kredit ajratiladi	Kredit ajratilmaydi

Bu mijoz jami 86 ball to'plagan va bank tomonidan umumiy asoslarda kreditlanadi. Xulosa qilib aytganda, respublikamiz bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda moliyaviy koeffitsiyentlar tizimidan to'liq foydalanilishi kredit portfelini samarali boshqarish hamda kredit riskini kamaytirish imkonini beradi.

Bank kreditga layoqatlilikning skoring tizimini qo'llashi orqali to'plangan ballar yig'indisiga qarab mijozning yuqori, o'rta yoki past guruhli likvidlik bo'yicha ajratiladi. Mijozni reytingi bo'yicha qaysi guruhga mansubligiga qarab kredit talablarini susaytirishi, kuchaytirishi yoki umuman kreditlashni rad etishi mumkin.

O'tkazilgan skoring taxlili xulosasiga ko'ra, qarzdor(xususiy tadbirkor)ning kreditga layoqatlilik sinfi chiqariladi, risk darajasi o'zlashtiriladi, to'plangan ballar tarzida yakuniy natija chiqariladi. Buning natijasida kredit berish zaruriyati yoki qarz oluvchini moliyalashtirishni inkor qilish aniqlanadi. Mazkur taxlil tijorat banklariga to'lovga noqobil qarz oluvchilarga kredit berish bilan bog'liq risklarni kamaytirishga imkon beradi.


¹ ATB «Hamkorbank» ma'lumotlari asosida hisoblandi.

12.6. Mijozlar kreditga layoqatligini baholashning zamonaviy usullari

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotlarida Sankt-Peterburg Iqtisodiyot Akademiyasining faxriy professori I.V.Vishnyakov tomonidan taklif etilgan kreditga layoqatlikni aniqlashning usul va modellari muhim ahamiyat kasb etadi (20-rasm).

- Tasnifiy baholash modeli odatda kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysis ga asoslangan statistik baholash) modellari asoslanadi.

- Kompleks tahlil modeli («Olti Si» qoidasi, CAMPARI, PARTS, PARSEK kabi yarim emperik usullarga asoslanadi.)



20-rasm. Qarz oluvchilarning kreditga qobilligini baholash modeli.

Yuqoridagi chizmada qarz oluvchilarning kreditga qobilligini baholash modeli keltirilib, u tasnifiy baholash hamda kompleks tahlil ko'rinishida aks ettirilgan.

Kreditga qobillikni aniqlashning tasnifiy baholash modelida qarz oluvchilarni guruhlarga ajratgan holda kreditni qaytara olish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi.

Ko'pchilik adabiyotlarda kreditga qobillikni aniqlashning ikki modeli kengroq tasniflanadi: ya'ni, balli baholash modeli va bankrot bo'lish ehtimolini bashorat qilish modellari. Balli baholash modeli qarz oluvchilarni yaxshi va yomonga, bashorat qilish modeli esa, korxonalarni bankrotlikka uchrash yoki uchramaslik ehtimollarini aniqlab beradi.

AQSh tijorat banklari tomonidan mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda bir qancha usullardan foydalanib, misol tariqasida kreditga layoqatlilikni bag'olashda balli tizimini quyida keltiriladigan jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**Mijozlarning kreditga layoqatliligini balli baholash tizimi
(UNB USA)**

28-jadval

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar miqdori				
	<\$10000 (5)	\$10000- 20000 (15)	\$20000- 40000 (30)	\$40000- 60000 (45)	>\$60000 (60)
1. Yillik daromad (jami)	<40% (0)	30-40% (5)	20-30% (20)	10-20% (35)	<10% (50)
2. Ssudani to'lash uchun oylik to'lov. Oylik sof daromad	Yo'q (0)	Faqat talab qilinguncha h/r (30)	Faqat jamg'arma h/r (30)	Ikkala h/r (50)	Javob yo'q (0)
3. Bank bilan munosabat (talab qilib olinguncha yoki jamg'arma hisob raqamlar)	Yo'q (0)	1 yoki undan ortiq (30)	Javob yo'q (0)		
4. Kredit kvarsaliga egalik	So'nggi 7-yildagi tartibbuzarliklar (10)		Ma'lumot yo'q (0)	Ssudalar o'z vaqtida qaytarilgan (30)	
5. Kredit munosabatlari tarixi	<50yosh (5)	>50yosh (25)	Javob yo'q (0)		
6. Qarz oluvchining yoshi					

7. Yashash joyi	Ijara (15)	O'z uyi (40)	To'liq egalik (50)	Javob yo'q (15)	
8. Bir manzilda doimiy yashash	<1-yil (0)	1-2yil (15)	2-4-yil (35)	>4yil (50)	Javob yo'q (0)
9. Bir ish joyida	<1-yil (5)	1-2-yil (20)	2-4-yil (50)	>4-yil (70)	Pensioner (70)

Kreditlashning asosiy olti qoidasi («Olti SL» qoidasi)

29-jadval.

Kreditlashning asosiy olti qoidasi asosida o'rganish obyektlari va rasmiylashtiriladigan hujjatlar					
Xarakter	Huquq	Pul mab- lag'lari	Ta'mi- not	Sharoit	Nazorat
mijozning kredit tarixi	Mijozning va kafolatchi- larning haqiqiyliigi	o'tgan- yillardagi foyda, sotish hajmi va dividend- lar	aktivlar ga egalik huquqi	Mijoz- ning Tarmoq- dagi o'ri va bozor- dagi kati- layotgan ulushi	bank faoli- yatiga oid qonunlar va kreditlarnin g sifati va xarakteriga qo'yilgan talablar
boshqa kreditorlar- ning ushbu mijoz bilan ish tajribasi	nizom, qarorlar, kelishuvlar va mijoz- ning yuri- dik statu- sini tasdiq- lovchi boshqa hujjatlar	Rejalash- tirilgan pul oqim- larining etarliliigi	aktivlar ni ishlatish muddati	tarmoqda faoliyat ko'rsatay otgan boshqa korxonalar bilan mijoz faoliyati- ni taq- qoslash	nazoratchila r uchun tegishli hujjatlar
kredit maqsadi	ish tarixi, korxonalar egalarining yuridik statusi,	likvid zahiralari- ning mavjud- liliigi	ma'na- viy eskirish ehtimoli	Mijoz- ning va tarmoq texnologik va	kredit olish uchun tuzilgan hujjatlarnin g to'g'riligi

	bajarilayotgan operatsiyalar, mahsulot, asosiy mijozlar va ta'minotchilar bayoni			iqtisodiy vaziyat o'zgarishiga sezuvchanlik darajasi	va qarzni tan olish yuzasidan imzolangan hujjatlar
biznes – reja tuzishda mijoz tajribasi		debitorlik va kreditorlik qarzlarni to'lash muddatlari, aylanma mablag'larining aylanishi	Aktivlarning qoldiq qiymati	maxsulotning raqobatbardoshligi	bank kredit siyosatiga kredit buyurtmasining mosligi

Yuqoridagi jadvalda qarz oluvchilarni kompleks tahlil qilish modeli «Olti S» qoidasi, CAMPARI, PARTS, tahlilining bahoviy tizimi kabi modellarni o'z ichiga qamrab olib, mazkur modellar qo'yidagicha tasniflanadi: AQShda mijozning kreditga layoqatlilikini baholash va kreditni qaytarish qobiliyatini aniqlashda minimal 6 «S» nomini olgan usuldan foydalaniladi. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi.

Bu usul bo'yicha mijozning qarzni to'lashga bo'lgan ma'suliyati va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval bank mijozning: o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi; qarzlarni to'lashda kamchiliklar bo'lganligi; kreditlanuvchi subyektning iqtisodda, bozorda qanday mavqega va obro'ga ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risida materiallarni olib, boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi.

Angliya banklarida mijozning kreditga layoqatlilikini aniqlashda savollar varag'i mavjud. Savollarga javoblar bankka kredit berish qarorini qabul qilishga imkon beradi. Quyida shunday savol-varaqning namunasini keltiramiz.

Avvalombor, qarz oluvchi (borrower) ga ta'rif beriladi.

Uning oilasi, obro'-e'tibori, sofdilligi, bankka tanishligi, bank bilan munosabatlari.

Boshqaruv tarkibi malakasi – ma'lumoti, mutaxassislik bo'yicha staji, boshqara olish qobiliyati;

To'lovga qobillik – to'lov intizomiga rioya qilish, biznes talablariga resurslarning mosligiga e'tibor beriladi. Keyin esa quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tekshiriladi:

1. **Purpose** (kredit maqsadi). Qonuniyligi, bank kredit siyosatiga tug'ri keladimi va boshqalar;

2. **Amount** (kredit summasi) kredit summasini hisoblashda aniqlik, tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmi? So'ralgan summa etarli, kam yoki ko'pligi.

3. **Repayment** (qaytarish) kredit qachon qaytariladi? Qaytarilish grafigi mavjudligi? Qaytarilish manbasi – kelajak daromadlari, qisqa muddatli kreditlar, aktivlarni sotish? Qarz oluvchi pul oqimlarini bashorat qilish;

4. **Viability** (kreditlanayotgan loyihaning realligi). Mazkur kredit qanchalik zarur? Texnik – iqtisodiy asoslar bajarilganmi? Mazkur kompaniya hisobvaraqlari tahlil qilinganmi? Qarz oluvchi balansi baholanganmi?

5. **Risks** (risklar). Bank va kompaniya uchun risklar manbalarini mujassamlanganligi riskning oldini olish chora – tadbirlarini amalga oshirish mumkinmi?

6. **Security** (ta'minlanganlik). Ta'minot taqdim etilmoqda. U mavjudmi? Garovlarni sug'urta polislarini tekshirish. Garov qiymati qanday? Garovni qayta baholash bo'lib o'tadimi, qachon?

7. **Profitability** (foydalilik) kredit shartnomasida daromad va xarajatlar aniq ta'riflanishi lozim. Foiz darajasi bank tortilgan riskka mos keladimi? Foiz darajasi, xarajatlarni qoplaydimi?

Yuqoridagilarni o'zida ifoda qiluvchi «Parts» va «CAMPARI» nomli karz oluvchi qobiliyatini tahlil qilish usullari keng tarqalgan bo'lib, unda:

Purpose- kreditning maqsadi;

Amount -- ssudaning hajmi;

Repayment – qarzni to'lash;

Term – muddati;

Security – ssudaning ta'minlanganligi kabilar tahlil qilinadi.

Kreditga layoqatlilikni aniqlashning **CAMPARI** usuli quyidagicha tavsiflanadi:

S - Character – reputatsiya, mijozning xarakteristikasi;

A - Ability - kreditni qaytarishga qobillik;

M - Margin - marja, daromadlilik;

P - Purpose - kreditlarning maqsadli yo'nalishlari;

A - Amount - kredit miqdori (hajmi);

R - Repayment - kreditni qaytarish shartlari;

I - Insurance - ta'minlanganligi, kreditlarni qaytarmaslik riski
uzatish usuli.

CAMPARI usuli Evropa va Amerika banklari amaliyotida ulkan shuhrat qozondi.

Mijozlarning kreditga layoqatliligini tekshirishning boshqa usullari ham mavjud. Mijozning kreditga layoqatliligi asosida mijozning faoliyatini xarakterlaydigan zarur axborotlarni yig'ish yotadi. AQSh va boshqa G'arb mamlakatlarida mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda banklar uchun maxsus huquqiy norma va qonunlar mavjud.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida, jumladan, AQSh bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda taniqli iqtisodchi olim E.Rid tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko'rsatkichlar usuli ham keng ko'lamda qo'llaniladi.

E.Rid tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko'rsatkichlar usuli o'z ichiga quyidagi to'rt guruhni oladi:

- likvidlilik ko'rsatkichlari;
- aylanish ko'rsatkichlari;
- mablag'larni jalb qilish ko'rsatkichlari;
- foydalilik ko'rsatkichlari¹.

Mazkur ko'rsatkichlardan to'liq foydalanish kelgusidagi to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini, mijozning likvidliligini, aylanma mablag'larining real aylanishini prognoz qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu usul kompaniyalarning umumiy moliyaviy holati va barqarorligini baholash imkonini ham beradi. Ushbu moliyaviy ko'rsatkichlar usuli qat'iy stavkadagi to'lovlarni qoplashni ta'minlashga etadigan foyda summasini aniqlash imkonini berishi bilan ham banklar uchun juda zarurdir. Ayni vaqtda, mazkur usulning ayrim kamchiliklari mavjud bo'lib, fikrimizcha, ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

- bozor barqarorligi ko'rsatkichlarini hisobga olishning iloji yo'qligi;
- mijozning uzoq muddatli davriy oraliqlarda to'lovga qobilligi zaif tarzda hisobga olingan.

¹ Рид Э., Коттер Р., Гилл Э., Смит Р. Коммерческие банки. Пер. с англ. - Москва: Прогресс, 1983. - С. 252.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda E.Ridning metodikasi bilan bir vaqtda J.Shim, J.Sigel, B.Nidlz, G.Anderson, D.Koldvel kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko'rsatkichlardan ham keng foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichlar quyidagi ko'rsatkichlarni:

- likvidlilikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- foydalilikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- uzoq muddatli to'lovga qobililikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- bozor mezonlariga asoslangan ko'rsatkichlarni¹ o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan taklif qilingan moliyaviy ko'rsatkichlar usulining E.Rid tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko'rsatkichlar usulidan farq qiluvchi afzal jihati, bizning nazarimizda, bozor mezonlariga asoslangan ko'rsatkichlarning mavjudligidadir. Bozor mezonlariga esa, quyidagilarni kiritish mumkin: aksiyalar baholarining daromadlarga nisbati; dividendlarning miqdori va bozor riski.

Bozor mezonlariga asoslangan ko'rsatkichlar yordamida aksiyalarning joriy birja kursini daromadlarga bo'lish yo'li bilan bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromad miqdori, aksiya egalarining joriy foydasi, korxonalar aksiyalari baholarining o'zgaruvchanligi aniqlanadi.

Rossiya Federatsiyasining bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda ko'plab moliyaviy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi².

Mazkur moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi o'z ichiga besh guruhga mansub bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi ko'rsatkichlarni oladi. Biz bu tizimning ayrim ko'rsatkichlarini mamlakatimiz bank amaliyotiga ham tadbiq etishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Jumladan:

Likvidlilik ko'rsatkichlari

$$JLK = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy passivlar}}$$

Bu yerda,

JLK – joriy likvidlilik ko'rsatkichi koeffitsenti

Ushbu ko'rsatkichning normativ darajasi Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra 1,25-2,0 ni tashkil etadi. Uning minimal darajasi 1,0 dan past bo'lmasligi kerak. Agar

¹ Shim Дж., Сигел Дж., Нидлз Б., Андерсон Г. Финансовый менеджмент. - Москва: Филинь, 1996.- С. 94-118.

² Лаврушин О.И. Банковское дело. 2-ое изд. - Москва: ФИС, 2000. -С. 224-231.

qarz majburiyatlari summasi uning joriy aktivlarining summasidan katta bo'lsa, bu mijoz kredit to'loviga qobiliyatsiz bo'lishi mumkin.

$$TLK = \frac{\text{Likvidli aktivlar}}{\text{Joriy passivlar}}$$

Bu yerda: TLK – tezkor likvidlilik ko'effitsienti

Ushbu ko'rsatkichning darajasini baholash uchun uning miqdori shu tarmoqning o'rtacha tezkorlik ko'effitsienti bilan taqqoslanadi. Agar korxonaning TLK darajasi o'rtacha tarmoq ko'rsatkichiga teng yoki undan yuqori bo'lsa, bu holat ijobiy baholanadi.

Aylanish ko'effitsiyentlari

$$\frac{ZA}{K} = \frac{\text{Zahiralarning o'rtacha qoldig'i}}{\text{Bir kunlik sotishdan olingan tushum}}$$

Bu yerda:

ZAK – zaxiralarning aylanish ko'effitsienti

Ushbu aylanish ko'effitsienti kunlarda o'lchanadi va aylanishning kunlarda olingan tezligini bildiradi.

$$\frac{ZA}{K} = \frac{\text{Bir kunlik sotishdan olingan tushum}}{\text{Zahiralarning o'rtacha qoldig'i}}$$

Ushbu aylanish ko'rsatkichi tahlil qilingan davrdagi aylanishlar sonini bildiradi.

$$DQAK = \frac{\text{Debitor qarzdorlikning o'rtacha qoldig'i}}{\text{Bir kunlik sotishdan olingan tushum}}$$

Bu yerda,

DQAK – debitor qarzdorlikning aylanish ko'effitsienti.

Bu ko'rsatkich kunlarda hisobga olinadi.

$$AKAK = \frac{\text{Mahsulotlarni sotishdan olingan tushum}}{\text{Asosiy kapitalni o'rtacha qoldiq qiymati}}$$

Bu yerda, AKAK–asosiy kapitalni aylanish koeffitsienti

$$AAK = \frac{\text{Mahsulatlarni sotishdan olingan tushum}}{\text{Aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

Bu yerda, AKK – aktivlarni aylanish koeffitsienti

Moliyaviy leveraj ko'rsatkichlari

$$MLK = \frac{\text{Qarz majburiyatlarining jami summasi}}{\text{Brutto aktivlar summasi}}$$

Bu yerda,

MLK – moliyaviy leveraj koeffitsienti.

$$MLK = \frac{\text{Qarz majburiyatlarining jami summasi}}{\text{Mijozning o'z kapitali}}$$

Ushbu ko'rsatkichning normativ darajasi Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra 0,25–0,60 ni tashkil etadi.

$$MLK = \frac{\text{Qarz majburiyatlarining jami summasi}}{\text{Mijozning aksionerlik kapitali}}$$

Ushbu ko'rsatkichning normativ darajasi Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra 0,66–2,00 ni tashkil etadi.

Foydalilik ko'rsatkichlari

$$FMK = \frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Mahsulotlarni sotishdan olingan tushum}}$$

Bu yerda,

FMK – foydaning me'yoriy ko'rsatkichi

$$FMK = \frac{\text{Sof operatsion foyda}}{\text{Mahsulotlarni sotishdan olingan tushum}}$$

$$FMK = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Mahsuldotlarni sotishdan olingan tushum}}$$

$$FOK = \frac{\text{Tahlil qilingan davr mobaynida olingan foyda}}{\text{Davr mobaynidagi foiz to'lovlari}}$$

Bu yerda,

FOK – foizlarni qoplash ko'rsatkichi

Ushbu ko'rsatkichning normativ darajasi Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra 02,0 – 7,0ni tashkil etadi.

$$FTQK = \frac{\text{Tahlil qilingan davr mobaynida olingan foyda}}{\text{Foizlar + Lizing to'lovlari + Dividentlar + Boshqa belgilangan stavkadagi to'lovlar}}$$

Bu yerda, FTQK – foizli to'lovlarni qoplash ko'rsatkichi

Agar foizlar va lizing to'lovlari mahsulot tannarxiga kiritilsa, dividendlar va boshqa belgilangan stavkadagi to'lovlar esa, foyda hisobidan to'lansa va moliyaviy faoliyatning natijasi sifatida balans foyda olinsa, u holda FTQKning sur'atida quyidagi ko'rsatkichlar bo'ladi:

Balans foyda + Foizli to'lovlar + Lizing to'lovlari

Rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar usulidan tashqari pul oqimini baholash usulidan ham keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Mijozning pul oqimini baholashda ikki xil usuldan foydalaniladi:

- bevosita usul;
- bilvosita usul.

Bevosita usulda mijozning pul oqimi miqdori mijoz faoliyati yo'nalishi bo'yicha kirim va chiqimning joriy sanadagi holatini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Bilvosita usulda esa, dastlabki bo'g'in foyda hisoblanadi. Shuning uchun olingan foydani pul mablag'lari miqdorining o'zgarishi bilan bog'lash imkoniyati yuzaga keladi. Bevosita usulda esa, dastlabki bo'g'in tushum hisoblanadi va olingan foydani pul mablag'lari miqdorining o'zgarishi bilan bog'lash imkoniyati yuzaga kelmaydi.

Xalqaro bank amaliyotida umumiy pul oqimi ko'rsatkichi orqali mijoz pul oqimining holati baholanadi. Ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Umumiy pul oqimi ko'rsatkichi} = \frac{\text{Pul oqimining umumiy summasi}}{\text{Qarz majburiyatlari}}$$

Umumiy pul oqimi ko'rsatkichiga ko'ra mijozning kredit to'loviga layoqatliligi quyidagi shkala orqali baholanadi:

Pul oqimining majburiyatlarga nisbati bo'yicha kredit to'loviga layoqatlilik quyidagicha baholanadi: 1-sinf (0,75); 2-sinf (0,30); 3-sinf (0,25); 4-sinf (0,20); 5-sinf (0,20); 6-sinf (0,15).

Umumiy pul oqimi ko'rsatkichining 0,30 dan 0,75 gacha bo'lgan darajasiga ega bo'lgan mijozlar bank kreditlaridan foydalanish uchun erkin sharoitga ega. 0,25 dan boshlab mijozning kredit to'loviga layoqatlilik darajasi pasayadi.

Mijozning pul oqimini tahlil qilish korxonani boshqarishning zaif jihatlari xususida xulosalar qilish imkonini beradi. Mijozga uzoq muddatli kredit berish uchun uning pul oqimiga doir kamida uch-yillik ma'lumotlarni hamda pul oqimining prognoz ko'rsatkichlarini tahlil qilish talab etiladi.

Mijozning pul oqimini tahlil qilish yangi kreditlar berish chegarasini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda asosan moliyaviy ko'rsatkichlar usulidan va mijozning pul oqimini baholash usulidan keng foydalaniladi va ushbu usullar mijozning kredit to'loviga layoqatliligi to'g'risida aniq va ishonchli xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Mijozga kredit ajratish to'g'risidagi qaror qabul qilish, bank xodimlari va rahbarlari uchun mas'uliyatli jarayon hisoblanib, ushbu jarayonda bank mutaxassislari mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlash jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishi, har bir mijozga uning faoliyatiga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida e'tibor qaratmog'i zarurdir.

Mijozning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlarini aniqlash va qaror qabul qilish tavakkalchilikka asoslanmasdan aniq hisob-kitoblarni talab etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Aylanma mablag', debitor qarzdorlik, jismoniy shaxs, kredit to'loviga layoqatlilik, kreditor qarzdorlik, moliyaviy koeffitsient, pul mablag'lari, pul oqimi, skoring, tovar-moddiy zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, yuridik shaxs, qisqa muddatli kredit.

Takrorlash uchun savollar

1. Aylanma mablag' deganda nimani tushunasiz?
2. Aylanma mablag'larni to'ldirishning qanday manbalari mavjud?
3. Korxonalarining aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadiga beriladigan qisqa muddatli kreditlarning miqdori qanday aniqlanadi?
4. Kredit to'loviga layoqatlilik deganda nimani tushunasiz?
5. Bank mijozlarining kredit to'loviga layoqatliligini baholashning qanday usullari mavjud?
6. Korxonalarining kredit to'loviga layoqatliligi moliyaviy koeffitsientlar orqali qanday aniqlanadi?
7. Korxonalarining kredit to'loviga layoqatliligi pul oqimini baholash usuli orqali qanday aniqlanadi?
8. Yuridik shaxslarning kredit to'loviga layoqatliligi skoring usuli orqali qanday aniqlanadi?

XIII BOB. ALOHIDA KREDIT TURLARI VA USULLARI

13.1. Kreditning turlari

Kreditning turi deganda uning ma'lum belgilariga ko'ra o'ta aniqlikda shakllantirilgan tavsifi tushuniladi.

Kreditlar muddatiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- qisqa muddatli kreditlar;
- o'rta muddatli kreditlar;
- uzoq muddatli kreditlar.

Kreditlarning muddati bo'yicha turlarga ajratish dunyo mamlakatlarida bir-biridan farq qiladi. Masalan, AQShda muddati 1-yildan 8-yilgacha bo'lgan kreditlar o'rta muddatli kreditlar hisoblanadi. Germaniyada esa, 1-yildan 6-yilgacha muddatdagi kreditlar o'rta muddatli kreditlar hisoblanadi. O'zbekistonda esa, umuman o'rta muddatli kreditlar toifasi mavjud emas. Demak, respublikamizda 1-yilgacha muddatga berilgan kreditlar qisqa muddatli, 1-yildan ortiq har qanday muddatga berilgan kreditlar uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadiga berilsa, ularning o'rta va uzoq muddatli kreditlari investitsion xarajatlarni moliyalashtirish maqsadiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining muddatiga ko'ra tarkibi¹

30-jadval

	Yillar				
	2010	2011	2012	2013	2014
Kreditlar, trln. so'm	11539	15652	20392	26530	34809
Brutto kreditlar hajmida qisqa muddatli kreditlarning salmog'i, %	24,8	24,6	23,2	20,7	20,4
Brutto kreditlar hajmida uzoq muddatli kreditlarning salmog'i, %	75,2	75,4	76,8	79,3	79,6

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-2014-yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining brutto kreditlari hajmi va ularning umumiy hajmida uzoq muddatli kreditlarning salmog'i o'sish tendentsiyasiga, qisqa muddatli kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i esa, pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining kreditlash salohiyatini tobora oshib borayotganligidan va investitsion kreditlar ajratishga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Kreditlar ta'minlanganligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ta'minlanmagan kreditlar;
- qisman ta'minlangan kreditlar;
- to'liq ta'minlangan kreditlar.

Ta'minlanmagan kreditlar deganda hech qanday ta'minotsiz berilgan ishonchli kreditlar tushuniladi. Bunday kreditlar tijorat banklarining to'lovga qobilligi yuqori bo'lgan ishonchli mijozlariga beriladi.

Qisman ta'minlangan kreditlar deganda ta'minot summasi kreditning asosiy qarz summasi va foizini to'liq qoplashga etmaydigan kreditlarga aytiladi.

To'liq ta'minlangan kreditlar deganda ta'minot summasi kreditning asosiy qarz summasi va foizini to'liq qoplashga etadigan kreditlarga aytiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talabi bo'yicha, tijorat banklari kreditlari uchun qabul qilingan ta'minot summasi kredit bo'yicha qarzdorlik summasiga nisbatan kamida 125% bo'lishi lozim.

Kreditlar takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish jarayoniga beriladigan kreditlar;
- ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish uchun beriladigan kreditlar;
- iste'mol maqsadi uchun beriladigan kreditlar.

Tovarlar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda tijorat banklari beradigan kreditlar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ishlab chiqarilgan tovarlarni xarid qilish uchun iste'molchilar har doim etarli darajada pul mablag'lariga ega bo'lmaydi. Shu sababli, ular tovarlarning ma'lum qismini tijorat banklarining kreditlari hisobidan xarid qiladilar.

Kredit bahosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- bepul (tekin) kreditlar;
- arzon kreditlar;
- qimmat kreditlar.

Garchi foiz to'lashlilik kreditning printsiplaridan biri bo'lsa-da, ba'zan kreditlar foizsiz beriladi. Bunga misol qilib, Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki tomonidan qashshoq mamlakatlarga berilayotgan foizsiz kreditlarni keltirish mumkin. Xususan, Afrikaning Saxara davlatidan janubda joylashgan barcha mamlakatlarda ocharchilik hukm surmoqda. Mazkur mamlakatlarga ijtimoiy maqsadlar uchun foizsiz kreditlar berilmoqda.

Arzon kredit deganda, odatda, foiz stavkasi, ya'ni bahosi bozor stavkasidan past bo'lgan kreditlarga aytiladi.

Kreditlarning bahso ssuda kapitallari bozorida shakllanadi. Ssuda kapitallari bozorining ikki segmenti mavjud bo'lib, pul bozori segmentida qisqa muddatli kreditlarning bahosi shakllanadi. Kapitallar bozori segmentida esa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarning bahosi shakllanadi.

Qimmat kreditlar deganda foiz stavkasi bozor stavkasidan yuqori bo'lgan kreditlarga aytiladi. Odatda, risk darajasi yuqori bo'lgan bitimlar banklarning qimmat kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining-yillik qayta moliyalash stavkasi, tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o'rtacha-yillik stavkasi va inflyatsiyaning-yillik darajasi¹, foizda

31-jadval

	Yillar				
	2010	2011	2012	2013	2014
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	14,0	12,0	12,0	12,0	10,0
Tijorat banklari kreditlarining o'rtacha-yillik foiz stavkasi	13,4	12,5	13,5	13,0	12,5
Inflyatsiyaning-yillik darajasi	7,3	7,6	7,0	6,8	6,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-2014-yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasini pasayish tendentsiyasini kuzatilganligi tijorat banklari kreditlarining o'rtacha-yillik foiz stavkasini pasayishiga imkon bergan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganlaridek, «bank tizimining mustahkamlanishi 2014-yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi»¹.

Shuningdek, yuqoridagi jadval ma'lumotlari respublikamiz tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasining ijobiy darajaga ega ekanligini, ya'ni inflyatsiya darajasidan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Kreditlar foiz stavkasining turiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- suzuvchi stavkaga ega bo'lgan kreditlar;
- qat'iy belgilangan stavkaga ega bo'lgan kreditlar.

Tijorat banklari har doim suzuvchi stavkada kreditlar berishdan manfaatdor bo'ladi. Buning sababi shundaki, kredit suzuvchi stavkada berilganda, uning foiz stavkasi qanday o'zgarishidan qat'iy nazar, bank oladigan daromad, ya'ni marja yoki spred, o'zgarmasdan qoladi.

Kredit oluvchi har doim qat'iy belgilangan stavkaga ega bo'lgan kreditlarni olishdan manfaatdor bo'ladi. Chunki, bunda kreditning bahosi o'zgarmasdan saqlanib qoladi. Agar kredit suzuvchi stavkada olingan bo'lsa, u holda, kreditning bahosining oshishi kredit oluvchining foiz to'lovlari miqdorining oshishiga olib keladi.

Kreditlar tarmoq xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- sanoatga berilgan kreditlar;
- qishloq xo'jalik kreditlari;
- qurilish kreditlari;
- savdo kreditlari va h.k.

Kreditlash obyektlariga ko'ra kreditning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tovar-moddiy qimmatliklarni sotib olish uchun berilgan kreditlar;
- ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar (masalan, respublikamizda paxta va g'allani etishtirish xarajatlari imtiyozli kreditlar hisobidan moliyalashtiriladi);
- mijozlarning to'lov aylanmasidagi uzilishni qoplash uchun berilgan kreditlar.

Kreditning maqsadi yo'nalishi va kredit munosbatlarida ishtirok etuvchi subyektlarga ko'ra kreditning quyidagi turlarini ajartib ko'rsatish mumkin:

¹ Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: «O'zbekiston», 2015. - B. 6.

- sinditsiyali kreditlar;
- ipoteka kreditlari;
- xalqaro kreditlar.

Sinditsiyali kredit deganda bitta obyektни yoni loyihani kreditlash uchun ikki yoki undan ortiq bank tomonidan berilgan kreditga aytiladi.

Bosh bank bilan ishtirokchi banklar o'rtasida Bosh bitim tuziladi va ushbu bitimga asosan bank sindikati tashkil etiladi.

Bank sindikati bilan kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Sinditsiyali kreditlar berish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

A. Etakchi bankning to'lovga qobil va likvidli bo'lishi.

B. Etakchi bank sinditsiyali kreditning kamida 25 foizini o'zining resurslari hisobidan beradi.

V. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarni buzmaslik:

– bir mijozga yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga beriladigan ta'minlangan kreditlarning maksimal miqdori;

– bir mijozga yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga beriladigan ta'minlanmagan kreditlarning maksimal miqdori;

– tijorat banki tomonidan beriladigan yirik kreditlarning maksimal miqdori;

– insayderlarga beriladigan kreditlarning maksimal miqdori.

G. Kredit oluvchi subyektning kredit to'loviga layoqatli bo'lishi.

D. Kredit bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni (kredit shartnomasi, Bosh bitim va boshqalar) yuridik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirish va ushbu jarayonni nazorat qilish.

Hozirgi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda suzuvchi stavkadagi sinditsiyali kreditlardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Buning sababi shundaki, mazkur mamlakatlar tijorat banklarining depozitlari tarkibida suzuvchi stavkalarda jalb qilingan depozitlarning salmog'i oshib bormoqda. Bu esa, suzuvchi stavkalardagi sinditsiyali kreditlar hajmining oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, suzuvchi stavkalarda jalb qilingan depozitlar hisobidan qat'iy belgilangan stavkalardagi sinditsiyali kreditlarni berish tijorat banklari faoliyatida kredit riskini chuqurlashtirish xavfini yuzaga keltiradi.

Sinditsiyali kreditlar bo'yicha marja miqdori 0,5 foizdan 2,5 foizgacha bo'lgan darajani tashkil etadi.

Ipoteka krediti deganda qo'zg'almas mulkni garovga olish yo'li bilan beriladigan kreditlarga aytiladi.

Ipoteka kreditlari berish amaliyoti quyidagi ikki yo'nalishga ega:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va aholiga ipoteka kreditlari berish;

2. Ipoteka kreditlarini ikkilamchi bozorda sotish.

O'zbekiston Respublikasida ipoteka kreditlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 7-yanvardagi PQ-2282-sonli «2015-yilda Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi dasturi va 2016-yilgi qurilishning asosiy parametrlari to'g'risida»gi qarori ipoteka kreditlari berish amaliyotining muhim huquqiy asosi hisoblanadi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun beriladigan ipoteka kreditlari eng kam ish haqining 1000 barobari miqdorida, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50% darajasidagi foiz stavkasi bo'yicha beriladi.

Uy-joy qurish yoki sotib olish uchun beriladigan ipoteka kreditlari uy-joy qiymatining 75 foizigacha miqdorda beriladi. Uy-joy qiymatining qolgan 25% kredit oluvchining o'z mablag'lari hisobidan dastlabki badal sifatida to'lanishi lozim.

Xalqaro kreditlar – bu ssuda kapitalining davlatlararo harakati bo'lib, ushbu harakat valyuta va tovar ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, foiz to'lashlilik va muddatlilik shartlari asosida berish natijasida berish natijasida yuzaga keladi.

Xalqaro kreditlarning ikki asosiy turi mavjud:

1. Xalqaro bank krediti.

2. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti banklar tomonidan valyutalarda beriladi.

Xalqaro tijorat krediti firmalar, kompaniyalar tomonidan tovarlar ko'rinishida beriladi.

Xalqaro kreditlarning bahosi xalqaro ssuda kapitallari bozorida shakllanadi va ular har kuni e'lon qilinadi. Dunyodagi eng yirik xalqaro ssuda kapitallari bozori bo'lib, London ssuda kapitallari bozori hisoblanadi.

London ssuda kapitallari bozorida har kuni mahalliy vaqt bilan soat 11.00 da etakchi xorijiy valyutalardagi depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari aniqlanadi va butun dunyoga e'lon qilinadi.

Xorijiy valyutalardagi depozitlarning bozor stavkasi **LIBOR** deb, kreditlarning bozor stavkasi esa, **LIBID** deb ataladi.

Xalqaro kreditlar ikki xil stavkada – suzuvchi va qat'iy belgilangan stavkalarda beriladi.

Xalqaro kreditlarning printsiplari quyidagilardan iborat:

- qaytarib berishlik;
- muddatlilik;
- foiz to'lashlilik;
- ta'minlanganlik.

13.2. Zamonaviy kreditlash usullari

Hozirgi davrda tijorat banklari amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy kreditlash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) aylanma bo'yicha kreditlash usuli;
- b) qoldiq bo'yicha kreditlash usuli;
- v) aylanma-qoldiq usuli

Aylanma bo'yicha kreditlash usulida kredit, mijozning, ya'ni kredit oluvchi mijozning xarajatlarini, uning resurslari bo'shagunga qadar, moliyalashtirishga beriladi. Kredit miqdori ssudaga bo'lgan ehtiyoj oshib borishi bilan ortib boradi va ushbu ehtiyojning kamayishiga qarab qoplanib boradi.

Aylanma bo'yicha kreditlash usuli kredit oluvchining ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi.

Qoldiq bo'yicha kreditlash usulida kredit kredit oluvchining tovar-moddiy qimmatliklarining qoldig'i va xarajatlarining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan ehtiyojga qarab beriladi. Masalan, korxonada tovar-moddiy qimmatlikni o'zining mablag'lari hisobidan sotib oldi va shundan keyingina bankka ssuda so'rab murojaat qildi. Bunday sharoitda kredit xarajatlarni avanslash uchun emas, balki tovar-moddiy qimmatliklarning qoldig'iga, qoplash tartibida beriladi.

Amaliyotda kreditlashning yuqorida qayd etilgan har ikkala usuli uyg'unlashib, kreditlashning yangi usulini, ya'ni aylanma-qoldiq usulini yuzaga keltiradi.

Ushbu usulda kredit dastlab tovar-moddiy qimmatliklar va xarajatlari shakllanishining dastlabki bosqichida beriladi, keyingi bosqichda esa, kredit mijozning bank oldidagi muddatli majburiyatining qoldig'i asosida so'ndiriladi.

Kreditlashning aylanma-qoldiq usulida kredit aniq belgilangan muddatlarda so'ndiriladi, biroq, bu muddatlar resurslarning bo'sh muddatlariga mos kelmasligi mumkin.

Kreditlashning har uchala usulida kreditlarning harakati mijozning ssuda hisobraqami orqali amalga oshiriladi.

Berilgan kreditlar ssuda hisobraqamining debetida, kreditning qaytarilishi uning kreditida aks etadi.

Kredit oluvchi korxonaning aylanmasiga bog'liq ravishda ssuda hisobraqamining uch turini ajratib ko'rsatish mumkin:

- aylanma-to'lov ssuda hisobraqami;
- qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami;
- aylanma-qoldiq ssuda hisobraqami.

Aylanma-to'lov ssuda hisobraqami mijozga barcha majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni, jumladan, etkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha yuzaga kelgan kreditor qarzdorlikni, soliqlar bo'yicha qarzdorlikni va boshqa to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Aylanma-qoldiq ssuda hisobraqami ham barcha to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ammo qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun mijozning kreditlash obyekti qancha bo'lsa, shuncha qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami ochish kerak.

Zamonaviy kreditlash usullaridan foydalanish samaradorligi bevosita qo'llanilayotgan to'lovlarning ketma-ketligiga bog'liq.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida to'lovlarning kalendar ketma-ketligi qo'llaniladi. Bunda qaysi qarzdorlik oldin paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha birinchi bo'lib to'lanadi. Shu sababli, tijorat banklari kredit olgan mijozning pul oqimini aniq baholash imkoniga ega bo'ladi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko'pchiligida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida to'lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo'llaniladi. Bunda bank mijozining davlat byudjeti oldidagi qarzdorligini to'lashga ustuvorlik beriladi. Ayrin hollarda, soliq inspeksiyalari kelgusi davrdagi soliq qarzdorligi bo'yicha inkasso talabnomasi qo'yadilar. Natijada, mijozning joriy davrdagi pul mablag'lari oqimi zaiflashib, berilgan kreditni o'z vaqtida undirish imkonini bermasligi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida lizing obyektini qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilmagunga qadar tijorat banklarining lizing kreditlariga foiz hisoblashning mumkin emasligi, Respublika valyuta birjasining konvertatsiya uchun tashlab berilgan kreditlarga konvertatsiya amalga oshirilgunga qadar foiz hisoblamasligi ssuda hisobraqamlaridan

foydalanish jarayonida hisobga olinadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

13.3. Kreditlash shakllari

Tijorat banklari faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1. Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shakli.

Ushbu shakl O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida keng qo'llaniladigan kreditlash shakli hisoblanadi.

Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kredit berish to'g'risidagi qaror qabul qilingandan keyin ssuda hisobraqami ochiladi va kredit bir marotabalik to'lov shaklida mol etkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchiga tashlab beriladi.

Kreditning maqsadlilik printsipli mavjud bo'lganligi sababli, kredit summasini kredit oluvchining joriy hisobraqamiga tashlab berishga ruxsat etilmaydi.

Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shaklining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

– kreditdan foydalanish samaradorligi ta'minlanmasligi mumkin, ya'ni mol etkazib beruvchi tomonidan tovar o'z vaqtida etkazilmay qolishi mumkin, mijoz esa, kredit uchun foiz to'layveradi;

– berilgan kreditdan foydalanilishi ustidan nazorat qilishning iloji yo'q. Chunki, kredit summasi to'liq mol etkazib beruvchining joriy hisobraqamiga tashlab berildi.

2. Mijozni kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash shakli.

Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kreditlash limiti ajratiladi va ushbu limitdan foydalanish davri belgilanadi. Shuningdek, kreditning foiz stavkasi va mijozdan undiriladigan bir marotabalik komission to'lov stavkasi belgilanadi.

Mijozdan qo'shimcha ravishda undiriladigan komission to'lov kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlashda tijorat banki uchun likvidlilik riskining mavjudligi bilan belgilanadi. Chunki, mijoz talab qilgan har qanday vaqtda bank kreditni chiqarib berishi shart.

Kredit liniyasining quyidagi turlari mavjud:

A) qayta tiklanadigan kredit liniyasi;

B) qayta tiklanmaydigan kredit liniyasi;

V) bitimning ma'lum shartlariga asoslangan kredit liniyasi.

Qayta tiklanadigan kredit liniyasi jalb qilingan resurslarga doimiy ehtiyoji bo'lgan mijozlarga ochiladi. Xalqaro bank amaliyotida qayta tiklanadigan kredit liniyalari ishonchli mijozlar uchun 5-7-yilga ochiladi. Shu davr mobaynida mijoz istalgan vaqtda bankning kreditidan foydalanilishi mumkin. Biroq, tijorat banki kredit shartnomalari shartlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish huquqini saqlab qoladi.

Qayta tiklanmaydigan kredit liniyalarida mijoz o'ziga ajratilgan limitni to'liq ishlatib bo'lishi yoki limitdan foydalanish muddati tugashi bilan kredit liniyasidan foydalanish huquqidan mahrum bo'ladi.

Tijorat banki va mijoz o'rtasida tuzilgan bitimning ma'lum shartlariga asoslangan kredit liniyasi, odatda, ma'lum davrda etkazib beriladigan tovarlar haqini to'lash hamda ma'lum davrda amalga oshiriladigan xarajatlarni moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Kredit liniyasining ushbu turida beriladigan kreditlar miqdori aniq olingan operatsiya doirasida yoki bitimning ma'lum shartlari bilan cheklangan bo'ladi.

Kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash shaklining afzalliklari:

- * mijoz har safar kredit so'rab bankka murojaat qilish zaruriyatidan xolos bo'ladi;

- * ajratilgan kreditlash limitining faqat foydalanilgan qismi uchun foiz to'lanadi;

- * bank ma'lum davr mobaynida barqaror foizli daromad oladi;

- * tijorat banki kreditlash shartnomalari shartlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Agar kredit shartnomasi shartlarining mijoz tomonidan buzilishi yuz bersa, bank kredit liniyasini vaqtinchalik yopib qo'yio'i mumkin.

13.4. Kreditlashning overdraft shakli

Kreditlashning overdraft shakli ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda (Angliya, Shotlandiya, Irlandiya, Uels, Kanada) yaxshi rivojlangan.

Overdraft krediti doimiy pul tushumiga ega bo'lgan ishonchli mijozlarga beriladi va ular faoliyatida yuzaga keladigan qisqa muddatli pul mablag'lari etishmovchiligiga barham berish maqsadida beriladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamini debetli qoldig'i summasiga beriladi. Tijorat banki va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga ko'ra, mijozga bank tomonidan kreditlash limiti ajratiladi.

Mijozning joriy hisobraqamida pul mablag'larining etishmaslik

holati yuzaga kelganda, ya'ni debetli qoldiq hosil bo'lganda, bank ajratilgan limit doirasida overdraft krediti ajratadi.

Overdraft kreditida ssuda hisobraqami ochilmaydi. Kompyuter dasturi berilgan overdraft kreditini mijozlar toifasi bo'yicha avtomatik ravishda hisobga oladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamiga pul kelib tushishi bilan avtomatik ravishda qoplanadi.

Overdraft kreditining foiz stavkasi muddatli kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo'ladi. Buning sababi shundaki, overdraft kreditlari ta'minlanmagan kreditlar bo'lib, ularning risk darajasi nisbatan yuqoridir.

Overdraft kreditlarida garov ta'minotining mavjud emasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– kredit oluvchining joriy hisobraqamida qachon pul mablag'lari etishmasligini oldindan bilish qiyin;

– kredit oluvchining joriy hisobraqamida qancha miqdorda pul mablag'lari etmay qolishini oldindan bilib bo'lmaydi.

Angliya bank amaliyotida overdraft kreditlari bo'yicha kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida mijozlarga har oyining so'nggi kunida joriy hisobraqamning debetli qoldig'ini ta'minlash sharti qo'yiladi. Shu tariqa, overdraft krediti bo'yicha qarzdorlikni keyingi oyga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning joriy hisobraqamining debetli qoldig'ini yuzaga kelishiga ruxsat etilmaydi.

13.5. Kreditlashning kontokorrent shakli

Kreditlashning kontokorrent shakli nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda (Germaniya, Avstriya, Shveytsariya) yaxshi rivojlangan.

Kreditlashning kontokorrent shaklida mijozning joriy hisobi yopiladi va uning o'rniga kontokorrent hisobraqami ochiladi.

Kredit olgan mijozning faoliyatidan keladigan barcha tushumlar kontokorrent hisobraqamining kreditida aks etadi, uning majburiyatlari yuzasidan barcha to'lovlari kontokorrent hisobraqamining debetida aks etadi.

Kontokorrent kreditida mijozga kreditlash limiti ajratiladi.

Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamining debetli qoldig'i summasiga beriladi.

Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamiga pul mablag'lari kelib tushishi bilan avtomatik ravishda qoplanadi.

Kontokorrent krediti kredit to'loviga layoqatliliği bo'yicha birinchi toifaga mansub bo'lgan mijozlarga garovsiz beriladi. Buning sababi shundaki, kontokorrent risk darajasi yuqori bo'lgan kreditlash shakli hisoblanadi.

Kontokorrent krediti yiriklashtirilgan kreditlash obyektiga beriladi.

Kontokorrent kreditining debetli qoldig'i uchun mijoz bankka, uning kreditli qoldig'i uchun bank mijozga foiz to'laydi. Bunda mijoz bankka kredit uchun foiz to'laydi, bank esa, mijozga talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlari qoldig'iga to'lanadigan foiz darajasida (0,5-1,0%) foiz to'laydi.

Shunisi ahamiyatliki, kontokorrent krediti qaytarilmaydigan moliyalashga aylanib qolmasligi lozim. Shu sababli, kreditlashning ushbu shaklida kredit riskini chuqurlashishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida quyidagi choralar qo'llaniladi:

* mijozning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini 80-90 foizi o'z kapitali hisobidan qoplanishi lozim;

* kontokorrent krediti bo'yicha qarzdorlikni keyingi oyga o'tishiga yo'l qo'yimaslik lozim. Buning uchun mijozga har oyning so'nggi ish kunida kontokorrent hisobarqamining kreditli qoldig'ini ta'minlash sharti qo'yilishi lozim.

Kontokorrent krediti, odatda, mijozning joriy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga mo'ljallangan. Ammo amaliyotda kontokorrent kreditidan uzoq muddatli investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lgan ayrim xarajatlarni qisqa muddatli moliyalashtirishda ham foydalaniladi. Ushbu maqsadlarga berilgan kontokorrent krediti uzoq muddatli kredit berilishi bilan so'ndiriladi.

13.6. Kreditlashning faktoring shakli

Kreditlashning faktoring shaklida tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari tijorat banki tomonidan diskont stavkasi bo'yicha regress huquqi bilan yoki regress huquqsiz mol etkazib beruvchidan sotib olinadi.

Tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari regress huquqi bo'yicha sotib olinganda, agar sotib oluvchi to'lovga noqobil bo'lib qolsa, tijorat bankida to'lab berilgan summani mol etkazib beruvchidan undirish huquqi saqlanib qoladi.

Tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari regress huquqsiz sotib olinganda, agar sotib oluvchi to'lovga noqobil bo'lib qolsa, tijorat

bankida to'lab berilgan summani mol etkazib beruvchidan undirish huquqi bo'lmaydi va zarar to'liq bankning zimmasiga yuklanadi.

Faktoring shaklida kreditning foizidan tashqari, faktoring xizmati ko'rsatganligi uchun mijozdan qo'shimcha komission to'lov undiriladi.

«Xalqaro faktoring to'g'risida»gi xalqaro konventsiyaga (UNIDRUA) asosan operatsiya faktoring operatsiyasi sifatida tan olinishi uchun quyidagi 4 talabdan kamida 2 tasi bajarilishi lozim:

1. Qarz majburiyatlarini oldindan to'lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi.
2. Mol etkazib beruvchining buxgalteriya hisobini yuritish.
3. Mol etkazib beruvchining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilish.
4. Mol etkazib beruvchini kredit riskidan sug'artalashning mavjudligi.

Kreditlashning faktoring shaklining afzalliklari:

* tijorat banki ham foiz ko'rinishida, ham komisson haq ko'rinishida daromad oladi;

* mol etkazib beruvchining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi;

* korxonalar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmi qisqaradi.

13.7. Kreditlashning forfeyting shakli

Kreditlashning forfeyting shaklida uzatma tijorat veksellari, ya'ni trattalar tijorat banki tomonidan, diskont stavkasi bo'yicha, mol etkazib beruvchidan regress huquqsiz sotib olinadi.

Forfeyting mol etkazib beruvchini kreditlash shakli hisoblanadi.

Forfeyting kreditlari tijorat bankiga diskont stavkasi ko'rinishida daromad keltiradi. Ammo forfeyting kreditlarining risk darajasi yuqoridir. Agar sotib oluvchi to'lovga noqobil bo'lib qolsa, zarar to'liq tijorat bankining zimmasida qoladi. Chunki, tijorat bankida mol etkazib beruvchidan to'lovni undirish huquqi bo'lmaydi. Shu sababli, sotib oluvchining to'lovga qobiliyatini tahlil qilish va baholash kreditlashning forfeyting shaklidagi kredit riski darajasini pasaytirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Forfeyting kreditlari mol etkazib beruvchilarning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida kreditlashning forfeyting shakli mavjud emas. Buning asosiy sababi – trattalar muomalasining mavjud emasligidir.

13.8. Sinditsiyali kreditlash

Sinditsiyali kredit deganda ikki yoki undan ortiq bank tomonidan bitta loyihani yoki obyektini kreditlash uchun beriladigan kreditga aytiladi.

Sinditsiyali kreditlashni amalga oshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Sinditsiyali kreditlashning tashaabbuskori bo'lgan tijorat banki (u Etakchi bank hisoblanadi) kreditlanishi ko'zda tutilayotgan investitsion loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanganligini va kredit oluvchi mijozning to'lovga qobilligini baholashni amalga oshiradi. Ayrim hollarda, baholash yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan moliyaviy maslahatchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasi ijobiy bo'lgandan so'ng, Etakchi bank, sinditsiyali kreditlashda ishtirok etishini so'rab boshqa tijorat banklariga Memorandum jo'natadi. Memorandumda bitimning asosiy shartlari o'z aksini topgan bo'ladi.

2. Sinditsiyali kreditlashda ishtirok etish istagini bildirgan tijorat banklari bu haqda Etakchi bankni yozma ravishda xabardor qiladi. Shundan so'ng Etakchi bank va ishtirokchi banklar o'rtasida sinditsiyali kreditlash jarayonida tomonlarning huquqlari va majburiyatlari hamda sinditsiyali kreditlash shartlari bo'yicha muzokara bo'lib o'tadi. Muzokara tugagandan so'ng Bosh bitim imzolanadi va unga ko'ra bank sindikati tashkil qilinadi.

Bosh bitimda Etakchi bankning huquq va majburiyatlari, ishtirokchi banklarning huquq va majburiyatlari o'z aksini topadi.

3. Sindikat tashkil qilingandan so'ng, kredit oluvchi mijoz va Sindikat o'rtasida kredit shartnomasining shartlari muhokama qilinadi va kredit shartnomasi imzolanadi.

Kredit shartnomasida sinditsiyali kreditlashning quyidagi muhim shartlari o'z ifodasini topadi:

- * sinditsiyali kreditning maqsadi;
- * sinditsiyali kreditning summasi;
- * kreditning muddati;
- * foiz stavkasi darajasi va hisoblash tartibi;

- * kredit beriladigan valyuta turi;
- * kreditni berish va qaytarish tartibi;
- * komission to'lovlar miqdori va ularni undirish tartibi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotini o'rganish natijalari ko'rsatadiki, kredit shartnomasi imzolangandan so'ng mijoz to'lov topshiriqnomasini Etakchi bankka olib keladi. Chunki, uning asosiy joriy hisobraqami Etakchi bankda ochilgan bo'ladi.

Ishtirokchi banklar o'zlarining sinditsiyali kreditlashdagi ulushini Etakchi bankka o'tkazib berishadi. Kredit hisobidan to'lovni faqat Etakchi bank amalga oshiradi.

Sinditsiyali kreditni qaytarish mijozning asosiy joriy hisobraqamidan amalga oshiriladi. Etakchi bank har bir tijorat bankning sinditsiyali kreditlashdagi ulushiga qarab, ularga kreditning asosiy qarz summasi va foizini to'lab beradi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan sinditsiyali kreditlashni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005-yil 16-iyuldagi 613-sonli «Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom (yangi tahrir)» yo'riqnomasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 20-avgustda 1509-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Ushbu Yo'riqnomaga asosan:

- sinditsiyalashtirilgan kreditlar faqat yuridik shaxslarga beriladi;
- tijorat banklari tomonidan sinditsiyalashtirilgan kreditlash qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida amalga oshiriladi;
- sinditsiyalashtirilgan kreditni berish qarz oluvchi va ishtirokchi banklar o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi;
- sinditsiyalashtirilgan kredit berish muddati yirik investitsiya loyihalarini qoplanish muddatiga bog'liq holda kredit shartnomasida belgilanadi;
- sinditsiyalashtirilgan kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori sinditsiyalashtirilgan kredit to'g'risidagi kelishuv shartlariga ko'ra qarz oluvchi va ishtirokchi banklar o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi asosida belgilanadi.
- zarar ko'rib ishlovchi, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga hamda samarasiz investitsiya loyihalarini taqdim qilgan xo'jalik subyektlariga sinditsiyalashtirilgan kreditlar berilmaydi.

Sinditsiyalashtirilgan kredit olgandan keyin moliyaviy ahvoli yomonlashgan qarzdordan berilgan kreditlar oʻrnatilgan tartibda muddatidan avval undirib olish chora-tadbirlari koʻrilishi lozim. Bu qoida kredit shartnomasida albatta qayd etilgan boʻlishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisida Nizom (yangi tahrir)» yoʻriqnomasiga asosan, xorijiy amaliyotdan farqli ravishda, ishtirokchi banklar va qarz oluvchi oʻrtasida kredit shartnomasi tuzilgandan soʻng, har bir ishtirokchi-bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash toʻgʻrisidagi kelishuvda qayd etilgan shartlar asosida qarz oluvchiga oʻz bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvaragʻi ochadi.

Yirik investitsiya loyihasi uchun sinditsiyalashtirilgan kredit olish uchun, qarz oluvchi etakchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- * kredit buyurtmasi;
- * loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- * qarz oluvchining bank hisobvaragʻiga pul tushumlari (pul oqimi) taxmini albatta koʻrsatilgan biznes-reja;
- * qarz oluvchining kreditga layoqatligini aniqlash uchun Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan 1, 2, 2a-shakllardagi oxirgi 3-yillik moliyaviy hisoboti;
- * taʼminot shakllaridan birini ;
- * etakchi bankning kreditlashni tashkil etishga doir ichki qoidalarida koʻzda tutilgan boshqa hujjatlar.

Sinditsiyali kreditning taʼminoti sifatida kredit oluvchi bankka quyidagilarni taqdim etish huquqiga ega:

- * mulk yoki qimmatli qogʻozlar garovi;
- * bank yoki sugʻurta tashkiloti kafolati;
- * uchinchi shaxsning kafilligi.
- * sugʻurta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytarolmaslik xatarini sugʻurta qilingani toʻgʻrisidagi sugʻurta polisi;

Yirik investitsion loyihani moliyalashtirish maqsadida xorijiy bank yoki boshqa moliyaviy institutlar ishtirokida sinditsiyalashtirilayotgan kredit amalga oshirilayotgan boʻlsa, kreditni qaytarish majburiyatini taʼminoti sifatida hukumat kafolati taqdim etilishi mumkin.

Taʼminot turlaridan biri kreditni qaytarish taʼminoti sifatida ishtirokchi banklar talab qilayotgan summani qoplash uchun etishmasa, qarz oluvchi etakchi bank roziligi bilan uning etishmayotgan qismini qoplash uchun qoʻshimcha ravishda yuqorida qayd etilgan taʼminot

turlarining biri yoki bir nechtasini bir-birini to'ldirishi asosida taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, muomaladan chiqarilgan buyumlardan tashqari, har qanday mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatli qog'ozlar (ishtirokchi banklar emitent bo'lgan qimmatli qog'ozlardan tashqari) va boshqalar garov predmeti bo'lishi mumkin. Bunda garov shartnomasi bir tomondan qarz oluvchi va ikkinchi tomondan ishtirokchi banklar tomonidan imzolanadigan shaklda tuziladi.

Kafolat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga muvofiq kafolat beruvchining etakchi va ishtirokchi banklar oldidagi yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi. Yozma majburiyat etakchi bankda saqlanadi.

Kafillik Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq, etakchi va ishtirokchi banklar-benifitsiarlar foydasiga kafil, etakchi, ishtirokchi banklar va qarz oluvchi tomonidan imzolanadigan yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Sinditsiyalashtirilgan kreditning summasi har bir ishtirokchi bank balansida, uning tomonidan berilgan kredit miqdoriga teng ulushda aks ettiriladi.

Etakchi bank tomonidan qarz oluvchining kreditni qaytarishi qobiliyatini, berilgan kreditdan maqsadli foydalanishi va garov holati yoki kafilning moliyaviy holati bo'yicha kreditdan foydalanishning butun muddati davomida monitoringni amalga oshiriladi. Ushbu monitoring ishtirokchi banklar talabi asosida, ular ishtirokida yoki kredit shartnomasida belgilangan tartibda har bir ishtirokchi bank tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

Monitoring jarayonida etakchi bank va har bir ishtirokchi bank tomonidan qarzdorning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tomonidan tuzilgan shartnomalarga (buyurtmalarga) muvofiq mahsulot etkazib berish majburiyatlarini bajarilishi, ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda, o'z aylanma mablag'larining mavjudligi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zahiralari ahvoli, aylanma mablag'larning aylanishi, barcha bank hisobvaraqlaridagi harakatlarni tahlil qiladi va ushbu ko'rsatkichlarni qarzdorning kredit yig'majildida umumlashtirib boradi.

Bankka taqdim etilgan garovning holati va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanishi kredit shartnomasida kelishilgan shartlarga muvofiq joyiga chiqib o'rganiladi.

13.9. Ta'lim krediti

Ta'lim kreditlari oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muhim shakli hisoblanadi.

Ta'lim kreditlari yordamida talaba yoshlar oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Buning ustiga, ular o'qish davrida ta'lim kreditning asosiy qarz summasi bo'yicha hech qanday to'lovni amalga oshirmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida jismoniy shaxslarga ta'lim kreditlari berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyuldagi 318-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlari berish ularni qaytarish, to'lovning ta'minlanganligi, muddatligi va ulardan maqsadli foydalanish shartlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim kreditlari tijorat banklari tomonidan Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning otalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin. Ta'lim kreditlari, Oliy ta'lim muassasalarida o'qish davri hisobga olingan holda, bakalavriatga o'qishga qabul qilingan talabalarga 10-yilgacha, magistraturaga o'qishga qabul qilingan talabalarga 5-yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tash davri bu muddatga kirmaydi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan ta'lim kreditlari bo'yicha:

- chin etimlarga, «Mehribonlik uylari»da tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga nol foiz stavkasi (foizsiz kredit);
- talabalarining qolgan toifalariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan o'zgaruvchi foiz stavkalari belgilanadi.

Ta'lim kreditlari bo'yicha foiz stavkasi va tijorat banklari tomonidan qo'shiladigan foizlar uchun to'lovlar miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'zgarishiga qarab o'zgarishi mumkin, bu kredit shartnomasida qayd etilishi kerak.

Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi tuman «Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish» markazlari tomonidan «Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi» mablag'laridan to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan imtiyozga huquqli bo'lgan oilalar Kam

minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va o'lash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan aniqlanadi. Ta'lim kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to'lash ta'lim muassasasiga o'tkazilgan summa berilgan vaqtdan, asosiy qarzni qaytarish esa talaba tomonidan oliy ta'lim muassasasida o'qishning ta'limning ushbu turi uchun rasmiy belgilangan muddati tugallangandan so'ng, ayrim kurslarda takroran o'qish muddati hisobga olinmasdan, uch oy o'tgandan so'ng boshlanadi.

Talaba muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan davrda ta'lim kreditlari uchun foiz hisoblanmaydi. Ta'lim kreditlari, qoidaga ko'ra, qarz oluvchi yashaydigan aholi punktida joylashgan tijorat banklari muassasalari tomonidan beriladi.

Ta'lim kreditini olish uchun qarz oluvchi tijorat bankiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) ta'lim krediti berish to'g'risidagi ariza;

b) talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi to'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt). Kontraktida o'qishning belgilangan muddati va bir-yil uchun to'lov miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim. O'qish uchun to'lov miqdori keyingi-yillarda o'zgargan hollarda kontraktlarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi, bu haqda oliy ta'lim muassasasi o'n kun muddatda bankka yozma ravishda ma'lum qiladi, so'ngra qarz oluvchi, bank va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi kredit shartnomasiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi;

v) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan qarz oluvchining yashash joyi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;

g) kreditni qaytarishning ta'minlanishi to'g'risida hujjat;

d) imtiyozli ta'lim kreditlari olish huquqiga ega bo'lgan chin etimlar, «Mehribonlik uylari»da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari, kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadilar.

Qarz oluvchi yuqoridagi hujjatlarni bankka taqdim etish bilan ayni bir vaqtda pasportini shaxsan ko'rsatadi. Bank pasportdan va taqdim etilgan boshqa hujjatlardan zarur ko'chirmalar va nusxalar olishga haqlidir.

Olingan kredit qaytarilmasligi xavfining oldini olish maqsadida qarz oluvchi quyidagi ta'minlash shakllaridan birini bankka taqdim etishi lozim, uning amalga oshirilishi unga qo'yilgan asosiy talab hisoblanadi:

- mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish;

- bankning kafolati;
 - uchinchi shaxsning kafilligi;
 - sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi kreditni qaytara olmasligi
- navbati sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kafilligi (faqat chin etimlar va «Mehribonlik uylari»da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari va kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar uchun).

Bank qarz oluvchi tomonidan kredit olish uchun taqdim qilingan ariza va boshqa hujjatlarni o'rganib chiqadi. Agar kreditni qaytarish ta'minlanishi sifatida kafolat yoki kafillik shartnomasi taqdim qilingan bo'lsa, bank garant va kafilning moliyaviy ahvolini baholaydi. Agar kreditni qaytarish ta'minlanishi sifatida mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar qo'yilgan bo'lsa, bank ularning bozor narxlarini aniqlaydi. Agar taqdim etilgan hujjatlar bank talablariga javob bersa, bank, qarz oluvchi va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kam ta'minlangan oilalardan chiqqan talabalarning o'qishi uchun ta'lim kreditlari berish uchun har bir tomonning kelib chiquvchi huquq va majburiyatlari aniq belgilangan holda bank, qarz oluvchi, oliy ta'lim muassasasi va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi o'rtasida ko'p tomonlama kredit shartnomasi tuziladi.


Tijorat banklari qarz oluvchi tomonidan ta'lim krediti berishni so'rab bankka taqdim qilingan ariza va unga ilova qilingan to'la hujjatlar to'planini 10 ish kuni mobaynida ko'rib chiqishi va kredit shartnomasini imzolashi yoki kredit berilmasligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda arizachiga kredit berishning rad etilishi sababi ko'rsatilgan yozma xulosa berishi lozim.

Ta'lim krediti qarz oluvchining ssuda hisob raqamidan uning shaxsiy yozma topshiriq'i asosida oliy ta'lim muassasasining talab qilib olinmagan depozit hisob raqamiga mablag' o'tkazish yo'li bilan beriladi. Ta'lim kreditlari bo'yicha mablag'lar kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda har yarim-yilda o'qish uchun-yillik to'lovning to'liq miqdorini ikki teng qismga bo'lish yo'li bilan o'tkaziladi. Bunda yangidan qabul qilingan talabalar uchun birinchi yarim-yillikda o'qiganlik uchun boshlang'ich to'lov joriy-yilning 1-oktyabrigacha, ikkinchi yarim-yillik uchun navbatdagi kalendar-yilning 15-martigacha to'lanadi.

O'qishning ikkinchi-yilidan boshlab kredit hisobiga to'lovlar har yarim-yillik birinchi oyi (sentyabr va mart)ning 5-kunidan kechiktirilmay to'lanadi. Foizlar qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda to'lanadi.

Kam ta'minlangan oilalardan chiqqan talabalarning o'qishiga ta'lim kreditlari uchun foizlar qarz oluvchi va Jamg'arma tomonidan har oyda, hisoblangan foizlar summasining 1/2 qismi bo'yicha teng ulushlarda to'lanadi.

Jamg'arma hisoblangan foizlar summasini to'lov topshiriqnomasi bilan bank bildirishnomasi olingandan keyin uch ish kuni mobaynida o'tkazadi. Ta'lim krediti berilgandan so'ng bank kredit ta'minlanishi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan tartibda monitoring olib boradi. Agar talaba o'qish davri tugamasidan talabalar safidan chiqarilsa, ta'lim muassasasi rahbariyati rektor (direktor)ning buyrug'i chiqqan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida bankka xabar berishi kerak, qarz oluvchi esa o'z navbatida uch oy muddatda ta'lim krediti va unga qo'shilgan foizlar bo'yicha qarzlarni to'liq qaytarishi lozim. Talabaning talaba safidan chiqarilishi oliy ta'lim muassasasi tomonidan bankka o'z vaqtida ma'lum qilinmagan taqdirda, ta'lim muassasasi ushbu davr uchun hisoblangan foizlarni bankka to'lashga majbur. Ushbu shartlar bank, qarz oluvchi va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida aks ettirilishi kerak.



21-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan talaba yoshlarga berilgan ta'lim kreditlarining miqdori¹ (mlrd. so'm).

¹ Rasm O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-2014-yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan talabalarga berilgan kreditlarning miqdorini o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Bu esa, banklar tomonidan berilayotgan ta'lim kreditlari soni va summasini oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

Shunisi xarakterliki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2001-yil 26-iyuldagi 318-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risidagi nizomga muvofiq to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan talaba ichki tartib-qoidalarini, o'quv intizomini buzganligi va akademik o'zlashtirmaganligi, shuningdek, kontrakt shartlarini bajarmaganligi uchun o'qishdan chetlatilganda ilgari to'langan pullar qaytarib berilmaydi.

Ta'lim oluvchining o'z tashabbusi bilan uzrli sabablarga ko'ra o'qishni to'xtatishga majbur bo'lganda ta'lim muassasasi oldindan to'langan pullarning o'qishning amaldagi muddati uchun sarflangan xarajatlarni ushlab qolgan holda tegishli qismini qaytarib beradi.

Avval o'tkazilgan pul mablag'lari ish beruvchining hisob raqamiga qaytarib berilganda to'lov manbaida imtiyozni qo'llagan ish beruvchi qaytarib berilgan summani jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritishi va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushlab qolishi lozim. Soliq chegirmasini jismoniy shaxsning jami-yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasi asosida berish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun to'lov jismoniy shaxs tomonidan mustaqil ravishda (naqd pul hisobiga, jismoniy shaxslarning banklardagi omonat va boshqa hisob varaqlaridan yoki plastik kartalardan foydalangan holda) amalga oshirilganda, soliq chegirmasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 191 va 193-moddalarida nazarda tutilgan tartibda davlat soliq xizmati organlariga jismoniy shaxsning jami-yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani topshirish yo'li orqali beriladi. Bunda soliq chegirmasi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar summasiga, soliq davri uchun ko'rsatilgan jismoniy shaxsning jami-yillik daromadi miqdorida beriladi.

Tayanch so'z va iboralar

Garov, diskont stavkasi, debitor qarzdorlik, kredit, kredit liniyasi, kreditlash usullari, kreditlash obyektlari, kreditlash subyektlari,

/// kreditning ta'minlanganligi, kontokorrent, kreditor qarzdorlik, mijoz, mol etkazib beruvchi, overdraft, regress huquqi, ssuda, ssuda hisobraqami, tovar hujjatlari, foiz stavkasi, faktoring, forfeiting,

Takrorlash uchun savollar

1. Kreditlar muddatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Kreditlar ta'minlanganligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Kreditlar takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Kreditlar bahosiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Kreditlar foiz stavkasining turiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
6. Kreditlar tarmoq xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
7. Kreditning kreditlash obyektlariga ko'ra qanday turlari mavjud?
8. Kreditning maqsadi yo'nalishi va kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarga ko'ra qanday turlari mavjud?
9. Xalqaro kredit nima va uning qanday turlari. Obyekti va subyekti mavjud?
10. Kreditlashning qanday zamonaviy usullarini bilasiz?
11. Overdraft shaklida kreditlash qay tartibda amalga oshiriladi?
12. Kreditlashning kontokorrent shakli nima va u overdraftdan qaysi jihatlar bilan farq qiladi?
13. Kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlashning afzalliklari nimada?
14. Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash qanday amalga oshiriladi?
15. Faktoringda tovar hujjatlari qaysi shartlar asosida sotib olinadi?
16. Forfeiting nima?

XIV BOB. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

14.1. Kichik biznes haqida tushuncha va uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'рни

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda»¹.

Darhaqiqat, kichik biznes O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi hal qiluvchi kuchga aylandi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlari erkinlashuvi va takomillashuviga moslashuvini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning amaliy imkoniyati, zaruriy asoslari hamda strategik vazifalardan kelib chiqib, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yuksaltirishga birlamchi e'tibor qaratilib kelinmoqda va u amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida asosiy o'rinni egallab kelmoqda.

Hozirgi kunda bizning iqtisodiy iboralar lug'atimizda ishlatilayotgan bir qator so'zlar, ya'ni mulkdor, tadbirkor, biznes, biznesmen, xususiy korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi tushunchalar mavjud.

Biz mazkur tushunchalar qatorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasiga kengroq ahamiyat qaratishga harakat qilamiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan ularning to'g'ri talqin etilishini ta'minlashdan iborat. Aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan ularning to'g'ri talqin etilishi ular uchun hamda mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

«Biznes», «kichik biznes» va «xususiy tadbirkorlik» tushunchalari, ko'pincha bozor iqtisodiyotiga bog'langan holda, uning elementlari

¹Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish-yili bo'ladi. – T.: «O'zbekiston», 2014. – B.7.

hamda unda samarali faoliyat yuritish vositalari sifatida talqin etilmoqda. Ayni vaqtda bu tushunchalarning amalda qo'llanilishi, real kuchga kirishi bozor iqtisodiyoti sharoitida kengroq namoyon bo'la boshladi. Biznes, ishbilarmonlik, tadbirkorlik bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Biznes ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish, o'sha faoliyatni o'zining kundalik hayot va harakat tarziga aylantirib olish, u bilan doimiy shug'ullanishdir. Biznes o'zidagi iqtisodiy, moliyaviy, tabiiy, ma'naviy, intellektual imkoniyat, qobiliyat va sharoitlarni ishga solish orqali natijalar olishdir. Xullas, biznes faollik va yuqori iqtisodiy-ijtimoiy samaralarga erishib, farovon hayot tarzi asoslarini bunyod etishdir.

«Kichik» va «xususiy» korxonalarining muhim belgilaridan biri – o'z faoliyati va mulkiga bevosita egalik qilishdir. Bunda mulk va uning nazorati yuzasidan javobgarlik hissi aynan rahbar – yagona mulkdor shaxsning zimmasiga yuklanishi bilan ifodalanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini to'laroq ochib berish uchun uning boshqa iqtisodiy subyektlar (yirik biznes)dan farqli jihatlari, qolaversa, afzalliklari xususida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Xususan, amerikalik iqtisodchi R.Syuart kichik biznesning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tgan:

- kichik biznes ko'pchilik yangi mahsulot yoki xizmat turining bunyod etilishi uchun boshlang'ich ishlab chiqarish nuqtasidir. Bir shaxs birorta g'oyani amalda tadbiq etishga urinadi. Agar, u muvaffaqiyatli bo'lib chiqsa, biznes o'sadi yoki mahsulot yirik korxonalar tomonidan sotib olinadi;

- kichik biznes ixtisoslashgan mahalliy ehtiyojlarni qondirishga yaxshi moslashgan bo'ladi;

- kichik biznes shaxsga tajriba orttirish imkonini berishi mumkin va o'zlariga keyinchalik kengroq miqyosda qo'l kelishi mumkin;

- ommabop ishlab chiqarilgan mahsulotlar joniga tekkan iste'molchilarga hunarmandlar shaxsiy ish rejasi bo'yicha ishlangan mahsulot taklif etilishi mumkin;

- kichik biznes o'z iste'molchisini shaxsan bilishi mumkin bo'lgan xizmat turlarini taklif etadi;

- yakka mulkdor iste'molchilarining ishonchlilariga tayanadi.

Iqtisodchi olim L.Guroning fikricha, kichik biznes quyidagi afzalliklarga ega:

- ko'p tomondan iqtisodiy o'sishning sur'atlarini belgilaydi;

- moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarini samarali taqsimlashga yordam beradi;

- ish o'rinlarini vujudga keltiradi;

- yangi ish joyini tashkil etish yirik korxonalar qurilishi va ishga tushishiga qaraganda ancha ko'p foyda beradi.

Iqtisodchi olim N.To'xlievning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqidagi quyidagi fikrlari mavjud:

birinchidan, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bevosita bog'liq masala bo'lib, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy negizini mustahkamlashda xizmat qiladi;

ikkinchidan, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantiradi va ayni paytda ishlab chiqarishni, bozorni iste'mol mollari va xizmatlar bilan ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Iqtisodchi olim E.Egamberdievning fikriga ko'ra, kichik biznes – xo'jalik yuritishning shunday shakli, bunda korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil faoliyat olib boradilar. Ular ishlab chiqaradigan mahsulotni turlarini, hajmini o'zlari belgilaydilar; o'z xohishlariga ko'ra, mahsulotni xohlagan bahoda, xohlagan sharoitda sotadilar yoki xizmat ishlarini bajaradilar; korxonani rivojlantirish fondiga, ijtimoiy ishlarga, rezerv fondiga foydadan ajratmalar me'yorini, mehnatga haq to'lash shakli va miqdorini ham o'zlari ixtiyoriy ravishda belgilaydilar; mahalliy sharoitga tez moslashadilar, tezda bir qarorga keladilar va h.k.

Dunyo tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari, o'rta va yirik korxonalar nisbatan bozor talabiga qisqa muddat ichida moslasha oladi, mehnatni tashkil etish, yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etib, undan samarali foydalanish kichik korxonalarda boshqalariga nisbatan tezroq amalga oshadi.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yirik korxonalar nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Ko'p hollarda yirik korxonalarda qo'llaniladigan yangi texnika va texnologiya kichik korxonalarda qo'llanilganda ko'proq samara beradi. Kichik korxonalar jamiyat uchun boshqa korxonalar nisbatan ko'proq yangi taovarlarni otkazib beradi hamda iste'molchilarning talabini kengroq o'rganib, bu faoliyatini shu talabga moslashtiradi. Kichik korxonalarda mehnatni tashkil etishda iste'dodli kadrlarning ijobiy faoliyatidan samarali foydalanish ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkoniyat yaratadi.

Davlat o'z islohotlari vositasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini shakllantirish orqali raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga, bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga ko'maklashishi lozim.

Jahon tajribasi tasdiqlashicha, umuman, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatda o'rta mulkdorlar sinfining paydo bo'lishiga, barqaror soliq solinadigan bazaning kengayishiga yordam beradi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish joylarini yaratish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog'liq muhim ijtimoiy rolni bajaradi.¹

Birinchi Prezident I. Karimov tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning zarurligini belgilovchi omillar haqida quyidagi fikrlar ta'kidlanadi:

- respublika bozorini zarur iste'mol mollari va xizmatlar bilan boyitadi;

- aholining (ayniqsa, ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylarida) ish bilan bandligini ta'minlaydi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faqat ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan ta'minlash emas, balki tashqi bozorlarga ham raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishga qodir;

- kichik biznesda bozor kon'yukturasi o'zgarishiga tezda moslasha olish imkoniyati ham mavjud;

- uning fan va texnikaning yangi yutuqlarini tez o'zlashtirish qobiliyati ham bor.²

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mulkchilikning isloh qilinishi, xususiy mulkchilikni har tomonlama kengaytirish, kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotning bir shakldan boshqa bir shaklga o'tish jarayonida kichik biznes taraqqiyoti davlat uchun uning istiqbolini belgilab beruvchi muhim bo'g'inga aylandi. Chunki aynan katta mablag' talab etmaydigan va resurslarning o'sish tezligini kafolatlovchi kichik biznes korxonalarini iqtisodiyotdagi qayta tuzilishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni nisbatan tez va ortiqcha sarf-harajatlarsiz echishga ichki bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan bo'lishiga qaramay iste'mol mollari bilan to'ldirishga qodir.

¹ Qoraliyev T.M., Yaxshiboev G.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash mexanizmi.-Monografiya.-T.: Akademiya. 2006-yil. - B.10-13.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «O'zbekiston», 1999. - B.574.

Hozirgi kunda kichik biznes oldida turgan eng asosiy muam-molardan biri moliyaviy resurslar muammosidir. Bu vazifani bajarish, ya'ni kichik biznesni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, ularga imtiyozli foiz va muddatlarda kredit mablag'larini ajratish tijorat banklari zimmasiga yuklatildi.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratishga katta ahamiyat berila boshlandi.

2011-yilning yurtimizda «**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-yili**»deb e'lon qilinishi munosabati bilan bank tizimida qator ustuvor vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar, shu jumladan, mikrokreditlar ajratish mexanizmlari takomillashtirildi va yanada soddalashtirildi.

Oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, boshlang'ich kapital hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida qisqa va uzoq muddatli kreditlarni ajratish mexanizmlari qayta ko'rib chiqilib, hozirgi davr talablariga moslashtirildi.

Tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari tomonidan ajratiladigan mikrokreditlarning ta'minoti sifatida kredit qaytarilmasligi xatarini sug'urtalashda sug'urta polisini qo'llash amaliyotini kengaytirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, jumladan, kasb-hunar bilim yurtlari bitiruvchilari-ga berilgan tijorat banklari kreditlari bo'yicha ta'minot sifatida jismoniy shaxslarning mol-mulkini garovga olish amaliyoti keng joriy qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 7-yanvarda qabul qilingan «2011-2015-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi PQ-1464-sonli Qaroriga asosan, tijorat banklarida kichik biznes subyektlariga kreditlarni ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyoti joriy qilindi.

Banklarning barcha filiallarida tadbirkorlarga yaqindan maslahatlar berish bo'yicha «Tadbirkorlar xonasi» tashkil etildi. Shuningdek, filiallar va mini banklarda tashkil etilgan «Tadbirkorlar burchagi» orqali respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, taklif etilayotgan yangi bank xizmatlari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib borilishi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi huzurida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida investitsion loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirishga ixtisoslashtirilgan jamg'arma tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011-yil 11-martda imzolangan PQ-1501-sonli Qarori, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011-yil 24-avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi.

Xususan:

➤ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;

➤ tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi;

➤ kichik biznes subyektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraqlar ochgani uchun to'lov undirish bekor qilindi;

➤ imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar ajratishdan oladigan daromadlari 2016-yilning 1-yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning o'rnini tobora ortib bormoqda. Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 2014-yilda 56 foizga o'sdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga asosan «2011-2015-yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlar» Dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturning 9-bo'limi aynan «Kichik

¹ Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustuvor vazifamizdir – T.: «O'zbekiston», 2015. - B. 8.

biznes subyektlarini va xususiy tadbirkorlikni kredit-moliyaviy qo'llab-quvvatlash» deb nomlanadi.

Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish, arzonlashtirish va ularning ochiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarning samarasi jahondagi rivojlangan davlatlar hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan ham yuqori baholanib kelinmoqda.

Chunonchi, Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, yurtimizda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2013-yilda O'zbekiston biznesni yuritish bo'yicha reytingda 10 o'rin yuqoriga ko'tarildi¹. Biznesni ro'yxatga olish shartlari bo'yicha esa jahon miqyosida 66 pozitsiya yuqoriga ko'tarilib, reyting o'tkazilgan 189 mamlakat orasida 21-o'rinni egalladi, kredit ajratish bo'yicha reytingda esa 24 pozitsiya yuqoriga ko'tarildi.

Hozirgi vaqtda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan qarz oluvchilarning kredit olish bo'yicha arizalarini elektron tizim orqali qabul qilish amaliyoti bosqichma bosqich yo'lga qo'yilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga bank tizimida yaratilayotgan imtiyoz va qulayliklarning ko'lami-yildan-yilga ko'payib bormoqda. So'nggi-yillarda tijorat banklari tomonidan ularga ajratilgan kreditlarning hajmi yuqori ko'rsatkichlar bilan oshib borish tendentsiyasiga ega ekanligi e'tiborli jihatlardan biridir.

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda banklarining faol ishtiroki soha subyektlarining investitsion faolligini oshirishga, ularning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning etakchi bo'g'iniga aylanishida muhim rol o'ynamoqda.

14.2. Kichik biznesni kreditlashni tashkil qilishning huquqiy asoslari

Keyingi-yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir bir qancha qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilib, bu me'yoriy hujjatlar kichik biznes

¹ World Bank. 2013. Doing Business 2013: Razumnyy podxod k regulirovaniyu deyatelnosti malix i srednix predpriyatiy. Washington, DC: World Bank Group. DOI: 10.1596/978-0-8213-9615-5. License: Creative Commons Attribution CC BY 3.0. p.3.

va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, bularga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-yili» Davlat Dasturi to'g'risidagi 2011-yil 7-fevral PQ-1474-sonli Qarori, «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2011-yil 4-aprel PF-4296-sonli va «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida» 2008-yil 28-noyabrdagi pf-4058-sonli farmonlari, shuningdek, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2011-yil 24-avgustdagi 4354-sonli hamda «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2011-yil 25-avgustdagi PQ-1604-sonli Qarorlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Bugungi kunda kichik biznesni kreditlashni tashkil qilishning huquqiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 15.09.2006-yildagi «Mikromoliyalash to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013-yil 23-noyabrdagi 22/9-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Kichik tadbirkorlik subyektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida»gi Nizom hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kreditlash obyekti bo'lib, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar hisoblanadi.

Kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

Kreditlar tijorat banki va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq beriladi.

Kreditlar kreditlanayotgan tadbirning o'zini-o'zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

- qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga - 12 oy muddatgacha;

- aylanma mablag'larni to'ldirishga - 18 oy muddatgacha;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga - 24 oy muddatgacha.

Tijorat banklari kreditlar bo'yicha kreditlashning imtiyozli davrini belgilashlari mumkin.

Kreditlar qonun hujjatlarida ta'qiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ajratilishi mumkin emas.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g'alla va paxta xom ashyosi etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun kreditlar berish «Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

Kreditlar ilgari olingan kreditlarni yoki tijorat bankining «Kredit siyosati»da belgilangan boshqa qarzlarni qaytarish uchun berilishi mumkin emas.

Qarz oluvchi olingan kredit summasini muddatidan ilgari qaytarishga va ulardan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun hisoblangan foizlarni to'lashga haqli.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (qarz oluvchi) kredit olish uchun xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Ariza;

2. Qarz oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes-reja;

3. Qarz oluvchining tegishli davlat soliq inspeksiyasiga taqdim qilgan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl) va debitorlik hamda kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2a-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno;

4. Kredit ta'minoti turlaridan biri.

Qarz oluvchilar kredit olish bo'yicha arizalarni elektron tizim orqali ham taqdim etishi mumkin.

Tijorat banklari qarz oluvchilarga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqiga ega.

Qarz oluvchi bo'yicha Kredit axborotining davlat reestri va kredit byurolariga taqdim etilayotgan kredit axboroti ma'lumotlari tijorat bankining kredit yig'majildidagi kredit axborotiga mos bo'lishi lozim.

Qarz oluvchi tomonidan zarur hujjatlar taqdim qilingandan so'ng, uning arizasi «Arizalarni ro'yxatga olish kitobi»ga qayd qilinishi hamda bir vaqtning o'zida qarz oluvchiga ariza tijorat banki tomonidan qabul qilinganligi to'g'risida «Ma'lumotnoma» berilishi lozim. Bunda «Ma'lumotnoma»ning birinchi qismi tijorat bankida qoldiriladi, ikkinchi qismi esa, qarz oluvchiga taqdim etiladi. Qarz oluvchi «Ma'lumotnoma»ning birinchi qismini uni olganligi to'g'risidagi sanani ko'rsatgan holda imzolaydi, ariza elektron tizim orqali qabul qilingan hollar bundan mustasno.

«Ma'lumotnoma»lar tushunarli, to'g'ri va aniq ko'rinadigan holda to'ldirilishi lozim. «Ma'lumotnoma»dagi yozuvlarni qisqartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qarz oluvchilarning kredit olish bo'yicha elektron tizim orqali qabul qilingan arizalari ham «Arizalarni ro'yxatga olish kitobi»ga qayd qilinadi va arizaga «Elektron qabul qilindi» degan belgi qo'yiladi. Bir vaqtning o'zida qarz oluvchiga ariza tijorat banki tomonidan elektron tizim orqali qabul qilinganligi to'g'risida elektron shaklda «Ma'lumotnoma» yuboriladi hamda tijorat bankida qolgan «Ma'lumotnoma»ga uning elektron shaklda yuborilganligi to'g'risida yozuv kiritiladi va sana ko'rsatilgan holda imzolanadi.

«Arizalarni ro'yxatga olish kitobi» va «Ma'lumotnoma» raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan va Bosh bank Raisining kreditlash masalalari bo'yicha o'rinbosari yoki ushbu masala bo'yicha mas'ul shaxsning imzosi hamda Bosh bankning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ta'minot turlaridan biri taqdim etiladi:

1. Mol-mulk va qimmatli qog'ozlar garovi;
2. Tijorat banki yoki sug'urta kompaniyasining kafolati;
3. Uchinchi shaxs kafilligi;

4. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarmaslik xatari-ning tijorat banki foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi.

5. Ta'minotning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari.

Tijorat banklari o'zlari bilan doimiy ravishda aloqaga ega, bank hisobvarag'ida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro' va kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga ta'minot turlaridan birini talab qilmay blankli (ishonchli) kredit berish huquqiga ega.

«Garov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunga muvofiq, har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kredit bo'yicha taqdim etilayotgan kafolat kafilning yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi.

Kredit yig'majildini tahlil qilish paytida tijorat banki tomonidan kredit shartnomasining turli jihatlari, qarz oluvchining kredit tarixi, uning rahbari obro'si (avvalgi ishlagan joylari, ilgari olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilganligi va boshqalar) baholanadi.

Qarz oluvchining arizasi kelib tushgan kundan boshlab, tijorat bankining kredit qo'mitasi tomonidan ushbu ariza bo'yicha asoslantirilgan holda qaror qabul qilish muddati uch ish kundan oshmasligi lozim.

Kredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda, qarz oluvchi va tijorat banki o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi.

Kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng, keyingi kundan kechiktirmay tijorat banki rahbari yoki uning o'rinbosari tomonidan kreditning muddati, miqdori va foiz stavkasi ko'rsatilgan holda kredit hisobvarag'i ochish to'g'risida buxgalteriyaga farmoyish beriladi va ushbu farmoyishga asosan kredit hisobvarag'i ochiladi.

Kreditlar qarz oluvchiga alohida kredit hisobvarag'i ochish va uning to'lov topshiriqnomalariga muvofiq, ushbu hisobvaraqdan naqd pulsiz yoki pul o'tkazish yo'li bilan beriladi.

Qarz oluvchiga ajratilgan kreditlar O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasining tegishli balans hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Kredit bo'yicha so'ndirish muddatlari jadval ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Bunda mazkur jadval so'ndirish pul oqimlari istiqbolidan kelib chiqib tuzilishi lozim.

Qarz oluvchining kredit bo'yicha hisoblangan foizlar va kredit qoldig'ini undirish uchun mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda, qarzdorlik Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilangan tartibda undiriladi. Bunda dastlab kredit bo'yicha hisoblangan foizlar, so'ngra kredit bo'yicha asosiy qarz so'ndiriladi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning muddati davomida doimiy monitoring o'tkazadi. Monitoring qarz oluvchining arizasi va kredit shartnomasi shartlarini bajarish uchun yordam ko'rsatishga yo'naltirilishi kerak.

Monitoring o'tkazish jarayonida qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, tuzgan shartnomalari (buyurtmalar) bo'yicha majburiyatlarining bajarilayotganligi, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlari, foydasi, aylanma mablag'lari aylanmasi va dinamikasi hamda tovar-moddiy boyliklar zaxirasi holati tahlil qilib boriladi.

Monitoring davomida qarz oluvchining faoliyati bilan bog'liq barcha ijobiy va salbiy holatlar, shuningdek taqdim etilgan garov ta'minotining holati qarz oluvchi uchun tijorat bankida ochilgan maxsus jildda tizimlashtirib boradi.

Kreditdan belgilanmagan maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlangan taqdirda, tijorat banki qarzdorga kelgusida kredit berishni rad etishga yoki kredit summasi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishga hamda shartnomada belgilangan shartlar asosida jarima belgilashga haqlidir.

Qarz oluvchining garov ta'minoti kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni qaytarishga etmagan taqdirda, tijorat banki mazkur qarzni qaytarishni qarz oluvchining likvidli mol-mulki, jumladan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, kompyuter hamda tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrda 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan Banklarni kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida

qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibiga muvofiq amalga oshirishi mumkin.

14.3. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga o'z mablag'lari hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish tartibi

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham mikromoliyalash aholi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishi va o'z biznesini rivojlantirish uchun unga ko'p bo'lmagan miqdorda qarzlarni, mikro kreditlar berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydigan vositadir.

Shunga o'xshash xizmatlarni maxsus mikromoliyalash tashkilotlari ko'rsatadi, ulardan esa asosan daromadi yuqori darajada bo'lmagan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni, o'z ishini kengaytirishni xohlaydigan, biroq buning uchun boshqa moliyaviy institutlaridan mablag'lar olish imkoniga ega bo'lmagan shaxslar foydalanadilar.

So'nggi-yillarda O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlarning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish borasida ko'p sa'y-harakatlar qilindi. Xususan uni boshqarish tizimining qaror topishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 30-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 309-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-avgustdagi 348-sonli «Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida «kichik va mikro moliyalashtirishni rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarining rivojlanishini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni muhim rol o'ynadi.


Mikromoliyalash sektori qarz oluvchilarning soni jihatidan O'zbekistondagi eng yirik sektordir. Ularning ko'pchiligi qishloq xo'jalik mahsulotini etishtirish, savdo, xizmatlar ko'rsatish yoki buyurtma bo'yicha tikuvchilik ishlari bilan shug'ullanadi.

Hozirga vaqtda O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalash institutlari haqida so'z yuritganda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatayotgan

institutilarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Bunday institutlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Tijorat banklari.
2. Nodavlat-notijorat tashkilotlari:
 - mikromoliyalash asosiy faoliyati bo'lmagan tashkilotlar;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilgan, asosiy faoliyati mikromoliyalash bo'lgan mahalliy tashkilotlar;
3. O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida ro'yxatga olingan xalqaro va chet el tashkilotlarining dasturlari va loyihalari;
4. Lombardlar.
5. Sug'urta kompaniyalari.
6. Lizing kompaniyalari.

Jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasida quyidagi xizmatlar vujudga kelgan:



22-rasm. Jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar.

Mikrokredit – bank yoki boshqa tashkilot tomonidan mijozga berilgan ozroq miqdordagi pul. Mikrokredit ko'pincha garovsiz yakka tartibda yoki guruh bo'lib kreditlash orqali taklif qilinadi;

Mikrojamg'armalar – pulni deponentga qo'yish xizmatlari bo'lib, bu xizmatlar biron-bir shaxsga kelgusida foydalanish uchun ozroq miqdorda pul saqlash imkonini beradi. Jamg'arma hisobvaraqlari oilalarga kutilmagan xarajatlarni qoplash va kelgusidagi investitsiyalarni rejalashtirish uchun mablag' jamg'arish imkonini beradi;

Mikrosug'urtalash – sug'urtalash bo'yicha xizmatlar bo'lib, ulardan foydalanish tadbirkorlarga o'z bizneslarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor

berish, ayni vaqtda mulkka, salomatlikka yoki mehnat qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa xatarlarni kamaytirish imkonini beradi. Sug'urta mahsulotlari turlari hayotni, mol-mulkni, salomatlikni va nogironlikdan sug'urtalashni o'z ichiga oladi;

Mikrolizing – kichik korxonalariga yoki mayda tadbirkorlarga qimmat turmasa-da, ular to'liq bahosiga sotib ololmaydigan uskunalar, qishloq xo'jalik texnikasi yoki transport vositalarini lizingga berish xizmatlari;

Pul o'tkazmalari – bu pul jo'natuvchining mablag'larini pul oluvchiga: asosan chet eldagi oilasiga yoki do'stlariga yuborish xizmatlaridir. Bahosi siyosiy yoki iqtisodiy muhitga bog'liq holda o'zgarib turadigan boshqa sarmoya manbalariga qiyos qilganda pul jo'natish nisbatan barqaror mablag' manbaidir.

Aholining kam ta'minlangan, lekin iqtisodiy faol qatlamining tadbirkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'lishida, yangidan ish boshlagan tadbirkorlik subyektlarining o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yib olishlarida mikro kreditlarning o'rni beqiyosdir. Chunki xalqaro tajribadan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, bugungi kunda rivojlanayotgan va iqtisodiy o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda tijorat banklari, kredit uyushmalari va maxsus mikro kreditlash tashkilotlari tomonidan ajratilayotgan mikro kreditlar aholining kam ta'minlangan qatlamini iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanib, o'z daromadlarini orttirishga, tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Mikro kreditlash xizmatlari aholining an'anaviy moliya institutlari xizmatlaridan foydalanishga imkoniyati bo'lmagan qatlamiga ko'rsatilishi sababli, mikro kreditlash xalqaro maydonda ijtimoiy yo'naltirilgan soha sifatida qaraladi.

So'nggi-yillarda respublikamizda kichik biznes subyektlari imtiyozli kreditlash mexanizmi yaratildi va kredit berishda talab qilinadigan xujjatlar soddalashtirildi hamda son jihatidan qisqartirildi.

Buning natijasida tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati tubdan yaxshilandi.

Hozirgi vaqtda respublikada mikromoliyalashtirishni rivojlantirish uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, «Mikromoliyalashtirish to'g'risida», «Mikro kredit tashkilotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining «Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007-yil 19-fevraldagi 37-son qarori qabul qilingan.


Mamlakatimizning moliyaviy tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri tijorat banklarining kreditlashiga alternativ ravishda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini qullab-quvvatlash orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash shakllarini rivojlantirish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xususiy tadbirkorlik, kichik biznes subyektlarini ayniqsa, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilib kelinmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qishloq tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ixtisoslashgan tashkilotlar-dehqon-fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va bandlikka ko'maklashish jamg'armalari tuzilgan. Bu tashkilotlarning mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali nizom (ustav) kapitali ishtirokida investitsiya loyihalari moliyalashtirilmoqda, tadbirkorlarga asbob-uskunalar lizing shaklida texnik yordam berilmoqda, konsultatsiya va axborot xizmati ko'rsatilmoqda. O'zbekistonda tobora kengayib borayotgan mikromoliyalashtirish harakati biznes-guruh yoki kredit uyushmalari vujudga kelishiga yordam berdi. Bu harakat doirasida mikrotadbirkorlikni, kichik va xususiy biznes vakillarini qo'llab-quvvatlovchi nobank tuzilmalar paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi 2006-yil 15-sentyabr O'RQ-50-sonli «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, uning asosiy maqsadi mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag'lar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunga muvofiq «Mikromoliyalash» bu mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan mikdordan oshmaydigan summada mikrocredit, mikroqarz, mikroleasing berish, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir.

Yuqorida jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasi bo'yicha xizmatlar va ularga berilgan ta'riflarni keltirgan edik, O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlar va ularning mohiyati qo'yidagilardan iborat:



23-rasm. «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlar turlari.

Mikrokredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir. Mikrokredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrokredit) berilishi mumkin.

Mikroqarz mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovlilik sharti asosida ham beriladigan pul mablag'laridir.

Mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir.

Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar bo'lib, banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq ko'rsatiladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan Qonunga muvofiq belgilanadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi va mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish shartlarini, shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish miqdori, muddatlari va haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar o'z mablag'lari, shu jumladan, olgan daromadlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish koidalariga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotga mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish uchun buyurtma hamda o'z faoliyati va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan boshqa hujjatlar taqdim etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlariga keng yo'l ochib berish, ularning faoliyatiga noqonuniy aralashishning oldini olish, aholining farovonligini oshirish, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi sifatida «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini keltirish mumkin.

Mazkur qonunning ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad - bu rivojlangan xorijiy mamlakatlarda samarali faoliyat yuritib kelayotgan, endilikda mustaqil diyorumizda ham qonuniy negiziga ega bo'lgan mikrokredit tashkilotlarini tuzish, ular faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalashning maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida»gi 2005-yil 10-martdagi PQ-24-sonli qarorining ijrosini ta'minlashdir.

Mikrokredit tashkiloti tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ahamiyatli tomoni shundaki, unda boshqa katta moliyaviy institutlar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlardan farqli ravishda mikrokredit, mikroqarz yoki mikrolizing olish uchun talab etiladigan hujjatlar hamda mikrokredit oluvchining o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarilishini ta'minlovchi vositasi sifatida garovga qo'yiladigan mol-mulk, uning sug'urtasi uchun qo'shimcha xarajatlar katta bo'lmaydi.

Undan tashqari, o
aholini ish bilan
ishlab chiqarish u

Xulosa qilil
tashkilotlari O'zb
mijozlarini topa
tadigan tashkilo
keltirishiga, xalq
qondira olishiga

➤ yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanchilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish;

➤ qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berishni yanada kengaytirish.

Mikrokreditbank ATB tomonidan foydalanish yo'nalishlariga ko'ra mikrokreditlar quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- Mikrolizing xizmatlari;
- Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag'larni to'ldirishga;

- Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun.

Mikrokreditlar ajratishda quyidagi tamoyillarga amal kilinadi:

- Qaytarishlilik;

- To'lovlilik;

- Ta'minlalik;

- Muddatlilik;

- Maqsadli foydalanish.

Boshlang'ich (start) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar-yiliga 3 foizlik stavka bo'yicha 18 oygacha muddatga, tashkil topganiga 6 oydan oshmagan kichik tadbirkorlik subyektlariga quyidagi miqdorlarda berilishi belgilangan:

- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga;

- eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha mikrofirma va yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklariga;

- eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha fermer xo'jaliklariga.

Boshlang'ich (start) sarmoyani shakllantirishga ajratiladigan mikrokreditlar sharti yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun ular kredit olish uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 6 oy mobaynida buyurtma takdim etilganda beriladi.

Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun mikrokreditlarni mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari olishi mumkin.

Miqdori - eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha miqdorda;

Muddati - 24 oy muddatgacha;

Foizi - Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizi ataykanda.

Imtiyozli mikrolizing xizmatlari:

Mikdori - eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorda;

Muddati - 3-yil muddatgacha;

Foizi --yillik 5 foiz stavkada beriladi.

Mikrokreditlar kuyidagi kichik biznes subyektlariga ajratiladi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklari;
- oilaviy tadbirkorlar;
- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari;
- fermer xo'jaliklari;
- mikrofirmalar;
- kichik korxonalar.

Fuqaro tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, bank xizmatlaridan foydalanishi uchun:

- tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi zarur;
- o'ziga qulay bo'lgan Mikrokreditbank filialida hisobraqam ochilishi kerak.

Mikrokredit olish uchun bankka taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar:

- mikrokredit olish uchun buyurtmanoma;
- biznes-reja, pul oqimlari prognozini albatta ko'rsatgan holda;
- mikrokreditning qaytarilishi ta'minlanishi bilan bog'liq hujjatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'ldirilgan buxgalteriya va moliyaviy hisobot ma'lumotlari.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan biznes-rejaga qo'yiladigan asosiy talablar:

- Taqdim etiladigan biznes-reja mikrokredit olish uchun buyurtmanoma berilgan sanadan ko'pi bilan 60 kun oldin tuzilgan bo'lishi kerak.
- Mikrokreditbankka murojaat qilgan tadbirkorlar kredit olingacham Mikrokreditbank tomonidan bepul tashkil etiladigan beriladigan mikrokreditlar va ko'rsatiladigan lizing xizmatlari turlari va mexanizmlari, shuningdek biznes-reja tuzish bo'yicha ikkita bazaviy seminarlarda qatnashishi majburiy hisoblanadi.

Mikrokreditni ta'minlash shartlari:

- Mikrokreditlar ta'minot va ishonch asosida beriladi.

- Mulk garovi mikro kreditni ta'minlashning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. har qanday mulk, shu jumladan buyumlar va «Garov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mulkiy huquqlar (talablar) garov predmeti bo'lishi mumkin.

- Yuqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar;

- Mikro kreditni ta'minlash uchun likvidli tovarlar, xorijiy valyuta va garov shaklida rasmiylashtiriladigan valyuta boyliklarining boshqa turlari;

- Benuqson to'lov qobiliyatli subyekt obro'siga ega bo'lgan yuridik shaxslar kafilligi talab etiladi.

Ishonchli mikro kreditdan foydalanish sharti:

- Mikro kreditlar faqat qoniqarli kredit tarixiga ega bo'lgan va oldin olingan UChTA kreditni o'z vaqtida to'lagan qarz oluvchilarga ishonch asosida berilishi mumkin.

- Kredit ishonch asosida berilganda bo'lajak to'lovlar bo'yicha ta'minlash sifatida qarz oluvchilar tomonidan kredit qiymatining 20 foizigacha miqdordagi summada majburiy jang'ariladigan depozit joylashtiriladi, unga bank tomonidan foiz to'lovlari qo'shiladi.

Mikro kredit va mikrolizing arizalarini ko'rib chiqish muddatlari:

- Mikro kredit berish to'g'risidagi qaror kredit qo'mitasi tomonidan bankka zarur hujjatlar ilova qilingan holda kredit buyurtmanomasi tushgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida qabul qilinadi.

- Tadbirkorlik subyektini tomonidan zarur darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganda yohud hujjatlarda ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lganda bank ko'rsatilgan muddat mobaynida hujjatlarni aniq mulohazalar ro'yxatini yozma shaklda bayon qilgan holda puxta ishlash uchun qaytarishga haqlidir.

Mikro kreditlar ajratish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish ta'qiqlangan yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- ilgari olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni to'lashga;

- tamakichilikni va alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarishni tashkil etishga;

- lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etishga berilmaydi.

Mikro kreditni berish va qaytarish tartibi:

- naqd pulda yoki naqd pulsiz shaklda berilishi mumkin;

- Bank kredit summasidan va foiz stavkasidan kelib chiqib asosiy qarz va foizlarning bo'lajak to'lovlari summasini kreditning butun mukofotiga teng to'lovlarda hisoblab chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mikromoliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklari samarali faoliyat olib bormoqda va ularning bu sohadagi hissasi ortib bormoqda. Tijorat banklari bilan bir qatorda mikromoliyaviy xizmatlar bozorida nobank kredit tashkilotlarining ham roli va ta'sir dorasi mavjuddir.

14.5. Kichik biznes loyihalarini chet el investitsiyasi va boshqa manbalar hisobidan kreditlash tartibi

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jurnyonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.

Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning manbalaridan biri bu - Xalqaro moliya tashkilotlari va chet el banklari tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hisobidan ochilayotgan kredit liniyalari hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar yirik sarmoyalarni talab qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda, kichik biznes korxonalarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalari katta ahamiyatga ega. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar, kichik biznes subyektlariga eksportga mo'ljallangan va import o'rini bosuvchi mahsulotlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini va boshqa xom-ashyo resurslarini qayta ishlashni hamda boshqa kundalik ehtiyojdagi xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsion loyihalarga beriladi. Chunki eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishi uchun kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishga eng yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishi zarur.

Tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalarini ushbu jabhaga jalb etilishi orqali, investitsion loyihalarni moliyalashtirish tezlashtirilmoqda.

Xorijiy kredit liniyalari asosan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Bank, Asaka bank, Agro bank, Ipak Yo'li Bank, Mikrokreditbank, Ipo-teka bank va banklar tomonidan jalb qilingan va o'zlashtirilmoqda. Yuqoridagi banklar tomonidan hozirgi kunda Evropa Taraqqiyot va Tiklanish banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot va tiklanish banki, KfV Germaniyaning taraqqiyot va tiklanish banki, OPEK fondi hamda Italiyaning «Natsionale de lavoro» banklari kredit liniyalari jalb qilingan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish uchun 2014-yilda ajratiladigan xorijiy kredit liniyalari, ularning foiz stavkalari:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki

Xorijiy kredit liniyasi nomi va maqsadi:

Xitoy taraqqiyot banki 4-kredit liniyasi

– qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini hamda mevasabzavotlarni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalar sotib olish;

– mahalliy xomashyoni qayta ishlash maqsadida zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish;

– qurilish materiallarini ishlab chiqarish, bunda yangi turlarini tatbiq etgan holda;

– tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat turdagi iste'mol tovarlari ishlab chiqarish;

– servis va xizmatlar doirasi, turizmni rivojlantirish.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 35 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – yarim-yillik LIBOR +-yillik 3,8 foiz (XTDB marjasi) + O'zmilliybank marjasi.

Kredit miqdori – 100,000 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda.

Kreditning maksimal muddati – 7-yil.

Xorijiy kredit liniyasi nomi va maqsadi:

Koreya eksport-import banki

Qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini hamda meva-
daryovotlarni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar va ixcham
makunalar sotib olish;

– mahalliy xomashyoni qayta ishlash maqsadida zamonaviy ishlab
chiqarishni tashkil etish;

– qurilish materiallari ishlab chiqarish, bunda yangi turlarini tatbiq
etgan holda;

– tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat turdagi iste'mol tovarlarini
ishlab chiqarish;

– servis va xizmatlar doirasi, turizmni rivojlantirish.

*2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari
miqdori: 10 000 ming AQSh dollari.*

*Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha
asosiy shartlar:*

Foiz stavkasi CIRR yoki LIBOR + har bir loyiha bo'yicha alohida
aniqlanadigan Koreya Eksimbanki marjasi + O'zmilliybank marjasi, har
bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadi.

Kredit miqdori – 100,000 AQSh dollaridan kam bo'lmagan
miqdorda.

Kreditning maksimal muddati – 2-yildan 7-yilgacha.

2. «Asaka» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi

Barcha sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish (agrobiznes, biotex-
nologiyalar, ta'lim, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, axborot texno-
logiyalari va multimedia, telekommunikatsiya, transport va boshqalar),
namun;

1 Turizm va dam olish

1 Mudofaa

1 Ko'chmas mulk sohaları bundan mustasno.

*2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari
miqdori: 13 000 ming AQSh dollari.*

*Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha
asosiy shartlar:*

Foiz stavkasi – xorijiy bank marjasi + «Asaka» bank marjasi – 11-
12 foiz.

Kredit miqdori – minimal summa – 100 000,0 AQSh dollari;
maksimal summa – 2 000 000,0 AQSh dollari.

Kreditning maksimal muddati – 6-yil, lekin kredit muddati XSRIK bilan tuzilgan moliyalashtirish liniyasi kelishuvi muddatidan ko'p bo'lmasligi lozim.

3. «Agrobank» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Turkiya T.C. Ziraat Bankasi A.S.

banki kredit liniyasi

Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 2 900 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidanajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – (6,5 foiz marja + 6 oylik LIBOR) x 5 foiz + 2 foiz.

Kredit miqdori – minimal summasi – 100 000 AQSh dollari; maksimal summasi – 5 000 000 AQSh dollari.

Kreditning maksimal muddati – 5-yil

4. «Mikrokreditbank» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi

kichik biznesni rivojlantirish.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 6 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidanajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – AQSh dollarida: 8,0 foiz + (5-yillik svop) + bank marjasi

Kredit miqdori – minimum – 200 000 AQSh dollari; maksimal summasi – 2 500 000 AQSh dollari.

Kreditning maksimal muddati – moliyalash liniyasi muddatidan oshmagan davrga 60 oy (5-yil).

5. «O'zsanoatqurilishbank» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

«Kommertsbank»

Kichik biznes subyektlari va sanoat tarmog'idagi korxonalarini moliyalashtirish.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 6 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidanajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – foiz stavkasi-yillik EVRIBOR + chet el bankining marjasi (1,95 foiz) + bank marjasi.

Kredit miqdori – 500 ming evrodan yuqori.

Kreditning maksimal muddati – 5-yilgacha.

6. AT Xalq banki

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi

Yangi ishlab chiqarish obyekтини tashkil qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan bog‘liq joriy ishlab chiqarish majmuasini yaratish yoki mavjud quvvatlarni kengaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hududlarda sanoatni rivojlantirish.

2014-yilda o‘zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 15 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – IXSRK ustamasi (9 foizdan 12 foizgacha) + Xalq banki marjasi (4 foiz dan kam bo‘lmagan).

Kredit miqdori – minimal summasi – 500 000 AQSh dollari; maksimal summasi – 3 500 000,0 AQSh dollari.

Kreditning maksimal muddati – 5-yilgacha.

7. «Hamkorbank» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Osiyo taraqqiyot bankining «Kichik biznes va mikromo-lyulashni

rivojlantirish. 2-faza» loyihasi

Kichik biznesni rivojlantirish.

2014-yilda o‘zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 5 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – milliy valyutada-yillik 18 foiz va undan yuqori; xorijiy valyutada-yillik 12 foiz va undan yuqori.

Kredit miqdori – kichik biznes subyektlariga – 40 000 AQSh dollari yoki no‘m ekvivalenti miqdorigacha.

Kreditning maksimal muddati – 12 oygacha.

8. «Poteka-bank» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi
kichik biznes

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 10 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – 8,75 foizdan 11 foizgacha XSRIK marjasi +-yillik 3 foizdan «Ipoteka-bank» ATIB marjasi.

Kredit miqdori – minimal kredit summasi 300 ming AQSh dollari; maksimal kredit summasi 2,500 ming AQSh dollari.

Kreditning maksimal muddati – 5-yil

9. «Asia Alliance Bank» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi kredit liniyasi

Kichik biznes asbob-uskuna va mexanizmlar sotib olish.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 3 800 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – 12 foiz va yuqori.

Kredit miqdori – 300 000,00 dan 1 200 000,00 AQSh dollarigacha.

Kreditning maksimal muddati – 5-yil.

10. «Ipak yo'li» AITB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

FMO fondi (Gollandiya)

Kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 4 810 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – 6 oylik LIBOR + 7 foiz chet el banki marjasi + 4-6 foiz «Ipak yo'li» banki marjasi.

Kredit miqdori – 200 000 – 1 mln. AQSh dollarigacha.

Kreditning maksimal muddati – 5-yil.

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Osiyo taraqqiyot banki

«Kichik va Mikromoliyalashirishni rivojlantirish. Faza 2».

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 4 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – 20 foizdan.

Kredit miqdori – 40 000 AQSh dollarigacha MB kursi bo'yicha milliy valyutada.

Kreditning maksimal muddati – 36 oygacha.

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Landes Bank Berlin (Germaniya)

Kichik biznesning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish.

2014-yilda o'zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 3 650 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan

ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – 6 oylik Euribor + 2,5 foiz chet el banki marjasi + 4-6 foiz «Ipak yo'li» banki marjasi.

Kredit miqdori – minimal 250 000 evro.

Kreditning maksimal muddati – 7-yil.

Xorijiy kredit liniyalarining o'zlashtirilishi samarasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi misollarni aytishimiz mumkin: Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan «Yasham-Erkaplan» QK tomonidan Belgiyaning «Michel Van de Wiele» kompaniyasining gilam ishlab chiqarish texnologiyasini, Germaniyaning «Xetma Vollenweider» kompaniyasining gilamga ishlov beruvchi uskunalarini sotib olish uchun 2013-yilda Germaniyaning KfV banki liniyasidan 229 ming evro, Kommerzbank liniyasidan 819 ming evro miqdorida kreditlar ajratildi.

Mazkur kreditlar hisobiga olingan uskunalar gilam ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha zamonaviyligi, energiya tejamkorligi, ishlab chiqarish quvvati va samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ushbu uskunalarda ishlab chiqarilayotgan gilam mahsulotlari sifati zamon va jahon bozoriidagi talablarga to'liq javob beradi.

Mazkur loyihani amalga oshirish evaziga korxonaning ishlab chiqarish quvvati 36 foizga oshdi, qo'shimcha 10 ta yangi ish o'rni tashkil etildi.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan «Inter biznes atlantik» MChJga Turkiyaning «Markev makine muxendeslik» va «Tam matbakilik ve ambulasi san» kompaniyalarining shokolad ishlab chiqarish asbob-uskunalarini sotib olish uchun 2013-yilda Germaniyaning KfV banki liniyasidan 168,1 ming evro miqdorida kredit ajratilgan edi.

Ushbu uskunalarda ishlab chiqarilayotgan shokolad mahsulotlarining sifati jahon standartlariga va iste'molchilar talablariga to'liq javob beradi. Yangi texnologiyalar o'ta zamonaviy, energiyani tejimli sarflaydi, ishlab chiqarish quvvati va samaradorligi yuqori.

Mazkur loyihani amalga oshirish evaziga korxonaning ishlab chiqarish quvvati 30 foiz oshdi, qo'shimcha 6 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Toshkent viloyatidagi «Navro'z interneyshnl grup» MChJ QK Germaniyaning Landes Bank Berlin AG kredit liniyasidan 2 860 ming evro miqdorida mablag' evaziga «Krones AG» kompaniyasining salqin ichimliklar ishlab chiqarish uskunalarini sotib oldi va faoliyat ko'rsata boshladi.

Loyiha amalga oshirilgach, korxonada-yiliga 306 mln. dona shisha salqin ichimliklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, qo'shimcha 99 ta yangi ish o'rni tashkil etildi.

2013-yil yakunlariga ko'ra, mazkur korxonada tomonidan 28 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va to'liq sotildi.

Tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirish va ular hisobidan moliyalashtirishni amalga oshirish jarayonini mahalliy hokimliklar bilan hamkorlik sifatida tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu bois, joriy-yil davomida banklar tomonidan mahalliy hokimliklar bilan birgalikda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

– Jalb etilgan chet el investitsiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo'naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni eng avvalo tarkibiy qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish;

– xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag'larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go'sht-sut va mevasabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo'naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag'larni o'zlashtirishiga har tomonlama ko'maklashish;

– xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo'sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e'tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish,

mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish;

- mehnat resurslari ortiqcha hamda uzoq va borish qiyin bo'lgan 32 ta tuman va shaharda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, mazkur hududlarda aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini yuksaltirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlari va tadbirkorlarning manfaatlaridan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davom etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Garov obyekti, investitsiya, kichik biznes, kichik korxonalar, kredit liniyasi, mikrofirmalar, mikro kredit, mikro lizing, pul oqimi, pul mablag'lari, asuda hisobraqami, xususiy tadbirkorlik.

Takrorlash uchun savollar

1. Kichik biznes subyektining maqomi qaysi mezonlar asosida aniqlanadi?
2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes qanday o'rin tutadi?
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
4. Mikro kredit bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikro kreditlarni berish va rasmiylashtirish tartibi qanday?
5. Mikro kredit bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikro lizing xizmati qay tartibda ko'rsatiladi?
6. Kichik biznes subyektlari xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari hisobidan qanday tartibda kreditlanadi?
7. Kichik biznes subyektlarining investitsiya loyihalarini tijorat banklarining, uzoq muddatli kreditlari hisobidan moliyalashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda banklar tomonidan kreditlashning qaysi shakllaridan foydalaniladi?

XV BOB. TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN IMTIYOZLI KREDITLASH AMALLARI

15.1. Imtiyozli kreditlashning mazmuni va ahamiyati

Bizga ma'lumki, har bir tijorat banki tavakkalchilikni o'z zimmasiga olgan holda faoliyat yuritadi. Bankning kredit operatsiyalari ko'lami, bahosi va mexanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida unga ta'sir etuvchi omillar hisobiga doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ayniqsa, kreditning bozor bahosi ya'ni, kredit uchun to'lanishi lozim bo'lgan foiz to'lovlarining miqdori bir necha iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgaruvchan xususiyatga egadir.

Har bir tijorat banki o'z faoliyatining xususiyatlari, mijozlari tarkibi va iqtisodiyotning aniq holatiga tayangan holda joriy, perspektiv strategiyalarini yaratadi. Ushbu qabul qilingan strategiya doirasida har-yili bir marta kredit siyosatlarini ishlab chiqishadi va unga tayangan holda kredit operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bankning kredit siyosati, kreditlash mexanizmi va monitoringi boshqa tegishli bo'limlarda o'z aksini topganligi tufayli biz bu bobda imtiyozli kreditlash to'g'risida to'liqroq to'xtalib o'tmoqchimiz.

Imtiyoz so'zining o'zi ma'lum bir jarayonni amalga oshirish mumkin bo'lgan sharoitlarga ba'zi bir engilliklar berilishini anglatadi. Imtiyozli kreditlash esa, kreditlash va uning qaytarilishi hamda foiz to'lovlarini to'lashda ma'lum darajada engilliklar, afzalliklar berilishi nazarda tutiladi.

Respublikamiz bank tizimi amaliyotida ham imtiyozli kreditlar ajratish jarayonlari mavjud.

Imtiyozli kreditlashda kredit miqdori (summasi), muddati, ta'minoti va foiz to'lovlari kabilarda imtiyozlar berilishi mumkin.

Respublika iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, etakchi tarmoqlar, zarur biznes sohalari eksportga va import o'rni bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish kabi maqsadlar uchun imtiyozli kreditlash tizimi joriy etilgan.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari faoliyatini ham qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlashni joriy etishda imtiyozli, nisbatan arzon resurslardan foydalanilmog'i lozim.

Bankning imtiyozli kreditlardan oladigan nisbatan past darajadagi daromadlari, uning resurs to'lash va kreditga xizmat qilish uchun amalga oshiradigan xarajatlarni qoplashga etmog'i lozim.

Demak, imtiyozli kreditlar, kredit oluvchilar uchun ma'lum darajada afzalliklar yaratishi bilan bir qatorda, bank manfaatlariga ham zarar etkazishlari kerak emas.

Imtiyozli kreditlar, imtiyozli jamg'armalar mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi lozim.

Bu jamg'armalar bankning ma'lum imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus jamg'armalari, respublika miqyosida ma'lum maqsadlarni amalga oshirishi uchun mo'ljallangan jamg'armalar, masalan, paxta va g'alla etishtirishni qo'llab-quvvatlash uchun Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan maxsus jamg'arma, eksportni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan maxsus jamg'arma, bandlilikka ko'maklashish uchun maqsadida tashkil etilgan maxsus jamg'arma kabilar.

Mamlakatimizda joriy etilgan imtiyozli kreditlash shakllari, shartlari va tizimi to'g'risida ushbu bobning keyingi bo'limlarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

15.2. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash jamg'armasining shakllantirilishi va undan kreditlar berish tartibi

Tijorat banklari tomonidan Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasini shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2000-yil 21-martdagi PF-2564-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tijorat banklari Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasini (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarini, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar va mikrokreditlar berish uchun tashkil etadilar.

Jamg'armaga ajratmalar har chorakda bankning biznes-rejasida nazarda tutilgan soliqlar to'langandan so'ng har chorakdagi sof foydaning prognoz summasidan kelib chiqqan holda ajratiladi.

Chorak mobaynida amalda ajratilgan ajratmalar miqdori har chorak soliqlar to'langandan so'ng amalda olingan foydadan kelib chiqqan holda,

foйда va zararlar to'g'risidagi hisobotga muvofiq qayta hisoblab chiqariladi.

Jamg'armaga ajratmalar normalari Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan bank faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda har chorakda Bank Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Jamg'armaga ajratilgan mablag'lar harakati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Tijorat banklari hisob raqamlari rejasiga muvofiq tijorat bankining alohida balans hisob raqamida hisobga olinadi.

Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kredit berish tartibi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi PF-2564-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarga, dehqon va fermer xo'jaliklariga, shuningdek, kichik tadbirkorlikning boshqa subyektlariga tijorat banklari tomonidan Jamg'arma mablag'lari hisobidan mikrokredit berish «Mikromoliyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga, shuningdek tijorat banklari tomonidan belgilanadigan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan mikrokreditlar foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda beriladi, «Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki tomonidan beriladigan mikrokreditlar bundan mustasno.

Kreditlar mijozning talab qilib olinadigan depozit hisob raqami joylashgan joy bo'yicha beriladi.

Zarar ko'rib ishlayotgan, likvidsiz balansga ega bo'lgan qarz oluvchilarga Jamg'arma mablag'lari hisobidan kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirib olinadi. Ushbu qoida kredit shartnomasida albatta nazarda tutilishi kerak.

Qarz oluvchilar kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni (kredit paketini) taqdim etadi:

1. Kredit buyurtmanomasi;

2. Qarz oluvchining bankdagi hisob raqamiga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi albatta ko'rsatilgan holdagi biznes-reja;

3. Davlat soliq xizmatining Mahalliy (tuman) organi tasdiqlangan, so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-shakl) hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2a-shakl), shuningdek 90 kundan ortiq vaqtdagi qarzlari bo'yicha solishtirish dalolatnomasi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl), dehqon xo'jaliklari bundan mustasno;

4. Quyida ko'rsatilgan kreditni qaytarishni ta'minlash shakllaridan bittasi.

To'lamaslik xavfini bartaraf etish uchun qarz oluvchi ta'minotga ega bo'lishi kerak, ta'minotga bo'lgan asosiy talab uning amalga oshiriluvchanligi hisoblanadi.

Qarz oluvchi bankka ta'minlashning quyidagi turlaridan bittasini taqdim etishga haqlidir:

- mol-mulkni yoki qimmatli qog'ozni garov sifatida qo'yish;
- bank yoki sug'urta tashkiloti kafolatnomasi;
- uchinchi shaxslarning kafilligi;

- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytarmasligi xavfini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta polisi.

Banklar o'zlari bilan doimiy aloqaga, bank hisob raqamida doimiy pul oqimiga, yaxshi nufuzga va yaxshi kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qaytarish ta'minotini taqdim etmasdan, blankli (ishonchli) kreditlar berishga haqlidirlar.

Mol-mulkni garovga qo'yish kreditning qaytarilishini ta'minlash shakllaridan biridir. «Garov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq har qanday mol-mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatbaho boyliklar, zargarlik buyumlari, erkin almashtiriladigan valyuta va shu kabilar garov predmeti bo'lishi mumkin, (muomaladan chiqarilgan buyumlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq garov predmeti bo'la olmaydigan boshqa mol-mulk va/yoki mulkiy huquqlar (talablar) bundan mustasno).

Kredit hisobiga sotib olinadigan qiymatning 80 foizi miqdoridagi mol-mulk hammasi kredit bo'yicha garov predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kafolatnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga muvofiq garantning yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi.

Kafillik O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq qarzdor va kafil o'rtasida bank-benefitsiar foydasiga yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Kredit paketini tahlil qilish chog'ida bank kredit bitishuvining har xil jihatlarini, qarz oluvchining kredit tarixini, uning rahbari nufuzini (oldingi ish joylari, layoqatliligi, ilgari olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlay olishi va shu kabilarni) baholaydi.

Aylanma mablag'larni to'ldirishga kredit olish uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan kredit olish uchun qarz oluvchilar tomonidan bankka taqdim etiladigan hujjatlar ilova qilingan holdagi buyurtmanoma bankka kelib tushgan kundan boshlab ushbu kredit bo'yicha bank xulosasini berishgacha bo'lgan muddat uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Investitsiya loyihasini mablag' bilan ta'minlash uchun kredit olishga kredit buyurtmanomalarini banklar tomonidan ko'rib chiqish muddati tegishli ravishda uzaytirilishi, biroq ko'pi bilan ikki baravar uzaytirilishi mumkin.

Kredit shartnomasi tuzilgandan keyin bank bo'limi rahbari yoki u vaqtincha bo'lmagan taqdirda uning o'rinbosari o'z vakolati doirasida muddati va foiz stavkasi ko'rsatilgan holdagi ssuda hisob raqami ochish to'g'risida buxgalteriyaga buyruq beradi.

Kredit berish to'g'risida qaror qabul qilinishi bilan qarz oluvchiga kredit kartochkasi ochiladi, kredit shu kartochka bo'yicha nazorat qilib boriladi.

Qurilish, texnika bilan jihozlash va rekonstruktsiya qilishga berilgan kreditlar hisobiga moliyalash faqat barcha zarur loyiha-smeta hujjatlari va boshqa hujjatlar amaldagi qonunchilikka muvofiq bankka taqdim etilgandan keyingina ochiladi.

Kreditlar alohida ssuda hisob raqami ochish va qarz oluvchining tovar-moddiy boyliklar uchun to'lov topshiriqnomasini ushbu hisob raqamidan naqd pulsiz to'lash yo'li bilan beriladi.

Kredit xodimining farmoyishiga binoan alohida ssuda hisob raqamlari bo'yicha berilgan kreditlar muddatli majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi, ular, kredit berish muddatlariga ko'ra, kredit to'liq qaytarilgungacha ko'zda tutilmagan holatlar hisob raqamlarida hisobga olib boriladi.

Kreditni qaytarish muddatlari jadval holida taqdim etilishi mumkin, u kreditning pul oqimlari tushishi istiqbollari ko'ra bir necha bosqichda qaytarilishini nazarda tutadi.

Qaytarish muddati etib kelganda va qarz oluvchida pul bo'lmaganda kredit muddati o'tgan ssudalar hisob raqami orqali undiriladi, uning bo'yicha muddatli majburiyatlar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi va qonun hujjatlarida belgilangan navbatli tartibda to'lanadi. Bunda foizlar kredit qarzidan oldin to'lanadi.

Qarz oluvchilarga berilgan kreditlar, kredit berish muddatiga ko'ra, tijorat bankining tegishli balans hisob raqamlarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan tijorat banklari hisob raqamlari rejasiga muvofiq hisobga olinadi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring olib boradi. Monitoring qarz oluvchining buyurtmanomasini va kredit shartnomasi shartlarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashishga yo'naltirilishi kerak.

Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga (buyurtmanomalarga) muvofiq mahsulot etkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda hajmlari, o'z aylanma mablag'lari mavjud bo'lishi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari ahvoli, aylanma mablag'larning muomalada bo'lishi tahlil qilinadi. Bank, qarz oluvchining kredit ishidagi ko'rsatkichlarni turkumlagan holda, kreditga qodirlik bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi.

Bankka berilgan garovning holati, kreditdan kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda samarali va maqsadli foydalanilishi joyida o'rganiladi.

Bank qurilishni mablag' bilan ta'minlashga berilgan kreditlar bo'yicha, monitoring jarayonida kreditlangan obyektida kredit shartnomasida qayd etilgan muddat va shartlarda bajarilgan ishlar hajmini nazorat tartibida o'lchab chiqadi.

Berilgan kreditlardan maqsadli foydalanmaganlik aniqlangan taqdirda bank kreditning belgilangan maqsadda foydalanilmagan qismini kredit shartnomasida belgilangan tartibda Qarz oluvchining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamidan muddatidan oldin undirish huquqiga egadir.

Qarz oluvchi asosiy qarzni va uning bo'yicha foizlarni kredit shartnomasida qayd etilgan muddatda to'lanmagan taqdirda bank, sudga murojaat qilmasdan, o'z talablarini qo'yilgan mol-mulk hisobidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 280-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq qondirishga haqlidir.

Tavakkalchiliklarning yo‘l qo‘yiladigan darajalarini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari sarmoyasi adekvatligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan beriladigan kreditlar bo‘yicha mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarga zaxiralarni shakllantirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Aktivlar sifatini tasniflash, ular bo‘yicha mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun tijorat banklari tomonidan yaratiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

15.3. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini imtiyozli kreditlash

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g‘alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlari asosida tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g‘alla va paxta xom-ashyosi etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlari uchun kreditlar berish tartibini belgilaydi.

Tijorat banklari tomonidan kreditlar qishloq xo‘jaligi korxonalariga muddatlilik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik hamda maqsadli foydalanish shartlarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g‘alla va paxta xom-ashyosi etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlarida beriladi.

Kreditlar davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom-ashyosi va g‘alla qiymatining 60 foizigacha (tayyorlov korxonasi tomonidan bo‘nak tariqasida etkazib berilgan urug‘lik qiymatini inobatga olgan holda) miqdorida beriladi.

Bunda, kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda ajratiladi:

- «paxta xom ashyosi etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil etishtirilayotgan-yilning 1-apreliga qadar paxta xom-ashyosi qiymatining 25 foizigacha, 1-iyulga qadar 50 foizgacha va 1-sentyabrga qadar 60 foizgacha;

- g‘alla etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil etishtirilayotgan-yilning 1 yanvariga qadar g‘alla qiymatining 30 foizgacha, 1 aprelga qadar 50 foizgacha va 1 iyunga qadar 60 foizgacha.

Har oy va choraklarda ajratiladigan kredit resurslari miqdori Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi taklifiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Kredit miqdori qishloq xo'jaligi korxonasining «O'z paxtasanoat» uyushmasi va «O'z donmahsulot» AK korxonalari (bundan keyingi matnlarda - tayyorlov korxonalari) bilan davlat ehtiyojlari uchun etkazib beriladigan mahsulot uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi o'rtacha xarid narx asos qilib olinadi.

Mazkur kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun berilishi mumkin:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun;
- mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;

- yoqilg'i-moylash mahsulotlarini xarid qilish uchun;

- MTPLar, muqobil MTPLar, fermer xo'jaliklari, «O'z kimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, «O'z donmahsulot» AK va «O'z paxtasanoat» uyushmasi tizimidagi korxonalar huzurida faoliyat yuritayotgan muqobil MTP mas'uliyati cheklangan jamiyatlari hamda qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik subyektlarining xizmatlari uchun to'lovlarga;

- Lizingga (moliyaviy ijaraga) berilgan texnika vositalarining lizing to'lovlariga;

- SIUlar (suv iste'molchilari uyushmalari) xizmatlari uchun to'lovlarga;

- yagona er solig'i to'lovlariga;

- Elektr energiya to'lovlariga;

- Urug'lik uchun to'lovlarga;

- Qishloq xo'jaligi korxonalarining paxta va g'alla etishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zaruriy ehtiyojlari uchun ham to'lovlar amalga oshirilishi mumkin. Boshqa zaruriy ehtiyojlar hisobidan paxta va g'alla etishtirish bilan bog'liq xarajatlarga, bank xizmati, xo'jalik va idora xarajatlari, ichki xo'jalik irrigatsiya va kollektor-drenaj tarmoqlarini tuzatish xarajatlari, sug'urta xarajatlari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'lanadigan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda fermer xo'jaliklari uyushmalarini saqlash xarajatlari uchun to'lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Bunda, yuqorida paxta va g'alla ekinlarini etishtirish xarajatlarining har bir turini moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarning eng ko'p

miqdori yuzasidan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan har-yilgi hosil uchun agrotexkartalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mazkur tavsiya etilayotgan xarajatlarning agrotexnika me'yorlari qishloq xo'jaligi korxonalariga biznes-reja ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasining biror-bir xarajat turi bo'yicha to'lovlarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda paxta va g'alla etishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ruxsat etilgan xarajat turlari bo'yicha, shuningdek qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olishga, ichki xo'jalik irrigatsiya va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalashga ishlatilishi (mineral o'g'it, kimyoviy yoki biologik vositalar, yoqilg'i moylash materiallari va urug'lik material xarajatlari bundan mustasno) mumkin.

Agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan imtiyozli kredit resurslarining ruxsat etilgan xarajat turlari bo'yicha maqsadli sarflanishi yuzasidan monitoring qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari zimmasiga yuklatiladi.

Kreditlar tegishli qishloq xo'jalik mahsuloti bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalari bilan yakuniy hisob-kitoblar yakunlanguncha, lekin g'alla etishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha 12 oydan va paxta xom-ashyosi etishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha 18 oydan ko'p bo'lmagan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqsiz beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash bank marjasini hisobga olgan holda, imtiyozli foiz stavkasi bilan amalga oshiriladi.

Bu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi-yillik 3 foiz miqdorida belgilanib, uning 2 foizi bank marjasini tashkil etadi.

Kredit qishloq xo'jaligi korxonasiga uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochgan va unga xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan beriladi. Ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat berilmaydi.

Oldingi-yillarda ajratilgan imtiyozli kreditlar to'liq so'ndirilgandan so'ng joriy-yil hosili uchun imtiyozli kreditlar beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari tayyorlov korxonalari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzganlaridan keyin kredit olish uchun ularning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka ariza bilan murojaat etishadi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nusxalari;

- kreditga bo'lgan talabni aniqlash uchun tayyorlangan biznes-reja;

- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl).

Kreditlar qaytishini ta'minlash maqsadida, tijorat banki davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom-ashyosi va g'alla etishtirishni moliyalashtirish maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalariga berilgan imtiyozli kreditlar qaytarilishi bo'yicha o'zining tadbirkorlik xavfini sug'urta qilishi mumkin. Bunda, sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan sug'urta polisi kredit shartnomasida belgilangan kreditning butun qaytarish muddatiga beriladi. Sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan sug'urta puli taqdim etilayotgan kredit miqdoridan ko'p bo'lmasligi zarur.

Doimiy ravishda davlat buyurtmasini va tijorat banki oldidagi majburiyatlarini bajarib kelayotgan fermer xo'jaliklariga kreditlar qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minotsiz (ishonchli kreditlar) ajratilishi mumkin.

Tayyorlov korxonalarini tijorat banklari tomonidan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini qoplash uchun berilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlarning qarzdor qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan muddatida qaytarilishi borasida kafillik berishlari mumkin. Kafillik qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilganidan so'ng, bank qishloq xo'jaligi korxonasining arizasini ko'rib chiqishi va 3 kun muddat ichida u bilan kredit shartnomasi tuzishi lozim.

Bank kredit qo'mitasi tomonidan kredit berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda, u raddiyani yozma shaklda izohlab berishi shart.

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so'ng, keyingi ish kunidan kechiktirilmagan qishloq xo'jaligi korxonasiga ssuda hisobvarag'i ochiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining ssuda hisobvarag'idan to'lovlar yuqorida ko'rsatilgan maqsadlar uchun naqd pulsiz shaklda (ish haqidagi tashqari) qishloq xo'jalik korxonalarining to'lov topshiriqnomalariga asosan amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga joriy-yil hosili uchun etkazib berilgan moddiy-texnik resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun 2-kartotekaga kirim qilingan va belgilangan tartibda qarz oluvchi tomonidan aktseptlangan to'lov talabnomalariga muvofiq to'lovlar amalga oshiriladi.

To'lov talabnomalari qarz oluvchi tomonidan aktseptlanmagan taqdirda, to'lovlar sud qarori asosida undiriladi.

Shuningdek, «O'zneftmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi, «Qishloqxo'jalik-kimyoy» hududiy aksiyadorlik jamiyatlari va MTP (mashina-traktor parklari) tuman korxonalarini va tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda fermer xo'jaligining joriy va kelgusi oyda amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlariga qilinadigan xarajatlar qiymati miqdorida (o'g'itlash, shudgorlash) oidindan to'lovni amalga oshirish belgilangan taqdirda fermer xo'jaliklari ushbu xarajatlar summasini to'lov topshiriqnomalari orqali oldindan to'lovlarni o'tkazishlari mumkin.

Bunda, to'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) oylik ish haqi to'lovlari uchun agrotexkartalarda belgilangan me'yorlarda;

b) qishloq xo'jalik korxonalarining mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, «O'zagromashservis» uyushmasi MTP larining xizmatlari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari, foydalanilgan elektroenergiya va urug'lik materiali qiymati uchun to'lovlarda, mablag'lar «Qishloqxo'jalikkimyoy» AJ filiallari, «O'zagromashservis» uyushmasi MTP lari, «O'zneftmahsulot» kompaniyasi, «O'zbekenergo» DAK korxonalarini hamda tayyorlov korxonalarining maxsus 23210 (23220)-sonli hisob raqamlariga o'tkaziladi;

v) SIUlar (Suv iste'molchilari uyushmalari), o'simliklarni biologik usulda himoya qilish uchun biolaboratoriya va biofabrikalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar ularning maxsus 23210 (23220)-sonli hisob raqamlariga o'tkaziladi;

g) muqobil MTPlar, fermer xo'jaliklari, «O'zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, «O'zdonmahsulot» AK va «O'zpaxtasanoat» uyushmasi tizimidagi korxonalar huzurida faoliyat yuritayotgan muqobil MTP mas'uliyati cheklangan jamiyatlari hamda qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan va ko'rsatiladigan texnika xizmatlari uchun to'lovlarda, mablag'lar ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarida ochilgan maxsus 23210 (23220)-sonli hisob raqamlariga o'tkazib beriladi;

d) boshqa tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hamda ehtiyot qismlar uchun to'lovlarda, mablag'lar ushbu tashkilotlarning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlariga o'tkazib beriladi.

Tijorat banklari to'lovlarning ssuda hisobvarag'idan yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlar va agrotexnik me'yorlar bo'yicha amalga

oshirilishini nazorat qiladi. Tijorat banklari sug'urta tashkilotlari va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman bo'linmalari bilan birgalikda sug'urta shartnomasi asosida har bir qishloq xo'jaligi korxonasi bo'yicha paxta va g'alla ekinlarining holatini va bo'lajak hosilning berilgan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash uchun etarligini aniqlash maqsadida doimiy monitoring o'rnatadilar.

Ekinlar (to'liq yoki qisman) mavjud bo'lmagan yoki ular ahvolining qoniqarsizligi, jumladan agrotexnik tadbirlarning kechikishi, ekin maydonlarini begona o'tlar bosib ketishi natijasida kutiladigan hosil olishning imkoni yo'qligi aniqlanganda, bu haqda bank va sug'urta tashkiloti hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman bo'linmalari (Fermer xo'jaliklari uyushmasining vakilligi) birgalikda uch tomonlama dalolatnoma tuzadilar. Ushbu dalolatnoma asosida bank kreditlashni to'xtatadi va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin so'ndirish choralarini ko'radi. Bu choralar kredit shartnomasida kelishilgan bo'lishi kerak.

Shu bilan bir vaqtda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tuman bo'linmalari tomonidan ushbu dalolatnoma xizmat ko'rsatuvchi tarmoq korxonalariga etkazilishi lozim.

Kreditlar va unga hisoblangan foizlar qishloq xo'jaligi korxonalarining maxsus 23210 (23220) hisob raqamlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan, birinchi navbatda bank tomonidan memorial orderlar bilan undiriladi.

Kredit shartnomasi asosida berilgan kreditlarni qaytarish muddati etib kelganda, ularni undirib olish uchun, qarzdor qishloq xo'jaligi korxonasining mablag'i etarli bo'lmaganda, tijorat banklari sug'urta polisi asosida sug'urta tashkilotlariga sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risida murojaat qiladilar.

Sug'urta to'voni, tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida tuzilgan Bosh polis asosida tijorat banklariga 5 kun muddatda to'lab beriladi.

Topshirilgan mahsulot uchun yakuniy hisob-kitoblarda tayyorlov korxonalarini tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga yetkazib berilgan moddiy boyliklar qiymati va avvalgi-yillar qarzlarni chegirib qolishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu moddiy boyliklar uchun hisob-kitoblar va kreditor qarzlarni undirish ajratilgan bank kreditlari to'liq qaytarilgach, qishloq xo'jalik korxonasining hisob raqamidan o'rnatilgan tartibda to'lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foizlar kreditning amaldagi qoldig'iga har kuni hisoblab boriladi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan:

- g'alla etishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha-yilning iyul oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha;

- paxta xom ashyosi etishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha-yilning noyabr oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha undiriladi.

Bunda qishloq xo'jaligi korxonalari kreditni va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarishlari mumkin.

Ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishi xizmat ko'rsatuvchi bank rahbarlari zimmasiga yuklatiladi. Shuningdek, ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanish Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi tomonidan tekshirib boriladi.

Davlat ehtiyojlari uchun etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarni belgilangan maqsadlar bo'yicha yo'naltirishga mansabdor shaxslarning aralashuvi qat'iyan ta'qiqlanadi.

15.4. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (keyingi o'rinlarda «Jamg'arma» deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 2006-yil 11 maydagi PF-3751-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg'arma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning etakchi, eng avvalo, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Muhkamasi qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va o'z nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilib, yuridik shaxs huquqlariga, o'zining mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisobvaraqa, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisobvarag'iga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan muhriga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi timsolida Jamg'arma muassisi hisoblanadi.

Jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlatning Jamg'armaga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larini jamlash;

- iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

- strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni, birinchi navbatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

- yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'at va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta'minlash;

- etakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun muhim ustuvor ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun xorijiy texnologiyalar va uskunalarni sotib olishga mablag'larni muntazam yo'naltirgan holda respublikaning tijorat banklariga Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilangan tartibda kredit liniyalarini ochish;

- birinchi navbatda istiqbolli, ammo etarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzulmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalaratutug amalga oshirilishini moliyalashtirish;

- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan,

keyinchalik Davlat byudjeti mablag'larini hisobidan qoplash yo'li bilan moliyalashtirish;

- respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog'iga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo'laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

- davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lashni moliyalashtirish;

- xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo'shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta'minlash.

Yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda Jamg'arma quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- navbatdagi-yil uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko'rsatkichlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturining asosiy parametrlari bilan bog'liq holda Jamg'arma mablag'larining kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi va belgilangan muddatlarda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga taqdim etadi;

- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini tuziladigan shartnomalar asosida kreditlaydi;

- davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qaytarib bermaslik asosida mablag'larni beradi;

- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarining ustav kapitaliga investitsiya kiritadi (korxonalar yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda);

- Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha va Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar hamda foizsiz kreditlar beradi, ajratilgan kreditlar miqdori

keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg'arma kreditini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda, ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo'shiladi;

- yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar beradi;

- moliyalashtirish shartlari va Jamg'arma mablag'larini qaytarish mexanizmi to'g'risida imzolananadigan bosh bitimlar asosida, har bir tijorat banki uchun har-yili belgilanadigan limitlar doirasida tijorat banklarini moliyalashtirishni amalga oshiradi;

- Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi va tijorat banklariga berilgan mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boradi hamda kelib tushish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha Jamg'arma mablag'larining hisobini yuritadi;

- tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar va ular bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to'g'risidagi har qanday ma'lumotni olish huquqiga ega bo'lgan holda, tijorat banklari va qarz oluvchi korxonalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini o'rganadi;

- Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshiradi;

- Jamg'arma faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'radi yoki belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jamg'arma mablag'larining bo'sh qoldiqlarini ishonchli boshqarish to'g'risida shartnomalar tuzadi;

- Jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa funktsiyalarni amalga oshiradi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

a) avvalo yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek, transport va telekommunikatsiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar

ishtirokidagi loyihalarda O'zbekiston Respublikasi ulushini qo'shma moliyalashtirish;

b) kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

v) yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarining ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

g) davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklariga xorijiy valyutada ochilayotgan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish hamda amalga oshirish;

e) ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo'li bilan moliyalashtirish;

j) yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

z) birinchi navbatda istiqbolli, ammo etarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarini, Davlat byudjeti va investitsiya dasturining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish);

i) tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarining investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;

k) Jamg'arma boshqaruvi va ijro etuvchi apparatining ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga.

Mablag'larni berish muddati va shartlari Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilanadi. Jamg'arman tomonidan beriladigan kredit resurslari bo'yicha foiz stavkasi-yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Jamg'armaning kredit resurslari shartnomada belgilangan chet el valyutasida ajratiladi.

Tijorat banki marjasining eng yuqori chegarasi Jamg'arman va tijorat banki o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida har bir loyiha bo'yicha alohida belgilanadi.

Ajratilgan mablag'larning qaytarilishi tijorat banklari tomonidan kechiktirilgan holatlarda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati kechiktirilgan to'lovlar bo'yicha qarzdorlik summasining 0,01 foizi miqdorida (qarzga olingan mablag'lar hajmining 10 foizidan oshmagan holda) penya undiriladi.

Jamg'arman mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladigan import kontraktlari bo'yicha avans to'lovlarini to'lash, qoidaga ko'ra, etkazib beruvchi tomonidan qayta moliyalashtiruvchi tijorat bankiga birinchi darajali xorijiy bank tomonidan, avans to'lovini qaytarishga berilgan kafolatnomani taqdim etgan holda amalga oshiriladi.

Tijorat banklariga ajratiladigan kredit mablag'larining hajmi ularning buyurtmanomolari asosida belgilanadi va ushbu buyurtmanomalarda qarz oluvchi korxonalarining kredit olish uchun tijorat banki tomonidan ma'qullangan loyihalar mablag'larining umumiy miqdori aks ettiriladi.

Tijorat banklariga har bir loyiha (modernizatsiya, qayta qurish yoki ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish) uchun beriladigan kredit hajmi loyiha qiymati umumiy miqdorining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Qarz oluvchi korxonalar (tashkilotlar)ga kredit berish Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'arman mablag'lari hisobidan moliyalashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish shartlari, ko'rib chiqish tartibi va ekspertizasi to'g'risidagi Nizom va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hujjatlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirib boriladi.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tijorat banklarining buyurtmanomalarini ko'rib chiqish muddati ariza olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim. Ushbu muddatda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tijorat banki tomonidan taklif

qilingan loyihani moliyalashtirish to'g'risida ijobiy qaror chiqaradi yoki tijorat bankiga yozma ravishda asoslangan raddiyanoma beradi.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning ijobiy xulosasi qabul qilinganidan so'ng Jamg'armaning ijro etuvchi direktsiyasi 5 ish kuni mobaynida tijorat banki bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Kredit shartnomasida tijorat bankiga berilayotgan kredit resurslarining miqdori, foiz stavkasi va maqsadi (yo'naltirish manzili), muddati va shartlari, shuningdek tomonlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq huquq va burchlari hamda boshqa masalalar aks ettiriladi.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining buyurtmanomalarini ko'rib chiqish muddati buyurtmanoma olingan sanadan boshlab 15 kundan oshmasligi lozim.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning ijobiy qarori qabul qilinganidan so'ng Jamg'armaning ijro etuvchi direktsiyasi 5 ish kuni mobaynida taqdim etilgan buyurtmanoma va Kengash qaroriga binoan:

1) Moliya vazirligi bilan qaytarib bermaslik asosida buyurtmanomada va ushbu Nizomda belgilangan maqsadlar uchun mablag' ajratish to'g'risida bitim;

2) Iqtisodiyot vazirligi va tegishli loyihaning tashabbuskori bilan buyurtmanomada va ushbu Nizomda belgilangan maqsadlar uchun grant asosida mablag' ajratish yoki foizsiz kredit berish to'g'risida bitim tuzadi.

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'lari ularni birinchi darajali xalqaro moliya vositalariga joylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ishonchli boshqaruv uchun belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Jamg'arma mablag'lari bo'sh qoldiqlarining umumiy hajmi uning jami aktivlarining kamida qirq foizini tashkil etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki har chorakda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga Jamg'arma mablag'larini ishonchli boshqarish natijalari, jumladan operatsiyalar bo'yicha daromadlilik, hisobot davrida olingan daromad miqdori, joylashtirilgan Jamg'arma mablag'lari portfeli tarkibi, foiz stavkalarining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direktsiyasi zimmasiga Jamg'arma mablag'larining qat'iy maqsadli va qonuniy yo'naltirilishi, shuningdek buxgalterlik hisobining yuritilishi va Jamg'arma faoliyati bo'yicha hisobotlarning tuzilishi uchun javobgarlik yuklanadi.

Tijorat banklari Jamg'arma mablag'laridan to'g'ri va maqsadli foydalanish hamda ularni o'z vaqtida qaytarish uchun mas'uldirlar.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg'arma mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi monitoringini doimiy ravishda belgilangan tartibda o'tkazib boradi.

Tijorat banklari tomonidan Jamg'arma mablag'larining maqsadga muvofiq bo'lmagan holda foydalanish holatlari aniqlanganda, maqsadga nomuvofiq foydalanilgan mablag'larning umumiy hajmi muddatidan oldin undirib olinib, Jamg'arma hisobvarag'iga o'tkaziladi hamda Jamg'arma va tijorat banki o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan jarima sanksiyalari qo'llaniladi.

Jamg'arma mablag'larining Jamg'arma ijro etuvchi direksiyasi tomonidan qonuniy va qat'iy maqsadli yo'naltirilishi ustidan nazorat Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'armaning har-yilgi auditi mustaqil xalqaro auditor tomonidan amalga oshiriladi, Jamg'arma mablag'larining shakllantirilishi va foydalanilishi O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi tomonidan tekshirib turiladi.

Tijorat banklari tomonidan o'z vaqtida qaytarilmagan Jamg'arma mablag'lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi.

Jamg'armani qayta tuzish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayanch so'z va iboralar

Bank, boj solig'i, imtiyozli kredit, imtiyozli kreditlash jamg'armasi, moliyaviy imtiyoz, foiz stavkasi, qishloq xo'jaligi.

Takrorlash uchun savollar

1. Imtiyozli kreditlar deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar qaysi toifadagi subyektlarga beriladi?
3. Tijorat banklarining imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari qaysi manbalar hisobidan shakllantiriladi?
4. Qishloq xo'jaligi korxonalariga imtiyozli kreditlar berish tartibi qanday?
5. Imtiyozli kreditlarning foiz stavkalari qanday belgilanadi?
6. Tijorat banklarining imtiyozli kreditlar berish amaliyotiga nisbatan qanday moliyaviy imtiyozlar qo'llaniladi?

XVI BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATSIYALARI

16.1. Tijorat bankining faktoring operatsiyalari mazmuni va uning kelib chiqishi

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi. Ushbu jarayonda zamonaviy, ikki pog'onali bank tizimini shakllantirish va isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'sha davrda ta'kidlaganidek, «respublikada butunlay yangi bank tizimini vujudga keltirish mustaqil kredit-pul siyosatini o'tkazish imkonini yaratadi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshchiligida ikki bosqichli bank tizimini tashkil qilish respublikaning iqtisodiy mustaqillikka erishish hamda bozor munosabatlariga o'tish ehtiyojlariga mos keladi»¹.

Bank tizimini isloq qilishda respublikamiz bank amaliyoti uchun yangi bo'lgan xizmat turlarini joriy etishga, mavjud xizmat turlarini esa, rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraldi.

Faktoring xizmati respublikamiz bank amaliyotida mavjud bo'lgan xizmat turlaridan biri hisoblanar edi.

Faktoring inglizcha **factor** degan so'zdan olingan bo'lib, vositachi, agent degan ma'noni anglatadi.

Faktoring – bu savdo-vositachilik operatsiyasining bir turi bo'lib, bunda fatkor kompaniyasi yoki tijorat banki tomonidan mol etkazib beruvchining undirilmagan talablari, ya'ni debitor qarzdorligi regress huquqi bilan yoki regerss huquqsiz sotib olinadi.

Shuningdek, faktoring kredit va valyuta riskidan kafolatlashni hamda to'lovni undirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritishni o'z ichiga oladi.

Xalqaro amaliyotda faktoring ikki xil shaklda qo'llaniladi:

1. Faqat debitor qarzdorlikni inkasso qilish shaklida (invoice discounting).

¹ Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1993.

2. Debitor qarzdorlikni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmatlarni ko'rsatgan holda (full factoring).

XX asrning 60-yillaridan boshlab, Evropada kompaniyalar o'rtasidagi to'lovlarning uzluksizligini ta'minlashda muammolarning yuzaga kelganligi faktoring kompaniyalari faoliyatining rivojlanishiga, eksportyorlarning faktoring kreditlariga bo'lgan ehtiyojining o'sishiga sabab bo'ldi. Dastlab, tovar oldi - sotdisi, komission operatsiyalarga asoslangan faktoring xizmati pa do bo'lgan.

O'rta asrlarda savdogarlar ishlab chiqaruvchilar uchun noma'lum bozorlarda tovarlarni sotish bo'yicha agent vazifasini bajarganlar va shu asnoda tovarli faktoringga asos solingan.

Moliya faktoringi AQShda 1890-yilda vujudga kelib, to'qimachilik bo'yicha Evropadan importni to'xtatish uchun himoya bojlarining kiritilishi bilan paydo bo'ldi, lekin u Ikkinchi jahon urushidan keyingina keng rivojlandi.

Jahon iqtisodiyotida faktoring operatsiyalaridan dastlab AQShda XX asr boshlarida, keyinchalik Evropada XX asrning 60-yillaridan boshlab keng foydalanila boshlandi. Hozirda faktoring biznesi jahon iqtisodiyotining eng faol rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda.

Faktoring kompaniyalari millionlab mijozlar bilan Shimoliy va Janubiy Amerikada, Evropa va Osiyoda, Avstraliya va Shimoliy Afrikada ish olib bormoqdalar. 2013-yil ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha faktoring biznesining 60 foizi Evropaga, 9 foizi Amerika qit'asidagi mamlakatlarga, 27 foizi Osiyo mamlakatlariga, 3 foizi Avstraliya va Okeaniyaga, 1 foizi esa Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi¹.

O'tgan XX asrning o'rtalariga kelib, jahon iqisodiyotida faktoringning xalqaro turi rivojlana boshladi. 1960-yilda jahonda dastlabki faktoring assotsiatsiyasi – International Factors Group (IFG) tuzildi, hozirda bu tashkilotga 38 mamlakatdan ortiq kompaniya a'zolik qilmoqda. Assotsiatsiya doirasida faktoring kompaniyalari orasida ma'lumotlarni uzatishning IFEXchange elektron tizimi yaratilgan bo'lib, mazkur tizim kredit limitlarini belgilash, mahsulotlar va xizmatlarini sotishni monitoring qilish va to'lov intizomiga rioya qilishni o'rganish hamda jahon miqyosida debitor korxonalarining kreditga layoqatligini tezkor baholash uchun ishlatiladi.

¹<http://www.factors-chain.com>

1968-yilda o'z ichiga dunyoning 53 mamlakatidan 150 a'zo-kompaniyalarni birlashtirib turuvchi Factors Chain International (FCI) yirik faktoring assotsiatsiyasi tashkil etildi. IFG tashkiloti kabi mazkur assotsiatsiya ham o'zaro ma'lumotlar almashishga xizmat qiluvchi EDIFACToring tizimini ishlab chiqdi.

O'z tarixining barcha davrlari davomida faktoring biznesi dinamik tarzda rivojlanib keldi. So'nggi bir necha o'n-yilliklarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlar faktoring operatsiyalarining rivojlanish sur'atlariga hech ham ta'sir o'tkazmadi va uning o'sish sur'atlari-yiliga 10 foizni tashkil etdi. Faktoring kompaniyalari tomonidan sotib olinayotgan debitorlik qarzlari hajmining ortib borishi bilan birgalikda faktoring operatsiyalarining boshqa rivojlanish ko'rsatkichlari ham yaxshilanib bormoqda.

Faktoring kompaniyalarining o'z mijozlariga kompleks xizmat ko'rsatish saviyasi ortmoqda, xalqaro faktoring va invoys diskaunti rivojlanmoqda. Shuningdek, faktoring mexanizmidan foydalanuvchi iqtisodiyot tarmoqlari soni ham ortib bormoqda. Bu yutuqlarga, asosan, faktoring biznesi bilan shug'ullanuvchi milliy va xalqaro darajadagi huqukiy bazaning yaratilishi va takomillashuvi orqali erishildi. Bunda xalqaro faktoring tushunchasini aniqlab beruvchi asosiy hujjat bo'lib, «Xalqaro faktoring to'g'risida»gi UNIDROT konventsiyasi (Convention on International Factoring) hisoblanadi. Konventsiya 1995-yilda kuchga kirgan bo'lib, dunyoning 14 mamlakati tomonidan imzolangan va Italiya, Nigeriya, Frantsiya tomonidan ratifikatsiya qilingan.

2002-yil 31-yanvarda BMTning Bosh Assambleyasi «Xalqaro savdoda debitor qarzdorliklarni boshqa korxonalariga o'tkazilishini tartiblash to'g'risida»gi 56/81-sonli rezolyutsiyasini qabul qildi. Xalqaro faktoring operatsiyasi, shuningdek, FCI va IFG assotsiatsiyalari a'zolari tomonidan qabul qilingan «Xalqaro faktoring faoliyati»ning tartiblari (General Rules for International Factoring) orqali tartibga solinadi.

Faktoring operatsiyalari sotilgan tovarlar uchun to'lovni kechiktirish shaklida sotuvchilar tomonidan sotib oluvchilarga taqdim etiladigan tijorat krediti asosida vujudga kelgan. 1988-yil Xususiy xuquqni unifikatsiyalash xalqaro instituti tomonidan qabul qilingan «Xalqaro faktoring to'g'risida»gi konventsiyaga asosan, operatsiya quyidagi 4 ta talabdann kamida 2 tasini qondirsagina faktoring hisoblanadi. Ular quyidagilardir:

– qarz talablarini oldindan to'lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi;

– mol etkazib beruvchining buxgalteriya hisobini, avvalo, tovarlarni sotishning buxgalteriya hisobini yuritish;

– mol etkazib beruvchining debitorlik qarzini inkasso qilish;

– mol etkazib beruvchini kredit riskidan sug'urtalash.

Faktoring to'g'risidagi Xalqaro konventsiyaga muvofiq, quyidagi korxonalariga faktoring xizmati ko'rsatilmaydi:

- kichik summada qarzdorligi mavjud, lekin debitorlarining soni ko'p bo'lgan korxonalariga;

- nostandart va tor ixtisoslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalariga;

- subpudratchilar bilan ish olib boruvchi qurilish yoki boshqa korxonalariga;

- o'z mahsulotini sotishdan so'ng xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ish yurituvchi korxonalariga;

- o'z mijozlari bilan uzoq muddatli shartnoma asosida ish yurituvchi va shartnomaga asosan bajarilgan ma'lum ish hajmi uchun to'lov oluvchi korxonalariga.

Faktoring operatsiyalari korxonalarining filiallari, bo'limlari va jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha olib borilmaydi.

Xalqaro amaliyotda faktoring klassik shaklda quyidagi ishtirokchilardan tashkil topadi:

1. Faktor firmasi (bank);

2. Mahsulot etkazib beruvchi;


3. Sotib oluvchi.

Bu faktoring operatsiyasida tijorat kreditining tovar shakli qo'llaniladi, ya'ni sotuvchi sotib oluvchiga tovarni to'lov muddatini kechiktirib sotadi.

Faktoring yangi bank xizmat turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, faktoring bank uchun noan'anaviy xizmat turi hisoblanadi. Chunki, faktoring operatsiyasi bilan maxsus faktoring kompaniyalari ham shug'ullanadilar.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, faktoring operatsiyalarini yo faktor kompaniyalari, yo tijorat banklarining maxsus bo'limalari, yoki banklarning shoxobchalari amalga oshiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari va faktor kompaniyalarining faktoring operatsiyalari va ularni rivojlantirish yo'nalishlari xususida xilma-xil ilmiy-nazariy qarashlar mavjud.



24-rasm. Faktoring funksiyalari.¹

Faktoring operatsiyasining asosiy maqsadi mijozlarning qarzdorligini o'z vaqtida inkasso qilish, to'lovlarni o'z muddatida undirish, shubhali qarzdorliklarni paydo bo'lishini oldini olish, mijozlarning likvidligini oshirish va ularning moliyaviy risklarini pasaytirishdan iboratdir.

Faktoring asosida bank (faktor firma) tomonidan mijozning jo'natilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-varaqlarini (talabnomalarini) asosiy qismi (70 foizdan-90 foizgacha) «kesh» usulida (tezda 2-3 kun ichida) sotib olinadi va qolgan qismi (kredit uchun foizini chegirib tashlangan holda) debitorlardan tushum kelib tushmasligidan qat'iy nazar belgilangan muddatda to'lab beriladi. Shuni uchun xalqaro bank amaliyotida ta'minot sotuvchi kreditlash, deb ham ataladi.

Faktoring uchun to'lov va komission xizmatlar uchun to'lov mahsulot etkazib beruvchi va faktor firmasi (bank) o'rtasidagi tuziladigan shartnomada ko'zda tutiladi.

¹Черкасов В.Э. Банковские операции: Финансовый анализ. М.: ФИС, 2010 г. – С. 127.

Faktoring operatsiyalarida doim 3 tomon ishtirok etadi: faktorvositachi (tijorat banki yoki faktor kompaniyasi); mol etkazib beruvchi; qarzdor (mahsulotlarni sotib oluvchi).

Faktoringning asosiy tamoyili shundaki, faktoring operatsiyasini amalga oshirayotgan bank (faktor firma) o'z mijozlaridan ularning etkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, amalga oshirilgan ishlar uchun boshqa korxonalariga bo'lgan talablarini sotib oladi va shu orqali bu talablar uchun to'lovlarni olishi huquqini oladi.

Taniqli iqtisodchi olim O.I.Lavrushin tahriri ostida chop etilgan «Pul, kredit, banklar» darsligida banklarning faktoring operatsiyalari uchun asos bo'lib, bank tomonidan mol etkazib beruvchi tomonidan jo'natilgan tovarlarning hujjatlarini sotib olinishi va debitordan to'lov summasini undirish huquqini bankka berilishi hisoblanadi¹. Ammo ushbu talqinda tovar hujjatlarini regress huquqi bilan yoki regress huquqsiz sotib olinishi o'z ifodasini topmagan.

Mazkur manbada faktoring operatsiyalariga xos bo'lgan quyidagi afzalliklar e'tirof etilgan:


- mol etkazib beruvchiga to'lovni olishni tezlashtiradi;
- to'lovni kafolatlaydi;
- hisob - fakturalar hisobi bo'yicha xarajatlarni kamaytiradi;
- sotib oluvchida moliyaviy qiyinchilik yuzaga kelgan sharoitda mol etkazib beruvchilarga to'lovlarni o'z vaqtida olinishini ta'minlaydi;
- mol etkazib beruvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Faktoring operatsiyalarining samaradorligi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

1. Tijorat banklari va faktor kompaniyalarining faktoring operatsiyalaridan oladigan daromadlarining barqarorligi.

Faktoring operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning barqarorligini aniqlashda uning darajasini oldingi davrlarga nisbatan barqaror sur'atlarda o'sish yoki o'zgarmasdan barqaror darajada qolishi hisobga olinadi. Bunda iqtisodiy tahlilning qiyosiy va trendli tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Masalan, tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining daromadlilikini aniqlashda ushbu daromadlar bankning kredit operatsiyalaridan olingan daromadlarining jami summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytirilib, faktoring kreditlarining daromadlilik darajasi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning barqarorligini baholash uchun quyidagi tartibda qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi:

¹ Денги, кредит, банки. Учебник. Под ред. Проф. Лаврушина О.И. – М.: КНОРУС, 2009: - С.452.



25-rasm. Faktoringni ijobiy tomonlari.¹

- ko'rsatkichni boshqa banklarning shu ko'rsatkichi bilan taqqoslash;

- ushbu ko'rsatkichning joriy davrdagi darajasi oldingi davrlardagi darajalari bilan taqqoslanadi.

Faktoring operatsiyalarining samaradorligini aniqlashda iqtisodiy tahlilning trendli tahlil usuli ham muhim o'rin tutadi. Chunki, trendli tahlil usuli orqali faktoring operatsiyalaridan olingan daromadlarni o'zgarish tendentsiyasi aniqlanadi.

2. Faktoring operatsiyalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitor qarzdorligini pul mablag'lariga aylanish darajasini oshishi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitor qarzdorligini pulga aylanish darajasini tavsivlovchi ko'rsatkich bo'lib, debitor qarzdorlikni aylanish koeffitsienti hisoblanadi. Ana shu koeffitsientning darajasiga faktoring kreditlarining ta'siri ushbu kreditlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

¹Дихтяр В.И. Банковские услуги предприятием. Базовые операции: учеб.пособ. –М.: Российского университета дружбы народов,-2007 г. 138 стр.

3. Faktoring kreditlarining o'sish sur'ati bilan ulardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik.

Agar faktoring kreditlaridan olingan daromad summasining o'sish sur'ati faktoring kreditlari summasining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa yoki teng bo'lsa, u holda, faktoring operatsiyasi samaradorligini talab darajasida, deb hisoblash mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring operatsiyalarining quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

1. Ichki faktoring.

Bunda faktoring shartnomasidagi barcha ishtirokchilar bitta davlatda joylashgan bo'ladi.

2. Xalqaro faktoring.

Bunda faktoring operatsiyalari xalqaro miqyosda amalga oshiriladi.

3. «Ochiq» faktoring.

Ochiq faktoring operatsiyasida sotuvchi (mol yetkazib beruvchi) talabni bankka sotilganligi to'g'risidagi ma'lumotni sotib oluvchiga (xaridor) etkazishga majbur. Bu tizimda faktoring firma (bank) mijozni to'lov summasini to'liq olishiga kafolat beradi. Bunda ham u to'lov summasining 80 foizini to'lab beradi. Agar sotuvchi ma'lum sabablarga ko'ra yuborilgan mahsulot uchun tushumni ololmagan taqdirda ham faktoring firma (bank) ma'lum muddat o'tishi bilan sotuvchiga to'lov summasini to'liq to'lab beradi. Lekin bunday holatda sotuvchi uchun komission to'lov stavkasi biroz ko'tariladi. Hozirgi vaqtda xalqaro faktoring amaliyotida faktoring uchun komission haq o'rtacha 0,7-1,5 foizni tashkil etmoqda.

4. «Yopiq» (konfedentsial) faktoring.

Faktoringning ushbu shaklida korxonalar faktoring firmasi (bank) bilan faktoring shartnomasini tuzadi va u faktoring firmasini (bank) tuzilgan bitimlar bo'yicha doimiy ravishda xabardor qilib boradi. Ammo, korxonalar o'z hamkorini (sotib oluvchini) tuzilgan faktor shartnomasidan xabardor qilmaydi.

Faktoring firma (bank) o'z mijoziga faktoring shartnomasidagi to'lov summasining 80 foizini darhol to'lab beradi. Sotuvchi (mol yetkazib beruvchi) o'z hamkoridan to'lov summasini olo olmay qolgan taqdirda, sotuvchining xaridordan talabi faktoring-firma (bank) zimmasiga o'tadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro faktoring amaliyotida «yopiq» (konfedentsial) faktoring uchun shartnomadagi to'lov summasining o'rtacha 0,5-1,0 foizini tashkil etmoqda.

5. Regress huquqi bilan, ya'ni sotuvchidan (mahsulot etkazib beruvchi) to'langan summani qaytarib olish huquqi bilan yoki regress huquqsiz faktoring.

Bu holatlar, sotib oluvchining faktoring shartnomasidagi majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi bilan bog'liq, ya'ni kredit riskini oldini olish natijasida yuzaga chiqadi.

Regress huquqi asosida tuzilgan faktoring shartnomasiga asosan, to'lovchi to'lovga layoqatsiz bo'lib qolsa, faktor firma yoki bank to'lovni mol etkazib beruvchidan undirish huquqiga ega bo'ladi.

Regress huquqsiz faktoringda sotib oluvchining to'lovga layoqatsizliligi tufayli to'lov undirilmasa, u holda, faktor kompaniyasi yoki bank to'lov riskini to'liq o'z zimmasiga oladi, ya'ni ular mol etkazib beruvchiga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Shu sababli, ushbu faktoringda faktor kompaniyasi yoki bankdan sotib oluvchining to'lovga qobilligini chuqur tahlil etish talab etiladi.

6. Faktor firma (bank) tomonidan sotuvchini (mol etkazib beruvchini) oldindan to'lov shaklidagi kreditlash (sotilayotgan qarz majburiyatlari summasini 80 foizigacha) yoki to'lov talabnomalarini aniq muddatda to'lab berish.

Mazkur faktoring operatsiyasining asosiy tamoyili shundaki, shartnomadagi qarz talabnomalari summasining qat'iy belgilangan foizi belgilanadi. Bunga asosan sotuvchi (mol etkazib beruvchi) avtomatik ravishda o'z moliyaviy resurslarini hajmini oshirishga erishadi. Agarda faktoring shartnomasida oldindan to'lov shaklidagi kreditlash emas, balki to'lov talabnomalarini aniq muddatda to'lab berish sharti ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda, faktor firma (bank) tomonidan sotuvchiga (mol etkazib beruvchiga) ma'lum aniq muddatda yoki aniq ma'lum muddat o'tgandan so'ng to'lov o'tkazib beriladi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring xizmatlarining bahosi ikki elementdan tashkil topadi: foizlar va komission to'lovlar. Komission to'lov stavkasi tovar hujjatlari summasiga nisbatan o'rnatiladi va, odatda, 1,5- 2,5 foizni tashkil etadi. Faktoringda tijorat banki tovarlar summasining 80-90 foizini birdan to'lab beradi. Qolgan 10-20 foizi debitor tomonidan qarz summasi to'liq qaytarilgandan so'ng to'lab beriladi.

Faktoring xizmatlarining bahosi 2 elementga bog'liq:

1) Xizmat ko'rsatish uchun haq.

U o'rtacha hisob-faktura narxining 0,5-3,0%ini tashkil qiladi, ammo ba'zilar 5 foizgacha ham boradi.

2) Berilgan kredit mablag'lari uchun haq.

Uning miqdori mijozning faktoring bo'limidan pul olishdan hamda to'lovchidan pul kelib tushishigacha bo'lgan vaqt ichidagi kundalik debetli saldosini miqdoriga qarab belgilanadi.

Faktoring xizmati mijozga shartnoma asosida ko'rsatiladi. Shartnomada tovar etkazib beruvchiga regress huquqi berilgani yoki yo'qligi ko'rsatiladi.

Faktoring va kreditning farqli jihatlari

32-jadval

Faktoring	Kredit
1. Faktoring mijozning debitorlaridan tushadigan pul evaziga qaytariladi.	1. Kredit bankning qarzdorlari orqali qaytariladi.
2. Faktoring to'lovni aniq kechikish muddatiga beriladi.	2. Kredit qat'iy belgilangan aniq muddatga beriladi.
3. Faktoringda ta'minot talab etilmaydi.	3. Kredit asosan garov ostida beriladi.
4. Faktoring tovarni jo'natilgan kuni to'lanadi.	4. Kredit shartnomadagi kunda to'lanadi.
5. Faktoringda hajm cheklanmagan bo'ladi. Bu mijozning sotish hajmini o'sishi bilan bog'liq	5. Kredit shart qilingan summadan oldinroq beriladi.
6. Faktoring debitorlar to'lovni amalga oshirgan kunda so'ndiriladi.	6. Kredit shartnomadagi kundan oldin qaytarilishi mumkin.
7. Faktoring avtomatik tarzda yuk xati va schet-faktura taqdim qilinganda to'lanadi.	7. Kredit olish uchun ko'plab xujjatlarni rasmiylashtirish lozim.

Hozirgi vaqtda, xalqaro amaliyotda mijozlarga moliyaviy xizmat ko'rsatishining universal tizimi bo'lib «ochiq» shakldagi faktoring operatsiyasi hisoblanadi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, faktoring operatsiyasining bu shaklida mijozga faqatgina ishlab chiqarish va mahsulotlarini o'z muddatida etkazib berish vazifasi qoladi, qolgan barcha moliyaviy ishlarni faktor firmasi (bank) o'z zimmasiga oladi. Bu omil esa, mijozning faktor-firma (bank) bajarayotgan vazifalarni qayta bajaruvchi shaxsiy shtatni qisqartirishga, balki ulardan umuman voz kechishga imkon yaratadi. Bu imkoniyatdan keladigan iqtisodiy samara faktoring operatsiyasi xarajatlarini ma'lum qismini qoplashi mumkin.

Jahon amaliyotida faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summalarni belgilashning uch xil usuli mavjud:

1) Kreditlash limitini ajratish.

Faktoring xizmati shartnomasida, agar qarzdorlik summasi belgilangan limitdan oshib ketsa, bank etkazib beruvchiga barcha qo'shimcha qarz talablarini qaytarib berish huquqiga ega, to'lovchining to'lovga qobiliyatsizligida esa, barcha uning qarzdorlik to'lovlari bankning tovar etkazib beruvchiga to'lagan summani undirgunga qadar bankka kelib tushadi.

2) Har oylik yuk jo'natish limitini aniqlash.

Tovar etkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat'iy nazar, shubhali qarzlardan sug'urtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin.

3) Alohida shartnomalar bo'yicha sug'urta.

Bu usul bir mijozga bir necha tovar etkazib berish emas, balki alohida holatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganda qo'llaniladi. Ma'lum holatlarda esa, bularning kombinatsiyasi ham qo'llanilishi mumkin.

Faktoring xizmati to'g'risida bank tovar etkazib beruvchi bilan shartnoma imzolashdan oldin tovar etkazib beruvchi bankka to'lovchining nomi va manzili u bilan kelishuv shartlari, barcha qarzdorlik to'lovlari summasi, har bir qarzdorning summasi, u bilan orasidagi munosabat va boshqa turdagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqib, bank kelishuv shartlari to'g'risida, qaror qabul qiladi. Faktoring xizmatlari to'g'risidagi kelishuv, odatda, 1-4-yilga tuziladi.

Konventsion faktoringda kelishuv xizmatlarni to'liq amalga oshirish, konfidentsial faktoringda esa kelishuv faqat hisob-fakturalar hisobini (diskontirovka) yuritishga tuziladi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoringning ikki turi bir vaqtning o'zida qo'llanilmoqda; konventsion va konfidentsial faktoring.

Konventsion faktoring- bu mijozga moliyaviy xizmatlarning universal tizimini ko'rsatish bo'lib, buxgalteriya hisobi, mol etkazib beruvchilar va sotib oluvchilar bilan hisoblashish, sug'urtali kreditlash va boshqa moliyaviy xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bunda mijozga faqat ishlab chiqarish funksiyasi qoladi. Konventsion faktoring mijoz korxonaga mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Konventsion faktoringda bank mijozga jo'natilgan tovarlar summasining 80 foizini birdan to'lab beradi, qolgan

20 foizini esa, debitordan pul kelib tushishidan qat'iy nazar, belgilangan muddatda to'lab beradi.

Konfidentsial faktoringda ayrim operatsiyalarni amalga oshirish bilan cheklanib qolinadi, ya'ni pul mablag'larini olishga bo'lgan huquqni yon berish, qarz summasini to'lash kabi operatsiyalar. Konfidentsial faktoringda mol etkazib beruvchi mijozga jo'natilgan tovarlar uchun, sotib oluvchi mijozga to'lov uchun faktoring krediti beriladi. Faktoring kreditini o'z vaqtida va to'liq qaytishi debitorni, ya'ni tovarlarni sotib oluvchining to'lov qobiliyatiga bog'liq. Shu sababli, xorijiy banklar sotib oluvchining to'lovga qobilligini baxolashga alohida e'tibor beradilar. Bunda asosiy e'tibor sotib oluvchining pul oqimini baholashga qaratildi.

16.2. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan qonun-qoidalar, tartiblar, ko'rsatiladigan xizmatlar va, xususan, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi lozim. Konstitutsiyaning 5-bo'lim, 15-bobi «Moliya va kredit» deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul- kredit tizimiga ega, deyilgan. Shu bilan birga, uning 124-moddada O'zbekiston Respublikasi bank tizimini Markaziy bank boshqarishi keltirib o'tilgan. Shuning uchun bank faoliyati bilan bog'liq qonunlar va ular bajaradigan operatsiyalar hamda ko'rsatadigan xizmatlar Markaziy bank tomonidan belgilab beriladi.

Shuningdek, faktoring operatsiyalarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksi»da belgilab qo'yilgan me'yorlar va talablarga mos kelishi va tartibga solinishi kerak. Fuqarolik kodeksining 23-bob (313-323-modda) va 42-bob (749-758-modda)larida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

Fuqarolik Kodeksining 23-bobi «Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi» deb nomlanadi. Bunda faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asosi quyidagi moddalarda keltirib o'tilgan:

313-modda. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tish asoslari va tartibi.

Majburiyat asosida kreditorga tegishli bo'lgan huquq (talab) uning tomonidan bitim bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o'tishi mumkin.

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi. Agar qarzdor kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilingan bo'lmasa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o'zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tishi haqidagi qoidalar regress talablarga nisbatan qo'llanilmaydi.

314-modda. Boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lmagan huquqlar.

Kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'langan huquqlarning, xususan alimentlar to'g'risidagi va hayotga yoki sog'liqqa etkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talablarning boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.

315-modda. Boshqa shaxsga o'tadigan kreditor huquqlarining hajmi.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, dastlabki kreditorning huquqi yangi kreditorga huquq o'tish paytida mavjud bo'lgan hajmda va shartlar asosida o'tadi. Xususan yangi kreditorga majburiyatning bajarilishini ta'minlaydigan huquqlar, shuningdek talab bilan bog'liq boshqa huquqlar, shu jumladan to'lanmagan foizlarga huquq ham o'tadi.

316-modda. Yangi kreditor huquqlarining isboti.

O'z talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan kreditor talab qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni unga berishi va talabni amalga oshirish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni bildirishi kerak. Qarzdor talablar yangi kreditorga o'tganligini isbotlovchi hujjatlar o'ziga taqdim etilmagunicha unga nisbatan majburiyatni bajarmaslikka haqli.

317-modda. Qarzdorning yangi kreditor talabiga qarshi e'tirozlari.

Qarzdor majburiyat bo'yicha huquqlar yangi kreditorga o'tganligi haqida ogohlantirish olgan paytida dastlabki kreditorga qarshi e'tirozlarini yangi kreditorning talabiga qarshi qo'yishga haqli.

318-modda. Kreditor huquqlarining qonun asosida boshqa shaxsga o'tishi.

Kreditorning majburiyat bo'yicha huquqlari boshqa shaxsga quyidagi hollarda o'tadi:

- 1) kreditor huquqlaridagi universal huquqiy vorislik natijasida;
- 2) kreditor huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi sudning qaroriga muvofiq;
- 3) qarzdorning majburiyati ushbu majburiyat bo'yicha qarzdor bo'lmagan kafil yoki garovga qo'yuvchi tomonidan bajarilishi oqibatida;
- 4) sug'urta holati boshlanishi uchun javobgar bo'lgan qarzdorga nisbatan kreditor huquqlarining sug'urta qiluvchiga subrogatsiyasi (o'tishi) natijasida;
- 5) qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

319-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartlari.

Kreditorning o'z talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechishiga, basharti u qonunlarga yoki shartnomaga zid bo'lmasa, yo'l qo'yiladi. Kreditorning shaxsi qarzdor uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan majburiyat bo'yicha talabdan qarzdorning roziligisiz boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

320-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shakli.

Oddiy yozma yoki notarial shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish o'sha shaklda amalga oshirilishi kerak. Davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinadigan bitim bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu bitimni ro'yxatga olish uchun belgilab qo'yilgan tartibda ro'yxatga olinishi kerak. Orderli qimmatli qog'oz bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu qimmatli qog'ozga indossament (talab qilish huquqini o'tkazish yozuvi) yo'li bilan amalga oshiriladi.

321-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan kreditorning javobgarligi.

Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan dastlabki kreditor yangi kreditor oldida unga o'tkazilgan talabning haqiqiy emasligi uchun javob beradi, biroq qarzdor bu talabni bajarmaganligi uchun javob bermaydi, dastlabki kreditor yangi kreditor oldida qarzdor uchun o'z zimmasiga kafolatni olgan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan maxsus nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizomda faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va uning huquqiy asosi batafsil yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan 2000-yil 3-

avgustda 953-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksining 313-323 va 749-758-moddalariga, «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 20-apreldagi 837-sonli «Eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyuta nazoratini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2000-yil 2-iyundagi 2612-sonli «Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida islohotlarni erkinlashtirish va chukurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizomga ko'ra, faktoring – bu bank xizmatlarining bir turi bo'lib, bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar mol etkazib beruvchini aktseptli to'lovchi tomonidan etkazilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun ijro etilmagan to'lov talabnomalari asosida to'lovlarni talab qilib olish huquqini bank – moliya aktseptiga o'tkazib berishdir, regress huquqini olmagan holda.

Faktoring operatsiyalari bo'yicha to'lov hujjatlari hisobini yuritish uchun bank tomonidan kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida 90966-«Xarid qilingan debitorlik qarzlari - Faktoring» shaxsiy hisobvarag'i ochiladi. Ushbu hisobvaraq debeti bo'yicha xarid qilingan debitorlik qarzlarning to'liq summasi aks ettiriladi, kredit bo'yicha esa to'lovchilar to'liq so'ndirgan xarid qilingan debitorlik qarzlari hisobdan chiqariladi.

Taraflar tomonidan faktoring (pul talabini berish) to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin bank-moliyaviy agent mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga, diskont summasini chegirgan holda, o'tkazishni amalga oshiradi.

Mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazishni bank memorial-orderlar bilan amalga oshiradi, ular ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya operatsiyalari amalga oshirilganidan keyin bankning kun hujjatlariga joylashtiriladi, ikkinchi nusxasi belgilangan tartibda mijozga yuboriladi. Mijoz hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan barcha talablarga rioya etilishi, shuningdek, u tomonidan bankka berilgan pul talablari bo'yicha uning bank hisobvarag'iga biror-

bir sabablar bilan hisoblab yozilgan mablag'larni o'z vaqtida o'tkazish uchun javobgardir.

16.3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi

Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvaraqlari joylashgan yerdagi mijozlar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Faktoring xizmatlarini ko'rsatish asosida to'lovchi tomonidan moliya agentiga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak. Banklar to'lovchilardan qarzni undirish bo'yicha ushbu muddatda to'lanmagan majburiyatlarga doir choralarni konunlarda belgilangan tartibda ko'rishlari kerak.

Faktoring operatsiyalari quyidagilar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin emas:

- byudjet tashkilotlariga taqdim etiladigan talablar bo'yicha;
- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo'yicha;
- to'lovga noqobil deb e'lon qilingan korxonalarining majburiyatlari bo'yicha;

- zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar bo'yicha;
- kapital quyilmalarni moliyalash bo'yicha;
- eksportga oid konsignatsiya shartnomalari bo'yicha;
- kompensatsiya va barter bitimlari bo'yicha;
- ishga bosqichma-bosqich yoki bo'nak bilan haq to'lash bo'yicha;
- to'lovchi shartnomada shartlangan vaqt mobaynida, shuningdek, sotish xizmati ko'rsatilganidan keyin mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo'lgan oldi-sotdi shartnomalari.

Faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida bank pul mablag'larini ular haqini to'lash huquqi faktoring shartnomasida ko'rsatilgan summada bankka taqdim etilgan to'lov talabnomalari bo'yicha mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga o'tqazadi. Bank tomonidan o'tkazilgan summa bilan shartnoma bo'yicha to'lov talabnomasi summasi o'rtasidagi farq bankning diskontli daromadini tashkil etadi. To'lovchida muddati o'tgan kreditorlik qarzining yo'qligi faktoring xizmatlarini ko'rsatishning majburiy sharti hisoblanadi. Agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, bank tomonidan pul talabi huquqining keyin berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Faktoring kelishuvida faktoring turidan tashqari shuningdek, quyidagilar ko'rsatiladi:

- sotib oluvchilar, taqdim etiladigan majburiyatlar;
- taqdim etiladigan majburiyatlarning nazorat summasi;
- avans miqdori;
- ushlab qolishlar;
- majburiyatlarni to'lov muddatlari;
- faktoring operatsiyalarini bajargani uchun to'lov miqdori;
- etkazib beruvchi tomonidan olinadigan qo'shimcha xizmatlar;
- faktoring operatsiyalari bo'yicha chegaraviy summa;
- regress huquqi;
- sotib oluvchi to'lovning oxirgi muddati;
- to'lovchi to'lovni to'g'ri, o'z vaqtida amalga oshirmaganda ko'ri-

ladigan choralar;

- shartnoma shartlarini buzganliklari uchun tomonlar javobgarligi;
- faktoring bo'limiga operatsiyalar bo'yicha shikoyat muddatlari;
- kelishuvning amal qilish muddati;
- kelishuvning bekor qilinish shartlari.

Kelishuvda bank va mijoz huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Bank majburiyatlari:

- unga taqdim etilgan qarzdorlik majburiyatlarini o'z vaqtida to'lov;
- mijozga hisob-kitoblar to'g'risidagi holatni yoki ma'lum to'lovchilar bilan qiyinchiliklar to'g'risidagi axborotni taqdim etishi.

Mijoz majburiyatlari:

- bankka barcha etkazib bergan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqidagi hujjatlarni, shuningdek, mijoz tovar va xizmatlarni aktseptlagani to'g'risidagi hujjatlarni, shartnoma shartlari hamda tovar miqdori va sifati to'g'risidagi hujjatlarni.

- uning tovar va xizmatlarni sotib oluvchilari bilan o'z vaqtida mavjud bo'lgan kelishmovchiliklarni bartaraf etishi;

- bankka nomaqbul o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot berish, ular bankning faktoring operatsiyalariga ta'sir etish doirasini belgilash;

- arbitrajda ishlarni ko'rib chiqishda bank bilan birga ishtirok etish.

Mijoz shartnoma tuzilgunga qadar bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ariza;
- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va to'lovchi tomonidan imzolangan oldi-sotdi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomasi;

- moddiy boyliklar berilgani, ishlar bajarilgani va xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalarning ko'chirma nusxalari, ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va hokazo);

- to'lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraklar ro'yxati;

- to'lovchining moliyaviy holatini belgilash uchun zarur hujjatlar.

Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko'rsatishga doir shartnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ularga nisbatan pul talabining berilishi amalga oshirilayotgan xaridorlar;

- berilayotgan talablarning umumiy summasi;

- diskont summasi;

- shartnomaning amal qilish muddati;

- taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilgani uchun da'volarni bayon etish muddatlari;

- shartnoma shartlari buzilgani uchun taraflarning mas'uliyati;

- shartnomani bekor qilish shartlari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish chog'ida mijoz va bank-moliyaviy agent to'lovchini ushbu bitim to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

To'lovni amalga oshirish uchun to'lovchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'ida mablag'lar etishmagan taqdirda to'lovchining banki bank - moliyaviy agentga to'lov talabnomasining 2-son kartotekaga qabul qilinganini ma'lum etadi.

Shartnoma:

- taraflarning o'zaro kelishuviga;

- bank shartnoma shartlarini buzgan taqdirda etkazib beruvchining tashabbusiga;

- etkazib beruvchi shartnoma shartlarini buzgan taqdirda bankning tashabbusiga;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlarga binoan bekor qilinishi mumkin.

Bunda taraflar shartnomaning amal qilishini shartnomada belgilangan muddatlarda bekor qilish to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

Shartnoma bir taraf tomonidan bekor qilingan taqdirda o'zaro da'volar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Eksport mahsulotlari bo'yicha faktoring xizmatlarini vakolatli banklar xorijiy valyutada talab qilib olingungacha depozit hisobvarag'i bo'lgan, faqat o'zlari xizmat ko'rsatadigan korxonada va tashkilotlarga, 60 kundan oshmaydigan muddat bilan ko'rsatadilar.

Ular tomonidan faktoring xizmatlari ko'rsatilishi chog'ida bank daromadlari deganda xorijiy valyutada to'lov hujjatining nominal qiymati bilan uning shartnomaga muvofiq bankka berilish summasi o'rtasidagi farq bo'lgan diskont tushuniladi.


Etkazib beruvchi tegishli xorijiy sherik bilan tuzgan, ilgari hisobga qo'yilgan eksport shartnomalari bo'yicha etkazib beruvchi korxonada muddati o'tgan debitorlik qarzining yo'qligi eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlari ko'rsatilishining majburiy sharti xisoblanadi.

Vakolatli banklar faqat belgilangan tartibda o'zlari hisobga qabul qilgan eksport shartnomalari bo'yicha va xorijiy vakil banklarning bank kafolatlari olingan yoki mazkur shartnomalar bo'yicha ochiq chaqirib olinmaydigan akkreditivlar summasidan oshmaydigan summada faktoring xizmatlarini ko'rsatadi.

Vakolatli bank eksport shartnomalari bo'yicha faktoring operatsiyasini o'tkazish chog'ida mijozning talab qilib olingungacha tranzit depozit hisobvarag'iga mablag'larni, shartnomada ko'rsatilgan diskont summasini chegirgan holda, etkazib beruvchi tomonidan beriladigan talablar summasida erkin almashtiriladigan valyutada o'tkazadi. Mijozning tranzit hisobvarag'iga hisoblab yozilgan valyuta mablag'laridan majburiy sotishni mijoz to'liq hajmda, diskont summasini chegirmasdan amalga oshiradi.

Pul talabi huquqini berish to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin mijoz bu xususda xorijiy kontragent va uning kafili (kafolatchisi)ni xabardor qilishi va ushbu to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun ularga bank - moliyaviy agentning bank rekvizitlarini ma'lum etishi shart.

Agar to'lash shakli sifatida akkreditiv qabul qilinsa, bu holda mijoz bank - moliyaviy agent foydasiga akkreditivni qayta rasmiylashtirish amalini o'z vaqtida amalga oshirishi, so'ngra bankni qayta rasmiylashtirish holatidan xabardor qilishi shart.



26-rasm. Faktoringni ishlash tizimi.

Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Cotuvchi va xaridor o'rtasida to'lovni kechiktirilish ko'zda tutilgan shartnomani tuzish.

2. Tovarni etkazib berish.

3. Faktoring shartnomasini tuzish.

4. Bank tomonidan moliyalashtirishni amalga oshirish.

5. Xarid qiluvchi (debitor) tomonidan to'lovni amalga oshirish.

Odatda, bank yoki faktor kompaniyasi korxonadan ariza murojaatnomani olib, 1-2 hafta mobaynida mijozning moliyaviy va iqtisodiy ahvolini, uning xo'jalik faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqadi. Agar korxonaning bankning mijoz bo'lib qolgan bo'lsa, u holda u bankka xaridor uchun taqdim etiladigan barcha hisob-fakturalarni beradi. Bank barcha hisob-fakturalarni, shuningdek, xaridorning to'lovga qobilligini to'liq o'rganib chiqadi. Bu muddat 24 soatdan 2 haftagacha cho'zilishi mumkin. Shundan so'ng bank to'lovni belgilangan muddatda yoki undan oldinroq ham amalga oshirishi mumkin.

Faktoring operatsiyalarida bank hisob-faktura qiymatining, odatda, 80 foizi miqdorida, ayrim holatlarda esa, masalan, korxonaning mazkur bank uchun juda ishonchli mijozga aylanib qolganligi sababli ham mahsulot qiymatining 90 foizigacha miqdorini o'tkazib berishi mumkin. Qolgan 10-20 foizi esa, zaxira hisoblanadi, ya'ni to'lovning qolgan qismi debitor tomonidan barcha qarz summaları qaytarilgandan so'ng bank tomonidan amalga oshiriladi.

Faktoring operatsiyalari hisobi banklarda boshqa barcha operatsiyalar singari, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining buxgalteriya hisob varaqalari rejasi» asosida olib boriladi. Unga muvofiq:

11101 – Sotib olingan debitor qarzdorlik yoki faktoring.

Bu hisobvaraqda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan operatsiyalar quyidagilardir:

– hisobraqam debetida sotib olingan yoki mijozga to'lab berilgan summa va diskont summasi yotadi;

– hisobraqam kreditida esa, to'lovchidan undirib olingan summa, muddati o'tgan faktoring, sudda ko'rilayotgan faktoring va boshqa qonunda ko'zda tutilgan holatlar bo'lishi mumkin.

11103 – Muddati o'tgan faktoring.

11105 – Sud tomonidan ko'rilayotgan faktoring.

11195 – Sotib olingan debitor qarz bo'yicha diskont summasi, keyinchalik u 45217 hisobraqamiga olib boriladi.

11199 – Sotib olingan debitor qarzdan qutilishi mumkin bo'lgan zararga ajratilgan zaxira, ushbu summa 56814 - hisobvaraqqa olib boriladi.

Banklarning faktoring operatsiyasini amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich shartnoma deb ataladi, chunki bu bosqichda ikkita korxonada biron-bir tovar yoki xizmatlar uchun o'zaro shartnoma tuziladi. Ikkinchi bosqichda oldindan qisman to'lash jarayoni, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12 maydagi 1154-Farmoniga asosan, 15 foizdan kam bo'lmagan to'lov amalga oshiriladi. Uchinchi bosqich - bu etkazib berilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar va to'rtinchi bosqich - mol etkazib beruvchi tomonidan to'lovchining hisobraqamiga to'lov talabnomasi qo'yishdir.

Yuqoridagi to'rtta bosqichdan so'ng shartlar bajarilsa, faktoring jarayonini amalga oshirish uchun qo'lay sharoit yuzaga keladi. Beshinchi bosqichda faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun mol etkazib beruvchi va uning banki bilan shartnoma tuziladi. Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha ushbu hisobraqamda faktoringni balansdan tashqari hisobi olib boriladi. Ushbu hisobraqamning debetida sotib olingan debitor qarz summasi, kreditida esa, to'liq yopilgan faktoring turadi.

Oltinchi bosqichda bank shartnoma asosida memorial order bilan quyidagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi:

1. Dt 11101
Kt 20208

Ushbu yozuv umumiy qarz summasidan bankda qoladigan diskont chegirib tashlangandan so'ng qolgan summani mol etkazib beruvchining asosiy depozit hisobraqamiga tushirib berilgandan so'ng rasmiylashtiriladi.

2. Dt 11101
Kt 11195.

Ushbu yozuv diskont summasini anglatadi va bu diskont faktoring asosiy qarzi-kelib tushishi davomida bank daromadlari hisobraqamiga olib boriladi. Ushbu summa, ya'ni faktoring summasiga amalga oshiriladigan yozuv faktoring to'liq yopilgandan so'ng teskari yozuv bilan chiqim qilinadi.

Dt 11101 Dt 11195
Kt 11195 Kt 45217

Yana shuni aytib o'tish kerakki, faktoring operatsiyalariga doir mablag'larni etkazib beruvchining hisobraqamiga o'tkazilishi ikki nusxada memorial order bilan rasmiylashtiriladi, ulardan bittasi shu operatsiya amalga oshirilgan kunga tegishli kunlik hujjatlarga tikiladi, ikkinchi nusxasi esa, mijozning hisobraqamidan ko'chirmasiga ilova qilinadi. Yuqoridagi amallar bajarilganidan so'ng, qarzdorlik mol etkazib beruvchidan bank nomiga o'tadi. Demak, to'lovga mol etkazib beruvchi tomonidan qo'yilgan talabnomadan pul mablag'larini oluvchi, ya'ni mol etkazib beruvchi nomidan ko'chirilib (ettinchi bosqich) debitor qarzni sotib olgan bank nomiga o'tadi. Albatta, bunda asos bo'lib, bank va mol etkazib beruvchi o'rtasida faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun tuzilgan shartnoma to'g'risida to'lovchini xabardor etish uchun yuborilgan bank va mol etkazib beruvchi tomonidan imzolangan yozma axborot xizmat qiladi. Shu yo'sinda talabnoma bank nomiga o'tkaziladi (sakkizinchi bosqich). Rasmning to'qqizinchi bosqichi faktoringni yopilishi bo'lib, u quyidagicha bo'lishi mumkin. Yuqori bandda aytib o'tilganidek, endi to'lovchini hisobraqamiga kelib tushayotgan mablag'lar hisobidan 2-kartotekada turgan to'lov talabnomasiga asosan mablag'lar bankda ochilgan faktoring hisobraqamiga kelib tusha boshlaydi. Biroq, har qanday sabablar bilan ushbu qarzdorlik bo'yicha to'lov mol etkazib beruvchining hisobraqamiga kelib tushishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun Nizomning 4 - bo'limi 4.4 - bandiga asosan, mol yetkazib beruvchiga, kelib tushgan mablag'larni faktoring hisob raqamiga o'tkazib ko'yish majburiyati yuklanadi. U yerda shunday deyiladi: «Mol yetkazib beruvchi hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan barcha talablar, shuningdek, bankka o'tkazib

berilgan talabnomalar bo'yicha ma'lum bir sabablar bilan uning hisobraqamiga kelib tushgan mablag'larni faktoring hisobraqamiga o'z vaqtida (keyingi kundan kechiktirmay) o'tkazilishini bajarilishiga javobgardir».

Faktoring yuqori daromad keltiruvchi operatsiya bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga yarasha risk darajasiga ega. Bank shartnoma shartlariga muvofiq, operatsiyalarni amalga oshirishi, etkazib beruvchi va to'lovchi bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning batafsil hisobini yuritishi, etkazib beruvchini shaxsiy hisobvarag'i holati to'lovchi tomonidan to'lov talabnomalari to'lanishi va qarzni qaytarilish holati to'g'risida muntazam ravishda hisobot tayyorlashi va muddati o'tkazib yuborilgan to'lov talabnomalarning tahlilini amalga oshirishi shart. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozim ediki, faktoring bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilganida to'lov talabnomasini yuqori qismida faktoring degan yozuv yoki muhr va oluvchi hisobraqamida faktoring hisobraqami ko'rsatilishi shart.

Faktoring operatsiyalariga xos bo'lgan yuqori darajadagi risk munosabati bilan banklar har oyda «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom»ga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) muvofiq faktoring operatsiyalari sifati tasniflanadi.

Shunday qilib, tijorat banklarining faktoring operatsiyalari ular uchun daromad keltirish manbai bo'lishi bilan birga o'zaro hisob-kitoblarni tezlashtirish va noto'lovlarni qisqartirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Diskont stavkasi, komission haq, kredit riski, kassa usuli, regress huquqi, tijorat vekseli, tovar hujjatlari, to'lovga qobilik, faktoring, hisobga olish, hisoblash usuli.

Takrorlash uchun savollar

1. Faktoring so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Faktoringda regress huquqi qanday qo'llaniladi?
3. Regress huquqsiz deganda nimani tushunasiz?
4. Banklarning faktoring kreditlari qanday rasmiylashtiriladi?
5. Banklarning faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
6. Faktoring kreditlari bilan bog'liq bo'lgan qanday risklar mavjud?

XVII BOB. TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATSIYALARI

17.1. Lizing operatsiyalarining mohiyati

Lizing so'zi inglizcha **leasing** degan so'zdan olingan bo'lib, ijaraga berish, degan ma'noni anglatadi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, lizing g'oyasi Aristotel davrida, ya'ni eramizdan avvalgi 384 – 382-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, Aristotel: «boylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan foydalanish» degan fikrni ilgari surgan. Bu esa, hozirgi zamon ta'biri bilan aytganda, kishining daromad olishi uchun qandaydir bir mulkka albatta egalik qilishi shart emas, balki undan foydalanish huquqiga ega bo'lishi va natijada foyda olishining o'zi kifoya qiladi.

Faoliyati zamonaviy lizingga asoslangan birinchi kompaniya 1952-yilda AQShning San-Frantsisko shahrida shahrida takshil etildi. Bu AQShning «Yunayted steys lizing korporeyshn» lizing kompaniyasi edi.

XX asrning 30 —yillarida Genri Ford o'zining avtomobillarini sotish samaradorligini oshirish uchun lizingdan foydalanishni yo'lga qo'ydi. Ammo avtomobil lizingi biznesining qonuniy otasi bo'lib, Zolli Frenk hisoblanadi. U 40 —yillarning boshida avtomobillarni uzoq muddatga ijaraga berishni birinchi bo'lib taklif etgan chikagolik savdo agenti bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda transport lizingidan tushayotgan yalpi daromadlar -yiliga 50 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketmoqda.

G'arbiy Evropada dastlabki lizing kompaniyalari XX asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. Ammo bu davrda G'arbiy Evropa mamlakatlarning soliq qonunchiligida lizing shartnomalari o'z aksini topmagan edi. Keyinchalik lizing shartnomalarining huquqiy maqomini soliq qonunchiligida aks etishi bilan lizing munosabatlari keskin rivojlanib ketdi.

XX asrning 60-yillariga kelib, lizing jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Buning sababi shundaki, ijaraga sanoat vositalari yoppasiga berila boshladi. Xususan, bahosi yuqori bo'lgan va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar - texnologik asbob-uskunalar, mashinalar,

mexanizmlar, kemalar, samolyotlar uzoq muddatli ijara sifatida lizingga berila boshladi.

Hozirgi davrda xalqaro lizing bozorining asosiy qismi uch yirik moliya markazida – AQSh, Yaponiya va G'arbiy Evropada joylashgan.

AQSh va G'arbiy Evropada ixtisoslashgan lizing kompaniyalarining faoliyati rivojlangan bo'lib, ular lizing bozorida tijorat banklari bilan raqobat qiladi.

Yaponiyada lizingdan nafaqat yirik kompaniyalarning faoliyatini texnik va texnologik qurollantirish vositasi sifatida, balki kichik biznesni rivojlantirish omili sifatida ham keng foydalaniladi.

Ta'kidlash joizki, lizing uzoq muddatli ijara sifatida talqin qilinsada, u prokat shaklidagi ijaradan farq qiluvchi jihatlarga ega.

Lizing va ijara, ular o'rtasidagi farqlar

33-jadval

№	Baholash ko'rsatkichlari	Munosabat turlari	
		Prokat	Lizing
1	2	3	4
1	Ishlab chiqarish vositasiga bo'lgan munosabat nuqtai- nazaridan	• Foydalanish	• Foydalanish • Egalik qilish • Qisman tasarruf qilish
2	Prokat obyekti nuqtai- nazaridan	• Xodim	• Mulk
3	Resurslarga javobgar nuqtai nazaridan	• Ma'naviy va qisman moddiy	• To'la mulkiy javobgar
4	Motiv va rag'bat nuqtai nazaridan	• Birinchi navbat- da fiziologik ehtiyojni qondirish	• Shaxsiy salohi- yatni ishga solish, ijtimoiy va intel- lektual ehtiyojni qondirish
5	Ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga bo'lgan huquq nuqtai nazaridan	• Mahsulot va daromadga korxonaning o'zi xo'jayinlik qiladi	• Lizing oluvchi ya'ni, foydalanuvchi ixtiyorida bo'ladi
6	Tovar ishlab chiqaruvchining holati nuqtai nazaridan	• Yollangan hodim	• Tadbirkor mulk egasi
7	Bajaradigan funksiyasi nuqtai nazaridan	• Ijrochilik	• Ijrochilik

8	Boshqarish usuli nuqtai-nazaridan	• Asosan boshqarish ma'muriy usuli	• Boshqaruvchanlik, ya'ni tashabbuskorlik • O'z-o'zini boshqarish • Boshqarishning iqtisodiy usuli
9	Muvofiqlashtirish usuli nuqtai-nazaridan	• Mehnat shartnomasiga	• Mulkiy huquq • Qarziy huquq • Tijoriy huquq munosabatlari
10	Ish haqi darajasi	• Mehnat shartnomasiga binoan	• Lizing oluvchining qoldiq daromadiga binoan
11	Menejerlar bilan munosabat nuqtai-nazaridan	• Ierarxik, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga	• Shartnomaviy, hamkorlik
12	Tashkiliy nuqtai-nazaridan	• Yollangan mehnat	• Mustaqil tadbirkorlik faoliyati


Shunday qilib, prokat ijara munosabatlarining eng oddiy turi bo'lib, bu ijara asosan maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tovarlar (nikoh liboslari, muzlatgichlar, televizorlar, tikuv va yozuv mashinalari, mavsumiy sport anjomlari va h.k.) beriladi. Bu ijara turning xususiyati shundaki, aksariyat hollarda muddati belgilanmaydi yoki ijara o'ta qisqa muddatli bo'ladi yoki iste'molchi undan xohlaganicha foydalanishi mumkin.

Lizing operatsiyalarining elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- lizing obyekti;
- lizing subyektlari;
- lizing shartnomasining muddati;
- lizing to'lovlari;
- lizing bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar.

Lizing mohiyatini ochishda uning tarkibiy qismlari bo'lmish lizing obyekti va subyektlariga ham aniqlik kiritib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir.



27-rasm. Lizing subyektlari.


Bunda:

❖ Lizing beruvchi – lizing shartnomasi bo‘yicha lizing obyektini keyinchalik lizing oluvchiga berish maqsadida mulk qilib sotib oladigan bank yoki lizing kompaniyasi yoxud ularning shu‘ba kompaniyalari (qonunchilik hujjatlari bo‘yicha lizing beruvchi bo‘lib nafaqat lizing kompaniyalari yoki banklar, balki har qanday yuridik va jismoniy shaxs ham lizing beruvchi bo‘lib maydonga chiqishi mumkin).

❖ Lizing oluvchi – lizing shartnomasi bo‘yicha lizing obyektiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun oladigan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxslar.

❖ Sotuvchi – lizing beruvchiga lizing obyektini sotuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar.

Lizing objekti – iste‘mol qilinmaydigan va qonunchilik bilan ta‘qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatida qo‘llaniladigan har qanday buyumlar, barcha mulk majmualari, shu jumladan, korxonalar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk bo‘lishi mumkin. Muomaladan olingan yoki muomala doirasi chegalangan er uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari bo‘lishi mumkin emas.



28-rasm. Lizing obyektlari.

Xo'sh, lizing nima? Uning mohiyatini ochish uchun xalqaro miqyosda eng ko'p tarqalgan lizing tushunchalarini tahlil qilib ko'raylik. Masalan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) mutaxassislari tomonidan u quyidagicha talqin qilingan: «Lizing – bu mulkiy munosabatlar majmui bo'lib, bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa bir taraf (lizing oluvchi)ning topshirig'iga binoan uchinchi taraf (mol etkazib beruvchi)dan lizing shartnomasiga muvofiq lizing obyektini bo'lgan mulkni o'z mulki qilib sotib olib, uni to'lash asosida lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun lizing oluvchiga beradi».

Lizingga berilgan ushbu ta'rifda uning mohiyatini ochib beruvchi qator muhim belgilar mavjud. Chunonchi, unda lizingning mulkiy munosabatlar majmui ekanligiga alohida urg'u berilgan bo'lib, uning mohiyatini ochishda iqtisodiy mazmuniga tayanishga harakat qilingan. Shuningdek, lizing shartnomasidagi kelishuvga asosan lizing obyektini shartnomaning amal qilish muddati davomida lizing beruvchining tasarrufida qoldirish sharti ham lizingning mulkiy munosabatlarga taalluqli bo'lgan mazmunini to'ldiradi.

Mazkur ta'rifda lizing beruvchining lizing obyektini oluvchiga vaqtinchalik foydalanishga to'lash sharti yoki foyda olish maqsadida berishining belgilanishi lizingning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqlik jihatiga ham e'tibor qaratilgan yoki boshqacha qilib aytganda, lizing bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan foyda olish istagining mahsuli sifatida qaralgan.

Shu bilan birga, ushbu ta'rifda lizing obyektining lizing shartnomasi yakunlangandan so'ng, kimning mulkiy tasarrufiga o'tishi yoki lizing oluvchi mulkni o'ziga sotib olishi mumkinligi ko'rsatilmagan. Ushbu mezon lizing, ya'ni moliyaviy ijaraning muhim atributlaridan biri ekanligi bois, bizning fikrimizcha, bu mazkur ta'rifning sezilarli kamchiligidir.

Bundan tashqari, mazkur ta'rifda lizing beruvchining huquqlari bir oz kamaytirilgan yoki unda lizing beruvchi faqat lizing oluvchining topshirig'iga asosan lizing obyektini sotib oladi, deyilgan. To'g'ri, lizing obyektini, avvalo, lizing oluvchining manfaatlariga mos bo'lmog'i va uning talablariga javob berishi lozim, aks holda, lizing bitimining mazmuni yo'qoladi. Lekin bundan lizing beruvchining mutlaqo lizing oluvchining xohish-istagiga qarab lizing munosabatlariga kirishadi, degan xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lardi. Vaholanki, lizing beruvchi lizing munosabatlarining teng huquqli

ishtirokchisidir. Qolaversa, moliyaviy ijara bo'lmish lizingda u markaziy o'rinni egallaydi. Lizing kompaniyalari mustaqil ravishda lizing oluvchilarni izlab topish, ularga zarur bo'lgan lizing obyektlarini taklif qilish va qulay hamda manfaatli bo'lgan lizing munosabatlarini tashkil etishda tashabbuskor sifatida maydonga chiqishi mumkin. Binobarin, lizing beruvchi lizing munosabatlarining faol ishtirokchisidir. Modomiki shunday ekan, lizing ta'rifida ham bu holat o'z aksini topishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining lizing to'g'risidagi qonunida lizing shartnomasi hech bo'lmaganda quyidagi shartlardan biriga javob berishi lozimligi aks etgan:

* lizing shartnomasining muddati tugashi bilan lizing obyekti lizing oluvchining mulkiga o'tadi;

* lizing shartnomasi muddati lizing obyekti xizmat muddatining sakson foizidan oshadi yoki lizing obyektining qoldiq qiymati lizing shartnomasi tugaganida uning boshlang'ich qiymatining kamida yigirma foizini tashkil etadi;

* lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to'lab sotib olish huquqiga ega bo'ladi, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyekti qiymati asos bo'ladi;

* lizing shartnomasi davrida uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing obyekti qiymatining to'qson foizidan oshadi¹.

Shu tariqa, agar, misol uchun, taraflar shartnomada obyektga mulk huquqi lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchiga o'tishini belgilagan bo'lsalar, - birinchi tasniflash alomatiga rioya qilinadi va bunday bitim lizing bitimi sifatida qaraladi. Tegishincha, qolgan to'rt alomatga rioya qilishga zarurat yo'q - ulardan istalgan biri kifoyadir. Biroq, yuqorida ko'rsatilgan alomatlardan birortasiga javob bermaydigan bitim lizing hisoblanmaydi.


Barcha mamlakatlarning amaliyotda keng tarqalgan lizing turlari bu moliyaviy va joriy ijara turlaridir. Moliyaviy ijara - bu lizing, oddiy, ya'ni moliyaviy bo'lmagan ijara esa joriy lizing deyiladi. Bugungi kunda ham amaliyotda lizing bitimlari yo lizing (moliyaviy ijara) yoki joriy lizing (oddiy ijara) shakli tuzilmoqda. Shu sababli lizingdan joriy lizingni farqini ajratish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda lizingning bu turlarini

¹ «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 447-II-sonli qonuni tabirida.

farqlash bo'yicha o'z ichki qonunchilik hujjatlariga tegishli me'yorlar kiritilgan va shu me'yorlar bo'yicha lizing shartnomalari moliyaviy yoki joriy lizing sifatida tasniflanadi.

Lizing (moliyaviy ijara) shartnomasi esa uzoq muddatlarga uzayib, aksariyat hollarda, uning muddati lizing obyektining foydalanish muddatiga yaqin bo'ladi, binobarin, ushbu lizing objekti faqat bir marta qo'llaniladi. Bundan tashqari, lizing muddati tugagandan so'ng, lizing oluvchi shartnomada kelishilgan narxlarda lizing obyektini sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

Lizingning asosiy funksiyalarini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



29-rasm. Lizingni asosiy funksiyalari.

Ba'zi mutaxassislar lizingni joriy lizingdan farqini lizing shartnomasi davomida lizing objekti bo'yicha vujudga keladigan barcha moliyaviy mas'uliyat va risklar kimning zimmasiga yuklanishiga qarab aniqlashni taklif etishgan.

Ushbu masala bo'yicha bir qarorga kelmaslik lizingni xalqaro munosabatlarda qo'llashda katta muammolarni vujudga keltirib, uning rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Ayniqsa, lizing kimning balansida hisobga olinishi, soliq majburiyatlari kimning zimmasida bo'lishi va moliyaviy hisobotlarda qanday aks ettirilishi masalalari xalqaro moliyaviy tashkilotlarning diqqat e'tiborini tortdi. Natijada, jahon iqtisodchilari tomonidan lizingni tasniflashning asosiy qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Oxirgi 15-yilda rivojlangan mamlakatlarda lizing operatsiyalarining hajmi 5 marta oshgan va ularning 30 foizdan ortiq investitsiyasi

Moliyaviy lizingda lizing shartnomasining amal qilish davrida lizingga oluvchi lizingga beruvchiga lizingga olingan mulkning to'la qiymatini (to'liq amortizatsiyani) to'dab beradi.

Moliyaviy lizing katta miqdordagi kapital quyilmalarni talab etadi. Shu sababli, moliyaviy lizingni asosan tijorat banklari amalga oshiradi.

Operativ lizingda mulk, uning amortizatsiya davridan kam bo'lgan davrga, lizingga beriladi.

Odatda, ma'naviy eskirish sur'atlari yuqori bo'lgan mulklar operativ lizingga beriladi.

Operativ lizing shartnomalarining muddati 2-yildan 5-yilgacha bo'ladi.

Operativ lizing quyidagi xususiyatlarga ega:

- texnik uskunalar va jihozlarni ijaraga beruvchi lizing kompaniyasi hech mahal «barcha sarf-xarajatlarimni yakka-yu yagona mijozim evaziga qoplayman» qabilidagi fikr yuritmaydi;

- ijaraga berilgan texnika, asbob-uskunalarining nosoz holga kelishi yoki yo'qolishi, shuningdek, tabiiy ofatlar - zilzila, yong'in va sel ketish oqibatida ko'riladigan moddiy zararlari, asosan, lizing beruvchi kompaniya hisobidan qoplanadi;

- ijara muddati mavjud asbob-uskuna va jihozlarning jismonan butunlay ishdan chiqish muddatini qoplamasligi darajasida belgilanmaydi;

- kelishilgan muddat tugagandan so'ng, ijaraga olingan barcha uskunalar egasiga, ya'ni lizing beruvchiga qaytarib beriladi.

Operativ lizing quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Renting.** Mulknı bir kundan to bir-yilgacha bo'lgan qisqa muddatga ijaraga berish.

- **Xayring.** Bunda mulk 1-yildan 3-yilgacha muddatga ijaraga beriladi. Odatda, bu muddat o'rta muddat hisoblanadi.

Moliyaviy lizing bo'yicha kelishilgan muddat tugagandan so'ng ijarachi tomonidan ijaraga olingan uskunalar qiymatini to'lashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijaraga berilgan mashina va uskunalar, ularni ishlab chiqargan korxonadan belgilangan iqtisodiy foydalanish muddati (amortizatsiya davri)ni o'tashi, shubhasiz, lizing kompaniyalari kutgan va oldindan belgilagan foydani keltiradi.

Moliyaviy lizing ham o'z navbatida quyidagiturlarga bo'linadi:

- Ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing;
- levedj-lizing;

- «paket»dagi lizing.

Ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing. Bunda lizing kompaniyasi ijaraga berilgan uskunalarni o'rnatish, sozlash, mutaxassislar tayyorlash kabi bir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Levedj - lizing. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi.

«Paket»dagi lizing. Mavjud ishlab chiqarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo'lgan mashina va uskunalar esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi.

Lizing muomalalari ularni keltirib chiqaruvchi obyektiv shart-sharoitlarga qarab, aniqrog'i, obyektga egalik qilish manbalari nuqtai nazaridan ikkiga: bevosita va yana o'ziga qaytuvchi lizing turlariga bo'linadi.

Bevosita lizing. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun, uning buyurtmasi asosida, mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonalaridan sotib oladi.

O'ziga qaytuvchi lizing. Moliyaviy lizingning nisbatan kam uchraydigan bu turi «liz-bek»deb ham ataladi. Bunda ishlab chiqaruvchi korxonada o'z tasarrufidagi xususiy mulkning bir qismini lizing kompaniyasiga to'la qiymatda sotadi. Ayni chog'da lizing kompaniyasi bilan korxonada o'rtasida shu uskunani sotib olish byo'icha lizing shartnomasi tuziladi. Shartnomaga binoan lizing kompaniyasi esa muayyan muddat ichida ijara xaqini olaveradi. Bu sharoitda korxonada sotilgan mulk uchun olgan mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish maqsadlariga sarflash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Ijaraga berilayotgan mulkka nisbatan lizing quyidagi turlarga bo'linadi:

Sof lizing. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi.

To'liq lizing. Bu lizing turiga binoan ijaraga berilayotgan mashina va uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlar lizing kompaniyasi zimmasiga tushadi. Agar lizing beruvchi subyekt sifatida lizing kompaniyasi faoliyat ko'rsatsa, bunday hollarda lizing bo'yicha operatsiyalar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Shartnoma imzolangan qadar lizing oluvchi subyektning talab va ehtiyojlari bayon etilgan buyurtmasi ko'rib chiqiladi. Kompaniya rahbariyati o'z navbatida, yuqoridagi buyurtma bilan murojaat qilgan

tashkilotning so'nggi-yillardagi moliyaviy ahvoli bilan tanishib chiqadi. Agar tekshiruv natijasi qoniqarli deb topilsa, kompaniya mazkur tashkilot bilan lizing shartnomasini imzolaydi.

- shartnoma ikki tomon o'rtasida lizing kompaniyasi (ijaraga beruvchi) va lizingga oluvchi (ijarachi) yoki bo'lmasa uch tomonlama imzolanishi mumkin. Bunda, shartnomada uchinchi tomon sifatida zarur mashina va uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonaga ishtirok etadi.

Lizing shartnomasi ikki tomonlama imzolangan taqdirda, lizing kompaniyasi ikkinchi tomon bilan shartnoma shartlarini kelishib olgandan so'ng, uning buyurtmasiga muvofiq, so'ralayotgan texnika va texnologiyalar, mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonaga ma'lumotnoma yuboradi hamda ijaraga olinayotgan uskunalarning narxлари ijara shartlari va hokozolarni kelishib oladi. Lizing oluvchi subyekti esa, o'z navbatida, kompaniyaga, o'ziga kerakli uskunalarni ijaraga olishini tasdiqlovchi majburiyat xati yuboradi.

Sublizing - ijarachining lizingga olingan obyektни lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi - lizing oluvchiga berishi.

Xalqaro lizing lizingning alohida bir turi bo'lib, bunda tomonlarning hech bo'lmaganda birortasi (yoki hammasi) boshqa mamlakatga tegishli bo'ladi, yoki tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo'shma kapitalga egadir.

Xalqaro lizingning quyidagi modifikatsiyalari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri, eksport va import, tranzit (bilvosita), to'g'ri bo'lmagan.

To'g'ridan-to'g'ri xalqaro lizingda bitim bo'yicha barcha operatsiyalar turli mamlakatlarning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tijorat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladi.

Tranzit (bilvosita) lizingda bir mamlakatdagi lizing beruvchi boshqa mamlakatdan kredit oladi yoki zarur bo'lgan uskunalarni sotib oladi va uchinchi bir mamlakatdagi ijarachiga etkazib beradi.

To'g'ri bo'lmagan lizingda lizing firmasi va iste'molchi bir mamlakatga tegishli bo'ladi, lekin lizing firmasi boshqa mamlakatda joylashgan bo'ladi.

Xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshlagan. Xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etgan: ko'pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og'irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarini oshirishlari, lokal moliyaviy inqirozlar, ba'zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar.

17.3. Banklar faoliyatida lizing operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun ushbu operatsiyalarning me'yoriy-huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lishi lozim.

O'zbekistonda lizing qonunchiligi bo'yicha qonunlar va qonun osti hujjatlarining yaratilishi va ularning takomillashtirilishini, shartli ravishda, quyidagi 3-bosqichga bo'lish mumkin:

-lizing qonunchiligi bo'yicha qonunlar va qonun osti hujjatlarining yaratilishi va amalga kiritilishi;

-O'zbekiston Respublikasi lizing qonunchiligi va xalqaro lizing qonunchiligi o'rtasidagi munosabatlarning belgilanishi;

-lizing qonunchiligi bo'yicha qonunlar va qonun osti hujjatlarining takomillashtirilishi bosqichi.

Birinchi bosqich davri 1996 -yildan 1999-yilgacha davom etib, bu davrda lizing qonunchiligi bo'yicha quyidagi asosiy qonunlar va qonun osti hujjatlari yaratildi va amaliyotga kiritildi:

O'zbekiston Respublikasining 1996 -yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ikkinchi qismini tasdiqlash to'g'risida»gi 256-1-sonli qonuni asosida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ikkinchi qismi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi me'yorlari asosida hamda respublikadagi tijorat banklari tomonidan o'tkazilayotgan lizing operatsiyalarining tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1997-yil 29-martda «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi» to'g'risidagi 327-sonli me'yoriy hujjat qabul qilindi. Ushbu me'yoriy hujjat 1999 -yilning 20-iyuligacha bo'lgan davrda amaliyotda bo'ldi va banklar tomonidan respublikamizda lizing faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 6-mayda qabul qilingan «Me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi 194-sonli qarori asosida «Buxgalteriya hisobi va hisobotida lizing operatsiyalarini aks ettirish tartibi» tasdiqlandi. Unga muvofiq, lizing oluvchi korxonada lizing operatsiyalarini hisobga olish, lizing beruvchi korxonada lizing operatsiyalarini hisobga olish va lizing oluvchi korxonada o'rnatishni talab qiluvchi asbob-uskunalar bo'yicha lizing operatsiyalarini hisobga olish tartiblari va me'yorlari belgilab

berildi. Va nihoyat, 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi 756-1-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonun 25 ta moddadan iborat bo'lib, lizing bo'yicha huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynadi. Unda, Fuqarolik kodeksidan farqli o'laroq, bir qator o'ziga xos me'yorlar masalan, lizing shakllari, lizing obyektini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish, lizing shartnomasiga qo'yiladigan talablar, lizing beruvchi va lizing oluvchining o'z huquqlaridan uchinchi shaxslar foydasiga voz kechishi, lizing obyektini sug'urtasi va garovi, lizing shartnomasi bo'yicha ta'minlash va hokazolar o'rin olgan.

Mazkur Qonun me'yorlariga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1997-yil 29-martda qabul qilingan 327-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi» to'g'risidagi me'yoriy hujjat bekor qilinib, 1999-yil 5-mayda 327-sonli «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi to'g'risida nizom» qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1999-yil 20-iyulda 776-sonli raqam bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

O'zbekistonda lizing qonunchiligi rivojlanishining ikkinchi bosqichi 2000-yilning may oyiga to'g'ri keladi.

Tijorat banklarining lizing munosabatlaridagi mavjud muam-molarni va turli xil masalalarni tartibga solish davlatlardagi lizingning huquqiy asosini yagonalashtirish va umumlashtirish maqsadida 1998 -yilning may oyida Kanadaning Ottava shahrida «Tijorat banklarning moliyaviy lizing to'g'risida»gi Konvensiya qabul qilindi.

Konventsiyani qabul qilishdan asosiy maqsad – moliyaviy lizing bo'yicha asosiy terminologiyani aniqlash va umumlashtirish hamda lizing bitimida ishtirok etadigan barcha tomonlarni o'zaro munosa-batlarini huquqiy jihatdan tartibga solishdir. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, Konventsiyada lizing munosabatlarini turkumlash va tavsifining asosiy jihatlari yoritib berildi.

Konventsiyada lizing bo'yicha quyidagi tamoyillar aks etgan:

-kelajakda lizing oluvchi o'ziga asbob-uskunani va uni etkazib beruvchini mustaqil ravishda tanlaydi;

-lizing kompaniyasidan asbob-uskunani sotib olish, ya'ni lizing obyektini oldi-sotdisi amalga oshiriladi, unda asbob-uskunani keyin-chalik ijaraga berish uchun olinayotganligi bildiriladi;

-lizing bo'yicha to'lovlarning hisob – kitobi – amortizatsiyaning qabul qilingan shartlari asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Konvensiya uch tomon ishtirok etishini ko'zda tutuvchi klassik lizingdan kelib chiqib, bitimlarni aniqlaydi va chegaralaydi. Mazkur Konvensiya «qaytariladigan lizing» deb nom olgan ikki tomonlama o'rnatilgan lizing bitimlarini o'z ichiga olmaydi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan lizing ham mazkur Konvensiya tomonidan tartibga solinmaydi.

Konvensiyaning markaziy o'rni – lizing beruvchi, lizing oluvchi va asbob-uskunalarni etkazib beruvchilarning mulkiy javobgarliklarining hajmiga qaratilgan.

Qabul qilingan Konvensiyada lizing beruvchining lizing oluvchi oldidagi javobgarlik hajmi lizing beruvchi tomondan lizing oluvchiga tajribasiz asbob-uskunani etkazib beruvchini tanlashda aralashishi yoki lizing obyektining alohida xususiyatlari bilan cheklaniladi. Konvensiyaning shu qismi bilan bir qator davlatlarning huquqiy amaliyotlari mos kelmaydi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida javobgarlik masalalari kengroq tushuniladi. Mazkur qarama-qarshilikni bartaraf etish maqsadida Konvensiya – javobgarlik masalalarini milliy xususiyatlardan kelib chiqib muvofiqlashtirishga ruxsat beradi.

Lizing oluvchi olingan mulkka egalik huquqini ta'minlab turishi uchun, u, mazkur asbob-uskunadan bitimda ko'rsatilgan maqsadlardagina foydalanishi va uning ma'naviy hamda jismoniy eskirishlarini hisobga olgan holda bitim tuzishi lozim. Asbob-uskunadan foydalanuvchi o'z vaqtida va kelishilgan grafik asosida lizing to'lovlarni amalga oshirishi shart. Lizing oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarilmasligi holatlarida, mulk egasi, unga tegishli to'lovlarni to'lanishini va kelishilgan bitimga rioya qilinmasligi oqibatida ko'rilgan zararlarni, lizingga oluvchidan qoplanishini talab qilishi va bitimda ko'rsatilgan kelishuvlar bo'yicha bitimni bekor qilishi mumkin.

Konvensiya lizing oluvchining boshqa tomondan mulkiy huquqini himoya qilish bilan birga, agarda mulkdan foydalanuvchidan tashqari boshqa bir uchinchi shaxs ko'proq foyda olsa, bu holda to'liq javobgarlik mulkning egasiga o'tishini ko'rsatadi. Shuningdek, agarda bu holat foydalanuvchining harakati natijasida yuzaga kelsa, uni hisobga olinmasligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasining bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarida qarz oluvchining to'lovga layoqatsizligi aniqlansa, uni to'lovga noloyiq, ya'ni bankrot deb e'lon qilish kerakligi ko'zda tutilgan.

Xususan, 1996 -yil 25-apreldagi O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 35 – moddasida shunday deyiladi: «Bankdan olgan kreditlarini o'z vaqtida to'lash majburiyatlarini bajarmayotgan qarzdorlarni bank to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilishi va bu haqda matbuotda xabar berishi mumkin. Bank bunday qarzdorlarni bankrot deb topishni so'rab, xo'jalik sudida da'vo qo'zg'atish huquqiga ega».

Konventsiyada bitimda qatnashayotganlarning talablariga binoan lizing beruvchining mulkiga lizing oluvchining olingan mulkka vaqtinchalik egaligini ko'rsatuvchi bitimni rasman e'lon qilinishi mumkinligi qayd qilingan.

Konventsiyada lizingga oluvchiga xuddi oldi-sotdi bitimida xaridorga beriladigan huquq doirasi kabi huquq beriladi. Qabul qilingan tartiblarga muvofiq, mulkdan foydalanuvchi asbob-uskunani etkazib beruvchidan mulkni oldi-sotdisi bitimi bo'yicha o'rnatilgan tartibda xuddi mulk egasi sifatida etkazib berish shartlarini talab qilish huquqiga ega. Shu bilan u asbob-uskunani etkazib beruvchining oldida mulkning egasi emasdir. Biroq, lizing oluvchi asbob-uskunani etkazib beruvchi bilan o'rnatilgan oldi-sotdi bitimini bekor qilishda mulkning haqiqiy egasi ogohlantirishsiz mustaqil tarzda amalga oshirolmaydi. Asbob-uskunani etkazib berish bo'yicha shartlar buzilganida lizing oluvchi mulkning haqiqiy egasidan u orqali ushbu shartlarni bajarilishini ta'minlashini yoki asbob-uskunani etkazib beruvchi va lizing kompaniyasi o'rtasidagi etkazib berish bitimini bekor qilishni talab qilishi mumkin.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida, lizing sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish sohasida davlat boshqaruvi organlariga maslahatlar berish uchun 2001 -yilning oxirida Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Shveysariya xalqaro aloqalar bo'yicha davlat sekretariati bilan hamkorklikda tashkil etilgan «Markaziy Osiyoda lizingni rivojlantirish bo'yicha Loyiha» guruhining respublikada 2001-2004-yillar mobaynidagi faoliyati natijasida lizing sohasidagi amaldagi qonunchilik me'yorlari ancha takomillashtirildi. Jumladan, 2002-yil 28-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishning yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan kichik biznesni zamonaviy texnologiya uskunalari bilan jihozlashda, shuningdek,

mamlakatimizning ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlab chiqarilgan asbob-uskuna va texnikani sotishda lizing faoliyati rolini oshirish maqsadida 2002 -yilning 1-sentabridan boshlab, lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan; lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari, vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi; lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinishi; lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasini daromadidan chegirib tashlanishi belgilandi.

O'zbekistonda lizing bitimlariga nisbatan litsenziya talablari mavjud emasligini va bu hol mamlakatimizda lizingni rivojlantirish uchun katta ijobiy omil ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Barcha fuqarolik-huquqiy (xo'jalik) shartnomalaridagi singari, lizing shartnomasini tuzish ham uchta asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi:

- shartnomani tayyorlash va asoslash;
- shartnomani yuridik jihatdan rasmiylashtirish;
- shartnomani bajarish.

Birinchi bosqichda quyidagi hujjatlar:

-lizing oluvchining mol-mulk (ashyo)ni lizingga olish haqidagi lizing beruvchiga bergan talabnomasi;

-lizing oluvchining to'lov qobiliyati to'g'risida lizing beruvchining mutaxassislari tomonidan rasmiylashtirilgan ekspert xulosasi va lizing loyihasining samarali ekanligini asoslovchi hujjat;

-lizing beruvchi tomonidan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi)ga yuboriladigan buyurtma;

-agar lizing beruvchi lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun bankdan kredit oladigan bo'lsa (qo'shimcha mablag'lar jalb etilganda), u tomonidan kredit berish haqida bankka yo'llanadigan talabnomani rasmiylashtirish talab qilinadi.

Ikkinchi bosqichda quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

- lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun bank mablag'lari jalb etilgan taqdirda, lizing beruvchi bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit (qarz) shartnomasi;

- lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi;

- lizing obyektini foydalanish uchun qabul qilish va topshirish haqidagi dalolatnoma;

- lizing shartnomasi;

- lizing ashyosiga texnik jihatdan xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma;

- lizing obyektini sug'urtalash shartnomasi;

- lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan qo'shimcha xizmatlar to'g'risida shartnoma.

Uchinchi bosqichda lizing oluvchi tomonidan lizing obyektidan foydalanish va lizing to'lovlarini to'lanishi amalga oshiriladi. Bunda lizing oluvchi lizing obyektidan foydalanish va uni lozim darajada saqlashni ta'minlaydi, lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lab turadi va agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, lizing obyektini o'z hisobidan joriy ta'mirlaydi, uni saqlab turishga doir boshqa xarajatlarni moliyalashtiradi.

Tayanch so'z va iboralar

Amortizatsiya ajratmasi, lizing, lizing to'lovi, lizing krediti, lizing obyekt, moliyaviy ijara, moliyaviy lizing, operativ lizing, sublizing, foiz stavkasi, qaytariladigan lizing.

Takrorlash uchun savollar

1. Lizing so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Operativ lizing deganda nimani tushunasiz?
3. Moliyaviy lizing nima?
4. Qaytariladigan lizing deganda nimani tushunasiz?
5. Lizing obyektiga amortizatsiya qanday hisoblanadi?
6. Lizing to'lovlari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Tijorat banklari lizing operatsiyalarining qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
8. Tijorat banklari lizing operatsiyalariga nisbatan Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan qanday cheklolar mavjud?
9. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan qanday risklar mavjud?

XVIII BOB. TIJORAT BANKLARINING YANGI XIZMAT TURLARI

18.1. Bank plastik kartochkalari va ular orqali to'lovlarni amalga oshirish

Plastik kartalar deganda turli xil maqsadlarga mo'ljallangan kartalarning yig'indisi tushuniladi.

Plastik kartalar vositasida aholi savdo shoxobchalaridan iste'mol tovarlari xarid qilishi, kommunal to'lovlarni to'lashi mumkin. Plastik karta yo'l chiptasi yoki kompyuterga kirish imkonini beruvchi vosita vazifasini o'tashi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, plastik kartalar turli maqsadlarga mo'ljallangan instrument hisoblanadi.

Plastik karta pul muomalasi sohasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda dunyoning barcha mamlakatlarida plastik kartalardan foydalanilmoqda.

Plastik kartalarning bir nechta turlari mavjud.

Plastik kartalar hisob-kitoblar uchun mo'ljallanishiga qarab shaxsiy va korporativ kartalarga bo'linadi.

Tijorat banklari shaxsiy kartalarni jismoniy shaxslarga, ular tomonidan joriy hisobraqam ochilgandan keyin beradi. Shuningdek, shaxsiy plastik kartalar to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan jismoniy shaxslarga ham beriladi.

Korporativ plastik kartalar yuridik shaxslarga, ularning kafolati va ta'minoti asosida, beriladi.

Plastik kartalarning ishlash rejimiga ko'ra 2 turi mavjud:

1. Of-line rejimidagi kartalar.
2. On-line rejimidagi kartalar.

Of-line rejimidagi kartalarga pul o'tkazilgandan so'ng undan foydalanish uchun kartani yuklab olish kerak bo'ladi. Bu plastik kartalar dastlab paydo bo'lgan kartalar bo'lib, hozirgi davrda kamdan-kam mamlakatlarda foydalaniladi.

On-line rejimidagi kartalar zamonaviy plastik kartalar bo'lib, ularni yuklab olish shart emas. Ushbu plastik kartalar orqali to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshiriladi.

Plastik kartalarning qo'llash mexanizmiga ko'ra 2 turi mavjud:

1. Debetli kartalar.
2. Kreditli kartalar.

Debetli kartalar naqd pullar, pullik cheklarga muqobil bo'lgan to'lov vositasi hisoblanadi. Ular karta egasining bankdagi joriy hisob-raqamidagi pul mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri echib olish yo'li bilan tovarlar va xizmatlar haqini to'lashda qo'llaniladi.

Debetli kartalarda tijorat banklarining kreditlari hisobidan to'lovlarni amalga oshirish imkoni mavjud emas, balki to'lovlar joriy hisobraqamdagi pul mablag'lari miqdorida amalga oshiriladi. Faqat bitta holatda karta egasi tijorat bankining kreditidan foydalanishi mumkin, qachonki unga bank tomonidan overdraft kreditidan foydalanish uchun limit ajratilgan bo'lsa.

Kreditli kartalarda karta egasiga tijorat banki tomonidan ssuda hisobqarami ochiladi va uning kredit to'loviga layoqatliligidan kelib chiqqan holda kreditlash limiti o'rnatiladi.

Plastik kartalarning funksional belgilariga ko'ra quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- * magnitli kartalar;
- * xotira kartalari;
- * smart kartlar;
- * supersmart-kartlar;

Magnitli kartalarning teskari tomonida magnitli yo'lakcha bo'lib, unda 100 baytgacha ma'lumot saqlanishi mumkin.

Xotira kartalari oddiy elektron kartalar bo'lib, ularda faqat xotira mavjud. Ushbu kartalarning xotirasi magnitli kartalarning xotirasidan bir necha marta katta.

Xotira kartasining xotirasidagi ma'lumotlarni olish va unga ma'lumotlarni kiritish terminal orqali amalga oshiriladi.

Smart kartlarda mikrosxema mavjud bo'lib, u mikrokompyuter kabi hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Smart kartalarni ishlab chiqaruvchi asosiy kompaniyalar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- * Gemplus (Frantsiya);
- * AT&T (AQSh);
- * Bill CPS (Frantsiya);
- * Toshiba (Yaponiya);
- * Philips TRT (Germaniya).

Supersmart kartlar ko'p maqsadli kartalar bo'lib, Yaponiyaning Toshiba kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladi va VISA tizimida qo'llaniladi.

Supersmart-kartlarning afzalliklari:

- * o'zida ham debetli kartni, ham kreditli kartni birlashtiradi;
- * oddiy smart kartdan farqli ravishda qo'shimcha ma'lumotni kiritish qurilmalari mavjud;
- * bir vaqtning o'zida soat, kalendar, kalkulyator, yozuv daftarchasi vazifasini bajaradi.

Magnitli plastik kartalardan naqd pul echib olish bankomatlar orqali amalga oshiriladi.

Bankomatlar ko'p funksiyali qurilma hisoblanadi.

Bankomatlarning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- * banklarga kassa xodimlari sonini kamaytirish imkonini beradi;
- * mijozlarga kassa xizmati ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi;
- * banklarning kassa xizmatini mijozga yaqinlashtiradi;
- * shanba va yakshanba kunlari ham naqd pul olish imkonini beradi;
- * mijozlarga omonat operatsiyalarini amalga oshirish imkonin beradi.

O'zbekistonda birinchi marta 1995-yilda milliy valyutada kredit va debetli plastik kartalar muomalaag chiqarildi. Ammo plastik kartalar muomalasining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentyabrda qabul qilingan 445-sonli «Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi 1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor vazifalari to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi plastik kartalar muomalasini yanada rivojlantirish imkonini berdi.

Prezidentning ushbu qarorida har-yili kamida 500 ming dona plastik kartani respublikaning o'zida ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.

Agar 2004-yilda plastik kartalar orqali 0,1 mlrd. so'm miqdorida operatsiyalar amalga oshirilgan bo'lsa, 2014-yilning oxiriga kelib bu ko'rsatkich 22,8 trln. so'mni tashkil etdi.

18.2. Masofaviy bank xizmatlari

Masofaviy bank xizmatlarining quyidagi turlari mavjud:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyutyerda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-servyerda joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi, pul o'tkazmalarini tayyorlab bankga uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvaraq'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Albatta, SMS-banking xizmati hajmini oshirish uyali aloqa vositalaridan foydalanuvchilar soniga va ularning banklarga bo'lgan ishonchiga bog'liq.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraqlar balansi kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

Mobayl banking. Zamonaviy talablarga hozirda mavjud texnologiyalardan qaysi biri javob berishi mumkin va mobil banking modellarining qaysi biri afzal, degan savol tug'iladi. Ko'pchilik ekspertlar WAP-banking modelini mijozlar uchun afzalligini e'tirof etishadi.

WAP-banking bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ayniqsa, WAP profili orqali ishlashda xarajatlarning minimal ekanligi va mijozning o'zi tanlash huquqining mavjudligi muhim afzalliklardan hisoblanadi.

Respublikamizda WAP-banking xizmatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar, shu jumladan, texnik-tashkiliy, molyaiviy imkoniyatlar mavjud. Buning ustiga, tijorat banklarida mobayl banking xizmati ko'rsatish borasida ma'lum tajriba to'plangan.

O'zbekiston to'lov tizimini rivojlantirishning so'nggi bosqichida, ayniqsa, bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi jadal rivojlandi.

2015-yilning 1-yanvar holatiga, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchilar soni 534,8 mingtadan ortib, 2014-yil boshiga nisbatan 2 barobarga ko'paydi¹.

O'zbekiston Respublikasida banklarning masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, 2014-yilning 1-yanvar holatiga²

34-jadval

No	Bank	Internet-banking va «Bank-Mijoz»	SMS-Banking i Mobayl banking	Jami
1	Milliy bank	5513	57957	63470
2	Sanoatqurilishbank	2286	1664	3950
3	Agrobank	2657	858	3515
4	Ipotekabank	3851	33811	37662
5	Mikrokreditbank	3152	16094	19246
6	Xalq banki	2980	15243	18223
7	Savdogarbank	519	491	1010

¹ 2014-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari//Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2015. - №1. - B. 24.


² www.cbu.uz

9	Qishloq qurilish bank	1395	10642	12037
10	'Turon bank	1484	2344	3828
10	Xankorbank	7563	5532	13095
11	Asakabank	1896	26440	28336
12	Ipak Yo'li	3439	10042	13481
13	UTbank	183	143	326
14	Trastbank	1765	1171	2936
15	Aloqabank	1951	7766	9717
16	KDB Bank Uzbekistan	341	582	923
17	Turkistonbank	320	45	365
18	Soderot Iran	7	11	18
20	Universalbank	562	458	1020
21	Kapitalbank	3415	12721	16136
22	Ravnaqbank	356	83	439
23	Davr-bank	1326	293	1619
25	Invest Finance Bank	1523	892	2415
26	Amirbank	22	3	25
27	Asia Alliance Bank	964	1227	2191
28	Hi-Tech Bank	318	88	406
29	Orient Finans	570	865	1435
Jumi		56539	207851	264390

Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrda PQ-1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda hamda yuqori halqoro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yunalishlari to'g'risida»gi Qarori muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra 2015-yilgacha respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini yanada kengaytirish borasida tegishli tadbirlar olib borilishi lozim.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizning barcha tijorat banklarida hisobvaraqlarni masofadan boshqarish tizimlari mavjud. Ayniqsa, yirik tijorat banklarida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni ko'p.

Endi biz masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz.



30-rasm. O'zbekiston tijorat banklarining masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar soni¹, mingta.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012-2014-yillarda respublikamiz tijorat banklarining masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Bu esa, ushbu xizmat turlarining tobora rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

SMS-banking xizmatidan foydalanuvchi mijozlar soni esa, 2011-yil 30,0 mingga etgan bo'lsa, 2012-yil 1 oktyabrga kelib esa, mobil banking va SMS-banking xizmatlaridan soni 43,3 mingdan oshdi, ularning masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar umumiy sonidagi ulushi 55,0 foizga teng. 2014-yilga kelib esa, internet banking va SMS-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 472,6 mingtaga etdi².

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish operatsiyalarining bahosini ko'rib chiqamiz.

¹ www.cbu.uz.

² 2014-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosating 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari//Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2015. - №1. - B. 24.

Uzbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish operatsiyalarining bahosi¹, 2014-yilning 1-yanvar holatiga

35-jadval

No	Bank	Tizimga ulanish xarajati	Oylik to'lov
1	Milliy bank	Bepul	20 doll.
2	Sanoatqurilishbank	Bepul	20 doll.
3	Agrobank	Bepul	0,5 MIH
4	Ipotekabank	Bepul	36 000 so'm
5	Mikrokreditbank	Bepul	16 doll.
6	Xalq banki	20 doll.	25 doll.
7	Qishlok qurilish bank	Bepul	0,5 MIH
8	Turon bank	Bepul	10 doll.
9	Xankorbank	2 MIH	Bepul
10	Asakabank	Bepul	16 doll.
11	Ipak Yo'li	10 doll.	10 doll.
12	UTbank	100 doll.	Bepul
13	Trastbank	Bepul	15 doll.
14	KDB Bank Uzbekistan	40 doll.	20 doll.
15	Turkistonbank	1 MIH	1 MIH
16	Universalbank	1 MIH	1 MIH
17	Ravnaqbank	Bepul	20 000 so'm
18	Davr-bank	20 000 so'm	20 000 so'm
19	Invest Finance Bank	Bepul	20 doll.
20	Amirbank	Bepul	1 MIH
21	Asia Alliance Bank	Bepul	15 doll.
22	Hi-Tech Bank	Bepul	20 doll.
23	Orient Finans	Bepul	15 doll.

Izoh: doll. – AQSh dollari; MIH – minimal ish haqi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining aksariyat qismida mijozning tizimga ulanishi bepul qilib qo'yilgan. Bu esa, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqaruvchilar sonini oshishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari uchun internet banking tizimi ancha qimmatga tushadi.

Tijorat banklari uchun internet saytlarni ochish xarajatlari korporativ klientlar uchun ochiladigan korporativ saytlarni ochish xarajatlaridan farq

¹ www.cbu.uz.

qilmaydi. Buning uchun web-studiya 7 mln. soʻmdan 15 mln. soʻmgacha oladi¹. Ammo bu xarajatlar faqat saytning dizayni va dasturiy qismi uchun qilinadigan xarajatdir.

Tijorat banklari uchun internet-loyihaning eng qimmat qismi – bu internet banking xizmati boʻyicha dasturiy taʼminot va uni avtomatlashtirilgan bank tizimiga ulash xarajatlaridir.

Toʻgʻri, yirik tijorat banki internet banking loyihasini tashqaridan firmalarni jalb qilmasdan turib, mustaqil joriy etish imkoniyatiga ega. Ammo bunday banklar uchun ham internet banking qimmatga tushadi. Chunki, ular yuqori malakali dasturchilarga ega boʻlishi va axborotlashtirish boʻlinmasini saqlab turishlari kerak boʻladi. Bundan tashqari, bank mijozlarini elektron raqamli imzo bilan taʼminlash imkonini beradigan himoya vositalarini sotib olishga, dasturiy taʼminotni kuzatish xarajatlariga katta miqdorda pul sarflaydilar.

Masofaviy bank xizmatlari internetning tezligini yuqori darajada boʻlishini talab etadi. Bundan tashqari, tijorat banklari uchun yangi dasturiy taʼminotlarni sotib olish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bularning barchasi tijorat banklari uchun maʼlum darajadagi xarajatlar hisoblanadi.

18.3. Banklarning forfeyting operatsiyalari

Forfeyting frantsuzcha **a forfe** degan soʻzdan olingan boʻlib, ulgurji degan maʼnoni anglatadi.

Forfeyting – bu tijorat banki tomonidan mol etkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan trattani regress huquqisiz sotib olinishidir.

Tijorat banklarining forfeyting operatsiyalari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Mol etkazib beruvchi bilan sotib oluvchi oʻrtasida oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

2. Mol etkazib beruvchi tovarni va tovarlar bilan bogʻliq boʻlgan hujjatlarni sotib oluvchiga joʻnatadi.

3. Sotib oluvchi aktseptlangan uzatma tijorat vekselini (tratta) mol etkazib beruvchiga beradi.

4. Mol etkazib beruvchi trattani oʻzining bankiga sotib olish uchun taqdim etadi.

5. Tijorat banki trattani regress huquqisiz sotib oladi.

¹ Respublikamiz banklaridan internet-loyiha uchun olinadigan summalar.

6. Trattaning muddati tugashi bilan tijorat banki uni sotib oluvchining bankiga to'lov uchun jo'natadi.

7. Sotib oluvchining banki trattani sotib oluvchiga uzatadi.

8. Sotib oluvchi o'z bankiga to'lov topshiriqnomasi yozadi.

9. Sotib oluvchining banki sotib oluvchining to'lov topshiriqnomasiga asosan tratta bo'yicha to'lovni amalga oshiradi.

Forfeyting operatsiyalari Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi. Uning paydo bo'lishining asosiy sababi bo'lib, urush natijasida xonavayron bo'lgan G'arbiy Evropa davlatlarida eksportni kreditlash zaruriyati hisoblanadi. Tijorat banklari trattalarni diskont stavkasi bo'yicha sotib olish orqali eksporterlarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan valyuta mablag'larini forfeyting krediti orqali topib berdilar.

Trattalarni sotib oluvchi bank, ya'ni bank-forfeytor sotib oluvchining to'lovga qobilligi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Buning sababi shundaki, bank trattani regress huquqsiz sotib oladi. Bunday sharoitda sotib oluvchining to'lovga noqobil bo'lib qolishi bankni tratta summasi miqdorida zarar ko'rishiga olib keladi.

Hozirgi davrda forfeyting operatsiyalari xalqaro moliya bozorlarida (London, Tokio, Nyu-York, Tsyurix, Parij, Frankfurt-na-Mayne, Gonkong, Singapur) faoliyat yuritayotgan banklarda rivojlangan. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– xalqaro savdo operatsiyalarini moliyalashtirishning xalqaro moliyaviy markazlarida to'planganligi;

– tovarlar eksportidagi risklarning yuqori ekanligi;

– eksporterlarda moliyalashtirish manbalarining etarli emasligi.

Forfeyting operatsiyalarining faktoring operatsiyalaridan farq qiluvchi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Forfeytingda banklar tomonidan faqat trattalar sotib olinadi. Faktoringda esa, nafaqat trattalar, balki tovar hujjatlari ham sotib olinadi.

2. Forfeytingda trattalar faqat regress huquqsiz sotib olinadi. Faktoringda esa, regress huquqi bilan ham, regress huquqsiz ham sotib olish qo'llaniladi.

3. Forfeytingda tijorat bankining diskont stavkasi faktoring operatsiyalarinikiga qaraganda yuqori bo'ladi.

Forfeyting operatsiyasi amalga oshirishning oson va sodda ekanligi bilan lizing operatsiyasidan farq qiladi. Bundan tashqari, forfeytingda eksporter importerni bankrot bo'lish xavfidan xolos bo'ladi. Lizingda esa,

eksporterga nisbatan moliya kompaniyasining regress huquqi saqlanib qoladi.

Forfeyting xizmatlari bozorida tijorat banklari bilan forfeytor kompaniyalari raqobat qiladi. Ushbu kompaniyalar forfeyting xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lib, bozorda o'ziga xos mavqega ega.

Forfeytor kompaniyalarning ustunligi – bu ularning faqat bitta xizmat turiga, ya'ni forfeyting xizmatiga ixtisoslashganligidir. Ular ushbu xizmat turini yuqori darajada sifatli qilib ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan professional kadrlarga ega.

Tijorat banklarining forfeyting xizmatlari bozoridagi ustunligi, asosan, ularning moliyaviy resurs salohiyati bilan belgilanadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, ko'pchilik hollarda, importer korxonalar tomonidan aktseptlangan tijorat veksellari taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklari tomonidan sotib olinmaydi. Chunki, birinchidan, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko'pchiligi yuqori riskli hududlar hisoblanadi; ikkinchidan, ushbu korxonalarining to'lovga layoqatlilikini baholash uchun xorijiy banklar etarli darajada ma'lumotlar bazasiga ega emas. Shu sababli, importer korxonalar tomonidan aktseptlangan tijorat veksellarini o'sha mamlakat banklari tomonidan aktseptlanishi, ya'ni to'lovining kafolatlanishi mazkur tratalarni xorijiy banklar tomonidan sotib olinishi uchun imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat veksellari muomalasi mavjud bo'lmaganligi sababli, tijorat banklarida forfeyting operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyati mavjud emas.

Tayanch so'z va iboralar

«Bank-Mijoz» tizimi, Internet-banking, magnitli kartalar, mol etkazib beruvchi, Mobayl banking, «of-line» rejimi, «on-line» rejimi, plastik karta, regress huquqsiz, smart kartlar, supersmart-kartlar, tratta, xotira kartalari, xalqaro savdo, xalqaro moliya bozorlari, forfeyting, forfeytor, SMS-banking.

Takrorlash uchun savollar

1. Plastik karta nima va uning qanday turlari mavjud?
2. O'zbekistonda plastik kartalar muomalasi qachon joriy etilgan va uning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
3. Debetli plastik kartalar bilan kreditli kartalar o'rtasida qanday farqli jihatlar mavjud?

4. «Bank-Mijoz» tizimi nima va u orqali operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?
5. Internet-banking nima va u orqali to'lovlar qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. SMS-banking nima va u qaysi amallarni amalga oshirish imkonini beradi?
6. Mobayl banking qanday xizmat turi hisoblanadi?
7. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish qanday amalga oshiriladi?
8. Forfeyting operatsiyasi qanday amalga oshiriladi va uning afzalliklari nimada?

XIX BOB. TIJORAT BANKLARINING BALANS DAN TASHQARI OPERATSIYALARI

19.1. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni

19.2. Tijorat banki tomonidan beriladigan kafolatlar

Tijorat bankining balansdan tashqari operatsiyalari deganda pul mablag'larining harakati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo kelgusida bank uchun ma'lum bir talab va majburiyatlarni yuzaga keltiradigan operatsiyalar tushumiladi.

Tijorat banklari faoliyatida keng qo'llaniladigan balansdan tashqari operatsiyalardan biri bo'lib, kafolatlar berish operatsiyalari hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan kafolatlarning ikki turi mavjud:

1. Mijozlarning to'lov majburiyatlari yuzasidan beriladigan kafolatlar.

2. Etkazib beriladigan tovarlarning sifati yuzasidan beriladigan kafolatlar.

Mijozlarning to'lov majburiyatlari bo'yicha beriladigan kafolat, mijoz to'lovga noqobil bo'lib qolganda, uning majburiyatlari bo'yicha to'lovni amalga oshirish javobgarligini bankning zimmasiga yuklaydi.

Mijozlarning to'lov majburiyati yuzasidan beriladigan bank kafolatining stend-bay akkreditividan asosiy farqi shundaki, ushbu kafolat turida, tovar hujjatlarining kelib tushgan vaqtida mijozning joriy hisobraqamida pul mablag'larining bo'lmasligi bank majburiyatini bajarish uchun asos bo'ladi. Stend-bay akkreditivida esa, tovar hujjatlarining kelib tushgan vaqtida mijozning joriy hisobraqamida pul mablag'larining bo'lmasligi bankning to'lov majburiyati ijrosi uchun asos bo'la olmaydi, balki mijozning to'lovga noqobil bo'lib qolishi asos bo'ladi.

Tovarlarining sifati bo'yicha beriladigan bank kafolati tovarlarni sotib oluvchiga beriladi. Bu yerda savol tug'ilishi mumkin: tijorat banki xodimlari tovarlarning sifatini baholashni bilmaydiku?

Tijorat banki xodimlarining tovarlarning sifatini baholashni bilishi mutlaqo shart emas. Ushbu kafolatni berishdan maqsad – bankning mijoz

bo'lgan mol etkazib beruvchi korxonasi sifatli mahsulot etkazib bermasa yoki tovarlarni shartnomada ko'zda tutilgan muddatda etkazib bermasa, oldi-sotdi shartnomasida ko'zda tutilgan jarimani to'lashni va oldindan to'lab berilgan avans to'lovini qaytarish majburiyatini bankning zimmasiga yuklashdir.

Amaliyotda ba'zan shunday holat yuzaga keladiki, mol etkazib beruvchi tovar summasining sezilarli qismini (30%, 50% yoki 100%) oldindan to'lab berishni sotib oluvchidan talab qiladi. Sotib oluvchi tomonidan avans to'lovi talab qilingan summada etkazib berilganda, tabiiyki, sifatsiz tovarlar etkazib berish, tovarlarni muddatida etkazib bermaslik yoki umuman etkazib bermaslik xavfi yuzaga keladi. Buning sababi shundaki, tovarlar summasining sezilarli qismini oldindan olgan mol etkazib beruvchilarning ko'pchiligida tovarlarni sifatli va o'z vaqtida etkazib berish ma'suliyati kamayadi. Shu sababli, bunday hollarda sotib oluvchi, o'zini yuqorida qayd etilgan xavfdan himoya qilish maqsadida, mol etkazib beruvchidan etkazib beriladigan tovarlarning sifati bo'yicha beriladigan bank kafolatini talab etadi.

Tijorat banklari tomonidan kafolatlar berish operatsiyalari yuqori daromadli bo'lish bilan birga, yuqori riskli hamdir. Bank, aytaylik, beriladigan kafolat uchun tovar summasining 2-3 foizi miqdorida daromad olish bilan birga, sotib oluvchining to'lovga noqobil bo'lib qolishi natijasida tovar summasining 97-98 foizi miqdorida zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun ham, Bazel qo'mitasi ekspertlari tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlarining risk darajasini 100% qilib belgilashgan.

Bank kafolatlarining risk darajasi yuqori ekanligiga misol qilib, Buyuk depressiya (1929-1933-yy.) davrida AQShda yuz bergan banklarning ommaviy bankrot bo'lganligini keltirish mumkin.

Banklarning ommaviy bankrot bo'lishi, bankrotlik sabablarini aniqlash maqsadida, davlat komissiyasining tuzilishiga sabab bo'ldi. Komissiya tomonidan Prezidentga va Kongressga berilgan hisobotda tijorat banklarining ommaviy bankrot bo'lishining sabablari asoslab berildi va asosiy sabablardan biri sifatida AQSh banklarining foyda ketidan quvib, mijozlarning to'lov majburiyatlari bo'yicha katta miqdorda kafolatlar berib yuborganligi ko'rsatildi. Natijada, Glass-Stigol qonuni qabul qilindi va AQSh banklari mazkur qonunga asosan mijozlarning to'lov majburiyatlari bo'yicha kafolatlar berish huquqidan mahrum qilindi.

Bank kafolatlari ularning raqobatbardoshligini, mijozlar oldidagi reputatsiyasini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli,

AQSh tijorat banklari Federal zaxira tizimiga doimiy ravishda kafolatlar bo'yicha belgilangan ta'qiqni bekor qilish vaqti kelganligini aytib, murojaat qila boshlashdi. Ular o'z murojaatlarida ushbu ta'qiq tufayli AQSh banklarining Yaponiya va G'arbiy Evropa banklariga nisbatan raqobatbardoshligiga jiddiy putur etayotganligini ta'kidlashgan.

Pirovard natijada, 1991-yilda Glass-Stigol qonuni bekor qilindi.

Kafolat bergan tijorat bankining etarli darajada likvidli va to'lovga qobil bo'lishi kafolat ijrosini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Odatda, kafolat bergan tijorat bankining likvidliligi va to'lovga qobilligini baholashda ularga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting ballari hisobga olinadi. Ammo amaliyotda xalqaro reyting agentliklarining reyting ballarini olmagan tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar mavjud. Bunday sharoitda kafolat bergan tijorat bankining likvidliligi va to'lovga qobilligi mavjud ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bunda asosiy e'tibor joriy likvidlilik koeffitsiyenti, kapitalning etarlilik darajasi va bank aktivlarining sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning tahliliga qaratiladi.

Shuningdek, kafolat bergan bank joylashgan mamlakatdagi siyosiy risk darajasi ham bank kafolatlaridan foydalanishda hisobga olinadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2012-yil 24-martdagi 761-sonli «Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi yo'riqnomasiga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 15-mayda 2364-sonli raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) muvofiq:

Birinchiidan, tijorat banklari tomonidan berilgan jami kafolat va printsipal tomonidan qoplanmagan benefitsarga to'lab berilgan mablag'lar summalarining yig'indisi birinchi darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Ikkinchiidan, kafolat olish uchun prinsipal quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- zarar ko'rib ishlamayotgan bo'lishi hamda nolikvid balansga ega bo'lmasligi;
- muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlarning mavjud bo'lmasligi;
- oxirgi uch moliyaviy-yil natijalari bo'yicha ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo'lishi;
- ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi.

Uchinchidan, tijorat banklari tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Shuysi xarakterliki, zaxira miqdori printsipalning moliyaviy ahvoli, kredit tarixi va printsipal faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyot tarmog'i holatini hisobga olgan holda uning kreditga layoqatliligidan kelib chiqib belgilanadi.

Yo'riqnoma talabiga asosan, printsipalning kredit layoqatliligi «yaxshi», «standart», «substandart», «past» va «yomon» kabi tasniflanadi.

Quyidagi holatlar mavjud bo'lganda, printsipalning kredit layoqatliligi «yaxshi» deb e'tirof etiladi:

moliyaviy jihatdan barqaror;

yuqori daromadlilik darajasiga ega;

barcha moliyaviy majburiyatlarini o'z muddatida bajarishiga shubha tug'dirmaydigan, shu jumladan, kafolat bo'yicha qarzni qondirish uchun etarli pul mablag'lariga ega;

tijorat ishlarini rivojlantirish hamda moliya resurslarini erkin jalb qilish imkoniyatlari mavjud;

faoliyati cheklangan ta'minotchi hamda iste'molchilarga bog'liq bo'lmagan;

taqdim etilayotgan ta'minotga doir barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan;

kredit yoki boshqa qarzlari bo'yicha to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilgan.

Kreditga layoqatliligi «yaxshi» deb e'tirof etilgan printsipalga berilgan kafolatlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilmasligi mumkin.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda, printsipalning kredit layoqatliligi «standart» deb e'tirof etiladi:

umumiy moliyaviy ahvoli barqaror hisoblangan, lekin faoliyatida ayrim iqtisodiy salbiy holatlar mavjud bo'lgan, ularning bartaraf etilmasligi printsipalning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslik holatini vujudga keltirish xavfining mavjudligi;

daromadlari yoki pul mablag'lari oqimining pasayish tendentsiyasi mavjudligi;

faoliyati davomida kredit yoki boshqa qarzlari bo'yicha to'lovlar muddatining bir marotaba uzaytirilganligi.

Kreditga layoqatliligi «standart» deb e'tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 10 foizi miqdorida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda, prinsipalning kredit layoqatliligi «substandart» deb e'tirof etiladi:

moliyaviy ahvolining jiddiy yomonlashuviga sabab bo'luvchi holatlarning mavjudligi;

daromadlari yoki pul mablag'lari oqimining oxirgi chorakka nisbatan 50 foizga kamayganligi;

oxirgi hisobot oyidagi mavjud barcha muddati kelgan majburiyatlarni, shuningdek, kafolat summasini ushbu oy davomida kelib tushgan pul mablag'lari hisobidan qoplash imkoniyatiga ega emasligi;

faoliyati davomida kredit yoki boshqa qarzlari bo'yicha to'lovlari muddatining ikki marotaba uzaytirilganligi.

Kreditga layoqatliligi «substandart» deb e'tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 25 foizi miqdorida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda, prinsipalning kredit layoqatliligi «past» deb e'tirof etiladi:

qayd etilgan Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan holatlardan birining og'irlashganligi;

oxirgi besh-yilda salbiy kredit tarixiga ega ekanligi, ya'ni to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaganligi.

Kreditga layoqatliligi «past» deb e'tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 50 foizi miqdorida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

Quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda, prinsipalning kredit layoqatliligi «yomon» deb e'tirof etiladi:

berilgan kafolat bo'yicha majburiyatni bank tomonidan bajarish holatlarining yuzaga kelishi;

kredit yoki boshqa qarzlari bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi;

talab qilib olinguncha hisobvarag'iga oxirgi chorakda tushum bo'lmaganligi;

moliyaviy faoliyati bo'yicha sud jarayonlarining olib borilayotganligi;

bankrotlik alomatlarining mavjudligi.

Kreditga layoqatlilik «yomon» deb e'tirof etilgan prinsipalga berilgan kafolat summasining 100 foizi miqdorida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirilishi lozim.

19.3. Tijorat banklarining forvard operatsiyalari, opsiyon va fyuchers shartnomalari

Tijorat banklarining forvard operatsiyalari ular faoliyatida keng qo'llaniladigan balansdan tashqari operatsiyalar hisoblanadi.

Tijorat bankining forvard operatsiyasi deganda ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish va sotish operatsiyasiga aytiladi.

Forvard shartnomalari tijorat banki bilan eksportyor o'rtasida hamda tijorat banki bilan tijorat banki o'rtasida tuziladi.

Forvard shartnomasi tuzilishi bilan shartnoma summasi tegishli balansdan tashqari hisobraqamda aks ettiriladi.

O'zbekiston tijorat banklarida xorijiy valyutani sotish bo'yicha tuzilgan forvard shartnomalari summasi 92709-hisobraqamda, xorijiy valyutani sotib olish bo'yicha tuzilgan forvard shartnomasi summasi esa, 92716-hisobraqamda aks ettiriladi.

Forvard shartnomasining muddati tugashi bilan valyuta mablag'larining balans hisobraqamlari bo'yicha harakati sodir bo'ladi va natijada balans hisobraqamlari bo'yicha tegishli buxgalteriya o'tkazmalari rasmiylashtiriladi. Ana shundan keyin forvard shartnomasi summasi balansdan tashqari hisobraqamlaridan chiqariladi.

Forvard shartnomasi summasini balansdan tashqari hisobraqamlardan chiqarish teskari buxgalteriya o'tkazmalarini rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Forvad operatsiyalari tijorat banklari uchun yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi. Bazel qo'mitasining tijorat banklari aktivlarini riskka tortish shkalasi bo'yicha banklar tomonidan tuzilgan forvard shartnomalarining risk darajasi 100 foizga teng.

Muddati tugamagan forvard shartnomalari bo'yicha realizatsiya qilinmagan foyda va zarar aniqlanadi. Ammo ular balansdan tashqari hisobraqamlarda aks ettirilmaydi.

Respublikamizning qator tijorat banklarida forvard operatsiyalari mavjud.

Tijorat banklarining opsiyon shartnomalari risk darajasi yuqori bo'lgan balansdan tashqari talab va majburiyat hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga beriladigan optsionlarning ikki asosiy turi keng qo'llaniladi:

1. Koll optsionlar.
2. Put optsionlar.

Koll optsionlar valyutalar va qimmatli qog'ozlarni belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi.

Put optsionlar valyutalar va qimmatli qog'ozlarni belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

Opsion berilishi bilan tijorat bankining tegishli balansdan tashqari hisobraqamda aks ettiriladi.

Opsion shartnomasining muddati tugashi bilan, sotib olish yoki sotish operatsiyalarining amalga oshirilishi yoki amalga oshirilmasligidan qat'iy nazar, optsion shartnomasi summasi balansdan tashqari hisobraqamdan o'chiriladi. Buning sababi shundaki, optsion egasida faqat huquq bor. Agar optsion muddati tugagan paytda bozorda kurs optsion egasi uchun optsion bahosiga nisbatan qulay bo'lsa, u optsionni ishlatmaydi. Ya'ni, valyutasini yoki qimmatli qog'ozini bankka emas, balki bozorda sotadi. Agar optsion egasi uchun bozorda baho noqulay bo'lsa, u holda, u optsionni ishlatadi.

Yuqorida qayd etilgan har ikkala holatda optsion shartnomasi summasi bankning balansdan tashqari hisobraqamidan chiqariladi. Chunki, optsion shartnomasining muddati tugashi bilan u kuchini yo'qotadi.

Opsionlarning evropa standarti bitim ijrosi faqat optsion muddati tugagandan so'ng amalga oshiriladi. Opsionlarning Amerika standartida esa, bitim ijrosi optsion muddatining istalgan vaqtida amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, optsion shartnomasi summasini balansdan tashqari hisobraqamdan chiqarish vaqti bevosita optsionning standartiga bog'liq.

Tijorat banklarining fyuchers shartnomalari ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish imkonini beradi.

Fyuchers shartnomasi tuzilishi bilan shartnoma summasi tijorat bankining tegishli balansdan tashqari hisobraqamida aks ettiriladi.

Fyucherslar bo'yicha hisob-kitoblar tijorat bankida amalga oshirilmaydi, balki kliring palatalarida amalga oshiriladi. Shu sababli, fyuchers shartnomasi summasini bankning balansdan tashqari hisobraqamidan chiqarish uchun asos bo'lib, kliring palatasi tomonidan bankka jo'natilgan joriy hisobraqamdan ko'chirma hisoblanadi.

Ma'lumki, kliring palatasi fyuchers shartnomasi bo'yicha hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi har bir tijorat bankiga bittadan joriy hisobraqam ochadi. Fyucherslar bo'yicha tushumlar va to'lovlar ana shu hisobraqamda aks etadi. Operatsion kun tugagandan so'ng kliring palatasi har bir tijorat bankiga uning joriy hisobraqamidan ko'chirma jo'natadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida opsiyonlar va fyucherslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hozirgi kunda mavjud emas.

Opsiyonlar va fyucherslar tijorat banklari uchun yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi.

19.4. Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi hisob-kitob operatsiyalari

Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi hisob-kitob operatsiyalari bankka daromad keltiruvchi balansdan tashqari operatsiya hisoblanadi.

Bank tomonidan mijozga akkreditiv ochilgandan so'ng, akkreditiv summasi tijorat bankining tegishli balansdan tashqari hisobraqamida aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida»gi yo'riqnomasiga asosan mamlakat hududida qo'llaniladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning 2 shakli ko'rsatilgan:

- qoplangan akkreditivlar;
- qoplanmagan akkreditivlar.

Ammo xalqaro amaliyotda hujjatlashtirilgan akkreditivlarning yana 4 shakli mavjud:


- * chaqirib olinadigan akkreditivlar;
- * chaqirib olinmaydigan akkreditivlar;
- * tasdiqlanadigan akkreditivlar;
- * tasdiqlanmaydigan akkreditivlar.

Qoplangan akkreditivlarda akkreditiv summasi mijozning joriy hisobarqamidan olinib, 22602-hisobraqamda deponent qilinadi. Bunda kelib tushgan hujjatlar deponent qilingan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

Qoplangan akkreditivlarda tijorat banki uchun to'lov riski mavjud emas. Shu sababli, ular bank uchun yuqori daromadli operatsiya hisoblanmaydi.

Qoplanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda tijorat banklari uchun to'lov riski yuqori bo'ladi.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamiz bank amaliyotida hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy shakli sifatida keng qo'llanilayotgan ta'minlangan akkreditivlar vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini ko'rib chiqamiz.



31-rasm. Ta'minlangan xujjatlashtirilgan akkreditivlar orkali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.

Bu yerda:

- (1) – oldi-sotdi shartnomasini imzolash;
- (2) – sotib oluvchi akkreditiv ochish to'g'risida o'z bankiga ariza beradi;
- (3) – sotib oluvchining banki sotib oluvchining joriy schyotidan to'lov summasini olib, uni alohida schyotda (22602-schyotda) deponentlaydi;
- (4) – sotib oluvchining banki mol yetkazib beruvchining bankini akkreditiv ochilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi;
- (5) – mol yetkazib beruvchining banki mol etkazib beruvchiga hujjatlashtirilgan akkreditiv ochilganligi to'g'risidagi xabarni etkazadi;
- (6) – mol yetkazib beruvchi tovarlarni jo'natadi;
- (7) – mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni o'zining bankiga uzatadi;
- (8) – mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni tekshiradi va qabul qilib oladi (agar hujjatlarda xatoliklar

mavjud bo'lsa, u holda hujjatlar to'g'rilash uchun mol etkazib beruvchiga qaytariladi);

(9) – mol yetkazib beruvchining banki tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni sotib oluvchining bankiga jo'natadi;

(10) – sotib oluvchining banki deponent schyotidagi mablag'lar hisobidan to'lovni amalga oshiradi;

(11) – sotib oluvchining banki tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni sotib oluvchiga beradi;

(12) – mol yetkazib beruvchining bankiga to'lovni amalga oshirilganligi to'g'risidagi xabar yetkaziladi;

(13) – mol yetkazib beruvchining banki to'lov summasini mol etkazib beruvchining joriy schyotiga o'tkazadi;

(14) – mol yetkazib beruvchining joriy schyotidan ko'chirma.

Rasmdan ko'rinadiki, ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda etkazib berilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlar to'liq kafolatlangan. Bu esa, o'z navbatida, to'lovsizlik muammosini hal qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik hajmini qisqartirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Ayni vaqtda, ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarga xos bo'lgan qator kamchiliklar mavjud deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar pul mablag'larining ma'lum qismi ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib qoladi. Deponentlangan pul mablag'laridan sotib oluvchi o'zining xo'jalik faoliyatida foydalana olmaydi, tijorat banki esa deponentlangan mablag'ga foiz hisoblamaydi.

2. Ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda to'lovni amalga oshirish davri cho'zilib ketadi, hujjatlar nisbatan uzoq aylanadi. Natijada tovarlarni sotish jarayoni ham cho'zilib ketadi.

3. Ta'minlangan hujjatlashtirilgan akkreditivlarda deponent qilingan pul mablag'larining real qiymatini pasayish xavfi saqlanib qoladi. Mazkur xavf inflyatsiya va valyutalarning almashuv kurslarini o'zgarishi bilan bog'liq. Inflyatsiyaning kuchayishi natijasida milliy valyutada deponent qilingan mablag'larning real qiymati pasayadi.

19.5. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining boshqa turlari

Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining boshqa turlariga kreditlar bo'yicha muddatli majburiyatlarni rasmiylashtirish,

tovar hujjatlarini inkassoga qabul qilish hamda mijozlarga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarning blanklari va qimmatliklarni saqlash operatsiyalari kiradi.

Tijorat banki mijozga kredit liniyasi ochganda mijoz so'ragan miqdordagi kreditni berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bu paytda pul mablag'larining harakati kuzatilmaydi, ammo bank kelgusida mijozga kredit berish majburiyatini oldi.

Agar mijozning joriy hisobarqami bo'yicha overdraft krediti ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda, mijoz overdraft kreditidan foydalangunga qadar kredit summasi balansdan tashqari hisobraqamda turadi.

Jo'natilgan tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar mol etkazib beruvchining banki tomonidan sotib oluvchining bankiga inkasso uchun jo'natilsa, to'lov amalga oshirilgunga qadar tovarlar summasi balansdan tashqari hisobraqamda turadi. Sotib oluvchi to'lov topshiriqnomasi yozib, to'lov amalga oshirilgandan keyin tovar hujjatlari summasi balansdan tashqari hisobraqamdan chiqariladi.

Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarining keyingi turi bo'lib, mijozlarga tegishli qimmatli qog'ozlarning blanklari va qimmatliklarni saqlash operatsiyalari hisoblanadi.

Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlarning blanklari saqlanadi.

Tijorat banki mijozlarga qimmatliklarini saqlash uchun seyf beradi va seyfdan qimmatliklar vaqtinchalik saqlanadi. Bundan tashqari, bank mijozga qimmatliklarni saqlash uchun po'lat kamera ham berishi mumkin.

Qimmatliklar seyfdan saqlanganda tijorat banki mijozga faqat seyfdan foydalanish imkonini beradi va buning uchun kelishilgan komission haq oladi.

Qimmatliklar po'lat kamerada saqlanganda bankning o'zi ularni saqlash uchun qabul qiladi va qimmatliklarning bus-butun saqlanishini ta'minlash majburiyatini oladi.

Butun dunyoda tijorat banklari insonlar uchun o'z boyliklarini saqlashning ishonchli makoni hisoblanadi. Shu sababli, banklarning ushbu operatsiya turi keng tarqalgan bo'lib, ularga sezilarli darajada daromad keltiradi.

Tayanch so'z va iboralar

Bank kafolati, inkasso, kredit tarixi, muddatli majburiyat, mol etkazib beruvchi, opsiyon, overdraft, printsipal, po'lat kamera, realizatsiya qilinmagan foyda, realizatsiya qilinmagan zarar, standart, substandart,

hujjatlashtirilgan akkreditiv, forvard, fyuchers, qimmatli qog'oz blanklari.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat banklariga balansdan tashqari operatsiyalar nima uchun zarur?
2. Tijorat banklari tomonidan kafolatlar qaysi maqsadlar uchun beriladi?
3. Bank tomonidan berilgan kafolatlar qanday rasmiylashtiriladi?
3. Hujjatlashtirilgan akkreditiv nima va uning qanday turlari, shakllari mavjud?
4. Bank tomonidan ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar qanday rasmiylashtiriladi?
5. Inkasso nima va u qanday rasmiylashtiriladi?
6. Kreditlar bo'yicha muddatli majburiyatlar nima va u qanday rasmiylashtiriladi?
7. Qimmatli qog'ozlar blanklari va qimmatliklar qay tartibda bank tomonidan saqlash uchun qabul qilinadi?

XX BOB. TIJORAT BANKLARINING DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI

20.1. Tijorat banklari daromadlari mazmuni va shakllanish manbalari

Tijorat banklari faoliyatining bosh maqsadi bo'lib, olinadigan foydaning miqdorini imkon qadar ko'paytirish hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, ular daromadlarining hajmiga va barqarorligiga bog'liq.

Tijorat banklari daromadlarining manbai bo'lib, bank biznesining quyidagi turlari hisoblanadi:

- ssuda biznesi;
- diskont biznesi;
- qimmatli qog'ozlar biznesi;
- mulklar va qimmatliklarni boshqarish biznesi;
- kafolatlar berish;
- mablag'larni depozitlarga jalb qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat;
- savdo-vositachilik biznesi.

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi.

Ssuda biznesi banklarning kreditlash faoliyati orqali amalga oshiriladi. Tijorat banklari faoliyatining birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishi kreditlash bo'lganligi sababli, kreditlar ular aktivlarining tarkibida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Bu esa, kreditlardan olinadigan daromadlarning tijorat banklari daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'ining yuqori bo'lishiga asos bo'ladi.

Tijorat banklarining kreditlash faoliyati quyidagi ikki yo'nalishga ega:

- jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlash;
- boshqa banklarga kreditlar berish.

Kreditlardan olinadigan daromadlar foizli daromadlar bo'lib, ular kreditlarning turlari va kreditlash shakllari bo'yicha shakllanadi.

Xalqaro bank amaliyotida kreditlar muddatiga ko'ra 3 turga bo'linadi:

- * qisqa muddatli kreditlar;

* o'rta muddatli kreditlar;

* uzoq muddatli kreditlar

Demak, kreditlardan olingan foizli daromadlar kreditlarning muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlardan olingan foizli daromadlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta muddatli kreditlar toifasi mavjud emas. Shu sababli, respublikamiz banklarida qisqa va uzoq muddatli kreditlardan olingan foizli daromadlar mavjud.

Shuningdek, kreditlardan olingan foizli daromadlar kredit shakllari bo'yicha ham turkumlanadi. Jumladan, overdraft kreditlaridan, kontokorrent kreditlash shaklidan olingan daromadlar va hokazo.

Diskont biznesi – bu bank tomonidan tijorat veksellarini, to'lanmagan talablarni chegirma hisobiga sotib olinishidir.

Banklarning diskont biznesi, asosan, faktoring va forfeiting operatsiyalari orqali amalga oshiriladi.

Faktoring operatsiyasida tovar hujjatlari yoki tijorat veksellari bankning diskont stavkasi bo'yicha, regress huquqi bilan yoki regress huquqsiz, sotib olinadi. Forfeitingda esa, uzatma tijorat veksellari bankning diskont stavkasi bo'yicha regress huquqsiz sotib olinadi.

Bank tomonidan faktoring operatsiyasi uchun olinadigan daromadlar ikki qismdan tashkil topadi:

* faktoring krediti uchun foizli daromad;

* faktoring xizmati ko'rsatganligi uchun olinadigan komission daromad.

foizlar, ya'ni mukofot ikki qismdan tashkil topadi, bular:

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar biznesi quyidagilarni o'z lehiga oladi:

* bankning o'zini qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarilishi va ularning bozorda sotilishi;

* boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlarini, ularning topshirig'iga ko'ra, ikkilamchi bozorda joylashtirish;

* korxonalar va tashkilotlarni xususiy lashtirish bilan bog'liq xizmatlar;

* boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish;

* sotib olingan qimmatli qog'ozlarni qayta sotish.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda, tijorat banklari aktivlarining hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar yuqori (10-15%) salmoqni egallaydi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

* qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi;

* yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarni tijorat banklarining joriy likvidligini ta'minlash vositasi ekanligi;

* korporativ qimmatli qog'ozlarning yuqori daromad keltirishi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar biznesidan oladigan daromadlari fozli daromad, dividend va komission daromad ko'rinishida bo'ladi.

Mulklar va qimmatliklarni boshqarish biznesi tijorat banklarining trast operatsiyalari orqali amalga oshiriladi.

Trast operatsiyalari bankka daromadni mijoz mulkini (ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, hisobraqamdagi mablag'lar) boshqarish yoki ushbu mulkka doir ayrim maxsus topshiriqlarni bajarish orqali komission to'lovlar shaklida keltiradi. Trast shartnomalarida mijoz bank kelishuvga muvofiq tarzda bankka mulklarni boshqarish evaziga ma'lum foiz va'da qiladi. Mazkur xizmat turida bank va mijoz orasida operatsiyaning aniq turi belgilab berilgan bo'ladi. Xususan, joriy-yilda mijoz mulkidan foydalanish evaziga kelgan daromad kelishuvga nisbatan past bo'lishi mumkin, bunda esa zarar bank tomonidan qoplanishi kerak. Shu bois, trast xizmatlari uchun komission to'lovlar ham yuqoriroq bo'ladi. Yuqoridagi xususiyatga ko'ra, trast xizmati uchun komission to'lov ham quyidagi elementlardan tashkil topgan:

* mulkni boshqarish uchun olinadigan o'zgaruvchan to'lov;

* trast ishi bo'yicha natijalarga mos ravishda bank oladigan qat'iy belgilangan komission haq.

Bankning kafillik faoliyati bankka pul shaklida daromad keltiradi. Bank mijozlarga kreditlarini olish uchun yoki hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ikki xil kafolat beradi:

– mijozning to'lov majburiyati bo'yicha beriladigan kafolat;

– mijoz tomonidan etkazib beriladigan tovarlarning sifati yuzasidan beriladigan kafolat.

Mablag'larni depozitlarga jalb qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat. Ushbu operatsiyalar quyidagi shakllarda daromad keltirish imkonini beradi:

* komission to'lovlar;

* hisobraqam ochish uchun;

* hisobraqam yuritish uchun;

* ma'lum davr uchun o'zgaruvchan to'lov;

* oborotdan komission haq (oborotdan foiz shaklida);

* hisobraqamda bo'lgan operatsiyalar haqida ko'chirma;

* hisobraqamni yopish;

* naqd pul berish yoki hisob-kitob bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish.

Banklarning daromadlari yuqoridagi faoliyat turlarining barchasidan yoki bir qismidan tashkil topishi mumkin.

Respublikamiz bank tizimida yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini banklar tomonidan depozitlarga jalb qilish bank xizmatlari orasida eng ko'p tarqalgan turidir. Hozir barcha yuridik shaxslar talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlari tijorat banklarida ochilgan bo'lib, banklar ularni yuritishdan daromad oladilar. Ya'ni, har bir operatsiya evaziga bank qat'iy belgilangan stavkada to'lov oladi.

Bank noan'anaviy xizmatlaridan keladigan daromad lizing operatsiyalari, informatsion, konsultativ xizmatlarni ko'rsatish orqali keladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, bank daromadlarini shakliga ko'ra quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- * foizli daromad;
- * foizsiz daromadlar.

Hozir iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining muhim moliyaviy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, sof foyda hisoblanadi. Sof foyda ko'rsatkichining o'zgarishida ko'p jihatdan daromad omillari asosiy o'rin tutadi. Shu sababdan, tijorat banklari amaliyotida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi daromad omillarini aniqlash, tasniflash va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

20.2. Bank daromadlarining turlari va tasnifi

Ushbu paragrafda biz yana ham aniqroq qilib tijorat banklari daromadlarining tarkibi va tasnifini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari va sarajatlarning tarkibi «foйда va zararlar to'g'risida»gi hisobot shakli talablariga asosan belgilangan.



32-rasm. Tijorat banklari daromadlari tasnifi¹

¹ Abdullayeva Sh.Z. «Bank ishi» T., 2003.

Mamlakatda tijorat krediti va tijorat veksellari harakatda bo'lgan sharoitdagina tijorat banklari veksellarni hisobga olish yo'li bilan foizli daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tijorat banklari faktoring va forfeyting operatsiyalari bo'yicha shartnomalarda kelishilgan miqdorda daromad oladilar.

Tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida chet el valyutalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan turli miqdorda daromadga ega bo'ladi. Bularning asosini valyuta sotish va sotib olishdagi komission to'lovlar tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari daromadlarining sezilarli qismini (15-20%) qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar tashkil etadi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- * sotib olingan depozit sertifikatlari va obligatsiyalar uchun ularda ko'rsatilgan miqdordagi foiz daromadlari;

- * sotib olingan aksiyalar uchun emitent kompaniyalar tomonidan to'lanadigan dividendlar;

- * investitsion portfeldagi qimmatli qog'ozlarning bir qismini ularning nominal baholaridan yuqori baholarda sotish natijasida hosil bo'lgan daromad;

- * mijozlarning qimmatli qog'ozlarini boshqarish va saqlash bilan bog'liq bo'lgan daromadlar;

- * dilerlik faoliyatidan olingan daromadlar;

- * hosilaviy qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar.

Hozirgi davrda banklar lizing va faktoring operatsiyalaridan salmoqli miqdorda daromadga ega bo'ladilar.

Banklarning boshqa daromadlariga garovga olingan yoki ortiqcha mulkni sotish yoki ijaraga berishdan tushadigan tushumlar, axborot xizmatlaridan olinadigan daromadlar, penya va boshqa tushumlar kiradi.

Tijrat banklari foizli daromadlari tavsifi

36-jadval

№	Foizli daromadlar	Ta'riflar
1.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar	Markaziy bank va boshqa tijorat banklarida turli hisobvaraqlar bo'lishi mumkin. Lekin ulardan O'zbekiston Respublikasida faqat depozit hisobvaraqlardagi mablag'lar daromad keltiradi.

	bo'yicha daromadlar	(tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 40200-40400 hisobvaraqlar).
2.	Kreditlardan olingan foizli daromadlar	Berilgan kreditlarning barchasi, shu jumladan Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 41400-44700 hisobvaraqlar).
3.	Davlat obligatsiyalaridan olingan daromadlar	Xarid qilingan davlat obligatsiyalaridan, unga ko'rsatilgan foizda olinadigan daromadlar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 44801-44805 hisobvaraqlar).
4.	Boshqa qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadlar	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan dividend tariqasida olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarni qayta sotishdan baholar farqidan olinadigan daromadlar, qimmatli qog'ozlar bilan REPO operatsiyalaridan olinadigan daromadlar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 40600, 40700, 40800, 44813, 44817, 44894 va - 45000 hisobvaraqlar).
5.	Faktoring operatsiyalaridan olingan daromadlar	Sotib olingan majburiyatlar bo'yicha daromadlar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 41000-41200 hisobvaraqlar).
6.	Lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar	Asosiy vositalarni uchinchi shaxslarga sotib olib berishdan olinadigan daromadlar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 45100 hisobvaraqlar).

Foizsiz daromadlar.

Tijorat banklarining foizsiz daromadlariga quyidagilarni kiritishi mumkin:

1. Bankka tegishli mulkni ijaraga berishdan tushadigan daromadlar. Ushbu operatsiyalarda tijorat banklari ijaraga temir seyflarni mijoz bilan kelishilgan shartnomaga binoan beradi va mijozdan ushbu ijara uchun haq oladi.

2. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo'yicha daromadlar. Bunda tijorat banklari qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida ishtirok etadi. Natijada kurslar o'rtasidagi (o'lish narxi va sotish narxi o'rtasidagi) farq ham bank daromadining manbasi bo'lishi mumkin.

3. Bankning qimmatbaho metallar bilan amalga oshirgan operatsiyalari bo'yicha daromadlar.

4. Pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklar, bank hujjatlari inkassatsiya qilingani, tashilgani uchun haq. Bu boyliklarni inkassatorlar maxsus xaltachalarda bankka olib kelib topshiradilar va tijorat banklari mijozlardan ushbu xizmatlar uchun haq oladilar. Bu mijozlarning boyliklarini har xil yo'llar bilan yo'qotishlarini oldini oladi. Ammo hozirgi davrda tijorat banklariga ular ko'rsatadigan kassa xizmati uchun mijozlardan haq olish man etilgan.

5. Menejment xizmati bo'yicha daromadlar;

6. Tijorat banklari chet el valyutasida olib boradigan barcha operatsiyalardan, uning oldi-sotdisidan ham daromad oladi. Bunda tijorat banki ma'lum bir kursda chet el valyutasini sotib oladi va uni yuqoriroq narxda sotadi.

7. Kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar;

8. Bankning boshqa xususiy mulklarining ijarasidan olingan daromadlar.

9. Bank mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda.

10. Bank kassasidan chiqqan ortiqcha pullar, jumladan, bank kassasida turgan amaldagi mablag' qoldig'i bilan hisob xujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar orasidagi musbat tafovut.

11. Qarzdor zimmasiga yuklangan yoki u tan olgan jarimalar, penyalari, hamda shartnoma shartlarini buzganlik uchun qo'llaniladigan boshqa turdagi jazo choralari, shuningdek, bankka etkazilgan zarar qoplamasi sifatidagi daromadlar hamda olingan boshqa jarima va penyalari.

12. Bank xodimlari tomonidan, ularning aybi bilan bank ko'rgan zarar va chiqimlar o'rnini qoplash uchun, to'langan summalar.

13. Bankning avvalgi-yillarda olingan, lekin hisobot-yilida aniqlangan foydasi.

14. Joriy-yildagi operatsiyalarda tijorat banklari mijozlarga belgilangan summadan yuqori to'lasa, u holda, bank kamchiliklarni topib, uni qaytarib undirib oladi. Avvalgi-yillardagi bajargan operatsiyalarga vositachilik haqi, bank foizlari joriy-yilda undirib olinadi. Bu mablag'lar bankning foizsiz daromadlariga safiga kiradi.

15. Mijozlar ilgari bank ko'rgan zarar hisobiga o'tkazib yuborilgan qarzlarni qaytarishi;

16. boshqa foizsiz daromadlar;

Tijrat banklari foizsiz daromadlari tavsifi

37-jadval

№	Foizli daromadlar	Ta'riflar
1.	Vositachilik va boshqa xizmatlardan olingan daromadlar	Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga ko'rsatilgan xizmatlar, vositachilik uchun daromadlar, mijozlarga inkasso operatsiyalari bo'yicha olinadigan daromadlar, akkreditiv va aktseptlar bo'yicha vositachilik daromadlari, kafolat va kafilliklar uchun olingan daromadlar va boshqalar. (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 45201-45294 hisobvaraqlar).
2.	Valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan daromadlar	Spot, forvard, fyuchers, opsiyon va svop operatsiyalaridan olingan daromadlar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 45401-45405 hisobvaraqlar).
3.	Boshqa operatsiyalaridan olingan foizsiz daromadlar	Tijorat operatsiyalaridan olingan daromadlar, qaram va sho'ba korxonalaridan oladigan daromadlari, asosiy vositalarni ijaraga berish yoki sotishdan olgan daromadlari va boshqalar (tijorat banklari buxgalteriya hisobavaraqlar rejasida 45600, 45700, 45800, 45900 - hisobvaraqlar).

Shunday qilib, banklarning daromadlari ular ko'rsatadigan xizmatlarning ko'lami va sifatiga to'g'ri proporsional. Bundan tashqari, daromad bank xizmatlari bahosiga ham bog'liq. U esa, ushbu xizmatlarga bo'lgan talab va taklif doirasida belgilanadi. Banklararo sog'lom raqobat muhim hisoblanadi.

Banklar moliyaviy holatini, uning foydasini tahlil qilish tahlilni amalga oshirish uchun zarur va yaroqli bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantirishni taqozo etadi. Tahlilning ma'lumotning tarkibi va hajmini aniqlash, ma'lumot bilan ta'minlash tushunchasini chegaralarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tushuncha o'z ichiga shuningdek ma'lumot resurslari va ma'lumot jarayonini shakllantirish va tashkil qilishning ushlari va texnik vositalarini ham oladi.

**Tijorat banklari moliyaviy holatini tahlil qilishda qo'llaniladigan
ma'lumotlar manbalari**

38-jadval

Tashqi ma'lumotlar	a) Qonunchilik va idoraviy me'yoriy hujjatlar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bank va boshqa idoralarning me'yoriy hujjatlari
	b) Matbuotda chop etilgan hisobotlar	Chop etilgan statistik to'plamlar, moliyaviy hisobotlar va ixtisoslashtirilgan hisobotlar
	v) Boshqa manbalar	Biznes ma'lumotnomalar, ishonchlilik va kreditga layoqatlilik reytinglari, moliya bozori (kredit, valyuta, fond) mutaxassislari prognozlari
Ichki ma'lumotlar	a) Umumiy va ixtisoslashtirilgan hisobotlar	Umumiy va ixtisoslashtirilgan hisobot ma'lumotlari (statistik, buxgalteriya, operativ)
	b) Auditorlik tekshirish natijalari	Auditorlar xulosalari va hisobotlari, tushuntirish xatlari, taftish ma'lumotlari, kuzatishlar va yig'ilishlar malumotlari
	v) Boshqa analitik ma'lumotlar	Qarz oluvchilarning moliyaviy holatlari borasidagi ma'lumotlar, bank faoliyati alohida sohalarining tahlili

Tijorat banklari foydasini tahlil qilish ushbu maqsadlarda foydalaniladigan ko'plab ko'rsatkichlarni o'z ichiga oluvchi keng ko'lamdagi iqtisodiy ma'lumotlarga asoslanadi.

Ma'lumot manbalarini ichki va tashqi guruhlariga bo'lish, bir tomondan, tijorat siri bo'lganligi, ikkinchi tomondan, jamoatchilikning hisobot ma'lumotlariga kiritilishi huquqi bilan belgilanadi. Bu huquq qonunchiligida belgilangan bo'lib, Markaziy bankning tegishli me'yoriy hujjatida nashr qilinadigan hisobotlarni tuzish va matbuotda e'lon qilish bo'yicha talablar o'rnatilgan.

Tashqi ma'lumotlar 3 yig'mani o'z ichiga oladi.

Bular:

- a) qonunchilik va idoraviy me'yoriy hujjatlar;
- b) matbuotda chop etiladigan hisobotlar;
- v) boshqa manbalar.

Boshqa tijorat banklari va umuman bank tizimining faoliyati ko'rsatkichlarini xarakterlovchi ma'lumotlarning muhim manbasi ushbu bank faoliyati natijalarini mazkur guruhga kiruvchi banklarning u yoki bu ko'rsatkichlarining o'rtacha miqdorlari bilan taqqoslash imkonini beruvchi statistik ma'lumotlardir.

20.3. Tijorat banklarining xarajatlari mazmuni va ularning turlari

Tijorat banklari o'zlarining aktiv faoliyatini o'zlarida mavjud bo'lgan o'z va jalb qilingan pul mablag'lari doirasida yurita oladilar. Aynan passiv operatsiyalar aktiv operatsiyalarni olib borish uchun asos yaratadi hamda daromadli operatsiyalarining hajmini va ko'lamini aniqlab beradi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklari resurslari deganda, aktiv operatsiyalarga asos yaratuvchi va ularni amalga oshirish uchun ishlatiluvchi, ularning hajmi va masshtabini aniqlab beruvchi mablag'larga aytiladi.

Xarajatlarga likvidlilik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.


Tijorat banklari korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitob, kassa va savdo bo'yicha operatsiyalarini bajaradi. Shuningdek, turli va boshqa pulli xizmatlarni ko'rsatadi. Banklar o'z faoliyati davomida operatsiyalarni bajarishda turli xil xarajatlar qiladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining xarajatlari hisobini yuritish va ularning daromad solig'ini hisoblash bank xarajatlari balansning 50000 hisobraqami bilan yuritiladi.

Bankning daromadlilik, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar.

Tijorat banki xarajatlarini quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'lib, keltirish mumkin:



33-rasm. Bank xarajatlarning tasniflanishi.

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.

Xarajatlarga likvidlik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

Foizli xarajatlar

Foizli xarajatlar-barcha majburiyatlar bo'yicha to'pplangan foiz summasi demakdir.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari kredit resurslari tashkil etishda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hamda muddatli depozitlar qabul qiladi. Ushbu depozitlarga banklar ma'lum belgilangan foizlarda pul to'laydilar.

Tijorat banklari bankning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lanadigan foizlar to'laydilar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarining sotuv narxi bilan nominal qiymati orasidagi salbiy tafovut bo'lganida, ba'zi bir keltirilgan, lekin to'lanmagan foizlarni to'lashda banklarda foizli xarajatlar yuzaga keladi.

Banklar foizli xarajatlarining yana biri – bu kredit va unga bog'liq operatsiyalardir. Banklar, eng avvalo, Markaziy bankdan, boshqa tijorat banklaridan, byudjetdan tashqari fondlardan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan kreditlar olishi mumkin. Olgan kreditlar uchun to'lanadigan qarz foizli xarajatlarga kiradi.

Foizsiz xarajatlar.

Foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek boshqa operatsion xarajatlar kiradi.

Banklar O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari fondlariga majburiy ajratmalarni, jumladan, bank xodimlariga mukofot hamda ko'p-yil ishlaganlik uchun yoziladigan to'lovlarni amalga oshiradilar. Bank nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq, bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.

Bank asosiy fondlarni, jumladan, ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo'yicha xarajatlar qiladi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo'lmagan, ya'ni bank shtatida bo'lmagan xodimlarga, ular bilan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar pulini, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish, davlat majburiyatlarini bajarishlar uchun sarflangan vaqt evaziga haq to'lash kabi xarajatlar qiladi.

Bundan tashqari, banklarning foizsiz xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda qiladigan xarajatlari ham kiradi. Tijorat banklari oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab, bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to'laydi. Bunda banklar nomoddiy aktivlar shakllantiradi va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Bizga ma'lumki, banklarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish nafaqat bank uchun, balki barcha tarmoqlar, tashkilotlar foyda yoki zarar bilan faoliyat ko'rsatishlarini ko'rsatib beradilar. Banklar auditorlik firmalari bilan shartnomada kelishilgan narxlarda to'lovni amalga oshiradilar.

Bankni boshqarish tizimida marketing va shunga o'xshash funksional xizmatlar yoki shunday funksional vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar bo'lmagan hollarda, marketing hamda shunga o'xshash boshqa xizmatlar haqini to'laydilar.

Hozirgi davrda axborotlar hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Bu axborotlarning barchasi banklarga yaqin bo'lgan amaliyotdir. Bu xizmatlarni barchasi banklar katta xarajatlarni talab etadi. Kunlik operatsiyada banklar mijozlarga bir qancha hujjatlar taqdim etadilar. Bu hujjatlar ham foizsiz xarajatlar hisobidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, banklar maxsus adabiyotlar, me'yoriy va yo'riqnoma tusidagi hujjatlar sotib olish, shuningdek, bank faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'ladigan maxsus nashrlarga (ro'znomalar, oynomalar va boshqalar) obuna bo'yicha qilinadigan xarajatlari mavjud.

Tijorat banki noishlab chiqarish sohasi obyektlarini (uy-joy-kommunal xo'jaliklar, o'quv markazlari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, tibbiy, sog'lomlashtirish va boshqa muassasalar) saqlash, jumladan, shunday obyektlarni barcha turlarda ta'mirlashga qilinadigan, lekin ulardan foydalanish orqali olingan daromadlar (kvartira haqi, otanonalar o'z daromadlari, bolalar barchasiga qatnashgani uchun to'lanadigan badallar, yo'llanmalar qiymati to'lovlari va boshqalar) bilan qoplaydigan xarajatlar, shuningdek, yuqorida aytilgan obyektlardan ijara shartlarida foydalaganlik hollarida, shu obyektlar bo'yicha to'lanadigan ijara haqi kabi xarajatlari mavjud.

Banklar o'z xodimlari sog'lig'ini saqlash va ular dam olishini tashkil etish tadbirlari (davolanish va dam olish uchun yo'llanmalar, ekskursiya va sayohatlar yo'llanmalari, sport bilan shug'ullanish, madaniy va sport tomosha tadbirlariga borish uchun haq, dam olish xonalarini tashkil etish va saqlash, gazlashtirilgan suv quyish uskunalarini o'rnatish bilan bog'liq va shunga o'xshash boshqa xarajatlar) uchun xarajatlarni amalga oshiradi.

Tijorat banklarining xarajatlarini tarkibiy jihatdan chuqurroq ko'rib chiqishimiz mumkin.

Foizli xarajatlar o'z navbatida quyidagi qismlarga bo'linadi:

– talab qilib olguncha depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;

- jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- Markaziy bank oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- boshqa banklar oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- bankning yopilmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- o'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- boshqa foizli xarajatlar.

Foizsiz xarajatlar esa o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- barcha komission xarajatlar;
- chet el valyutasidagi zarar;
- tijorat operatsiyalari bo'yicha xarajatlar;
- investitsiyalar bo'yicha zararlar;
- boshqa foizsiz xarajatlar.

Ish haqi va xodimlarga boshqa to'lovlar deganda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- ish haqi;
- xodimlar uchun imtiyozlar;
- meditsina bilan bog'liq xarajatlar;
- ijtimoiy-sug'urta jamg'armasiga to'lovlar;
- ijtimoiy himoya xarajatlari;
- Mehnat birjasi, ya'ni bandlilik fondi va boshqa fondlarga

vznoslar;

- xodimlarga boshqa xarajatlar.

Ijara va xizmatlar uchun (xo'jalik) xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- ijara to'lovi;
- suv uchun to'lov;
- elektro-energiya uchun to'lov;
- ta'mirlash va xo'jalik xarajatlari;
- qo'riqlash bo'limiga to'lov.

Safarnoma va transport xarajatlariga quyidagilarni kiritish lozim:

- safar xarajatlari;
- uy-joy xarajatlari;
- yoqilg'i xarajatlari;
- transport uchun qilinadigan boshqa xarajatlar.

Ma'muriy xarajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- reklamalar;

- kantselyariya va ofis uchun olinadigan buyumlarga xarajatlar;
- pochta, telefon, faks xarajatlari;
- tipografiya uchun, kitob va jurnallar, gazetalar sotib olish uchun qilinadigan xarajatlar.

Madaniy tadbirlar va xayriya xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- madaniy tadbirlar uchun xarajatlar;
- a'zolik vzoislari;
- xayriya xarajatlari;

Amortizatsiya xarajatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bank binosining eskirishi;
- bank binosi narxining o'sishi;
- transport vositalarining eskirishi;
- mebel va boshqa qo'llanmalarning eskirishi;
- nomoddiy aktivlarning eskirishi;
- ijaraga berilgan asosiy vositalarning eskirishi;
- ijaraga bo'lgan huquq va ijaraga olingan obyektning ta'mirlashning eskirishi.

Sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlarga quyidagi xarajatlarni kiritishimiz mumkin:

- yuridik va auditorlik xizmatlar uchun to'lovlar;
- konsalting xizmatlar uchun to'lovlar;
- sug'urta xarajatlari;
- soliqlar;
- jarima va penyalari;
- boshqa operatsion xarajatlar;
- ko'zda tutilgan zararlar qiymati;
- foyda solig'i.

Yuqorida sanab o'tilgan xarajatlarning har biri ham yana bir necha qismlarga bo'linadi. Masalan, talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha foizli xarajatlarning o'zi quyidagilarga bo'linadi:

- hukumat depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- byudjet korxonalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- jismoniy shaxslar bo'yicha foizli xarajatlar;
- xususiy korxonalar va korporatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- davlat korxonalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- qo'shma korxonalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- individual tadbirkorlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- bank bo'lmagan moliya muassasalari bo'yicha foizli xarajatlar;
- boshqa mijozlar bo'yicha foizli xarajatlar.

Xo'jalik yurituvchi subektlarning jamg'arma va muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlarni ham yuqoridagi singari tasniflash mumkin.

Markaziy bank oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli to'lovlar 3 guruhga bo'linadi:

– Markaziy bank vakillik hisobvarag'i bo'yicha «Vostro» to'lovlari;

– Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i bo'yicha «Nostro, overdraft» to'lovlari;

– Markaziy bank depozitlari bo'yicha foizli to'lovlar.

Boshqa banklar hisobraqamlari bo'yicha foizli to'lovlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– boshqa banklarning vakillik hisobraqamlari bo'yicha «Vostro» to'lovlari;

– boshqa banklardagi vakillik hisobraqamlari bo'yicha «Nostro, overdraft» to'lovlar;

– boshqa banklarning depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.

Bankning yopilmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlari mahalliy va chet ellik mijozlar bo'yicha yopilmagan aktseptlarga bo'linadi.

Qisqa va uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli to'lovlarni har birini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin. Bular:

– Markaziy bankka to'lanadigan (qisqa, uzoq) muddatli ssudalar bo'yicha foizli to'lovlar;

– boshqa banklarga to'lanadigan (qisqa, uzoq) muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar;

– davlatga to'lanadigan (qisqa, uzoq) muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar;

– individual tadbirkorlarga to'lanadigan ssudalar bo'yicha foizli to'lovlar.

Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar 3 ga bo'linadi:

– chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar;

– chiqarilgan jamg'arma sertifikatlari bo'yicha foizli xarajatlar;

– chiqarilgan depozit sertifikatlari bo'yicha foizli xarajatlar.

Etdi foizsiz xarajatlarga o'tadigan bo'lsak, faqat komission xarajatlarning o'ziga quyidagilarga bo'linadi:

– Markaziy bank xizmatlari uchun komission xarajatlar;

– boshqa banklar xizmatlari uchun komission xarajatlar;

– qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi komission xarajatlari;

- qimmatbaho metallarni oldi-sotdi komission xarajatlari;
- veksellar sotib olishdagi xizmatlar uchun xarajatlar;
- investitsiyalarni joylashtirishdagi xizmatlar uchun xarajatlar;
- akkreditiv va aktseptlardagi xizmatlar uchun xarajatlar;
- overdraft bo'yicha xarajatlar;
- ssudalar bo'yicha komission xarajatlar;
- ssuda majburiyatlari bo'yicha komission xarajatlar;
- menejment bo'yicha komission xarajatlar;
- mahalliy to'lovlar uchun komission xarajatlar;
- chet el to'lovlari bo'yicha komission xarajatlar;
- inkasso operatsiyalari o'tkazganlik uchun komission xarajatlar;
- garantlar va kafilliklar bo'yicha komission xarajatlar;
- boshqa xizmatlar uchun komission xarajatlar.

Chet el valyutasida zararlar 2 ga bo'linadi:

- «spot» operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar;
- muddatli valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar;

Tijorat operatsiyalari bo'yicha zararlar 2 xil bo'ladi:

- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan ko'rilgan zarar;
- qimmatbaho metallar bilan operatsiyalardan ko'rilgan zarar;

Bu xarajatlarning barchasi bank balansining 5-bo'limida, ya'ni «xarajatlar» bo'limida aks etadi va barcha xarajat hisobraqamlari aktiv hisobraqam hisoblanadi.

20.4. Tijorat banki foydasi va uning taqsimlanishi

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari moliyaviy natijalarining yakuniy holati-yilni foyda yoki zarar bilan tugallaganligida namoyon bo'ladi.

Har qanday tijorat banki o'z ish faoliyatining yakunlarini foyda bilan tugatishga harakat qiladilar. Bank muassasalarining moliyaviy natijalarini yakunida asosiy ko'rsatkich foyda hisoblanadi.

Bank muassasalarining asosiy ish printsipti kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olishch hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining sof foydasini shakllanishi «Foyda va zararlar to'g'risida»gi Hisobotda o'z aksini topadi.

$$\begin{aligned}
& \text{Foizli daromadlar} \\
& \quad - \\
& \text{Foizsiz xarajatlari} \\
& \quad = \\
& \text{Sof foizli daromad} \\
& \quad + \\
& \text{Foizsiz daromadlar} \\
& \quad - \\
& \text{Foizsiz xarajatlari} \\
& \quad = \\
& \text{Operatsion xarajatlari qadar sof daromad} \\
& \quad - \\
& \text{Operatsion xarajatlari} \\
& \quad - \\
& \text{Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira} \\
& \quad \text{ajratmalari} \\
& \quad = \\
& \text{Soliqlar to'langunga qadar bo'lgan sof foyda} \\
& \quad - \\
& \text{Soliqlar} \\
& \quad = \\
& \text{Joriy-yilning sof foydasi}
\end{aligned}$$

Joriy-yil sof foydasining dividendlar to'langandan keyin qolgan qismi o'tgan-yilning taqsimlanmagan foydasi deyiladi.

Sof foydaning qancha qismini dividend sifatida to'lash masalasi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan amalga oshiriladi. Agar aksiyadorlar umumiy yig'ilish sof foydaning hammasini dividend sifatida to'lashga yo'naltirish to'g'risida qaror qabul qilsa, u holda, taqsimlanmagan foyda yuzaga kelmaydi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning mutlaq ozod qoldig'i bo'lib, unga nisbatan bankning kreditorlari va aksiyadorlari tomonidan talab mavjud emas. Odatda, taqsimlanmagan foyda tijorat banki faoliyatini rivojlantirish, uning texnik va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Tijorat banklarining moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar¹

39-jadval

Ko'rsatkichlar	Hisob-kitob formulasi	O'rnatilgan optimal me'zon	Izoh
Sof foyda/daromad (yoki xarajat)	Sf/D	Min 0,20	Koeffitsient daromadning qancha qismi sof foydani tashkil etayotganligini ko'rsatib beradi
Bank xarajatlari/bank daromadlari	X/D	Min 0,80	Bank xarajatlari daromadlarning qancha qismini tashkil etayotganini ko'rsatib beradi
Foizli xarajatlar/foizli daromadlari	Fx/Fd	Min 0,60	Kredit operatsiyalari bo'yicha foizli xarajatlar foizli daromadlarni qanchalik qoplayotganligini ko'rsatib beradi
Sof foyda/aktivlar ROA	Sf/A	Min 0,005 max 0,010	Aktivlarni qanchalik samarali ishlayotganini ko'rsatadi
Sof foyda/kapital ROE	Sf/K	Min 0,10	Kapitalning samaradorligini aniqlaydi

Mamlakatimizda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartlaridan biri – bu uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvidir. Ushbu jarayonning amalga oshishi esa, iqtisodiyot subyektlari faoliyatini, hisob va hisobotlar hamda audit tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarishni taqozo qiladi. Iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan tijorat banklari amaliyotida tashqi audit va unda «CAMELS» reyting tizimidan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Shunday qilib, tijorat banki moliyaviy barqarorligi, shu jumladan likvidligi va foydaliligini ta'minlashning asosini, bank amaliyotlari barcha qoidalariga rioya qilgan holda, aktivlarning yuqori sifatini ta'minlash tashkil etadi.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligini ta'minlashning shartlaridan biri ayrim yoki favqulodda hodisalarning aktivlar o'rtacha qiymatlari qaytishi darajasiga ta'siridir.

¹ Norqobilov S.X. «Xalqaro amaliyotda bank nazorati» – TMI, 2007-yil.

Foydalilik bankning o'z mablag'larini ko'paytirishning eng ishonchli manbai bo'lib, bu mablag'lar bank faoliyatidan ko'riladigan zararlarni qoplashga sarflanishi mumkin. Bundan tashqari, bankning rentabellik darajasi asossiz ravishda ancha yuqori bo'lmazligi lozim. Chunki, yuqori darajadagi rentabellik katta riskni yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Yaxshi boshqariladigan bank o'z xarajatlarini qat'iy nazorat qila olishi va kredit to'loviga layoqatli mijozlarni to'g'ri tanlay olishi evaziga o'rtachadan yuqoriroq rentabellikka erisha oladi. Yuqori foyda oluvchi bank, odatda, ehtiyotkor bank allaqachon voz kechgan amaliyotlarni o'tkazish orqali bunday foydaga erishgan bank bo'lib, bunday bankni moliyaviy barqaror, deb bo'lmaydi. Tijorat banki moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy yo'l bo'lib, bank amaliyotini xatarsiz va samarali o'tkazish hisoblanadi.

Bank amaliyotlarini puxta o'tkazish bank risklarini o'z vaqtida aniqlash va baholash, unga qarshi javob choralarini ko'rish esa, o'z navbatida, bank xodimlarining yuqori malakasi, mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatining yuqoriligi, ish sharoitlari, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollanganlik darajasiga, bankni boshqarish sifatiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklarining kapitallashuvini oshirib borish hozirgi kunda mamlakatimiz bank tizimini mustahkamlash, aholining ishonchini oshirish, banklarning investitsiyalash jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu o'rinda banklar uchun kapitalini oshirishning asosiy manbasi hisoblangan foyda va riskni, ularning bir-biri bilan uzviy bog'langanini o'rganish zaruriyatini oshiradi.

Bank foydasini tahlil qilishning ahamiyati shundaki, hatto barqaror faoliyat olib borayotgan banklarda ham moliyaviy natijalarni yaxshilashning mavjud bo'lgan zaxiralaridan to'liq foydalanilmaydi.

Bank foydasi sifati deganda ko'pincha foyda tarkibini, turli xil omillar ta'sirida uning shakllanishini tushinishadi. Foyda sifati – bu moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini shakllantiruvchi, o'lchov birligiga ega va ega bo'lmagan, marketing, menejment sohasida boshqaruv qarorlari bilan asoslangan omillarning tavsifidir.

Foyda sifatini tahlil qilishning amaliy ahamiyati samaradorlik ko'rsatkichi, aksiyadorlarga daromadlar to'lash va faoliyatni kengaytirish manbasi hisoblangan foydaning shakllanishi tendentsiyalarini to'g'ri baholashda namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida moliyaviy natijalarni boshqaruv sifati bilan bog'lash imkoniyatini beradi.

Sof foyda sifatini baholash, uni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlashtirish asosida, quyidagi yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

- sof foydani shakllantirishda buxgalteriya usullarining rolini baholash va hisob siyosati tahlili;

- bank xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan to'lovlar operatsiyalarni amalga oshirishda shakllanadigan foydaga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va baholash;

- boshqa daromadlarning tarkibi va tuzilishini hamda ularning shakllanishini tahlil qilish va baholash;

- sof foydaga ta'sir etuvchi soliq to'lovlari va hisob siyosatini tahlil qilish va baholash.

Foyda, daromad va xarajatlar dinamikasini tahlil qilishda ko'rsatkichlarni solishtirish muammosi yuzaga keladi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilishda bir qator-yillardagi ko'rsatkichlardan foydalanilsa va ushbu ko'rsatkichlarning pasayish tendentsiyasi kuzatilgan bo'lsa, bu ijobiy holat hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank faoliyatining ijobiy yakuniy moliyaviy natijasi ya'ni, bank foydasining bank barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati globallashuv va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida naqadar katta ekanligini isbotlab turibdi. Ushbu sharoitda bank foydasi haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lish, uning sifati va dinamikasini to'g'ri tahlil qilib borish maqsadga muvofiq.

Tayanch so'z va iboralar

Daromad, dividend, zarar, operatsion xarajat, sof foyda, soliq, taqsimlanmagan foyda, xarajat, foyda, foizli daromad, foizsiz daromad, foizli xarajat, foizsiz xarajat.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining daromadi nima va u qaysi manbalardan tashkil topadi?
2. Banklarning foizli daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Tijorat banklarining foizsiz daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
4. Tijorat banklari xarajatlari qanday turlarga bo'linadi?
5. Banklarning foizli xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Tijorat banklarning foizsiz xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Banklarning operatsion xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?
8. Tijorat banklari foydasi qanday tartibda shakllanadi?
9. Banklarning foydasi qanday taqsimlanadi?
10. Tijorat banklarida taqsimlanmagan foyda qanday yuzaga keladi?
11. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi qanday?
12. Tijorat banklarining foydasiga qaysi omillar ta'sir qiladi?

XXI BOB. TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA LAYOQATLILIGI VA LIKVIDLILIGI

21.1. Tijorat banklari likvidliligi tushunchasi va uning ahamiyati

Jahon iqtisodiy amaliyoti ko'rsatishicha, banklar vujudga kelgandan buyon ularda likvidlilik muammosi mavjud. Ya'ni, banklar faoliyatining samaradorligi – ularning mijozlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishlari bilan belgilanadi. Tarixdan ma'lumki, o'rta asrlarda pul almashtiruvchi sarroflar o'z majburiyati va qarzlarini to'lay olmasa yoki topshiriqlarni bajara olmasa, ularning stollari sindirilgan va «banco rotto», deb e'lon qilingan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida banklarni boshqarish jarayonida ularning likvidlilik muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Likvidlilik tijorat banklari faoliyatida eng asosiy tushunchalardan biridir. Likvidlilik tijorat banklari ishonchliligi va barqarorligi asosini tashkil etadi va ularning to'lovga qobil bo'lishiga zamin yaratadi.

Tijorat banklarining mijozlar va kreditorlar oldida o'z imidjini saqlab qolishi uchun, eng avvalo, ularning likvidliligi va to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishi lozim.

Banklar ishonchliligi deganda, ularning o'z mijozlari oldidagi majburiyatini, ya'ni birinchi talab bilan oq amalga oshirish layoqatiga ega bo'lgan faoliyatini tushunamiz. Ishonchlikka erishish uchun esa, banklar likvidli va to'lov qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim.

Biz, tijorat banklarining ishonchligiga amal qilish shartlarini quyidagi rasm orqali ifodalashga harakat qildik:



34-rasm. Banklar ishonchligiga amal qilish shartlari.

Banklar faoliyatini tadqiq etishda ularning likvidliligi bilan to'lov qobiliyati tushunchalari o'rtasida qanday umumiylik va farqlar mavjud ekan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Banklar likvidliligi bilan to'lov

qobiliyati tushunchalarining o'xshash jihatlari bo'lsa-da, ular o'rtasidagi chegaraga aniqlik kiritish talab etiladi. Ya'ni, ushbu chegara o'zi mavjudmi yoki mohiyati jihatidan bir xil tushunchalarmi? Ushbu savollarga javob topish maqsadida biz, banklarning likvidliligi va to'lov qobiliyati borasida iqtisodchi olimlarning qarashlarini tahlil qilishga harakat qildik.

Ayrim mualliflar «to'lov qobiliyati» tushunchasiga bankning kreditorlari oldidagi o'z majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda bajara olish qobiliyati deb, «likvidlilik»ka esa, bankning pul shaklidagi majburiyatlarini o'z muddatida bajara olishini ta'minlash qobiliyati, deb ta'rif berishgan¹. Ushbu holatda mualliflar to'lov qobiliyati muddatida bajarilishi ta'minlanadi, deya fikr bildirganlar. To'lov qobiliyatiga ega bank deganda, o'z majburiyatlarini to'liq bajarish layoqatiga ega bo'lgan bank tushuniladi. O'z muddatida majburiyatini bajaradigan bank likvidli hisoblanadi. Demak, mualliflar likvidli bankka pul shaklidagi majburiyatlarni bajarishlarini etarli hisoblab, tor doirada yondoshganlar. Banklarning pul shaklidagi hamda qimmatbaho buyumlarni saqlash bo'yicha majburiyatlari bo'ladi. Shuning uchun banklar likvidliligini pul va boshqa shakldagi majburiyatlarni bajarishga layoqatli bank deyilsa, yanada mantiqan to'g'ri bo'lar edi.

Likvidlilik – bank majburiyatlarni kerakli vaqtda, ya'ni talab etilgan vaqtda bajara olish qobiliyatidir. To'lovga qobiliyatlilik esa, bank majburiyatlarini bajara olish qobiliyatidir². Agar bank depozitlarni qaytarish vaqti etganda bajara olmasa, u vaqtinchalik likvidli bo'lmaydi, lekin bankka mablag'lar tushgandan keyin u to'lay oladi va o'zining likvidliligini tiklaydi. Ushbu vazifani banklar tashqi qarzlarni evaziga ham amalga oshirishlari mumkin. O'z vaqtida bank majburiyatlarini bajara olmasligi bankning to'lov qobiliyatiga ta'sir etmaydi. To'lovga qobiliyatli bank u ertami, kechmi o'z majburiyatlarini albatta bajaradi. Likvidli bank esa, o'z muddatida majburiyatlarini bajaradigan bankdir. Bank amaliyoti ko'rsatishicha, qisqa vaqt mobaynida banklar o'z zimmasidagi majburiyatlarini bajarishi orqali raqobat sharoitida mijozlari va imidjini saqlab qoladi. Mijozlarni yo'qotmaslik va kelgusida yangi mijozlarni jalb qilish orqali banklar daromad manbaini oshirib, samarali faoliyat yuritishni davom ettiradi, chunki banklarning barcha operatsiyalari *faqat va faqat mijozlar* uchun bo'lmog'i lozim.

¹ Muhiddinov D., Kim A. Tijorat banki likvidliligini boshqarishda yangilik // Bozor, pul va kredit.- Toshkent, 2000.-3-son.-21 b.

² Nikitina T.V. Bankovskiy menedjment.-SPb.:Piter.-2002.-76 s.

Tijorat banklari likvidliligining nazariy asoslarini tahlil etish uchun uning lug'aviy ma'nosini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, «likvidlilik» atamasi lotincha «*Liquidus*»¹ so'zidan olingan bo'lib «oquvchan», «suyuqlik» ma'nosini anglatadi. Tushunchaning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu moddiy qiymatlilarning va boshqa aktivlarning tezda sotilishi va pulga aylanishini ifodalaydi.

Tijorat banklari likvidliligiga berilgan iqtisodchilar fikr va qarashlarini tahlil etish ushbu tushuncha ta'rifiga yanada oydinlik kiritishga yordam beradi.

Mashhur amerikalik iqtisodchi P.Rouz «... bank mablag'larini o'ziga maqbul narxlarda hamda aynan shu mablag'lar zarar bo'lganida jalb eta olsa bank likvidli hisoblanadi»² deya izoh beradi.

Umuman olganda, ular bank likvidliligini mablag'lar jalb etish orqali ta'minlash mumkinligiga e'tibor qaratganlar.

AQShlik iqtisodchi olim, prof. J.Sinki banklar likvidliligini quyidagicha talqin etgan: «... bank likvidliligi, asosan, depozitlar va kreditlarga bo'lgan talabni qondirishga, layoqatli bo'lishlari uchun kerakligini bildiradi. Kutilmagan o'zgarishlar bankka likvidlilik muammosini keltirib chiqaradi»³. Ushbu ta'rif esa, aksincha kengroq tarzda bank oldida turgan nafaqat depozitlar qolaversa, mijozlarning kreditlarga bo'lgan talablarini qondirishni nazarda tutgan.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan O.I.Lavrushin : «... likvidlilik umumlashgan ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bank faoliyati ishonchligini ko'rsatadi. Bank likvidli hisoblanadi, agar u mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va hech qanday yo'qotishlarsiz bajara olsa»⁴. Ushbu ta'rifda iqtisodchi bank aktivlari likvidliligiga asosiy e'tibor qaratgan. Amalda bank doimo mavjud aktivlari hisobiga emas, balki banklararo kredit resurslari bozoridan resurs jalb etgan holda bajarishi mumkin».

G.N.Beloglazova esa, «likvidlilik ... bu bank sog'lomligini ko'rsatuvchi indikator, bu borada muammolar paydo bo'lishi uning buzilganligini ko'rsatuvchi birinchi tashhisdir», deydi⁵. Ushbu iqtisodchi olim

¹ Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание 2-е переработанное и дополненное. -М.: Книжный мир, 2006. - 362 с.

² Роуз П.С. Банковский менеджмент. М.: Дело-ЛГД, 1995. -323 с.

³ Синки Ж. Управление финансами в коммерческом банке/ Пер.с англ.-М.: Аталиях, 1994. -458с


⁴ Банковское дело: Учебник. -2-е изд., перераб. и доп./ Под ред.О.И.Лаврушина.-М.: Финансы и статистика, 2005. -140с.

⁵ Банковское дело: Учебник / Под ред.Г.Н.Белоглазовой -5-е изд., перераб. и доп.-М.: Финансы и статистика, 2005.-553 с

banklar likvidligi Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishini inobatga olgan holda fikr bildirgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bank likvidligiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «bank likvidligi – bu bankning joriy va kelajakdagi majburiyat va to'lovlari, kredit bo'yicha mijozlar talablari bajarilishini o'z vaqtida va miqdorda, aktivlarni hech qanday zarar ko'rmasdan naqd pullarga aylantirishi yoki maqbul narxlarda resurs sotib olish qobiliyatlari yig'indisidir».

Tijorat banklari likvidligini tasniflanishini kengroq tarzda quyidagi chizma orqali keltirishimiz mumkin:




35-rasm. Banklar likvidligini tasniflanishning asosiy belgilari

Balans aktiv va passivlarini likvid va nolikvid, o'zgaruvchi va barqaror tamoyillar asosida bo'lishi likvid aktiv va o'zgaruvchi passivlar o'rtasidagi farqni aniqlaydi. Bu farq iqtisodchilar tilida GEP¹ deyiladi. Keltirilgan 1.1.3- rasm bo'yicha bank likvidligining musbat GEP ga ega ekanligini, ya'ni likvid aktivlar o'zgaruvchi passivlardan ko'pligi ko'rinib turibdi. Bu masalalarni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, bank aktiv va

¹ GEP (GAP) ning lug'aviy ma'nosi — farqdir.


passivlari bo'yicha foiz stavkasi o'zgarish sezgirligi o'rtasidagi farq tushuniladi.

Foiz stavkasi o'zgarish sezgirligiga ega likvidli aktivlar va o'zgaruvchi passivlarni aniqlashda ularning mos keladigan vaqtini o'rganish kerak. Bu vaqt iqtisodiy ahvolga qarab 7 kundan 3-6 oygacha, hatto-yillar intervalida o'rganiladi.



36-rasm. Bank balansining likvidlilik modeli (musbat GEP)

Ko'p banklar depozitlarni resurs bazasining barqaror qismi sifatida ko'rishadi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar, bankning biror salbiy reputatsiyasi natijasida yoki reytingi pasaysa bankni tark eta boshlaydi. Bu esa depozitlarning barqaror va o'zgaruvchan qismlarini baholash kerakligini bildiradi. Lekin bunda yuridik shaxslarni ham nazarda tutib harakat qilish kerak, ya'ni ularning bank bilan aloqalarini mustahkamlamoq lozim. Tijorat banklari faoliyati davomida boshqa holatni ham kuzatish mumkin, bunda bank balansi nolikvid va GEP manfiy kattalikka ega bo'ladi, bu esa quyidagi rasmda keltirilgan.



37-rasm. Bank balansining likvidlilik modeli (manfiy GEP)

Manfiy GEPda esa banklar foiz stavkasi o'zgarishi sezgirligiga ega mavjud likvidli aktivlari hisobiga uning o'zgaruvchi majburiyatlarini

qoplash ehtimoli yo'q bo'ladi. Bunday holatlar banklar uchun jiddiy muammolar tug'dirishi tabiiydir.

Demak, banklar balansi likvidligini yuqoridagi musbat va manfiy GEP bilan birgalikda likvidli va o'zgaruvchi majburiyatlari summasi va muddati teng bo'lgan hamda «bankning oltin qoidasi» sifatida e'tirof etiladigan holat banklarda kuzatiladi. Bu kabi banklarda hech qanday likvidlilik muammosi bo'lmaydi va bu holat har doim ham kuzatilmaydi. Shuning uchun tijorat banklari likvidligini boshqarish Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlar bilan birgalikda banklarning mustaqil o'zlarining likvidlilik pozitsiyasini hisoblashlari, aynan aktiv va passivlar tarkibini tahlil qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Bank likvidligi deganda – mijozlarning birinchi talabi bilan ularning majburiyatlarini va kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga aytiladi. D.Xaurdson 1977-yilda banklarning «CAMEL» reyting tizimini ushbu komponentlar banklar uchun muhimligi bo'yicha uni teskari o'girib «LEMAC» deb aytish lozim degan fikrni bergan¹. Ya'ni banklar faoliyatiga baho berishda uning likvidligini birinchi o'ringa qo'yish lozimligini ta'kidlagan.

Bank tizimi likvidligi deganda – mamlakatning butun bank tizimi likvidligi tushuniladi. Butun bank tizimi likvidligini ta'minlashda Markaziy bank markazlashgan tartibda, ya'ni barcha banklarga turli likvidlilik me'yorlarini o'rnatish, qolaversa pul-kredit siyosati-ning asosiy dastaklari bilan nazorat qilish orqali ta'minlaydi.

Tijorat banklari likvidlilik me'yorlari mavjudligiga ko'ra quyidagi turlarda bo'ladi:

- majburiy;
- ixtiyoriy.

Majburiy likvidlilik ko'rsatkichlari tijorat banklari uchun majburiy xarakterga ega bo'ladi, ya'ni joriy likvidlilik ko'rsatkichidir. Uning minimal miqdori O'zbekistonda 30 foizdir va ushbu me'yorga amal qilinishi Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Ixtiyoriy bo'lgan likvidlilik ko'rsatkichlariga amal qilinishi Markaziy bankka topshirilmasada, lekin ularni tijorat banklari mustaqil o'z likvidlilik holatlarini qisqa vaqtlarda lahzali, o'rta va uzoq muddatlarda tahlil qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Tijorat banklari likvidligini baholash va tahlil qilishda ikki xil yondoshuv mavjud. Ya'ni, likvidlilikni «zaxira» yoki «oqim» sifatida

¹ Дж. Синки, мл. Управление финансами в коммерческих банках. пер. с англ. 4-го переработанного изд./ под ред. Р.Я.Левити, Б.С.Пинскера. М.: 1994, аталлахй. – 459 с.

tushunish mumkin. Lekin bular orqali bank likvidlilik holatiga baho berib bo'lmayada, ammo banklar likvidlilikini tahlil qilishda juda qo'l keladi.

«Zaxira» likvidliliği deganda banklar aniq belgilangan vaqtda aktivlar tarkibini yuqori likvidliliğiga asoslangan holda o'zgartiradi va mavjud aktivlar zaxirasi hisobiga mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajara olish darajasini ko'rsatadi. «Zaxira» likvidlilik orqali bankning aniq belgilangan vaqtdagi likvidliliği, ya'ni joriy majburiyatlarni bajarish qobiliyati tushuniladi.

Aniq belgilangan muddatga likvidlilikni baholashda zaxira likvid mablag'lari bank aktiv va passivlar tarkibi tahlil etiladi.

«Oqim» likvidliliği banklar belgilangan vaqtda mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajara olishlariga turli qiyinchiliklar yuzaga kelganda aktiv va passiv moddalarini samarali boshqarishi natijasida, qolaversa qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilish natijasida majburiyatlarini bajaradilar.

Demak, bu jarayonlar banklar likvidlilik zaxirasi bilan bog'liqdir.

Ko'pgina davlatlar bank tizimida umumiy likvidlilik zaxirasi (rezervi)ni birlamchi va ikkilamchi zaxiralarga bo'ladi.

Birlamchi likvidlilik zaxirasi asosiy bank likvidliliği manbai sifatida qaraladi. Bularga kassadagi naqd pullar, inkassatsiya jarayonidagi zarur to'lov xujjatlari, majburiy zaxira mablag'lari, vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar kiradi.

Ikkilamchi likvidlilik zaxirasiga yuqori likvidli daromad keltiruvchi aktivlar kiradi. Bularga Hukumat qimmatli qog'ozlari hamda tez kunda qaytariladigan kreditlar kiradi.

Tijorat banklari likvidliliğini mohirona rejalashtirish bank aktivlarini uzluksiz nazorati va ularni optimal tarkibini ushlab turishga qaratiladi.

Likvidlilik inqirozi yuzaga kelganda aynan likvidlilik defitsiti nazarda tutiladi. Ortiqcha likvidlilik ham banklar uchun foydali hisoblanmaydi.

Tijorat banklari o'z likvidliliğini talab etilgan vaqtda ta'minlay olishi uning bu boradagi boshqarishda qanday tajribaga ega ekanligi va shu sohada etarli malakali mutaxassisleri mavjud ekanligini ko'rsatadi. Demak, likvidlilikni samarali boshqarish tizimini yaxshi yo'lga qo'ymoq lozim ekan.

Likvidlilikni boshqarishni strategik va joriy(operativ)ga ajratish mumkin.

Strategik boshqarish deganda yetarli darajada likvidlilikni ta'minlash borasidagi faoliyati, har qanday vaqt mobaynida ustivorlikni tanlash, turgan masalalarga oqilona yondashish talab etiladi.

Operativ boshqarish ostida barcha foydalaniladigan uslublar, tadbirlar kundalik likvidlilik holatini zarur darajasini ta'minlashga yo'naltirilgan harakatlar yig'indisi tushuniladi.

Likvidlilikni boshqarishni 3 yo'nalish bo'yicha ko'rib chiqish mumkin:

– bankning vakillik hisobvaraqda zarur qoldiq qoldirish orqali likvidlilikni tartibga solish;

– jalb etilgan va joylashtirilgan mablag'lar muddati va summasi muvofiqligi bilan bog'liq holda bank likvidlilikini tartibga solish;

– tashqi qarzdorlik evaziga, ya'ni banklararo kredit resurslari bozorida resurs jalb etish yoki Markaziy bank kreditlaridan foydalangan holda likvidlilikni tartibga solish mumkin.

Shunday qilib, bank likvidlilik uning faoliyatini tartibga solish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

21.2. Tijorat banklari likvidlilikini aniqlash tartibi

Likvidlilik bankning o'ziga tegishli mablag'lari qay tariqa o'zgarib borayotganligi, bank aktivlarining tarkibi va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari darajalarini bilish imkoniyatini beradi va uni tahlilini olib borishda muhim iqtisodiy kategoriyalar ham birgalikda tahlil qilishni taqozo etadi. Bank likvidlilik tahlili quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

- likvidlilik tizimi hisobining to'g'riligi va to'laligiga erishish;
- bank likvidlilik va to'lovga qobilligi holati haqida xulosalar qilish;
- bank balansi likvidlilikini yomonlashtiruvchi mavjud va potentsial yunalishlarni aniqlash;
- ana shu salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish va tadqiq qilish;
- tahlil natijalari buyicha bankka tavsiyalar berish va kerakli choralarini qo'llash.

Likvidlilikni sifat jihatidan baholashda, bankning moliyaviy holati nazorati va tahlili uchun koeffitsiyentlar usuli qo'llaniladi. U deyarli barcha davlatlarda qo'llaniladi, biroq me'yoriy qiymatlari turlicha bo'lishi mumkin. Bank nazorati bo'yicha bazel qo'mitasi likvidlilikni tahlil qilishning quyidagi tamoyillarini taklif etadi. Ularga muvofiq

likvidlikning oltita andozaviy koeffitsiyenlari mavjud. Dastlabki ikki koeffitsiyent Markaziy bank talablari bajarilishini nazorat qilish uchun, qolgan to'rttasi likvidlik bilan bog'liq ahvolning yo'nalishlarini tahlil etish uchun hisob-kitob qilinadi. Ularni quyidagilardir:

1. Naqd pul zahiralariga doir talablarga rioya qilish koeffitsienti. Bazel bitimida ko'rsatkichning maxrajida likvidlikning zarur darajasi, sur'atida esa, bankning muayyan sanadagi naqd pul zaxiralari aks ettirilgan.

2. Likvidli aktivlarga doir talablarga rioya qilish koeffitsienti. Ushbu ko'rsatkichning maxrajida likvidlikning talab etiladigan darajasi, sur'atida esa, likvidli aktivlarning muayyan sanadagi haqiqatdagi miqdori aks etadir.

3. Kreditlar-depozitlar.

Mazkur koeffitsiyent likvidlik bilan bog'liq ishlarning ahvolini ko'rsatadi, va uning kichik qiymati likvidlik yetarli darajada ekanligidan dalolat beradi.

4. Likvidli aktivlar /aktivlar;

5. Likvidli aktivlar /depozitlar;

6. Likvid aktivlar /depozitlar+qarz mablag'lari.

Bu yerda 4-koeffitsiyent bankning barcha aktivlaridagi likvidli aktivlar ulushini ko'rsatadi. Keyingi 5-koeffitsiyent likvidli aktivlari bilan qoplangan depozitlar ulushini aniqlaydi. 6-koeffitsiyent esa, likvidli aktivlarning depozitlar va qarz mablag'lariga nisbatini ko'rsatadi.

Mazkur uch koeffitsiyent muayyan sanadagi likvidlikni aniqlaydi. Ularning qiymati qancha katta bo'lsa, banklardagi likvidlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Koeffitsiyentlar usuli ko'rsatkichlar tizimi vositasida likvidlik holati, dinamikasi me'yorlarini tadqiq etishga asoslangandir. Likvidlik koeffitsiyentlari tahlil maqsadiga ko'ra farqlanishi mumkin. Likvidlik murakkab kategoriya bo'lgani sababli, ularni yagona ko'rsatkich bilan baholab bo'lmaydi. Tahlil to'la va samarali bo'lishi uchun butun boshli ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi.

Umumiy holda likvidlik ko'rsatkichi quyidagicha ifodalanadi:

Likvidli aktivlar

$$\text{Likvidlik koeffitsienti} = \frac{\text{Likvidli aktivlar}}{\text{Jalb qilingan mablag'lar}}$$

Bu formulani muddatlarga ko'ra, qisqa muddatli, joriy va uzoq muddatli likvidlilik ko'effitsientlariga ega bo'lishimiz mumkin. Bu uslub deyarli barcha mamlakatlarda qo'llaniladi, lekin mamlakatlarning iqtisodiyoti va bank tizimi shart-sharoitlariga ko'ra ba'zi o'zgarishlar kiritilishi tabiiy hol. Markaziy bankning 1998-yil oxirlarigacha amalda bo'lgan 10-sonli «Tijorat banklarining faoliyatini muvofiqlashtirish» yuriqnomasi (1995-yil 19-avgust, 1997-yil 22-fevral, 1997-yil 22-avgust tahrirlari) da belgilangan N3, N4, N5 normativlari aynan o'sha uslubning bir ko'rinishidir. Hozirda amalda bo'lgan Markaziy bankning «Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar» to'g'risidagi 1998-yil 2-dekabrda №559-sonli Nizomga muvofiq, N3 va N5 ko'effitsiyentlar hozirda majburiy xarakterga ega bo'lmasada, ularning likvidlilikini baholashdagi ahamiyati yuqolgan yuq. Demak, quyidagi likvidlilik ko'effitsiyentlarini ko'rib o'tamiz:

- lahzali likvidlilik ko'effitsiyenti;
- joriy likvidlilik ko'effitsiyenti;
- qisqa muddatli likvidlilik ko'effitsiyenti;

Lahzali likvidlilik ko'effitsienti kassadagi naqd pul va vakillik hisob varaqalaridagi mablag'larning joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi. Lahzali likvidlilik ko'effitsiyenti bankning joriy to'lovlarini tezda o'tkazish salohiyatini ko'rsatadi, ya'ni uning qisqa muddatli istiqboldagi ishonchliligini baholaydi:

$$L1 = \frac{LA}{OV}$$

Bunda LA - bankning pul shaklidagi aktivlari va Markaziy bankdagi pul mablag'lari;

OV – bankning talab qilib olinuvchi schyotlar buyicha majburiyatlari;

Joriy likvidlilik ko'effitsienti bank aktivlarining majburiyatlar summasiga nisbatini tavsiflaydi va bu muddat 30 kundan oshmasligi kerak:

$$L2 = \frac{LA(30)}{OV(30)}$$

Bunda,

LA (30)- aqalli bir marta muddati uzaytirilganlarini istisno etgan holda, bankning yaqin 30 kun ichida so'ndirish muddati belgilangan

likvid aktivlari va quyilmalari (ilgari so'ndirish uchun berilgan ssudalar, shuningdek to'lash muddati o'tgan kreditlar);

OV (30)- ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan va talab qilib olinuvchi majburiyatlar.

Qisqa muddatli likvidlilik koeffitsienti so'ndirish muddati 30 kundan 1-yilgacha bo'lgan bank aktivlarining bank sarmoyasiga va depozit hisob varaqalar bo'yicha majburiyatlari, 30 kundan 1-yilgacha muddatga olingan kreditlar va boshqa qarz majburiyatlariga bo'lgan nisbatini tashkil etadi:

$$L3 = \frac{A}{D+K}$$

Bunda, A - so'ndirish muddati 30 kundan 1-yilgacha qadar bo'lgan bank aktivlari;

D - muddati 30 kundan 1-yilgacha qadar bulgan depozitlar va jalb qilgan resurslar;

K - bank kapitali

Banklar to'g'risida ma'lumotlar etarli bo'lmaganligi sababli ularning likvidlilik koeffitsientlarni (joriy va qisqa) to'liq tahlil qilish imkoniyatiga ega emasmiz.

Ko'plab xorijlik ekspertlar likvidlilik dinamik xarakterga ega ekanini qayd etib, uni koeffitsientlar uslubi bilan to'la-to'kis baholab bo'lmashligini, buning uchun likvidlilikni bankning mavjud aktiv va passivlari oqimini o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. Bu uslub, g'arbda pul oqimlari (potok nalichnosti) vositasida likvidlilikni baholash deb nom olgan. Mazkur metodni qo'llash quyidagilarni talab qiladi:

a) aktivlar va passivlar to'lovi - tushumlari muddatlari to'g'risida axborot olishning yuqori sifati va o'z vaqtidaligidir;

b) ssuda va depozitlar holatining o'tgan va kutilayotgan tendentsiyalarini sifatli tahlili;

Likvidlilikni pul oqimlari asosida baholash Yaponiya, AQSh va G'arbiy Evropa banklarida keng rivoj topgan. Koeffitsientlar usulidan farqli o'laroq, bu yerda hech qanday majburiy mazmundagi me'yorlar yo'q. Demak, bunda bank o'zining likvidlilik holatini faqat o'z manfaati yuzasidan baholaydi.

operatsiyalar ko'lamini kengaytirish mumkin.

Pul oqimlari vositasida likvidlilikni baholashning samarasi yuqori bo'lib, texnik imkoniyatlar va malakaning kamligi tufayli ushbu uslubni

qo'llash o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari banklariga murakkabliklarni tug'diradi.

Ko'rib o'tilgan usullardan tashqari, bank amaliyotida omilli tahlil ham qo'llaniladi. Bunga ko'ra, likvidlikning o'zgarishini uch omil ta'minlaydi:

1. Omonat va depozitlarning o'zgarishi (OD)
2. Rezervlarning o'zgarishi (OR)
3. Kredit va investitsiyalarning o'zgarishi (OL)

Shunday qilib, likvidlikning mutlaq o'zgarishi quyidagicha topiladi:

$$LA = \Delta OD - \Delta OR - \Delta OL$$

LA-likvidlikning absolyut o'zgarishi

Bunda, musbat ishorali natija likvid mablag'lar ortiqchaligini, manfiy ishora esa kamomadni anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, pul oqimlari tahlilida biz istiqbol (kelgusi) davr uchun zaruriy likvid mablag'larni baholagan bo'lsak, bunisi o'tgan davrda bank likvid mablag'larga taqchilik sezdimi, yoki aksimi, bunda omillar ta'siri qanday bo'ldi, shuni ko'rsatadi. Boshqacha aytsak, pul oqimlari tahlili istiqbolli tahlil (prognoz), omilli tahlil esa retrospektiv tahlildir.

Bank kapitali qanchalik barqaror va katta bo'lsa, shunchalik bank riski kam bo'ladi, hamda to'lovga layoqatsizlikka yo'l qo'yilmaydi. To'lovga layoqatlilikni baholashda kapital holatini o'rganish tahlil samarasini oshiradi. Bank amaliyotida quyidagi koeffitsientlar to'lovga layoqatlilikni kapital vositasida baholash imkonini beradi:

Jalb qilingan mablag'lar

$$K1 = \frac{\text{Jalb qilingan mablag'lar}}{\text{Kapital}};$$

Bir mijozning qarzdorligining qrtacha qiymati

$$K2 = \frac{\text{Bir mijozning qarzdorligining qrtacha qiymati}}{\text{Kapital}};$$

Bir mijozning qarzdorligining qrtacha qiymati

$$K3 = \frac{\text{Bir mijozning qarzdorligining qrtacha qiymati}}{\text{Kapital}};$$

Ssudalar bqyicha qarzdorliklar

$$K4 = \frac{\text{Ssudalar bqyicha qarzdorliklar}}{\text{Kapital}};$$

Kapital

K5=

Aktivlar summasi

Jalb qilingan mablag'lar va kapitalning nisbati 1 so'mlik kapitalga chetdan necha so'm jalb etilganligi ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich tahlili bir necha-yillik ma'lumotlar asosida qilinsa va bunda uning dinamikasini baholab, kapitalni oshirish zarurmi yoki jalb qilingan mablag'larni ko'paytirish kerakmi, shu aniqlansa, maqsadga erishilgan bo'ladi. K_2 , K_3 , K_4 koeffitsientlari natijalarining bank moliyaviy va to'lovga qobillik ko'rsatkichlarini belgilashda ahamiyati katta. Bir qarzdor qarzlarning oshishi va umumiy qarzdorlar sonining kamayishi to'lovsizlik xavfini tug'diradi. Riskni kamaytirish, shu bilan bir qatorda, to'lovga layoqatlilikni ta'minlash uchun, bank, iloji boricha ssudalarni ko'p sonli mijozlarga berishi kerak. Chunki, balans likvidligini buzilishi mijozlar moliyaviy holatining yomonligidan ham kelib chiqadi.

K_5 koeffitsiyenti Bazel Qo'mitasi tomonidan to'lovga layoqatlilikning umumiy ko'rsatkichi, deb belgilangan. G'arbiy Evropada «Kuk koeffitsiyenti» deb nom olgan bu ko'rsatkich, kapitalning etarliligini belgilab, to'lovga layoqatlilikni baholaydi. Bir shaxsdan yirik miqdorda depozitlar qabul qilish ularning moliyaviy holati birdan yomonlashganda, to'lovlar bo'yicha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida likvidlikni boshqarish va uni baholashda Markaziy bank tomonidan maxsus Nizom orqali tashkil qilinishini yuqorida zikr etib o'tdik. Mazkur «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 51 va 52 moddalariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari likvidligini boshqarish holatiga nisbatan minimal talablarni belgilaydi, hamda likvidlikni boshqarishga doir nuqtai nazarini ifodalaydi. Bu Nizomda bevosita likvidlikni boshqarish, uning strategiyasi, boshqarish vositalari va likvidlikni baholash bo'yicha ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan. Bu Nizomning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, barcha tijorat banklari faqatgina joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidlik aktivlari, bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar bundan istisno) talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar summasiga nisbati orqali aniqlanishi bu bo'yicha o'rnatilgan norma 30%

dan kam bo'lmashligi kerak. Banklar likvidligini tahlil qiluvchi davr (oylik, choraklik, -yillik) mobaynida o'zgarishlar tendentsiyasiga ahamiyat berishi va o'zgarishlar ahamiyatini hamda xarakterini davrlarga nisbatan baholashi, shuningdek imkoni bo'lsa, o'xshash banklar bilan taqqoslanishi lozim.

21.3. Tijorat banklari likvidligini boshqarish nazariyalari

Tijorat banklari likvidligini boshqarish tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Bugungi kunda banklar likvidligini boshqarish tizimi mavjud, lekin ular shu kun holatiga kelgunga qadar bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi.

Hozirgi kunda bank likvidligini boshqarishning 4 ta asosiy nazariyalari farqlanadi. Ular quyidagilardir:

1. Tijorat ssudalari nazariyasi;
2. Joydan-joyga (aktivlarni) ko'chirish nazariyasi;
3. Kutiladigan daromad nazariyasi;
4. Passivlarni boshqarish nazariyasi.

Birinchi uchta nazariya bevosita bank aktivlarini boshqarish nazariyasi bilan bog'liq. Bank amaliyotida yuqoridagi nazariyalarning barchasi qo'llaniladi, lekin turli banklar ulardan turlicha foydalanadi, hamda qaysigadir faoliyati davomida ko'proq e'tibor qaratadilar.

Banklar likvidligini boshqarish 2 ta yo'nalishdagi siyosatga ajratishimiz mumkin:

1. Zaxiralarni doimiy nazorat qilish siyosati.

Bu bankda daromad keltirmaydigan aktivlarni oshishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini anglatadi.

2. Zaxiralarni bir darajada saqlab turishni qo'llab-quvvatlash siyosati, ya'ni Markaziy bankdagi majburiy zaxira siyosati, banklarning jalb qilingan depozitlardan deponentlanadigan mablag'lar orqali qo'llab-quvvatlash.

Xorijiy davlatlar amaliyotida likvid mablag'larga bo'lgan talabni rejalashtirishda naqd pullarni boshqarish, ya'ni mijozlarning talabini qondirish maqsadida majburiy zaxiralarni bir maromda saqlash lozimdir. Shularni inobatga olgan holda bank kassasidagi pullar kun davomida, ya'ni pul tushum va chiqim operatsiyalarni amalga oshirish natijasida o'zgarib boradi. Ushbu masala muhimligi bilan birga murakkabdir. Bizning amaliyotimizda Markaziy bank majburiy zahira me'yorini barcha banklar bajarib kelmoqda, lekin xorijiy davlatlardan farqli ravishda zahira

mablag'laridan faqatgina banklardan faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyasi qaytarib olinganida foydalanishlari mumkin. Bundan esa bizda ushbu zahira mablag'lari banklar likvidliligini emas, balki to'lov qobiliyatini ta'minlashiga xizmat qiladi deb xulosa qilishimiz mumkin.

Avvalida bank likvidliligi 2 ta nazariy yondoshuvni o'z ichiga olar edi:

- Bank aktivlari tarkibi, summasi, muddati, bank passivlari tarkibi, summasi va muddatlariga mos kelishi shart. Bu esa amaliy jihatdan tijorat banklari o'z likvidliligini boshqarish bo'yicha aktiv siyosat yuritishiga yo'l bermas edi. Ushbu berilgan nazariy asoslar natijasida bankning «oltin qoida»si yuzaga kelib chiqdi, ya'ni bank moliyaviy talablari hajmi va muddati bank majburiyatlari hajmi va muddatlariga mos kelishi shart;

- Bank balans aktiv va passivlar tarkibi real mos kelmasligiga asoslangan, hatto eng qudratli, moliyaviy barqaror tijorat banklari ham bankrotlik, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlardan va boshqa mojarolardan sug'urtalanmagan. Bu ayniqsa rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tgan davlatlarga xos.

Yuqoridagilardan banklar likvidliligini ularning aktiv va passivlarini boshqarish orqali erishiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bank ishining evolyutsion tarzda rivojlanishi natijasida ikkinchi yondoshuvga asosan aktiv va passivlarni boshqarish nazariyalari yuzaga kelib, rivojlandi.

«Tijorat ssudalari» nazariyasi

Ushbu nazariyaning ildizi XVIII asr Angliya bank amaliyotiga borib taqaladi. Bu nazariyaning vakillari tijorat banklari likvidliligi uning aktivlarini qisqa muddatli ssudalarga joylashtirilgan paytda saqlanishini ta'kidlaydilar. Bunda ssudalarning qisqa muddatligi, aylanish tezligi, daromadliligi inobatga olingan. Boshqacha qilib aytganda, banklar tovarlar harakati ishlab chiqarishdan uni iste'molgacha bo'lgan bosqichlarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

Birinchi xalqaro iqtisodiy inqiroz yuz bergunga qadar (1929-yilgacha) barcha rivojlangan mamlakatlarda liberal iqtisodiy tizim amal qilib, iqtisodiy faoliyat faqat bozor hukmiga, ya'ni talab va taklif qonuniga asosan olib borilgan. Liberal bozor iqtisodiyotida davlatning iqtisodiy faoliyatiga aralashuvi cheklangan.

Bu iqtisodiy tizimda istiqboldagi iqtisodiy rivojlanish borasidagi taxminlar va rejalar faqat bozor shart-sharoitlaridan kelib chiqib belgilangan, banklarning likvidliligini boshqarish «tijorat ssudalari

nazariyasi»¹ ga asosan olib borilib, bu nazariy qarash banklarga o'z likvidliligini himoya qilish maqsadida faqat qisqa muddatli kreditlar berishni tavsiya qilar edi. Bu tavsiya esa o'sha davrdagi noaniq holatga nisbatan «ehtiyotkorlik» tamoyiliga asoslangan edi. Shu bilan birga bu nazariy qarash banklarda likvidlikni boshqarish uchun banklarning faqat aktivlarini boshqarish va shakllantirishga ahamiyat berdi. Chunki qisqa muddatli kreditlarning qaytish muddati tez bo'lib, kreditlarning qisqa muddatda qaytishi bank likvidliligini boshqarishda yagona manba hisoblangan.

Tijorat ssudalari nazariyasi AQShda 1930-yillarning oxirigacha banklarning asosiy nazariyasi bo'lib hisoblanar edi. Bu nazariyaning asosiy tamoyillari AQSh bank qonunchiligida belgilangan edi.

Tijorat ssudalari nazariyasi iqtisodchilar, banklar, nazorat organlari tomonidan keng miqyosda tashviqot qilingan bo'lsada, uning amaliyotda qo'llanilishi unchalik yaxshi bo'lmagan. Ushbu nazariyaning kamchilik tomoni shundaki, rivojlanayotgan iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan talabi hisobga olinmagan. Nazariyaga qattiq amal qilish banklarga korxonani kengaytirishni rag'batlantirish, asbob-uskuna, uy-joy sotib olishga (moliyalashtirishga) yo'l qo'ymas edi. Ushbu turdagi talablarni bajara olmaslik natijasida raqobatlashadigan moliya institutlari: maxsus fondlar, kredit uyushmalari va boshqalarni yuzaga kelishiga olib keldi.

Bu nazariya shu bilan birga bank qo'yimalari barqarorligini inobatga olmaydi. Qo'yimalarning barqarorligi bankka manbalarni uzoq muddatlarga likvidlikka ziyon etkazmagan holda joylashtirishga ruxsat beradi.

Mazkur nazariyaning kamchiliklari:

– iqtisodiy inqirozlar paytida tijorat banklari kreditlarini qaytarishda muammolarning yuzaga kelishi ushbu nazariyada hisobga olinmagan;

– qisqa muddatli tijorat ssudasi iqtisodiyot normal holatda bo'lsagina banklar likvidliligini ta'minlaydi, biroq iqtisodiyot inqirozi vaqtida likvidlikni boshqarish bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

«Joydan-joyga (aktivlarni) ko'chirish» nazariyasi

1929-1930-yillardagi birinchi iqtisodiy inqirozdan so'ng erkin raqobatga asoslangan liberal bozor tizimi inqirozga uchrab, o'rniga J.M.Keyns nazariy ta'limoti asosida to'la davlat boshqaruviga asoslangan bozor iqtisodiyoti paydo bo'ldi. J.M.Keyns o'zining nazariy qarashlarida

¹ Кох Т.У. Управление банком. част ИИИ-ИВ, Уфа-Спектр -1993г. стр. 34

iqtisodiyotning hech qachon o'z-o'zidan, avtomatik ravishda muvozanatga kelmasligini ta'kidlab, iqtisodiy muvozanatni davlat investitsiyasi, xususan, davlat tomonidan iqtisodiyotdagi talabni boshqarish orqali ta'minlash mumkin deb ta'kidlaydi. J.M.Keyns fikricha, iqtisodiyotdagi pulga bo'lgan talab va investitsiya jarayonidagi faoliyat hamda istiqbol to'g'risidagi taxminlar qimmatli qog'ozlar bozoridagi holatga ko'ra aniqlanadi. Iqtisodiyotda boshqa muqobil aktivlar mavjud emas¹.

Shu tariqa iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining ortishi va qimmatbaho qog'ozlar bozorining rivojlanishi bilan birga bank likvidligini boshqarish borasidagi yangi bir nazariy qarash yuzaga keldi. Bu nazariy qarash «joydan-joyga ko'chirish nazariyasi» nomi bilan yuritilib, bu ta'limot bank likvidligini boshqarishda qimmatbaho qog'ozlar bozorining, xususan, davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining ahamiyatiga asosiy urg'u beradi. Shunday qilib bank likvidligini ta'minlash va boshqarish borasida bank aktivlarida qisqa muddatli kreditlardan so'ngra ikkinchi bir aktiv shakli, ya'ni davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) yuzaga keldi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari davlat kafolatiga ega ekanligi va ulardan olinadigan daromadlarning kafolatlanganligi hamda, bu turdagi daromadlarning soliq to'lovlaridan ozod qilinganligi sababli ikkilamchi bozorda osongina sotilar va naqd pulga aylanishi qulay edi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining bu xususiyati banklarga jozibaliroq bo'lib ko'rinsa boshladi va banklar o'z likvidligini boshqarishda mazkur aktivlar hisobiga mablag'larini qayta taqsimlay boshladilar.

Bu nazariyaga asosan bank aktivlarini boshqa aktivlarga ko'chira olishi yoki ularni boshqa kreditorlarga hamda investorlarga sota olishi bilan o'z likvidligini ta'minlashi mumkin. Agar tovarlar bilan ta'minlangan ssudalar o'z vaqtida qaytmasa u holda bank bozorda ularni sotishi mumkin, agar ssuda mablag'lariga muhtojlik sezilsa banklar Markaziy bankdan qayta moliyalanishi yoki banklararo kredit resurslari bozoridan resurs sotib olishi mumkin. Demak, har qanday talabni amalga oshirish uchun tijorat banklari har doim likvid aktivlarga ega bo'lishi kerak. Chunki bularni istagan vaqtda sotish mumkin. Shubhasiz bank likvidli hisoblanadi, qachonki bank mavjud aktivlarini erkin sota olsa va o'zining oldidagi majburiyatlarini bajarsa. Eng yaxshi likvidli manba

¹ M.Fridman keyinchalik Keynes nazariyasi haqida o'z fikrlarini bayon qilar ekan, bu nazariyaning bir kamchiligi sifatida barcha taxminlar faqat qimmatbaho qog'ozlar bozoriga bog'langanligini va kelajak taxminlarga boshqa omillar kiritilmaganligini tanqid qilib o'tadi.

bo'lib uzoq vaqtlar oson sotiladigan qimmatli qog'ozlar hisoblanar edi. Ushbu qimmatli qog'ozlarni istagan vaqtda oson sotish mumkin, shuning uchun ularni odatda ikkinchi darajali zahiralar deb qarashadi. Yo'qotishlarsiz va ushlanishlarsiz almashadigan ikkinchi darajali rezervlar quyidagi jihatlarga javob berishi kerak:

- yuqori sifat;
- qaytarishning qisqa muddati;
- bozorda oson sotilishi;
- risklardan holiligi.

Likvidlilik zaxirasi sifatida foydalaniladigan aktivlar muddati bo'yicha belgilangan talablarni namoyon qilmaydi, biroq «muddati qanchalik qisqa bo'lsa, shunchalik yaxshi bo'ladi» - degan umumiy qoida kelib chiqadi.

Riskni nominal stavkaning o'zgarishiga ta'siri unchalik sezilmasa bunday yondoshuv ijobiy hisoblanadi. Birinchi darajali tez ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ikkinchi darajali zahiralarda saqlashni ko'pgina bankirlar bir-yildan kam bo'lgan muddatlarda samarasi yuqori bo'ladi deb o'ylaydilar. Biroq bu qarashda, pul bozorida foiz stavkalari o'zgarib turishi mumkin. Agar stavkalar o'sishi va kamayish holatida bo'lsa, unda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarda saqlash talab qilinadi.

Sifat va ayirboshlash talablariga qimmatli qog'ozlarning bir qancha turlari javob beradi. Ikkinchi darajali zaxiralarga ko'proq hukumat va uning organlari qimmatli qog'ozlari to'g'ri keladi. Davlat obligatsiyalaridan foydalanish, agar ularning qaytarish muddati yaqin bo'lsa, yana muddati qancha kam bo'lsa, nominal foiz normasi muddati o'zgarishi shuncha kam bo'ladi.

Joydan-joyga ko'chirish nazariyasi etarli darajada asoslangan bo'lsada, yuzlab banklar bu nazariyani qo'llasada, 1920-30-yillardagi likvidlilik muammosidan qutula olmadilar. Ba'zi banklar qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan onkol («on call» chaqirib olish) ssudalari likvidligiga ishonishgan bo'lsada, qimmatli qog'ozlarning bozor narxi keskin tushib ketish natijasida bu ssudalarni qaytarib olish banklarga zararlar keltirgan.

Joydan-joyga ko'chirish nazariyasi O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari likvidligini boshqarishda keng foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning sababi shundaki, ushbu nazariya banklarni

ortiqcha likvidlilik holatida mablag'larni qimmatli qog'ozlarga REPO¹ shartlari asosida joylashtirib kelgusida ma'lum muddatdan so'ng uni qayta sotish orqali mijozlar majburiyatlarini bajarishga ishlatishi mumkinligini ifodalaydi. Bunda banklar bir tomondan ortiqcha likvidlilik masalasini hal etsa, ikkinchi tomondan o'z daromadini oshirish siyosatini yuritadi.

«Kutilayotgan daromadlar» nazariyasi

1950-yillarda R.Lukas boshchiligida «Ratsional taxminlar nazariyasi» paydo bo'lishi bilan iqtisodiy subyektlarning istiqbol haqidagi taxminlari iqtisodiy muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatish g'oyasi ham rivojlandi. Istiqbol haqidagi taxminlarning ko'nikmalarga asoslangan yoki ratsional shaklda bo'lishi iqtisodiyotni boshqarish borasida olingan qarorlar ta'sirini belgilab beradi.

Har bir iqtisodiy subyekt o'z taxminlari asosida har bir qabul qilingan qaroriga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lib, bu qarorlarning bajarilishida kechikishlar bashoratlar muddatining cho'zilishiga ta'sir qiladi. 1975-1979-yillardagi ikkinchi xalqaro iqtisodiy inqirozdan so'ng iqtisodiy tizimda liberal bozor mexanizmi bilan davlat boshqaruvi birlashdi. Barcha rejalar va ularni amalga tadbiiq qilish borasida qabul qilinadigan qarorlar rivojlangan bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarning tahlili natijalariga asosan ishlab chiqila boshlandi. Bu yangi mexanizmida bozor iqtisodiyotining raqobat kuchidan rivojlanish siyosati maqsadida foydalanib, davlatning vakolati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatib borish darajasigacha qisqartirildi va boshqa barcha faoliyat xususiy tadbirkorlik ixtiyoriga topshirildi.

«Ratsional taxminlar nazariyasi»ning yuzaga kelishi bilan banklarda likvidlilikni boshqarish bo'yicha yangi bir nazariy qarash «kutilayotgan daromadlar nazariyasi» paydo bo'ldi va shu tariqa bank likvidlilikini boshqarish jarayoniga taxminlar ham kiritildi. Bu nazariy qarash ta'sirida kreditlar bo'yicha asosiy qarz va foiz to'lovlarning qaytishi, avvalo mijozlar tomonidan kutilayotgan daromad darajasiga, ham miqdor ham vaqt nuqtai nazaridan mos kelishi va o'zaro bog'lanishi amalga tadbiiq qilindi. Banklar kreditlarni diversifikatsiya qilish jarayonida shu xususiyatni hisobga olishi lozim edi. Bu esa kelajakda kutilayotgan likvidlilik muammosini oldini olishga imkon berardi.

¹ REPO (repurchase-qayta sotib olish sharti bilan sotish) - qimmatli qog'ozlarni ma'lum muddatdan keyin kelishilgan narxda qayta sotib olish sharti bilan sotish tushuniladi.

Bu nazariyaga ko'ra bank likvidliligini kreditlarni qaytarishda to'lovlar grafigiga, kelajakda qarz oluvchining oladigan daromadini qo'ygan holda rejalashtirsa bo'ladi. Bu nazariya yuqoridagi nazariyalarni rad etmaydi, u shuni ta'kidlaydiki qarz oluvchilar daromadlari kreditlarni qaytarish bilan xarakterlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra bank likvidliligiga kreditlarni va investitsiyalarni qaytarish muddatlarini o'zgartirish yo'li bilan ta'sir etishi mumkin.

Qisqa muddatli kreditlar, uzoq muddatli kreditlarga qaraganda likvidliroq, iste'mol krediti esa ipoteka kreditidan likvidliroqdir.

Nazariya ba'zi kredit turlarini rivojlanishini va tez o'sishini tan oladi, hozirgi vaqtda tijorat banklari kredit portfelida har xil turdagi kreditlar shakllanmoqda. Bu kreditlar bitta umumiy likvidlilikni oshirish, ya'ni qisqa vaqtlarda kreditlarni qaytarish natijasida kelib chiqadi.

Kutiladigan daromad nazariyasiga ko'ra ko'pgina banklar investitsiya siyosatini shunday yuritadilarki, ularning qaytarish muddatlari zanjiri uzilmasligi kerak, ya'ni doimiy tushumlar bo'lib turishi kerak va buning natijasida mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarib borishini rejalashtirish imkoni paydo bo'ldi.

Xulosa qilib, kutiladigan daromadlar nazariyasi mamlakatimiz bank tizimida keng qo'llanib kelinmoqda. Chunki banklar berilgan kreditlarini qaytarish grafigi asosida mablag'lar harakatini, ya'ni qaysi sanada kredit foizlari qaytishi va ular hisobiga mijozlar majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini aniqlaydi, tahlil etadi, amalga oshiradi.

«Passivlarni boshqarish» nazariyasi

1960-70-yillardan boshlab bank likvidliligini boshqarish borasida «passivlarni boshqarish» nazariyasi paydo bo'ldi va bank likvidlilik muammosini echish borasida o'z passivlariga, ya'ni majburiyatlariga e'tibor qarata boshladi. Bu nazariyaning paydo bo'lishiga iqtisodiyotda fond va pul bozorining shakllanishi, hamda ikki pog'onali bank tizimining to'la shakllanishi bilan bank mablag'lari bozorining rivojlanishi turtki bo'ldi. Bu nazariy fikrga tayangan holda banklar o'z likvidliligini pul bozori va sarmoya bozoridan qarz olish, ya'ni mablag'lar jalb qilish orqali boshqara boshlashdi. Bu asosan Markaziy bankdan mablag'lar sotib olish, depozit sertifikatlari, qisqa muddatli tijorat veksellar va evrodollar kabi qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish shaklida amalga oshirildi.

Bu usulning banklarga foydali tomoni : *birinchidan*, daromad nuqtai nazaridan – banklar sotib olingan mablag'larga barcha uchun yagona imtiyoz bo'lgan bozor foiz darajasida to'lovlar amalga oshirishga

muvofaq bo'lishgan bo'lsa, *ikkinchidan*; miqdor nuqtai nazaridan – fundamental, doimiy jang'armalar yuzaga kelib, bu mablag'lar bank balansining ham aktivida ham passivida bank likvidliligini dastaklay boshladi. Xullas banklarda mazkur nazariya ta'sirida turli bank xizmat shakllari rivojlanib, iqtisodiyotning barcha sohalariga banklarning ta'siri yuzaga keldi.

Bank ishining rivojlangan bozor mamlakatlaridagi kelgusidagi rivojlanishi shunga olib keldiki, 1960-yillar va 1970-yillarning boshlarida bank balansini boshqarishda asosiy urg'u passivlarni boshqarishga ko'chdi. Bular ichki jang'arilgan mablag'lar evaziga emas, balki tashqi mablag'lar hisobiga bo'ladi. Banklar resurslarni sotib olib, ularni foiz stavkalari o'rtasidagi foydali farqdan kelib chiqqan holda joylashtiradilar va shu sababli spredni boshqarish an'anaviy bank amaliyotiga aylandi.

Ushbu nazariya himoyachilari bank likvidligi muammosini bozordan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish yo'li bilan erishish mumkin deb ta'kidlaydilar. Boshida bu nazariyani yirik banklar maqullagan edi, lekin keyinroq bu nazariyani hamma banklar tan olishdi.

Passivlarni boshqarish nazariyasi orqali tijorat banklari likvidligini boshqarishda ikkita quyidagi isbotga asoslanadi:

1. Tijorat banklari qo'shimcha mablag'larni kapital bozorlarida jalb qilish yo'li orqali likvidlikka erishishi mumkin.

2. Tijorat banklari Markaziy bank, boshqa banklardan olingan pul mablag'lari hisobiga likvidligini ta'minlashi mumkin.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar bank tizimida asosan «bank passivlarini boshqarish» nazariyasi orqali o'z likvidligini ta'minlaydilar. O'zbekiston banklari amaliyotida ushbu nazariyadan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, sababi resurslar etishmovchiligi holatida banklar banklararo kredit resurslari bozorida jalb qilish orqali, ortiqcha bo'lganda esa ularni banklararo depozitlarga joylashtiradilar.

Xulosa qilib, banklar likvidligini boshqarish nazariyalari vujudga kelishi orqali amaliyotda ulardan turli davrlarda banklar keng foydalanган va hozirda ham foydalanib kelishmoqda. Banklar o'z likvidligini ta'minlashda asosan eng arzon, qulay va tez amalga oshadigan turidan foydalanishga harakat qilishini amaliyot ko'rsatib turibdi.

21.4. Tijorat banklari likvidligini ta'minlashning xorij tajribasi

Tijorat banklari likvidligini boshqarish nazariyalarini atroflicha ko'rib chiqib shunday xulosaga keldikki, barcha nazariyalar asosan

xorijiy davlatlarda banklar likvidliligini ta'minlash amaliyotida vujudga kelgan ekan. Chunki uzoq-yillardan beri ularning amaliyotida bir qancha banklar mavjud bo'lib, ba'zilar o'z likvidliligini ta'minlay olmaganligi uchun faoliyatini to'xtatgan. Aynan ushbu holatlar va-yillar davomida rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar amaliyotida banklar likvidliligini ta'minlash qanday yo'lga qo'yilganligini ko'rib chiqishni lozim deb topdik.

Ko'pgina davlatlarda banklar likvidlilik ko'rsatkichlari muddatlari bo'yicha guruhlangan, balansning aktiv va passiv moddalari nisbati asosida hisoblanadi. Masalan, Fransiya bunday muddat 3 oy hisoblanadi. Frantsiyada banklar likvidliligini ta'minlash uchun bank majburiyatlarini jalb qilganda aynan ana shu muddatga ularni joylashtirgan. Tijorat banklari bu hisob-kitob natijalarini nazorat organlariga har chorakda taqdim etishlari shart. Mazkur ko'rsatkichlarning minimal darajasi 60% dan kam bo'lmasligi kerak.

Buyuk Britaniya tijorat banklari Angliya banki (Markaziy bank)da har oyda pul mablag'lari, «Nostro» hisobraqamlaridagi qoldiqlar, talab qilib olguncha depozitlar va bir kun muddatga joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar va qayta hisobga oluvchi veksellarni barcha jalb qilingan resurslarga nisbati orqali aks ettiruvchi likvidlilik me'yoriga rioya qilganlik to'g'risida ma'lumot beradi. Bundan tashqari tijorat banklari Angliya banki oldida hisobotni talab qilmaydigan boshqa likvidlilik me'yorlarini ham hisoblaydilar. Ularga:

– bir oy muddatga joylashtirilgan aktivlarni so'ndirilishi xuddi shu muddatli majburiyatlarga nisbati;

– olti oy muddatga joylashtirilgan aktivlarni xuddi shu muddatli majburiyatlarga nisbati orqali ifodalanadi.

Germaniya tijorat banklari ham har oy Germaniya Federal banki oldida balans likvidliligi to'g'risida hisobot beradi. Germaniyada me'yor bilan tijorat banklariga quyidagi nisbatlarga amal qilish majburiyati belgilangan. Ularga:

– qisqa muddatli va o'rta muddatli qo'yilmalarni (4-yilgacha) shunga teng muddatli jalb qilingan resurslar va omonatlarga nisbati;

– uzoq muddatli qo'yilmalarni (4-yil va undan ortiq muddatga) xuddi shu muddatga jalb qilingan resurslarga nisbati.

Bu me'yorlarning talab etilayotgan darajasi 100% bo'lib, asosan uzoq muddatli qo'yilmalarni qoplash imkoniyatini nazarda tutadi.

Bank likvidliligi holatining o'zgarib turishini hisobga olib, xorijiy ekspertlar u balans nisbatlari asosida hisoblangan moliyaviy me'yorlar

yordamida butunligicha hisoblab bo'lmaydi deb ta'kidlaydilar. Shuning uchun asta-sekin likvidlilikni baholashning mavjud aktiv va passivlar bo'yicha naqd pul oqimi asosida hisoblash amaliyoti paydo bo'ldi.

Bunday baholashning murakkabligi shundaki, ba'zi bir moliyaviy instrumentlar bo'yicha to'lov muddati kelishi ko'zda tutilmaydi (masalan, talab qilib olinguncha depozitlar). Yana bir murakkablik jihati alohida ssudalarni so'ndirish istiqbollari to'g'ri baholashda ko'rinadi.

Shuning uchun mazkur usulni qo'llash quyidagilarni nazarda tutadi:

– bank aktivlar va passivlari bo'yicha to'lov muddatlari haqida o'z vaqtida va yuqori sifatli ma'lumotlar olish;

– bank tomonidan ssuda va depozitlar holatini ilgari va kutilayotgan tendentsiyalarni yuqori sifatli tahlil etish.

Pul mablag'lari oqimi asosida bank likvidligini baholash amaliyoti Yaponiya, AQSh va ko'pgina Evropa mamlakatlarida mavjud.

Misol sifatida, Yaponiyada tijorat banklarini likvidligini baholash metodikasi bilan tanishaylik. Unga ko'ra likvidli aktivlar va majburiyatlar muddatlari va summalari bo'yicha balanslashmaganlik, ya'ni aktiv va passivlar guruhlari bo'yicha jadval tuzish tavsiya etiladi.

Bank likvidligi to'g'risida so'ndirish muddatiga ko'ra aktivlari va majburiyatlarini grafik asosida o'rganib kunlik hisobot tayyorlanadi. Grafik so'ndirishning mos kategoriyalari bo'yicha moliyaviy aktivlari majburiyatlarga nisbatini ko'rsatadi va likvidlilik etarligi «+» yoki etishmasligi «-» ishorasida belgilanadi.

Aktivlar va majburiyatlar so'ndirish grafigiga muvofiq bank likvidligi to'g'risida hisobot tuziladi va bank boshqaruviga aniq chora-tadbirlar ko'rishga taqdim etiladi. Bank boshqaruvi uni o'rganib tahlil qiladi va kerak bo'lsa zarur chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Taqqoslashning natijasi bankda likvidli mablag'lar etmasligi yoki ortiqchaligi ma'lumotini ko'rsatadi. Bu esa, balanslashmagan riskni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashni nazarda tutadi.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda katta e'tibor bank likvidligini ta'minlashda kredit risklarini cheklashga qaratiladi.

Masalan, AQShda 1970-yillar o'rtasida 2 ta ko'rsatkich qonunlashtirilgan: berilgan kreditlar bank kapitaliga nisbati 11 martadan ko'p bo'lmasligi kerak yoki berilgan kreditlar kapitalga nisbati 0,1 dan oshmasligi kerak.

Fransiyada bir qarz oluvchi yoki bir guruhdagi barcha qarz oluvchilarga berilgan kredit hajmi bank o'z mablag'larining 75% dan oshmasligi kerak.

Germaniyada berilgan kreditlar va sindikatda qatnashishlar summasi bank o'z mablag'larining 18 martasidan katta bo'lmasligi kerak. Har bir 5 ta yirik kredit (bank o'z mablag'larining 15 % dan ortig'ini tashkil etuvchi) bank o'z mablag'larni 3 martadan ko'proqqa oshmasligi kerak, har 5 ta kreditning barchasi esa bank o'z mablag'laridan 8 marta katta bo'lmasligi kerak. Eng yirik kredit bank o'z mablag'larining 75% dan oshmasligi kerak.

Ba'zi xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklari likvidliligi uchun mavjud me'yorlar to'g'risida ma'lumot

40-jadval

N ₂	Mamlakatlar	Majburiy me'yorlar o'rnatilganligi	Nazorat tartibi
1.	Fransiya	mavjud	Banklar 3 oy muddatga mavjud aktivlarini majburiyatlariga nisbati orqali har chorakda nazorat organlariga hisobot beradi. Ushbu ko'rsatkich minimal ruxsat etilgan darajasi 60% dir.
2.	Germaniya	mavjud	Uzoq muddatli likvidlilik me'yori 4-yillik muddatdan ortiq aktivlar umumiy summasi shu muddatdagi majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi. Qisqa va o'rta muddatli likvidlilik me'yori qisqa va o'rta muddatli aktivlar umumiy summasi aynan shu muddatli majburiyatlarga nisbati orqali chegaralangan.
3.	Rossiya	mavjud	Lahzalik, joriy, uzoq muddatli, umumiy hamda qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar bo'yicha likvidlilik me'yorlari mavjud va barcha banklar ularga amal qilishlari lozim.
4.	Italiya	mavjud emas	Banklar 7 ta me'yor yordamida nazorat qilinadi.
5.	Buyuk Britaniya	mavjud emas	Muddatlari bo'yicha bank aktiv va passiv moddalari tahlil etiladi.
6.	Ispaniya	mavjud emas	Majburiy me'yor vazifasini majburiy zahira normasi o'ynaydi
7.	AQSh	mavjud emas	Birlamchi va ikkilamchi zahira me'yorlari tavsiya etiladi hamda pul oqimlari tahlil etiladi.

8.	Yaponiya	mavjud emas	Omonatlar joriy aktivlarning 30% tashkil etishi tavsiya etiladi.
9.	Belgiya	mavjud emas	Talab qilinuvchi qarz majburiyatlar hamda yuqori likvidli aktivlar bog'liqligi o'rganiladi.
10.	Gollandiya	mavjud emas	Qarz majburiyatlari, ularning muddati bo'yicha guruhlashtirilgan to'lovlar tahlil etiladi.

Xorijiy banklar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, banklar likvidligini belgilovchi asosiy omillar bo'lib quydagilar xisoblanadi:

- jalb qilingan depozit turlari (muddatli yoki talab qilib olingunga);
- ularning paydo bo'lish manbalari;
- barqarorlik .

Tijorat banklari likvidligi, to'lov qobiliyatining asosiy omili bo'lib, bu bevosita bankka umuman bank tizimiga jamiyat ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Rossiyada tijorat banklari likvidligini boshqarish ikki darajada amalga oshiriladi:

- Rossiya banki darajasida (markazlashtirilgan boshqarish);
- tijorat banklari darajasida (markazlashtirilmagan boshqaruv).

Markazlashgan va markazlashmagan boshqaruvni hosil qilishda likvidlikni ta'minlash vositalari yo'nalishiga qarab mavjud usul va vositalardan foydalaniladi.

Likvidlikni markazlashtirilgan darajada boshqaruvning asosiy maqsadi bo'lib:

- tijorat banklari faoliyatida ularning likvidligini ta'minlash uchun amal qiladigan regulyativ norma va qoidalarni aniqlash;
- banklar likvidligini boshqarishni yo'naltirib turish uchun vositalar tanlash;
- alohida kredit tashkilotlarida va umuman bank tizimida likvidlik holatini nazorat qiluvchi tashkilotning mavjudligi.

Likvidlikni Rossiyada markazlashtirilgan boshqaruvning zamonaviy darajadagi o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu Rossiya banki (Markaziy bank) tomonidan barcha tijorat banklari uchun umumiy bo'lgan likvidlik me'yorlaridir. Bularga: lahzalik likvidlik me'yor (H2), joriy likvidlik me'yor (H3), uzoq muddatli likvidlik me'yor(H4), umumiy likvidlik me'yor (H5) va qimmatbaho toshlar

bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha likvidlilik me'yori (H14) kiradi. Ko'rsatilib o'tilgan me'yorlar Rossiya banki tomonidan chiqarilgan №1-sonli yo'riqnomada aks ettirilgan bo'lib, yana har bir me'yorini aniqlash metodikasi hisob-kitobi, ular bo'yicha qo'yilgan me'yorlarni ko'rish mumkin.

Likvidlilik me'yorlari mavjud chegaralarda bo'lib, ularni bajarish har bir bank uchun majburiyatdir. Rossiya banki har oyda tijorat banklari tomonidan hisobotlar asosida ularni holati bo'yicha nazorat o'rnatishadi. Mana shu iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinmasa, Rossiya banki ogohlantiruvchi yoki cheklovlar choralarni (jarima, ayrim operatsiyalar bo'yicha cheklovlar yoki ta'qiq o'rnatish, filiallar ochishni ta'qiqlash va boshqalar) qo'llash mumkin.

Likvidlilik ko'rsatkichlariga amal qilishni nazorat qilish uchun Rossiya banki tomonidan yana bir qancha vositalar nazarda tutilgan. Bu vositalarga: me'yorlarni aniqlash, banklarni Rossiya bankida majburiy zaxiraga qatnashish tartibi va qayta moliyalash tizimi kiradi. Markaziy bank bu vositalar orqali tijorat banklari likvidliligiga bilvosita ta'sir etadi. Rossiya bankida har bir tijorat bankining majburiy zaxiralar fondiga ishtiroki jalb qilingan resurslar summasi va ular bo'yicha o'rnatilgan foiz asosida to'lovlarni qabul qilish tarzida hosil bo'ladi. Bu majburiy zaxira fondidan tijorat banklari o'z likvidliligini ta'minlash uchun foydalanishi mumkin.

Tijorat banklari likvidliligini Rossiyada markazlashtirilmagan holda boshqaruvi bevosita o'z ichiga mavjud aktiv va passivlarni boshqarish, ya'ni, balansdan tashqari likvidlilik va to'lov qobiliyati riskini oldini olish maqsadida balansdan tashqari operatsiyalarni boshqarishni ham tushunish mumkin. Shu bilan birga likvidlilik va daromadlilik o'rtasidagi bog'lanishni optimal darajada tashkil qilishni zikr etib o'tish zarur.

Rossiya banki har bir tijorat banklari uchun mavjud talablarni inobatga olib likvidlilikni boshqarish siyosati hujjatini ishlab chiqishi va boshqaruv organi tomonidan tasdiqlashi lozim.

Likvidlilikni boshqarishning ikkinchi muhim elementi bo'lib, bu jarayonni usuli va vositalaridir, ya'ni uni likvidlilikni tuzilishini o'zida aks ettiradi. Yuqoridagi savollarda zikr etilganidek, nazariy jihatdan Rossiyada ham likvidlilikni boshqarish metodlari aktivlarni boshqarish va passivlarni boshqarish metodlariga bo'linadi. Tanlab olingan metodga monand vositalar ham aniqlanadi. Bularga likvidlilikni aniqlash ko'rsatkichlari, limit va nazorat me'yorlarini o'rnatish, jalb qilingan va

joylashtirilgan likvid mablag'larga vositalarni tanlash kabilarni sanab o'tish mumkin.

Likvidlilikni aniqlash ko'rsatkichlarni tanlash bevosita nazorat organi tomonidan likvidlilikka qo'yilgan talablarga asoslanadi. Lekin ko'pgina davlatlarda nazorat organlari tomonidan bu kabi ko'rsatkichlar umuman o'rnatilmaydi, yoki unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan ko'rsatkichlar o'rnatiladi.

Rossiyada esa yuqorida qayd etib o'tganimizdek likvidlilikka 5 ta majburiy me'yorlar (H2, H3, H4, H5, H14) o'rnatilgan. Shu asnoda Rossiya banklari o'zlarining likvidligini ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlar orqali baholaydilar. Bu banklarning likvidligini me'yorlar orqali baholash metodi deb ham nom olgan.

Likvidlilikni boshqarishda limit va iqtisodiy me'yorlarini o'rnatish vositasi ham muhim bo'lib, u likvidlilik ko'rsatkichlarini aniq chegarasini aniqlasa, iqtisodiy me'yor esa mo'ljallanishi, ya'ni afzal ko'rilgan chegarasidir.

Likvidlilikni boshqarishning oxirgi vositasi sifatida likvid mablag'lar ortiqchaligi yoki etishmasligi hisoblanib, bu likvidlilik pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Rossiya sharoitida likvid mablag'lar defitsiti quyidagi vositafar orqali ta'minlanishi mumkin:

- banklararo kreditlar, shu bilan birga Rossiya Markaziy banki kreditlari;
- kredit tashkiloti tomonidan qarz majburiyatlarini chiqarish orqali;
- joriy va depozit hisobvaraqlariga mijoz mablag'larini jalb qilish;
- muddatli depozit shartnomalarini yoki boshqa bank majburiyatlarini qaytadan ko'rib chiqish hisoblanadi.

Ortiqcha likvidli mablag'larni joylashtirish vositalari bo'lib:

- banklararo kreditlarda ishtirok etish;
- Rossiya bankida yoki vakil banklarda depozitga joylashtirish;
- investitsiyalashning turli yo'nalishlariga joylashtirish.

Rossiyada banklar likvidlilik ko'rsatkichlari tahlili va baholash jarayoni o'z ichiga bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Bu bosqichlar quydagilar:

Birinchi bosqichda, iqtisodiy me'yorlarni me'yoriy darajasini ifodalovchi jadval tuzish zaruriyatidir. Bu esa quyidagi jadvalda ko'rinadi.

Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki o'rnatgan likvidlilik ko'rsatkichlari va ularning me'yoriy darajalari, (foizda hisobida)

41-jadval

№	Majburiy likvidlilik me'yorlari	Me'yor chegarasi
1.	Lahzali likvidlilik koeffitsienti	min 20
2.	Joriy likvidlilik me'yori	min 50
3.	Uzoq muddatli likvidlilik me'yori	max 120
4.	Umumiy likvidlilik me'yori	min 20
5.	Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha likvidlilik me'yori	min 10

Ushbu jadval orqali bank har oylik likvidlilik ko'rsatkichlarini o'zgarishini kuzatib borishi mumkin. Yuqorida zikr etilganidek, likvidlilikni boshqarishda iqtisodiy me'yorlar, ya'ni me'yorlar metodi Rossiyada oddiy va juda ko'p tarqalgan usul hisoblanadi.

U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- likvidlilik ko'rsatkichlari tarkibini aniqlashni va ularning me'yoriy chegarasi;

- likvidlilik ko'rsatkichlari tahlili va baholash holatini quyidagilar asosida:

- mavjud me'yorlarga amaliy holatini taqqoslash;
- amaliy ko'rsatkichlari holatini tahlil dinamikasi;
- o'zgarishlarni mavjud holatini hosil qilishda tahlil omili;

tahlil uchun informatsion bazani mukammallashtirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda, har bir likvidlilik ko'rsatkichini haqiqiy darajasini me'yoriy darajaga solishtirishdir. Bu yerda asosiy e'tibor joriy likvidlilikni o'zida aks ettiruvchi oxirgi hisobot davriga qaratiladi. Ana shu tahlil jarayonida banklar likvidliliğini boshqarishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi omillar, aniqrog'i:

- asosiy ko'rsatkichlarni (ahamiyatli bo'lmaganini ham) me'yor darajasini buzish, ya'ni bu naqd likvidlilik bo'yicha muammolar borligini anglatadi;

- likvidlilikni boshqarish bo'yicha bankda nazorat yo'qligidan dalolat beruvchi asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarni yuqori darajasini buzishdir;

- «ortiqcha» likvidlilikka asoslangan, ya'ni ko'rsatkichlar bo'yicha me'yorlardan oshishi yoki ko'payishidir.

Uchinchi bosqichda, har bir ko'rsatkichni hosil bo'lgan tahlil jarayonida mustahkamligiga ishonch hosil qilish uchun ularni dinamik

holatida ko'rib o'tish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga likvidlilik ko'rsatkichlari dinamikasi holatiga qarama-qarshi bo'lgan bir qancha omillar bo'lib, bularga:

- bir yoki bir necha ko'rsatkichlar me'yorini bir necha marta buzish;
- bir yoki bir necha ko'rsatkichlar me'yorini buzish orqali likvidlilikni yomonlashuv tendentsiyasi;
- qo'shimcha ko'rsatkichlarni pasayish tendentsiyalari kiradi.

Nihoyat, *to'rtinchi bosqichda*, omilli tahlil o'tkazishdir. Asosiy likvidlilik me'yorlar holatini hosil qilish uchun omilli tahlil quyidagi turlik sxemada aks ettiriladi:

- oxirgi hisobot davrida mavjud ko'rsatkichlar haqiqiy darajasi va o'zgarish o'tgan davrga nisbatan solishtiriladi;
- hisobot davrida qo'llanilgan chora tadbirlar ta'siri o'rganiladi;
- mavjud o'zgarishlarga qo'llanilgan chora-tadbirlar ta'siri qay darajada ekanligi tahlil etiladi;
- bir yoki bir necha ko'rsatkichlar holati yomonlashuvida ko'rsatilgan tahlili bir necha davrda o'tkazilishi ko'zda tutiladi.

Keyingi davrda asosiy ko'rsatkichlar bo'lmish lahzalik, joriy, uzoq va umumiy likvidlilik koeffitsiyentlari tahlil etiladi.

Likvidlilikni baholash ko'rsatkichlarini tanlash quyidagilarga qarab o'zgarishi mumkin:

- 1) bank faoliyat ko'rsatayotgan bozorga qarab;
- 2) bankning turi va ixtisoslashganligiga qarab;
- 3) bank bajaradigan operatsiyalari turiga qarab.

Likvidlilik riskini boshqarish tamoyillari Bazal qo'mitasining me'yoriy-ustubiy ishlanmalarida batafsil keltiriladi¹. Unga ko'ra likvidlilikni quyidagi asosiy me'yorlarga asosan baholash tavsiya etiladi:

1. Lahzali likvidlilik me'yori.

LAM

LRM

(1.3.1)

CT

Yuqori likvidli aktivlar (LAM)ning talab qilib olinguncha majburiyat(CT)ga nisbati orqali aniqlanadi. Operatsion kun davomida bankning mijozlari majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko'rsatadi. Uning maqbul holati balama bo'yicha 15-20% tashkil etishi lozim.

2. Joriy likvidlilik me'yori.

LA

¹ www.bis.org. « Sound practices for the Managing Liquidity in Banking Organization »

$$LR_i = \frac{\quad}{L} \quad (1.3.2)$$

Likvid aktivlar (LA)ning majburiyatlar (L)ga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich ham balans ham alohida valyutalar bo'yicha hisoblanadi. U orqali bankning bir haftagacha muddat ichida mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko'rsatadi. Joriy likvidlik ko'rsatkichining me'yori 25-35%dir.

3. Qoplash me'yori.

$$SR = \frac{AL}{RL} \quad (1.3.3)$$

Muddatli aktivlarning (AL) (kredit, qimmatli qog'ozlar – investitsion portfel) muddatli passivlarga (PL) (depozitlar) nisbati orqali aniqlanadi. Optimal holat deb SR 40-45% ga teng bo'lganda hisoblanadi.

4. Tashqi moliyalashtirish darajasi.

$$EFL = \frac{FB_{net}}{CB} \quad (1.3.4)$$

Banklararo kredit resurslari bozorida netto-qarz qoldig'ining mijozlar bazasiga nisbati orqali aniqlanadi. U orqali bankning banklararo kredit resurslari bozoridagi holatini (donor, aktseptor) va undagi qarzlilar chegarasini belgilaydi. Me'yor chegarasi -30% donor uchun hamda +30% aktseptor uchun.

Aktivlarning tarkibiy jihatidan ham chet el amaliyotida ularni boshqarishda ma'lum talab me'yorlari ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlash uchun banklar har bir aktivlar guruhiga quyidagi o'rnatilgan me'yorlarni afzal ko'radilar:

AQSh da:

1) birinchi darajali zaxiralar 5-10 % dan kam bo'lmagan holatda;

2) birinchi va ikkinchi darajali zaxiralar 10-15 % dan kam

bo'lmagan holatda;

3) ssudalar jami aktivlar ichida 65 % dan kam bo'lmagan holatda;

Yaponiyada:

– likvid aktivlar (birinchi va ikkinchi darajali zahiralar) depozitlarga nisbatan - 30%;

Frantsiyada:

joriy likvid aktivlar (muddati 30 kun) talab qilib olinguncha mablag'larga nisbatan yaqin 30-kun ichidagi so'ndirish muddatiga-100 % ;

1) uzoq muddatli aktivlar (4-yildan ortiq) uzoq muddatli majburiyatlarga (4-yildan ortiq) nisbatan-60%dan kam bo'lmashligi lozim.

Huzel Qo'mitasi tavsiyalaridan kelib chiqqan holda xorijiy davlatlarda qo'shimcha qo'yidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan asosiy likvidlilik me'yorlari¹

42-jadval

№	Ko'rsatkichlar tizimi	me'yorlar
	birlamchi zahiralar	5-10 % dan kam
	Depozitlar	bo'lmagan
	ikkilamchi zahiralar	10-15 % dan kam
	Depozitlar	bo'lmagan
	Berilgan kreditlar (banklararo birga)	60-80 %
	Jalb qilingan mablag'lar	
	Berilgan kreditlar(banklararo birga)	55-70 %
	Aktivlar	
	Olingan banklararo kredit	Max 40%
	Jalb qilingan mablag'lar	
	Doimiy bo'lmagan passivlar	10 % dan kam
	Aktivlar	
	Charovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar	25 % dan kam
	qimmatli qog'ozlar portfeli	

Ko'pchilik chet el davlatlarida bank likvidligini baholash bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari mavjud emas. Bank aktiv va passivlarini boshqarish chet davlatlarda likvidlilikni boshqarishning to'rt nazariyasiga asoslanadi. Ushbu to'rt nazariyani biz oldingi savollarimizda ko'rib chiqdik. Demak, banklar likvidligining ta'minlanishi ularning mijozlari ehtiyojini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, likvidlilikni boshqarishni muqaddam murvoliq holda tashkil etish zarur.

Xulosa tariqasida, tijorat banklari likvidligini ta'minlashning xorij tajribasini o'rganish orqali banklar likvidligini ta'minlashda har bir bank ko'p hollarda o'zi o'rganib, doimo tahlil qilib borishi va mustaqil qaror qabul qilishi zarurdir.

¹ Muallif tomonidan internet materiallari asosida tayyorlandi.

Tayanch soʻz va iboralar

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti, kapitalning yetarliligi, likvidlilik, likvidlilik koeffitsiyenti, toʻlovga layoqatlilik, muammoli kreditlar, tezkor likvidlilik koeffitsiyenti, mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti, risk, riskka tortilgan aktivlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Tijorat bankining likvidliliği deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat bankining toʻlovga layoqatliligi deganda nimani tushunasiz?
3. Banklarning likvidliliği xususidagi qaysi nazariyalani bilasiz?
4. Tijorat banklarining toʻlovga layoqatliligi qanday baholanadi?
5. Banklarning likvidliliği qanday baholanadi?
6. Tijorat banklari likvidliliğini boshqarishning qanday usullarini bilasiz?
7. Banklarning likvidliliği va toʻlovga qobilligiga qaysi omillar taʼsir koʻrsatadi?
8. Bazel qoʻmitasining tijorat banklarining likvidliliği va toʻlovga layoqatliligi boʻyicha qanday yangi talablarini bilasiz?

XXII BOB. TIJORAT BANKLARI RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

22.1. Bank riski tushunchasi va ularni keltirib chiqaruvchi omillar

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng o'tgan vaqt mobaynida bank sohasi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Tijorat banklarining faoliyati ushbu qisqa davrda kutilgandan ham unumliroq tarzda takomillashdi. Tijorat banklarining takomillashishiga sabab, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligidagi ishtiroki salmog'i oshib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'lemi kengayib borayotganidir. Bu borada banklarning o'rni barchaga ma'lum. Shu sababli hozirgi kunda banklar faoliyatida risklarni aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash hamda kamaytirish usullarini qo'llash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatida ko'zlangan natija – bu birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog'liq bo'ladi. Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p qirrali tushunchadir. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligiga erishish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish zarur.

Iqtisodiyot fanining nazariyasi va amaliyotida risk kategoriyasi juda yuqori o'rinni egallaydi, bu kategoriyani umumiy nazariyasini yaratish va uni amaliy natijalarga tatbiq etish fan olamida juda ko'p ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Hozirgi kungacha jahon olimlari tomonidan fan olamiga olib kirilgan juda ko'plab risk to'g'risidagi tushunchalar ularni yuzaga keltiruvchi omillarni oldini olish, baholash va boshqarish usullari hamuzgacha to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa riskni obyektiv va subyektiv jihatdan yanada to'liqroq o'rganishni, ularni funktsiyasini, qonun va qoidalarini yanada umumlashtirishni talab qiladi.

Riskni yuzaga kelish tarixini insonni paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin yoki inson hayotini ma'lum bir qismi deb izohlash mumkin. Rus olimi A.P. Algin riskni yuzaga kelishini shunday izohlab o'tadi, «Risk-

shunday umumlashgan hodisaki u inson tsivilizatsiya jarayonini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir»-deydi.¹ Bu jumla ko'pgina munozarali ko'rinsada, ammo haqiqatdan to'g'ri yondoshadigan bo'lsak hayotiy har tomonlama eng sodda yo'l bilan asoslab berilgan. Riskni nazariy jihatdan sodir bo'lish jarayonini aniqlash juda murakkab, chunki bu jarayon birinchidan, risk to'g'risidagi tushunchalar umumlashtirilayotgan bo'lsa, ikkinchidan riskni alohida o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar juda kam. Bu esa risk nazariyasini iqtisodiy nazariyani yoki boshqa fanlarni ma'lum bir qismi, bo'limi sifatida emas, balki alohida bir «risk-nazariyasi» fani sifatida o'qitish, o'rganish lozim bo'ladi.

Risklarni iqtisodiy kategoriya va subyekt sifatida yuzaga kelishida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Risk tushunchasi ko'p qirrali so'zlar bilan umumlashgan bo'lib, har bir jumla orqali yoritilgan ma'lum bir yo'nalishlarini belgilab bergan. Bu esa riskni talqin etishda turlicha izohlarni keltirib chiqargan. Riskni talqin qilish sinonimini yaratish har xil adabiyotlarda turlicha izohlanadi. «Risk» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib «suv ostidagi qoya» degan ma'noni bildiradi. Taniqli lug'atshunos S. N. Ojegovning rus tili lug'atida «risk» bu «muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid» degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskka «xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli» deb qaralgan. V.T. Sevruk «risk-bu hol, bir ishlab chiqaruvchining situativ holati» degan ta'rif bergan bo'lsa², rus olimi A.Olshanniy «risk-bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir» degan ta'rif beradi³. Professor V.M. Usoskin «Risk doimo noaniqlik birga kelib, oxirgi o'z navbatida oldindan ko'ra bilish yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi»⁴ deb izohlaydi. E.S. Stoyanova «Risk bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir»⁵ deb ta'rif keltiradi.

Risklarni mohiyatini ochib berishda ularni har xil sinonimlar bilan qo'llaganda asosiy ma'nosini tahlil etishda prof. Sh. 3. Abdullaevaning ishida «Risk xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokazolar deb ta'rif berish xalqaro amaliyotga mos kelmasligi va shu holatga yaqinlashgan holda «risk», «bank riski», «kredit riski» deb yuritsak

¹ Алгин А.П. Риск и это рол в общественной жизни, - М.Мисл 1989, 188 с.

² Севрук В.Т. Банковские риски М7 дело 1995, 3 б

³ Олшанный А.И. «Банковские кредитование» М, РДЛ 1997

⁴ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк М. 1994

⁵ Стоянова Э.С. Финансовый менеджмент. М. 1993

maqsadga muvofiq» deb hisoblanadi.¹ Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo'lishi mumkin.

Rus olimlaridan E. F. Jukova, S. I. Lukash va M. Glariya riskni xavf, yo'qotish deb izohlashga harakat qilganlar. M. Glariya risk tushunchasini yanada murakkab ko'rinishda asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha risk - bu investorni pul topishi yoki pulini yo'qotishi bilan bog'liq bo'lgan tushuncha deb izohlaydi. Ko'p olimlar riskni «yo'qotish ehtimolligi» deb aytib o'tadilar. Masalan, Ya. S. Melkumov riskni «moliyaviy operatsiyalardan yomon holatlarni kelib chiqish ehtimolligidir» deb ta'kidlasa, V. A. Chelnokov tijorat banklari operatsiyalari bilan bog'langan holda «aktivlar aylanmasining yo'qotish ehtimolligi» deb izohlaydi. G. B. Polyakova risk - bu ko'zlangan daromad, foydadan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishni ehtimolligidir deb- ta'kidlab o'tadi. Polina Mixaylova risk - bu kutilmagan holatlarda yuzaga keladigan hodisa bo'lib, ko'p hollarda aktivlarni baholashda yoki daromad foizini hisoblash holatlarida namoyon bo'lishi mumkin deb izohlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foydalilik bank faoliyatining eng muhim omiliga aylandi. Zamonaviy bank tizimini risksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bankning risksiz operatsiyalari yo'q, uning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lib, ularning darajasi operatsiya turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Foydaga intilish jarayonida esa banklar mablag'larni risklilikini kam e'tiborga olib, eng daromadli operatsiyalarga qo'ymoqdalar. Bozor munosabatlarini rivojlanishi ba'zi bir barqaror bo'lmagan holatlar bilan bog'liq, bu esa bank risklarining to'la yig'masini vujudga keltiradi. Risklarni yuzaga kelishi va tahlili uning manbalarini va sabablarini aniqlashdan boshlanadi. Shuningdek, bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar va manfaatlarni solishtirish zarur. Hisob-kitoblar bilan asoslanmagan risk (oqilona munosabatda oldi olinishi mumkin bo'lgan) doimo zarar ko'rish yoki xarajatlarga olib keladi.

Bank amaliyotida risk resurslarni bir qismini yo'qotish havfini, ma'lum bir moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlar qilinishini anglatadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotning etakchi bo'g'ini va iqtisodiy islohotlarning lokomotivi sifatida tan olinar ekan, tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bog'liq risklarni boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan ko'proq va chuqurroq o'rganishlari maqsadga muvofiq. Chunki tijorat banklari o'z faoliyati bilan bir tomondan, o'z aksiyadorlari oldida

¹ Abdullajeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. T.: «Moliya», 2002

javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida javobgarlikka egadirlar.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o'rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma'lumotlarning noto'g'riligi yoki etarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarning noto'g'riligi yoki to'liq emasligi;
- tarmoqlar yoki sohalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarining inobatga olinmaganligi;
- subyektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi mablag'lardan foydalanish bo'yicha bilim va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, bank riski – bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad olomaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdir, degan ta'rifni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda bank sohasida turli xil operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida bank o'ziga oluvchi risklarni boshqarish va ularni to'g'ri baholashning mohiyati oshib bormoqda.


Bank riskini boshqarish tizimi riskni yuzaga kelishini oldindan prognoz qilish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Tijorat banklari risklarni minimallashtirishga qaratilgan risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Buning uchun esa bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarni bilish lozim.

Bank faoliyatida risklarni boshqarish risk-meneditment deb ataladi. Bankning asosiy vazifasi bu:

- risk paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni ko'ra bilish;
- zarar ko'rilishi taxmin qilayotgan masshtablarni baholash;
- yo'qotishlarni qoplash uchun manbalarni aniqlash;

- riskni oldini olish yo'llarini qidirish;
- bankning riskli operatsiyalarining qo'shimcha daromad olishga ta'sirini aniqlash.



38-rasm. Risk va daromad o'rtasidagining o'zaro munosabat.

bu yerda,

E_r – rejalashtirilayotgan foyda miqdori, %;

E_0 – risk bo'lmashik holatida investor rejalashtirayotgan foyda miqdori.

Shuni esda tutish kerakki, hech qanday riskni butunlay bartaraf qilib bo'lmaydi. Shuningdek, bank faoliyati foiz stavkalari va valyuta kursini o'zgarishida «Risk-daromad» o'yini ko'zda tutadi. Shu bilan birgalikda bank qanchalik katta darajadagi riskni o'ziga olsa, foyda bank hisobga olgan darajada katta bo'lishi kerak. Bankning vazifasi – o'z operatsiyalarining riskliligi va foydaliligini o'zaro optimal nisbatiga erishish. Risk va daromad o'rtasidagi o'zaro munosabat yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan.

Agar risk etarli darajada katta bo'lsa, taxmin qilinayotgan daromad katta bo'lishi kerak. Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan egri chiziq e'tiborsizlik chizig'idir. Daromadlar miqdorini o'sishi qo'shimcha riskni qoplashi kerak degan dalilni ushbu chiziq xarakterlaydi. Egri chiziq risk darajasi nolga teng bo'lganda ham investor olishi mumkin bo'lgan foydaning miqdorini ko'rsatadi.

Bankning riskli operatsiyalarining qo'shimcha daromad olishga ta'sirini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$Q_d = BF \cdot \frac{N}{100},$$

bu yerda,

Q_d – riskli operatsiyalarni amalga oshirish hisobiga olingan qo‘shimcha daromad;

BF – balans foydasi;

N – bank bo‘yicha riskni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajasi, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = \frac{R_1 + R_2 + \dots + R_i + R_n}{K_r} EK_k,$$

bu yerda,

R_i – risk turlari, $i=(1,n)$; K_q – berilgan operatsiya bo‘yicha kredit qo‘yilmalarining summasi, K_r – mijozlarni tarkibi va kreditga layoqatligini korrektor koeffitsienti; E – riskni tashqi omillarining harakatini inobatga oladigan korrektor koeffitsient;

Riskni optimal darajasiga erishmaganligi sababli bankning yo‘qotishlari summasini ushbu ko‘rsatkich orqali hisoblash mumkin. Buning uchun bank bo‘yicha risk foizining kriterial darajaga keltirilgan foyda summasidan risk foizini haqiqiy darajaga keltirilgan foydani ayirish zarur:

$$D_y = \left(BF \cdot \frac{N_k}{100} \right) - \left(BF \cdot \frac{N_f}{100} \right),$$

D_y – bankning riskli operatsiyalarining qisqarishi tufayli ko‘rilgan yo‘qotishlar;

N_k – bank bo‘yicha risk foizini kriterial darajasi;

N_f – bank bo‘yicha risk foizini haqiqiy darajasi

Bank riskini optimal darajadagi kattaligiga erishish katta miqdordagi daromadni topishga olib keladi. Riskni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajasining oshishi bankning bankrotlik holatiga olib kelishi mumkin.

Agar yo‘qotishlarni iqtisodiy kategoriyasini ishlatadigan bo‘lsak, riskni miqdor (son) jihatdan tasvirlash mumkin. Risk ma‘lum bir operatsiyalarni amalga oshirishda ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar miqdorini ko‘rsatadi. Biroq ushbu yo‘qotishlarni etarli darajadagi aniqlikda baholash imkoniyati har doim ham bo‘lavermaydi.

Agar ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar miqdorini bank faoliyatini xarakterlovchi qandaydir bir ko‘rsatkichga, masalan, kredit resurslari miqdori, xarajatlar miqdori yoki aniq bir operatsiyani amalga oshirish

bilan bog'liq bank daromadlari miqdoriga tegishli desak, u holda riskning nisbiy ko'rinishdagi kattaligi hosil bo'ladi.

Bank risklarining barcha omillarini hisoblash mumkin emas, shuning uchun baholash aniq yo'l qo'yilganlar asosida aniqlanadi va natija unga yaqinlashtirilgan bo'ladi. Riskni baholash asosini aniq miqdordagi bank yo'qotishlari va ularni paydo bo'lish ehtimollari o'rtasidagi aloqadorlikni topish tashkil etadi. Ushbu aloqadorlik maxsus yasalgan, ma'lum bir darajadagi yo'qotishlarning paydo bo'lish ehtimollar egri chizig'ida o'z aksini topadi. Uni hosil qilish uchun turli xil usullar qo'llaniladi: statistik, ekspert baholash, hisob-tahlil usullar.

Statistik usulning mohiyati shundan iboratki, bunda yo'qotishlar paydo bo'lishining ehtimollarini hisoblash uchun ko'rilayotgan operatsiyalarning bank tomonidan amalga oshirish natijaviyligiga taaluqli barcha statistik ma'lumotlarni tahlil qilinadi. Bunda, hisoblarni aniqligini oshirish uchun nisbatan katta statistik tanlovdan foydalaniladi. Yo'qotishlarni paydo bo'lishning chastotasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P(x) = \frac{m}{n},$$

bu yerda m -aniq (konkret) darajadagi yo'qotishlar sodir bo'lishi holatlarining soni;

n – tanlovdagi holatlarning umumiy soni.

Ehtimol bu voqea sodir bo'lishi imkoniyati darajasining miqdoriy ko'rsatkichidir. Har qanday yo'qotishning ehtimoli doimo natijaning qat'iy bo'lgan aniq miqdori bilan solishtiriladi. Riskli holatlar ehtimollarni taqsimlash bilan xarakterlanadi va bu kutilayotgan daromaddan chetga chiqish ehtimolini aniqlash imkoniyatini beradi. Ehtimollarni taqsimlash qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelgan barcha holatlarni va ushbu taqsimotga mos ravishda ehtimollarning aniq qiymatini ifodalaydi.

Miqdor va foiz stavkalari kelgusi daromadlarni prognoz qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun kamida 3 variantda hisob-kitob qilish maqsadga muvofiqdir: ehtimoli eng katta bo'lgan – bazaviy, pessimistik – eng yomon, optimistik – eng yaxshi. Ushbu yondashuv variantlar tahlili deb nomlanadi. Voqealarning rivojlanish variantlari haqiqatda ko'p bo'lganligi uchun ma'lumotlarni ko'rsatish «qarorlar daraxti» ko'rinishida qabul qilingan. Ma'lum davrning yakuniy holati cho'qqiga (yuqori daraja) to'g'ri keladi, daraxtning shoxlari esa – voqea kelishini ehtimolidir. Har bir holatni rivojlanish ehtimoli daromadlarni o'zgarishiga olib kelishini ifodalaydi, bu esa riskli ekanligini ko'rsatadi.

22.2. Tijorat banklari faoliyatidagi risklarning turlari va tasnifi

Risklarni mohiyatini chuqur tushunib etish uchun avvalam bor, risk turlarini atroflicha o'rganib chiqish zarur. Chunki banklar o'z faoliyatida bir-biri bilan sodir bo'lishi vaqti, joylashishi, ichki yoki tashqi omillarning ta'sir qilish darajasiga va tahlil qilish usullari bilan farqlanuvchi turli xil risklarga duch keladilar. Bundan tashqari, risklarning barcha turlari o'zaro bog'liq holda banklar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Riskning bir turini o'zgarishi qolgan risklarning deyarli barchasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu holat risklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va riskning aniq bir turlarini tahlil qilish, ularni yuzaga kelish sabablarini aniqlashni qiyinlashtiradi.


Risklarni boshqarishni tashkil qilish samaradorligi ko'p jihatdan uning tasniflanishiga bog'liq. Risklarning tasniflanishi deyilganda risklarni aniq bir guruhlarga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ma'lum bir belgilar orqali bo'linishi tushuniladi. Risklarning ilmiy asoslangan tasniflanishi ularning umumiy tizimida har bir riskning o'rnini aniq ifodalashni ko'rsatadi. Risklarni tasniflash ularni boshqarish bo'yicha tegishli usullar va choralar qo'llanilishi imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda bank risklarini tahlil maqsadlari va boshqarish bo'yicha bir necha tasniflanishlari mavjud.

Banklar faoliyatidagi risklar ustidan ichki nazoratni tashkil qilish bo'yicha Rossiya Bankining ko'rsatmasida bank risklarining yigirmadan ortiq turlari mavjud. A. N. Azrilyan tahriri ostidagi katta iqtisodiy lug'at 9 ta o'ziga xos bank risklari bilan bir qatorda bank faoliyatiga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan risklarning 70 turini o'z ichiga olar ekan.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda bank risklari tizimini tashkil qilishda o'zbek va xorijiy tadqiqotchilarning asosiy hujjati bo'lib bank tizimini nazorat qilish bo'yicha Bazel Qo'mitasining Konsultativ xati hisoblanadi. Bazel Qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ro'yxatda risklarning 9 ta turi mavjud:

- 1) kredit riski; 2) operatsion risk; 3) huquqiy risk; 4) sug'urta riski;
- 5) transfert riski; 6) bozor riski; 7) foiz riski; 8) likvidlik risk;
- 9) reputatsiya riski.

Bu risklar shuningdek O'zbekiston Respublikasi banklari menejerlari uchun Pragma korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomada ham asosiylari hisoblanadi.



39-rasm. Risklarning turlari va tasniflanishi.

Chet ellik olimlar ham risklarni ta'riflashdan ko'ra ularning alohida olingan turlarini ko'rishni afzal hisoblaydilar.

Masalan, K. D. Valravenning fikricha G'arb mamlakatlari banklari ko'proq likvidlik riski, kredit, portfel, sanoat, mamlakat, valyuta, foiz riskiga duchor bo'ladilar. «Bankovskiy menejment» kitobi muallifi P. S. Rouz risklarga kengroq tushuncha berib, u bank riski oltita asosiy turdagi risk - kredit riski, foyda o'lolmaslik riski, likvidlik riski, bozor riski, foiz riski, to'lay olmaslik riskidan tashkil topgan bo'lib, bu risklar bank faoliyatida juda muhim, hal qiluvchi risklar hisoblanadi, deydi.

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan esa Sh.Z. Abdullaeva bank risklarini quyidagi belgilar bo'yicha tasniflagan:

- Paydo bo'lish sabablari va ta'sir qilish xarakteri bo'yicha;
- Namoyon bo'lish shakllari;
- Boshqarish imkoniyati qarab risklarni bo'lib chiqish;

–Hisoblash usuliga qarab risklarni ajratish;

–Yuzaga kelish va ta'sir vaqtiga qarab risklarni tasniflash va boshqalar.

Barcha bank risklarini vujudga kelish sohasi bo'yicha 2 turga ajratish mumkin: 1)Tashqi risklar.

2)Ichki risklar.

Tashqi risklar – bu bevosita bank faoliyati va uning mijozlari bilan bog'liq bo'lmagan risklardir. Ular makromuhit darajasida yuzaga keladi. Tashqi risklar darajasiga ko'pgina faktorlar – siyosiy, iqtisodiy, jo'g'rofiy, demografik va boshqalar ta'sir etadi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy–iqlim risklarini alohida ko'rsatish zarur.Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq. U urushlar, revolyutsiya, milliylashtirish, chetga to'lovlarni tahqiqlash, qarzlarni konsolidatsiyalash, embargo joriy qilish, importga litsenziyani bekor qilish, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlarni o'ziga jamlaydi. Tashqi risklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bank faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu bank oldida pul majburiyatlariga ega bo'lgan xo'jalik subyektlarining ushbu riskka aloqadorligi va munosabatiga bog'liq.

Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi. Tuzilish belgilariga ko'ra iqtisodiy risklar mulkiy, tarmoq va moliyaviy risklarga bo'linadi.

Mulkiy risklar o'g'rilik, diversiya, terrorchilik harakati, ekologik tanglik va boshqa sabablarga ko'ra mulkni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq.

Tarmoq risklari iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahvolning o'zgaruvchanligi tufayli yuzaga keladi.

Moliyaviy risklar pulning xarid quvvati o'zgarishi natijasida pul mablag'larini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq. Unga pulning qadrsizlanishi va deflyatsiya risklari kiradi.

Tabiiy–iqlim risklari tabiiy ofat va halokatlar, zilzila, suv toshqini, bo'ron, yong'in, epidemiya, odamlarning noo'rin faoliyati natijasida ekologik muvozanatning buzilishi va boshqalarga bog'liq.

Qamrab olish ko'lamiga ko'ra tashqi risklarni xalqaro, mamlakat, hudud va mintaqa risklariga ajratib ko'rsatish mumkin.

Xalqaro risk deganda global muammolar bilan bog'liq, Er sharining ma'lum bir mintaqalarini qamrab oluvchi riskni tushunish lozim.

Mamlakat riski, xalqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari, qo'shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari

sohasida bo'lgan risklar bilan bevosita bog'liq. Bu risklarning bo'lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy barqarorligiga bog'liq. Chet el kapitali ishtirokidagi banklar va Bosh litsenziyaga ega bo'lgan bank tashkilotlari uchun shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish dolzarb masaladir. Bank amaliyotida bank rahbariyati tomonidan chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto'g'ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo'l qo'yiladi. Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o'rnatishda, aynichsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog'liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash zarur.

Mamlakat riskini konvertirlangan risklar, transfert risklari yoki maratoriya to'lovlari bo'yicha risklarga turkumlash mumkin. Uni hisoblashda Germaniyaning BERI firmasi tomonidan ishlab chiqiladigan BERI indeksidan foydalanish mumkin. Ushbu indeks ekspertchilar guruhi faoliyatining natijalariga asosida ketirib chiqariladi. Ushbu ekspertchilar guruhi 1-yilda 4 marta turli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy holatlarini tahlil qiladilar. Ular 15 ta baholovchi kriteriyalar asosida tahlil qiladilar va har bir mamlakat bo'yicha ballar yig'iladi. Qaysi mamlakatda to'plangan ballar miqdori yuqori bo'lsa, u holda u davlatning mamlakat riski darajasi past bo'ladi.

Mamlakatlar riskini baholashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish lozim:

–iqtisodiyotning samaradorligi (bunda davlat bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'rtacha-yillik o'sishi hisoblanadi);

–siyosiy risk darajasi;

–jahon banki ma'lumotlari asosida olingan kreditlar miqdori, ular bo'yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib to'lash jarayoning amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar;

–bank kreditlarini olish imkoniyati;

–qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;

–uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;

–fors–major holatlarning yuzaga kelishi;

–mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;

–tashqi qarzlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar va boshqalar.

Ichki risklar – bu bankning o'zining, mijozlarining va kontragentlarining faoliyati natijasida yuzaga keladigan risklardir. Shuningdek,

alohida olingan bank faoliyatiga sezilarli ta'sir qiluvchi risklar ichki risklardir. Ichki risklar darajasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- bank rahbariyatining tadbirkorlik faolligi;
- bankning strategiya va taktikasini to'g'ri tanlashi va boshqalar.

Ichki risklar bank turlari, mijozlarining tarkibi va bank operatsiyalarining xususiyati bo'yicha guruhlarga bo'linadi.

Bankning turlari bilan bog'liq risklar. Tijorat banklarining 3 turi mavjud: tarmoq, ixtisoslashgan va universal. Universal tijorat banklari barcha turdagi bank xizmatlari(kredit, hisob-kitob, moliya)ni ko'rsatadilar va lizing faktoring, kliring, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar hamda boshqa operatsiyalarni amalga oshirayotganliklari sababli bank risklarining barcha turlariga uchraydilar.

Ixtisoslashgan tijorat banklari asosan qandaydir aniq xizmat turlarini ko'rsatish asosida faoliyat yuritadi. Ularga misol qilib, innovatsiya, investitsiya, ipoteka, depozit, kliring va boshqa banklarni keltirish mumkin. Boshqa banklar esa tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish) bo'yicha yoki funktsional (birja, sug'urta, trast, kommunal) belgilari bo'yicha faoliyat yurituvchi mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi. Shuning uchun ular uchraydigan risklar asosan, mijozlarining faoliyatida uchraydigan iqtisodiy risklarga bog'liq bo'ladi.

Biror tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi banklarda risk darajasiga aniq bir tarmoqning turi yoki xususiyati (yangi yoki eski, istiqbolli, strategik va boshqalar) ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi banklar hajmi bo'yicha mintaqaviy, mintaqalararo va transmilliy bo'lishi mumkin. Bularning har birida bank risklarining barcha turlari mavjud bo'ladi, lekin ularning paydo bo'lish chastotasining ehtimoli bankning turiga, ya'ni mulkchilik shakliga, qaysi tarmoqqa qarashligiga hamda hajmiga bog'liqdir.

Bank mijozlarining tarkibi bo'yicha risklar tarmoqli risk, mulkchilik shakli bo'yicha risk va hajmi bo'yicha risklarga ajratiladi.

Bank operatsiyalarining xususiyatiga ko'ra risklar:

- balans operatsiyalari riski;
- balansdan tashqari operatsiyalar riski;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklarga bo'linadi.

O'z navbatida balans operatsiyalari risklari bankning aktiv operatsiyalar riski, bankning passiv operatsiyalar riski aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq riskka bo'linadi.

Aktiv operatsiyalar riski foiz riskining darajasi bilan bog'liq bo'lib, banklar o'z faoliyatlari davomida ushbu risk turiga doimo duch keladilar. Foiz riskini boshqarish esa bevosita aktivlarni boshqarish (kredit va investitsiyalar) va passivlar (jalb qilingan mablag'lar)ni boshqarishdan tashkil topadi. Aktivlarni boshqarish bankning likvidlik darajasi, shuningdek baholi va bahosiz raqobatning darajasiga bog'liqdir. Passivlarni boshqarish esa ssuda berish uchun mablag'larning etarli bo'lishiga bog'liq. Aktiv va passivlar o'rtasidagi munosabatni boshqarish esa bankning daromadlilikiga va ishonchlilikiga bog'liq.

Aktiv operatsiyalar riskiga kredit, hisob-kitob, kassa, bozor, valyuta, lizing, faktoring risklari, moliyalash va investitsiyalar bilan bog'liq risklar kiradi. Kredit risklari mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi. Hisob-kitob risklari bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga asosan, hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi. Kassa risklari bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarining saqlanishi bilan bog'liq havfli holatlardan kelib chiqadi.

Bozor riski foiz stavkalarining barqaror emasligi oqibatida moliyaviy aktivlarning bozor qiymatining o'zgarishi sababli bankning aktiv operatsiyalaridan keluvchi daromadni o'zgarishi ehtimoli tufayli yuzaga keladi. Valyuta riski valyuta almashtirish kursining o'zgarishi natijasida chet el valyutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi.

Lizing operatsiyalari bo'yicha risk ijarachining bankdan olgan mulkidan foydalana olmasligi natijasida shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi.

Faktoring operatsiyalar bo'yicha risklar bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik sharoitida yuzaga keladi. Investitsiya risklari bank sotib olgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha oladigan daromadlarining tushib ketishi yoki uni oshirish bilan bog'liq risklardir.

Tijorat banklari faoliyatida portfel risklariga ham e'tibor berish lozim. Portfel risklari qimmatli qog'ozlarning alohida turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimoli bilan belgilanadi. Portfel risklari moliyaviy, likvidlik, tizimli va tizimsiz risklarga bo'linadi. Moliyaviy risklar quyidagicha aniqlanishi mumkin:

banklar, aksiyadorlik jamiyatlari, korxonalar, shuningdek qo'shma banklarning jalb qilingan mablag'lari qancha ko'p bo'lsa, ularning aksiyadorlari va ta'sischilari uchun risk shu darajada yuqori bo'ladi. Shu bilan birgalikda, jalb qilingan mablag'lar moliyalashtirishning muhim va foyda keltiruvchi manbalaridir, chunki qimmatli qog'ozlarni chiqarish ko'pincha sotishga nisbatan arzonroqqa tushadi. Qabul qilingan me'yorlarga asosan, qarzdor uchun o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat, ya'ni qarzdorlik koeffitsienti (K_k) 0.2–0.3 o'rtasida bo'lishi zarur. Moliyaviy riskni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$ROE=ROA*EM;$$

bu yerda, ROA – aktivlarning ishlatilishi, ya'ni bankning barcha aktivlarini ishlatishning samaradorlik darajasi;

ROE – aksiyadorlik kapitalidan foydalanishning samaradorlik darajasi;

EM – bankning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti va ushbu koeffitsient 0.5 dan katta bo'lishi kerak.

Likvidlik riski – bu moliyaviy aktivlarni tezkor ravishda naqdga aylantira olish qobiliyatidir. Markaziy birjalarda aksiyalari muomalada bo'lgan yirik va taniqli ishlab chiqaruvchi va banklar uchun ushbu turdagi riskka uchrash ehtimoli unchalik katta emas. Lekin yangi tashkil etilgan, kichik korxonalar esa ushbu turdagi riskka uchrash ehtimoli katta.

Tizimli risk aksiya bahosining o'zgarishiga, uning daromadligiga, obligatsiyalar bo'yicha joriy va kutilayotgan foiz hamda kutilayotgan o'lchamdagi dividend va qo'shimcha foyda hajmiga bog'liq bo'ladi. U foiz stavkalari o'zgarish riski, umumbozor narxlari o'zgarishi riskini va inflyatsiya riskini birlashtiradi.

Tizimsiz risk bozorning holatiga bog'liq bo'lmay aniq bir korxonalar, bankning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. U tarmoqli va moliyaviy bo'lishi mumkin. Portfel tizimsiz riskning darajasiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

– moliyaviy resurslarni qo'yish uchun maqobil sohalarning mavjudligi;

– tovar va fond bozorlarining kon'yukturasi va boshqalar.

Passiv operatsiyalar risklari asosan, aktiv operatsiyalarni resurslar bilan ta'minlashda kelib chiqadigan qiyin muammolar bilan bog'liq. Bank aynan passiv operatsiyalar yordamida bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qiladi. Tijorat banklarining passiv operatsiyalariga ustav kapitalini shakllantirish

(oshirish) uchun foydadan chegirmalar ajratish, boshqa yuridik shaxslardan olingan kreditlar va depozitlar kiradi.

Balansdan tashqari operatsiyalar risklari mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan kafolatlar bo'yicha to'lash zarurati yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq.

Aktiv va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga to'lovga layoqatsizlik (yoki bankrotlik) riski, balanslanmagan likvidlik riski, foiz riski, foyda ola bilmaslik riski, suiste'mol etishliklar riski va boshqalar kiradi.

Bankrotlik riski o'z kapitali va resurslarini yo'qotish oqibatida o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovga layoqatsiz bo'lish va faoliyatni to'xtatish bilan bog'liq riskdir.

Balanslanmagan likvidlik riski aktiv va passiv operatsiyalarining likvidlik risklarini o'z ichiga oladi. U esa bankning resurs sifatida jalb qilingan mablag'lari bilan kreditga bergan mablag'lari miqdori, muddati, foiz stavkasining darajasi bo'yicha mos kelmasligi sababli yuzaga keladi.

Foiz riski bozorda foiz stavkalarini o'zgarishi natijasida va marja kursining qiymati kutilmagan holatda nolga teng bo'lishi yoki manfiy qiymatga teng bo'lish holatida vujudga keladi.

Foyda ola bilmaslik riski bank resurslarini yo'qotishi, ulardan samarali foydalana olmasligini ifodalaydi.

Suiste'mol riski bank boshqaruvi yoki rahbariyati, xodimlari tomonidan bank faoliyati tamoyillariga zid moliyaviy qarorlar qabul qilinganda vujudga keladi.

Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklar operatsion, texnologik, innovatsiyalar, havfsizlik va risklarini o'z ichiga oladi.

Operatsion va texnologik risklarga bank texnika va texnologiyasida uchrab turadigan (uzilish) axborotlarni yo'qotishlar (kompyuter tizimidagi yo'qotishlar, hujjatlarni yo'qotish, kompyuter tamagirliqi, bank xodimlari faoliyatida xatolarga yo'l qo'yish va boshqalar) kiradi.

Innovatsiya riski ma'lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo'llangan mablag'lari mo'ljallangan samarani bermasa, yoki yo'qotilgan bo'lsa yuzaga keladi.

Bank havfsizligi riski – bu bank binosi, unda mavjud axborot, kompyuter tarmoqlarining havfsizligi bilan belgilanadi.

Bank risklari mijozlarining tarkibiga ko'ra mijozlarining sohaviy tegishliligiga, mijozlar yuridik shaxslarning yaxlitlangan darajasiga va mijozlarning u yoki bu mulkchilik shakliga tegishliligiga bog'liq.

Riskning asosiy turlari bir–biri bilan bog‘liq va amaliyotda ularni ajratish ko‘pincha murakkabdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatida risklarni o‘rganish, tahlil qilish, baholash yuzasidan zarur axborotni juda katta hajmda qabul qilib ularni matematik modellashtirish, omilli tahlil qilish va optimal qaror qabul qilish borasida kelajakda quyidagilarga e‘tibor kuchaytirilsa ahamiyatga molik bo‘ladi:

- Bank risklarining retrospektiv tahlilida xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish (ayniqsa, bu borada Evropa davlatlari juda katta tajribaga ega);

- Joriy operatsiyalarda bank risklarini to‘g‘ri baholovchi, axborot texnologiyalari va valyuta pul-kredit munosabatlari sohasini mukammal tushunuvchi salohiyatli kadrlar malakasini oshirish hamda ularni samarali ishlashiga e‘tibor berish;

- Perspektiv risklarni baholashda zamonaviy bank tizimi uslubiyotlariga tayanish.

22.3. Tijorat banklari faoliyatida risklarni baholash tartibi


Banklar faoliyati davomida amalga oshiradigan operatsiyalarining riskliligining miqdorini aniqlash muhim jarag‘n hisoblanadi. Bu nafaqat banklarga, balki boshqa moliyaviy tashkilotlarga ham tegishli. Asosiysi, oldindan mavjud risklarni baholash bilan cheklanib qolmaslik kerak, yangi bozorlarda olib borilayotgan bank operatsiyalarining riskliligini aniqlash va baholash zarur. Ushbu vazifa marketing tadqiqotlari bilan uzviy bog‘liq. Riskni baholash tizimi risklarning 3 ta tarkibiy qismini baholashi lozim, bular: risk hajmi, amalda bo‘lish muddati va sodir bo‘lish ehtimoli.

Tijorat banki tomonidan berilan kredit to‘g‘risidagi misolga qaytamiz: risklarni aniqlash uchun dastlab kredit reytinglarini belgilash lozim. Kreditning konkret turlari bo‘yicha risklilik darajalarini baholagandan keyin kreditga foiz belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, bank o‘z bo‘yniga olgan risk uchun kompensatsiya miqdorini belgilaydi. Bu risklarni aniqlashga *individual yondashuv* deyiladi. Kredit portfeli doirasida risklarni baholash usulini har bir sohaga o‘ziga xos reyting tizimini shakllantirish orqali takomillashtirish mumkin.

Risklarni baholash tizimining murakkabligi darajasi bank faoliyat yuritayotgan sohaning risklilik darajasi bilan mos bo‘lishi lozim. Agar bank xarajatlarini tejash maqsadida risklarni baholash tizimini tashkil

qilmagan bo'lsa, uning risklardan ko'radigan zararlari tejalgan pullardan bir necha baravar ko'payishi mumkin.

Yuqori risklilik darajasiga ega bo'lgan sohalarda samarali faoliyat yuritish uchun tijorat banki qaror qabul qilishning alohida mexanizmini ishlab chiqishi lozim. Ushbu mexanizm qaysi sohada bank o'z bo'yniga qanchalik riskni olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatib berishi va kutilayotgan daromadlar risklarni qoplay oladimi, shu kabi masalalarni hal qila olishi lozim. Ushbu mexanizm asosida riskni kamaytirish chora tadbirlari ishlab chiqiladi. Demak, yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun tijorat banklari tomonidan shunday risklarni boshqarish tizimi yaratilishi kerakki, ushbu tizim orqali bank risklarni aniqlash, baholash, boshqarish va kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lsin. Risklarni boshqarish tizimi bir qator elementlardan tashkil topadi, ular quyidagi chizmada keltirib o'tilgan.



40-rasm. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi.

Risklarni boshqarish tizimi konkret chora tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, quyidagi jadvalda kredit bo'limi darajasida risklarni boshqarish elementlari keltirilgan.

Kredit risklarini boshqarish elementlari

43-jadval

Risklarning darajalari	Riskning aniqlanishi	Risk nazorati	Monitoring
1-Daraja Kredit siyosati	Kredit tahlili	Yuridik ekspertiza	Kredit portfeli nazorati
2-Daraja Kreditning rejalashtirilishi	Kredit shartnomasini ko'rib chiqish va tasdiqlash (avtorizatsiya)	Kreditning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish.	Hisobotlar nazorati
3-Daraja Kredit narxini shakllantirish	Ichki kredit reytingi	Kreditlarni kuzatib borish va ularga rezerv shakllantirish	Ichki (kredit) auditini o'tkazish

Risk mavjud ekan, kelajakdagi voqealarining rivoji to'g'risida bir nechta muqobil stsenariylar mavjud bo'ladi. Ushbu stsenariylar tahlili risklarni baholash va boshqarishda muhim instrument bo'lib hisoblanadi.

Stsenariylar tahlili risk mavjud bo'ladigan vaqt intervalini tahliliga, daromad va xarajatlarga riskning ta'siri tahlilini, ijobiy va salbiy stsenariylarning amalga oshish ehtimolining tahlilini o'z ichiga oladi.

22.4. Bank risklarini boshqarish usullari

Risklarni nazorat qilish funksiyasi bankning mutaxassislari, boshqaruvchilari, bo'lim boshliqlari va ta'sisчилari bo'yniga yuklatiladi. Umuman olganda risklarni boshqarish funksiyasini amalga oshirish bank bo'limlarining har kunlik natijalarida aks etadi. Banklarning ushbu risklarga tortilganlik darajasi ishlarning to'g'ri tashkil qilinishi darajasiga, kadrlarni tanlash usuliga, bank bo'limlarining operativligiga bog'liq bo'ladi.

Risklarni samarali va to'g'ri boshqarish uchun ishchilarga vazifalarni to'g'ri taqsimlash, har bir ishchiga aniq yo'riqnomalarni berish va axborot uzatish kanallarini takomillashtirish lozim. Risklarni to'g'ri boshqarish uchun uni har tomonlama tahlil qilish lozim. Bankning

har bir bo'limida riskning har xil xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Risklarni boshqarishga tayinlangan mas'ul mutaxassislar ushbu ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qila olishlari lozim.

Risklar monitoringi deganda risklarni doimiy ravishda mustaqil baholash va boshqarish tizimi tushuniladi. Monitoring hisobotlar yuritish, ichki va tashqi audit qilish va kreditlarni tahlil qilish orqali olib boriladi. Monitoring talablari doirasida tuziladigan hisobotlar menejerlarga kerakli konkret ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar bankning joriy faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi va ularning asosida bankning bir bo'limiga yoki butun bankka tegishli bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

Misol tariqasida kredit monitoringini olib boruvchi mutaxassisning qo'liga kelib tushadigan ma'lumotlarni keltirish mumkin:

- Kredit operatsiyasining nomlanishi;
- Riskning umumiy hajmi;
- Mavjud ta'minotni hisobga olgandagi riskning hajmi;
- Operatsiyani xarakterlovchi alohida momentlar to'g'risida ma'lumotlar;

- Sof risk hajmi;
- Mijozning kredit tarixi;
- Mijozning hozirgi reytingi;
- Mijozning joriy faoliyati, moliyaviy ahvolidagi tahlili;
- Mijozning qarzni qaytara olishining tahlili;
- Berilayotgan kredit bo'yicha mijozga zimmasiga tushadigan jami og'irlik;

- Boshqa qo'shimcha izohlar.

Bankning monitoring uchun yo'naltirilgan mablag'lari samarali ishlatilishi uchun, birinchi navbatda, risklarni tasniflab chiqish lozim. Odatda chuqur tahlil qilingan monitoring hisobotida risklarning asosiy turlari aks ettiriladi. Hisobot tuzishda risklar orasiga aniq limitlar qo'yish orqali ikkinchi darajali risklarni ajratib olish zarur. Bu, ikkinchi darajali risklar nazoratdan chetga chiqarib tashlanadi degani emas, ular ustidan ta'lanma usulda nazorat o'rnatiladi. Ular xavf-xatarli hollarda, ya'ni ushbu risklar kuchayadigan vaqtlarda nazorat ostiga olinadi. Masalan, kreditni qaytarish grafigi buzilganda yoki limit va me'yorlar buzilganda ushbu risklar qayta ko'rib chiqiladi.

Risklarning bank daromadiga, sof foizli daromadlari va xususiy kapitalga ta'sirini baholashning ko'plab usullari mavjud. Biz ularning

orasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishlatiladigan risklarni boshqarishning asosiy kontseptsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, risklarni boshqarish amaliyoti hali to'lig'icha shakllanib bo'lmadi, bu hali davom qilayotgan jarag'n hisoblanadi. Hamma banklar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan metod hali yaratilmagan va iqtisodchilar fikriga ko'ra, yaratilishi mumkin emas. Buning asosiy sababi, har bir bank o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va o'zi joylashgan mintaqa bozorlariga, mutaxassislarining bilimlari va tajribalariga, shakllantirgan reputatsiyasiga va olib boradigan operatsiyalariga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Ishonchli faoliyat yuritayotgan konkret bir bank tomonidan ishlab chiqilgan risklarni boshqarish modelini butunicha olib uni boshqa bank amaliyotiga tadbiiq etish bankka salbiy ta'sir etishi mumkin. Chunki, bir bank uchun boshqariladi, deb baholangan risklar ikkinchi bank tomonidan boshqarila olmasligi mumkin.

Bazel II talablari kapitalni banklar faoliyatida yuzaga keladigan risk turlarining kengaytirilgan shkalasi bo'yicha hisob-kitob qilishni taklif etadi, ya'ni Bazel qo'mitasi taklif qilingan risk turlarini uchta yirik toifaga ajratdi: kredit riski, bozor riski va operatsion riskga. Bundan tashqari nazorat funktsiyalari risklarni tijorat banklari tomonidan ichki uslub asosida nazorat qilish, ma'lumotlarning shaffofligi va bozor intizomi nuqtai nazaridan o'zgartirildi.

Bazel qo'mitasi tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan kredit risklarini qarzdor yoki kontragent tomonidan o'z majburiyatlarini kelishilgan shartlarga muvofiq bajara olmaslik extimoli deb baholaydi. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyati qarzdorning moliyaviy xolatiga bog'liq. Mijozning kredit qobiliyatini va kelajakda kredit bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshirish qobiliyatini baholash uchun bank mijozning ahvoli, xususan oylik pul oqimlari (daromad va xarajatlari) to'g'risida axborotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Shuni hisobga olgan holda, banklarda kredit risklari bo'yicha aniq ma'lumotlarning etarli emasligi bank aktivlari sifatini baholashda qiyinchilik tug'diradi, bu esa kutiladigan zararlarga qarshi zaxiralarni shakllantirish uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj uyg'otadi. Bank kapitali esa ko'zda tutilmagan zararlar uchun himoya vazifasini o'taydi.

Kredit riskini miqdoriy jihatdan aniqlash maqsadida kreditlar tasniflanadi va ularning har biri bo'yicha zaxira tashkil qilish me'yorlari belgilanadi. Xalqaro Bazel qo'mitasining kreditlarni tasniflash bo'yicha

qilingan me'yorlari asosida faoliyat yurituvchi evrozona mamlakatlarning tijorat banklari kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zakira ajratmalarini tashkil qilish uchun kreditlarni uch guruh bo'yicha tasniflaydi. Kredit riskining darajasini aniqlash maqsadida kreditlarning o'zi ham riskka tortiladi. Xalqaro Bazel andozalari bo'yicha tijorat banklari tomonidan mijozlarga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng.

Bazel qo'mitasi operatsion riskni ichki jarayonlar va tizimlarning muvofiqligi, xodimlarning mas'uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar hisobiga yuzaga keladigan havf-xatar deb baxolaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, ahloqiy me'yorlarga, shartnomma majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining ko'zqatilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadi. Operatsion risk turlari quyidagilardan iborat:

➤ Ichki bo'hton va firibgarlik, ya'ni dillerlar tomonidan bank holati buyicha noto'g'ri ma'lumotlarning berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irliklar, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini soxtalashtirish va boshqalar;

➤ Tashqi bo'hton va firibgarlik, ya'ni hujjatlarni o'g'irlash va soxtalashtirish, kompyuter aloqalariga ruxsatsiz kirish, kredit olish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;

➤ Mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va xisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik;

➤ Moddiy aktivlarga zarar etkazish, ya'ni qo'poruvchilik, terrorizm, er qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar;

➤ Ishdagi, axborot va aloqa tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya'ni texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar;

➤ Hujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o'tkazish va jarayonlarni boshqarish, ya'ni ma'lumotlarni kiritishdagi xatoliklar, huquqiy hujjalarning etishmasligi, kredit ta'minotiga tegishli xatoliklar va boshqalar.

Operatsion risk bilan ishlash usullari va darajasi turli banklarda risk darajasi va turi, bank operatsiyalarining hajmi va turiga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Ammo Bazel-II talablarida kapitalga nisbatan talabni aniqlashda operatsion risklarni o'lchashning 3 ta usuli: baza ko'rsatkichlari asosida yondashuv, standartlashgan yondashuv, rivojlantirilgan yondashuvni keltiradi.

Bazel ko'rsatkichlari asosida yondashuvda bank operatsion risklarni qoplash uchun oxirgi uch-yilda o'rtacha-yillik yalpi ijobiy foydaning 15 foiziga teng kapitalni ko'zda tutishi lozim. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{BIA} = [\sum (GI_{1...n} \cdot \alpha)] / n$$

bu yerda,

K_{BIA} - kapitalga qo'yilgan talab;

GI - oxirgi uch-yilda urtacha-yillik yalpi ijobiy foyda;

n --yillar miqdori (uch-yil);

α - 15% bu kurstakich Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan.

Standartlashgan yondashuvda butun bank faoliyati 8 ta yo'nalishga ajratiladi: korporativ moliya, oldi-sotdi va sotish, chakana bank xizmatlari, bankning tijorat operatsiyalari, to'lovlar va xisob-kitoblar, agent xizmatlari, aktivlarni boshqarish va chakana brokerlik operatsiyalari. Har bir yo'nalish bo'yicha yalpi foyda mazkur yo'nalish uchun foiz me'yorini aniqlashda asos bo'ladi. Ushbu foiz me'yori risklarning har bir yo'nalish bo'yicha darajasi va turiga bog'liq holda 12 dan 18 foizgacha tebranadi.

Rivojlantirilgan yondashuv operatsion riskni qoplash uchun kerak bo'ladigan kapital miqdorini hisoblashning xususiy usuliga asoslanadi. Ushbu usulni ma'lum bir sifat va miqdor andozalariga javob beradigan banklar ishlatishi mumkin. Bank rahbariyati Markaziy bankni operatsion riskni baholash tizimi, ma'lumotlar jamlash sifati, nazorat mexanizmini shakllantirilganligiga ishonirishi lozim.

Operatsion riskni to'g'ri boshqarish uchun tijorat bankida tegishli kunlik nazorat va ma'lumotlarni jamlash jarayoni tashkil etilgan bo'lishi darkor. Markaziy bank tijorat banklaridan ular darajasiga, risklar miqdori va turiga, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligiga mos operatsion risklarni baholash va boshqarish mexanizmini yaratilishini talab qilishga haqlidir. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan operatsion risklar bo'yicha qoida va talablarga rioya etilishi yuzasidan doimiy va alohida nazoratni olib borishi lozim.

Bank nazorati bo'yicha Bazel Qo'mitasi foiz risklarining manbalarini to'rtga bo'ladi:

- baholardagi o'zgarish. Baholarning o'zgarishini natijasida yuzaga keladigan xatar asosan bank aktiv va passivlarining qaytish muddati va baholari o'rtasidagi farq natijasida paydo bo'ladi. Bu asosan mablag'larning o'zgarish foiz darajalarida jalb qilinib, o'zgaruvchan foiz darajalarda joylashtirilishi natijasida paydo bo'ladi va aksincha. Ko'pgina

holda banklar tomonidan daromadlik darajasini orttirish uchun o'z umumiy foiz darajasi bilan uzoq muddatga berilgan kreditlar qisqa muddatli mablag'lar bilan moliyalashtiriladi. Bunday holda, bank o'z likvidligini doimiy ta'minlab turishi uchun aktiv ish olib borishi lozim. Ammo mablag'lar bo'yicha foiz darajalari o'zgaradigan bo'lsa, bu oxir oqibatda bank daromadlik darajasining kamayishiga olib keladi;

- daromadlilik darajasidagi o'zgarishlar. Bu asosan bank aktivlari yoki passivlari tarkibida foiz darajalarining o'zgarishi natijasida yuzaga keltishi mumkin. Jumladan, qisqa muddatli majburiyatlar yoki qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkalari ikki foizga, uzoq muddatli majburiyatlar yoki qo'yilmalar bo'yicha foiz darajalari bir foizga o'zgarishi bank daromadida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi;

- asosiy xatar. Bunda turli xil moliyaviy instrumentlar o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlarning buzilishi natijasida bank kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz darajalari nisbatining o'zgarish xataridir. Ko'pincha banklar tomonidan uzoq muddatli kreditlar qisqa muddatli depozitlar bilan moliyalashtiriladi. Ammo kreditlar qayta moliyalash darajasiga asosan qayta baholansa, depozitlar Davlat Qisqa Muddatli Obligatsiyalarining (DQMO) daromadlilik darajasiga asosan qayta baholanadi. Bunday holda qayta moliyalash darajasi bilan DQMOlarining daromadlilik darajasi o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlarning buzilishi to'g'ridan-to'g'ri bank marjasiga ta'sir qiladi;

- opsionga bog'liq xatar. Opsiон mazkur operatsiyada qatnashuvchiga moliyaviy instrument yoki kontrakt bo'yicha sotish, sotib olish yoki pul mablag'lari harakatini qandaydir o'zgarish qilish bo'yicha majburiyat emas, balki huquq beradi.

Tijorat banklari kapitalining etarlicligini aniqlashda riskli aktivlar miqdorining amaliyotga joriy etilishi birinchi marta 1988-yilda Xalqaro Bazel Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqildi va 1993-yildan boshlab amaliyotga joriy etildi. Unga ko'ra, tijorat banklarining aktivlari to'rtta, ya'ni: 0 foiz, 20 foiz, 50 foiz va 100 foiz risk darajalariga ajratiladi. Tijorat banklari umumiy kapitalining etarlilik darajasi esa 0,04 miqdorida belgilangan. Shuni xarakterliki, respublikamiz Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan riskli bank aktivlari uslubiyoti bilan xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot o'rtasida jiddiy farqlar mavjud emas. Masalan, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyotda banklarning risksiz, ya'ni 0 foiz riskka ega bo'lgan aktivlari tarkibiga 6 ta aktiv kiritilgan:

A) bankning aylanma kassasidagi naqd pullar;

B) bankning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvarag'ining qoldig'i;

V) hukumat va MB tomonidan 90 kungacha chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

G) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlari;

D) Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablar va bu davlatlarning naqd valyutalari bilan ta'minlangan aktivlar;

E) Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar.

Hozirgi kunda Bazel Qo'mitasi valyuta risklariga aloqasi bo'lgan talablarning majmusini ishlab chiqmoqda va ushbu majmua turli davlatlarda risklarni boshqarishga bo'lgan yondashuvni yaqinlashtirishiga imkon beradi. Ushbu hujjatning varianti «Kapital to'g'risidagi Kelishuvning muddatli valyuta operatsiyalari bo'yicha ko'ptomonlama netting da qo'llanilishi» nomi bilan nashr etildi.

«Bazel-3»ga muvofiq, tijorat banklari likvidliligini tartibga solish bo'yicha 2 ta koeffitsiyentni (liquidity coverage ratio, net stable funding ratio) joriy etish ko'zda tutilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida joriy likvidlilik koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio (LCR)) 2019-yil 1-yanvardan boshlab joriy qilinadi. Bunda joriy likvidlilik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$LCR = (\text{yuqori sifatli likvid aktivlar zaxirasi}) / (30 \text{ kun mobaynidagi sof pul chiqimlari}) \geq 100\%$

Ushbu koeffitsient banklarning yuqori sifatli likvid aktivlari zaxirasi yaqin 30 kun mobaynida kutilishi mumkin bo'lgan pul chiqimlari – majburiyatlarni qay darajada qoplay olishini anglatib, uning me'yoriy darajasi minimum 100 foiz etib belgilanadi.

Bu o'rinda yuqori sifatli likvid aktivlarga quyidagi xususiyatlar xosdir:

1) fundamental xususiyatlar: a) kredit va bozor riskining pastligi; b) qiymatni baholashning aniqligi va soddaligi; v) riskli aktivlar bilan kuchsiz korrelyatsiyaga egaligi; g) rivojlangan va taniqli birjalar listingidan joy olishi.

2) bozor xususiyatlari: a) faol va yuqori aylanmali bozorga ega bo'lishi; b) market-maykerlarning mavjudligi; v) bozor kontsentratsiyasining pastligi; g) sifat tomon «uchish» (flight to quality) tendensiyasi

(tarkib, bozorlar tizimli inqiroz sharoitida muayyan aktivlardagina o'sish tendentsiyalarini saqlab qoladi).

Ikkinchi koeffitsient sof barqaror manbalar koeffitsienti (The Net Stable Funding Ratio (NSFR)) deb nomlanib, 2018-yil 1 yanvardan boshlab joriy etiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$NSFR = (\text{barqaror manbalarning mavjud miqdori}) / (\text{barqaror manbalarning talab qilingan miqdori}) \geq 100\%$

Bunda barqaror manbalar tijorat bankining kapitali, 1-yil va undan ortiq muddatda so'ndiriladigan qarz majburiyatlari, bank depozit bazasi-ning barqaror qismi kabilardan tashkil topadi. Barqaror manbalarning talab qilingan miqdori bank aktivlarini aktivlar turiga qarab belgilangan omilga(faktor) ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bunda faktor bank aktivlari turiga qarab quyidagicha belgilanadi:

1) naqd pul, pul bozori instrumentlari, bir-yildan kam muddatda so'ndiriladigan qimmatli qog'ozlar, boshqa moliyaviy muassasalarga berilgan kreditlarning 1-yildan kam muddatda so'ndiriladigan qismiga 0%;

2) hukumat, markaziy banklar, AA va undan ortiq reytinga ega bo'lgan ko'p tomonlama taraqqiyot banklarining 1-yil va undan ortiq muddatda so'ndiriladigan qimmatli qog'ozlariga 5%;

3) 1-yil va undan ortiq muddatda so'ndiriladigan kamida AA reytingiga ega bo'lgan korporativ obligatsiyalarga 20%;

4) yirik birjalar va kapital bozori indekslariga kiritilgan aksiyalar va likvid bozorlarda faol savdo qilinadigan, 1-yil va undan ortiq muddatga ega va AA- dan A-gacha reytinga ega bo'lgan korporativ obligatsiyalar, korporativ mijozlarga berilgan kreditlarning 1-yildan kam muddatda so'ndiriladigan qismiga 50 %;

5) chakana mijozlarga beriladigan kreditlarning 1-yildan kam muddatda so'ndiriladigan qismiga 85%;

6) boshqa aktivlarga 100 %.

Umuman olganda, sof barqaror manbalar koeffitsiyenti bankning aktiv operatsiyalarini o'rta va uzoq muddatda moliyalashtirish imkoniyatini yanada oshirishni ko'zda tutadi.

Fikrimizcha, bank amaliyotiga yuqorida tak'kidlangan likvidlik koeffitsiyentlarining joriy etilishi bank faoliyatining barqarorligi va to'lov qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bank aktivlari tarkibida yuqori miqdordagi likvid mablag'larning saqlab turilishi bank faoliyatining rentabelligiga, daromadlilik darajasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Tayanch soʻz va iboralar

Bozor riski, valyuta riski, zaxira ajratmasi, kredit riski, likvidlilik riski, operatsion risk, ochiq valyuta pozitsiyasi, risk, siyosiy risk, transformatsiya riski, tasniflangan kreditlar, foiz riski.

Takrorlash uchun savollar

1. Risk soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?
2. Bank risklarining qanday turlari mavjud?
3. Kredit riski nima?
4. Kredit riskini baholash va boshqarishning qanday usullari mavjud?
5. Valyuta riski nima va uning qanday turlari mavjud?
6. Valyuta riskini boshqarishda qaysi usullardan foydalaniladi?
7. Foiz riski nima va uning darajasiin qanday qilib pasaytirish mumkin?
8. Operatsion risk nima va uni qanday qilib oʻlchash mumkin?
9. Likvidlilik riski va uni boshqarishning qanday usullari mavjud?
10. Bozor riski nima va uning darajasini qanday qilib aniqlash mumkin?

XXIII BOB. BANK REYTINGI VA UNI ANIQLASH USULLARI

23.1. Bank faoliyatini reyting baholash haqida tushuncha va uning ahamiyati

Har qanday faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektda nisbatan baho bevosita unga berilgan reyting natijalari yoki nazorat usullari orqali aniqlanadi.

XX asr oxirida har bir sohada o'z etakchilarini bilish istagi kuchaydi. Eng yaxshi korxonalar, eng yaxshi banklar, eng yaxshi mutaxassislar, eng rivojlangan tumanlar, viloyatlar, mamlakatlar va hokazolar.

O'z o'rnini aniqlab olishga harakat qilish biznesga ham xosdir. Bu sohada ham dastlabki o'rta eng yirik banklar, ishonchli orasida eng ishonchli sug'urta agentliklari, dunyoning yuzta eng yirik korxonasi va boshqalar aniqlanmoqda. Reyting bo'lmasa, na butun amaliy hayotni, na shaxsiy hayotni tasavvur qilish mumkin. Chunki «Kimga qarab ish tutish kerak, kim bilan bitim tuzsa bo'ladi, mening ishonchli sherigim kim?» degan muammolarga duch kelamiz.

Reyting - bu muayyan obyekt yoki subyekt to'g'risidagi natijaviy baho bo'lib, qaror qabul qilish bo'yicha g'oyat muhim vosita hisoblanadi. Chunki u, aytaylik, banklarga bankning taraqqiyot etish yo'nalishini, ishbiarmonlikning jonlanishini, demak, foyda olish imkoniyatlarini ham hech shubhasiz ko'rsatib beradi. Shuningdek, reyting tizimi:

➤ banklar faoliyatini xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yorlar asosida qiyosiy tahlil qilishda;

➤ mazkur bankning moliyaviy bozordagi o'rnini, nufuzini, shuningdek, muammoli banklarni aniqlashda;

➤ banklar taraqqiyotidagi mayli (tendentsiya)larni kuzatish, umumlashtiruvchi va xususiy ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishda;

➤ banklar samaradorligiga baho berishda juda ham zarur.

Barcha manfaatdor tomonlarning xohish va istaklarini inobatga oluvchi reyting usuli yordamida aholi omonatlari qararlarda ko'proq, qaysi banklarda qanday foizlarda joylashtirilyapti, depozitlar bo'yicha ahvol qanday, sertifikat va aksiyalarning sotib olinishi qay darajada kabi savollarga ham javob olish mumkin.

Xalqaro amaliyotda bank reytinglarini baholashning juda ko'p turlari mavjud. Ular ichida quyidagi ikki usul eng ko'p tarqalgan:

- miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash;
- sifat ko'rsatkichlari orqali baholash.

Miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash usuli asosan banklar faoliyatining rivojlanishini tahlil qilish maqsadida qo'llanilib, ularga quyidagilar kiradi:

- aktivlar summasi;
- depozitlar;
- kreditlar;
- o'z kapitalining summasi;
- daromad summasi.

Bu ko'rsatkichlar orqali banklar faoliyati ommalashtiriladi.

Baholashning ommaviy axborot vositalari yordamida ikkinchi turi **sifat ko'rsatkichlari** bo'lib, ular bankning ishonchlilik darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar turkumiga quyidagilar kiradi:

- kapitalning etarligi;
- aktivlar sifati;
- daromadlilik darajasi;
- bank likvidliligi.

Chet el mamlakatlarida bank ishonchliligi hukumat tomonidan nazorat qilinadi. Banklar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi nazoratda bo'ladi.

Jahon amaliyotida tijorat banklari faoliyatini baholashning bir necha tizimi mavjud. Masalan, qator mamlakatlarda riskni baholash va diagnostika uchun bir nechta tizimlardan foydalaniladi. Ularning ayrimlari mavjud muammolarni aniqlab bersa, ayrimlari joriy tavakkalchiliklar asosida kelgusida ehtimoliy yondoshuvlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Umuman bunday tizimlar quyidagi vazifalarni hal etadi:

- kredit tashkilotlarini inspeksiya va uzoqlashtirilgan monitoring doirasida bir tizimga keltirilgan tarzda rasman baholash;
- banklarni va muammolar mavjud bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni identifikatsiya qilish;
- nazorat idoralari resurslarini maqbul taqsimlash uchun tekshiruvlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- nazorat organining o'z vaqtida ish boshlashini uyushtirish.

Barcha mamlakatlarda bank nazorati va reytingining asosiy obykti kredit muassasalar, ya'ni tijorat banklari hisoblanadi. Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'ymay turib, davlat iqtisodiyotini yuksaltirish va uning barqarorligiga erishish mumkin emas. Bunda birinchi pog'onada Markaziy bank bo'lib, u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi. Ikkinchi pog'onani esa tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari tashkil etadi.

Har qanday davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni, yuqori bandlikni, barqaror ichki baholarning mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida erishiladi. Pul-kredit siyosati, byudjet siyosati, narx-navo siyosati, ish haqi va bandlik siyosati iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati inflyatsiyani jilovlash, ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning oldini olish, to'lov balansining muvozanatlashgan holatini saqlab turish, faol bozor kon'yunkturasini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan siyosatdir. Mazkur siyosat barcha davlatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda u Milliy bank deb ham yuritiladi, AQShda esa Federal Rezerv Tizimi (FRT) deb ataladi.

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Bank nazorati va ularga reyting berishni amalga oshirishning bir qator sabablari manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqadi va ular quyidagilardan iborat:

Birinchi, banklar mamlakat aholisining jamg'armasini asosiy saqlovchisi hisoblanadi. Banklar faoliyatini nazorat qilish mamlakat aholisini moddiy zarar ko'rishdan saqlash uchun tashkil etiladi. Chunki banklarning asosiy maqsadi daromad olishga qaratilgan bo'lib, bank daromadliligi uning likvidligi bilan teskari mutanosiblikda bo'lgan holda risk bilan to'g'ri mutanosiblikdadir. Bu esa, ba'zi hollarda banklarning investitsion va kredit portfelining yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bank mijozlari esa bank ro'para kelayotgan risk haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Demak, bankning riskni qabul qilish ehtimolining oshishi mamlakat aholisining jamg'armasining jiddiy zarar ko'rishiga olib keladi. Bankning salbiy faoliyatidan aholi jamg'armalarining faqat qisqa

muddatli yuqori likvidli depozitlarga qo'yilgan qismi zarar ko'rib qolmay, balki uzoq muddatli jamg'armasi masalan, pensiya fondiga ajratilgan ajratmalar ham jiddiy zarar ko'rishi mumkin. Bu esa, bank nazoratining naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bank kreditorlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo'llaniladi va yakunda reyting natijalari beriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar va individual shaxslar o'z faoliyatlarini rivojlantirish, turmush farovonliklarini oshirish uchun tijorat banklarining turli xil kreditlaridan foydalanishadi. Ushbu kreditlar keng omma uchun yo'naltirilishini hamda bank xizmatlarining narxini oshib ketmasligini ta'minlash maqsadida hukumat, bank nazoratining bilvosita vositasi bo'lgan banklar o'rtasidagi kuchli raqobatni ta'minlashi kerak.

Uchinchidan, hukumat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil qilishga harakat qiladi. Bu butun iqtisodiyotni inqirozga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, banklar bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni kreditlar uchun yo'naltirish bilan mamlakatdagi iqtisodiy faollikni oshirib, ishsizlik darajasini kamaytiradi, shu bilan birga, mamlakatdagi pul massasiga bilvosita tasir etib, inflyatsiyani keltirib chiqaradi. Shuning uchun hukumat samarali bank nazoratini tashkil etishga va reyting berishga harakat qiladi.

To'rtinchidan, bank aksiyadorlari va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati va reytingini berish tashkil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti to'liq qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlarini iqtisodchi olim V.Yu.Kuznets quyidagilardan iborat deb ta'kidlaydi¹:

- a) pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;
- b) iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorliklarga barham berish;
- v) banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;
- g) bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarishi, moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirilishi barqaror pul-kredit tizimini rivojlantirishga imkoniyat tug'diradi. Ayni vaqtda, kuchayib boruvchi raqobat, o'zgaruvchan baholar sharoitida bank risklari va nobarqarorlik kuchayadi. Yirik banklarning bir vaqtning o'zida bankrot bo'lishi milliy iqtisodiyotga jiddiy ziyon etkazadi, to'lov tizimining izdan chiqishiga, pul taklifining

¹ Кузнец Ю.В. Банковская дело. -М.: 2002. 360 б.

keskin qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, bank tizimini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish orqali umumiy nobarqarorlik darajasini pasaytirish mumkin.

Bank ishi paydo bo'lgan vaqtdan boshlab alohida banklarning bankrotligi, depozitlarni ommaviy tarzda banklardan qaytarib olinishi natijasida yuzaga keladigan nobarqarorliklar bank tizimini tartibga solish amaliyotining vujudga kelishini taqozo qildi. Bank faoliyatini tartibga solish orqali hukumat omonatchilarni va kreditorlarni moliyaviy yo'qotishlardan, iqtisodiyotni esa banklarning bankrotligi natijasida yuzaga keladigan og'ir oqibatlardan himoya qiladi.

O'zbekiston bank tizimini qayta qurish mustaqil davlatimiz iqtisodiy tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Xo'jalik mexanizmi bir maromda faoliyat yuritishi barqaror ishlaydigan banklar milliy tizimini taqozo etadi. Bugungi kunda iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sifat jihatidan butunlay yangi bank tizimi hamda bank nazoratini tub asosini yaratish va qurish uzluksiz davom ettirilmoqda.

Banklar ustidan nazorat qilish, ular faoliyatida muayyan cheklashlarni o'rnatish iqtisodiy erkinlikka zid bo'lgan holat sifatida qaralishi mumkin. Lekin jahonning ko'pgina rivojlangan davlatlarida banklar, shuningdek, boshqa moliya tashkilotlarining faoliyatlari ko'p darajada davlat tomonidan tartibga solinadi. Boshqacha qilib aytganda, hatto rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy sektor jiddiy ravishda tartibga solinar ekan, o'tish davrida buni to'la oqlash mumkin.

To'g'ri, bank faoliyatini tartibga solishda raqobatning rivojlanishiga xalaqit beradigan omilga aylanadigan chegarani belgilash oson emas. Shuning uchun, jahonda umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

U yoki bu bankning faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga majbur qilish uchun nazorat organi ixtiyorida ta'sir ko'rsatish choralarining muayyan to'plami bo'lishi kerak. Respublikamizdagi yangi bank qonunlarimizga ko'ra, turli vaziyatlarda foydalanish mumkin bo'lgan tabaqalashgan choralar majmui ko'zda tutilgan. Jumladan, iqtisodiy me'yorlarni o'zgartirish, majburiy rezerv fondini oshirish, ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishni taqiqlab qo'yish, hissadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatib qo'yish, bank ustidan vasiylik o'rnatish kabilardir. Eng so'nggi chora esa, ularga berilgan litsenziyalarni qaytarib olishdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, banklar tomonidan o'z kapitali etarlicligini ta'minlanishi, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorga rioya etilishi, iqtisodiyotning real sohasiga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari o'sishini va riskning oqilona diversifikatsiyalanishini ta'minlanishi, kreditlar berish shartlarini, shuningdek, bank kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilinishi bank nazoratining mohiyatini bildiradi.

23.2. Bank faoliyatini reyting baholash usullari va turlari

Tijorat banklari faoliyatini reyting baholash usullari va mezonlari rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida bir necha 100-yillardan beri shakllanib kelmoqda. Bunga eng asosiy sabab, birinchi navbatda tijorat banklari va investorlar o'rtasidagi bog'liqlik va aloqani mustahkamlash bo'lsa, ikkinchi navbatda bevosita qimmatli qog'ozlar bozoridagi spekulativ amaliyotda daromad keltiruvchi aktivlar emitentlarining haqiqiy moliyaviy barqarorlik holatini aniq aks ettiruvchi ko'rsatkichlar orqali barchani ogoh qilish imkoniyati bo'lgan.

Aytish joizki, reyting tizimi tijorat banklarida bevosita nazorat organlari bilan birgalikda tekshirilishi va bog'langan holda natijalar shakllantirilishi amaliyotda juda ko'p kuzatiladi. Xususan, 1-jadvalda turli rivojlangan mamlakatlarda foydalanilayotgan tizimlarni keltiramiz.

Erta diagnostika va riskni baholash tizimlari¹

44-jadval

Mamlakat	Nazorat organi	Tizim	Tizim joriy qilingan-yil	Tizim toifasi
Fransiya	Bank komissiyasi	ORAP	1997	Uzoqlashtirilgan monitoring (UM)
Germaniya	Federal nazorat organi	BAKIS	1997	Moliya koeffitsientlari va guruhlab tahlil qilish tizimi
Italiya	Italiya banki	PATROL	1933	UM, baholashning reyting tizimi

¹ Sh.Abdullaeva. Xalqaro bank nazorati. Bozor, pul, kredit. Jurnal 2001, 12-son, 14-bet.

Niderlandiya	Niderlandiya banki	RAST	1999	Riskni baholashning yalpi tizimi
Angliya	Moliya xizmatlari-ni boshqarish	RATE	1998	Riskni baholashning yalpi tizimi
AQSh	Barcha nazorat organlari	CAMELS	1978	Tekshiruv natijalari bo'yicha joyida reyting berish.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan bilish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar bank tizimida qo'llaniladigan reyting baholash usullari turlichadir. Xususan, Fransiyada ORAP reyting baholash tizimi 1997-yildan beri uzoqlashtirilgan, ya'ni masofaviy monitoring asosida o'tkazib kelinayotgan bo'lsa, Germaniyada xuddi shu-yildan boshlab BAKIS tizimi joriy etilgan va qo'llanilib kelinmoqda. Aytish joizki, Italiya bank tizimida qo'llanilayotgan PATROL tizimi 1933-yildan beri o'zining ishonchli natijalari bilan o'zgarmagan holda saqlanib kelmoqda. Niderlandiya va Angliyada mos ravishda RAST va RATE tizimlari qo'llaniladi. AQShda dunyoning ko'pchilik mamlakatlariga andoza sifatida qo'llaniladigan CAMELS tizimidan faol foydalaniladi.

Tizimlar quyidagi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi:

- ❖ tekshiruvlarning chuqurligi va davriyligi;
- ❖ hisobotlar xususiyati;
- ❖ boshqa haqqoniy manbalardan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi;
- ❖ o'tgan davrlardagi tanazzullar va bankrotlik holatlari haqidagi statistik axborotlar;
- ❖ texnik ta'minot darajasi;
- ❖ pul va inson omili.

Xalqaro hisob-kitoblar bankida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra diagnostika tizimini shakliy belgilariga qarab to'rtta keng toifalarga ajratish mumkin:

- banklarni baholashning reyting tizimi;
- moliyaviy koeffitsientlar va guruhlab tahlil qilish tizimlari;
- bank riskini baholashning yalpi tizimlari;
- statistik modellar.

Qator tizimlardan foydalanish, hech bo'lmasa, ulardan bittasining muammoli bankni aniqlab berishi ehtimolini oshiradi. Tizimlar sifatini

baholashda asosan kompyuter yordamida amalga oshiradilar. Ularning ayrimlarida ekspert xulosalar asosiy o'rin tutsa, boshqalarida kompyuter dasturlarining hisob-kitoblari ustunlik qiladi.

Reyting asosan, bankning-yillik faoliyati natijalari asosida beriladi. Banklarni baholash (audit)ning bugungi kunda xalqaro amaliyotda o'rin olgan usullaridan biri «CAMEL» reyting tizimidir.

1978-yilda AQSh banklaridan biri bo'lgan «Sheshunoff Bank» ning ekspertlari bank faoliyatini quyidagi 7 guruh omillar asosida tahlil qilish va baholash uslubini ishlab chiqdilar:

- bankning o'sishi (rivojlanishi);
- bankning kategoriyasi (bank faoliyatining ma'lum guruhga kirishi);
- risk darajasi yuqori bo'lgan sohalarga investitsiyalar;
- bankning ishonchliligi (uning «kapital» mavqei);
- muammoli kreditlar summasi va tendentsiyalari;
- daromad manbalari, boshqa banklarga nisbatan umumiy foydalilik;
- yirik «beqaror» majburiyatlar bo'yicha bankning darajasi.

Bank mutaxassislari ushbu omillarning barchasini muhim deb bilgan holda, ulardan oxirgi 5 tasi ga alohida e'tibor beradilar va ularning bosh harflari birlashtirilib «CAMEL» - omillar deb yuritila boshlandi.

Shunday qilib, banklar faoliyatini baholashning «CAMEL» reyting tizimiga asos solindi. Ushbu baholash uslubiga ko'ra omillar quyida keltirilgan jadvaldagidek tavsiflanadi.

Ushbu besh tarkibiy qism aniqlangach, bankning yakuniy umumiy reytingini belgilash imkoni tug'iladi.

«CAMEL» reyting tizimining asosiy jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:

❖ «CAMEL» tizimi, ko'proq masofaviy nazoratga asoslangan evropacha usuldan farqli o'laroq, joyida tekshirishga asoslangan bo'lganligi sababli, banklarni tashqi audit qilishda juda ham qo'l keladi.

❖ Mazkur tizim AQSh tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda qo'llaniladigan andozalashtirilgan reyting tizimi bo'lib, aniq va mukammal bo'lganligi sababli, foydalanish uchun qulaydir.

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanganligi, biznesda katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi tufayli «CAMELS» nazorat tizimiga, 1997-yildan boshlab «S» xarfi qo'shildi va «CAMELS» deb yoziladigan bo'ldi.

«CAMEL» omillari tavsifi¹

45-jadval

№	Omillar	Izoh
1	2	3
1.	«C» (Capital adequency)	• Kapitalning etariligi , ya'ni bankning o'z mijozlarini kafolatlash uchun zarur bo'lgan xususiy sarmoyasi miqdori. Etarli sarmoyaga ega bo'lgan banklar jiddiy zarar ko'rgan taqdirda ham mijozlar o'z pullaridan ajralib qolishlariga yo'l qo'ymaydi.
2.	«A» (Asset quality)	• Aktivlar sifati . Bu omil aktivlarning darajasini va balansdan tashqari moddalarni, shuningdek gumonli aktivlar va zararlarni tasniflash asosida muammoli qarzlarning moliyaviy ta'sirini aniqlaydi.
3.	«M» (Management quality)	• Bankni boshqaruv sifati . Bu ko'rsatkichni tahlil qilish yordamida ish samaradorligi, bank siyosati, qonun va yo'riqnomalarga amal qilish darajasi baholanadi. Va shu asosda bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakllantirilganligi, uning yozma ravishda belgilangan tartibda hujjatlashtirilganligi va unga rioya qilinganligi aniqlanadi. Shu sababli menejment sifatini tahlil etish eng oxirida amalga oshiriladi.
4.	«E» (Earning record)	• Bankning daromadlilik darajasi . Bu bankning kelgusida o'sishi uchun etarli bo'lishi nuqtai nazaridan uning daromadi yoki foydasini tavsiflovchi omil- ko'rsatkichdir.
5.	«L» (Liquidity)	• Bankning likvidlilik darajasi . Bu bankning oddiy va kutilmagan majburiyatlarni yo'qotishlarsiz bajaraolish uchun zarur darajada mablag' bilan ta'minlanganligini tavsiflovchi ko'rsatkichdir.

«S» (Sensitive of market risk) xarfi - bozor xatarligiga sezgirlik mezonini bildirib, bozor munosabatlari sharoitida ayrim paytlarda uchrab turadigan «bo'ron»larga banklarning sezgirligini baxolaydi. Umuman olganda bu reyting tizimi, tijorat banklari faoliyat natijalarini, mavjud aktivlardan foydalanish samaradorligini baxolashda muxim bo'lgan umumiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

CAMEL tizimini ayrim komponentlarini baholash milliy bankka taqdim etilgan hisobot ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin,

¹ Yo. Abdullaev, T. Qorajiev, Sh. Toshmurodov, X. Abdullaev. «Bank ishi» darslik. T., 2008. 56 bet.

lekin uni boshqa komponentlari aniqroq baholash uchun joylarda tekshiruvlarni olib borishni talab etadi. Shunday qilib, bankni ushbu tizim asosida baholash uzulishsiz jarayon hisoblanadi. Shunday bo'lsa ham bankni baholashni inspeksion tekshiruvlar oxirida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tizim orqali tijorat banklari moliyaviy mustahkamligining asosiy komponentlari:

- kapitalning etarliligi (S);
- aktivlar sifati (A);
- bank menejmenti (M);
- daromadlilik (E);

- likvidlilik (L) tahlil etilishi natijasida bankning moliyaviy mustahkamligini har tomonlama to'laqonli tahlil qilish va baholash mumkin.

Banklar faoliyati va ishonchliligini baholashni «CAMEL» reyting tizimi misolida ko'rib chiqamiz. Unga binoan banklar 5 ball bo'yicha baholanadi. Nazoratdan o'tgan bankka har bir komponent bo'yicha alohida reyting bahosi berilib, so'ngra barcha faoliyat bo'yicha umumiy reyting bahosi asosida baholanadi. Reyting bahosining eng yuqori darajasi I ko'rsatkichi bilan belgilanib, bunda qaysi komponentda bunday baho berilsa, demak u xalqaro me'yorlarga to'liq javob berish darajasida tashkil etilganligidan dalolat beradi. *Bunday banklar bir yarim-yilda bir marta tekshiriladi.*

Yaqin o'tmishga nazar solsak 2000-yil oxirida ana shunday xalqaro baho o'zbek banklaridan yana biri (TIF Milliy bankidan so'ng) ikkinchi bo'lib - «Paxta-bank» (Hozirgi Agrobank)ka berildi. Jahonning 95 dan ortiq mamlakatidagi mingdan ziyod mashhur bank-moliya institutlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilishga ixtisoslashgan eng yirik reyting agentligi - «Tomson Financial Bank Watch» kompaniyasi xulosasiga ko'ra, xalqaro miqyosda o'z mavqeini egallayotgan aksiyadorlik tijorat Agrobank O'zbekistonning yirik va moliyaviy barqaror banki ekanligi tan olinib, unga xalqaro reyting bahosi berildi.

U o'z aktivlari bo'yicha respublika banklari orasida ikkinchi, ustav kapital miqdori bo'yicha esa uchinchi o'rinni egalladi. Bank respublikada 13 ta viloyat boshqarmasi, 184 ta tuman bo'limlari hamda 40 dan ziyod minibanklardan iborat strategik ahamiyatga ega bo'lgan keng tarmoqli tizimga ega. Shuningdek, ko'p sonli intiluvchan, iqtidorli hamda etuk mutaxassislardan iborat bank jamoasining ko'p-yillik, ulkan va boy tajribaga egaligi ta'kidlab o'tilgan.

Ayni paytda ushbu reyting kompaniyasi tomonidan bank faoliyatining har bir jabhasi atroflicha tahlil qilinib, munosib ravishda LC-2 hamda JC-C/D reyting ko'rsatkichlari bilan baholandi.

LC-2 ko'rsatkichi – baholashda ikkinchi eng yuqori kategoriya hisoblanib, asosiy mablag' va foizlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyati kuchli bo'lganda beriladigan bahodir. Respublikamizda Agrobank ushbu reytingga (TIF Milliy bankidan so'ng) ikkinchi bo'lib erishdi.

Bankka JC-C/D reyting bahosining berilishi esa shuni anglatadiki, u o'z aktivlari sifatini yaxshiligi hamda barqaror muvozanatlashtirilgan balansi bilan keng omma ishonchi va hurmatiga sazovor bo'lmoqda. Shunisi e'tiborga molikki, Agrobankka berilgan bunday reyting baholari, avvalambor, uning:

- istiqbolini belgilashda;
- xorijiy sarmoyalarni yanada faolroq jalb etishda;
- xalqaro bank-moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarni o'rnatish borasida zaruriy shart-sharoitlar, yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Qolaversa, bank mavqeining respublika ichida va uning tashqarisida yanada yuksalganidan, jahon moliya olamida ulkan yutuqlarini munosib namoyon etganidan dalolat beradi.

Bank SWIFT jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyati a'zoligiga qabul qilingan. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi eng nufuzli banklardan biri ekanligi jahon moliya olami tomonidan ham e'tirof etildi. Jumladan, moliya muassasasining 1998-yildayoq qishloq va qishloq xo'jaligini kreditlovchi Osiyo-Tinch ummoni assotsiatsiyasi (APRAKA)ga a'zo bo'lib kirganligining o'ziyoq uning jahon bank tizimida o'zining munosib o'rnini egallab borayotganligini ko'rsatuvchi dalildir. Osiyo va Tinch ummoni mintaqasidagi 21 mamlakatning qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi 57 ta bank va moliya institutlaridan iborat jahondagi salohiyatli va nufuzli moliya institutlaridan biri hisoblanuvchi ushbu Assotsiatsiya qishloq xo'jaligini rivojlantirishning moliyaviy tamoyillarini rejalashtirishni rag'batlantirish, qishloq va qishloq xo'jaligini moliyalash va kreditlash sohasidagi davlatlararo tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, tarmoqqa moliyaviy xizmat ko'rsatish bo'yicha axborotlarni o'zaro muntazam ayirboshlash va ularni amaliyotga joriy etishni muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan.

Agrobankning jahon bank hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi-yil sayin chuqurlashib borayotganiga yana bir misol uning qishloq xo'jaligini kreditlash xalqaro Konfederatsiyasi (KIKA)ga a'zo bo'lganligidir. Ushbu

nufuzli tashkilot Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng G'arbiy Evropaning bir guruh qishloq xo'jalik va kooperativ banklari tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, o'zining hozirgi ko'rinishida 1989-yilda ta'sis etilgan. Hozirgi paytda, qishloq xo'jaligi sohasida kreditlar beruvchi yoki uni olishga ko'maklashuvchi jahonning barcha qit'alaridan 36 davlatning qishloq xo'jalik yo'nalishidagi 165 ta banklari hamda moliya tashkilotlari, shuningdek, faoliyat maqsadi qishloq xo'jalik kreditini rivojlantirish yoki uni o'rganishdan iborat bo'lgan mintaqaviy, milliy yoki xalqaro tashkilotlar KIKA a'zolari sanaladi. Ular sirasiga Frantsiyaning «Kredi Agrikol», Niderlandiyaning «Rabobank», Germaniyaning «Doychegenossenschaftsbank», Avstriyaning «Rayffayzen-tsentral-bank» kabi banklari va boshqa yirik hamda tanikli banklar kiradi. Agrobank boshqaruvining raisi KIKA Markaziy qo'mitasi a'zosi hisoblanadi.

Odatda CAMEL reyting tizimida 5 komponentdan bir yoki ikki holatda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lish mumkin. Bankrotlikka yaqin, ya'ni muammoli banklar deb tan olingan banklar esa 5 yoki 4 ball oladilar va ular tez-tez tekshirilib turiladi. To'g'ri, 5 holatdan 4 tasida ham yuqori ko'rsatkichga erishish hollari ham yo'q emas, lekin, bitta holatda ham yuqori ko'rsatkichdan past bo'lgan reyting bahosiga ega bo'lganda umumiy reyting bahosi yuqori bo'lmaydi. Respublika bank tizimida umumiy reyting bahosining eng ko'pi 2 va 3 ta bo'lib, bular «yaxshi» va «qoniqarli» faoliyat yurituvchi banklar qatoriga kiradi.

Shunday qilib, bank faoliyatini baholashning «CAMEL» tizimi:

- bank faoliyatini oydinlashtirishga yordam beradi;
- bank hisobotlarining to'g'riligini tasdiqlaydi;
- obyektning xalqaro audit kiritilishiga tayyorlaydi.

Ushbu afzalliklar umumlashib, eng oliy maqsad, ya'ni, bankni bankrotlikdan saqlab qoladi va shu orqali jismoniy hamda yuridik shaxslarning omonatlariyu, depozitlarining behudaga sarflanib ketishining oldini oladi.

«CAMEL» tizimining tahlil qilinadigan birinchi ko'rsatkichi - bu **bank kapitalining etarliligi** hisoblanadi. Bu ko'rsatkich ikki ko'rsatkichni tahlil qilish orqali aniqlanadi, ya'ni:

- ja'mi kapitalning \sum^K riskka tortilgan aktivlarga nisbati (Art);
- asosiy kapitalning (AK) riskka tortilgan aktivlarga nisbati (Art);

Kapital etarliligining minimal xalqaro normasi 8 foiz qilib belgilangan. Bazel shartnomasidagi talablarga binoan bank asosiy kapitalining ja'mi kapitaldagi ulushi 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Umuman, Bazel shartnomasiga muvofiq, bank kapitali ikki darajaga bo'linadi;

➤ birinchi daraja **asosiy kapitaldan** iborat bo'lib, unga to'langan aksiyalar summasi, aktivlarni sotishdan yuzaga kelgan kursdagi farqlar summasi, zaxira fondining ustav fondini mustahkamlashga doir qismi, taqsimlanmagan foyda, sug'urta fondi kiradi.

➤ ikkinchi darajada zaxira fondining bir qismi va balans hisob varaqalarda hisobga olinadigan fond mablag'larini o'z ichiga oladigan qo'shilgan kapitaldir.

Shunday qilib, CAMEL reyting tizimi bo'yicha kapital nazorati ushbu jarayonning birinchi komponenti bo'lib, bunda bank kapitalining etarlilik darajasi, kapitalni ko'paytirish borasida olib borilayotgan faoliyat va dividendlarni to'lash siyosati tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, kapital tahlili jarayoni bank aksiyadorlarining yangilangan ro'yxati, ja'mi aksiyadorlar ulushining balans hisobotidagi to'langan kapital summasiga tengligi hamda bank kapitali Markaziy bankning 2000-yil 26 apreldagi «Tijorat banklari kapitalining etarligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi 420-sonli Nizomi talablariga javob bera olishini tekshirish masalalarini qamrab oladi.

Ikkinchi tahlil ko'rsatkichi **aktivlar sifatini** baholashdir. Bundan asosiy maqsad muayyan bank aktivlarining riskka tortilganlik darajasini tahlil qilishdir. «CAMEL» tizimida risklar bo'yicha aktivlarni tasniflash 4 guruhga bo'linadi:

- 1 foiz - maxsus aktivlar;
- 20 foiz - standart bo'lmagan aktivlar;
- 50 foiz - shubhali aktivlar;
- 100 foiz - zarar keltiradigan aktivlar.

Tijorat bankining moliyaviy ahvolini aniqlashda aktivlar sifatini baholash muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning haqiqiy qiymati buxgalterlik hisobida aks ettirilgan qiymatga to'g'ri kelmaydi. Aktivlarning sifatini tahlil qilish uchun muammoli qarzlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur.

Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar ko'rish hollariga mo'ljallangan zaxiralarning etarligini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar naqd pullar va vakillik hisob varaqalari, ssudalar va boshqa aktivlar tekshiriladi.

Aktivlar sifatining tahlilida asosiy e'tibor aktivlarning qaytishiga qaratiladi. Ularning holati aniqlanganda, haqiqatdan ham, kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi o'ta muhimdir. Mamlakatimizda olib borilayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar maqsadi har qanday mablag'ning ham yuqori darajada samarali bo'lishiga qaratilgan.

Aktivlar sifati bankning kredit tavakkalchiligi bilan ham bevosita bog'liq va asosan, eng yirik kreditlar tekshiriladi.

Bank faoliyatining asosiy maqsadi, yuqori daromad olishdan iborat. Odatda yuqori daromad oladigan banklar samarali faoliyat yuritayotgan bank deb tan olinadi. Biroq, **aktivlar sifati bilan tushum o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka unchalik e'tibor berilmaydi.** Biron bir bankda aktivlar sifati muammoli bo'lsa, uning aktivlari bahosi yomonlashadi. Bahodagi bu o'zgarish tushum hisobiga qoplanadi va natijada bank daromadi kamayadi.

Demak, bankning daromadlilik darajasi aktivlarning iqtisodiy mohiyatiga, aniqrog'i, sifatiga bog'liq. Unga ko'ra aktivlar:

- daromad keltiruvchi;
- daromadni «eb qo'yuvchi» turlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga ishlayotgan aktivlar (barcha kredit qo'yilmalar va qimmatli qog'ozlar) kiradi. Daromad keltirmaydigan aktivlarga nomoddiy xarajatlar, binolar, kapital xarajatlar va to'lov muddati 90 kundan oshgan kreditlar, shuningdek kreditlar va amal qilmaydigan deb tan olingan kreditlar bo'yicha foizlar ta'luqlidir.

Daromad keltiruvchi aktivlar kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi. Shu bois bank kapitalini oshirish va kredit potentsialini mustahkamlash ham uning daromadligiga bog'liqdir. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalar hajmi va bank likvidligiga bog'liq.

Bank daromadlarni quyidagi manbalardan oladi:

- operatsiyalardan (olingan foizlar);
- qimmatli qog'ozlar savdosidan;
- foizsiz daromad hisobidan;
- mulkni va boshqa aktivlarni sotishdan;
- boshqa manbalardan.

«CAMEL» tizimi daromadlarni miqdor va sifat tomonlarini hisobga olgan holda baholashni tavsiya etadi. Daromadlilik darajasi quyidagi ikki ko'rsatkichni tahlil qilishni taqozo etadi:

- balans foydasining aktivlarga nisbati;
- soliqlar chegirib tashlangan foydaning aktivlarga nisbati.

Daromad yo'nalishining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish va baholashda dastlab quyidagi masalalar:

- tushumning o'zgarishligi yoki ja'mi aktivlarga nisbatan foiz hisobida kamayishi;
- operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbatan o'zgarishi;
- foizli xarajatlar bilan foizli daromadlar o'rtasidagi marjaning o'zgarishi;
- foizsiz xarajatlar va daromadlarning o'zgarishlari inobatga olinadi.

Bank daromad va xarajatlarning salbiy va ijobiy moddalarini aniqlashda asosan quyidagi omillarga ahamiyat beriladi:

- aktivlarning foydaliligi;
- kapitalning foydaliligi;
- aktivlar va passivlar asosiy kategoriyalarining o'sish koeffitsienti;
- daromadning asosiy manbalari;
- xarajatlarning barcha asosiy kategoriyalari.

Qayd qilingan barcha ko'rsatkichlar boshqa o'xshash banklarga taqqoslangan holda qiyosiy tahlil qilinadi.

Likvidlik ko'rsatkichi to'rtinchi tahlil qilinadigan omil hisoblanadi. CAMEL tizimiga muvofiq, likvidlik bankning majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida bajarish layoqati va xizmat ko'rsatilayotgan mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirishga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Likvidlik darajasi ham shular orqali baholanadi.

Baholashda likvidlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni:

- aktiv va passivlarning tarkibi;
- aktiv va passivlarni boshqarish sifati;
- depozit bazasining holati kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Bankning majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida bajarish layoqati, pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi ko'p jihatdan **aktiv va passivlar** tarkibiy tuzilishining muvofiqlik darajasiga bog'liq. Bank tomonidan likvidlikni etarli darajada saqlab turish foyda olishga qaratilgan harakat bilan muvozanatlashgan holda amalga oshirilishi darkor, ya'ni ko'proq foyda olish maqsadida aktivlarning samarasiz joylashtirilishi likvidlik holatining yomonlashuviga olib keladi.

Aktiv va passivlarni boshqarish sifati bankning pul fondlarini tashkil etish, ular narxlarini shakllantirish va joylashtirish jarayonlariga ta'luqlidir. Ushbu jarayon asosan balans hisobotida aks ettiriladi. Aktiv va passivlarni boshqarishning eng maqbul yo'li qisqa muddatli likvidlikni

past bo'lgan instrumentlarga joylashtirish orqali yuqori foyda olish orasidagi muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

Depozitlar bazasi holatiga, ya'ni depozitlarning doimiyligiga jahon amaliyotida juda katta ahamiyat beriladi. Bundan tashqari likvidlikni tahlil qilishda banklarning tashqi manbalarga chiqish imkoniyatlari alohida o'rin tutadi. Ayniqsa likvidlikni baholashda aktivlarning naqdlikka aylanish darajalari ham tahlil qilib chiqiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, likvidlik darajasi bankning likvidlik holatini to'laligicha yoritib bera olmaydi va unga umumiy bahoning bir qismi sifatida qaraladi. Shunday ekan, likvidlik koeffitsienti boshqa ko'rsatkichlar bilan qiyoslangan va to'ldirilgan holda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Likvidlik holati tekshiruvining yakuniy bosqichlarida bank tomonidan qonunchilikning buzilish holatlari ro'yxati tuzilishi hamda ularga tegishli qonun va nizomlar ilova qilinishi ko'zda tutiladi.

CAMEL tizimining yuqoridagi to'rtta ko'rsatkichi aniqlanganidan so'ng mazkur reyting tizimining beshinchi baholash ko'rsatkichi - **menejment**, ya'ni bankni boshqarish darajasi tahlil etiladi. Bu ko'rsatkich bank ishonchliligini baholashning oxirgi ko'rsatkichidir.

Mazkur ko'rsatkich oldingi ko'rsatkichlar natijalariga bog'liq bo'ladi. Chunki kapitalning etarliligi, aktivlar sifati, daromadliligi va yuqori likvidlik darajasiga ega bo'lgan banklarning, xususan, menejment ham yuqori bo'ladi. Bunda:

- kadrlarning bilim darajasi;
- me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi;
- bank, kadr, kredit, investitsiya, foiz siyosatlarining mukammalligi va to'g'ri yo'lga qo'yilganligi tahlil qilinadi.

Bankni boshqarish darajasi ko'pincha bank siyosatining qay darajada maqsadga muvofiq shakillantirilganligi, uning yozma ravishda belgilangan tartibda hujjatlashtirilganligi va unga rioya qilinishi bilan xarakterlanadi. Ma'muriyat faoliyatiga baho berishda esa quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- sardorlik va rahbarlik qilish qobiliyati;
- bank faoliyati qoidalariga rioya qilish darajasi;
- o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda to'g'ri qarorlarni qabul qilaolish va unga tez moslasha bilish qobiliyati;
- muvaffaqiyat qozonish;

- bank xizmatlariga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga intilish va boshqa ko'rsatkichlar.

Shunday qilib, bankni boshqaruv sifati bank rahbariyati tomonidan olib borgan siyosatning samaradorlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, qator omillar va ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

Bugun dunyoda 200 ta reyting agentligi mavjud bo'lib, S&P -40%, Moody's - 39 va Fitch agentligiga - 16% reyting xizmatlari to'g'ri keladi.

Reyting olishga asoslar: Jahon moliyaviy bozorini shiddatli rivojlanishi, iqtisodiy va moliyaviy globallashtirish, investitsion portfelni boshqarish uchun standartlashgan va adekvat yondashuvni zarurligi, moliyaviy inqirozlarni ta'siri; informatsion va kommunikatsion texnologiyalarni rivojlanishi.

Hozirgi vaqtda banklarning umumlashtirilgan reytinglarini aniqlashning tan olingan bir qancha usullari mavjud.

Rossiyada har bir reyting muassasasi (bank axborot agentligi, «Kommersant – Daily» ekspert guruhi, Orgbank, «PAKK» firmasi, «Reyting» axborot markazi, Moliyaviy axborot tahliliy markaz) o'z umumlashtiruvchi usuliga ega. Ular muayyan moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, banklar ishonchligini baholashda ayrim ko'rsatkichlar ahamiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar to'plami, soni va salmoq koeffitsientlarini taqsimlashda bir-biridan farqlanadi. So'ngra muayyan ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida har bir bank ishonchligining jamlanma ko'rsatkichi chiqariladi. Mustaqil agentliklar tomonidan aniqlanadigan Rossiya banklarining shunday reytinglari ochiq matbuotda e'lon qilib boriladi.

O'zbekiston banklarining muayyan reytinglari mamlakat bank tizimi xususiyatlarini albatta hisobga olishni talab qiladi. «Axbor-reyting» agentligi mutaxassislari G'arb va Rossiya nazariyotchi-amaliyotchilari tomonidan ishlab chiqilgan uslublardan farqli o'laroq o'zlarining umumlashtirilgan reytinglarini aniqlash usulini, ya'ni respublikaning o'ziga xos rivojlanishini inobatga olgan holda qo'llaniladigan usulni ishlab chiqdilar.

23.3. Xorijiy mamlakatlarda bank faoliyatini reyting baholash tartibi

Xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida reyting baholash usullarining rivojlanish yo'nalishlari haqida so'z yuritilar ekan, unda albatta, bugungi kunga kelib dunyodagi tijorat banklarining eng ko'p foydalanadigan masofadan turib boshqariluvchi reyting xulosalarini olish imkonini

beruvchi CAMEL reyting tizimi deyarli qolgan barcha baholash tizimlari uchun andoza vazifasini bajarishini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Shuning uchun ham, CAMEL reyting tizimi asosida tijorat banklarini nazorat qilishning respublikamiz va jahon miqyosida o'rganilishini nazarda tutgan holda quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1-guruh. Rivojlangan davlatlar tijorat banklarining nazorati amaliyotida CAMEL reyting tizimi, mutaxassis va olimlar fikri;

2-guruh. Sobiq Ittifoq davlatlari tijorat banklari nazorati bo'yicha CAMEL reyting tizimi, mutaxassis va olimlar fikri;

3-guruh. Respublikamizda tijorat banklarini nazorat qilishda CAMEL reyting tizimi, mutaxassis va olimlar fikrlaridir.

1-guruh. CAMEL reyting tizimi AQShda hozir ham qo'llanilmoqda. Bu tizim takomillashtirilib CAMELS nomi, ya'ni «Sensitive of Market risk» o'zbek tilidagi tarjimasida bankning erkin bozorda sezgirlik (barqarorlik) xatari deb yuritiladi. Bu davlatda tijorat banklarni bozor sharoitida har xil ko'rinishdagi bank xatarlariga ta'sirini ham markaziy bank nazoratchilari tomonidan o'rganildi. Ikkinchi yangiligi esa, CAMEL ya'ni tijorat banklarini masofadan turib nazorat qilishda M-menendjer ko'rsatkichidan tashqari bo'lgan omillar asosida nazorat olib borish tadbirlarini ishlab chiqqanlar.

Amerika Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank nazoratini takomillashtirish bo'yicha loyiha menejeri Terri Straudning fikriga ko'ra, «Bank tizimining barqarorligi ko'p jihatdan uni nazorat etish tizimining rivojlanganlik darajasiga, uning mavjud hamda favquloddagi muammolarini aniqlab olish va echish qobiliyatiga bog'liq. Nazorat muassasalarining asosiy vazifasi bank tavakkalchiligini aniqlash va baholashdir. Uni amalga oshirishda quyidagi unsurlar muhim hisoblanadi:

- joylarda nazorat qilishning samaradorligi;
- masofadan turib nazorat qilish samaradorligi;
- qonuniy infratizimning mavjudligi, shu jumladan, muammoli banklarga bo'lgan talablar;
- buxgalteriya hisobi va audit tizimi;
- markaziy bankning bank nazorati xizmati xodimlarining malakalaridir.»¹

¹ Terri Straud. Bank nazorati.// Bozor, Pul va Kredit juraali, 1999-yil 9-soni, 12-bet.

T. Straud bu maqolasida Respublikamizda tijorat banklarini nazorat tizimini rivojlantirish va CAMEL reyting tizimida nazorat olib borilishiga yuqori baho bergan.

Amerikalik bank nazorati mutaxassislari fikriga ko'ra CAMEL reyting tizimi muhim ko'rsatkichlari quyidagicha:

➤ CAMEL oddiy va asosiy bank faoliyatini belgilovchi omillardan iborat tizim bo'lib, banklar faoliyatining ko'rsatkichlarini baholashda ishlatiladi;

➤ CAMEL tizimi bank nazoratini to'laqonli yoritilishiga bog'langan bo'lib, u o'zidan bank haqida fikr yuritish va aql bilan ish olib borishni talab qiladi;

➤ Aniq tushunarli reyting tizimi har bir markaziy banklarda (yoki nazorat muassasalarida) boshqarma boshliqlaridan, oddiy iqtisodchi yoki yangi ishchilarga ham banklarni moliyaviy holatini tushunishi, ularni reyting baholariga qarab bilib olish oson¹.

Albatta, bu fikrlarni inkor etmagan holda biz yana ikki mulohazani ilgari surishimiz mumkin:

1- CAMEL reyting tizimi jahondagi tijorat banklarini nazorat qilishda integrallashib borayotgan tizimdir;

2- Amerikalik bank nazorati mutaxassislari «CAMEL tizimi bank faoliyatini nazorat qilishida foydalidir» deb fikr yuritgan. Yaponiya bank mutaxassislarning fikricha, bu davlatda ham ushbu tizimdan foydalanishga 1998-yil 1-martdan to'latigicha o'tilgan. «Yaponiya banki»da bo'lib o'tgan o'quv seminar mashg'ulotida hamda Yaponiya Moliya vazirligidagi o'quv seminarlarida (1997-yil 22-iyuldan 1-sentyabrigacha bo'lib o'tgan seminar ma'lumotlariga ko'ra) CAMEL tizimi haqida aynan amerikalik mutahassislarning fikrlarini takrorlab quyidagi kamchiliklarni belgiladi:

«CAMEL reyting tizimida tijorat banklarining faoliyatini baholashda «M» - menejer ko'rsatkichini baholashda ancha qiyinchilik va kamchiliklar bor deb, bu omilni takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilayotganligini e'tirof etdi. Lekin, Yaponiya davlatining «Showar Ota & Co» mustaqil audit firmasi bank auditiga ixtisoslashgan bo'lib bank auditining o'zlarini ishlab chiqargan tizimi asosida tekshirishi ma'lum bo'ldi. Nima uchun CAMEL usulidan foydalanmasliklari haqida so'ralganda, bu tizim ko'p vaqtni talab qilib, audit o'tkazish tannarxini yuqori ekanligini keltirib o'tganlar.

¹ USAID - CAMEL tizimi bo'yicha ma'lumot. /1998-yil O'zR. Markaziy banki, 8-b.

2-guruh. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarning tijorat banklari nazoratida CAMEL reyting tizimi va mutaxassislarning fikri quyidagicha:

G.S. Panova amerikalik va yaponiyalik mutaxassislarning fikriga qo'shilgan holda o'z fikrini quyidagicha asoslaydi:

«Bank barqarorligining har bir omillari bo'yicha reytingni aniqlashda alohida natija bazalari bor:

a) birinchidan, kapital etariligi, bank aktivlarining sifati va daromadliligi bo'yicha yomon holat 5 balli tizimda belgilanadi;

b) ikkinchidan, likvidlik asosiy muhim ko'rsatkich tahlil dinamikasi ko'rsatkichlariga muvofiq:

v) uchinchi tomondan (menejment) aniq va o'z siyosatini bajarishdir».¹

Beloruslik olimalardan M.S. Shidlovskaya² Bank nazoratiga o'z fikrini bildirib, jumladan, «Bank nazoratining maqsad nishoni bank tizimini rivojlantirish yo'llarini belgilashda o'zining samarali usul va vazifalarini bank faoliyatini tekshiruvini asosida yaratadi. Bank nazorati – bank va uning bo'limlaridagi moliyaviy xo'jalik faoliyatini tashkil etish samaradorligini muntazam kuzatib borishni ta'minlashdir».

Bu olim bank nazoratiga yaxshi ta'rif bergan, SAMEL reyting tizimi haqida to'xtalib o'tmagan, lekin bank nazoratida tijorat banklari faoliyatining samaradorligini kuzatib borishda mazkur reyting tizimi qulaydir. Chunki, tijorat banklarining ushbu reyting tizimida ballari yomonlashuvi bankning moliyaviy xo'jalik faoliyatini salbiy oqibatlarda tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

Respublikamizda CAMEL reyting tizimidan foydalanish 1997-yil noyabr oyida qisman, 1998-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklarining to'liq nazorati ushbu tizim asosida olib borilishi yo'lga qo'yildi.

Bu tizimga nisbatan olimalarimizdan Sh.Z. Abdullaeva o'z fikrlarini quyidagicha bayon etadi:

«Taklif etilayotgan bank reytinglari unsurlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Bankni tuzilish jihatdan belgilovchi ko'rsatkichlar (muassislar, mavjud bo'lish muddati va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyaning mavjudligi va u olingandan buyon o'tgan muddat, ustav fondining rasmiy miqdori va boshqalar);

¹ Панова Г.С. Финансовый анализ состояния коммерческого банка. –М. Дело и Сервис, 1996. 214-б.

² Шидловская М.С. Банковский надзор и аудит. –Минск. Высшая школа, 2003. 3 стр.

2. Balans ma'lumotlari va xosila kattaliklarga asoslangan sifat ko'rsatkichlari;

3. Bank ko'rsatkichlari (imidji, reklama sifati, tarixi va boshqalar) bahosi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlari, ma'nosining aniqligi va izohning bir xilligidan ravshan ko'rinib turibdiki, ular har bir reytingda deyarli bir xil salmoqqa egadir va cheklov belgilari bo'yicha oldindan taxminiy saralash uchun qo'llaniladi.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlarini tanlash mohiyat e'tibori bilan usul mualliflari sohasini belgilaydi va yakuniy baholashga asosiy qismini qo'shadi. Ayni shu yerda yondashuvlardagi tafovutlar ko'proq namoyon bo'ladi.

Uchinchi guruh ko'rsatkichlari odatda, banklar faoliyatini baholash natijalariga katta ta'sir ko'rsatmaydi».¹

Keltirilgan fikr o'z mazmunida tijorat banklarini joylarda tekshiruv hamda masofadan turib tekshiruv nazorati vazifasi ostida qaralgan.

Taklif etilayotgan CAMEL reyting tizimining nazorat tizimi unsurlarini 2 guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

1- guruh banklarni reyting ballarini belgilash bilan birga banklarning ochiq bozor iqtisodiyotida favqulodda xatarlarga nisbatan ichki imkoniyatini belgilash;

2- guruh banklarni moliyaviy faoliyati haqida bank mijozlarini to'liq axborotlar bilan ta'minlash.

1-guruh fikri mazmunida uning mohiyatidan kelib chiqib tijorat banklar nazoratida, eng avvalo, mazkur bank reytingi unsurlari bevosita moliyaviy tahlil etiladi hamda mazmunan baholanadi. Baho natijasi bankni iqtisodiy xarakteristikasini belgilaydi va nihoyat bankning iqtisodiy holatiga, agar, kerak bo'lsa, maslaxatlar yoki favquloddagi xatarlar oldini olish imkoniyatlarini beradi.

2-guruhdagi banklarda CAMEL asosida audit o'tkazilishi bank rahbariyati va bank mijozlarini bankning iqtisodiy holati haqida axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Birinchiidan, ikki tizim tekshiruv integrallashuviga olib keladi;

Ikkinchiidan, bu ikki muassasa tekshiruv davomida bir-birlarining kamchiliklarini to'ldirib boradi va umumiy xulosalarni tahlil etish mumkin bo'ladi.

¹ Abdullaeva Sh.Z. CAMEL-bank faoliyatini baholash xizmatida. // Bozor, pul va kredit jurnali, 1998-yil 4-son 49-bet.

CAMEL reyting tizimi subyektivdir, ya'ni teran fikrlash zarur (mantiqiy), odatda nazorat organlari tomonidan qo'llaniladi (ishlatiladi), har bir komponentni baholash o'rnatilgan qoidalar va tamoillar asosida olib boriladi, inspektorning fikri qoida va tamoillardan ustundir, CAMEL reyting tizimi nazorat organini keyingi faoliyatini aniqlash imkonini beradi.

CAMEL reyting tizimining yana bir asosiy jihati quyidagilarda ko'rinadi:

1. CAMEL tizimi, ko'proq masofaviy nazoratga asoslangan evropa-cha usuldan farqli o'laroq, joyida tekshirishga asoslangan bo'lganligi sababli, banklarni tashqi audit qilishda juda qo'l keladi.

2. Mazkur tizim AQSh tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda qo'llaniladigan andozalashgan reyting tizimi bo'lib, aniq va mukammal bo'lganligi sababli, foydalanish uchun qulaydir.

3. Ushbu tizim orqali tijorat banklari moliyaviy mustahkamligining asosiy komponentlari: bank kapitalining etarliligi (S), aktivlar sifati (A), bank menejmenti (M), daromadliligi (E) va likvidlilik (L) tahlil etilishi natijasida, bankning moliyaviy mustaqilligini har tomonlama to'laqonli tahlil qilish va baholash mumkin.

Albatta, bu kategoriya ko'rinishda banklarni o'rganish o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Birinchidan, banklarning eng yirik, yirik, o'rta va kichik banklar chegarasini aniqlab ma'lum bir toifalarga ajratib beradi. Ikkinchidan, banklar ketma-ketligini reyting ballari asosida belgilab ularni bozor sharoitidagi raqobatbardoshligini aniqlaydi.

CAMEL tizimidagi har bir beshta komponentlarni baholashda: kapitalni adekvatligi, aktivlarni sifati, boshqarish tushumlar va likvidlilik quyidagi qoida va tamoillarni inobatga olishga maqsadga muvofiqdir:

1 - Reyting (qat'iy)

- a'lo natijalar va moliyaviy barqarorlik

- baho ancha yuqori yoki boshqa bank tashkilotlariga qaraganda yaxshiroq

2- Reyting (qoniqarli)

- faoliyat natijalari qoniqarli (jiddiy muammolar aniqlanmadi)

- faoliyat natijalari o'rtachadan yuqoriroq yoki kamida o'rtacha darajada

- moliyaviy operatsiyalarni xavfsizligini ta'minlash va ishonchliligi uchun kerakli shart-sharoitlar mavjud va chora-tadbirlar ko'rilgan.

3-reyting (bilvosita)

- faoliyat natijalari unchalik qoniqarli emas
- baho bilvosita hisoblanadi yoki qoniqarlikdan pastroq

4-Reyting (Chegaraviy)

- bajarilish so'zsiz o'rta darajadan pastroq
- bank faoliyatidagi kamchiliklar shunchalik ayonki, hatto ular kelajakda bank faoliyatiga tahdid soladi.

5-reyting (qoniqarsiz)

- faoliyat natijalari so'zsiz qo'llanila olinmaydi (bajarilishi, ishlatilishi to'g'ri kelmaydi).
- muammolar kritik (chegaraviy) hisoblanadi va kechiktirmasdan qaror qabul qilishni talab etadi.
- agarda kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilmasa, bankga bankrotlik tahdid soladi.

Umumiy reyting umumlashtiruvchi baho hisoblanadi va ancha sodda ravishda hisoblab chiqariladi:

CAMEL/5 (Har bir komponent bo'yicha ballarni yig'indisi olinadi va beshga bo'linadi)

Masalan:

Kapitalni adekvatligi = 2

Aktivlarni sifati = 2

Boshqarish = 3

Tushumlar = 3

Likvidlilik = 1

Hamma komponentlarni yig'indisi 11ni tashkil etadi va uni 5 ga bo'lish natijasida 2,2 hosil qilinadi. Uni butun songacha yaxlitlaymiz va u hozirgi holatda 2 ga teng. Shunday qilib, umumiy reyting 2 ga teng va qoniqarli hisoblanadi.

Shunday qilib:

❖ 1 - 1,5 1 gacha yaxlitlanadi va bank qat'iy reytingni oladi

❖ 1,6 - 2,5 2 gacha yaxlitlanadi va bank qoniqarli reytingni oladi

❖ 2,6 - 3,5 3 gacha yaxlitlanadi va bank bilvosita reytingni oladi

❖ 3,6 - 4,5 4 gacha yaxlitlanadi va bank chegaraviy reytingni oladi.

❖ 4,6 - 5,0 5 gacha yaxlitlanadi va bank qoniqarsiz reytingni oladi.

1 yoki «qat'iy» reyting olgan banklar quyidagi tavsifnomalarga ega:

- Moliyaviy holat hamma ko'rsatkichlar bo'yicha ishonchli hisoblanadi;

- Aniqlangan kichik muammolar oddiy faoliyat yuritilish davomida hal qilinishi mumkin;

- Bankning moliyaviy holati iqtisodiyotda va bank sektoridagi ro'y berayotgan o'zgarishlar va muammolarga nisbatan barqaror hisoblanadi.

- Bankning moliyaviy holati nazorat organlarini bezovtalanishga hojat qolmaydi.

2 yoki «qoniqarli» reyting olgan banklar quyidagi tavsifnomalarga (xarakterli jihatlarga) ega:

- Umumiy organda hamma aspektlar bo'yicha bankni moliyaviy holati ishonchli hisoblanadi;

- Katta ahamiyatga ega bo'lmagan muammolarni aniqlanishi tegishli tartibda bank rahbariyati tomonidan tuzatiladi;

- Bankning moliyaviy holati, aslini olganda, barqaror, demak, bank o'zgaruvchan iqtisodiy konyuktura sharoitlariga va bank sektori ishga moslashib keta olishi kerak;

- Nazorat organlarini tashvishlari faqatgina joylardagi tekshiruvlar yoki hisobotni tahlili davomida yuzaga chiqqan muammolarni bank rahbariyati tomonidan to'g'irlanguncha davom etadi.

3 yoki «bilvosita» reyting olgan banklar quyidagi tavsifnomalarga ega.

- Bank moliyaviy va operatsion nuqtai nazardan kuchsizlangan va bir qancha qonunbuzarliklar va meyoriy aktlarni bajarmaslikka yo'l qo'ygan;

- Bankning moliyaviy holati kelajakda yomonlashish tendensiyaga ega, agarda iqtisodiyotdagi va bank sohasidagi voqealar rivoji noqulay (nomaqbul) rivojlanish sharoitlarida qolsa;

- Bankning moliyaviy holati ehtimol yomonlashadi agarda bu holatni tuzatish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa yoki chora-tadbirlar kutilgan o'zining samarasini bermasa;

- Bankning holati nazorat organini bezovtalantiradi.

4 yoki «chegaraviy» reyting olgan banklar quyidagi tavsifnomalarga ega:

- Moliyaviy holatda bir qator sezilarli kamchiliklarga ega;

- O'rnatilgan tartibda bartaraf etilayotgan nobarqaror holatni namoyon etadi;

- Agarda holatni yaxshilash borasida chora-tadbirlar qo'llanilmasa, bank holati shu darajada yomonlashadiki, u bankni kelajakda mavjud bo'lishini shubha ostiga qo'yadi;

- Potentsial bankrotlikni ifodalovchi alomatlar mavjud bo'ladi;

•Nazorat organi tomonidan sinchikovlik bilan kuzatuv va nazoratni talab etadi, shuningdek, muammolarni bartaraf etish rejasi ham talab etiladi.

5 yoki «qoniqarsiz» reyting olgan banklar quyidagi tavsifnomalarga ega:

- Yaqin kelajakda bankrot bo'lishni yuqori ehtimolini mavjudligi
- Bir qator jiddiy kamchiliklar mavjud. Holat shunchalik jiddiyki, tez shoshilinch moliyaviy yordam talab etiladi. Bu yordamni bank egalari yoki boshqa moliyaviy manbalar ko'rsatishi mumkin.

- Holatni tuzatish yuzasidan tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa yoki moliyaviy ko'mak berilmasa, ehtimol vaziyat qo'shib yuborishni yoki boshqa bank tashkiloti tomonidan sotib olinishni yoki tugatilish jarayonini boshlash kerak bo'ladi.

Biz yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, shuni qayd etamizki, bu masalada respublikamizda CAMEL tizimi bo'yicha hozirgi kunda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari nazorati olib borilmoqda. Lekin Rossiya Federatsiyasi va AQShda olib borilayotgan CAMEL reyting tizimidan ayrim jihatlari bilan farq qiladi.

1.CAMEL tizimi bo'yicha tijorat banklariga ball belgilashda aniq bir tijorat bankka ball beriladi. Qiyosiy (ikki tijorat bankni yoki bir gurux tijorat banklarini bir-biriga taqqoslash – protsentli) omili yo'q.

2.CAMEL reytingni belgilashda Respublikamizda har bir omil uchun solishtirma foizlari yo'q.

3.Respublikamiz tijorat banklari ixtisoslashganligi uchun raqobat cheklangan.

4.CAMEL tizimi taxlilida respublikamizda taxlil qilinayotgan omillar qrtasidagi mutanosiblik belgilanmagan. (ya'ni, C –23%; A-37%; E – 25%; L-15%) chunki, A- bank aktivlari ortsa, L – likvidlik kamayadi, lekin daromad ortadi, A- bank aktivlari kamaysa, L – likvidlik ortadi, lekin daromad kamayadi. Bunday holda banklar qanday me'yorda «A va L» ni boshqarish kerak. Bu masala hozirga qadar o'z echimini topgani yo'q.

O'zbekistonda CAMEL tizimi orqali bank nazoratini amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun:

Birinchidan, Markaziy bank tomonidan banklarning moliyaviy holatini baholashning CAMEL tizimiga asoslangan O'zbekiston banklari reyting tizimini tuzish va matbuotda e'lon qilish;

Ikkinchidan, Markaziy bankdan tashqari bank bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy agentlar hamda boshqa tomonlarining, jumladan, jamoatchilik,

kasaba uyushmalari, ilmiy tadqiqotchilarning ushbu tizim usuliga asoslanib, mustaqil ravishda baholashlarni o'tkazishlari uchun matbuotda e'lon qilinadigan bank hisobotlaridagi ma'lumotlarni ko'paytirish;

Uchinchidan, hozirgi davrda ushbu tizimga asoslangan tashqi auditni amalga oshirish, ayniqsa, xorijiy auditor firmalari tomonidan o'tkazish, eng qimmat xizmat turlaridan biri bo'lmoqda va shu sababli, banklardagi ichki auditni rivojlantirish, banklar tomonidan tashqi auditga tayyor ishlar sifatini yanada oshirish;

To'rtinchidan, bank faoliyatini tartibga soluvchi farmon, qaror va me'yoriy hujjatlarning ko'pligi banklarning ham auditorlarning ham ishini qiyinlashtirmoqda, shu sababli, ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi banklar vakolatlarini yanada kengaytirish lozim.

Demak, Bank nazoratining maqsadi, tijorat banklarining faoliyatini samarali tashkil etishini aniq belgilab beruvchi omil tijorat banklar faoliyati nazoratidagi SAMEL reyting tizimidir. Uning mohiyati esa tijorat banklarining kelajakdagi iqtisodiy maqsad nishonini belgilash va yo'l qo'yilgan moliyaviy xato va kamchiliklari haqida axborot beruvchi tizimdir.

Reyting baholash agentliklari tomonidan qo'yiladigan ballarni turlicha harflar va belgilar orqali ifodalash qabul qilingan. Xususan, reytingni shakllantirish uchun agentliklar 16 ta kategoriyadan tarkib topgan hamda 3 ta guruh/sinfga ajratilgan tizimdan foydalanishadi:

1) «havfsiz» reytinglar guruhi:

«A++» i «A+» — ajoyib;

«A» i «A+» — a'lo;

«V++» i «V+» — juda yaxshi;

2) «zaif» reytinglar guruhi:

«V» «V-» — yaxshi;

«C++» i «S+» — qoniqarli;

«S» i «S-» — past;

2) «defolt» reytinglar guruhi:

«D» — juda past;

«E» — nazorat ostidagi tashkilot;

«F» — tugatiladigan tashkilot;

«S» — to'xtatilgan reyting.

Yuqoridagi belgilangan maxsus harflar va ishoralardan anglash mumkinki, reyting natijalari qayd etilayotgan paytda, alifboning bosh harflari orqali belgilanuvchi A va V toifalariga kiruvchi harflari reytingi yuqori hisoblanadigan moliya tashkilotlariga nisbatan qo'yilgan baho sanaladi. S guruhiga mansub guruhlarda qoniqarli reyting natijasi qayd

etilsa, D, E, F, S guruhlariga tegishli reyting natijalari inqirozga yuz tutayotgan tashkilotlarga nisbatan beriladigan reyting natijasi sanaladi.

Ushbu reyting natijalarini olgan barcha tashkilotlar endilikda qaysidir jabhalarda tashkilot faoliyatida o'zgarishlar olib borishlari kerakligini bilib olishadi.

Hozirgi paytda korxonalarining moliyaviy barqarorligiga, davlatlarning investitsion muhitini baholashga va tijorat banklarining iqtisodiy holatini belgilashda asosan yuqoridagi uchta yirik va nufuzli reyting kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bularning xizmatidan asosan investorlar, aksiyadorlar, investitsion banklar, broker-dillerlar va davlat ham foydalanishi mumkin. Investorlar uchun bu kompaniyalarning xizmatidan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi.

1. Ularda investitsion alternativa paydo bo'ladi, ya'ni tanlash imkoniyati hosil bo'ladi;
2. Kredit yoki sarmoya bilan bog'liq risklarni aniqlashga imkon beradi.
3. Ham qarz oluvchi ham qarz beruvchilarning bo'lg'usida paydo bo'ladigan ortiqcha harajatlarni tejaydi.

Har bir reyting kompaniyasi odatda uzoq va qisqa muddatli reyting baholarini berib boradi va har biri o'z baho berish tizimiga ega. Uzoq muddatli reytingda asosan AAA guruhidan tortib DDD guruhigacha belgilansa, odatda qolgan qisqa muddatli davr uchun banklar barqarorligi turli tashkilotlarda turlicha harflar bilan belgilanadi.

Banklar barqarorligi darajasi shu belgilangan reytinglarga mos ravishda investitsion darajada, noinvestitsion baho spekuliyativ darajada, risklar katta bo'lgan yoki juda spekuliyativ darajada va eng oxiri defolt holatlarida bo'lishi mumkin.

Quyida jadvalda reyting kompaniyalarining reyting tizimi farqlari va o'xshashliklari keltirilgan.

Yetakchi reyting kompaniyalarining baholash mezonlari¹

46-jadval

Moody's		S&P		Fitch		Reyting ko'rsatkichi
Uzoq muddatli	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli	Qisqa muddatli	
Aaa	P-1	AAA	A-1+	AAA	F1+	Eng yuqori darajada

¹www.bis.org (Xalqaro hisob-kitoblar bankining rasmiy sayti)

Aa1		AA+		AA+		Yuqori darajada
Aa2		AA		AA		
Aa3		AA-		AA-		
A1		A+	A-1	A+	F1	O'rtadan yuqori darajada
A2		A		A		
A3	P-2	A-	A-2	A-	F2	O'rtadan past darajada
Baa1		BBB+		BBB+		
Baa2	P-3	BBB	A-3	BBB	F3	
Baa3		BBB-		BBB-		
Ba1	Darajaga ega emas	BB+	B	BB+	B	Noinvestitsion baho spekulyativ spekulyativ
Ba2		BB		BB		
Ba3		BB-		BB-		
B1		B+		B+		
B2		B		B		
B3		B-		B-		
Caal				CCC+		
Caa2		CCC	Juda spekulyativ			
Caa3		CCC-	Defolt holatidan chiqib ketish holati katta			
Ca		CC				
C		C				
/		D	/	DDD	/	defoltda
/				DD		
/				D		

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, har bir kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari mavjud. Standard&Poor's kompaniyasining o'ziga xos reyting tizimi shundaki, u asosan o'rganilayotgan qarz oluvchi korxonalar yoki davlatning moliyaviy barqarorligiga 2 xil baho beradi, ya'ni investitsion va noinvestitsion baho.

Moody's kompaniyasi tijorat va davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha halqaro moliyaviy tadqiqotlar olib boradi va maxsus reyting standarti shkalasini qo'llagan holda qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligiga baho beradi hamda davlat va tijorat obligatsiyalariga aloqador bo'lgan turli bozor segmentlaridagi qarzdorlikni ifodalovchi obligatsiyalarga reyting beradi.

Fitch Group reyting agentligi ham kompaniya va tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga, kreditga layoqatliligiga baho beradi.

Yuqoridagi jadvalda aks ettirilganidek, dunyoga mashhur va eng nufuzli reyting kompaniyalari bo'lmish Moody's, Standard & Poor's va Fitch Ratings reyting agentliklari tijorat banklari faoliyatiga baho berish jarayonida o'rganilayotgan bankning majburiyatlarni qanchalik tez va ishonchli bajara olish imkoniga ko'ra baholashni amalga oshirishi keltirilgan.

Xalqaro reyting agentliklari baholash mezonlari tavsifi

47-jadval

Moody's reytingida belgilanishi	Moody's reytingi tavsifi	O'xshash reytinglarda belgilanishi	
		Standard & Poor's	Fitch Ratings
Aaa	Qarzni qaytarish imkoniyati o'ta yuqori bo'lgan va eng kam risk darajasiga ega bo'lgan banklar. Ushbu banklarning kreditga layoqatlilik darajasining o'zgarishi ularning kuchli pozitsiyasiga ta'sir etish ehtimoli juda kam.	AAA	AAA
Aa	Kreditni qaytarish imkoniyati yuqori, biroq birinchi guruh banklariga qaraganda uzoq muddatli risklarga moyil banklar. Himoya darajasi Aaa guruhi singari o'ta yuqori emas.	AA	AA
A	Kreditni qaytarish imkoniyati yaxshi, lekin risklarga ta'sirchanlik bankning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib kelishi mumkin.	A	A
Vaa	Kreditni qaytarish imkoniyati qoniqarli. Himoya uchun ayrim elementlar etishmaydi va uzoq muddatli istiqbol uchun ishonchsiz.	VVV	VVV
Va	Kreditni qaytarish imkoniyati shubhali. O'z vaqtida majburiyatlarini bajarish imkoniyati shubha ostida va uzoq muddatli istiqbol uchun etarli darajada ishonchli emas.	VV	VV
V	Kreditni qaytarish imkoniyati past. O'z vaqtida majburiyatlarini to'lash imkoniyati uzoq muddatli davrda past.	V	V

Saa	Kreditni qaytarish imkoniyati juda past. Bunday banklar bankrot deb e'lon qilinishi mumkin yoki moliviy holatlari uchun ancha hatarlar mavjud.	SSS	SSS
Sa	O'z majburiyatlarini qoplash bo'yicha defolt holatda deb e'lon qilingan banklar.	SS	SS
S	O'z majburiyatlarini qoplash bo'yicha defolt holatda deb e'lon qilingan va vaziyatning yaxshilanishi ehtimoli juda past sanalgan banklar.	CD	CD

Xususan, qarzni qaytarish imkoniyati o'ta yuqori bo'lgan va eng kam risk darajasiga ega bo'lgan banklarning kreditga layoqatlilik darajasining o'zgarishi ularning kuchli pozitsiyasiga ta'sir etish ehtimoli juda kam bo'lgan tashkilotlarga nisbatan AAA va Aaa reyting natijalari qo'yiladi. Kreditni qaytarish imkoniyati yuqori, biroq birinchi guruh banklariga qaraganda uzoq muddatli risklarga moyil banklar. Himoya darajasi Aaa guruhi singari o'ta yuqori bo'lmagan tashkilotlarga nisbatan esa Moody's, Standard & Poor's va Fitch Ratings reyting agentliklari tomonidan AA va Aa reytinglari qayd etilishi belgilangan. Ishonchli guruhlar safidan o'rin olgan yana bir A reytingining belgilanishi kreditni qaytarish imkoniyati yaxshi, lekin risklarga ta'sirchanlik bankning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan moliya muassasalariga nisbatan qayd etiladi.

Shuningdek, kreditni qaytarish imkoniyati qoniqarli. Himoya uchun ayrim elementlar etishmaydi va uzoq muddatli istiqbol uchun ishonchsiz bo'lgan tashkilotlarga nisbatan Moody's reyting kompaniyasi tomonidan Vaa reytingi qo'yilsa, Standard & Poor's va Fitch Ratings reyting agentliklari tomonidan VVV reytingi qo'yilishi belgilangan. Kreditni qaytarish imkoniyati shubhali va o'z vaqtida majburiyatlarini bajarish imkoniyati shubha ostida va uzoq muddatli istiqbol uchun etarli darajada ishonchli bo'lmagan kredit tashkilotlariga nisbatan VV va Va reytingi qo'yiladi. Kreditni qaytarish imkoniyati pastva o'z vaqtida majburiyatlarini to'lash imkoniyati uzoq muddatli davrda past deb topilgan tashkilotlar faoliyatiga nisbatan V reytingi qo'yilishi qabul qilingan.

Kreditni qaytarish imkoniyati juda pastva bunday banklar bankrot deb e'lon qilinishi mumkin yoki moliviy holatlari uchun ancha hatarlar mavjud sanalgan banklar uchun Saa va SSS reytinglari Moody's, Standard & Poor's va Fitch Ratings tashkilotlari tomonidan mos ravishda berilishi belgilangan hamda o'z majburiyatlarini qoplash bo'yicha defolt holatda deb e'lon qilingan banklar uchun SS va Sa reytinglari va nihoyat, O'z majburiyatlarini qoplash bo'yicha defolt holatda deb e'lon qilingan va vaziyatning yaxshilanishi ehtimoli juda past sanalgan banklar uchun CD va S reytinglari qo'yilishi lozim. Moody's, Standard & Poor's va Fitch Ratings reyting agentliklari bilan bir qatorda o'z milliy agentliklari faoliyatida baholash mezonlarini aniq qilib belgilagan Rossiya reyting kompaniyalari qatorida «Rus-Reyting» reyting agentligini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

«Rus-Reyting» agentligining reyting shkalasi

48-jadval

VVV+	Nisbatan yuqori darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holati barqaror va o'rta muddatli istiqbolda mustahkam sanaladi.
VV+	O'rta darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holati qoniqarli va o'rta muddatli istiqbolda barqaror sanaladi.
V+	O'rtachadan ozgina pastroq darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holati asosiy ko'rsatkichlari qoniqarli va qisqa muddatli istiqbolda barqaror.
SSS+	O'rtachadan past darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holati asosiy ko'rsatkichlari qoniqarli biroq ularning barqarorligi shubhalidir.
SS+	Past darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holatning asosiy ko'rsatkichlari qoniqarliliga yaqin, biroq ularning barqarorligi gumonli.
S+	Yo'l qo'yib bo'lmaydigan past darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holati qoniqarsiz yoki hiyol qoniqarli, lekin barqarorligi dargumon.
D	Eng quyi darajadagi kreditga layoqatlilik. Moliyaviy holati o'ta qoniqarsiz (defoltga yaqin).
O	Bankning talabiga ko'ra bekor qilingan reyting.

Berilgan jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, «Rus-Reyting» agentligining baholash mezonlari reyting shkalasida aks ettirilganidek VVV+ eng yuqori reytingidan boshlanadi. Unda nisbatan

yuqori darajadagi kreditga layoqatlilik hamda moliyaviy holati barqaror va o'rtacha muddatli istiqbolda mustahkam sanaladigan banklarga nisbatan shunday reyting berilishi belgilangan.

O'rtacha darajadagi kreditga layoqatlilik hamda moliyaviy holati qoniqarli va o'rtacha muddatli istiqbolda barqaror sanaladigan moliya-kredit tashkilotlari faoliyatiga nisbatan VV+ reytingi belgilanishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'rtachadan ozgina pastroq darajadagi kreditga layoqatlilik hamda moliyaviy holati asosiy ko'rsatkichlari qoniqarli va qisqa muddatli istiqbolda barqaror tashkilotlarga nisbatan V+ reytingi beriladi.

O'rtachadan past darajadagi kreditga layoqatlilik hamda moliyaviy holati asosiy ko'rsatkichlari qoniqarli biroq ularning barqarorligi shubhali deb topilgan banklar uchun SSS+ reytingi berilishi qayd etilgan. Past darajadagi kreditga layoqatlilik hamda moliyaviy holatning asosiy ko'rsatkichlari qoniqarliga yaqin, biroq ularning barqarorligi gumonli deya baholangan tashkilotlarga nisbatan S+ reytingi qo'yiladi. Eng quyi darajadagi kreditga layoqatlilik va moliyaviy holati o'ta qoniqarsiz (defoltga yaqin) tashkilotlar faoliyati esa D reytingiga ega bo'lishi mumkin. Bankning talabiga ko'ra bekor qilingan reyting natijasi sifatida O eng quyi reytingi berilishi «Rus-Reyting» agentligining asosiy mezonlari sanaladi.

23.4. Xorijiy banklar faoliyatini reyting baholash usullarini milliy bank tizimida qo'llash istiqbollari

Xorijiy mamlakatlarda bank faoliyatini reyting baholash usullarining samaradorligi, albatta, tijorat banklariga nisbatan qo'yilgan reyting natijalariga muvofiq endilikda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo'llari orqali ifoda etiladi.

Xususan, bu borada «CAMEL» reyting sistemasining xususiyatlari shundan iboratki, bu sistema orqali tijorat banking reytingi bank faoliyatining barcha ko'rsatkichlarini hisobga oladi va har bitta ko'rsatkich bo'yicha ham baho beradi.

Kapital reytingini hisobga olishda yana katta tasir qiluvchi omillardan biri bu kapitalning ichki generatsiya bo'lish, kapital bozoriga kirish imkoniyati, depozitlar va majburiyatlar tarkibidir. Bank kapitalining etarlicligini baholash sistemasi 5 ballik sistema bo'yicha o'lchanadi. Banklarning olgan ball ko'rsatkichi qanchalik katta bo'lsa, bank shunchalik kuchsiz hisoblanadi. Olingan baholar quyidagicha hisoblanadi:

- 1 - kuchli;
- 2 - qoniqarli;
- 3 - o'rtacha;
- 4 - kritik;
- 5 - qoniqarsiz;

Kapitalni baholash quyidagilarga nisbatan aniqlanadi:

- 1. riskli aktivlarning hajmiga nisbatan aniqlanadi;
- 2. kritik va qoniqarsiz aktivlarning xajmiga nisbatan;
- 3. kutilayotgan bankning o'sishiga, rejalarga va kelajagiga nisbatan;
- 4. bank aktivlarini boshqarish sifatiga nisbatan;

Shu sababli bank kapitalini yakuniy baholashda aktivlar sifati katta o'rin tutadi. Agar bank kapitalining o'lchami katta bo'lsa ham, uning aktivlari qoniqarli bo'lmasa, bank kuchli hisoblanmaydi. Jami kapital, asosiy kapital va aktivlar sifati koeffitsienti o'lchamlaridan kelib chiqqan holda bank faoliyatini baholashning reytingi jadvalda keltiriladi:

Kapital etarililigini baholash¹

49-jadval

Baho	Asosiy kapital koeffitsienti K1	Jami kapital koeffitsienti K2	Cheklovlar
1	4% dan ancha yuqori	8% dan ancha yuqori	Aktivlar sifati 2dan kam bo'lmasligi, riskli aktivlar koeffitsienti 11%dan katta bo'lmasligi kerak
2	4% dan bir muncha yuqori	8% dan bir muncha yuqori	Aktivlar sifati 3, riskli aktivlar koeffitsienti chegaralanmagan
3	4% ga teng	8% ga teng	Aktivlar sifati 4, riskli aktivlar koeffitsienti chegaralanmagan
4	4% dan bir muncha past	8% dan bir muncha past	Ssudalar bo'yicha extimolli zararlarni qoplash zaxirasi dastlabki kapitaldan ortiq
5	4% dan ancha kam	8% dan ancha kam	Zararlar klassifikatsiyasi dastlabki kapitaldan ortiq

Jadvaldan shuni aytish mumkinki, banklarning kapitali etariligidan tashqari ularning aktivlariga ham banklarning kapitali bo'yicha reytingini aniqlashda e'tibor qaratiladi.

¹ «Управление деятельностью коммерческого банка» (Банковский менеджмент) / Под редакцией О.И.Лаврушина. Москва. Юрист 2003 год.

1 baho kapital o'lchami 1 guruh normativlarga to'g'ri keladigan va aktivlari a'lo yoki yaxshi deb baholangan banklarga beriladi;

2 baho kapital etarlilik darajasi 2 guruh normativlarga to'g'ri keladigan va aktivlar sifati 3dan kam bo'lmagan banklarga beriladi;

3 baho kapital etarlilik darajasi 3 guruh normativlarga to'g'ri keladigan va aktivlar sifati 4dan kam bo'lmagan banklarga beriladi;

4 baho umumiy kapitalning etarliligi 8%dan bir muncha kam qiymatga ega bo'lsa va bank aktivlari sifati past bo'lsa, bank aktivlari bo'yicha yo'qotishlar aksioner kapitalga ziyon keltirishi mumkin bo'lgan banklarga beriladi;

5 baho kapital etarlilik darajasi minimal me'yordan kichik bo'lsa va aktivlari yo'qotishlar kabi klassifikatsiya qilinib, aksioner kapitaliga zarar keltirayotgan banklarga beriladi.

Yuqoridagi baholashning mamlakatimizda qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 26-apreldagi 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining etariligidagi qo'yiladigan talablar to'g'risida» nizomga ko'ra bank kapitalning etariligi talablar Xalqaro Bazel andozalariga muvofiq hisoblanadi.

Kapitali mazkur talablariga muvofiq bo'lmagan banklar kapitalga qo'yiladigan talablarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishlari kerak bo'ladi. Buning uchun tijorat banklari o'z faoliyatlarida bir qancha belgilangan me'yorlar doirasida harakat qilishlari zarurdir.

Rossiya banklari uchun asosiy reyting mahsulotlari

50-jadval

Reyting mahsulotlari ko'rinishlari		
Renking (o'rin)	Ko'p o'lchamli ro'yxatlar va integral baholar	Reytinglar
Farqlanuvchi xususiyatlari		
Ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha tartiblangan banklar ro'yxati	Ko'rsatkichlar tizimida banklarni klasterlarga ajratish va mahalliy ko'rsatkichlarni solishtirish	Rasmiy va ekspertlar ma'lumotlariga asoslangan holda banklarni guruhlarga ajratish
Asosiy nashrlar va reyting agentliklari (RA)		

Ahborot agentliklari: «Interfaks» I A «Mobile» ITs «Reyting» Jurnallar: «The Banker» «Profil» «Ekspert» • «Dengi»	Rossiya banki: «Interfaks» I A «Mobile» ITs «Reyting» Jurnallar: «The Banker» «Profil»	Xalqaro RA: Moody's Standard & Poor's •Fitch IBCA Rossiya RA: ITs «Reyting» «Interfaks» «Rus-Reyting» «Ekspert RA»
---	--	---

Berilgan jadval ma'lumotlari asosida Rossiya banklari uchun asosiy reyting mahsulotlarining tarkibini ko'rishimiz mumkin. Rossiyada faoliyat yuritayotgan reyting agentliklaridan ITs «Reyting», «Interfaks», «Rus-Reyting» va «Ekspert RA» singari mahalliy reyting agentliklari keltirilgan bo'lsa, xalqaro reyting agentliklari sifatida Moody's, Standard & Poor's, Fitch IBCA reyting kompaniyalari faoliyati keng yo'lga qo'yilgan. Ko'p o'lchamli ro'yxatlarni tuzish hamda integral baholarni qayd etuvchi nashrlar sifatida «The Banker» va «Profil» jurnallari keltirilgan bo'lsa, Rossiya bankiga tegishli bo'lgan «Interfaks», I A «Mobile», ITs «Reyting» xizmatlari alohida reyting tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi yorituvchi ommaviy vositalar qatoridan o'rin egallagan. Umuman olganda tijorat banklariga nisbatan qo'yilgan reyting natijalari tahlili va tavsifi Rossiyada faol ravishda olib borilishi yuqoridagi agentliklar va nashrlar tomonidan ta'minlanadi.

Moliyaviy barqarorlik reytingi («Moody's» va «Fitch IBCA» reyting agentliklari baholashlari mezonida)

51-jadval

Reytinglar sinfi	Reyting	Reyting izohi (barqarorlik darajasi)
A (investitsion daraja)	A+	Yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlik. Majburiyatlarni qoplash imkoniyati qaytarish muddati yoki tashqi ta'sirlardan qat'iy nazar ishonchli.

	A	Yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlik. Faqatgina makroiqtisodiy holatning keskin yomonlashuvi ta'siridagina o'zgarishi mumkin.
	A-	Moliyaviy holati barqaror va ishonchli. Majburiyatlar bo'yicha to'lovga qobillik makroiqtisodiy holatga bog'liq.
V (quyi investitsion daraja)	V+	Moliyaviy holat barqarorligi ta'minlangan. To'lovga layoqatlilik muddatlari tashqi holatlarga bog'liq.
	V	Moliyaviy holat barqarorligi ta'minlangan, biroq to'lovga layoqatligini ta'minlash muddatlari qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlar uchun farq qiladi.
	V-	Yaxshi tashqi holatlar sharoitida barqarorlik ta'minlangan.
S (spekulyativ daraja)	S+	Barqarorlik tashqi ta'sirlarga bog'liq, moliyaviy holat yomonlashuvi ehtimoli bor.
	S	Barqarorlik tashqi ta'sirlarga bog'liq, yaqin istiqbolda moliyaviy nobarqarorlik ortishi ehtimoli bor.
	S-	Barqarorlik tashqi ta'sirlarga bog'liq, yaqin istiqbolda moliyaviy nobarqarorlik ortishi ehtimoli bor, tashqi yordam zarur.
D (etarli darajadagi nobarqarorlik)	D+	Moliyaviy barqarorlik muammoli, tashqi yordam zarur.
	D	Barqarorlik shubha ostida.
	D-	Barqarorlik ta'minlanmagan.
E (yuqori nobarqarorlik)	E	Yuqori darajadagi moliyaviy nobarqarorlik.

Keltirilgan jadvalda aks ettirilganidek moliyaviy barqarorlik reytingini «Moody's» va «Fitch IBCA» reyting agentliklari baholashlari mezonida keltirilishiga muvofiq yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlik

hamda majburiyatlarni qoplash imkoniyati qaytarish muddati yoki tashqi ta'sirlardan qat'iy nazar ishonchli faoliyat kuzatiladigan tashkilotlar faoliyatiga nisbatan A+ reytingi berilishi belgilangan. Yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlik, lekin, faqatgina makroiqtisodiy holatning keskin yomonlashuvi ta'siridagina o'zgarishi mumkin bo'lgan moliya muassasalari faoliyatiga nisbatan A reytingi beriladi. Moliyaviy holati barqaror va ishonchli, shuningdek ajburiyatlar bo'yicha to'lovga qobillik makroiqtisodiy holatga bog'liq tashkilotlarga nisbatan A- reytingi berilishi ko'zda tutilgan. Quyi investitsion darajadagi reytinglar safidan V toifalarga taaluqli bo'lgan barqarorlik yaxshi deya e'tirof etiladigan baholar belgilangan.

Spekulyativ darajadagi reyting baholari sifatida S guruhiga mansub reytinglar barqarorlik tashqi ta'sirlarga bog'liq, yaqin istiqbolda moliyaviy nobarqarorlik ortishi ehtimoli bor, tashqi yordam ham zarur hollari kuzatiladigan tashkilotlar faoliyatiga nisbatan qayd etilishi e'tirof etilgan. D toifadagilar etarli darajadagi nobarqarorlik mavjud tashkilotlar faoliyatiga nisbatan qo'yilishi belgilangan bo'lib, barqarorlik shubha ostida bo'lgan yoki ta'minlanmagan tashkilotlarga nisbatan qo'yiladi. Eng yuqori darajadagi moliyaviy nobarqarorlik E reytingini berish orqali belgilanadi.

Xalqaro standartlar asosida samarali bank nazoratining amalga oshirilishi, bank likvidligi va aktivlari sifati ustidan doimiy monitoring olib borilishi mamlakatimiz banklariga etakchi xalqaro reyting agentliklarining ijobiy reyting baholarini olish imkoniyatini berdi.

Shu o'rinda, 2014-yil 22-yanvarda «Moody's Investors Service» xalqaro reyting agentligi tomonidan «Asaka» bank reytingi tasdiqlandi va barcha reytinglar istiqboli «barqaror» deb topildi. Bankning yuqori reyting baholariga sazovor bo'lishi, uning yana bir bor ishonchli muassasa ekanligidan dalolat beradi va aholining unga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Ta'kidlash lozimki, 2014-yilning 1-yanvar holatiga bank aktivlari miqdori 4 640,7 mlrd. so'mni, kapital hajmi 691,1 mlrd.so'mni, kredit qo'yilmalari va lizing xizmatlari hajmi 2 437,8 mlrd.so'mni tashkil etdi. Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlar 1 737,7 mlrd. so'mni, shundan investitsion kreditlar 1 493,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

«Standard and Poor's» tahlilchilari yana bir bor O'zbekiston banklarining joriy faoliyatini, davlat Hukumatining mamlakat moliyaviy tizimini mustahkamlash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan siyosatini o'rganib chiqmoqda. Jumladan, bank faoliyatini, uning strategik

yo'nalishlari va 2013-yil yakunlariga binoan olingan natijalarni tahlil qilgan holda «Standard and Poor's» Xalq bankiga nisbatan B+/B darajasida reytingni tasdiqladi. O'zbekistondagi eng yirik filiallar tarmog'i bankka doimo hududiy jihatda mijozlarga yaqin bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bankning asosiy strategik maqsad va vazifalari mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi sifatli darajasiga erishish, respublikadagi eng yirik raqobatbardosh bank nomiga sazovor bo'lish, investitsiya jalb etilishini oshirish va moliya xizmatlari bozorida etakchi o'rinlarni egallashdan iborat. Bugungi kunda Xalq banki O'zbekiston bank tizimidagi eng yirik xalqalardan biri hisoblanadi. Mamlakatdagi tizimni tashkillashtiruvchi moliyaviy institutlardan biri bo'lgani holda, Xalq banki filial tarmoq miqdori, jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hajmi va aholi omonatlari kabi ko'rsatkichlar bo'yicha respublika bank tizimidagi mutlaq etakchilari sirasiga kiradi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan «Ahbor-reyting» reyting agentligi tomonidan aynan xorijiy banklar faoliyatini reyting baholash usullari bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, quyidagi jadval ma'lumotlarini ko'rib o'tamiz.

**«Ahbor-reyting» reyting agentligi tomonidan qayd etilgan
O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli hajmi¹
(2014-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)**

52-jadval

O'-rin	Tijorat banklari	Kredit portfeli, mln. so'm-da (01.01.2014)	Ulushi, %	O'zgarishi, % da		
				3 oy	yarim-yil	bir-yil
1.	TIF Milliy bank*	6 822 300,00	27,08%	10,04%	26,26%	33,19%
2.	OATB «O'zsanoat-qurilishbank»	4 791 053,20	19,02%	6,55%	16,22%	40,86%
3.	DAT «Asaka» bank (OAJ)	2 365 173,60	9,39%	7,54%	21,44%	30,02%
4.	OATB «Qishloq-qurilish bank»	2 133 450,0	8,47%	7,14%	23,11%	51,18%
5.	ATIB «Ipoteka-bank»	1 905 767,90	7,56%	10,82%	23,62%	46,24%

¹ «Ahbor-reyting» reyting agentligi kvartallik byulleteni. 34-son, fevral, 2014-y.

52-jadvalning davomi

6.	OATB «Agrobank»	1 693 102,5	6,72%	-24,09%	-19,03%	40,19%
7.	DT Xalq bank	1 462 390,20	5,80%	-1,23%	2,48%	37,67%
8.	OATB «Hamkorbank»	616 634,2	2,45%	15DZ%	29,53%	57,47%
9.	OATB «Mikrokreditbank»	550 514,8	2,19%	-32,89%	-33,11%	25,45%
10.	OAT «Aloqabank»	486 712,4	1,93%	5,93%	16,73%	20,50%
11.	OAT «Turon bank»	416 498,3	1,65%	1,59%	7,72%	20,64%
12.	OAITB «Ipak Yuli»	398 377,30	1,58%	7,57%	10,93%	25,41%
13.	OATB «Kapitalbank»	319 345,70	1,27%	7,13%	11,54%	40,19%
14.	OATB «Savdogar»	262 715,80	1,04%	0,05%	21,38%	66,29%
15.	XOABB «Trast Bank»	252 047,00	1,00%	12,58%	44,15%	76,81%
16.	OATB «Asia Alliance Bank»	193 289,1	0,77%	26,87%	34,22%	91,56%
17.	XOATB «InFinBank»	145 057,6	0,58%	-8,17%	37,38%	68,54%
18.	XYoATB «Orient Finans Bank»	842 211,3	0,33%	81D4%	131,56 %	306,45%
19.	O'zKDB YoAJ	78 865,60	0,31%	32,10%	39,03%	20,18%
20.	XOATIB «Turkiston»	50 723,30	0,20%	21,26%	34,86%	7,66%
21.	XYoATB «Davr bank»	50 454,7	0,20%	27,36%	73,95%	161,85%
22.	XOATB «Hi-Tech Bank»	29 615,70	0,12%	17,25%	12,70%	3,74%
23.	ChOAKB «Universalbank»	28 287,90	0,11%	12,12%	7,96%	28,17%
24.	XOATB «Raynak bank»	28 085,20	0,11%	75,92%	157,00%	866,23%
25.	YoAJ O'F Bank	16 723,5	0,07%	15,68%	113,08%	275,98%
26.	XOATB «Amir bank»**	11 285,5	0,04%	0,00%	-1,10%	-11,66%
27.	Eron Soderot sho'ba banki	320,0	0,00%	35,98%	28,68%	83,22%
	Jami	25 193 002	100 %	3,72%	15,05%	38,71%

*2013-yil 1 oktyabr ma'lumoti

**2013-yil 1 oktyabr ma'lumoti, bugungi kunda XOATB «Amir bank» litsenziyasi chaqirib olingan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tijorat banklarining kredit portfelidagi o'zgarishlar 2013-yil davomida ayniqsa xususiy banklar uchun ko'proq hajmda oshgan. Tablil ma'lumotlariga ko'ra XOATB «Ravnaq bank» oldingi-yilga nisbatan 866,23% ga oshgani ma'lum bo'ldi va bu eng ko'p o'sish ko'rsatkichidir. O'sish dinamikasi bo'yicha yana eng ko'p natijaga erishgan banklar sifatida XYoATB «Orient Finans Bank» 306,45%, YoAJ O'T Bank 275,98%, XYoATB «Davr bank» 161,85% singari natijalar bilan oldingi o'rinlarni egallagan.

Kredit portfeli salmog'i bo'yicha esa TIF Milliy bank 6 822 300 mln, OATB «O'zsanoatqurilishbank» 4 791 053,20 mln, DAT «Asaka» bank (OAJ) 2 365 173,60, OATB «Qishloq-qurilish bank» 2 133 450, ATIB «Ipoteka-bank» 1 905 767,90 mln. so'm kredit portfeliga ega bo'lgan holda kuchli beshlikni hosil qilishgan.

Xalq banki Axborot xizmatining xabariga ko'ra, «Standard and Poor's» xalqaro reyting tashkiloti 150-yillik tarixga ega bo'lib, tashkilot 23 mamlakatda o'z vakolatxonalariga ega, butun dunyo investorlari esa bu tashkilotni eng mashhur moliya bozorlari haqidagi axborot manbai sifatida ta'n oladilar. Takidlash joizki, bugungi kunda «Standard and Poor's» yuqori darajada o'ylangan investitsiya qarorlarini qabul qilishga intiluvchi investorlarni, kredit reytinglari, indekslari, investitsiya tahlili shaklida bozorlar tadqiqoti, shuningdek, xavflar va xavf-menejmenti tahlili sohasidagi tadqiqot natijalari bilan ta'minlaydi.

Yuqoridagi kredit portfeli tarkibidan yana kredit reytingini aniqlash maqsadida foydalanish, kredit muddatlari orqali qisqa va uzoq muddatli istiqbolda bank barqarorligini aniqlash yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunga kelib, respublikamiz barcha tijorat banklari faoliyati xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan «Barqaror» degan bahoga ega bo'ldi.

Tanyach so'z va iboralar

Aktivlar sifati, bankning bozor pozitsiyasi, barqarorlik, daromadlarning barqarorligi, kapital, kapitalning etariligi, likvidlilik, menejment, reyting agentligi, reyting bahosi.

Takrorlash uchun savollar

1. Banklar faoliyatini reyting asosida baholashning zarurligi nimada?

2. Tijorat banklari faoliyatini reyting asosida baholashning qanday usullari mavjud?

3. Tijorat banklari faoliyatini **CAMELS** reyting tizimi asosida baholash tartibi qanday?

4. Xalqaro reyting agentliklari tijorat banklari faoliyatini qanday ko'rsatkichlar, mezonlar va me'yorlar asosida baholaydi?

5. Banklarga berilgan reyting baholari qanday tasniflanadi?

6. O'zbekiston banklarining xalqaro reyting baholari darajasi qanday?

7. Reyting asosida baholash tizimlari qanday afzalliklarga ega?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni. 1995-yil 21-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 1996-yil 25-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 2002-yil 5-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuni. 2003-yil 11-dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni. 2008-yil 22-iyul.
7. O'zbekiston Respublikasining «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi qonuni. 2011-yil 11-avgust.
8. O'zbekiston Respublikasining «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 2012-yil 8-noyabr.
9. O'zbekiston Respublikasining «Garov reestri to'g'risida»gi qonuni. 2013-yil 19-iyul.
10. O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchyaalar kiritish haqida»gi qonuni. 2014-yil 6-may.
11. O'zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to'g'risida»gi qonuni. 2014-yil 18-iyun.
12. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida»gi qonuni. 2015-yil 29-iyun.
13. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ-1166-sonli «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. 2009-yil 28-iyul.
14. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ-1317-sonli «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2010-yil 6-aprel.

15. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ-1438-sonli «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori. 2010-yil 26-noyabr.

16. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ-2344-sonli «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 2015-yil 6-may.

17. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PF-1545-sonli «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni. 2012-yil 10-aprel.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 104-sonli «Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. 2000-yil 24-mart.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 422-sonli «Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori. 2002-yil 4-dekabr.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 285-sonli «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2000-yil 29 iyundagi 245-son qaroriga o'zgartirishlar va kiritish haqida»gi qarori. 2013-yil 21-oktyabr.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 44-sonli «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va uning shu'ba tuzilmalari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qarori. 2014-yil 3-mart.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 71-sonli «Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va banklar tomonidan korxonalarni yangi investorlarga sotishni jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. 2014-yil 27-mart.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 239-sonli «Qimmatli qog'ozlarni muomalaga kiritish kvotalari va tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori. 2014-yil 20-avgust.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 259-sonli «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga

o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 2015-yil 22-maydagi O'RQ-385-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 2015-yil 8-sentyabr.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 305-sonli «Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazining samarali faoliyatini ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. 2015-yil 27-oktyabr.

26. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998-yil 2-dekabrda 557-sonli «Bir qarzdor yoki o'zaro dahldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida»gi Nizomi. 1998-yil 2-dekabr.

27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1999-yil 11-fevralda 632-sonli «Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rmini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish» tartibi. 1999-yil 11 fevral.

28. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 2-martda 905-son «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomi. 2000-yil 2-mart.

29. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3-A/1-sonli «Yuridik shaxslar tomonidan milliy valyutadagi korporativ bank kartalaridan foydalanish tartibi to'g'risida»gi Nizomi. 2005-yil 12-mart.

30. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 14/3-sonli «Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi yo'riqnomasi. 2015-yil 13-iyun.

31. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 19/14-sonli «Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi yo'riqnomasi. 2015-yil 22-iyul.

32. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi 2696 sonli Nizomi. 2015-yil 14-iyul

33. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1993

34. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1999. – B.574.

35. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish-yili bo'ladi. – T.: «O'zbekiston», 2014, 7 b.
36. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: «O'zbekiston», 2015.
37. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan-yil bo'ladi. – T.: «O'zbekiston», 2012.
38. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009.
39. Андрюшин С.А. Банковские система. Учебное пособие. – М.: Алфа-М: ИНФРА-М, 2013.
40. Abdullayeva Sh.Z., Qoraliev T.M., Ortiqov U.D. «Bank resurslari va ularni boshqarish». Monografiya. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2009.
41. Abdullayev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2009.
42. Abdullayeva Sh.Z. «Bank ishi». TMI, T.:«Moliya-iqtisod», 2003.
43. Abdullayeva Sh.Z. «Bank risklari va kreditlash». T. «Moliya», 2002.
44. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. T., «Moliya», 2002
45. Алгин А.П. Риск и его роль в общественной жизни – М.: Мысль 1989, 188 с.
46. Азрилияна А. Большой экономический словарь. – М.: Институт новой экономики, 1999, 852 с.
47. Авагян Г.Л. Экономический анализ деятельности коммерческого банка. Учеб. пособие: – М.: Магистр, 2007.
48. Bobakulov T.I., Abdullayev U.A. Xalqaro valyuta – kredit munosabatlari. – T.: «Sano Standart», 2014.
49. Boboqulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash: muammolar va echimlar. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya», 2007
50. Банковское дело: Учебник / Под ред.Г.Н.Белоглазовой, изд., перераб. и доп.-М.: Финансы и статистика, 2005, 553 с

51. «Банки и небанковские кредитные организации и их операции» Учебник под ред. д.э.н., проф., академика РАЕН Э.Ф. Жукова. – Москва: «Вузовский учебник», ВЗФЕИ, 2005
52. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание 2-е переработанное и дополненное. – М.: Книжный мир, 2006, 362 с.
53. В.В.Кисилев «Управление банковским капиталом» – Москва: «Экономика», 1997, 18 с.
54. Дихтер В.И. Банковские услуги предприятиям. Базовые операции: Учеб.пособ. – М.: Российский университет дружбы народов, 2007.
55. Ивасенко А.Г., Никонова Я.И. Факторинг. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009.
56. Ёгуртжан С. Ключевые принципы эффективного банковского надзора. Пер. с англ. – Вена, 1999, 13 с.
57. Кузнец Ю.В. Банковская дело. – М.: 2002, 360 с.
58. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999.
59. Крис Д.Ж. Барлтон и Д. «Банковские учреждения в развивающихся странах» II том. Всемирный банк. – Вашингтон: ДС, 1992, 101 с.
60. Кох Т.У. Управление банком. – Уфа: Спектр, 1993, 34 с.
61. Qoraliyev T.M., Yaxshiboev G'.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash mexanizmi.-Monografiya.-T.: Akademiya. 2006-yil. - B.10-13.
62. Колтинюк Б.А. «Рынок ценных бумаг». Учебник 2-е издание. «Санкт-Петербург», издательство В.А. Михайлова 2001.
63. Козлова Э.П., Галантна Э.Н. Бухгалтерский учёт в коммерческих банках. – М.: Финансы и статистика, 2000.
64. Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д.Джонк «Основы инвестирования» – М: Издательство «Дело», 1997.
65. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009.
66. Лаврушин О.И. Банковская дело. Учебник.-М.:Финансы и статистика, 1998, 68 с.
67. Лаврушин О.И. Кредитная экспансия и управление кредитом. Учебное пособие. Под ред. О.И.Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2013.
68. Лаврушин О.И. Анализ экономической деятельности клиентов банка. -Москва: Инфара-М.

69. Миллер Л.Р., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. Пер. с англ. - Москва: Инфра-М, 2000.
70. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. -М.: И.Д. ООО «Вильямс», 2013.
71. Менкю Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд. Пер. с англ. - СПб.: Питер, 2009.
72. Маршалл А. Принципы политической экономии: Пер. с англ. (Часть II) -М.: Прогресс, 1984. 47 с.
73. Mullajonov F.M. O'zbekiston bank tizimi: 2014-yil natijalari va 2015-yildagi ustuvor vazifalar//Bozor, pul va kredit. - Toshkent, 2015. - №1.
74. Можанова И.И., Антонюк О.А. Финансовая устойчивость банковской системы как фактора её развития в регионе//Банковское дело. - Москва, 2014.
75. Norqobilov S.X. va boshq. «Xalqaro amaliyotda bank nazorati». T.:TMI. 2007.
76. Никитина Т.В. Банковский менеджмент. -СПб.:Питер.-2002, 76 с
77. Omonov A.A. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. - T.: «Moliya-iqtisod», 2010
78. Omonov A.A., Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2012.
79. Ольшанский А.И. «Банковское кредитование» -М.: РДЛ, 1997.
80. Панова Г.С. Финансовый анализ состояния коммерческого банка. -М.: Дело и сервис, 1996, 214 с.
81. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. Перевод с англ. -Москва: Инфра, 1996.
82. Роуз П.С. Банковский менеджмент. -М.:Дело-ЛТД, 1995, 323 с.
83. Синки Ж. Управление финансами в коммерческом банке/ Пер.с англ.-М.: 1994, 458с
84. Севрук В.Т. Банковские риски -М. 7 дело, 1995, 3 с
85. Стоянова Э.С. Финансовый менеджмент. - М., 1993
86. С.И.Лукаш, А.А.Малютина «Банковская энциклопедия». - Днепропетровск, 1994.

87. Уерто де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008.

88. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк –М., 1994.

89. «Управление деятельностью коммерческого банка» (Банковский менеджмент) / Под редакцией О.И.Лаврушина. –Москва: Юрист, 2003.

90. Худякова Л.С., Сидорова Э.А. Реформа регулирования финансового сектора в Европейском Союзе//Деньги и кредит. – Москва, 2014, №4.

91. Хайдаршина Г.А. Теоретические и методологические аспекты мониторинга западноевропейского банковского сектора. Монография. – М.: Экономика, 2013.

92. Черкасов В.Э.Банковские операции: Финансовый анализ. – М.: ФИС, 2010.

93. Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С., Негашев ЭВ. Методика финансового анализа предприятия. - Москва: Юни-Глоб, 1992.

94. Шидловская М.С. Банковский надзор и аудит. –Минск: Высшая школа, 2003, 3 с.

95. Шим Дж., Сигел Дж., Нидлз Б., Андерсон Г. Финансовый менеджмент. - Москва: Филинь, 1996.

96. Э.Рид, Р. Коттер, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» Перевод с англ. –М.: Космополис, 1991.

97. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: РИОР, ИНФРА-М, 2013.

98. Янишевская В.М. Анализ платежеспособности предприятий и организаций: Практическое руководство для государственных и иных предприятий. - Москва, 1991.

99. A.Omonov «Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari» i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T: 2008

100. A.A.Omonov «Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari».i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya avtoreferati.T.2004,-7 b.

101. Б.Б.Бабаев «Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использование». Дис. на соиск уч. ст. к.э.н.-Т.: БФА, 2002.

102. Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2002

103. Karimov N.F. Risklar va tijorat banklarining foydasini shakllantirish muammolari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 1998.

104. Туйчиев З.Н. Вопросы финансово-кредитного обеспечения жилищного строительства в Республике Узбекистан. Автореф. дис. канд. эк. наук. – Т., 2002.

105. U.Ortiqov «Bank resurslari va ularni boshqarish» i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T: 2008

106. Abdullaeva Sh.Z. CAMEL-bank faoliyatini baholash xizmatida. // Bozor, pul va kredit jurnali, 1998-yil 4-son 49-bet.

107. Abdullaeva. Sh. Xalqaro bank nazorati. Bozor, pul, kredit. Jurnal 2001, 12-son, 14-bet.

108. Muhiddinov D., Kim A. Tijorat banki likvidligini boshqarishda yangilik // Bozor, pul va kredit.-Toshkent, 2000.-№3.-21 b.

109. Terri Straud. Bank nazorati. // Bozor, Pul va Kredit jurnali, 1999-yil 9-soni, 12-bet.

110. Heffernan S. Modern Banking. N.Y.: Wiley, 2005.

111. Henry J.S The Blood Bankers: Tales from the Global Underground Economy. N.Y.: Basic Books, 2005.

112. Ikle Mh. Die Schweiz als internationaler Bank-und Finanzplatz. Zurich, 1970.

113. Jayaswal S., Shetty Y. Practical. NET for Financial Markets. N.Y.: Apress, 2006.

114. Liaw T.K The Bussines of Investment Banking: A Comprehensive Overview. N.Y.: Wiley, 2005 .

115. World Bank. 2013. Doing Business 2013: Разумный подход к регулированию деятельности малых и средних предприятий. Вашингтон, Д: World Bank Group. DOI: 10.1596/978-0-8213-9615-5. Liense: reative ommons Attribution BY 3.0. p.3.

116. Эффективное использование социально-экономического потенциала и привлечение новых источников экономического роста. Материалы ВИ Форума экономистов. – Т.: «ИФМР», 2015.

117. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik-yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendentsiyalari va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo'ljallangan prognozlar. Statistik to'plam. – T.: «O'zbekiston», 2011.

118. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil uchun statistik sharhi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – T.: 2015.

119. International convergence of capital measurement and standards. Basel Committee on Banking Supervision. – Basel, 1998.

120. International convergence of capital measurement and standards. Basel Committee on Banking Supervision (Basel-II). – Bank for International Settlements, 2006.

121. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Basel Committee on Banking Supervision. – Bank for International Settlements, 2010.

122. «Deutsche Bank – Annual Report, 2005» ma'lumotlari

123. IMF «EXCHANGE ARRANGEMENT», 1999 year, Washington.

124. Центральный банк в экономической системе государства. Журнал «Банковские услуги», 1999, №4, 10 с.

125. Финансово–кредитный словарь. –Москва: «Финансы и статистика», 1984.

126. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2013. - №6 (558). – B. 5-6.

127. 2014-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari//Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2015. - №1. - B. 24.

128. ATB «Hamkorbank» ma'lumotlari

129. USAID - CAMEL tizimi bo'yicha ma'lumot. /1998-yil O'zR. Markaziy banki, 8-b

130. «Ahbor-reyting» reyting agentligi kvartallik byulleteni №34, fevral, 2014 y.

131. Internet saytlari:

www.imf.org.

www.bis.org.

www.cbr.ru

www.cbu.uz.

www.finkredit.com

www.banking.com

www.factors-chain.com

MUNDARIJA

I BOB. «BANK ISHI» FANINING PREDMETI VA VAZIFALAR	
1.1.»Bank ishi» fanining predmeti va metodlari.....	5
1.2. Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.....	7
1.3. Fanning tarkibiy tuzilishi.....	9
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI VA BOSHQA KREDIT TASHKILOTLARI	
2.1. Banklar va bank tizimi.....	12
2.2. Markaziy bankning tashkiliy shakllari, maqomi va mustaqilligi.....	16
2.3. Nobank moliya-kredit tashkilotlari va ular faoliyatining xususiyatlari.....	26
2.4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanishi.....	39
III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY ASOSLARI	
3.1. Tijorat banklarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va lizentsiyalash tartibi.....	49
3.2. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi.....	66
3.3. Banklar faoliyatida vasiylikning joriy etilishi.....	73
3.4. Tijorat banklarini tugatish tartibi.....	79
IV BOB. TIJORAT BANKLARI PASSIV OPERATSIYALARI VA ULARNING TARKIBI	
4.1. Bank balansi va uning tuzilishi.....	92
4.2. Bank resurslari va ularning iqtisodiy mohiyati.....	97
4.3. Bank mablag'larini tashkil qilish nazariyasining modeli va usullari.....	106
4.4. Tijorat banklarining o'z mablag'lari va unda bank kapitalining o'rni.....	111
4.5. Bank kapitalining yetarliligi va samaradorligi.....	125
4.6. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari va nodepozit resurslari.....	131
4.7. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish amaliyoti.....	135
4.8. Tijorat banki resurslarini boshqarish usullari va konsepsiyalari.....	139
V BOB. TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERAT- SIYALARI TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH	
5.1. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va uning tarkibi.....	146

5.2. Bank aktivlarining sifat darajasi va maxsus zaxiralarni shakllantirish tartibi.....	148
5.3. Tijorat banklarida aktivlar portfelini boshqarish usullari.....	157
5.4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning zamonaviy holati.....	164

VI BOB. TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

6.1. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining ahamiyati va turkumlanishi.....	172
6.2. Tijorat banklarining spot operatsiyalari.....	175
6.3. Tijorat banklarining muddatli valyuta operatsiyalari.....	180
6.4. Tijorat banklarining svop operatsiyalari.....	186
6.5. Banklarda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish tartibi va unga qo'yiladigan talablar.....	189

VII BOB. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

7.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalarini tashkil etishning nazariy asoslari.....	194
7.2. Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalarni amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	201
7.3. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.....	208

VIII BOB. KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

8.1. Kreditlashni tashkil etishning nazariy asoslari.....	218
8.2. Tijorat banklari kredit siyosati, maqsadi va vazifalari.....	225
8.3. Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar va uning ahamiyati.....	234

IX BOB. KREDITNING TA'MINOTI VA UNING SHAKLLARI

9.1. Kreditning ta'minoti tushunchasi va uning kredit munosabatlaridagi ahamiyati.....	253
9.2. Garov mexanizmi va uning tuzilishi.....	258
9.3. Kredit-garov munosabatlarining huquqiy asoslari.....	263
9.4. Garov obyektlarini baholash va garov shartnomasining tuzilishi.....	267
9.5. Tijorat banklarida garov obyektlarini realizatsiya qilish tartibi..	274

X BOB. KREDITLASH JARAYONI VA ULARNING BOSQICHLARI

10.1. Kreditlash bosqichlari tushunchasi va uning tashkil etilishi..	279
--	-----

10.2. Tijorat banklarida kredit yig' ma jildi (paketi)ni shakllantirish tartibi va kredit hujjatlariga qo'yiladigan talablar.....	283
10.3. Kredit shartnomasining mazmuni va uning tuzilishi.....	286
10.4. Kredit monitoringi mazmuni, turlari va uning kredit qaytarilishidagi ahamiyati.....	297

XI BOB. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI

11.1. Tijorat banklari foiz siyosatining mazmuni, maqsadi va vazifalari.....	303
11.2. Foiz stavkalari va ularning turlari.....	309
11.3. Tijorat banklari foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi omillar.....	314
11.4. Bank krediti bahosi shakllanishi bo'yicha xorij tajribasi....	323

XII BOB. AYLANMA MABLAG'LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASH USULLARI

12.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi va uning korxonalar faoliyatidagi o'rni.....	333
12.2. Aylanma mablag'larni tashkil etish manbalari va kreditning roli.....	338
12.3. Kreditga layoqatlilik tushunchasi va uning kreditlash jarayonidagi ahamiyati.....	344
12.4. Yuridik shaxslarning kreditga layoqatlilikini baholash usullari.....	350
12.5. Jismoniy shaxslarning kredit qobiliyatini baholash tartibi...	351
12.6. Mijozlar kreditga layoqatlilikini baholashning zamonaviy usullari.....	356

XIII BOB. ALOHIDA KREDIT TURLARI VA USULLARI

13.1. Kreditning turlari	368
13.2. Zamonaviy kreditlash usullari.....	374
13.3. Kreditlash shakllari.....	376
13.4. Kreditlashning overdraft shakli.....	377
13.5. Kreditlashning kontokorrent shakli.....	378
13.6. Kreditlashning faktoring shakli.....	379
13.7. Kreditlashning forfeyting shakli.....	380
13.8. Sinditsiyali kreditlash.....	381
13.9. Ta'lim krediti.....	385

XIV BOB. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

14.1. Kichik biznes haqida tushuncha va uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni.....	391
---	-----

14.2. Kichik biznesni kreditlashni tashkil qilishning huquqiy asoslari.....	397
14.3. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga o'z mablag'lari hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish tartibi.....	403
14.4. ATB Mikrokreditbankning kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlash va mikromoliyalash tartibi.....	409
14.5. Kichik biznes loyihalarini chet el investitsiyasi va boshqa manbalar hisobidan kreditlash tartibi.....	413

**XV BOB. TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN
IMTIYOZLI KREDITLASH AMALLARI**

15.1. Imtiyozli kreditlashning mazmuni va ahamiyati.....	422
15.2. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash jamg'ar- masining shakllantirilishi va undan kreditlar berish tartibi.....	423
15.3. Qishloq xo'jaligi korxonalarini imtiyozli kreditlash.....	428
15.4. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tadbirkordik subyektlarini imtiyozli kreditlash.....	434

**XVI BOB. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING
OPERATSIYALARI**

16.1. Tijorat bankining faktoring operatsiyalari mazmuni va uning kelib chiqishi.....	442
16.2. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	453
16.3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.....	457

**XVII BOB. TIJORAT BANKLARINING LIZING
OPERATSIYALARI**

17.1. Lizing operatsiyalarining mohiyati.....	465
17.2. Lizing operatsiyalarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari..	472
17.3. Banklar faoliyatida lizing operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	476

**XVIII BOB. TIJORAT BANKLARINING YANGI
XIZMAT TURLARI**

18.1. Bank plastik kartochkalari va ular orqali to'lovlarni amalga oshirish.....	482
18.2. Masofaviy bank xizmatlari.....	485
18.3. Banklarning forfeyting operatsiyalari.....	490

**XIX BOB. TIJORAT BANKLARINING BALANS DAN
TASHIQARI OPERATSIYALARI**

19.1. Tijorat banklari balansidan tashiqari operatsiyalarining mazmuni..	494
19.2. Tijorat banki tomonidan beriladigan kafolatlari.....	494
19.3. Tijorat banklarining forward operatsiyalari, option va fyuchers shartnomalari.....	499
19.4. Tijorat banklarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar vosita- sidagi hisob kitob operatsiyalari.....	501
19.5. Tijorat banklari balansidan tashiqari operatsiyalarining boshqa turlari.....	503

**XX BOB. TIJORAT BANKLARINING DAROMADLARI,
XARAJATLARI VA FOYDASI**

20.1. Tijorat banklarining daromadlari mazmuni va shakllanish manbalari.....	506
20.2. Bank daromadlarining turlari va tasnifi.....	509
20.3. Tijorat banklarining xarajatlari mazmuni va uning turlari....	515
20.4. Tijorat banklari foydasi va uning taqsimlanishi.....	522

**XXI BOB. TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA
LAYOQATLILIGI VA LIKVIDLILIGI**

21.1. Tijorat banklari likvidliligi tushunchasi va uning ahamiyati..	527
21.2. Tijorat banklari likvidliligini aniqlash tartibi.....	534
21.3. Tijorat banklari likvidliligini boshqarish nazariyalari.....	540
21.4. Tijorat banklari likvidliligini ta'minlashning xorij tajribasi...	547

**XXII BOB. TIJORAT BANKLARI RISKLARI VA
ULARNI BOSHQARISH USULLARI**

22.1. Bank riski tushunchasi va ularni keltiruvchi chiqaruvchi omillar.....	559
22.2. Tijorat banklari faoliyatidagi risklarning turlari va tasnifi....	566
22.3. Tijorat banklari faoliyatida risklarni baholash tartibi.....	574
22.4. Bank risklarini boshqarish usullari.....	576

**XXIII BOB. BANK REYTINGI VA UNI ANIQLASH
USULLARI**

23.1. Bank faoliyatini reyting baholash xaqida tushuncha va uning ahamiyati.....	585
23.2. Bank faoliyatini reyting baholash usullari va turlari.....	590
23.3. Xorijiy mamlakatlarda bank faoliyatini reyting baholash tartibi.....	601
23.4. Xorijiy banklar faoliyatini reyting baholash usullarini milliy bank tizimida qo'llash istiqbollari.....	616